M.S. SALAYEVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

DARSLIK



74.00 ya-7
S-12

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

M.S. SALAYEVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim
yo‘nalishlari uchun

DARSLIK

“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021

KBK: 74.00ya7
S 25
UO'K: 37.013(07)

ISBN 978-9943-7805-0-7

Salayeva M.S.
Umumiy pedagogika [Matn] : darslik / M.S. Salayeva. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 592 b.

Mazkur darslik pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'z ichiga pedagogikaning uchta – pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kurslarini qamrab olgan. Darslikda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari; pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan, pedagogikani ilmiy-tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari, didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi, ta'lim mazmuni, metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari va turlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, qonuniyatlari, turlari, pedagogika tarixi – eng qadimgi davrlardan to XX asr boshlarigacha pedagogik fikrlar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan mutafakkirlarning hamda jahon pedagogika fani namoyandalarining pedagogik merosi tasnifi, pedagogik mahorat, o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati, pedagogik takt va etika, nutq texnikasi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashning ahamiyatli masalalari batafsil yoritilgan.

Darslik pedagoglar va oliy o'quv yurtlari pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Umumiy pedagogika" fanidan tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir:
Solijon Hasanov – pedagogika fanlari doktori, professor, Turon Fanlar Akademiyasi akademigi.

Taqrizchilar:
M.E. Xaydarov – pedagogika fanlari doktori, professor.
X.I. Ibraimov – pedagogika fanlari doktori, professor.
S.U. Xodjaniyazov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli Qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.



© Salayeva M.S.
"Nodirabegim" nashriyoti, 2021.

KIRISH

Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak.

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Davlatimiz rahbarining bu purma'no so'zlari pedagog-o'qituvchilar va oliygoh domlasining mashaqqatli, shu bilan birga sharafli kasbini ulug'lab, ularning jamiyatdagi o'rni, qadr qimmatini yuksakka ko'targani qalbimizga shukuh bag'ishladi va o'z kasbimizga hurmat, ishonch, g'ayrat, shijoat, kuch-g'ayrat, tashabbus uyg'otdi. Shuning uchun, biz oliygoh professor-o'qituvchilari milliy pedagogikamizning yorqin shu'lasini, nurli siymolari qoldirgan nodir pedagogik merosini kelajak avlodga o'z holicha yetkazib berishni o'zimizning asosiy vazifamiz deb bilamiz.

Darhaqiqat, 1997-2014-yillarda D.Roziqov, S.Og'ayev, M.Mahmudova, B.Azizovlar tomonidan "Didaktika" darsligi (1997-y.), X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi" darsligi (2008-y.), M.Ochilov, N.Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi" darsligi (2008-y.), T.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyeva "Pedagogika" darsligi (2012-y.), U.Inoyatov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inomova "Pedagogika: 10000 ta savolga 10000 javob" (uslubiy qo'llanma, 2012-y.), N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov "Umumiy pedagogika (o'quv qo'llanma 2012-2013 yillar)" O.Hasanboyeva, R.Avazovaning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"o'quv qo'llanma (2013-y.), U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva "Pedagogika" darsligi (2012-y.), O.Yo'ldoshev, A.Abdurashidov, A.Eminov, M.Xoldorov, M.Yusupov, A.Nusratov, S.Isomitdinov, N.Ochilova "Umumiy pedagogika" (2019-y.) o'quv qo'llanmalari va darsliklarning nashr etilganligini ijobiy baholaymiz. Bu o'quv qo'llanmalar va darsliklar mazmunan hamda mohiyatan bir-biridan tubdan farqlanadi, o'qimishli va hammabopligi bilan o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 12-avgustda tasdiqlangan “Umumiy pedagogika” fani dasturi asosida yaratildi. Shuningdek, darslik 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi va 2020-yil 30-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan “Umumiy pedagogika” fanini o‘qitishning sifati va samaradorligini oshirishga, hech shubhasiz, yangi ufqlar ochib beradi. O‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash, joriy etish huquqi berilganligi sababli ham ushbu darslikda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari, pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to‘g‘risidagi fan ekanligi, pedagogika fani ilmiy-metodologik asoslari shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi, yaxlit pedagogik jarayon, didaktika, ta’lim mazmuni, metodlari va vositalari zamonaviy ta’lim texnologiyalari, tarbiya nazariyasiga umumiy tasnif, Pedagogika tarixi – eng qadimgi davrlardan XX asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar rivoji, jahon pedagogika fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan pedagog-olimlarning merosi, hozirgi davrda rivojlangan jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji batafsil yoritilgan.

Darhaqiqat, 2020-yil 1-oktabrda O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi **“O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”**, degan nutqida yangragan “Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g‘oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlari kerak. Hammamiz yaxshi tushunamiz, **uchinchi Renessans poydevorini yaratish** – besh-o‘n yilda bo‘ladigan ish emas. Buning uchun, avvalo, yuzlab, minglab iste’dodli kadrlar fidoyi shaxslar kerak. Keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim sohasidagi islohot orqali **O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini** yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik”[1], degan so‘zlari biz “Umumiy pedagogika” fani professor-o‘qituvchilari zimmasiga yanada ulkan mas’uliyat yuklaydi.

[1] Qarang: // Sh.Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 1-oktabr, 3-bet.

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim sohasiga katta e'tibor berila boshlandi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ta'lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga "Murojaatnomasi"da "Ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimi"ni yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda «ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi tamoyiliga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birgalikda "Murojaatnoma"da Umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun, barcha sharoitlarni yaratish lozim. Xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak. Oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur. O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'nggi ikki yilda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik. Lekin bu hali yetarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun

2019-yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish – muhim vazifamizdir. Oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim.Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi .Oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish kerak. Bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi" ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, yo'nalishlari, ta'lim mazmuni, ta'limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me'yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

- fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;
- har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi;
- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi;
- ta'lim muassasasining huquqiy maqomi;
- ta'lim tizimi va turlari;
- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- ta'lim tizimini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida alohida urg'u berilganidek, ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi - jamiyatda intellektual va ilmiy potensialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek, aholining

etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni g'oyalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi dunyoviy yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir*.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Ya'ni:

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy etish;

yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat

ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayonini qamrab olmay, shu bilan birga, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andaza, loyiha hisoblanadi.

Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.[2]

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan hamda ishlab chiqarishdan iborat.

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya

[2] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. - 34-bet.

olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

Davlat va jamiyat, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi: fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga; majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga; davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga; davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga; ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga; ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga; sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga[3] imkon beradi.

Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim O'zbekiston Respublikasining taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi. Uzluksiz ta'lim ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi, undan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik, axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi sanaladi.

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni

---

[3] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 31-bet.

belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi. «Ishlab chiqarishning talab- ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilangan. Mohiyatiga ko'ra ushbu tamoyillar mamlakat ta'lim konsepsiyasining asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining bosh g'oyasi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, milliy ta'lim tizimini jahon ta'lim standartlariga tenglashtirish, kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, erkin, mustaqil fikrlovchi, har tomonlama rivojlangan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mohiyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlarida, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirlik hamda idoralarning ta'lim mazmunini yorituvchi hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi, akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirish mexanizmi qonun bilan tasdiqlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ta'lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirish ta'lim mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek, tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga hamda o'quvchilarning xohishlariga ko'ra dars jadvaliga qo'shimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi, fakultativ mashg'ulot va to'garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik asosida yo'lga qo'yilishini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida, ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlariga bog'liq holda rivojlanib borishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (4-modda)da fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, xizmat turi, turar joyi, respublika hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar bilim olish huquqiga egaliklari aytiladi. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi.

Ushbu tamoyil, shuningdek, chet ellik fuqarolarning respublika hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaliklarini ham ifodalaydi. O'zRda istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda respublika fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo'ladilar.

Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (7-modda)da o'z ifodasini topgan. Davlat ta'lim standartlari (DTS) umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuni sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Biroq ta'lim muassasalari DTS asosida o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin.

Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, ta'limning barcha bosqichlarida bu tamoyilga to'la amal qilinadi. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi.

1993-yil 5-fevralda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoni, 1993-yil 25-martda «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi respublika Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar va aspirantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi. Stipendiya iqtidorli talabalarga har yili o'n bir ta'lim yo'nalishi - texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san'at, chet tillar, qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan tanlov yakunlariga ko'ra beriladi. Iqtidorli talabalar uchun, shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va Imom al-Buxoriy nomidagi stipendiyalar joriy etilgan.

Bundan tashqari, iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste'dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Ulug'bek», "El-yurt umidi" va boshqa jamg'armalar tashkil etilgan.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish ta'limni tashkil etish, sifatini oshirish, bunda davlat va jamiyatning hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. malaka

talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi».[4]

Ta'lim tizimi va turlari. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining II bobi "Ta'lim tizimi va turlari' deb nomlanib, uning 9-moddasida. Ta'lim tizimi haqida fikr yuritiladi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta'lim turlari. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (I—IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

---

[4] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 42-bet.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida, akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oily maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keying oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan

ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim.Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona muassasalari, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish. Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari nimalardan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" haqida ma'lumot bering.
3. Ta'lim tizimi va turlari deganda nimani tushunasiz?

2-MAVZU. PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO'G'RISIDAGI FAN. ILMIY PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Har qanday fan mustaqil fan maqomiga, o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga ega bo'ladi. Fan obyekti – bu aniq bir fan o'rganadigan borliqdagi biror bir qism, soha hisoblanadi. Pedagogika fanining obyekti va predmetini aniqlashga turli qarashlar mavjud. Pedagogika fanining obyekti sifatida keng ma'nodagi ta'lim qabul qilingan.

Pedagogika fanining obyekti bola, ya'ni yosh avlod, pedagogikaning predmeti esa bolaning, yosh avlodning tarbiyasidir. Pedagogikaning mustaqil fan sifatida tadqiqot predmeti maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida shaxsning shakllanishi va tarbiyalanishining nazariy va metodologik muammolaridir. Demak, pedagogika fan sifatida tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish bilan shug'ullanmaydi. Bu vazifalarni ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar amalga oshiradi. Pedagogika fan sifatida ta'lim, tarbiya, rivojlanish vositalarini yo'l va usullarini ko'rsatib beradi. Pedagogika fanining tuzilmaviy elementlarini quyidagilar tashkil etadi: obyekt, predmet, kategorial apparat, nazariya, faraz, metodlar va faktlar.

Fan obyekti ko'p aspektli fenomen bo'lganligi uchun, uning aniq bir tomoni fan predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli rus pedagog olimi V.V. Krayevskiy pedagogika fanining predmeti kishilarning o'zaro aloqasiga asoslangan, ta'lim-tarbiya jarayonlarining birligidan hosil bo'lgan bir butun pedagogik jarayon hisoblanadi deb ta'kidlaydi.

Har qanday fan predmeti uni kategorial-tushunchaviy apparati orqali ochib beriladi. Shuning uchun «kategoriya», «tushuncha», «atama» so'zlarini ma'nolarini farqlash maqsadga muvofiq.

Kategoriya (yunoncha. kategoria – aniqlovchi) – umumiy va fundamental tushuncha bo'lib, ilmiy-nazariy tafakkur xarakterini aniqlovchi va real borliq qonuniyatlarini va munosabatlarini, xususiyatlarini ifodalaydi.

Tushuncha – bu aniq mazmun bilan to'ldirilgan so'z yoki so'z birikmasidir.

Termin (atama) (lot. terminus - chegara) – maxsus soha doirasida real obyektni aniq belgilash va uni boshqa tushunchalar bilan munosabatini o'rnatishni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga quyidagilar kiradi: ma'lumot, tarbiya, ta'lim, pedagogik jarayon, o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini tarbiyalash. Ushbu kategoriyalarni ko'rib chiqamiz:

Ma'lumot – o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish natijasi va jarayoni, u asosida dunyoqarashni, axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarning shakllanishi, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi.

Tarbiya – shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishga va maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim – bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan jarayon bo'lib, uning natijasida shaxsni tabiiy qobiliyatlari rivojlanishi hamda uning shaxsiy va ijtimoiy sifatlari shakllanadi.

Pedagogik jarayon – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqadorligi asosida maxsus tashkil etilgan shaxsning ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi jarayon.

O'z-o'zini o'qitish – bilimlarni o'zlashtirish va izlash bilan bog'liq bo'lgan insonni maqsadga yo'naltirilgan faoliyat.

O'z-o'zini tarbiyalash – insonning o'zida xulq-atvor normalari, sifat va fazilatlarining shakllanishini anglagan va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

Har qanday fan o'z nazariyasiga, fundamental bilimlar tizimiga ega. Pedagogik nazariya – bu pedagogik hodisalarning aloqalari, qonuniyatlari, obyektiv mohiyati to'g'risidagi bilimlar tizimini ifodalaydi. V.V. Krayevskiyning fikricha, pedagogik nazariya pedagogik borliqni ayrim tomonlarini izohlovchi, tushuntiruvchi, tashxislovchi vazifalarni bajaradi.

Fundamental va xususiy pedagogik nazariyalar mavjud. Pedagogikaning fundamental nazariyalariga ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik tizimni boshqarish nazariyasi kiradi. Pedagogikaning xususiy nazariyasiga masalan, G.I.Shukina tomonidan asoslangan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi, M.I.Maxmutovning muammoli ta'lim nazariyasi, L.V.Zankov, V.V.Davidovlarning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, N.D.Xmelning pedagogik jarayonni bir butunligi nazariyasini kiritishimiz mumkin.

Har qanday nazariyani ishlab chiqishda faraz asosiy o'rinda turadi. Faraz – bu haqqoniyligi amaliyotda tekshiriladigan, nazariy asoslangan taxminlar yig'indisi.

Pedagogik faraz – bu borliqdagi hali ilmiy faktlar, metodlar, qonunlar yordamida tekshirilmagan, pedagogik hodisaga tegishli taxmin hisob-

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
INV. No

lanadi. Har qanday pedagogik faraz aniq usul va metodlar yordamida tekshiriladi.

Pedagogika faniga nisbatan nazariyachilarning uch xil qarashlari mavjud:

- pedagogika – insoniy bilimlarning predmetlararo sohasi hisoblanadi. Bunday yondashuv tarafdorlari pedagogikani mustaqil nazariy fan, pedagogik hodisalarni ifodalash sohasi sifatida inkor etadilar;

- pedagogika – ta'lim yoki tarbiya sohasida paydo bo'luvchi, vazifalarni hal etishga moslashtirilgan, ilmiy bilimlarni qo'llash funksiyasini bajaruvchi amaliy o'quv predmetidir. Pedagogik hodisalarni alohida tomonlari, tasavvurlari yig'indisi ushbu pedagogikaning mazmunini tashkil etadi;

- pedagogika – o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga ega bo'lgan mustaqil fandir.

Uchinchi nuqtayi nazar pedagogikani mustaqil fan sifatida qabul qiladi. Pedagogika musaqil fan sifatida ta'lim-tarbiya hodisalarini aloqadorliklarini o'rnatib, turli faktlarni umumlashtiradi.

U ta'lim-tarbiya ta'sirida nima uchun va qanday inson rivojlanishidagi o'zgarishlar ro'y beradi degan savolga javob beradi.

Pedagogikani fan sifatida aniqlash uchun uning tadqiqot predmetini aniqlash hamda «pedagogika nimani o'rganadi» degan savolga javob berish maqsadga muvofiq. Shuning uchun pedagogikaning obyektini va predmetini anglash zarur.

Fan obyekti – bu u yoki bu fan o'rganadigan borliqdagi soha hisoblanadi. Pedagogikaning obyekti jamiyatdagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida inson rivojlanishini ta'minlovchi borliq hodisasi hisoblanadi. Borliqdagi bunday hodisa ta'limdir. Ta'lim - davlat, jamiyat inson qiziqishlarini ifodalovchi maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Fan predmeti -bu obyektni ushbu fan nuqtayi nazaridan qarashdir.

Pedagogikaning predmeti ongli va maqsadga yo'naltirilgan tashkillashtirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Pedagogik jarayon deganda aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi hamkorligida maxsus tashkil etilgan, rivojlanuvchi, qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy sifat va fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon tushuniladi.

Pedagogika fani pedagogik jarayon mohiyatini, qonuniyatlarini, tamoyillarini, rivojlanish istiqbollarini va yo'nalishini o'rganib, uni tashkil etish nazariyasini va texnologiyasini ishlab chiqadi hamda

mazmunini shakllantirib, ta'lim-tarbiyaning yangi metod va usullarini, tashkil etish shakllarini yaratadi.

Demak, pedagogika bu ta'lim va tarbiya to'g'risidagi fan.

Pedagogika fanining bir necha funksiyalari mavjud.

Pedagogikani fan sifatida maqsadi – inson tarbiyasi to'g'risidagi bilimlarni to'plash va tizimlashtirishdan iborat bo'lib, vazifasi esa, inson shaxsining shakllanishini, mohiyati va qonuniyatlarini o'rganish, tarbiyaning maqsadini va vazifalarini aniqlash, tarbiya mazmunini ishlab chiqish, o'quv tarbiyaviy jarayonning tashkil etish shakllarini va metodlarini tadqiq qilish hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida barcha fanlar kabi quyidagi: umumnazariy, konstruktiv-texnik, tashxislovchi, amaliy funksiyalarni bajaradi.

Pedagogikaning umumnazariy funksiyasiga pedagogik jarayon qonuniyatlarini nazariy tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Pedagogika fani pedagogik faktlarni, hodisalarini, jarayonlarni tavsiflab, qanday qonuniyat va shartlar asosida kechishini tushuntirib, xulosalar chiqaradi. Pedagogikaning umumnazariy funksiyalari uch xil darajada amalga oshiriladi. Tushuntirish yoki izohlash, pedagogik tajribalarni o'rganish bilan bog'liq.

Pedagogika fanining konstruktiv texnik funksiyasi pedagogik jarayonni tashkil etish va uni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish va rejalashtirish. Pedagogikaning konstruktiv-texnik vazifasi ham uch xil darajada amalga oshiriladi:

loyihalash, uslubiy materiallarni ishlab chiqish bilan bog'liq;

qayta yaratish pedagogika fani yutuqlarini ta'lim amaliyotida joriy qilishga yo'naltirish;

refleksiv va korrektirovka qilish, ilmiy tadqiqot natijalarini ta'lim-tarbiya amaliyotiga ta'sirini baholash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tuzatish.

Pedagogika fanining tashxislovchi funksiyasi pedagogik borliqni rivojlanishini oldindan aniqlash bilan xarakterlanib, ilmiy asoslangan tashxis asosida yanada ishonchli rejalashtirishni amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Tarbiya sohasida ilmiy tashxisning o'rni beqiyos bo'lib, tarbiya o'z tabiatiga ko'ra kelajakka qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Diagnostik, pedagogik hodisalar holatini, o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash sharoitlarini aniqlash bilan ifodalanadi. Prognostik pedagogik borliqda eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish, prognostik daraja pedagogik hodisalar mohiyatini ochib

berishni nazarda tutadi. Ushbu darajada ta'lim va tarbiya nazariyalari, pedagogik tizim modellari yaratiladi.

Pedagogikaning amaliy funksiyasining mohiyati shuki, fundamental bilimlar asosida pedagogik amaliyot takomillashib boradi, yangi metodlarni, vositalarni, shakllarni, ta'lim tizimlarini, ta'lim tizimlarini boshqarishni ishlab chiqadi. Barcha funksiyalar aloqadorligi turli xildagi o'quv-tarbiyaviy muassasalardagi pedagogik jarayonning vazifalarini to'liq hal etishni ta'minlaydi.

Har qanday ilmiy bilimlar sohasining shakllanishi ushbu fan predmeti doirasidagi tushunchalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Ilmiy umumlashmalarni ifodalovchi asosiy pedagogik tushunchalar pedagogik kategoriyalar deb yuritiladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ma'lumot, pedagogik jarayon kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik jarayon - bu ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etish maqsadida kerakli vositalarni qo'llagan holda pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligi asosida maxsus tashkil etilgan jarayondir. Pedagogik jarayon maxsus tashkil etilgan mazmun va vositalar bilan bog'liq amalga oshiriladi. Pedagogik jarayondagi tarbiya mazmuni va vositasi hamda pedagoglar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ushbu tizimni dinamik xarakterga ega ekanligini ifodalaydi.

Ta'lim – bu o'qituvchilar va o'quvchilar hamkorligida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarni aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida maxsus tashkil etilgan jarayondir. Demak, ta'limning asosini inson kasb-kori uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Tarbiya bolaning butun hayoti davomida kechadigan, olingan bilim va tajribalari asosida xulq-atvor normalarining shakllanishi jarayonidir.

Ma'lumot esa, ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va umumlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan ilmiy dunyoqarashlar majmuidir.

Rivojlanish insondagi sifat va miqdor o'zgarishi bo'lib, uning ma'naviy, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, aqliy turlari mavjud.

Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy bilish nazariyasida «fan» tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. P.V. Kopninning ta'kidlashicha, fan - bu dunyoning ilmiy ko'rinishida yotuvchi, tekshirilgan va asoslangan bilimlar tizimi, alohida ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. V.P. Koxanovskiy fan deganda biz – bilimlar ishlab chiqaruvchi faoliyat (olimlar bilimi, tajribasi,

qobiliyati, ilmiy darajasi; ilmiy muassasalar, ularning vositalari) ni ilmiy tadqiqot ishlari metodlarini; ilmiy axborotlar tizimini, shu bilan birga bilimlarni tushunamiz – deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib fanning ko'rinishlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

- fan - bu bilimlarni o'zlashtirish manbai;
- fan - bu ijtimoiy institut;
- fan - bu o'quv predmeti yig'indisi;
- fan - inson faoliyati.

Fanning xususiyatlari:

- ijtimoiyligi, jamiyat talab va ehtiyojlari fanni rivojlanishini ta'minlaydi;

- tizimliligi, fan o'zaro aloqador elementlar tizimini ifodalaydi: obyekti va predmeti, o'ziga tegishli kategoriya va tushunchalarga egaligi va farazi, metodlari hamda faktlari mavjudligi;

- rivojlanuvchanligi, o'zgaruvchanligi, ya'ni dinamik xarakteri, fan uzluksiz amaliy tekshirilgan va ilmiy asoslangan bilimlar bilan to'ldiriladi. Har qanday fan – bu nafaqat bilimlar, balki bilimlarni ishlab chiqaruvchi jarayon hisoblanadi; insonning amaliy faoliyatlaridan biri bo'lib, predmeti ma'lum bilimlar sohasi hisoblanadi. Pedagogika fan sifatida yuqoridagi ko'rinishlarga va xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun, hech ikkilanmay mustaqil fanlar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Fanlar tizimidagi har qanday fanni o'rganish uning tadqiqot predmetini hamda uni rivojlanish tarixini o'rganishdan boshlanadi. Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatning yosh avlodni tarbiyalash ehtiyoji bilan bog'liq. Pedagogika so'zining lug'aviy ma'nosi qadimgi yunon tilidan «paydagogos» bola yetaklamoq ma'nosini anglatadi. Qadimda aristokratlarni bolalariga qarovchi, ularni maktabga olib borib keluvchi, ular bilan birga o'ynovchi qullar paydogogoslar deb atalgan. Keyinchalik bolalarni tarbiyalovchi va ularga ta'lim beruvchilar pedagoglar deb yuritila boshlandi. Ushbu so'zdan tarbiya to'g'risidagi fan pedagogika kelib chiqqan. Mustaqil fan sifatida pedagogika dastavval falsafiy bilimlar tizimidan ajralib chiqqan.

Pedagogika – bu ijtimoiy tajribani katta avlod tomonidan o'tkazish, yosh avlod tomonidan o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy asoslangan bilimlar tizimi shakllangunga qadar ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini ochish, izlash borasida murakkab va uzoq yo'lni bosib o'tdi.

Pedagogika yunoncha «paydos» – bola va «ago» – yetaklamoq so'zlaridan olingan bo'lib, tarjima qilinganda «bola yetaklamoq»

ma'nosini bildiradi. Qadimgi Gretsiyada xo'jayinning bolasini maktabga olib boruvchi unga maktabdagi mashg'ulotda va undan tashqarida qarovchi qulni pedagog deb ataganlar. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan pedagogning roli o'zgardi. Pedagogika so'zining ma'nosi o'zgarib keng ma'noda bolani hayot davomida o'qitish, tarbiyalash, ma'naviy va jismoniy rivojlantirish san'ati ma'nosida qo'llanila boshlandi.

Pedagogikaning elementlari jamiyat rivojlanishining boshlang'ich bosqichida tarbiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Dastlabki pedagogik fikrlar, qarashlar va g'oyalar xalq og'zaki ijodida paydo bo'ldi. Bizgacha ular topishmoq, maqol, aforizm, ko'rinishida yetib kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi bilan xalq tomonidan yaratilgan qarashlar maslahat, qoida, tavsiya ko'rinishida bo'lgan. Shunday qilib, xalq pedagogikasi paydo bo'ldi.

Quyida pedagogika tarixi yo'nalishining yirik namoyondasi A.J.Piskunov nazariyasiga asoslanib, butun dunyoda pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich insonlar tomonidan empirik yo'l bilan to'plangan pedagogik tajribalarni umumlashtirish bilan bog'liq. Ushbu tajribalar o'sha davrdan qolgan qo'lyozma manbalarda aks etgan.

Dastlabki maxsus ta'lim tizimlari eramizdan avvalgi 3 ming yillikda paydo bo'lgan. Ushbu ta'lim tizimlarida o'qitishning murakkab bo'lmagan shakl va usullaridan foydalanilgan: kattalarning namunasi - kichiklarning taqlidi; ko'rsatish

o'quvchilarning takrorlashi; buyruq - bajarish; talab - bo'ysunish. Kattalarni yoshlarga munosabati shu tarzda bo'lgan. Bu tajribalar nazariy jihatdan umumlashtirilmagan. Dastlabki yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozishga, o'qishga jadval yordamida o'rgatilgan. Alifbe harflarni o'rgatish orqali o'rgatilgan. Bolalar matnni mexanik ravishda yodlab, keyin aytib berganlar.

Ikkinchi bosqich tarbiya jarayonining tendensiya va qonuniyatlarini, mohiyatini ifodalovchi ko'rsatma va qoidalarni tizimlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda pedagogik bilimlar falsafiy va siyosiy bilimlarni bir qismi sifatida shakllangan.

Qadimgi yunon mutafakkirlari Pifagor (e. a. VI a.), Geraklit (e. a. 520-460-y.), Demokrit (e.a. 460-370-y.), Platon (e. a. 427-347-y.), Aristotel (e. a. 384-322-y.) lar o'zlarining falsafiy farazlari bilan birga o'qitish usullari va ta'lim mazmuniga oid pedagogik qarashlarini bayon etganlar. Qadimgi sharq sivilizatsiyasi (e. a. 5-4 ming yillik - V a.)da -Ikki daryo oralig'i, Misr, Hindiston, Xitoy - ta'lim shakli bo'yicha bebaho

tajriba qoldirgan. Masalan, qadimgi Mesopotamiya (e. a. 3m. y.) maktablarida suhbat, tushuntirish, ko'chirib yozish, mashq metodlari qo'llanilgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda qadimgi Hindiston maktablarida o'qitishning faol usullari qo'llanilgan: o'qituvchi o'quvchilar oldiga turli maqsadlar qo'yib, o'quvchilarni savollarga mustaqil javob berishga qiziqtirgan. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy maktabi mashhur bo'lib (Kun-Szi, e. a. 551-479-y.) unda o'qitishning turli usullaridan obrazlarga taqlid, dialog, taqqoslash, predmet va hodisalarni klassifikatsiyalash kabilardan foydalanilgan.

Pedagogika tarixi bo'yicha tadqiqotchilar ta'lim nazariyasining paydo bo'lishini qadimgi Rim oratori va oratorlik san'ati nazariyachisi Mark Fabii Kvintilian (ya. a. 35-96-y.) nomi bilan bog'laydilar.

Uchinchi bosqich - bu Yevropada o'rta asrlar maktablarining paydo bo'lishi.

To'rtinchi bosqich – Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrining buyuk vakillaridan ispan filosofi, psixologi, pedagogi X.L.Vives (1492-1540)ning ta'lim jarayoni muammolari, nemis pedagogi, klassik gimnaziya asoschisi I.Shturm (1507-1587) ning jamoada o'qitish to'g'risidagi fikrlari, italyan faylasufi va siyosiy arbobi T.Kampanella (1568-1639)ning tarbiya to'g'risidagi, ta'limda ko'rgazmalilikni qo'llash-ga doir tavsiyalari, fransuz mutafakkiri M.Monten (1533-1592) ning tajribani ta'lim vositasi sifatidagi tashviqotlariga doir g'oyalari, golland gumanisti E.Rotterdamskiy (1466-1536)ning mehnatga munosabat axloqiylikning mezoni sifatidagi qarashlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Beshinchi bosqich – bu pedagogikaning mustaqil ilmiy nazariya sifatida shakllanishi, chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning nomi bilan bog'liq. Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» (1628-y.) asarida pedagogik bilimlarni ilmiy fundamentini yaratishga harakat qildi va pedagogikani fan sifatida tizimlashtirdi.

Oltinchi bosqich – buyuk pedagoglar I.F. Gerbart (1776-1841), I.G. Pestalotsi (1746-1827), A.Disterveg (1790-1816) lar nomi bilan bog'liq, ular pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida didaktikaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar. Shvetsariyalik pedagog I.G.Pestalotsi - boshlang'ich ta'lim metodikasining asoschisi hisoblanadi; nemis pedagogi va psixologi I.F.Gerbart - ta'lim nazariyasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi; nemis o'qituvchilarining o'qituvchisi A. Disterveg -o'qitish qoidalarini ishlab chiqdi; ingliz olimlari E.Bell,

D.Lankasterlar hamkorlikda o'qitish amaliyotchilari va tashkilotchilari hisoblanadilar.

Yettinchi bosqich – pedagogika fanining mustaqil fan sifatida rivojlanishi D.Ushinskiy (1824-1870) faoliyati bilan bog'liq. U birinchilardan bo'lib, fiziologik, psixologik bilimlarga asoslangan yangi pedagogik tizimni yaratdi, ta'limni mantiqiy asoslarini ishlab chiqdi, ta'lim va tarbiyaning tamoyillarini asosladi.

Sakkizinchi bosqich – sobiq sho'ro tuzumi davrida pedagogikaning fan sifatida rivojlanish davri. 1917-1991-yillarda ta'lim tizimida tub qayta qurish yillari bo'lib o'tdi. Sh.I. Ganelin (1894-1974), D. Lordkipanidze (1905), B.P.Yesipov (18941967), M.A. Danilov (1899-1973), M.N. Skatkin (1900-1991), I. Ya. Lerner (1917-1996), Yu. K. Babanskiy (1927-1987) lar sho'ro davrining buyuk didaktlari hisoblanadi. Bu didaktlar pedagogikaning fan sifatida rivojlanishiga, ta'lim nazariyasini rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar.

Ta'lim amaliyoti va nazariyasida chet el pedagog olimlaridan amerikalik pedagog Djon Dyui (1859-1952) munosib iz qoldirib, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari va amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan. Chet el pedagoglaridan ta'lim nazariyasi sohasida pedagogik maqsadlar taksanomiyasini ishlab chiqqan amerikalik pedagog olim B. Blum (1913y.) nomi mashhur. Polshalik didaktshunos V. Okon (1914y.) - muammoli ta'lim, umumiy didaktika; amerikalik pedagog D. Bruner (1915y.) - ta'lim nazariyasi sohasidagi ishlari; Ingliz pedagogi N. Bennet (1920y.) – o'qitish stillariga xarakteristika; Polyak didaktshunosi Ch.Kupisevich (1924y.) - muammoli ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, ta'lim texnologiyasi, ta'lim nazariyasini ilmiy va amaliy jihatdan boyitganlar.

To'qqizinchi bosqich – 1990-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llashga qiziqishning oshganligi, ta'limda pedagogik texnologiyalarni va axborot kommunikatsiyalarni qo'llash masalasiga qiziqishning oshganligi bilan xarakterlanadi. Pedagogik innovatsiya, monitoring va pedagogik menejmentning nazariy asoslari tadqiq qilindi.

Respublikamiz pedagogika tarixi sohasidagi olimlarning tadqiqotlariga tayanib, O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanish tarixini 5 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lib, dastlabki pedagogik fikrlar o'zbek xalq ertaklarda, topishmoqlarda, afsonalarda, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi bosqich – sharq madaniyatining shakllanishi davriga to'g'ri kelib, sharq Renessans davri nomini olgan. Bu davrda arab musulmon dunyosining olimlari antik dunyoning ma'naviy dunyosini o'rganib, o'zlarining gumanistik dunyoqarashlarini shakllantirganlar.

O'zbek xalqining pedagogik g'oyalarining shakllanishiga Abu Nasr Forobiyning (870-950), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (970-1048) larning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari ta'sir qildi. Biroq O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari yagona bir tizimga keltirilmagan.

Uchinchi bosqich – o'zbek pedagogikasining shakllanishi Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondalari S.Aziziy, M.Behbudiy, A.Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov nomi bilan bog'liq.

To'rtinchi bosqich – 1924-yildan 1991-yilgacha O'zbekistonda pedagogika fani sobiq sho'ro pedagogikasi tizimida rivojlandi. Bu davrda quyidagi muammolar o'rganildi: o'quvchilar jamoasining shakllanishi, mehnat tarbiyasi, oila va maktab aloqadorligi, dasturlashtirilgan va muammoli ta'lim, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish va b. Ushbu bosqichda mamlakatimizda pedagogika fanini rivojiga S.Rajabov, Z.Mirtursunov, N.Takanayev, X.Tillashev, O.Muhammadjonov, A.Munavvarovlar munosib hissa qo'shganlar.

Beshinchi bosqich – 1991-yildan hozirgi davrgacha, Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanish davri. Bu davrda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'limni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish masalalari bilan bog'liq masalalar ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarida pedagogika fanining rivojlanishiga M.Ochilov, O.Roziqov, K.Hoshimov, B.Qodirov, S.Nishonova, O.Musurmonova, S.Mamajonova, B.Adizov, R.Safarova, R.Jo'rayev, U.Aleuov, S.Xasanov, M.Xaydarov, X.Ibraimov, N.Sayidahmedov, M.Quronov, F.Yuzlikayev, J.Yo'ldoshyev, O'.Tolipov, N.Egamberdiyeva, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, M.Salayeva, N.Erkaboyevalar hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, pedagogika fan sifatida rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tib, mustaqil o'quv predmeti sifatida shakllandi.

Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogika fanining obyektlari xilma-xil bo'lganligi sababli, ushbu obyektlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi pedagogika fani sohalari pedagogik fanlar tizimini tashkil etadi. Pedagogika fanining rivojlanishi natijasida pedagogik fanlar tizimi shakllandi. Ularga quyidagilar kiradi: umumiy pedagogika, maxsus

pedagogika, qiyosiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, yosh pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi va boshqalar.

Umumiy pedagogika – pedagogik borliqdagi pedagogik tizim ichida kechadigan ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlarining maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandir. Umumiy pedagogika pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, pedagogik menejment bo'limlaridan iborat. Ushbu bo'limlarni pedagogikaning mustaqil sohasi nuqtayi nazaridan qarasak, unda pedagogikaning umumiy asoslari – umumpedagogik jarayondagi ta'lim, tarbiya, rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini; ta'lim nazariyasi – umumpedagogik jarayondagi ta'lim jarayonining mohiyatini, didaktik qonuniyatlarini, tamoyillarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda tashkil etish shakllarini; Tarbiya nazariyasi - umumpedagogik borliqdagi tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, qonuniyat va tamoyillarini, metod va vositalarini; Pedagogik menejment esa pedagogik tizimni boshqarish qonuniyatlarini va tamoyillarini hamda boshqarish shakl va metodlarini o'rganadi.

Maxsus pedagogika – aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, tamoyillarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandir.

Ijtimoiy pedagogika – jamiyatning tarbiyaga, tarbiyaning jamiyatga ta'siri natijasida shaxsning ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini, mexanizmlarini, tamoyillarini, mazmunini, metod va shakllarini o'rganuvchi fandir.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og'zaki ijodidagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalarning mohiyatini, mazmunini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Yosh pedagogikasi – turli yoshdagi bolalarni individual va yosh xususiyatlarini inobatga olib, ularni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlardagi pedagogik g'oyalarni, ta'lim va tarbiya tizimi taraqqiyoti masalalarini pedagogika tarixi tadqiq qiladi.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini oliy maktab pedagogikasi tadqiq qiladi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarning nazariyalaridan ijodiy qo'llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko'rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar. Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to'g'risidagi fanlar inson shaxsining shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganishda yordam beradi.

Pedagogika psixologik bilimlar asosida samarali o'quv-tarbiyaviy tizimni yaratadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuvi pedagogik psixologiya fanining paydo bo'lishiga olib keldi.

Pedagogika mustaqil yetarli darajada rivojlangan, o'zining alohida tadqiqot sohasiga ega bo'lishiga qaramasdan boshqa fanlar bilan aloqada bo'lmasdan mavjud bo'la olmaydi. Tarbiyaviy faoliyat obyekti o'suvchi, rivojlanuvchi inson bo'lganligi uchun pedagogika birinchi navbatda insonni o'rganuvchi fanlar bilan aloqada bo'ladi.

Insonni jamiyat a'zosi sifatida ijtimoiy fanlar, biologik evolutsiya natijasi sifatida biologik fanlar, ongli, fikrlovchi mavjudot sifatida psixologik fanlar o'rganadi. Pedagogikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogika ijtimoiy fanlardan falsafa bilan uzviy bog'liq. Falsafiy ta'limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta'lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tayangan holda pedagogik izlanish yo'nalishlarini belgilab, ta'lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar. Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi.:

- tarbiya maqsadi muammosi;
- dunyoqarashning shakllanishi muammosi;
- jamoa va shaxs aloqadorligi;
- bilish nazariyasi bilan bog'liq gnoseologik muammolar.

Pedagogika shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi.

Pedagogika aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog'liq.

Pedagogika biologik fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Ular pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi.

Pedagogika buyuk rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonning ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi va funksiyalari to'g'risidagi fundamental ishlariga tayanadi.

Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish va dam olish tartibini ishlab chiqish inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to'g'risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg'ulotlarni tashkil etishning gigiyenik masalalarini o'rganuvchi maktab gigiyenasi muhim rol o'ynaydi.

Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to'ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin:

boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g'oyalardan pedagogikada ijodiy qo'llash va foydalanish;

boshqa fanlarda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan (matematik modellashtirish, sotsiologik so'rov)foydalanish;

psixologiya, fiziologiya, sotsiologya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo'llash;

kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

Pedagogika aniq tanlov asosidagi ma'lumot va faktlardan maxsus pedagogik qayta ishlovlardan so'ng foydalanadi.

Shunday qilib, pedagogika umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. U tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya konsepsiyalari ilmiy va umummadaniy qadriyat hisoblanadi.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. Pedagogik reallikni bilish, tushuntirish, uning rivojlanishini oldindan aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkaziladi. Pedagogik tadqiqot -bu ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, uning tuzilishi va mexanizmlari, mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari to'g'risidagi yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat natijasi va jarayonidir.

Pedagogik tadqiqotlar nazariy va tajriba-eksperimental xarakterda bo'lishi mumkin. Pedagogik tadqiqotlar yo'nalishiga ko'ra fundamental, amaliy va tavsiya (ishlanma) turlarga bo'linadi.

Fundamental tadqiqotlar natijasida umumiy konsepsiyaga ega, ya`ni pedagogikaning nazariy va amaliy yutuqlari xulosasi, pedagogik tizim tashxislash asosida uning rivojlanish modelini taklif qilishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy tadqiqotlar -bu pedagogik jarayonning alohida tomonlarini chuqur o'rganishga, pedagogik amaliyotning ko'p tomonli qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan ishdir.

Tavsiyalar ma'lum nazariyalarga tayanib, aniq ilmiy-amaliy tavsiyalarni asoslashga yo'naltiriladi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi talablarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Pedagogik hodisarlanngi obyektivligini hisobga olish (har qanday hodisa ichki obyektiv qonunlar, qarama-qarshiliklar ta'siri kuchi bilan rivojlanadi).

Pedagogik hodisa va jarayonlarni bir butunlikda o'rganish.

Hodisalarni rivojlanishida o'rganish.

Ushbu hodisalarni boshqa hodisalar bilan aloqadorligida o'rganish. Tadqiqot metodlarini alohida emas, kompleks tarzda tanlash.

Tadqiqot metodlarini o'rganilayotgan predmetga mos adekvat bo'lishi.

Axloqiy me`yorlarga mos kelmaydigan ta'lim-tarbiya jarayoniga yomon ta'sir qiluvchi xarakterdagi eksperimentlarni o'tkazishga yo'l qo'ymaslikdir.

Pedagogikaning metodologik tamoyillari:

Antropologik tamoyil – inson haqidagi barcha fanlarning ma'lumotlaridan tizimli foydalanish. Pedagogik jarayonni inson ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etish.

Madaniyatlilik tamoyili – ta`lim jarayonida madaniyat tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarning manbayi hisoblanadi. Madaniyat insonning rivojlanishini va uni ijodkor shaxs sifatida shakllanishini ta`minlaydi.

Milliylik tamoyili - ta'lim va tarbiyaning xalq mentaliteti va milliy an'analar asosida amalga oshirilishi.

Shaxsiy yondashuv tamoyili - pedagogik jarayonda shaxsni maqsad, subyekt, natija va uni samaradorligining asosiy mezoni sifatida qarash.

Faoliyatli yondashuv tamoyili - faoliyat shaxs rivojlanishining asosi, vositasi va hal etuvchi sharti. Pedagogik jarayon faoliyat turining xususiyatlari asosida qurilishi lozim.

Tizimli yondashuv tamoyili - pedagogik jarayon murakkab tizim sifatida va uning komponentlari o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi kerak.

Axborotli yondashuv tamoyili - axborot ilmiy-texnik va ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning zaxirasi hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda aniq ilmiy tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Pedagogik tadqiqot metodlari – bu ilmiy nazariyalarni qurilishi, bog'liqliklari, munosabatlari, qonuniy aloqalarini o'rnatish maqsadida ilmiy ma'lumotlarni olish yo'llaridir.

Pedagogikada psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, matematika fanlaridan kirib kelgan metodlardan tashqari pedagogikaning metodlari ham keng qo'llaniladi. Biz pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari deganda, yosh avlodning ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yo'l va usullarni tushunamiz.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda umumnazariy metodlar: analiz, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, modellashtirish; *sotsiologik metodlar:* anketa, intervyu, reyting; ijtimoiy psixologik metodlar: sotsiometriya, test, trening; *matematik metodlar.*

Pedagogik tadqiqot metodlari nazariy va amaliy (empirik) turlarga bo'linadi.

Tadqiqotning nazariy metodlari ilmiy faktlarni tizimlashtirish, kengaytirish, aniqlashni taqozo qilib, hodisalarni tushuntiradi va oldindan izohlab, olingan natijalarning ishonchliligini oshirib, mavhumdan aniq bilimlarga o'tishni, turli tushuncha va farazlar orasidagi aloqadorliklarni o'rnatib, asosiy va ikkinchi darajalilarini ajratadi.

Ayrim nazariy metodlarni tavsiflaymiz.

Analiz – hodisalarni alohida sifat va xususiyatlarga ajratish, ya'ni o'rganilayotgan butun bir hodisa yoki jarayonni fikran tarkibiy qismlarga bo'lish.

O'rganilayotgan hodisani turli aspektlar bo'yicha tahlil qilish mumkin. Har taraflama tahlil hodisaning mohiyatini chuqur ochib berishni ifodalaydi.

Sintez - hodisaning xususiyatlari va sifatlarini fikran jamlab butunni hosil qilish.

Sintez - bu nafaqat miqdoriy to'plash, balki mazmunan bog'lashdir. Agar hodisalar shunchaki bog'lansa, unda tizimli aloqadorliklar hosil bo'lmaydi.

Har qanday tadqiqotda analiz va sintez uzviy aloqada bo'ladi.

Taqqoslash – o'rganilayotgan hodisalar orasidagi o'xshashliklarni va farqlarini o'rganish.

Taqqoslashda taqqoslash asoslarini, ya'ni mezonlarini aniqlab olish maqsadga bog'liq.

Hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash uchun, avvalo, ularni asosiy belgilarini ajratib olish lozim. Taqqoslashning tarkibiy qismi hamisha analiz hisoblanadi, ayrim hollarda sintez ham qo'llaniladi.

Umumlashtirish – hodisa va jarayonlarning umumiy jihatlarini ajratish. Tadqiqotni umumlashtirish.

Hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash natijasida tadqiqotchi hodisalarning umumiy jihatlarini topib va u asosida bir fikriy guruhga birlashtiradi.

Modellashtirish – hodisa va jarayonlarni real va ideal modellar yordamida tadqiq qilish.

Induksiya, deduksiya – amaliy yo'llar bilan olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi mantiqiy metodlar. Induktiv metod xususiy fikrlardan umumiy xulosalarga borishni, deduktiv - umumiydan xususiy xulosalar chiqarishni ifodalaydi.

Tadqiqotning empirik (amaliy) metodlariga: ma'lumotlarni yig'ish va to'plash metodlari (kuzatish, suhbat, anketa, test); nazorat va o'lchash metodlari; ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari (matematik, statistik, grafik, jadvalli; baholash metodlari (o'z-o'zini baholash, reyting); tadqiqot natijalarini pedagogik amaliyotda qo'llash metodlari (eksperiment, tajribali ta'lim, masshtabli qo'llash).

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Pedagogikaning shaxs tarbiyasi va rivojlanishidagi o'rni qanday?

2.Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari haqida ma'lumot bering.

3. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot bering.

4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi qanday?

5. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish shakllari qanday?

3-MAVZU. SHAXSNING RIVOJLANISHI TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Individ, shaxs, individuallik tushunchasi. Pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi va ijtimoiylashuvi uchun samarali sharoitlarini yaratilishini o'rganadi. Bu sharoitlarni o'rganishdan oldin mavzuga tegishli asosiy tushunchalarni ko'rib chiqaylik. Ushbu tushunchalar inson, shaxs, individ, individuallik.

Odam – bu nutq va tafakkurga ega bo'lgan, mehnat qurollarini yaratuvchi va uni hayot jarayonida qo'llash qobiliyatiga ega, o'zida jismoniy va ma'naviy, tabiiy va ijtimoiy, irsiy va kashf qilingan xususiyatlarni ifodalovchi tirik mavjudot.

Shaxs - bu ijtimoiy rivojlanishning mahsuloti, mehnat, muloqot va bilish subyekti sifatida aniq tarixiy sharoitda yashab, ijtimoiy funksiyani bajaruvchi inson hisoblanadi. A.N.Leontevning fikricha, shaxs ijtimoiy-tarixiy va insonni ontogenetik rivojlanishi mahsuli hisoblanadi.

Individ tushunchasi insonning tug'ilishiga taalluqli bo'lib, aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikaga kirmaydi. Individuallik tushuncha sifatida individni boshqalaridan farqlovchi, ontogenez jarayonida shakllangan jismoniy va psixologik xususiyatlarni ifodalaydi. Individuallik insonning qobiliyatlarida va ehtiyojlarida, xarakterida va temperamentida ifodalanadi.

Mutaxassislar «odam», «individ», «shaxs», «individual» tushunchalarini qiyoslash natijasida odam individ sifatida tug'ilib, shaxs sifatida shakllanib, individuallik xususiyatlarini namoyon qiladi deb ta'kidlaydilar.

Quyida falsafa, psixologiya va pedagogikada rivojlanish, shakllanish, ijtimoiylashuv tushunchalarini farqlanishini ko'rib chiqaylik.

Rivojlanish deganda nima tushuniladi?

Ta'kidlash lozimki, rivojlanish – bu tabiat, jamiyat va insonni umumiy xususiyatlaridir. Rivojlanish tabiatda asta-sekinlik bilan va har xil o'zgarishlar bilan, jamiyatda evolutsion va revolutsion, insonda filogenez (insonni tarixiy rivojlanishi) va ontogenez (individning tug'ilgandan o'lguncha rivojlanishi) ko'rinishlarda amalga oshadi.

Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishi to'g'risidagi turli konsepsiyalar asosida pedagogik nazariyalar shakllanadi, ta'lim-tarbiyaning metodlari, vositalari, shakllari ishlab chiqiladi. Shaxsning tarbiyalanganligi shaxsni tashqi dunyoga va o'z hayotiga; insoniy qadriyatlarga (umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, fan-texnika yutuqlariga, ta'limga, ilmga, axloqqa, ozodlikka, aqliy-diniy

tenglikka); jamiyatga, vatanga, xalqqa, tarixga, tilga; hayotdagi muammo va qiyinchiliklariga; jamoaga, guruhga; ijtimoiy faollikka; odamlarga (do'stlik, insoniylik, halollik, tartiblilik, g'amxo'rlik); hayotdagi o'z imkoniyatlariga hamda o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

So'nggi paytlarda pedagogikada shaxsning rivojlanishi, shakllanishi tushunchalaridan tashqari shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiylashuv deganda, insonning jamiyat bilan aloqasi, shaxsni ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi jarayonida uni jamiyatga moslashuvi tushuniladi.

Ijtimoiylashuv insonni o'zi yashab turgan jamiyat me'yorlarini, qadriyatlarini, xulq-atvor normalarini, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy aloqalarini o'zlashtirishni aniqlaydi. Ijtimoiylashuv butun hayot davomida insonning muhit bilan maqsadga yo'naltirilgan aloqasida va stixiyali sharoitlarda amalga oshadi. Ongli nazorat qilinadigan ijtimoiylashuv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya shaxsga ta'sir etuvchilarni tartibga solib, uni ijtimoiylashuvini tezlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Qarama-qarshilik-bu qarama-qarshi tomonlarni nizolarda to'qnashuvidir.

Qarama-qarshiliklar, ichki va tashqi, umumiy va individual turlarga bo'linadi.

Ichki qarama-qarshiliklar insonning individual hissiyotida ifodalanib, o'zi bilan kelishmay qolganda hosil bo'ladi. Masalan, insonni yoshiga qo'yilgan talablari bilan o'z organizmi, o'z imkoniyatlari orasidagi qarama-qarshiliklar.

Tashqi qarama-qarshiliklar insonning boshqa odamlar bilan, jamiyat, tabiat bilan munosabatlarini stimullashtiradi. Masalan, o'quv muassasalarining talablari va o'quvchilar xohishi orasidagi qarama-qarshiliklar.

Umumiy qarama-qarshiliklar har bir odamni va barcha odamlarni rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar va obyektiv omillar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan real imkoniyatlar orasidagi qarama-qarshiliklar.

Individual qarama-qarshiliklar alohida olingan odam uchun xarakterli.

Qarama-qarshiliklarni bartaraf etish faoliyatning yuqori darajasi orqali amalga oshiriladi, ehtiyoj qondiriladi, qarama-qarshilik hal etiladi. Natijada inson yuqori rivojlanish pog'onasiga ko'tariladi. Ammo ehtiyoj qondirilganda, undanda yuqori ehtiyojlar tug'iladi. Mavjud qarama-qarshilik boshqasi bilan almashadi va rivojlanish davom etaveradi.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
INV. №4084/1

Tadqiqotchilar insonning rivojlanishini o'rganishi natijasida rivojlanish jarayoni va uning natijasi o'rtasidagi aloqalarni, qator bog'liqliklarni, ya'ni qonuniyatlarni aniqladilar.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- inson rivojlanishi ichki va tashqi sharoitlarni muvozanatlashtiradi;
- insonning rivojlanishi o'z-o'zini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z faolligi natijasida amalga oshadi;
- inson rivojlanishi faoliyatda kechishi;
- insonning rivojlanishi u ishtirok etayotgan faoliyat mazmuni va motivlariga bog'liq.
- insonning rivojlanishi ko'p omillar ta'sirida bo'lishi.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.

Inson shaxsini shakllanishiga tashqi va ichki, biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Omil – u yoki bu hodisa, jarayonni harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ichki omillarga faoliyat va muloqotdagi shaxsning shaxsiy faolligi, qiziqish va motivlari kiradi.

Tashqi omillarga tabiiy va ijtimoiy makro, mezo va mikroomillar hamda keng va tor ijtimoiy va pedagogik ma'nodagi tarbiya kiradi.

Muhit va tarbiya – bu ijtimoiy omillar, irsiyat esa – biologik omil hisoblanadi.

Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar orasida biologik va ijtimoiy omillar munosabatlari va ularning inson shaxsini rivojlanishidagi ahamiyati xususida munozara va muhokamalar bo'lib kelmoqda.

Amerika pedagog va psixologlari vakillari E.Torndayk, D.Dyui, A.Kobslarning ta'kidlashicha, inson ongini, qobiliyatlarini, qiziqish va ehtiyojlarini irsiyat aniqlaydi. Ushbu yo'nalish vakillari shaxs rivojlanishining asosiy omili irsiy, biologik omillar deb hisoblab, muhit va tarbiyaning rolini inkor etadilar. Odam shaxsi va xulq-atvorining shakllanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab qo'yuvchi biologik oqimning yana biri, bixeviorizm nazariyasidir. Ushbu nazariyaga amerikalik pedagog E.Torndayk asos solgan. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, ongi va aqliy qobiliyatlari ham nasldan naslga o'tadi. E.Torndayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi.

Progmatizm nazariyasining asoschisi D.Dyui shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazardan asosladi. U ham tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etib, rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb hisoblaydi. Odam nima bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida shu sifat

va xususiyat o'sib boradi. «Haqiqiy tarbiya tashqaridan kiritilgan narsa emas, u odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'stiradi» deb ta'kidlaydi D.Dyui.

D.Lokk, J.J.Russo, K.A.Gelvetsiylarning ta'kidlashicha, insonning rivojlanishiga muhit va tarbiya ta'sir qiladi. Ular inson rivojlanishida irsiyatning rolini inkor etib, yangi tug'ilgan bolani - «toza doska»ga qiyoslaydilar.

D. Didro «rivojlanish irsiyat, muhit, tarbiyaning o'zaro uyg'unligi ta'sirida aniqlanadi» deb ta'kidlaydi.

Taniqli rus olimi K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, insonda shaxsiy sifatlarning shakllanishi nafaqat irsiyat, muhit va tarbiya ta'sirida, balki shaxsiy faoliyati natijasida ham shakllanadi. Inson – nafaqat biologik omil va sharoit mahsuli, balki ushbu sharoitda faol ishtirokchidir. U o'zining sharoitini o'zgartirib o'zini ham o'zgartiradi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqaylik. Ayrim mualliflar shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil irsiyat deb hisoblaydilar.

Irsiyat – bu ota-onaning ayrim belgi va xususiyatlarini genlar yordamida farzandlarga o'tishidir. Irsiyat orqali bolalarga:

– anatomo-fiziologik tuzilma, insoniyat vakili sifatida individning tashqi xususiyatlarini ifodalovchi nutq layoqati, to'g'ri yurishi, tafakkuri, mehnat faoliyati;

– jismoniy xususiyatlari: tashqi milliy xususiyatlari, gavda tuzilish xususiyatlari, yuz tuzilishi, sochi, ko'zi, terisi rangi; fiziologik xususiyatlari, modda almashinuvi, arterial bosimi va qon guruhi;

– asab tizimi xususiyatlari: bosh miya qurilishi, uning ko'rish, eshitish, hid bilish sezgilari, odat va oliy asab faoliyati turini aniqlovchi asab jarayonlari xususiyatlari;

– organizmdagi anomal rivojlanish: daltonizm; irsiy kasalliklarga moyillik: gemofiliya (qon kasalligi), qandli diabet, shizofreniya, endokrin kasalliklar. Irsiyatdan tashqari shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muhit hisoblanadi.

Muhit – bu inson rivojlanishi amalga oshadigan real borliq. Shaxsning shakllanishiga geografik, milliy, maktab, oila muhiti ta'sir qiladi. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muloqot hisoblanadi.

Muloqot – bu shaxslararo munosabatlar shakllanishidagi, odamlar o'rtasidagi kontaktlarning rivojlanishi va shakllanishidagi shaxsning universal faolligi hisoblanadi.

Zamonaviy fiziologiya va psixologiya fani, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning rivojlanishiga va ro'yobga chiqishiga ta'sir etadigan imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi degan qarashni ilgari suradi. Layoqat shaxsning idrok, tafakkur, xotira, tasavvur kabi psixik xususiyatlarini individualligini ifodalaydi. Agar bolaning layoqatiga mos sharoit yaratib berilsa, bola zarur faoliyat bilan shug'ullansa, uning layoqati rivojlanishi, aksincha sharoit yaratilmasa, u yo'q bo'lib ketishi ham mumkin.

Shaxsning rivojlanishi faqat faoliyatda amalga oshadi. Inson hayoti davomida hamisha turli xildagi o'yin, o'quv, bilish, mehnat, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ijodiy, sport faoliyatida ishtirok etadi.

Faoliyat inson mavjudligining yo'l va shakli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

inson hayotining moddiy sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi;

tabiiy insoniy ehtiyojlarni qondirilishini ta'minlaydi;

tashqi dunyoni qayta shakllantirish va bilishni ta'minlaydi;

insonning ma'naviy dunyosini rivojlantirish omili hisoblanadi;

insonga hayotdagi maqsadlariga erishishlarida, imkoniyatlarini amalga oshirish vosita vazifasini bajaradi;

insonga ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxsning rivojlanishiga jamoa faoliyati katta ta'sir qiladi. Olimlar ta'kidlashicha, aniq sharoitlarda bir tomondan jamoa shaxsning zo'riqishlarini, ikkinchidan rivojlanishi va individualligi jamoada shakllanadi. Jamoa faoliyati shaxsni ijodiy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shaxsda g'oyaviy-axloqiy sifatlarni, fuqarolik hissini shakllanishida jamoa faoliyatining roli katta.

Shaxs rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. O'z-o'zini tarbiyalash o'z faoliyatini anglangan va qabul qilingan maqsadidan boshlanadi. Xulq va faoliyatning o'zi tomonidan aniqlangan maqsadi, ongli zo'riqishlarini hosil qilib, faoliyat rejasini aniqlaydi. Ushbu aniqlangan maqsad shaxs rivojlanishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, insonning rivojlanishi turli biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida amalga oshadi. Shaxsni rivojlantiradigan va shakllantiradigan omillar alohida- alohida emas, balki kompleks ta'sir qiladi.

Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari. Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga har xil yondashuvlarda qaraladi. «Falsafiy ensiklopediyada» rivojlanish harakatning yuqori turi sifatida, materiya va ongning o'zgarishi, bir xil sifatdan

ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o'tish sifatida qaraladi. Psixologiyada «rivojlanish» atamasi an'anaviy tarzda – progressiv (tizimning murakkablashuvi) yoki regressiv (tizimning o'zgarishi) o'zgarishlar bo'lganda qo'llaniladi, masalan, xotirani, diqqatni, hissiy sohalarni rivojlanishi v.b.

Pedagogikada rivojlanish deganda, shaxsdagi bir yosh davrdan ikkinchi yosh davrga o'tganda kuzatiladigan sifat va miqdor o'zgarishlar tushuniladi.

Shunday qilib, rivojlanish – bu insonning organizmidagi, ruhiyatidagi, aqliy va ma'naviy sohasidagi tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'siridagi miqdor va sifat o'zgarishlaridir. Insonning hayoti davomida biologik va ijtimoiy rivojlanish bo'lib o'tadi.

Biologik rivojlanish morfologik (bo'yi, og'irligi, hajmi.); biokimyo (qon tarkibi, suyak, muskul); fiziologik (ovqat hazm qilish, qon aylanishi, jinsiy rivojlanish) o'zgarishlari bilan bog'liq.

Ijtimoiy rivojlanish psixik (xotirani, tafakkurni, hissiyotni, xarakterni shakllanishi); ma'naviy (axloqiy shakllanish, ongning o'zgarishi); intellektual (bilimlarning kengayishi va chuqurlashuvi, aqliy o'sish) o'zgarishlar bilan bog'liq.

Insonning biologik, ijtimoiy rivojlanishi-bu ko'p omillar ta'sirida kechadigan murakkab, uzoq davom etadigan, ziddiyatli, jarayon. Shaxs rivojlanishining ko'rsatkichlari insonni dunyoga bo'lgan munosabatidagi, faoliyatidagi, xulqidagi, onggidagi sifat o'zgarishlari hisoblanadi. Rivojlanish natijasi - insonni biologik tur va ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Odatda, agar morfologik, fiziologik, psixologik o'zgarish ro'y bersa, rivojlanish atamasi, agar xulq-atvorda axloqiy, ma'naviy o'zgarishlar ro'y bersa, shakllanish atamasi qo'llaniladi.

Shunday qilib, inson dunyoga biologik mavjudot sifatida kelib, rivojlanish natijasida ijtimoiy munosabatlar va faoliyat subyekti sifatida shaxs bo'lib ijtimoiy mavjudotga aylanadi.

Shaxsning rivojlanish jarayonini turli falsafiy yo'nalish vakillari turlicha tushuntiradilar. Uch xil: biologik, sotsiologik, biosotsiologik konsepsiya mavjud.

Biologik konsepsiya vakillarining fikricha, shaxs bu tabiiy mavjudot, inson xulq-atvori tug'ilgandan ehtiyojlar, instinktlar asosida paydo bo'ladi, deb ta'kidlaydilar. (Freyd v.b.). Ularning fikricha:

Inson – tabiiy mavjudot.

Shaxsning ma'naviyati biologik asosga ega.

Insonning rivojlanishi va xulq-atvori tug'ilgandan boshlab ehtiyojlar, instinktlar asosida paydo bo'ladi.

Tarbiya rivojlanish jarayonini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Sotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik mavjudot sifatida tug'ilib, hayot faoliyati jarayonida asta-sekinlik bilan muhit ta'siri ostida ijtimoiylashadi. Muhit shaxs shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Tarbiya xarakterni tuzatishga xizmat qiladi.

Biosotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik va ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Psixik jarayonlar (sezish, his etish, tafakkur v.b.) biologik xarakterga ega.

Shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari, yo'nalishlari ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy muhit ta'siriga obyektiv va maxsus tashkil etilgan ta'sir natijasida shakllanadi.

Ya.A. Komenskiy tarbiyaviy ishda bolalarning yosh xususiyatlariga jiddiy e'tibor berishni talab qildi. Eslatib o'tamiz, u tabiatning muvofiqligi printsipini ilgari surgan va asoslagan, unga ko'ra ta'lim va ta'lim rivojlanishning yosh bosqichlariga mos kelishi kerak. Tabiatda hamma narsa o'z vaqtida sodir bo'ladi, shuning uchun tarbiyada hamma narsa o'z vaqtida va izchil ravishda o'tishi kerak. Shundagina inson tabiiy ravishda axloqiy fazilatlarga ega bo'lib, haqiqatni anglash uchun uning aqli kamolotiga yetgan haqiqatni to'liq o'zlashtirib olishi mumkin. "Assimilyatsiya qilinishi kerak bo'lgan barcha narsalar yoshga qarab taqsimlanishi kerak, shunda o'rganish uchun har bir yoshda idrok qilish mumkin bo'lgan narsalar taklif qilinadi", deb yozgan Ya.A. Komenskiy. Yoshga bog'liq xususiyatlarni hisobga olish asosiy pedagogik prinsiplardan biridir. Buning asosida o'qituvchilar o'quv yukini tartibga soladilar, turli xil mehnat turlari bo'yicha o'rtacha ish hajmini belgilaydilar va rivojlanish uchun eng maqbul kunlik, mehnat va dam olish jadvalini aniqlaydilar. Yosh xususiyatlari o'quv fanlari va ularning har biridagi materiallarni tanlash va tartibga solish masalalarini to'g'ri hal qilishga majburdir. Shuningdek, ular o'quv faoliyatining shakllari va usullarini tanlashni aniqlaydilar.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Individ" va "shaxs" tushunchalarini izohlang.
2. Shaxs rivojlanishining ijtimoylashuv bilan aloqadorligi qanday?
3. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni qanday?
4. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

II BOB. TA'LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)

4-MAVZU. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon – bu shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi va to'liq rivojlanishini, subyektlarning ijodkorligi va hamkorligini hamda birgalikdagi faoliyatlarini, ta'lim va tarbiyaning birligi va aloqadorligini xarakterlovchi yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayon. Demak, pedagogik jarayon pedagogik tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanib, uning mohiyati jarayon ishtirokchilarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tanlash va tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish bilan xarakterlanadi.

An'anaviy pedagogik ta'limotda ta'lim-tarbiya birligi, ya'ni yaxlit pedagogik jarayon g'oyasi XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Nemis olimi F.Gerbart pedagogika nazariyasini tarbiyalovchi ta'lim tushunchasi bilan boyitdi.

Rus pedagoglari K.D.Ushinskiy, P.F.Kapterev, A.P.Pinkevich, P.P.Blonskiylar tomonidan yaxlit pedagogik jarayon nazariyasi ishlab chiqildi. Biroq sobiq ittifoq davrida yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati mafkurasi ruhida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya masalalari nazariya va amaliyotda ajralib qoldi.

XX asrning o'rtalarida sobiq sho'ro pedagogikasida yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya aloqadorligi, pedagogik tajribalarda ta'lim va tarbiya birligi ikki aloqador jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Pedagogik jarayon yaxlitligi deganda, biz pedagogik jarayonning tashqi muhit *hodisalari bilan aloqadorligini, pedagogik jarayonning barcha o'zaro* aloqador subyektlari o'rtasidagi hosil bo'ladigan yaxlit jarayonni tushunamiz. Sobiq ittifoq davrida yaxlit pedagogik jarayon nazariyasining rivojlanishi V.A.Slastyonin ilmiy maktabi bilan bog'liq. Yaxlit pedagogik jarayon- pedagogik jarayon rivojlanishining oliy darajasi bo'lib, uning barcha komponentlarining aloqadorligini va birligini ifodalaydi. Yaxlitlik pedagogik jarayonning sintetik xarakteristikasi hisoblanib, ta'lim va tarbiyaning ajralmasligida namoyon bo'ldi.

Yaxlit pedagogik jarayonning tuzilmaviy komponentlariga: maqsad, mazmun, shakllar, pedagog faoliyati, metod va vositalar hamda o'quvchilar faoliyati, birgalikdagi faoliyat natijasi kiradi.

Pedagog faoliyati – mutaxassisning maxsus tayyorlangan faoliyati bo'lib, tarbiyachining kasbiy onggi va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalardan aniqlanadi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va vositalar maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilar yoki bolalar jamoasi faoliyati ham anglangan va anglanmagan maqsad va motivga ko'ra aniqlanadi. Bu yerda jamoaning har bir a'zosining shaxsiy maqsadi jamoa yoki o'qituvchining maqsadi bilan har doim ham mos kelavermaydi.

Yaxlit pedagogik jarayon quyidagi funksiyalarni bajaradi: yaxlit pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan o'quv reja va dasturlarda, metod va vositalarda, tarbiyachilar shaxsi va kasbiy mahoratida umuman, tarbiya makonida namoyon bo'ladi. Yaxlit pedagogik jarayonining ta'limiy funksiyasi asosan ta'lim jarayonida, barcha sinfdan tashqari ishlardagi ijodiy faoliyat va munosabat tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida umuminsoniy madaniyat elementlarini o'zlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Yaxlit pedagogik jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayonning tashkil etilishida amalga oshiriladi, ammo rivojlanish tezligi bilim, ko'nikma, malakalarga yoki o'quvchilarni bilish yoki motivni shakllantirish sohalariga e'tibor qaratilganligiga bog'liq. Pedagogik jarayonning ijtimoiylashtirish funksiyasi barcha ta'lim muassasalarida namoyon bo'ladi. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchi o'zi uchun yangi munosabatlarga kirishadi.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Pedagogik jarayonning dinamikligi qonuniyati. Pedagogik jarayon o'zgaruvchan xarakterda bo'lib, jarayonning boshlanishidan yakuniy bosqichgacha pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorliklarida ham bu hol sezilib turadi.

2. Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanish qonuniyati. Shaxs rivojlanishi tempi va erishilganlik darajasi irsiyatga, tarbiyaviy va o'quv muhitiga, o'quv-tarbiyaviy faoliyatga kirishuviga, pedagogik ta'sir ko'rsatishning metod va vositalariga bog'liq.

3. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qonuniyati. Pedagogik ta'sir samaradorligi pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi teskari aloqalarning tezligiga hamda tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asoslanganligiga va xarakteriga bog'liq.

4. Pedagogik jarayonda stimullashtirish qonuniyati. Pedagogik jarayon mahsuldorligi o'quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki stimul va

motivlariga hamda tashqi (ijtimoiy, pedagogik, axloqiy, moddiy) stimullarning tezligi va xarakteriga bog'liq.

5. Pedagogik jarayonda amaliyot, mantiq va hissiyot birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi hissiy bilish tezligi va sifatiga, mantiqiy fikrlar va o'zlashtirilgan materialni amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq.

6. Tashqi (pedagogik) va ichki(bilish) faoliyat birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi pedagogik faoliyat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv-tarbiyaviy faoliyati sifatiga bog'liq.

7. Pedagogik jarayonning bog'liqligi qonuniyati. Pedagogik jarayonning borishi va natijasi jamiyat va shaxs ehtiyojlariga, jamiyatning (moddiy-texnik, iqtisodiy) imkoniyatlariga, jarayonning (axloqiy-psixologik, sanitar-gigiyenik, estetik) shart-sharoitlariga bog'liq.

Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi. Tarbiya keng ma'noda – maxsus tashkil etilgan, ma'lum maqsadga qaratilgan ajdoddan avlodga o'tadigan ijtimoiy-madaniy tajriba va shaxs rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitdir. Tarbiya tor ma'noda esa bu yoshlarni jamiyat hayotining aniq vaziyatiga jalb etish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi bo'yicha kattalarning birgalikda olib boradigan aniq faoliyatini bildiradi.

Yangilanayotgan jamiyat o'z a'zolari o'rtasida birgalikda harakat qilishga, bag'rikenglik, o'zaro yordamga asoslangan yangi munosabatlarni shakllantiradi. Ijtimoiy munosabatlarning bu xil ma'naviy boyliklari ta'lim-tarbiya jarayonida to'la o'z ifodasini topishi kerak. Avtoritar pedagogikada o'zaro aloqalar o'qituvchining o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatishi, kattalarning faol harakati natijasida shaxs xulqida o'zgarish sodir bo'lishi, shuningdek, kattalarning tarbiyaviy ko'rsatmalariga tayyor turishi ta'kidlanar edi. Agar avvalgi pedagogika buyruq asosida va bir tomonlama ta'sir ko'rsatish prinsipiga amal qilgan bo'lsa, bugungi pedagogika birgalikda faoliyat ko'rsatish tamoyili asosida rivojlanmoqda. Bu faqat pedagoglarning yangi avlodi yetishib chiqqanligini, ularning pedagogik mahorati oshganligini nazarda tutmay, balki tegishli pedagogik vaziyatlarning rivojlanishini maqsad qilib qo'yadi.

Birgalikda harakat qilish, hamkorlikda ish yuritish demokratik tamoyillarga, hamkorlarning individual manfaatlariga mos keladi.

Pedagog va o'quvchi-talabalar o'rtasida shunday munosabatlar tizimini vujudga keltirish kerakki, bunda ularning birgalikdagi faoliyati natijasida ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyati yaratilsin, ishonch va

manfaatdorlikka maksimal darajada rioya qilinib, ta'lim jarayonida har bir ishtirokchi o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniga ega bo'lsin.

Ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirishni davom ettirishni ta'minlash lozim. Fuqarolik jamiyatini qurish fuqarolik asoslari – fuqarolik nuqtayi nazari, milliy qadr-qimmat va faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ta'lim jarayoniga maxsus tadbirlarni joriy etish zarurligini talab qilmoqda.

O'quvchi-talabalarning tug'ma qobiliyati va iste'dodini har tomonlama rivojlantirish, milliy va umumbashariy ahamiyatga molik dunyoviy, ma'naviy boyliklardan bahramand etish, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarida uyg'unlikka erishish, «Ustoz-shogird»likning tarixiy an'analari asosida samimiy munosabatlarni o'rnatish – ta'limni insonparvarlashtirishning negizini tashkil etadi.

O'quvchi-talabalarda estetik boy dunyoqarash, yuksak ma'naviyat, madaniyatga ijodiy fikrlashni shakllantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash ustuvorligini ta'minlaydigan professional – ta'lim dasturlari mazmunini shu asosda ko'rib chiqish – ta'limni ijtimoiylashtirishning mohiyatini tashkil etadi. Bunda o'quvchi-talabaning shaxsi, ijtimoiy faollikni rivojlantirish, mustaqillik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Yoshlarning yangi siyosiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari va dasturlarining joriy qilinishi ham ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish garovi hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatini barpo qilish ta'lim tizimiga fuqarolikni, faol fuqarolik nuqtayi nazari, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish uchun javobgarlikni yuklaydi.

Fuqarolik – bu umumta'lim va kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tarixiy va ma'naviy-axloqiy bilimlar majmui bo'lib, shaxsga: demokratik fuqarolik hamjamiyatda faol ishtirok etish; mustaqil va tanqidiy fikrlash; plyuralizm sharoitida mulohaza bilan harakat qilish; milliy g'urur va iftixorning shakllanishini ta'minlash, o'zini safarbar eta olish va boshqalarga ko'maklashish imkonini beradi.

Ta'lim tizimiga O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning fuqarolik saboqlarining shakllanishini ta'minlovchi maxsus o'quv kurslarini joriy qilish kerak. O'quv kurslarida ilk tarixiy manbalar, hujjatlar, tarix va adabiyot, til, fan asoslari, huquq va falsafani o'zaro bog'liq ravishda mamlakatning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Fuqarolikni tarbiyalash axloqiy negizlar va tabiiy intellektual salohiyatlar hamkorligini ta'minlashi kerak.

Yoshlar zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallar ekanlar, kelajakda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga faol kirishib ketadilar.

Globallashuv jarayonlarini e'tiborga olish bu alohida masala. Globallashuv yangi imkoniyatlar tug'diradi va shu bilan birga yangi muammolarni yuzaga keltiradi. U teng huquqlilik va barqarorlikni ta'minlash maqsadlarini shakllantirish va muvofiqlashtirishga ehtiyoj tug'diruvchi jarayonni yuzaga keltiradi. Globallashuv yangi boyliklarni yuzaga keltiradi hamda iqtisodiyot va jamiyatning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligini yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi. U axborot texnologiyalari sohasida o'ziga yo'l ochishga urinish, tovarlar va xizmatlar, kapital harakatchanligi hamda butun dunyoda qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirishga urinish, shuningdek, ta'lim ehtiyojlarida yangi texnologiyalarni qo'llash ta'siri asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida barcha subyektlar samarali ta'sir ko'rsatishlari uchun sharoit yaratishi va uning mexanizmlarini shakllantirish va ta'minlashi zarur. Amalda tizimning barcha tuzilmaviy elementlari bor. Bular – oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, fan va hokazo.

Shunday qilib, "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etishda *bag'rikenglik va hurfikrlilik tushuncha va tamoyillariga jiddiy ahamiyat beriladi.*

Insoniyat o'z tarixi davomida ushbu tushunchani turlicha talqin qildi, unga ma'lum mazmun berdi. Bizningcha, bag'rikenglik tushunchasiga buyuk Volter nisbatan aniq ta'rif bergan: «Men sizning fikringizga umuman qo'shilmayman, biroq men sizda unga ega bo'lish imkoniyati, o'z fikringizni yaratish va izhor qilishga muvaffaq bo'lishingiz uchun umrimni berishga ham tayyorman!».

Bag'rikenglik – ayniqsa, bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr iqtisodiyotning globallashuvi va harakatchanligi, kommunikatsiya tizimining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, integratsiya va bir-biriga bog'liqlik, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ijtimoiy tuzilmani qayta qurish bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda insoniy sabr-toqat talablariga rioya qilmaslik bitta davlat doirasi bilan chegaralanib qolmaydi, u global xarakterga ega bo'ladi.

Shu jihatdan 1995-yil BMTning 28-sessiyasida **«Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»** qabul qilinishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Unda, jumladan, BMTga a'zo mamlakatlar bag'rikenglikni shakllantirish bo'yicha tadbirlarni davlat darajasida amalga oshirishga da'vat etiladi. Deklaratsiya – asos bo'ladigan xalqaro hujjat, unda nafaqat

hozirgi zamon va kelajakda insoniyat birligi tamoyillari e'lon qilingan, balki, ushbu tamoyillarni tatbiq qilish yo'llari ham ko'rsatilgan. Ushbu hujjatdan, bizningcha, eng muhim bo'lgan joylarini keltiramiz.

BMT Deklaratsiyasi bag'rikenglikni qanday talqin qiladi? «Bag'rikenglik – bu dunyo madaniyatlarining xilma-xilligini, o'zini ifodalash shakllari va inson individualligining ko'rinishlarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishini anglatadi. Bag'rikenglikka bilim, ochiqlik, munosabat va fikr erkinligi, vijdon va qat'iy ishonch manba bo'ladi. Bag'rikenglik – bu hamjihatlik. Bu nafaqat ma'naviy burch, balki ham siyosiy, ham huquqiy ehtiyoj. Bag'rikenglik – bu yon berish emas, shafqat yoki, nojo'ya harakatlariga yo'l berish emas. Bu, eng avvalo, insonning universal huquqlarini tan olish asosida shakllanadigan borliqqa faol munosabatdir».

Deklaratsiya ko'rsatib o'tilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun qanday tardbirlarni tavsiya etadi? Fikrimizcha, muhim, samarali deb hisoblagan tadbirlardan biri: «Toqatsizlikning oldini olishning eng samarali vositalaridan biri, tarbiya hisoblanadi». Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash har bir fuqaroning huquqlari va erkinliklari nimalardan iborat, ushbu huquqlarni amalga oshirish va boshqalarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga o'rganishdan boshlanadi. Bag'rikenglik ruhida tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida qaraladi. U yoshlarda mustaqil fikrlash ko'nikmasi, axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tanqidiy fikr yuritish va mulohaza qilishni shakllantirishga ko'maklashishi lozim».

Bu fikrlar Milliy istiqlol g'oyasi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qoida va tamoyillari bilan uyg'unlashuvi va muvofiqlashuvini sezish qiyin emas.

Sabr-toqatlilik jamiyatning har bir fuqarosi, ijtimoiy guruhlar, partiyalar va turli ijtimoiy harakatlar, davlarlararo munosabatlar uchun ham xos bo'lishi kerak. Bu prinsipning amalga oshishi dogmatizmdan, haqiqatni mutloqlashtirish va monopollashtirishdan voz kechishni, huquqni va eng muhimi, inson erkinligini ta'minlashni taqozo etadi.

Ammo, sabr-toqatlilik ijtimoiy ma'noda haqsizlikka jimgina munosabatda bo'lishni, o'z e'tiqodidan voz kechishni, o'zgalarning g'oyasini ko'r-ko'rona qabul qilishni bildirmaydi. Boshqacha aytganda, har bir kishi o'z e'tiqodida erkin bo'lib, boshqalar ham shunday huquqqa egaligini tan oladi.

Bag'rikenglik ruhidagi ongni shakllantirish bilan birga diniy sabr-toqatlilikka ham alohida ahamiyat berish kerak. Diniy e'tiqod erkinligi

ijtimoiy hayotda hamjihatlik va totuvlik vaziyatini vujudga keltiradi, bir yerda, bir Vatanda yashovchi turli din vakillarining asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi. Qadimdan diniy ta'limotlar axloqiy prinsiplarni o'zida mujassam etadi. Zero, hamma dinlar muqaddas g'oyalarga asoslanadi, ezgulik, tinchlik, do'stlik, rahm-shafqat kabi insoniy fazilatlarga tayanadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim tizimini yosh avlodda bag'rikeng fuqarolik axloqini shakllantirish, millatchilik, ekstremizm, fundamentalizmning oldini olish vazifalarini hal qilishda aniq maqsadga yo'naltirish lozim deb hisoblaymiz. Aynan uzluksiz ta'lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar xavfini kamaytirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga qodir.

Jamiyatda bag'rikenglik, hurfikrlilikni shakllantirish, ekstremizmning oldini olish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish milliy istiqlol g'oyasi negizida yotuvchi kompleks vazifa hisoblanadi. Bu ko'plab vazirliklar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati idoralari va boshqarmalarning, jamoatchilik harakatlari va partiyalar negizida o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning milliy madaniy-tarixiy an'analar, xalqimiz urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish kerak.

Tarbiyaviy-ma'rifiy ishlarning mazmun, shakl, vosita va uslublarini bag'rikenglik tamoyillariga muvofiqlashtirib, ushbu faoliyatga, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, uzluksizlik va uzviylik xususiyatlarini berish lozim.

Tarbiyaviy-ma'rifiy ishlar yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va xulosa chiqarish malakasini shakllantirishga ko'maklashishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Yaxlit pedagogik jarayon deganda nimani tushunasiz.

2.Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari haqida ma'lumot bering.

3.Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi nimalardan iborat.

5-MAVZU. DIDAKTIKA – PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI. O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Amerikalik olim D.Dyui (1859-1952) asosiy e'tiborni ta'lim jarayonida bolaning faolligiga, qobiliyatini shakllanishiga qaratgan va didaktikada muammoli ta'lim nazariyasiga asos soldi. Ta'kidlash joizki, didaktikaning rivojlanishida O'rta Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Ulug'beklarning o'rni beqiyosdir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning maqsadi shaxsni yuqori darajadagi jismoniy, axloqiy, estetik va aqliy rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Ushbu maqsadga erishish mustaqil davlatimizning intellektual potensialini yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, uchinchi ming yillik ta'limini insoniyat faoliyatining zarur keng ko'lamli sohasi sifatida e'tirof etmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida milliarddan ko'p o'quvchilar, ellik million atrofida o'qituvchilar ishtirok etmoqdalar. XXI asrda ta'limni ijtimoiy rolini qo'shishi, kelajak jamiyatni yangi istiqbollarini aniqlanishi bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi.

Respublikamizda ta'lim sohasidagi qabul qilingan me'yoriy hujjatlar talablarida «ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va tamoyillarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari darsliklarini yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish» vazifasini hal qilish lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Aynan ta'lim jarayonida jamiyat kelajagi yosh avlodni shaxsiy, insoniy, ma'naviy sifatlari shakllanadi. Ta'lim jarayonining qonuniyatlarini va uni xususiyatlarini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi pedagogikaning sohasi didaktika hisoblanadi. Didaktika atamasi yunonchadan olingan bo'lib, «didaktikos», «didasko», «o'rgatuvchi», «o'rganuvchi» ma'nolarni anglatadi.

Didaktika ta'lim nazariyasi atamasi sifatida dastlab XVII asr boshlarida paydo bo'ldi. Didaktika atamasini pedagogikada birinchilardan bo'lib, nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571-1635) «o'qitish san'ati» ma'nosida qo'llagan.

U o'zining ma'ruza kursini «didaktika», «o'qitish san'ati» (1613y.) deb nomlagan.

XVII asr o'rtalarida E. Bodino «Didaktika» nomli kitobini nashr ettirgan.

Ingliz olimi Frensis Bekon (1561-1626) «Yangi organon» (1620) asarida fanlarni toifalash xususida fikr yuritib «didaktika» atamasini «badiiy asarni o'qish san'ati» ma'nosida ishlatgan.

Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy (1592-1670) «didaktikani» ilmiy bilimlar tizimi sifatida ifodalab o'zining «Buyuk didaktika» asarida didaktika atamasini keng «Hammani hamma narsaga o'rgatuvchi universal san'at» ma'nosida ishlatgan.

Ta'kidlash lozimki, Komenskiy bu asarida faqat ta'lim nazariyasi bilan cheklanib qolmadi. Uning mazmunini axloqiy tarbiya metodlari, intizom masalalari, ta'limni tashkil etish kabi masalalar bilan boyitdi. Boshqacha aytganda, Ya.A. Komenskiy «didaktika» orqali keng ma'noda «pedagogikani» tasvirlagan.

Shvetsar didakti I.G. Pestalotsi (1746) boshlang'ich ta'lim didaktikasiga va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasiga asos soldi.

Nemis pedagogi I.F.Gerbart (1776-1841) didaktikaning nazariy asoslarini yaratib pedagogikada birinchilardan bo'lib «tarbiyalovchi ta'lim» nazariyasini yaratdi.

Nemis pedagogi A.Disterveg (1790-1866) o'qitish tamoyillarini madaniyatga moslab o'qitish, mustaqil o'qitish usullari bilan boyitdi.

Didaktikani fan sifatida rivojlanishida K. Ushinskiy, A. Avloniy, V.Okon, Ch.Kupesevich, M.A.Danilov, M.Skatkin, I.Ya.Lerner, G.Klinberg, Yu.K.Babanskiylarning xizmatlari beqiyosdir.

Respublikamizda didaktikaning rivojlanishiga O.Roziqov, B.Adizov, N.Sayidahmedov, M.Ochilov, K.Zaripov, R.Safarova, F.Yuzlikayev, O'.Tolipovlar o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Yuqoridagi konsepsiyalar didaktikani o'qitish va o'qish nazariyasini o'rganuvchi fan sifatida tushunilishiga (qabul qilinishiga) ta'sir etdi.

Bir vaqtni o'zida didaktikani avlodlarga hayot tajribasini o'tkazish to'g'risidagi fan sifatida qarab kelinadi.

Taniqli bolgar pedagogi I.Marev didaktikaning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ifodalaydi:

Birinchi bosqich – Ya.A. Komenskiygacha bo'lgan davr. Bu davr ilmiy asoslanganlik davrigacha sifatida xarakterlanadi.

Ikkinchi bosqich – L.A.Komenskiydan kibernetikani (jarayonlarni boshqarish nazariyasi) paydo bo'lgungacha bo'lgan davr. Bu davr asosiy

qonun va qonuniyatlarning shakllanganligi bilan, pedagogik va didaktik nazariyalarni rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi bosqich – 1960-yillardan bugungi kungacha bo'lgan davr.

Mutaxassislar o'rtasida didaktika mustaqil fanmi? yoki pedagogikaning bir qismimi? – degan savol tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Masalan, M.A.Danilov, V.Okon, M.N.Skatkinlar didaktikani pedagogikaning bir bo'lagi sifatida qaraydilar. Bir guruh mutaxassislar didaktikani mustaqil fan sifatida qaraydilar. Hali-hanuz mutaxassislar bu masalada yagona fikrga kelganlari yo'q.

Yillar o'tishi bilan barcha atamalar eskirgani kabi didaktika atamasi ham eskirganini guvohi bo'ldik. XX asrning oxirlariga kelib mutaxassislar ichida «Didaktika» atamasi o'rnida «Ta'lim nazariyasi» atamasini qo'llash urf bo'ldi.

Biz ham didaktika atamasi o'rnida «ta'lim nazariyasi» atamasini qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida kim? kimni? nima? nimani? qanday? qayerda? qachon? nima? – kabi savollarga javob beradi.

Demak, ta'lim nazariyasi ma'lum bir jamiyatning ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ta'lim jarayonining qonuniyatlarini va uning xususiyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining mazmunini, pedagogik asoslarini aniqlaydi, ta'lim metodlari tizimini, o'quv-tarbiya muassasalarida ta'limni tashkil etish shakllarini ishlab chiqadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim nazariyasi nimani tadqiq etadi degan savolga javob beramiz.

Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini, tamoyillarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini, ta'limni tashkil etish shaklini, ta'lim natijasini tadqiq etuvchi fan.

Bizga ma'lumki, har qanday fan o'z tadqiqot obyektiga va predmetiga hamda ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lgandagina mustaqil fan deb e'tirof etiladi.

Ta'lim nazariyasining obyekti – ta'lim jarayoni.

Ta'lim nazariyasiga oid adabiyotlarda ta'lim nazariyasining predmeti turlicha talqin etiladi.

Bir guruh mutaxassislar ta'limni – tarbiyaning vositasi sifatida qaralishi, ta'lim nazariyasining predmeti deb tushunsalar, ikkinchi guruh mutaxassislar – ta'limning qonuniyati va tamoyillari uning maqsadi, ta'lim mazmunining ilmiy asoslari, ta'limning metod, vosita, shakllari ta'lim nazariyasining predmetidir deb hisoblaydilar.

Uchinchi guruh mutaxassislarning fikricha, ta'lim nazariyaning predmeti o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi, o'zaro aloqadorligidir.

To'rtinchi guruh mutaxassislar ta'lim nazariyasining predmeti ta'lim jarayoni amalga oshiriladigan shart-sharoitdir deb ta'kidlaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonini maqsadini, qonuniyatini, tamoyilini, metodini, shaklini o'rganadi. Bu ta'lim nazariyasi nimani tadqiq etadi degan savolga javob beradi.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan psixologik va fiziologik qonuniyatlar ham mavjud. Demak, ta'lim bir vaqtning o'zida boshqa fanlarni ham (psixologiya, fiziologiya) obyekti bo'la oladi.

Fan metodologiyasi bo'yicha mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, fan obyekti – bu tadqiqotchining bilish faoliyati yo'naltirilgan borliq sohasidir, fan predmeti esa, tadqiqotchini fan nuqtayi nazaridan obyektni ko'rishi, ifodalashidir. Turli fan vakillari bir obyektni turli xil ko'rishadi.

Ta'lim jarayoni didaktni ham, uslubchini ham, psixologni ham informatika, kibernetika bo'yicha mutaxassisni ham obyekti bo'lishi mumkin. Ammo har birini tadqiqot maqsadi, tadqiqotdan kutilgan natijalari har xil bo'ladi. Ta'lim nazariyasi ta'limni ijtimoiy tajribani o'tkazish vositasi sifatida qaraydi. Ta'lim natijasida tajribaning bir qismi ma'lumot mazmuniga kiritiladi va ta'limni mazmunini tashkil etadi. Ta'lim yordamida kelajak avlodni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim nazariyasining predmetini ifodalaymiz. Ta'lim nazariyasining predmeti – bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi aloqadorlikdir.

Ta'lim nazariyasining vazifalari.

Ta'lim nazariyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

– ta'lim jarayonining mohiyatini, qonuniyat va tamoyillarini tadqiq qilish;

– ta'lim mazmunining pedagogik asoslarini aniqlash;

– o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish qonuniyatlarini tadqiq qilish;

– yangi ta'lim texnologiyalarini, tizimlarini, ta'limni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar ta'lim nazariyasining predmetini aniqlashda ta'kidlab o'tildi. Ta'lim nazariyasi o'z vazifalarini bajarishda falsafa, psixologiya, kibernetika fanlarini yutuqlaridan ham foydalanadi. Aynan kibernetika ta'lim nazariyasida dasturlashgan ta'limni ishlab chiqilishiga ta'sir etdi.

Ta'lim nazariyasi o'quvchilarni yosh, individual, ruhiy xususiyatlarini inobatga olib ta'lim maqsadini shakllantiradi. Ta'lim nazariyasi falsafani tabiat, jamiyat va insoniyatning rivojlanishini umumiy qonunlari to'g'risidagi bilimlariga tayanadi.

Didaktika — bu ta'lim uning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari to'g'risidagi fan.

Rus didakshunos olimi V.I.Andreyev bu ta'rif to'liq emasligi haqida fikr yuritib, birinchidan, ta'limning bir necha asoslangan va samarali ta'lim nazariyalari mavjudligini bularga: rivojlantiruvchi, muammoli, modulli, tabaqalashtirilgan, kompyuterli ta'lim turlari va nazariyalari. Ikkinchidan, ta'lim nazariyasida oxirgi paytlarda ta'lim texnologiya darajasida talqin etilayotganligini izohlab, didaktikaga quyidagi turlarni ko'rsatib o'tadi:

Didaktika- bu ta'lim nazariyasi va ta'lim texnologiyasi to'g'risidagi fan. Didaktika fan sifatida o'z predmetiga ega. Didaktikaning predmeti – *ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari, uning maqsadi, ta'lim mazmunining* ilmiy asoslari, metodlari, vositalari, shakllari, natijasidir.

Didaktika umumiy va xususiyga bo'linadi. Umumiy didaktika ta'lim jarayonining qonuniyatlarini o'rganib, ta'lim natijasini tahlil etadi, ta'lim metodlari, ta'limni tashkil etish shakllarini va vositalarini aniqlaydi.

Xususiy didaktika turli o'quv predmetlarini o'qitishda ta'lim qonuniyatlarini, mazmunini, metod va shakllarni o'rganadi.

Didaktika fan sifatida quyidagi muammolar bilan shug'ullanadi:

Nima uchun o'qitish kerak? (ta'lim maqsadi).

Kimni o'qitish? (ta'lim subyektlari).

Samaradorlikni ta'minlovchi ta'lim strategiyalari? (ta'lim tamoyillari).

Nimani o'qitish? (ta'lim mazmuni).

Qanday o'qitish? (ta'lim metodlari).

Ta'limni qanday tashkil etish? (ta'limni tashkil etish shakllari).

Ta'limda qanday vositalar qo'llaniladi? (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kompyuter dasturlari, didaktik materiallar va b.).

Ta'lim natijasida nimaga erishiladi? (ta'lim natijasini xarakterlovchi mezon va ko'rsatkichlar).

Ta'lim natijasi qanday nazorat qilinadi va baholanadi? (ta'lim natijasini baholash va nazorat qilish metodlari).

Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida o'z obyekti va predmetiga ega bo'lganidek, o'z kategoriyalar tizimi (ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'qish, bilim, malaka, ko'nikma,

hamda ta'lim maqsadi, tamoyili, mazmuni, metodi, shakli, natijasi)ga ega. So'nggi paytlarda didaktik tizim va ta'lim texnologiyasi kategoriyalari ham qo'llanilmoqda.

Ta'lim – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lum bir maqsadga erishish uchun, ushbu maqsad talab etgan mazmunni u yoki bu metodlar yordamida aniq shakllarda yetkazib beriladigan va natijaga ega bo'lgan jarayon.

O'qitish – ta'lim maqsadini amalga oshiruvchi o'qituvchini o'rgatuvchilik faoliyati.

O'qish – o'quvchini o'rganuvchilik faoliyatidir.

Ma'lumot – ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim, malaka, ko'nikmalar tizimidir.

Bilim – tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishi.

Ko'nikma – ilgari olingan tajriba asosida harakatni bajara olish qobiliyati.

Malaka – yuksak darajada o'zlashtirishni xarakterlovchi harakatdir.

Maqsad – kutilgan, lekin erishilmagan natija.

Ta'lim tamoyili – ta'lim jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan talab va qoidalar yig'indisi.

Ta'lim mazmuni – o'qituvchi tomonidan berilishi, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar tizimi va axloqiy g'oyalar to'plamidir.

Ta'lim metodi – ta'lim maqsadiga erishish yo'li va usuli.

Ta'lim shakli – o'quvchilar miqdori, joy va vaqt bilan bog'liq bo'lgan ta'limni tashqi ko'rinishidir.

Ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish uchun ta'lim nazariyasining asosiy tushunchalarini: ta'lim, ta'lim jarayoni, o'qish, o'qitish farqlash zarur. Ta'lim nazariyasida ushbu tushunchalarga berilgan yagona ta'riflar mavjud emas.

«Ta'lim – bu maqsadga yo'naltirilgan, boshqariladigan jarayon «bunda» o'qituvchi bilimlarni o'rgatadi, topshiriqlar beradi, bilimlarni ongli o'zlashtirish, mustahkamlash va qo'llash metod va usullarini o'rgatadi, bilim, ko'nikma, malaka sifatini tekshiradi. U hamisha o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qayg'uradi.» (B.P.Yesipov).

«Ta'lim deganda biz o'qituvchilarni o'quvchilar bilan bilimlarini mustahkamlash va o'zgartirishga asoslangan tizimli va rejali ishlarini tushunamiz» (V.Okon).

«Ta'lim – o'quvchilarni ilmiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish, ijodiy qobiliyatlari, dunyoqarashlari, axloqiy-estetik qarashlari bo'yicha faol o'quv-biluv faoliyatini stimullashtirish va tashkil etish jarayoni» (E.S.Rapatsevich).

Ta'lim tushunchasi turlicha talqin qilinishiga qaramasdan, uning umumiy xususiyatlari mavjud. Krivshenko tomonidan ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan. Ta'lim deganda, biz o'qituvchi rahbarligidagi o'quvchining maqsadga yo'naltirilgan faol bilish faoliyatini tushunamiz. Buning natijasida o'quvchilar ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirib, o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlari shakllanadi, bilish va ijodiy qobiliyat va ehtiyojlari hamda o'quvchilar shaxsini axloqiy fazilatlari rivojlanadi.

Ta'lim jarayoniga mutaxassislar turlicha ta'rif beradilar:

«Ta'lim jarayoni – bu o'quvchini o'qituvchi rahbarligida bilimlarni o'zlashtirish yo'lidagi harakati» (N.V.Savin).

«Ta'lim jarayoni – o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni rivojlantirish hamda tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining birligini ifodalaydi» (G.I.Shukina).

«Ta'lim jarayoni – bu o'quvchilarni o'qitish vazifalarini hal etiladigan o'qituvchi va o'quvchining maqsadga yo'naltirilgan aloqadorligidir» (Yu.K.Babanskiy).

Ta'lim jarayonini turlicha talqin etilishi ushbu jarayonni murakkab jarayon ekanligidan dalolat beradi. Agar yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirsak, ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchi rahbarligida o'zining bilish faoliyati motivlarini anglashi, borliq to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishi natijasida ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, har tomonlama aqliy va axloqiy jihatdan kamol topishini ifodalanishini ko'ramiz. Ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan quyidagi xususiyatlarni uchratishimiz mumkin a) maqsadga yo'nalganlik; b) bir butunlilik; d) ikki tomonlamalik; e) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining birligi; f) o'quvchilarni rivojlanishi va tarbiyasini boshqarish; g) ushbu jarayonni boshqarish va tashkillash.

Ta'lim jarayoni o'quvchining o'qish va o'qituvchining o'qitish faoliyatlaridan tashkil topgan. O'qish – bu o'quvchini o'qituvchi vazifalari va shaxsiy bilish ehtiyojlari asosi bo'yicha ilmiy bilimlarni o'zlashtirishini ifodalovchi maqsadga yo'nalgan, faol, ongli, bilish faoliyati hisoblanadi.

O'qitish -bu o'qituvchining o'quvchilarda ijobiy o'qish motivlarini shakllantirish, holdisa va jarayonlarni o'zlashtirishlarini tashkil etish, o'zlashtirgan bilimlarini qo'llay olishlarini, bilimlarni mustaqil o'zlash-tirishlarini ta'minlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyati.

Shunday qilib ta'lim jarayoni quyidagi vazifalarni bajaradi:

O'quvchilarni o'quv-biluv faolligini stimullashtirish;

Bilish chtiyojlarini shakllantirish;

O'quvchilarni ilmiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish bo'yicha bilish faoliyatini tashkil etish;

O'quvchilarni bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

Ijodiy faoliyat va o'z-o'zini o'qitish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish axloqiy estetik madaniyatni tarbiyalash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Ta'lim jarayonining mohiyati. Har qanday ta'lim jarayonining metodolik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi. An'anaviy ta'lim jarayonining asosi materialistik bilish nazariyasi hisoblanib, obyektiv borliqni moddiyligini, uni o'zlashtirilishini ifodalab, bilish jarayonini mohiyatini ochib beradi. Materialistik falsafaga asosan bilish jarayoni – bu obyektiv moddiy borliqni bizning ongimizda aks etishidir. Ammo bu obyektiv reallikni ongimizda shunchaki aksi emas, bu jarayonlarni mavhumlashtirish, ilmiy tushunchalarni, qonun va qonuniyatlarning shakllanish jarayoni hisoblanadi. Bunda hodisa va jarayonlar, ularni ichki qonuniy bog'lanishlari mohiyati ochib beriladi.

Bizni o'rab turgan dunyoni bilishimiz sezgilardan boshlanadi. Obyektiv dunyoni bizning sezgi organlarimizga ta'siri his etishimiz va tasavvurlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun Jan Jak Russo sezgini bolaning birlamchi aqli deb hisoblagan.

Sezish tevarak-atrofdagi, narsa va hodisalarning sezgi organlarimiz-ga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir sezgi organ, ya'ni analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, hodisa va jarayonlarning ayrim sifatlarini idrok qiladi. Ya'ni real olamdagi narsa va hodisalarning sifatlarini sezishimiz mumkin. Sezishdan so'ng idrok qilishga o'tamiz. Idrok umuman tevarak-atrofimizdagi hodisa va narsa-larni ongimizda aks etishidir. Sezgilar singari idrok qilish ham tashqi narsa va hodisalar, ularning manbalari yo'qolishi bilan to'xtaydi. Bilish jarayoni sezish va idrok qilish bilan to'xtamaydi. So'ngra tasavvur qilishga o'tamiz. Tasavvurlar bosh miya po'stining silliqligi tufayli odamning ongida uzoq vaqt saqlanib qoladigan idrok va sezgilarning izidir. Tajriba vositasida insonda tasavvurlar ko'lami ko'payib boradi.

Tasavvurlar fikrlashda, tushunchalar tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvurlar muayyan umumlashmalaning mavjudligi bilan bog'liq. Sezishlar, idrok etishlar, tasavvurlar sezib bilishning tarkibiy qismi bo'lsa-da, ular ham real borliqni bilish muammosini to'laligicha hal qila olmaydi. Inson faqat tafakkur jarayonidagina biror jarayon va hodisa mohiyatini, munosabatning sababli bog'lanishlarini aniqlaydi va shu orqali voqelikni chuqur, to'liq, to'g'ri aks ettirishga erishadi. Tafakkur bilishning yuqori shakli hisoblanadi. Tafakkur I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, nerv bog'lanishlari yoki assotsiatsiyalarning hosil bo'lishidan iborat. Insonda analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi mantiqiy operatsiyalar yordamida tushuncha, fikr-mulohazalar hosil bo'ladi. Ularning oliy shakli qonuniyatlar yaratishdir. Jonli mushohada uchun birinchi signal sistemasi, abstraksiya uchun esa ikkinchi signal sistemasi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Abstrakt tafakkur voqelik bilan aloqada bo'lgan taqdirdagina bilimlarni chuqurlashtiradi. Birinchi va ikkinchi signal sistemalarining birligi bilimlarni chuqur va haqiqiy bilimlarga aylantiradi. Jonli mushohada va tafakkur hamisha insonning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak.

Inson tabiat va jamiyatdagi qonuniyatlarni ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimlarning qiymati, uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliyotdan kelib chiqib, amaliyotning o'zini yaxshi yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Ta'lim jarayonining metodologik asosi bilish nazariyasi, harakatlantiruvchi kuchi esa ziddiyatdir. Ziddiyatlar ta'lim jarayonining rivojlantirish va takomillashtirish manbaidir. Jamiyatning uzluksiz ta'lim tizimiga qo'ygan talabi bilan muayyan sharoitda ta'lim jarayonining imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu ziddiyat umuman ta'lim jarayonini, o'quv dasturlarini, ta'limning shakl va metodlarini takomillashtirishning muhim manbaidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan vazifa bilan o'quvchilarning bilimlari va aqliy rivojlanishi darajalari o'rtasidagi ziddiyat katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonidagi ziddiyatlarni hal etish eng maqbul ta'lim metodlari, vositalarini tanlashni taqozo etadi. O'qituvchilarning o'quv-biluv jarayonidagi turli ziddiyatlarni, bu ziddiyatlarni namoyon bo'lish sharoitlarini o'rganishi va darslarni tashkil etishda ularni hisobga olishi, ta'limni bolalar uchun yoqimli mashg'ulotga aylantirish

imkonini beradi. O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy me'yorlari ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari bilan bog'liq. Qonuniyat butun ichidagi qismlar o'rtasidagi obyektiv, takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlarni ifodalaydi. Pedagogikada ta'lim qonuniyatlari ta'lim jarayoni komponentlari maqsad, mazmun, metod, shakl, natija orasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A.Sorokin, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V.Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Pedagogikada umumiy va xususiy, ichki va tashqi, didaktik hamda o'quv-biluv, psixologik va tashkiliy qonuniyatlar farqlanadi. Ushbu qonuniyatlarga misollar keltiramiz.

Pedagogikada ta'lim maqsadi va mazmuni, jamiyatni shaxsni ma'lumot darajasiga qo'ygan talabiga bog'liq - bu umumiy qonuniyat. Pedagogikada ta'limning natijaviyligi o'quvchilarni ongli faoliyatiga bog'liqligi - bu xususiy qonuniyat.

Pedagogikada ta'lim samaradorliligi ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasiga bog'liqligi - bu tashqi qonuniyat.

Pedagogika bo'yicha o'quv materialini chuqur va izchil o'zlashtirilishi o'quvchilarning faolligi va mustaqilligiga bog'liqligi - bu ichki qonuniyat. Pedagogikada ta'lim natijasi o'quvchilarning ta'lim maqsadini anglaganligiga va qabul qilganligiga bog'liqligi - bu didaktik qonuniyat.

O'quv materialini o'zlashtirishning mahsuldorligi ta'limning muammoliligi darajasiga bog'liqligi - bu o'quv-biluv qonuniyati.

O'quvchilarning rivojlanishi darajasi ular munosabatda bo'ladigan odamlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi - bu ijtimoiy-psixologik qonuniyat.

Ta'lim jarayoni samaradorliligi jarayonni o'qituvchi tomonidan oqilona boshqarishi va tashkil etishiga bog'liqligi - bu tashkiliy qonuniyat.

Bundan tashqari, an'anaviy tarzda ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

Ta'limni jamiyat ehtiyojiga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida mazmunni maqsadga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida metod va shaklning mazmun bilan aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan metodlarga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olinishi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligini ta'lim sharoitlariga bog'liqligi qonuniyati.

O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unutmasligi kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining tamoyillari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, pedagogika fani o'qituvchisi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati natijasi turli qonuniyatlarni hisobga olishga bog'liqliligini tushunishi kerak.

Pedagogikada qonuniyatlar ta'lim tamoyillarini aniqlaydi. Ta'lim tamoyillari o'quv jarayoni qonuniyatlari va maqsadi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Tamoyillar – bu ta`lim jarayonini o`tkazish va tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablar va boshlang'ich g'oya hisoblanadi. Ta'limning barcha tamoyillari o'zaro aloqadorlikda bo'lib, tizim ko'rinishida umumdidaktik, tashkiliy uslubiy tamoyillardan tashkil topgan. Ta'limning didaktik tamoyillari bevosita pedagogik ta'lim tamoyillariga ham taalluqlidir.

Umumdidaktik tamoyillar – ta`lim mazmunini umumiy qonuniyat va maqsadga mos holda aniqlovchi, pedagogik nazariya, konsepsiyaning asosiy holatlarini ifodalaydi.

Bu quyidagi tamoyillar:

– ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarning birligi tamoyili pedagogik bilim, ko'nikmalar tizimini shakllanishini, shaxsiy sifatlarni, individual sifat va fazilatlarni rivojlanishini, kasbiy ahamiyatli qadriyatlarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi;

– ta'lim metodlari va mazmunining ilmiyligi tamoyili pedagogik amaliyot va zamonaviy ilmiy pedagogik bilimlar orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Bu aloqadorliklar pedagogikada ta'lim metodlarini tanlashni aniqlaydi; ta'limning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyili pedagogikani o'qitish jarayonida pedagogik bilimlarni real pedagogik jarayonda qo'llashni nazarda tutadi;

– tizimlilik va ketma-ketlik tamoyili o'qitish va o'qishni aniq tartibda amalga oshirishni taqozo etadi.

– ko'rgazmalilik tamoyili talabalarga pedagogika bo'yicha o'quv materialini chuqur va ongli anglagan holda qayta ishlash uchun, o'rganilayotgan pedagogik hodisa va obyektlarni obrazlarini ko'rsatishni taqozo etadi.

– onglilik va faollik tamoyili o'qish maqsadini mustaqil shakllantirishni, o'z ishini rejalashtirish va tashkillashtirishni, o'quv vazifalarini hal etish yo'llarini mustaqil topishni, o'zlashtirilgan bilimlarni ahamiyatini anglashni taqozo etadi.

Ta'limdagi faollilik - bu pedagogika bo'yicha ongli o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni natijasi sifatida namoyon bo'ladigan o'qishning aqliy va amaliy tomoni hisoblanadi:

– izchillik tamoyili bilimlarni talabalar xotirasida izchil mustahkamlanishini talab etadi;

– pedagogika mazmuni bo'lg'usi pedagog shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur;

– pedagogik ta'lim mazmuni pedagogika fanining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos bo'lishi kerak;

– pedagoglarni tayyorlash natijalari kasbiy-pedagogik faoliyat talablariga mos bo'lishi talab etiladi.

Tashkiliy-uslubiy tamoyillar - pedagogikani o'qitish jarayoni metodlari va tashkiliy shakllarini aniqlovchi holatlar. Bularni ko'rib chiqamiz:

– pedagogikada ta'lim jarayonining birligi va bir butunligi tamoyili, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birligi va o'zaro aloqadorligini ifodalaydi;

– talabalar o'quv ishida yakka va guruhli shakl va usullari;

– uyg'unligi tamoyili, pedagogika bo'yicha ta'lim mazmunini o'zlashtirish samaradorligi yakka, guruhli, jamoa shaklida amalga oshirilganda oshirilishini ifodalaydi;

– o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish tamoyili, hayotda pedagogik bilimlarni amaliy ahamiyatini ko'rsatishni, pedagogika sohasidagi yangi fan yutuqlarini o'quv materialiga kiritishni taqozo etadi.

O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. O'quv jarayoni qonuniyatlari va ziddiyatlari uning vazifalarini keltirib chiqaradi. Ta'lim jarayoni quyidagi vazifalarni bajaradi: ma'lumotli qilish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ta'lim jarayonining ma'lumotli qilish vazifasi tabiat,

jamiyat, texnika, inson to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, qobiliyatlarini o'stirish bilan xarakterlanadi.

Ta'lim jarayonining navbatdagi vazifasi rivojlantirishdir. Ta'limning ushbu vazifasi nutqning rivojlanish bilan, so'z zaxirasining ortishi bilan, tafakkurni, his-tuyg'uni, tasavvurni rivojlanishi bilan, qobiliyatning rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Bilimlar tizimini o'zlashtirish, shaxsni rivojlantirish o'quvchilarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonining tarbiyalovchi vazifasi o'quvchilarda mehnatsevarlikni, mas'uliyatli, axloqiy normalarni, estetik ideallarni, tafakkur madaniyatini shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Demak, o'qitishning asosiy ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalari, tashkiliy, strukturali, psixologik, integratsion, differensiatsion, konsultatsion, nazorat-tashxis, fasilitatsion, refleksiv vazifalar bilan boyitiladi.

O'qitishning ta'limiy vazifasi mohiyati pedagogik bilim, ko'nikma, malakalar tizimi shakllanishi va ularni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratish bilan ifodalanadi.

Rivojlantiruvchi vazifa o'quvchilar shaxsida fikrlash, hissiy, motivatsion, kommunikativ sifatlarini rivojlanishi uchun ta'limning aktiv metodlarini qo'llashda amalga oshiriladi.

Tarbiyalovchi vazifa o'quvchilarda intellektual, hissiy sifatlar hamda kasbiy- qadrli qarashlar, o'quv bilish faoliyati motivlari shakllanadigan turli faoliyatlarga kiritishda namoyon bo'ladi.

Ta'limning tashkillashtiruvchi vazifasi o'quvchilarni o'quv faoliyati va fanlarni o'qitish mazmunining sifati va ko'lami o'rtasidagi uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Ta'limning strukturalashtirish vazifasi har bir alohida mashg'ulot uchun o'quv predmeti bo'yicha o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish bilan xarakterlanadi.

Psixologik vazifasi o'quvchilarni ishlashlari uchun qulay sharoit yaratish bilan xarakterlanadi.

Integrativ-differensiativ vazifasi har bir o'quvchini qobiliyatini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda ifodalanadi.

Maslahat beruvchi vazifasi o'quv predmeti bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun individual va guruhli maslahatlarni tashkil etishni taqozo etadi.

Nazorat-tashxis vazifa o'quv materialini o'zlashtirish darajasi to'g'risidagi teskari aloqani ta'minlovchi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Tuzatuvchi vazifasi o'quvchilarni o'quv faoliyatini nazorat va baholash asosida boshqarish va tuzatishni ifodalaydi.

Refleksiv vazifa o'z harakatlarini anglashni, boshqalarni tushunishda namoyon bo'ladi.Ta'limning fasilitatsion vazifasi o'quvchilarga ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlarida metodik, psixologik va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni va yordam berishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, pedagogik jarayon o'zaro aloqador ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlaridan tashkil topgan jarayondir.

Ta'lim – bu maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan faoliyat bo'lib, unda o'quvchilarning bilim olishi, tarbiyalanishi, rivojlanishi amalga oshiriladigan, faoliyat va muloqot tajribasining alohida tomonlari o'zlashtiriladigan jarayondir.

Ushbu xususiyatlar umumiy xarakterga ega bo'lib, pedagogika ta'lim jarayoniga ham taalluqlidir

O'qitish – bu o'qituvchini o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatlarini boshqarish va tashkil etish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan hamda maxsus tashkillashtirilgan faoliyatidir. O'qitish maqsadi – har bir o'quvchini o'qishini samarali tashkil etish.

O'qish – bu o'quvchilarni maqsadga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi bilan bog'liq faoliyatidir. O'qish maqsadi – borliq to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, to'plash va o'zlashtirish. O'qish natijasi o'quvchilarni bilimi, ko'nikma va malakalarida hamda munosabatlarida ifodalanadi.

Shunday qilib, ta'limning barcha vazifalari o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Ta'limning asosiy tasnifi:

– subyektlarning o'zaro ta'siriga asoslangan ikki tomonlamaligi;
– tomonlar faoliyatini mazmun va jarayon birligi;
– maxsus bilish jarayoni;
– boshqaruvchanligi;
– shaxsning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilganligi.

1-shakl



1-rasm. Ta'lim jarayoni tuilishi.

Ta'lim jarayoni o'zaro aloqador: maqsad, mazmun, metod, shakl, natija komponentlari orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Tizimni shakllantiruvchi komponent maqsad hisoblanadi, boshqa komponentlar barchasi unga bog'liq bo'lib, ular bir butunlikni hosil qiladi.

Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. Ta'lim qonunlari, qonuniyatlari va tamoyillari muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammosi hisoblanadi. Ular ko'p marotaba mutaxassislar tomonidan muhokama qilinganligiga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu tushunchalarni chegaralari aniqlashtirilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Ta'lim qonuniyati – bu ta'lim jarayoni komponentlari, qismlarini orasidagi takrorlanib turuvchi aloqalaridir.

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

Qonuniyatlar – ta'lim jarayonida takrorlanib turadigan ichki bog'lanishlardir.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A.Sorokin, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V.Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unutmasligi

kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining tamoyillari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

«Prinsip – lotincha «principium» so'zidan olingan bo'lib, asos, boshlang'ich holat, asosiy rahbar g'oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma'nolarni anglatadi»[5]. Ilk antik falsafada birinchi ibtido sifatida suvni, havoni, olovni, tuproqni qabul qilganlar. Prinsipni esa zaruriyatning yoki hodisalar qonuniyatining ifodasi sifatida talqin qilishgan. Mantiqiy ma'noda prinsip tizimning tushunchasi, asosi bo'lib bu asos biron qoidani umumlashtirishdan va uni ayni abstraksiya qilib olingan sohadagi barcha hodisalarga joriy etishdan iborat.

Pedagogik ensiklopediyada: «Ta'lim tamoyillari bu ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tarbiyaning umumiy maqsadlariga muvofiq ravishda maktabdagi o'quv ishlarining tashkiliy shakllari, metod va mazmunini aniqlovchi didaktik kategoriyadir». Bu nihoyatda keng ma'noda berilgan ta'rif bo'lib, maktab faoliyatini to'laligicha qamrab olyapti, uning stratetik rivojlanishida asosiy poydevor, tayanch sifatida qabul qilinyapti. Bu holatni I.T.Ogorodnikov ham qayd etib, ta'lim jarayonining umumiy tavsifidan asosiy ko'rsatmalar kelib chiqishini uqtiradi: «maktab ta'lim jarayonini o'tkazishni aniqlovchi asosiy ko'rsatmalar ta'lim tamoyillari deb nomlanadi».[6]

Didaktshunos olim M.N. Skatkinning ta'kidlashicha, «ta'lim tamoyili bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyati asosida, zarur bo'lgan natijaga olib keladigan qoidani keltirib chiqaradi».[7]

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati va o'quvchining o'rganuvchilik ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar o'qitish jarayonida didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi. Ta'lim tamoyillari – bu ta'lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda o'qitish qonunlaridan foydalanish usullarini xarakterlovchi didaktik kategoriyadir. Ma'lumki, har qanday fan borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning obyektiv qonun va qonuniyatlarini ochish bilan shug'ullanadi. Bu qonunlar insonga tabiat va ijtimoiy hayotning rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bu qonunlar amaliy xatti-harakat uchun ko'rsatma bo'la olmaydi, balki ular amaliy faoliyat texnologiyasi va qoidalarini ishlab

---

[5] Словарь ин. слов. – М., 1955. –563 с.

[6] Огородников И.Т., Шимбирев П.Н. Педагогика. – М.: Уч. Пед., 1950. –108 с.

[7] Скаткин М.Н. Дидактика средней школы. – М.: Просв., 1982. – 117 с.

chiqish uchun nazariy asos hisoblanadi. O'quv jarayonining obyektiv rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llaydigan tamoyil va qoidalar ishlab chiqiladi. Bu yerda o'zaro bog'liq uchta tushuncha «qonuniyat», «tamoyil», «qoida»ga urg'u berilyapti.

Ta'lim tamoyillarida ta'limning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ular asoslanmaydigan toifaga mansub bo'lib, o'quv amaliyotining yoyilishidan kelib chiqishi va o'zida o'quv jarayonining qonuniyatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak, tamoyil o'quv jarayonining umumiy yo'nalishini va asosiy talablarini aniqlashtirib beradi. Yoxud tamoyil tushunchasi «nima uchun» yoki «qanday o'qitish kerak» degan savolga to'laqonli javob beradi.

B.N.Savin o'rganilayotgan muammoga o'quvchini tarbiyalash maqsadi mavqeidan yondashadi: «Ta'lim tamoyillari tarbiya maqsadlariga va o'qitish jarayoni qonuniyatlariga muvofiq tarzda dars berish va o'qitish jarayonini belgilashga xizmat qiluvchi asosiy rahbar qoidalardir».[8]

Maktabda ta'lim jarayoni o'zining umummetodik va didaktik tamoyillariga ega. O'qitish nazariyasi ta'limning umumpedagogik va ruhiy - fiziologik asoslarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etishda amal qiladigan asosiy metodik ko'rsatmalar ekanligini didakt olim D.O.Lordkipanidze ta'kidlaydi. Uning fikricha, «ta'lim tamoyillari jarayonni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yetakchi metodik ko'rsatmalardir».[9]

Professor E.S.Kairov tadqiqotlarida ta'lim tamoyilining mohiyati ta'lim jarayoni tahlili asosida aniqlashtiriladi: «Ta'lim tamoyili bu maktabdagi ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yilgan talablarni ifodalovchi, boshlang'ich didaktik ko'rsatmalardir». Bunday qarashning muhim tomoni shundaki, ta'lim tamoyillari butun bir pedagogik amaliyotning asosini, boshlang'ich holatini, «start» chizig'ini belgilab beryapti. Bu fikr B.P.Esipov tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi: «ta'lim tamoyili deganda, biz maktabdagi ta'lim jarayonini o'tkazish va tashkil etish mazmuni asosida yotadigan ko'rsatmalarni tushunamiz».[10] Ta'lim tamoyili bir tomondan umumiy o'rta ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini aniqlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda

---

[8] Савин Н.В. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.

[9] Лордкипанидзе Д.О. Принципы, организации и методы обучения. – Тибилиси, 1955. – 53 с.

[10] Есипов Б.П. Основы дидактики. – М.: Просв., 1967. – 207 с.

samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkon yaratadi, ta'lim-tarbiya maqsadini o'rnatishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga didaktik tamoyillar o'z tarkibini, tasnifini bir xilda saqlab qolishi mumkin emas. Ular tarixiy davrga mos holda jamiyatning ta'lim tizimiga qo'yadigan aniq talablarni ifodalaydi. Shu bois vaqt o'tishi bilan ayrim tamoyillar o'z ahamiyatini yo'qotadi, ba'zilari esa yangidan paydo bo'ladi. Demak, tamoyil pedagogik kategoriya sifatida boshqa fanlar kategoriyalari kabi rivojlanib boradi, jamiyat talablariga mos holda yangilanadi. Ayni vaqtda tamoyillar jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini qamrab oladi, ijtimoiy rivojlanish talablarini qanoatlantiradi, o'quv faoliyatining xususiyatlarini va ularning psixologik asoslarini hisobga oladi.

Ta'lim tamoyillari ta'limning umumiy va asosiy ko'rsatmalari hisoblanib, har qanday o'quv predmeti va ta'limning har bir bosqichida o'ziga xos tarzda hamda ma'lum qonunlar asosida qo'llaniladi. Bu ko'rsatmalar o'z vaqtida har bir davrning ilg'or o'qituvchilari tajribalari natijasida paydo bo'lgan. Klassik didakshunoslarning xizmati shundaki, ushbu amaliy xarakterga ega bo'lgan ko'rsatmalarni ilmiy jihatdan asoslashgan va ularning ta'lim fazosiga tarqalishiga hissa qo'shishgan.

Ayrim didakshunoslar didaktik tamoyillar bilish nazariyasidan kelib chiqadigan ta'limning asosiy qonuniyatlari deb qaraydilar. Bunday yondashuvga o'qitish jarayonining ilmiy bilish jarayoni bilan bog'liqligi asos bo'lgan.

Didaktik qonuniyatlar ta'lim jarayonini (mazmunini, metod va shaklini) aniqlaydigan asosiy ko'rsatmalarda o'zining aniq ifodasini topadi. M.A.Sorokin fikricha, «ushbu asosiy ko'rsatmalar ta'lim tamoyillari deyiladi».[11] Ta'lim tamoyillari jamiyatning maktab oldiga qo'yadigan obyektiv talablarini ifodalaydi. Ular ta'lim-tarbiya maqsadi bilan aniqlanadi hamda tarixiy va dialektik xarakterga ega bo'lib aniq tarixiy sharoitlarda qo'llaniladi. Ta'lim tamoyillari erkin shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, ta'lim tamoyili ikkita faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan qator talablarga ham amal qiladi. Ta'lim tamoyili ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning negizi hisoblanadi. Ta'limning maqsadi

[11] Сорокин М.А. ДИДАКТИКА. –М., 1975. – 87 с.

hayot talablariga muvofiq tarzda o'zgarib borgani kabi ta'lim tamoyillari ham yangilanib boradi. Ta'lim tamoyillari maktablar oldiga qo'yiladigan vazifalar asosida belgilanadi va o'zaro mustahkam aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli markazida shaxs turadi. U bosh obyekt va subyekt sifatida har qanday ta'lim tizimida ishtirok etadi. O'quvchi shaxsini shakllantirish pedagogika fanining asriy va dolzarb muammosi sifatida ta'lim tamoyillari bilan ham aloqada bo'ladi. Bu fikr L.N.Baranovning ilmiy tadqiqotlarida uchratish mumkin: «Ta'lim tamoyillari o'quvchi shaxsini shakllantirishning umumiy qonuniyatlari bo'lib, u ta'limning metodlariga, uni tashkil etish shakliga, ta'lim mazmuniga, mohiyati va tarkibiy qismlariga qo'yiladigan umumiy talablarini belgilashga xizmat qiladi».[12] Bu yerda muhim, birmuncha jiddiy muammo qayd etilyapti, o'qitish jarayonining barcha unsurlari: mazmuni, shakli, metodi va vositalari ma'lum qonuniyatlar - tamoyillar asosida o'zaro bog'lanadi hamda jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi. Pedagogik nashrlarda, shuningdek, amaliyotda o'qitish jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari bitta tushuncha degan qarashlar hanuzgacha uchrab turibdi.

Holbuki, qonuniyat inson ongiga bog'liq bo'lmagan har bir mustaqil hodisa yoki jarayonning mavjudligini ta'min etadigan ichki bog'lanishlar yig'indisidir.

Ta'lim tamoyili – mahsuldor faoliyatni ta'minlovchi ta'lim jarayoniga qo'yilgan asosiy talablar tizimi hamdir.

Didakshunos olim V.A. Onishukning ta'kidlashicha, «ta'lim tamoyili ta'lim jarayonining tashkil etish shaklini, vositasini, o'qitish metodlarini, ta'lim mazmunini aniqlaydigan qoidalardir».[13] Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining mazmuni ta'lim maqsadiga, o'qitish metodi va vositalari esa ta'lim mazmuniga bog'liq. Shu jihatdan yuqorida keltirilgan ta'rif tamoyil mohiyatini to'laqonli ifodalaydi.

Polyak didakshunos olimlaridan B.Novrichinskiy ta'lim tamoyili tushunchasini ikki xil: 1) to'liq bo'lmagan ta'lim nazariyasi ma'nosida; 2) o'qituvchining didaktikaviy ishlari usullarini aniqlovchi «me'yor» ma'nosida qo'llagan.

Professor O.Roziqovning ta'kidlashicha, «Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga

---

[12] Баранов С.П. Принципы обучения. – М., 1975.

[13] Онишук В.А. Урок в современной школе. – М.: Просвещение, 1987. - 198 с.

qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim tamoyillari»[14], - deb aytiladi. Ko'p holatlarda mutaxassislar ta'lim tamoyillari xususiyatlarini asosan o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shuning uchun pedagogika darsliklarida, qo'llanmalarda «ta'lim tamoyillari» atamasi keng ishlatiladi. Ta'lim tamoyillari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga dahldor. Didakshunos olimlar ta'lim tamoyili mohiyatini yoritishda turli nuqtayi nazarlarni asos qilib olishgan. K. Sosnitskiy tadqiqotlariga ko'ra, «ta'lim tamoyillari umumiy qonuniyatlar bo'lib, ular o'quv-tarbiya jarayonida qat'iy rioya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi». Har bir tamoyil ta'lim jarayonining muayyan komponentiga taalluqlidir. Ta'lim tamoyillarini o'quv tarbiya jarayoni komponentlariga bog'lab bayon etish tendensiyasi Yu.K. Babanskiy tadqiqotlarida ham uchraydi.

Ta'limning ilmiyligi, hayot bilan bog'liqligi, tizimliligi, izchilliligi, tushunarliligi tamoyillari ma'lumot mazmuniga ko'ra; onglilik va faollik, metod va vositalarni uyg'unlashtirish tamoyili metodlarga ko'ra; bilimlarning puxtaligi tamoyili ta'lim natijalariga ko'ra belgilanadi.

Ta'lim tamoyillarining mohiyatini o'quv tarbiya jarayonining qonuniyatlari asosida tushuntirish ham mavjud. Yuqorida ta'kidlanganidek M.A.Sorokin ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatlarini qonuniyat sifatida belgilaydi va shular asosida ta'lim tamoyillari xususiyatlarini bayon etadi. V.I.Zagvyazinskiy (2002) ta'lim tamoyillari «shunday mexanizmki, uning yordamida o'qitishning mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi qonun va qonuniyatlar aniqlashtiriladi»,- deb ko'rsatishi bilan o'qitishning barcha unsurlarini aks ettiruvchi qonuniyatlar ta'lim tamoyilining mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydi. Tamoyillarni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash garchand yangicha yondashuv bo'lsa-da, u mohiyat jihatidan zaruratni tenglashtirishga olib keladi. Qonuniyatlar kishi ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, u narsaning o'zida, jarayonning tarkibida amal qiladi. Fanning vazifasi esa qonuniyatlarni izlash, topish, izohlashdan iborat. Boshqa tomondan ta'lim tamoyili amaliyotga daxldor tushunchadir. Ta'lim tamoyili har doim o'qitishni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish mezonlari sifatida mavjud bo'ladi. Tamoyil umumdidaktik kategoriya hisoblanib, u ta'limning barcha turlariga, darajalariga, subyektlariga, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonining ichki komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl) ga daxldor umumiy qoidalardir.

---

[14] Розиков О., Огаев С., Адизов Б. – Тошкент, Фан 1997. – 147 б.

B.T.Lexachovning ta'kidlashicha, «ta'lim tamoyillari pedagogik qonuniyatlar guruhiga taalluqli toifadir. Ular o'quv-tarbiya jarayonida paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va san'atining dastlabki mavqelarini aniqlaydi».[15] Didaktik tamoyillarga qat'iy amal qilish ta'lim-tarbiyadagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishini, har bir o'quvchini kompleks munosabatlar tizimiga kirishini ta'minlaydi. Didaktik tamoyilda nazariy umumlashma o'rnatilgan va amaliyotda tekshirilgan ijtimoiy munosabatlar, qonuniy aloqalar aks etadi, unda o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liq hamda o'quvchilarning faoliyatiga pedagogik rahbarlik qonuniyatlari ifodalanadi.

Didaktik jarayon o'z tuzilishiga ega bo'lib quyidagi bosqichlardan iborat: motivatsion bosqich, o'quv bilish faoliyati va boshqarish. Didaktik jarayon mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi asosida quriladi va amalga oshiriladi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda ta'lim tamoyili deganda o'qituvchining pedagogik faoliyatida amal qilinishi lozim bo'lgan talablar va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatiga ongli va faol munosabatlarini ta'minlaydigan qoidalar yig'indisi tushunilar ekan. Ta'lim tamoyillarini noto'g'ri tushunish yoki bilmaslik ta'lim jarayonini samarasiz, ziddiyatli bo'lishiga olib keladi.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyili bilimlarni faol bilish va amaliy faoliyatda ongli o'zlashtirilishini talab etadi. Ta'limdagi onglilik – bu o'quvchilarni ta'limga bo'lgan pozitiv munosabati, o'rganilayotgan muammoni mohiyatini tushunish. O'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o'zlashtirish qator omillarga bog'liq: ta'lim motivlariga, bilish faolligi darajasiga va xarakteriga, o'quv jarayonini tashkil etilishiga, qo'llaniladigan metod va ta'lim vositalariga. O'quvchilar faolligi - bu ularni ta'lim jarayonidagi intensiv aqliy va amaliy faoliyati.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan tamoyildir. Bilim, malaka, ko'nikmalarni ongli o'zlashtirish quyidagi xususiyatlarga ega: ta'lim maqsadini anglash, materialni ongli egallash, ularni farqlay bilish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash jarayonini sezish, natijalarni baholay bilish. Faollik bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish sharoit va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliyotda onglilik va faollik tamoyili qator qoidalarga amal qilishni talab etadi:

---

[15] Б.Т.Лехачёв. Педагогики курс лекции. – М.: Юрайт, 2000. – 91 с.

– o'quvchilar tomonidan ta'lim maqsadi va vazifalarini aniq tushunib olishga erishish;

– diqqatni tortuvchi faktlarni, ma'lumotlarni, misollarni qo'llash;

– texnik vositalarni va ko'rgazmali qurollarni qo'llash;

– o'quvchilarni nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatga jalb qilish;

– ta'limning faol va intensiv metodlarini qo'llash;

– noaniqni aniq bilan mantiqiy bog'lash;

– o'quvchilarni sabab-oqibat aloqalarini topishga o'rgatish;

– o'quvchilarda optimizmni va ishonchni qo'llab-quvvatlash.

Ko'rgazmalilik tamoyili.

Pedagogika tarixida ko'rgazmalilik tamoyili birinchilardan bo'lib shakllangan. Ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. O'quv materiali qanchalik turli sezgi organlari orqali ta'sir etsa, materialni mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu qonuniyat didaktikaning ko'rgazmalilik tamoyilida o'z ifodasini topgan.

Ko'rgazmalilik tamoyili o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida bolalarga kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish imkoniyatini berish lozim. Ko'rgazmalilik tamoyiliga ko'ra narsa-hodisalarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi.

Kuzatish, sezish ongda faktlarni to'plash, tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi.

Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshitish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi.

Ushbu tamoyilni asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L.V.Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Ya.A.Komenskiy «Didaktikaning oltin qoidasida» ko'rgazmalilik tamoyiliga amal qilish yo'llarini shakllantirdi.

I.G.Pestalotsi ko'rgazmalilikka amal qilish tushunchalarni fikriy shakllanishi bilan uyg'unlikda bo'lishini ko'rsatib o'tgan. K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilikni bolalarni nutqini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib bergan, L.V.Zankov so'z va ko'rgazmalilik uyg'unligini ta'kidlab o'tgan. Agar ma'lumotlarni eshitish orqali o'zlashtirish samaradorligi 15% ni tashkil etsa, ko'rish orqali – 25% ni tashkil etadi. Ta'lim jarayoni

samaradorlik darajasi 65% gacha borishi mumkinligini mutaxassislar bashorat qilishgan.

Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili o'rganilayotgan obyektlarni namoyish qilish, hodisa va jarayonlarni izohlash, hodisa va jarayonlarni kabinet va laboratoriyalarda, tabiiy sharoitlarda, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatida kuzatish yo'llari orqali amal qilinadi.

Ko'rgazmalilik vositalari:

- natural obyektlar: o'simliklar, hayvonlar, tabiiy va ishlab chiqarish obyektlari, odamlarni mehnati va o'quvchilarning o'zlari;
- ko'rgazmali qo'llanmalar: modellar, maketlar, mulyajlar, gerbariylar v.b.;

ta'limning tasviriy vositalari: kartinalar, fotografiyalar, diafilmlar, rasmlar;

- simvolli ko'rgazmali qo'llanmalar: kartlar, sxemalar, tablitsalar, chizmalar v.b.;
- audiovizual vositalar: kinofilmlar, magnitofor yozuvlari, televizion ko'rsatuvlar, kompyuter texnikasi;
- mustaqil tayyorlangan «tayanch signallar» konspekt, sxema, chizma, jadval ko'rinishidagi vositalar.

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'qishga qiziqish shakllanadi, kuzatuvchanlik, diqqat, fikrlash rivojlanadi.

Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik tamoyiliga amal qilishning qator qoidalari ishlab chiqilgan:

– ko'rgazmalilik o'rganilayotgan predmet va hodisalarni mohiyatini ifodalashi, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmunni aniq va ravshan ko'rsatish;

– 100 marta eshitgandan, 1 marta ko'rgan afzal;

– bola ko'rganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi;

– ko'rgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish;

– ko'rgazmalilikni me'yoridan oshirib yubormaslik;

– ko'rgazmalilikka nafaqat o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni ishonchliligini tasdiqlash uchun, balki bilimlar manbai sifatida qarash;

– bolalar yoshi ulg'aygan sari predmetli ko'rgazmalilikni simvolli ko'rgazmalik bilan almashtirish;

– ko'rgazmalilikning turli-tuman turlaridan foydalanish;

– ko'rgazmalilik estetik tarbiyalashi kerak;

– turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshini hisobga olish.

Tarixiylik tamoyili.

O'qitishda tarixiylik tamoyili o'quv materiallarini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'quv materiali boyitiladi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi, fandagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tug'iladi, natijada bilimlarni yaxlit, bir butunlikda o'zlashtirish ta'minlanadi.

Tarixiylik tamoyili predmet va hodisalarning nafaqat o'tmishi va hozirgi holatini ro'yi rost ifodalab qolmasdan, balki ularning kelajakdagi rivojlanishini ham ko'rsatib beradi.

Ta'lim jarayonida tarixiylik tamoyiliga amal qilinishi o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida, ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. O'qitishda tarixiylik tamoyilini amalga oshirishda tarixiy materiallarni saralash mezonini aniqlash muhimdir. Ular:

– tarixiy material mavzu maqsadiga mos kelishi;

– tarixiy material mavzuni qo'shimcha axborot bilan boyitishi;

– tarixiy material o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi;

– tarixiy material o'qituvchi imkoniyatlariga mos kelishi;

– tarixiy material ilmiy manbalar asosida saralanishi.

Ushbu mezonlarga umumta'lim maktablarida o'zlashtiriladigan tarixiy materiallarni konstruktiv loyihalashda amal qilinishi lozim. Tarixiylik tamoyili zamon va makon kontekstida fanning ta'lim jarayoniga nisbatan zamonaviy talablarini ifodalaydi.

Ta'limning tizimliligi tamoyili o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni ma'lum bir tizimda, tartibda bo'lishini talab etadi. Ta'limning sistemaliligi fan, madaniyat tajribani yutuqlarini o'zlashtirishda o'quvchilarni amaliy ko'nikmalariga, nazariy bilimlariga, o'quv faoliyatiga, tizimli xarakterni ifodalaydi.

Tizimlilik qator belgilarga ega:

Tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik va boshqalar.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda bu belgilarga rioya qilish ta'limda sistemalilikni ta'minlaydi. Ta'limda sistemalilik va ketma-ketlik tamoyili o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni aniq tartibda, tizimda bo'lishini ifodalaydi. U ta'lim jarayonini mantiqiy qurilishini talab etadi.

Ta'limda tizimlilik va ketma-ketlik tamoyili qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

– bilimlar tizimini o'zaro aloqadorlik asosida shakllanishi;

– o'rganilayotgan materialni mantiqiy aloqador bo'lim va bloklarga ajratish;

– o'quv materialini mantiqiy tasvirlovchi sxema, reja, tablitsa, tayanch konspektlar, modullardan foydalanish;

– predmetlararo aloqadorlikka amal qilish;

– umumlashtiruvchi va sistemali darslarni tashkil etish;

– yagona talab asosida pedagogik jarayon subyektlarini faoliyatini koordinatsiyalash va ular faoliyatini uzluksizligini ta'minlash.

Izchillik tamoyili.

Ta'limda bilimlarni izchil o'zlashtirish tamoyili o'quvchilar xotirasida bilimlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Ushbu tamoyil asosida fan tomonidan o'rnatilgan qonuniyatli holatlar yotadi:

– o'quv materialini izchil o'zlashtirish obyektiv omillarga (material mazmuniga, uning tuzilishiga) bog'liq.

– o'quvchilar aqliy bilish faolligini namoyon qilishi;

– o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materiali o'quvchilarni har xil individual farqlarini hisobga olgan holda qurish;

– yangi o'quv materiali oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lanishi (oldin o'zlashtirilgan bilimlar asosida yangilari yaqqol qabul qilinib, eski bilimlar yangilari hisobiga boyiydi).

Turli xildagi ta'lim metodlari, shakllari, vositalari qo'llaniladi:

– bir xillik o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi, o'zlashtirish samaradorligini pasaytiradi;

– qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil etish, sabab va oqibatlarini, aloqadorligini o'rnatish, asosiysini topish bilan bog'liq savollarni berish orqali o'quvchilarni fikrlashini faollashtirish;

– o'zlashtirish jarayoni sifatiga tizimli nazorat qilib borish orqali erishish.

Ta'limni tarbiyalovchilik tamoyili

Ta'limni tarbiyalovchilik tamoyili ta'lim jarayonini obyektiv qonuniyatlarini ifodalaydi. Ta'lim-tarbiyadan tashqarida bo'lish mumkin emas. Holbuki o'qituvchi maxsus tarbiya maqsadini qo'ymaganda ham o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'quv materiali mazmuni, bilimlarga bo'lgan o'zining munosabatlari, o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etishda qo'llagan metodlari, o'zining shaxsiy sifatlari orqali tarbiyalaydi.

Ta'limda ta'limni tarbiyalovchilik tamoyili qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

– har qanday o‘quv predmetini o‘rganishda maqsadli, ongli, tizimli tarbiyani olib borish;

– tushuncha, ta’rif, qonun, simvollardan so‘ng o‘quvchilar tabiat hodisalarini va ijtimoiy progres qonunlarni tushunishlarini, shakldan so‘ng maznunni, hodisadan so‘ng mohiyatni, tashqi belgilardan keyin ichki xususiyatlarni va qonuniyatlarini tushunishlariga erishish;

– har bir darsni, har bir mavzuni tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;

– o‘quv jarayonini o‘quvchilarning madaniy xulq-atvoriga va o‘zaro munosabatlariga ta’sir etadigan qilib tashkil etish;

– o‘quvchilar shaxsini hurmat qilish va bir vaqtni o‘zida talabchanlikda bo‘lish. Hurmatga asoslanmagan talabchanlik jahldorlikni va norozilikni keltirib chiqaradi. Talabchan bo‘lmaslik mehribonlikni, tartibni buzilishiga, tartibsizlikka, o‘quvchilarni quloq solmasligiga olib keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili.

Ta’limning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili o‘quvchilarni qiziqtirishni, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni, borliqni analiz (tahlil) qilishni, o‘z qarashlarini ishlab chiqishni talab etadi. Buning uchun real hayot vaziyatlari tahlil qilinadi, o‘quvchilar ishlab chiqarish bilan tanishadilar, mashg‘ulotlarda ko‘plab shaxsiy ma’lumotlardan foydalanadilar. O‘quvchilar maktabdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilinadi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili ilmiy asoslangan bilimlarni hayotda qo‘llanilishi bilan birgalikda, aloqadorlilikda o‘zlashtirilishini taqozo etadi. Shundagina o‘quvchilarda hayotdagi hodisa va jarayonlarga nisbatan ilmiy qarash hamda ilmiy dunyoqarashlari shakllanadi.

Amaliyot – bu haqiqat mezoni, bilish manbai hisoblanadi. Amaliyotda ta’lim natijasi tekshiriladi, tasdiqlanadi.

ta’limda nazariyani amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

ta’limda o‘quvchilarni amaliy tajribasiga tayanish; nazariy billimlarni qo‘llanish sohasini ko‘rsatish:

zamonaviy texnologiyalarni, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini, mehnat qilishning qulay metodlarini o‘rganish;

muammoli izlanish va tadqiqotchilik masalalarini qo‘llash; bilimlarni amaliyotda qo‘llash;

ilg'or ilmiy g'oyalarni, konsepsiyalarni, nazariyalarni ahamiyatini ko'rsatish. Ta'limning o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili.

Ushbu tamoyil ta'lim mazmuni, metodlari va shaklini o'quvchilarni yosh davrlariga va individual rivojlanishlariga mos bo'lishini ifodalaydi. Shaxsiy rivojlanish va bilish imkoniyatlari darajasi o'quv faoliyatini tashkillashni aniqlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, didaktik tamoyillar an'anaviy ta'lim tizimi asosini tashkil etadi. Ayrim mutaxassislar zamonaviy ta'lim rivojlanish tendensiyalariga mos keluvchi didaktik tamoyillarni asoslab bermoqdalar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Ta'lim nazariyasi (Didakika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatidagi o'rni qanday?

2.Didaktikaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3.O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi va o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi qanday?

4.Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlarini izohlang.

6-MAVZU. TA'LIM MAZMUNI

Ilmiy texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Bizga ma'lumki, «mazmun» tushunchasi ma'nosi qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel va Platon tomonidan ochib berilgan. Aristotelning ta'kidlashicha, mazmun - bu butunni hosil qiluvchi qismlar yig'indisidir.

Keyinchalik bu tushuncha Gegel tomonidan to'ldirilgan, uning fikricha «har qanday predmetlar nafaqat moddiy, balki mazmunga ham ega. «Ta'lim mazmuni» tushunchasini pedagogik ma'nosi rus olimi P.F.Kapterev tomonidan bilimlar tizimi sifatida ochib berilgan.

Ta'lim mazmuni deganda, ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko'nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalarni tushunamiz - deb ta'kidlaydi I.F.Harlamov.

Ta'lim mazmuni-yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat,

jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

V.V.Krayevskiy va I.Ya.Lernerlarning fikricha, ta'lim mazmuni o'zaro bog'langan komponentlarning ijtimoiy tajribasi sifatida ko'rib chiqilgan.

1)tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyat turlari to'g'risidagi bilimlar;

2)faoliyat turlarini ifodalovchi tajriba;

3)ijodiy faoliyat tajribasi;

4)faoliyatning obyekti va vositasi hisoblanadigan borliqqa nisbatan emotsional munosabat tajribasi.

Har bir komponentni ko'rib chiqamiz:

Birinchi komponent – bilim, ya'ni insoniyat tomonidan dunyo to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarning to'planishi.

Bilimlarning bir necha turlari mavjud:

5)asosiy tushuncha va atamalar, bularsiz biror bir matnni yoki fikrni tushunib bo'lmaydi;

6)borliqdagi ilmiy tushuncha va faktlar, bularsiz fan qonuniyatlarini tushunish mumkin emas;

7)nazariyalar;

8)faoliyat turlari, bilish metodlari va bilimlarni olish tarixi to'g'risidagi bilimlar;

9)baholovchi bilimlar, hayotdagi turli hodisalarga munosabat me'yorlari.

Ikkinchi komponent - berilgan algoritm asosida mahsuldor darajada faoliyatning aniq turi bo'yicha bajariladigan ko'nikma va malakalar tajribasi.

Navbatdagi komponent - ijodiy faoliyat tajribasi. Ijodiy faoliyat inson faoliyatining mahsuldor darajasida amalga oshiriladi.

Keyingi komponent - borliqqa bo'lgan emotsional munosabat.

Nazariyotchilar ta'lim mazmunini darajalari to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surmoqdalar:

1. Umumnazariy daraja.
2. O'quv predmeti darajasi.
3. O'quv materiali darajasi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni o'quvchilarini imkoniyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.

Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.

Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

Shunday qilib, ta'lim mazmuni – bu ko'p darajali pedagogik modelning ijtimoiy buyurtmasi, bu didaktikada ta'limni mazmuniy (ichki) tomonini ifodalaydi.

Ma'lumotlar ko'lamining oshishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan «ta'lim mazmuni» tushunchasi mohiyati qayta ko'rib chiqildi. Rus olimi V.S.Lednevning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni – bu faoliyatning biror bir turi bo'yicha bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir. Demak, ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan berilishi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, makalalar va shaxsda shakllanishi zarur bo'lgan insoniy sifat hamda fazilatlar yig'indisini tushunamiz.

Pedagogikada ta'lim mazmunini shakllantirishning bir necha nazariyalari, paradigmasi va konsepsiyalari mavjud.

Dixotomik yondashuvga asosan «nazariya», «paradigma» va «konsepsiya» tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Dixotomiya (yunoncha dicha - ikki, tome - kesim) ikki qismga ajratishni ifodalaydi.

Dixotomik yondashuv - bu tushunchani ikki qarama-qarshi, bir-birini rad qilmaydigan, ammo teng quvvatga ega qismga ajratish.

Keng ma'noda nazariya - bu biror-bir hodisani ifodalovchi asosiy g'oyalar, tamoyillar, qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar tizimi hisoblanadi. Demak, nazariya ta'lim mazmunini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida pedagogikada didaktik materializm

(ensiklopedizm), didaktik formalizm, didaktik utilitarizm nazariyalari, XIX asrning ikkinchi yarmida - butun didaktik tizim nazariyasi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratildi.

Paradigma – bu kasbiy faoliyat amaliyotida qo'llaniladigan ta'limot va aniq ilmiy g'oyalardir. «Paradigma» tushunchasida urg'u aynan «aniqlangan» so'ziga, ya'ni ilmiy holatlar va g'oyalar xilma-xilligiga yo'naltiriladi.

Konsepsiya – bu hali qo'llanilmagan, ammo amaliyotda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tushunishning aniq yo'li, asosiy nuqtayi nazar, boshlang'ich g'oya hisoblanadi. «Konsepsiya» tushunchasida asosiy so'z mavjud paradigmani to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi tushunishning asosiy yo'liga qaratiladi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta'lim mazmunini shakllanishining quyidagi paradigma va konsepsiyalarini jadvalda ko'rib chiqamiz.

Shunday qilib, ta'limning zamonaviy mazmuni o'quv predmeti sifatida asosiy g'oya va konsepsiyalar asosida shakllanadi. Demak, ta'lim mazmuni o'quv predmeti sifatida - bu yosh avlod uchun amaliy faoliyatni tashkil etish va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini va kompetensiyalarni tushunamiz.

Masalan, hozirda ta'lim mazmunini demokratizatsiyalashtirish, axborotlashtirish va gumanizatsiyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin.

Har qanday o'quv predmeti mazmuni dinamik xarakterga ega. Jamiyat ehtiyoji va zamonaviy fan holatini ifodalab, yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, o'zgarib boradi.

Ta'lim mazmuni quyidagi vazifalarni bajaradi:

– axborot yetkazuvchi, turli fanlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalaydi;

– metodologik, fan metodologiyasi bilan qurollantirish;

– ta'limiy, bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish;

– rivojlantiruvchi, shaxsda jismoniy, ijodiy, hissiy, intellektual sifatlarni shakllantirish;

– tarbiyaviy, munosabatni ifodalovchi sifat va fazilatlarni shakllantirish.

Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy konsepsiyasi va paradigmasi

1-jadval

Gumanistik Paradigma	Faoliyat konsepsiya	Shaxsga yo'naltirilgan
Ta'lim mazmuni – bu o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularda dialektik dunyoqarashni shakllantirish uchun asos bo'luvchi aniq bilim, ko'nikma va malakalar ko'lamidir. (N.V. Savin) Ta'lim mazmuni – bu insonni madaniyat, jamiyat, davlat bilan o'zaro aloqadorligi qonuniyatlari, shaxsning shakllanish jarayoni, o'ziga va boshqalarga munosabati, faoliyatda individual ijodiy kuchlarini qo'llash to'g'risidagi bilimlar tizimi. (V.A. Slastyonin)	Ta'lim mazmuni – bu o'qituvchining pedagogik, innovatsion, jamoani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati subyekti bo'lishi uchun xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalari tizimidir. (V.S. Lazarev)	Ta'lim mazmuni – pedagog shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy kasbiy sifat va fazilatlar (kompetensiyalar) yig'indisi. (E.F.Zeer)

Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmuni tarixiy xarakterga ega. U jamiyatni u yoki bu bosqichida ta'limning maqsadi va vazifalaridan aniqlanadi. Har qanday ijtimoiy tuzumda ta'lim mazmuni bir xil bo'lmaydi. Ta'lim mazmuni hayot talablari, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi ta'sirida o'zgaradi.

Ta'lim mazmunini shakllanishini asosiy nazariyalari XVIII asr oxirlari - XIX asr boshlarida paydo bo'lib, ta'lim mazmunini moddiy va formal nazariyasi nomini olgan.

Ta'lim mazmunining moddiy nazariyasi (didaktik materializm yoki ensiklopedizm nazariyasi) tarafdorlarining fikricha, ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga turli fan sohalari bo'yicha imkoni boricha ko'p miqdorda bilimlar bilan qurollantirish deb hisoblaydilar. Bu fikrni o'z davrida (Ya.A.Komenskiy, G.Spenser v.b.) ham ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi paytda ham ushbu qarash tarafdorlari mavjud.

Ta'lim mazmunining formal nazariyasi (didaktik formalizm nazariyasi) tarafdorlari ta'limni o'quvchilar qobiliyatini, bilish qiziqishlarini, diqqatini, xotirasini, tasavvurlarini, fikrlashlarini rivojlantirish vositasi deb qaraydilar. Ular bilimning manbai aql deb hisoblaydilar. Shuning uchun insonning ongini va qobiliyatlarini rivojlantirish zarur deb ta'kidlaganlar. Bu nazariya o'z davrida Dj.Lokk, I.G. Pestalotsi, I. Gerbartlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan.

Yuqoridagi ta'lim mazmunining moddiy va formal nazariyalari rus pedagogi K.D. Ushinskiy tomonidan tanqid qilingan. Uning fikricha, maktab o'quvchini bilim bilan boyitib, uni qo'llashga o'rgatib, intellektual kuchlarini rivojlantirishi kerak. Ushinskiy zamonaviy pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan didaktik materializm va formalizm g'oyalarini birlashtirish fikrini ilgari surgan.

XIX oxiri XX boshlarida ta'lim mazmunini shakllantirishning didaktik progmatizm nazariyasi (didaktik utilitarizm) nazariyasi paydo bo'ldi. Ushbu nazariyaning asosi AQSHda Dj.Dyui, Yevropada nemis pedagogi G.Kershenshteyner tomonidan yaratilgan. Ushbu nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, ta'lim mazmunining manbai alohida o'quv predmetlari emas, balki o'quvchining ijtimoiy va individual faoliyatidir. Ta'lim mazmuni predmetlararo bilimlar tizimi ko'rinishida bo'lib, o'quvchilardan jamoatchilik hamkorlik asosida o'zlashtirilishi zarur deb hisoblaydilar.

Ta'limning turli o'yin shakllari, amaliy mashg'ulotlar, individual mustaqil ta'lim o'quvchilar faoliyatini va fikrlashini faollashtiradi.

Didaktik promatizm nazariyasi amerika maktablaridagi o'quv ishlari mazmuni va metodlarini o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mutaxassislarning fikricha, bu nazariya amerika ta'lim darajasini pasayishiga olib keldi. XX asrning birinchi yarmidayoq tanqidga uchradi.

XX asrning 50-yillariga kelib, buyuk polyak pedagogik V.Okon ta'lim mazmunini funksional materializm nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, o'quvchi o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni bilishlari kerak. Ya'ni bilish va faoliyat o'rtasida integral aloqa zarur deb hisoblaydi.

Yuqoridagi nazariyalar tahlilidan shu ma'lumki, ta'lim mazmuni ham yillar o'tishi bilan o'zgarib turishi xarakterlanadi. Ta'lim mazmuniga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Obyektiv omilga jamiyat ehtiyoji, fan-texnika rivojlanishi kiradi.

Subyektiv omilga esa nazariyachilarning metodologik qarashlari hamda jamiyatni boshqayotgan sinflarning siyosati kiradi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllantirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatning maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni, o'quvchilarini imkoniyatlarini hamda shaxsning ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

1. Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

3. Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.

4. Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.

5. Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

6. Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy rivojlanish yo'nalishlari bilan bog'liq. Ta'lim rivojlanishining asosiy tendensiyalari mohiyatini «ta'lim» tushunchasini o'rganish orqali tushunishimiz mumkin. Shuning uchun ushbu tushunchani ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, «ta'lim» pedagogikani asosiy tushunchasi hisoblanadi. Ta'lim - bu ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlaridan hosil bo'luvchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, unda shaxsni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi hamda ularda dunyoga bo'lgan ijodiy munosabat shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda va dunyoning ko'plab mamlakatlarida natijaga yo'naltirilgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblangan ta'limning yangi modelini qurish davom etmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning barcha tadbirlari me'yoriy-huquqiy hujjatlarda «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o'z aksini topgan.

Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

Fundamentalizatsiyalashtirish – bu ta'limni sistemali tarzda fundamental bilimlar va ijodiy tafakkur yo'llari bilan, borliq va hodisalarni bilish tamoyillari, metodologik asoslari, nazariyalari bilan boyitib borish.

Pragmatizatsiyalashtirish – bu fundamentalizatsiyalashtirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Pragmatizatsiyalash – bu ta'limda amaliyotni kuchaytirish. U yosh avlod faoliyat xususiyatlarini yoshlar tomonidan o'zlashtirilishini taqozo etadi.

Metodologizatsiyalashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy ilmiy yondashuvlar, tizimli, dinamik, umumlashgan bilimlar tizimi bilan boyitilishi.

Integratsiya zamonaviy ta'limni rivojlanish qonuniyatlari va istiqbollarini tushunish hamda element va komponentlar yig'indisidan hosil bo'lgan butun bir tizimni ifodalaydi.

Standartlashtirish – davlat darajasida qabul qilingan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talab va me'yorni belgilaydi.

Ko'pvariativlik – variativ o'quv predmetlarini o'rganish va barcha o'quvchilarga o'zlarini ta'limiy ehtiyojlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Uzluksizlik - fanlarni o'qitish akademik davrlarini ta'lim bosqichlari bo'yicha ta'lim mazmunining uzluksizligi tamoyili asosida qayta ko'rib chiqish.

Texnologizatsiyalashtirish - ta'lim mazmunini o'rganish qoida va algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Insonparvarlashtirish - yoshlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning shaxsini individual rivojlanishlari uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Axborotlashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy axborotlar bilan boyitish.

Markazlashtirish – ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarni O'zbekiston Respublikasi XT va OO'MTV aniqlaydi.

Internatsionalizatsiya- ta'lim mazmunini turli xalq va millatga tegishli umuminsoniy g'oyalar bilan to'ldirishga yo'naltirilishini va ta'limni tashkil etishda xalqaro tajribalarni hisobga olishni taqozo etadi.

Siyosiy mafkura - ta'lim mazmunida demokratik jamiyat va huquqiy davlatning asosiy g'oyalarini ifodalanishi.

Plyuralizatsiya ta'limda turli ilmiy yo'nalishlar hamda maktablarning konsepsiya va paradigmalari mavjudligini ifodalaydi.

Ta'lim mazmunining shakllanishi nafaqat ta'lim tizimini rivojlanish yo'nalishlariga, balki ta'lim mazmunini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liq.

1)maqsad, jamiyatning ta'lim tizimiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi;

2)jamiyat ehtiyoji;

3)ta'limga bo'lgan shaxs ehtiyojlari.

Ta'lim mazmunining aniqlovchisi sifatida quyidagi determinantlarni ko'rib chiqamiz: ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiyot turi, ijtimoiy munosabatlar turi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi); ijtimoiy-madaniy (madaniyat turi, siyosiy tuzum va uning mafkuraviy yo'nalishi, davlatning ta'lim siyosati, pedagogika fanining rivojlanish darajasi, pedagogika fani va pedagogik amaliyot o'rtasidagi aloqadorlik, O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik yo'nalishi); tashkiliy-pedagogik (ta'lim tizimi tuzilishi va uni tashkil etish tamoyillari, pedagogik amaliyotni rivojlanish istiqbollari va holati, ta'lim tizimini boshqarish modeli).

Ta'lim mazmunining tuzilishiga qo'yilgan talablar sifatida:

– tizimlilik – ta'lim mazmuni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan borliq to'g'risidagi ma'lumotlar tizimining qismi hisoblanadi;

– butunligicha qabul qilish – idrok qilish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar o'zaro aloqador elementlarni ifodalaydi;

– uzluksizlik – ma'lumotlarni bir butunlikda va tizimliligini ta'minlovchi ma'lumotlarni ketma-ket bayon qilish;

– o'quv materialini asosiy, tayanch va qo'shimcha ma'lumotlarga ajratib tanlash;

– yangi ma'lumotlarni o'zlashtirilganlari bilan mantiqiy bog'lanishini ta'minlash;

– mazmunning dolzarbligi – yosh avlodni kelgusi faoliyati uchun o'quv axborotini amaliy ahamiyati;

– mazmunni texnologiyalashtirish – ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan jarayon;

Yuqoridagi ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillar, determinantlar va talablar asosida ta'lim mazmunini tanlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

– ta'lim mazmunida jamiyat ehtiyoji va maqsadini ifodalanishi;

– ta'lim mazmunining ilmiy va amaliy ahamiyati;

– ta'lim mazmunining kasbiy talablarga mosligi;

– uzluksiz ta'limda maqsadni yaratish;

– ta'lim mazmunini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni hisobga olish;

– ta'lim mazmunining ta'lim muassasasining uslubiy, moddiy-texnik imkoniyatlariga mosligi.

Shunday qilib, ta'lim mazmunini shakllantirishning yo'nalishlarini, unga ta'sir etuvchi omillarni, ta'lim mazmunini shakllantirish mezonlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, har qanday o'quv fanining mazmuni, uni o'qitishning maqsadi bilan belgilanadi. Jamiyat o'zining rivojlanishi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuniga va har bir o'quv fani oldiga o'ziga xos, yangicha vazifalar qo'yadi. Har bir o'quv fani bu vazifalarni o'zida turlicha yo'nalishda aks ettiradi.

Ta'lim mazmunini konstruksiyalash - bu o'quv predmeti mazmunini loyihalash, ya'ni me'yoriy hujjatlar tavsiyasiga ko'ra maqsadni shakllantirish, tuzilishni aniqlash, o'quvchilar faoliyatini rejalashtirish.

Pedagogik amaliyotda ta'lim mazmunini loyihalashtirishda bilimga yo'naltirilgan (an'anaviy) va fazilatga yo'naltirilgan (innovatsion) yondashuvlari mavjud.

Ta'lim mazmunini darajali konstruksiyalash rus didakshunoslari V.V.Krayevskiy va I.Ya.Lernerlar tomonidan ilgari surilgan. Oliy ta'limda o'quv predmeti mazmunini qurishda darajali va kompetentli yondashuvlar mavjud.

Birinchi darajali konstruksiyalashda bilimlar to'g'risidagi nazariy tasavvurlar me'yoriy xarakter asosida quriladi. Uning asosida ta'lim mazmunining nazariy konsepsiyalari ishlab chiqiladi, uning tarkibi, funksiyalari, tuzilishi aniqlanadi, fanlarning rivojlanish mantig'i va zamonaviy holati ifodalanadi, o'quv predmeti sifatida uning mantig'i aniqlashtiriladi.

Ikkinchi darajali konstruksiyalashtirishda o'quv predmetining har bir o'quv modullari tuzilishi va funksiyalari modellashtiriladi, o'quv dasturlari, fanlarni o'qitishning ilmiy asoslangan texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Uchinchi darajali konstruksiyalashtirishda o'quv predmeti fundamental bilimlarni, tayanch va maxsus kompetensiyalarni, bilish faoliyati yo'llarini, umumiy ko'nikma va kompetensiyalarni ifodalaydi. Ushbu darajada ta'lim mazmuni o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy materiallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

To‘rtinchi darajali konstruksiyalashda ta’lim mazmuni ta’lim jarayonini modellashtirish bilan aloqadorlikda yaratiladi. Kompetentli yondashuv ta’lim amaliyotida loyihali, o‘yin, dialog, o‘qitishda kompyuter texnologiyalarni qo‘llanishini ifodalaydi.

Beshinchi darajali konstruksiyalashda ta’lim mazmuni ta’limni uzluksizligi tamoyiliga amal qilinishiga yo‘naltiriladi. Shunday qilib darajali va kompetensiyali yondashuv asosida o‘quv predmeti mazmunini loyihalashtirishda fanning rivojlanish darajasini, yoshlarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati xarakterini, ta’lim masalalarining nazariy darajasini inobatga olinishini taqozo etadi.

Ta’lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

– maqsadga yo‘naltirilganlik, ta’lim mazmunini yosh avlodni kasbiy tayyorgarligi va vazifasiga bog‘liqligi;

– ilmiylik, ta’lim mazmunini zamonaviy fan yutuqlariga mosligi;

– fundamentallilik, ta’lim mazmunida fanni metodologik holatlarini kiritilishi;

– bir butunlilik, o‘rganilayotgan predmetni nazariy va amaliy tomonlarini birligiga amal qilish;

– integratsiya (o‘zaro aloqadorlilik), hodisa va jarayonlarni bir butunligini ta’minlovchi predmetlararo va predmet ichidagi aloqadorlikni o‘rnatish;

– modullilik, ta’lim mazmunini modullar ko‘rinishida tasvirlash;

– faoliyatlilik, kasbiy normalar o‘zlashtiriladigan faoliyat fragmentlarini modellashtirish;

– individuallashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘zlashtirilishini mazmun va metodini o‘quvchilar tayyorgarlik darajasiga bog‘liqligini ta’minlash;

– me’yoriylilik, ta’lim mazmunini davr talablariga mosligi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi talablar tizimiga asoslanilmoqda:

– pedagog – bu sifatlari faoliyat obyekti sifatlarga mos keluvchi shaxs;

– pedagog uning faoliyat obyekti - ta’lim-tarbiya masalalari hal qilinadigan, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligini ifodalovchi butun pedagogik jarayon ekanligini bilishi kerak.

– butun pedagogik jarayon vazifalari faoliyat subyektlarining hamkorligi va o‘zaro ta’sirida samarali bo‘lishi mumkin.

– pedagog hamisha faoliyatga tayyorgarlikni, ya'ni pedagogik bilim va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. Ta'limni standartlashtirish zaruriyati ta'lim sohasini ijtimoiy hodisa sifatida o'zgarishiga olib keldi. O'zbekistonni demokratiyaga, bozor munosabatlariga, shaxs ozodligi va huquqlariga e'tibori o'sishi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini o'zgarishiga olib keladi. Endi ta'lim sohasi davlat manfaatlariga emas, balki shaxsni ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida, ta'limni tashkil etishda o'zgarishlarga olib keldi. O'quv muassasalari ta'lim shakli, metod va mazmuni sohasida mustaqillikka erishildi.

«Standart» tushunchasi inglizcha standart so'zidan olingan bo'lib, «me'yor, namuna, o'lchov» ma'nolarini anglatadi.

Ta'lim standarti — bu bitiruvchini umumiy ta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablar darajasidir.

Ta'lim standarti bir tomondan davlatni fuqaro oldidagi, ikkinchi tomondan fuqaroni ta'lim sohasidagi davlat oldidagi majburiyatini ifodalaydi.

Demak, DTS to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilganidek, DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligini zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim sifatini baholash tartibini va mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti - bu me'yoriy hujjat bo'lib, bakalavrning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talab darajasini aniqlaydi. Pedagogik ta'limni standartlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar bilan bog'liq bo'lib, «me'yor», «namuna» sifatida ishtirok etadi.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

– ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

– mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

– ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy-iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

– sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

– kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

– ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

– mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

– ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

– ta`limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqt-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

– xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

– ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligini uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

– o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

– kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

– milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalari.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo'nalishini va ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashadi. Umumiy o'rta ta'limning vazifalari:

– o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

– o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

– ta'limning uzluksizligini va izchilligini, maktab o'quv dasturlarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridagi o'quv dasturlari bilan uzviy o'zaro bog'lanishini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'lim muntazam bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini, o'quvchi shaxsi qaror topishini, uning qiziqishlari va ijtimoiy o'zini-o'zi aniqlab olish qobiliyatlari rivojlantirilishini ta'minlaydi.

Yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish bo'yicha" Konsepsiyasi, yuqori tashkilotlarning qarorlari va buyruqlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi Xalq ta'limi tizimining barcha turdagi ta'lim muasasalarida ta'lim tili, sinflar va o'quv fanlari kesimida o'quvchilarning darslik va o'quv qo'llanmalarga bo'lgan chtiyojlarini o'rganadi, ularga buyurtma berishni tashkil etadi, buyurtma asosida nashr rejasini tuzadi va tasdiqqa kiritadi.

Darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va nashrga tayyorlash yuzasidan Respublika ta'lim markazining tegishli bo'limlari bilan muntazam hamkorlikda ishlaydi. Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi barcha ta'lim muassasalarini darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirib boradi va nazorat qiladi. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik

kompaniyasi hamda boshqa nashriyotlar, "O'quv ta'lim-ta'minot" Bosh boshqarmasi, "O'zkitobsavdo" Davlat aksionerlik kompaniyasi bilan bevosita hamkorlik qiladi.

Xalq ta'limi tizimidagi barcha ta'lim muasasalarida ta'lim tili, sinflar va o'quv fanlari kesimida o'quvchilarning darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanishi yuzasidan ma'lumotlar bankini yaratadi.

O'quvchilarning darsliklar va o'quv qo'llanmalariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash, unga muvofiq ravishda buyurtma berish, nashr etish va joylarga yetkazish ishlarini tartibga solish maqsadida mavjud darsliklarning inventarizatsiyasini tashkil etadi. Barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari 1-sinf o'quvchilarining, shuningdek, mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internat o'quvchilari hamda kam ta'minlangan oilalar bolalarining darslik va o'quv qo'llanmalari bilan bepul to'liq ta'minlanishini tashkil etadi va ijrosini nazorat qiladi. Joylarga chiqib, darsliklar bilan ta'minlash masalasini o'rganib boradi, xulosalar bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida darslik va o'quv qo'llanmalarning yangi avlodini yaratish va nashr etishni tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarini, o'quvchilarini darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlashning samarali usullarini aniqlaydi, tajriba-sinovdan o'tkazadi va joriiy etadi.

Yangi yaratilgan darsliklarning taqdimotini o'tkazadi, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlarini olib boradi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilarini darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash, o'quv hujjatlarini yuritish yuzasidan Respublika va viloyatlar miqiyosida amaliy seminar-kengashlar, o'quv seminarlar va boshqa anjumanlarni o'tkazadi.

Bo'lim umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash, qat'iy nazorat (hisob)da turgan o'quv hujjatlari yuzasidan tushgan xat, ariza va shikoyatlarni o'rganadi, bo'lim faoliyati doirasidagi masalalar bo'yicha fuqarolarni qabul qiladi hamda mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli choralar ko'radi.

Vazirlik rahbariyati buyrug'iga binoan, ta'lim muassasalari ehtiyoji uchun zarur bo'lgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf jurnallari va maktab o'quv hujjatlarini chop etish va xarid qilish maqsadida tender tanlovlarini tashkillashtirib o'tkazadi.

Nashriyotlar tomonidan umumta'lim maktablarining kutubxona zaxirasi uchun chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarning joylarga yetkazilishi bo'yicha muntazam ma'lumotlar yig'adi.

O'quv dasturi darslik va o'quv qo'llanma yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Darslik - bu aniq soha bo'yicha fan va madaniyat yutuqlarini zamonaviy darajadagi fan asoslarini tizimli ifodalovchi, ta'lim va tarbiyaning maqsad hamda vazifalariga javob beruvchi kitob.

O'quv darsligida o'quv dasturining aniq, to'la mazmuni o'z ifodasini topadi. Darslik bilimni asosiy manbai hisoblanadi. U yordamida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi va u ta'limning asosiy vositasi hisoblanadi. Darslik o'quvchiga o'qishni o'rgatishi kerak. Darslikdagi o'quv materiali mazmuni o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

Roziqovning ta'kidlashicha, o'quv darsliklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Bilish, o'rganish, izlanishga oid qiziqishlarni oshirish funksiyasi.
2. Hayotning turli sohalariga oid bilimlarni egallash, ularning hajmi, mazmunini kengaytirish funksiyasi.
3. O'rganilgan bilimlardan o'quv sharoitida, hayotiy muammolarni hal qilish jarayonlarida foydalanish funksiyasi.
4. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish funksiyasi.
5. Munosabatlarni shakllantirish funksiyasi.

Fanga tegishli shunday mavzular borki, ularni mazmuni ilmiy adabiyotlarda monografiya va ilmiy maqolalarda ochib beriladi.

Monografiya - bu biror bir ilmiy muammoga bag'ishlangan, mazmunida nazariy metodologik yoki nazariy eksperimental hamda tarixiy pedagogik tadqiqot natijalari yoritilgan ilmiy nashr. Monografiyada tadqiqotchining mualliflik nuqtayi nazari asoslanadi.

Ilmiy maqola -bu tadqiqodchining muammo bo'yicha xulosalari va natijalari maqsadi, metodikasi aniq ifodalangan ishidir. Maqola mazmuni muallifning qarashlarini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotni darslik va o'quv qo'llanmadan farqi shuki, uning asosiy vazifasi u yoki bu ilmiy va amaliy muammo bo'yicha ilmiy ma'lumotlar to'g'risida xabar berish hisoblanadi. O'quvchilarga ilmiy adabiyotlarni o'qish va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar berish zarur.

Darslikdagi o'quv materiallarini tizimlashtirish tamoyillari. Hozirgi kunda o'quv mashg'ulotlarining axborot salohiyati kuchayishi va assimilyatsiyani ta'minlaydigan bilimlarni birlashtirish va umumlash-

tirish zarurati bilan bog'liq holda darslikning umumiy didaktik funksiyalar tizimida tizimlashtirish funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. O'quv materialini tanlash va uni tuzilishi o'quv qo'llanmasini funksional maqsadiga va o'quv loyihasini amalga oshirish kontseptual sharoitlariga mos ravishda loyihalashtirishning eng muhim vositalaridan biridir.

"Tamoyil" kategoriyasi mantiqiy va epistemologik, shuningdek, pedagogik adabiyotlarda yetarli darajada aniqlanmagan talqinni oldi. Biz prinsipni, mazmunni ham, o'quv jarayonini ham belgilash, amalga oshirish va takomillashtirishni ko'rsatadigan me'yoriy ta'minot sifatida tushunishga qaratamiz.

Darslikning tizimlashtiruvchi kanalini kuchaytiradigan o'quv materialini tuzishda quyidagi prinsiplar yoki yondashuvlarni asosladik: bular protsessuallik va istiqbollilik tamoyillari. Ushbu tamoyillarni shakllantirish uchun didaktika umumiy muammolari laboratoriyasi tomonidan ishlab chiqilgan kontseptual munosabat va eng avvalo, darslikni o'quv jarayonining ssenariysi sifatida tushunish, samaradorlikni oshirishning umumiy masalalariga oid ba'zi didaktik g'oyalar asos bo'ldi. o'quv jarayoni, shuningdek, mavjud darsliklar va ularning ishlab chiqilgan sinov modellarini tahlil qilish natijalari.

Tanlash va tuzilishdagi protsessuallik prinsipi shuni anglatadiki, har bir o'quv materiali tarkibidagi boshqa elementlar bilan organik aloqada va uni o'zlashtirish jarayonida o'ziga bog'liq element sifatida kiradi. Har bir elementning haqiqiy assimilyatsiyasi har doim predmetning boshqa, keyingi elementlarini o'zlashtirishi va tegishli butunlikni butun o'quv kursigacha anglashi va keyingi sinflarda davom etishi bilan rivojlanib boradi. Protsessual yondashuvning dastlabki tamoyillari L.V.Zankov tomonidan rivojlanayotgan ta'lim tizimiga nisbatan ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyil nafaqat mazmunli ichki va mavzulararo aloqalarni o'rnatishni nazarda tutadi, balki assimilyatsiya jarayonini tashkil qilishni osonlashtiradi, ilgari o'rganilgan narsaga qaytishni, uni yanada keng va mukammal bilim tizimiga kiritishni loyihalaydi.

Matn yordamida o'quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish yo'nalishi barqarorlashdi, matnni mashqlar bilan bog'laydigan vazifalarni tanlash, tizimlashtirish va umumlashtirish yo'nalishlari bayon etildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, deyarli har bir matn kichik kirish va xulosani o'z ichiga oladi, boblar va xatboshilar to'plamini o'z ichiga oladi. Ba'zi matnlar o'rganilgan materialni umumlashtirilgan takrorlashni tashkil qiladi, bu bilimlarni tizimlashtirish uchun juda muhimdir. Darslikda

abzasning yanada to'liq qismlari sifatida yoki ikki yoki uchta jumlaning mikrotexnlari ko'rinishida taqdim etilgan ushbu matnlar ilgari o'rganilgan narsalarni sarhisob qiladi va tarkibning mohiyatan muhim nazariy masalalari ro'yxatini o'z ichiga oladi. Takroriy-umumlashtiruvchi matnlar olingan bilimlarni o'rganish maqsadlari uchun ozmi-ko'pmi muhim deb ierarxik baholaydi.

Qayta ishlab chiqarilgan bilimlar ularni keyinchalik chuqurroq joylashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha bu funksiyani kichik matnlar, kommunikativ aloqalar shaxsiy murojaat shaklida amalga oshiradi "talaba bilim jarayonida sherik sifatida.

Izohli matnlar nafaqat tarkibning bir qismini taqdim etishning mantiqiy mantig'ini ochibgina qolmay, balki tarkib qismlarini boblar va xatboshilar bo'yicha tuzilishini, ushbu bo'limning mavzu bo'yicha bilim tizimidagi o'rnini asoslaydi. Shunday qilib, tushuntirish matnlari talabalarga o'quv tizimidagi o'quv materialining muvofiqlashtirilishi va ierarxik aloqalarini va uning darslikdagi vakolatlarini tushunishga yordam beradi. Matnli bog'lanishlar assimilyatsiya qilishning obyektiv, mazmunli va didaktik mantig'ini ochib beradi ("takrorlash", "to'ldirish", "umumlashtirish" va hk). Umumlashtirish va tizimlashtirish faoliyatini ishlab chiqarish vositasi sifatida matnga muammoli topshiriqlarni, muammoli savollarni kiritish, shuningdek, talabalar matn asosida induktiv va deduktiv xulosalar orqali izlayotgan javoblardan foydalaniladi. Matn topshirig'i talabani tahlil qilish, taqqoslash, yonma-yon joylashtirish, umumiy va boshqalarni ajratish, tizimlashtirishga yo'naltiradi. Sintez matnlari o'quvchilarga organik kimyo kursida bilim tizimlarining darajalari va darajalarini tushunishga yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni deganda nimani tushunasiz?

2.Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar nimalardan iborat?

3.Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumot bering.

4.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat standarti nimalardan iborat?

7-MAVZU. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Metod (yunoncha «metohodos» - yo'l) maqsadga eltuvchi yo'lni ifodalaydi. Ta'lim metodi – ta'lim jarayonida shaxsning ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan, o'zaro aloqador faoliyat yo'lidir, deb ta'rif beradi V.A. Slastyonin.

R.G. Lembergning fikricha, ta'lim metodlari faoliyat singari ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, pedagogik jarayonda subyekt-subyekt munosabatlarini o'rnatadi.

M. M. Pistrakning ta'kidlashicha, «Ta'lim metodi – bu o'qituvchi qo'lidagi qurol, bu o'qituvchi harakati yo'lidir».

P.N.Shimbirevaning yozishicha, «ta'lim metodi – bu yo'l, u yordamida o'qituvchi o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi».

M.N.Skatkinning ta'kidlashicha, «ta'lim metodi bu-o'quvchini bilimni o'zlashtirishga yetaklovchi yo'lidir».

I.Ya..Lerner «ta'lim metodi-bu o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'li» dir deb ta'kidlaydi.

Yu.K.Babanskiy «ta'lim metodi» - bu ta'lim, tarbiya, rivojlanish vazifalarini hal etish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchining aloqador faoliyati yo'lidir» deb ta'kidlaydi.

Ta'lim metodi – bu o'qituvchining o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirishga, turli didaktik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'lidir deb ta'kidlaydi I. F. Harlamov.

G.M.Kodjaspirovaning ta'kidlashicha, «ta'lim metodi – ta'lim mazmunining o'zlashtirilishini, o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarni rivojlanishini ta'minlovchi, o'qituvchi va o'quvchining ketma-ket, o'zaro aloqador harakatlari tizimidir.

Ta'lim metodini uch xil belgi xarakterlaydi. U ta'lim maqsadini, o'zlashtirish yo'llarini, ta'lim subyektlarini o'zaro bog'liqlik harakatlarini aniqlaydi.

Ta'lim metodi-bu ta'lim vazifasini hal qilishga yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, ta'lim metodlarining majmuyi -atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zlashtirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi o'qitish metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

Metod strukturasiga o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida xatti-harakatlari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
- nazorat va o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish usullari;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarini va tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlari – tarixiy kategoriya hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi pedagogik jarayon

maqsadi, mazmuni, vositalariga ta'sir qiladi. Ularning o'zgarishi bilan ta'lim metodlari ham o'zgaradi.

Kishilik jamiyatning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ijtimoiy tajribani kelgusi avlodlarga o'tkazish stixiyali tarzda amalga oshirilgan. Bolalar asosan mehnat ko'nikmalarini kattalar tomonidan bajarilgan harakatlarni kuzatish va takrorlash yo'li bilan o'zlashtirganlar. Ta'lim metodlari asosan taqlidga asoslangan. Kattalarga taqlid qilib, bolalar usti-boshlarni tayyorlash, oziq-ovqat topish yo'l va usullarni o'zlashtirganlar. Bularning asosida ta'limning reproduktiv metodi («men kabi bajar»). Bu o'qitishning eng qadimiy metodi bo'lib, keyinchalik boshqa metodlar paydo bo'ldi. Bilimlar ko'lamining oshishi, madaniy tajribalarni o'zlashtirish darajasini taqlid orqali o'zlashtirilishi ta'minlay olmay qo'ydi.

Maktablarning tashkil etilishi bilan o'qitishning og'zaki metodlari paydo bo'la boshladi. O'qituvchilar so'z yordamida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni uzata boshladilar.

Yozuvning, keyinchalik kitobning paydo bo'lishi bilan belgi shaklda bilimlarni to'plash, uzatish va ifodalashning imkoniyatlari tug'ildi. So'z ma'lumotlarni asosiy tashuvchisi hisoblanib, kitob bo'yicha o'qitish-o'qituvchi va o'quvchining aloqadorligi yo'li paydo bo'ldi.

Kitoblar turlicha qo'llanilgan. O'rta asr maktablarida o'quvchilar matnlarni mexanik tarzda yod olganlar. Shunday qilib, o'qitishning dogmatik metodi paydo bo'ldi.

Buyuk kashfiyotlar davriga kelib o'qitishning og'zaki metodlari qatorida o'quvchilarning tashabbuskorlikka, onglilikka, faollikka yo'naltiruvchi kuzatish, sinov, mashq metodlari paydo bo'ldi. Bular ta'limning ko'rgazmali metodlari nomi bilan qo'llanila boshlandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, o'quvchilarni mustaqilligini rivojlantiruvchi, bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga oluvchi evristik metodlar paydo bo'ldi. «Faoliyat orqali o'qitish» konsepsiyasi vujudga kelishi bilan amaliy metodlardan foydalanila boshlandi. Bunda ta'lim jarayonida asosiy e'tibor amaliy mashg'ulot turidagi o'quvchilarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni shakllantirishga qaratila boshlandi. Keyinchalik bular asosida qisman izlanuvchan, tadqiqotchilik metodlari paydo bo'ldi.

Muammoli o'qitishning vujudga kelishi bilan muammoli ta'lim metodlari qo'llanila boshlandi. Muammoli ta'limda o'quvchilar oldiga o'zlashtirilishi zarur bo'lgan materiallar muammo sifatida qo'yilib, o'quvchilar ushbu muammolarni mustaqil hal etish orqali tabiat va

jamiyat to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishga erishishi bilan xarakterlanadi. Kishilik jamiyatida bolani nafaqat bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi, balki individual xususiyat va qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligini anglagandan so'ng rivojlantiruvchi metodlar qo'llanila boshlandi. O'quv jarayonida texnikaning keng qo'llanilishi, ta'limni kompyuterizatsiyalashishi ko'plab yangi metodlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik pedagog K.Kerr «ta'lim metodlari sohasidagi tub burilishlarni» to'rt bosqichga ajratadi. Kishilik jamiyatining dastlabki rivojlanish bosqichida bolalarni asosiy o'qituvchilari ota-onalar hisoblangan. Birinchi tub burilish ularning o'rniga professional o'qituvchilarning kelishi davri. Ikkinchi tub burilish og'zaki so'zni, nutqni yozuv bilan almashinuvi bilan bog'liq. Uchinchi tub burilish ta'limga bosma so'zning kiritilishi davri. To'rtinchisi ta'limni avtomatizatsiyalashtirish va kompyuterizatsiyalashtirish bilan bog'liq.

Barcha davrlarda metodlarni izlash orqali ta'lim jarayonini shakllantirishga erishib kelingan. Biroq biror bir metod o'z-o'zicha qo'llanilmaydi hamda kerakli natijani ta'minlamaydi. Biror bir metod universal xarakterga ega emas. Ta'lim jarayonida turli-tuman metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim metodlarining mohiyati. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Ta'lim nazariyasida ta'lim metodlarini tasnif etishga oid har xil qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar ta'lim metodlarini bilish manbalariga

ko'ra tasnif etishsa, ikkinchi guruh mutaxassislar o'qituvchi faoliyati xususiyatidan kelib chiqishgan, uchinchi guruh mutaxassislar o'quvchi faoliyatini inobatga olishgan.

Y.I.Perovskiy, N.M.Verzulin, Y.Ya.Golant metodlarni og'zaki, ko'rgazmali va amaliy turlarga ajratishgan.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlar esa metodlarni: bilimlarni o'rganishga oid metodlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari, ijodiy ishlash metodlari, bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari turlariga ajratishgan.

M.N.Skatkin va I.Ya.Lernerlar ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratishgan: izohli-ko'rgazmali metodlar, qayta eslashga oid standart metodlar, muammoli bayon metodi, evristik metod, ilmiy izlanish metodlari.

Yu.K.Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

- o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:
- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A.Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K.Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

- yangi bilimlarni berish metodlari (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza);
- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriyaishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yin, mashqlar;
- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;
- mustaqil ish.

S.P.Baranov o'z ta'limotida ta'lim metodlarini quyidagi guruhlar bo'yicha taqsimlaydi: birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi - o'qituvchi mulohazalarining mantig'iga ergashish, bayon qilinayotgan mazmunni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik

yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchining asosiy vazifasi - o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchinig roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan asoslar bo'yicha (N.M. Verzilin), bilimlar manbayi va o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A.N. Aleksyuk, I.D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlashtirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va mas'uliy-amaliy, tushuntirish-da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M. I. Maxmutov).

Pedagogik amaliyotda ko'p miqdorda ta'lim metodlari to'plangan. Ma'lumotlarni qabul qilish manbalariga va didaktik vazifalariga ko'ra pedagogikada ta'lim metodlarining bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Ko'p tarqalgan o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyati tuzilmaviy elementlariga asoslangan ta'lim metodlari klassifikatsiyasi hisoblanadi:

- og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar;
- reproduktiv va izlanish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar;
- mustaqil ish metodlari;
- nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Har qanday fan o'qituvchisi ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga tayangan holda u yoki bu metodlarni qo'llashni, ularni yutuq va kamchiliklarini bilishi zarur.

Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi

2-jadval

Ta'lim metodlari	Ta'lim metodlari guruhlari
Og'zaki	ma'ruza, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash
Ko'rgazmali	Illyustratsiya va demonstratsiya
Amaliy	Mashq, pedagogik vazifalarni yechish, didaktik va rolli o'yinlar, treninglar, laboratoriya ishi
Induktiv va deduktiv	Analiz, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, sintez, modellashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish
Reproduktiv	Tushuntirish, ma'ruza, hikoya, instruktaj, kitob bilan ishlash, mashq
Muammoli-izlanuvchan	Evristik suhbat, muammoli savol, vaziyatlar tahlili, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish,
Mustaqil ish metodlari	Kitob bilan ishlash, mashq, pedagogik vazifalarni yechish, laboratoriya ishi, loyiha ishlab chiqish, «keys-stadi»
O'quv-biluv faoliyatini stimullashtiruvchi metodlar	O'quv munozaralari, illyustratsiya va namoyish qilish, didaktik o'yinlar, treninglar, yakka loyihalash, laboratoriya ishi
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Og'zaki nazorat: individual va ommaviy so'rov. Yozma nazorat: yozma nazorat ishi, tushuncha va grafik diktant, test. Mashina yordamidagi nazorat: test, virtual laboratoya ishi

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

1)ta'lim metodlarini ta'lim maqsadi va vazifalariga mos kelishi;

2)ta'lim metodlarini ta'lim tamoyillariga mosligi;

3)metodlarni o'rganilayotgan mavzu mazmuniga mosligi;

4)metodlarni o'quvchilar o'quv imkoniyatlari (yosh, jismoniy, psixologik, tayyorgarlik darajasi, talabalarni tarbiyalanganligi va rivojlanganligi)ga mosligi;

5)metodlarni texnik sharoit va ta'lim uchun ajratilgan vaqtga mosligi;

6)ta'lim metodlarini o'qituvchilarning o'z imkoniyatlari (tajribasi, nazariy va amaliy tayyorgarligi, faoliyatning individual stili, o'qituvchining shaxsiy sifatlari)ga mosligi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda ta'limning turli metod va usullari qo'llaniladi. Ular o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Turli ta'lim metodlarining qiyosiy xarakteristikasi

3-jadval

Ta'lim metodlari	Hal etadigan vazifasi				
	Shakllantiradi		Rivojlantiradi		
	bilim	ko'nikma	tafakkur	xotira	nutq
Og'zaki	**	-	-	-	*
Ko'rgazmali	*	*	*	**	-
Amaliy	*	**	**	*	-
Kitob bilan ishlash	*	*	*	*	*
Multimedia bilan ishlash	*	*	*	*	-
Mustaqil ish («keys-stadi»)	**	**	**	*	*
Og'zaki va yozma nazorat	**	*	*	*	**
Munozara, «aqliy hujum»	**	-	**	*	**

Eslatma: (**) to'liq hal etadi; (*) qisman hal etadi; (-) bo'sh hal etadi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u

qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Hikoya – o'quv materiali mazmunini jonli, obrazli, ta'sirli ravishda bayon qilishdir. Hikoya qilib berish mahoratini egallagan o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlarini ta'minlaydi, ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Predmetning xususiyatlariga qarab, hikoya qilib berish o'zgarishi mumkin.

Ifodali hikoya – voqealarni bayon etish, yozuvchilarning va tarixiy arboblarning hayoti haqida gapirib berish.

Tasvirli hikoya – o'simliklar tuzilishini, moddalar tarkibini tasvirlashdir.

Hikoya qilib berishning rejali bo'lishi, uning puxta tuzilishi, ta'sirchan hamda obrazli bo'lishi o'qituvchi hikoyasining zarur fazilatlaridir. Hikoyaning ta'sirchanligi o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Tushuntirish o'quv materialining o'qituvchi tomonidan muntazam va mantiqiy izchillik bilan bayon qilinishidan iboratdir. O'qituvchining tushuntirishida hamisha ko'plab mulohazalar, xulosalar, dalillar bo'ladi.

Tushuntirish hamisha o'qituvchining o'quvchilarga savollar berib turishini va ularni tushuntirish jarayonini kuzatib turishga majbur etishni, o'z fikrlarini aytishlarini taqozo qiladi.

Interfaol ta'lim metodlari. Ta'lim metodlari va usullari bilan ta'lim vositalari uzviy bog'liq. Ta'lim vositasi – bu bilimlarni olish, malakalarni shakllantirish manbai hisoblanib, ularga ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan, uni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, maxsus ishlab chiqilgan predmetlar kiradi. Ta'lim vositasi – bu bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish manbai «ta'lim vositasi» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ta'lim vositalari deganda o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyish etish qurilmalari, texnik vositalar tushuniladi. Keng ma'noda ta'lim vositalari deyilganda ta'lim maqsadiga

erishishni ta'minlovchi metod, shakl, mazmun yig'indisi va maxsus texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari dunyoni bilvosita va bevosita bilishni yengillashtirishga xizimat qiladi. Ular ham metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni bajarib, o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Didaktik vositalar ta'limning boshqa elementlari bilan aloqadorlikda qo'llanilgandagina o'z qadrini yo'qotmaydi.

Ta'lim vositalari turli asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi: faoliyat subyektiga, obyektlar tarkibiga va o'quv axboroti munosabatiga ko'ra. Masalan, faoliyat subyektiga ko'ra o'qitish vositalari va o'qish vositalariga bo'linadi.

Ta'lim vositalariga: turli xildagi ko'rgazmalar, namoyish qilish qurollari, axborot vositalari, elektron doska, yozish vositalari, kompyuter.

Bulardan tashqari o'qituvchi nutqi ham o'qitish vositasi hisoblanadi. Talabalarni o'quv materialini sifatli o'zlashtirib olishlari uni qanday gapirishi, asosiy g'oyani ajratib berishi, turli tushunchalarni qanday tushuntirib berishiga bog'liq.

O'qish vositalariga: darslik, daftar, ruchka, didaktik tarqatma materiallar, sxemalar, tayanch konspektlari, laboratoriya qurollari, individual axborot vositalari kiradi.

Obyektlar tarkibiga ko'ra vositalar moddiy va ideal vositalarga bo'linadi. Moddiy vositalarga: darslik va o'quv qo'llanmalari, jadvallar, modellar, maketlar, axborot vositalari, kompyuter, o'quv-texnik vositalar, laboratoriya anjomlari, mebellar, mashg'ulot jadvali v. b.

Ta'limning ideal vositalari - bu o'qituvchi va talabalar yangi mavzuni o'zlashtirish va tushuntirish uchun qo'llaydigan avval o'zlashtirilgan bilim, malakalar. Masalan, g'oya ta'limning ideal vositasi hisoblanadi.

Mashhur polyak didakti V.Okon ta'lim vositalarini oddiy va murakkab turlariga ajratadi.

Oddiy vositalar:

1)og'zaki vositalar: darslik va boshqa matnlar;

2)oddiy ko'rish vositalari: real predmetlar, modellar, rasmlar.

3)Murakkab vositalar:

4)mexanik ko'rish vositalari: kodoskop, diaproyektor va b.;

5)eshitish vositalari: proigrivatel, magnitofon, radio;

6)audiovizual (ko'rish-eshitish): ovozli film, TV, video;

7)ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar: multimediyali kabinetlar, kompyuterlar, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmog'i.

Shunday qilib, ta'lim sifati ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, aloqalariga bog'liq. Ta'lim vositasini tanlashda ularni qanday didaktik vazifalarni bajarishini, qanday natijalarga olib kelishini bilish zarur.

O'quvchilarni samarali o'qitishda ta'limiy muhit, ya'ni o'quv xonasi katta rol o'ynaydi.

O'quv kabineti - bu o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish markazi hamda fan bo'yicha o'qishdan tashqari ishlarni tashkillash markazi hisoblanadi. O'quv xonasining maqsadi yoshlarda tanlagan mutaxassisligiga ijobiy munosabatni shakllantirish, fanlarni o'rganishga qiziqishlarini rivojlantirish.

O'quv xonasi - bu maslahatli yordam markazi hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quv xonasi zaruriy axborot telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlanishi zarur. Shunday qilib, o'quv kabineti auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mo'ljallanib, unda o'quvchilarni kasbga yo'llash tayyorgarligi shakllanadi.

Evristik metodlar. Evristik ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida O'quvchilarni zarur bilimlarni o'zlari izlanib topishi, ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llashi, xulosa chiqarishlariga yo'naltiradigan pedagogik texnologiyalardandir.

"Evristika" so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "izlayman", "kashf qilaman" degan ma'noni bildiradi.

"Didaktik evristika» atamasi «evristika» atamasidan ma'no bo'yicha farqlanadi. Keng ma'noda evristika – insonlarning izlanayotgan sohalar: kibernetika, psixologiya, kriminalistika, tibbiyot, falsafa va boshqalarda yangi natijalar olish maqsadida qilayotgan ijodiyoti, ijodiy faoliyati haqidagi fan.

Fan sifatida evristika yangilikni kashf etish jarayonlarini tushuntirish, tizimga solish va bashorat qilishni maqsad qilib qo'ygan. Didaktik evristikaning esa maqsadi esa – o'quvchi va o'qituvchilarning ta'lim mahsullarini yaratishga qaratilgan faoliyati orqali ularning individual imkoniyatlarini ochib berishdir.

Evristik metod ma'lum bir muammoning samarali yechimiga erishish uchun turli xil empirik jarayonlarni, ya'ni tajriba, amaliyot va faktlarni kuzatish asosida strategiyalarni qo'llash asosida quriladi.

Aynan venger matematikasi Jorj Polya (1887-1985) ushbu kitobni kitoblaridan birini nashr etish bilan ommalashtirdi. *Buni qanday hal qilish kerak* (*Buni qanday hal qilish kerak*).

Yoshligida turli xil matematik testlarni o'rganish va tushunish orqali u ushbu testlarni qanday hal qilish uchun kelganini ko'rib chiqa boshladi.

Bu tashvish uni keyinchalik shogirdlariga o'rgatgan turli xil evristik protseduralar orqali aynan shu bahsga olib keldi. Ularning strategiyalari:

- Muammoning sxemasini tuzing.
- Muammoning teskari tomonida uning yechimini toping, reja tuzing.
- Agar mavhum muammo bo'lsa, rejani bajaradigan aniq misolni o'rganishga harakat qiling.

Asos sifatida muammoni umumiy ma'noda ko'rib chiqing.

Tekshiring.

Birinchi nuqta bo'yicha Polya, bu juda aniq bo'lib tuyuladi, chunki u ko'pincha esga olinmaydi, ammo ba'zida talabalar o'z muammolarini hal qilishda to'sqinlik qiladilar, chunki ular buni to'liq yoki hatto qisman tushunmaydilar.

Keyinchalik, ikkinchi bo'limida reja tuzish haqida gap ketganda, Polya muammolarni hal qilishning ko'plab oqilona usullari mavjudligini eslatib o'tdi.

Tegishli strategiyani tanlash qobiliyati ko'plab muammolarni hal qilish orqali yaxshiroq o'rganiladi. Shu tarzda, strategiyani tanlash osonroq bo'ladi.

Uchinchi qadam odatda rejani tuzishdan ko'ra osonroqdir. Umuman olganda, sizga g'amxo'rlik va sabr-toqat kerak, chunki siz allaqachon kerakli ko'nikmalarga egasiz. Tanlagan rejangizga sodiq qoling. Agar u ishlamasa, uni tashlang va boshqasini tanlang.

To'rtinchi qadamda Polya nimalar qilingan, nima ishlagan va nima bo'lmaganligini aks ettirishga vaqt ajratish uchun vaqt ajratish kerakligini eslatib o'tadi. Buni amalga oshirish kelajakdagi muammolarni hal qilish uchun qaysi strategiyadan foydalanishni bashorat qilishga imkon beradi.

O'qitishda evristik usul

Evristik usul bu fanni o'qituvchidan mustaqil ravishda anglash uchun kashfiyot usuli. U yozganlari va o'qitishi. Siti va Gildlar instituti (London) kimyo professori Armstrong maktablarda fanlarni o'qitishni targ'ib qilishda juda katta ta'sir ko'rsatdi.

U laboratoriya mashg'ulotlarining maxsus turi (evristik mashg'ulotlar) uchun kuchli advokat edi. Bu yerda talaba mustaqil ravishda kashfiyotga o'tadi, shuning uchun o'qituvchi ushbu usul bo'yicha yordam yoki ko'rsatma bermaydi.

O'qituvchi talabalar uchun muammo tug'diradi, keyin ular javobni aniqlayotganda chetda turadi.

Usul talabalardan bir qator eksperimental masalalarni yechishni talab qiladi. Har bir talaba o'zi uchun hamma narsani kashf qilishi kerak va unga hech narsa aytilmaydi. Talabalar tajribalar, gadjetlar va kitoblar yordamida faktlarni kashf etishga yetaklaydi. Ushbu usulda bolalar o'zini tergovchi kabi tutishadi.

Bosqichma-bosqich boshqariladigan evristik usulda talabaga minimal ko'rsatma berilgan muammoli varaq beriladi va ko'rib chiqilayotgan muammo bilan bog'liq eksperimentlarni bajarishi talab etiladi.

Siz ko'rsatmalarga rioya qilishingiz va o'zingizning qilgan ishlaringiz va erishilgan natijalaringiz haqidagi hisobotingizni daftaringizga kiritishingiz kerak. U o'z xulosasini ham qo'yishi kerak. Shu tarzda, u kuzatuvdan tadqiqot olib boradi.

Fanni o'qitishning ushbu usuli quyidagi afzalliklarga ega:

- Talabalar o'rtasida suratga olish va izlanish odatini rivojlantiradi.
- O'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini boshqarish odatini rivojlantirish.
- Bu talabalar o'rtasida ilmiy munosabatlarni rivojlantiradi, ularni haqiqat va halollikka aylantiradi, shunda ular haqiqiy tajribalar orqali qarorlarga kelishni o'rganadilar.
- Bu psixologik jihatdan sog'lom ta'lim tizimidir, chunki u maksimal darajada "bajarish orqali o'rganish"ga asoslangan.
- Talabalarda mehnatsevarlik odatini shakllantirish.
- Ushbu usulda ishlarning aksariyati maktabda olib boriladi va shu sababli o'qituvchi uy vazifasini tayinlashdan tashvishlanmaydi.
- Bu o'qituvchining individual e'tiborini va yaqinroq aloqalarini ta'minlaydi.
- Ushbu aloqalar o'qituvchi va talaba o'rtasida samimiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

Evristik metodni ma'lum bir fanni o'qitishda qo'llashning kamchiliklari sifatida quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin:

- Usul o'qituvchidan katta samaradorlik va mashaqqatli mehnat, tajriba va tayyorgarlikni kutadi.
- O'qituvchi tomonidan mavzuning o'lchov va miqdoriy ishlarni nazarda tutmaydigan muhim tarmoqlarini e'tiborsiz qoldirib, o'zlarini evristik davolanishga bag'ishlaydigan filiallari va qismlarini ta'kidlash tendentsiyasi mavjud.
- Bu yangi boshlanuvchilar uchun mos emas. Dastlabki bosqichda talabalarga yetarlicha ko'rsatma kerak, agar u berilmasa, u o'quvchilarga nisbatan yoqimsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

- Ushbu uslubda talabaning umuman fan mohiyati to'g'risida noto'g'ri g'oyani shakllantirishiga olib kelishi mumkin bo'lgan amaliy ishlarga juda katta ahamiyat beriladi. Ular ilm-fan laboratoriyada bajarilishi kerak bo'lgan narsadir, deb ishonishadi.

Ta'lim metodlarini tanlab olish. Ta'lim nazariyasida o'qituvchilarni amaliy tajribalarini umumlashtirish va o'rganish asosida o'quv-tarbiya jarayonlarida ta'lim metodlarini tanlashga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ta'lim metodlarini tanlash:

– o'quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, ta'lim berish, ma'lumotli qilish umumiy maqsadlariga;

– o'quv predmeti va mavzu mazmuniga;

– aniq o'quv predmetini o'qitish metodikasi xususiyatlariga;

– aniq bir darsning maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga;

– materialni o'rgatish uchun ajratilgan vaqtga;

– o'quvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlari darajalariga va o'quvchilarni tayyorgarlik darajalariga;

– o'quv muassasasini moddiy, uslubiy ta'minlanganligiga;

– o'qituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bog'liq.

Yuqoridagi mezonlarga ko'ra o'qituvchi darsda u yoki bu metodlardan foydalanadi.

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;

- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

- o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;

O'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi. O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

Umumiy pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflash bo'yicha turli xil yondashuvlarni tahlil qilish ushbu muammoning dolzarb, murakkab va bugungi kunda yakuniy yechimiga ega emasligidan dalolat beradi. V.G.Kremenning ta'kidlashicha, "... o'qitish va tarbiyalash usullarini ishlab chiqishda ular bola shakllanib, yaxlit rivojlanib boradigan ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan, tizimdagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan". - ijtimoiy muhit – shaxsning o'sib borishi", bolaning ijtimoiy munosabatlar sohasidagi yoshga bog'liq imkoniyatlarini hisobga olgan holda qabul qilinmadi. Shunday qilib, shaxsiy komponent ilmiy va pedagogik bilishda ishtirok etmagan, bu "bolasiz" pedagogikaning asosiy belgisi hisoblanadi ...

Ba'zi mualliflar, masalan Yu.K.Babanskiy, faol o'qitish usullarini ajratib, ularni alohida guruhga yo'naltiradi. Buning sababi, ehtimol ularning yangiligi, nostandart va o'ziga xosligi o'zini oqlaydi. Biroq, muallifning fikriga ko'ra, ularni an'anaviy o'qitish usullaridan sun'iy ravishda ajratish faqat o'quv faoliyati nazariyasi va amaliyotiga zarar yetkazadi, chunki bu muammoga bunday munosabat ba'zi o'qituvchilarni qo'rqitadi. An'anaviy va noan'anaviy o'qitish usullarini har tomonlama ko'rib chiqish va qo'llash, ularni o'quv faoliyatining umumiy metodologiyasiga o'tkazishgina ushbu o'ta murakkab pedagogik muammoni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi. Shuning uchun ham, muallifning fikriga ko'ra, ularni yangi, zamonaviy usullar tufayli boyitadigan va takomillashtiradigan an'anaviy o'qitish usullarining tegishli guruhlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ma'lum bir o'qitish uslubini tanlashni belgilaydigan umumiy shartlar ta'kidlangan: o'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari va ulardan kelib chiqadigan shart-sharoitlar; umuman ma'lum bir fanning mazmuni va usullari va xususan mavzu va mavzu; treningning maqsad va vazifalari; talabalarning bilim olish imkoniyatlari; o'qituvchilar uchun imkoniyatlar.

Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari. Ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liqdir.

Ta'lim vositalarini foydalanilishi jihatidan quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

Ba'zi hollarda ta'lim oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lim vositasi ta'lim beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham talab etiladi. Bundan tashqari ta'lim vositalarini xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin:

2-shakl. Ta'lim vositalarini tanlash.



Ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi vositalar ta'lim vositalari deb ataladi. Umuman, ta'lim vositalari o'quvchi-talabalar uchun ta'lim jarayonida atrof-muhitni va o'rganilayotgan voqea-hodisalar mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi. O'qituvchi uchun, axborot negizi sifatida, ta'lim jarayonini tashkil qilishda va bilimni nazorat qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim vositalarini o'quv maqsadlari jihatdan vizuallashtirish vositalarining turlarining funksiyasi xususiyatlariga ko'ra olti turga ajratish mumkin (14-shakl).

Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.

Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

3-shakl. Ta'lim vositalarining turlari.



Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan misol uchun: darslik va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarda ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar (shakllar), asbob-uskunalardan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar – jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ishlab chiqarish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xom ashyolar, asbob-uskunlar, mashinalar, traktorlar, stanoklar va boshqalar dars jarayonida didaktik vazifaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanishi mumkin.

Ta'lim jarayonida yordamchi, ya'ni texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rin egallaydi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir. Ushbu texnik vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda foydalanish mumkin.

Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta'lim beruvchilar doska tasvirlari, flipsart tasvirlari va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqaradilar. Shu sababli o'qituvchi texnik vositalardan foydalanish qoidalarini bilishi, ularning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olishi lozim. Quyida ***bo'r doska, flipchart, kodoskop, pinbord doskasi va videoproektor*** kabi texnik vositalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishga harakat qilamiz.

Bo'r doska nazariy va amaliy (seminar) darslarida eng ko'p qo'llaniladigan o'quv vositasi hisoblanadi.

Doskadan foydalanishni avval puxta rejalashtirib olish zarur. Buning uchun o'tiladigan mavzu bo'yicha doskaga yoziladigan matn va chizmalar tartib bilan rejalashtirilib, qog'ozga xomaki varianti ishlab chiqiladi.

O‘quv maqsadlari jihatidan vizuallashtirish vositalarining funksiyasi va turlari

Matn-vizual vositalar

Ma’lumot olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun:
- O‘quv dasturlari
- Maxsus adabiyotlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalari ma’ruza matnlari
- O‘quv-didaktik materiallar, tarqatma materiallar
- Imtihon va nazorat varaqalari
- Kseroko‘chirma o‘quv materiallari



Tasvirli-vizual vositalar

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun:
- Fotosuratlar va tasvirlar
- Eskiz, chizma va shakl (sxema)lar
- Ramziy tasvirlar, reja-jadvallar, simvollar, geografik xaritalar
- Diagramma va grafikalar, plakatlar



Audio-vizual vositalar

Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali haqiqiy tasavvurlarni vujudga keltirish uchun:
- Video filmlar
- Filmlar
- Dia-tovushli mahsulotlar, Power Point materiallari
- Kompakt disklar (CD-Rom), audio kassetalar
- Elektron darsliklar



Yordamchi (jihozli)-vizual vositalar

Tasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun:
- Doskalar (bo'r doska, oq doska, magnit doska)
- "pinbord" doskasi
- Videoproektor, videoproektor ekrani
- Kodoskop
- Kompyuter
- Flipchart
- Audiomagnitafon, videomagnitofon
- Televizor, videofilmlar, multimedia



Modelli-vizual vositalar

O'rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqida tasavvur hosil qilish uchun:
- Modellar
- Maketlar
- Trenajyorlar
- Mulyajlar



Haqiqiy-vizual vositalar

O'rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun:
- Asbob-uskunalar, jihozlar, dastgohlar, mashinalar, traktorlar
- Stanoklar
- Yarim tayyor va tayyor mahsulotlar
- Xom-ashyolar



Doskadan foydalanishning asosiy qoidalari:

- barcha yordamchi vositalarni oldindan tayyorlab qo'yish;
- doskaga aniq va orfografik xatolarsiz yozish;
- matn yoki chizmalar oraliqlarini bir xil taqsimlash;
- rangli bo'rlarni didaktik talablarga mos kelgan holatda ishlatish;
- ta'lim oluvchilar bilan "ko'z aloqasi"ni saqlab turish;
- faqat bir tomonga emas, barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish;
- o'zlashtirish natijalarini tekshirib turish;
- muhim bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tiborni yordamchi vositalar yordamida kiritish.

Doskaning afzalliklari:

- arzonligi;
- ma'lumotlarni taqdimot qilish uchun qulayligi;
- yozuvlar yozish uchun ishlatilishi;
- asosiy punktlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkinligi;
- chizma va grafiklarni chizib ko'rsatish mumkinligi;
- diqqatni jalb qilish uchun foydalanilishi.

Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:

- doskaga diqqat bilan yozish ta'lim beruvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u ta'lim oluvchilarga teskari o'girilishga majbur bo'ladi;
- doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo'llash mumkin emas;
- doskaga yozish ko'p vaqtni talab qiladi.

Flipchart doskasining asosiy qulayligi shundaki, bu matnni o'chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy yetishmasligidan yozilgan yozuvlarni o'chirishga hojat yo'q, faqat yetarlicha qog'oz bo'lishi talab etiladi. Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so'ng bu qog'ozni yana doskaga osib qo'yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchartning boshqa qulayligi sinf xonasi yoki auditoriyadagi devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati hisoblanadi. Bir guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish, taqqoslash va saqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo'q.

Flipchart doskadan nima maqsadda foydalaniladi?

- guruhiy bahs-munozaralarning natijalarini saqlash va ularni kelajakdagi tadbirlarda ishlatish uchun;
- jarayonning bosqichlarini ko'rsatish uchun;

• taqdimotni tashkillashtirish uchun;

• turli masalalar bo'yicha asosiy qismlarini ajratib ko'rsatish uchun.

Flipchart doskaning afzalliklari:

• flipchart doskani kerakli joyga siljitish mumkinligi;

• foydalanishning qulayligi;

• taqdimot uchun foydalanish mumkinligi;

• varaqalarni saqlab qo'yib, kerakli vaqtda undagi ma'lumotlardan takror foydalanish mumkinligi;

• turli rangli markerlardan foydalanish imkoniyati;

• o'quvchi-talabalarning diqqatini jalb etish uchun foydalanish mumkinligi.

Flipchart doskaning kamchiliklari:

• yozuv tushunarli bo'lishi kerak, aks holda uni o'qish qiyin bo'ladi;

• xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to'g'rilangan joylar doim ko'rinib turadi;

• varaqlarni nusxalashtirish faqat fotosurat yoki ko'chirib yozish orqali mumkin emas xalos;

• ko'p flipchart qog'ozlari talab etiladi.

Kodoskop ta'lim beruvchi uchun sath (ekran), shuningdek, plyonka-slaydlar o'quv materialini eng yuqori darajadagi taqdimot qilish imkoniyatini beradi. Kodoskopning asosiy qulayligi shundaki, plyonka-slaydlarni kompyuterda yoki qo'lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o'rni o'zgarganida boshqa joyga o'tkazish mumkin. Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug'lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

• audetatli qog'oz – sun'iy toladan qilingan tiniq qog'oz;

• alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo'lgan slaydlar;

• slaydlarga yozish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv bilan o'chirish mumkin bo'lgan);

• slaydlarni tozalash uchun spirt;

• simvolli asboblar (shablonlar, chizg'ich va shu kabilar).

Kodoskopdan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini va tozaligini tekshirish lozim. Slaydlar taqdimot qilinishidan avval tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lim oluvchilar bilan

doim ***"ko'z aloqasi"***ni saqlab turish va barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Slaydlarga ishlov berishda shrift (harf) turi va shrift kattaligi bo'yicha qoidalarga rioya qilib, yaxshi o'qilishi mumkin bo'lgan slaydlarni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari slaydlarni tayyorlashda ularning dizayniga ham katta e'tibor berish, ranglarni haddan tashqari ko'p ishlatmaslik lozim.

Kodoskopning qulayliklari:

- kodoskopni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- slaydlarni qo'lda, fotonusxa va kompyuter yordamida tayyorlash mumkinligi;
- slaydlarning katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlanib, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;
- ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan "ko'z aloqasi"ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Kodoskopning kamchiliklari:

- kodoskop bo'r doska yoki flipchart doskaga qaraganda qimmatroq;
- ko'pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga haddan tashqari ko'p ma'lumot yoziladi;
- slayd ustida to'g'rilash ko'pincha murakkab (kodoskop nuridan doimo ko'rinadi);
- ranglardan tashqari ko'p foydalanish;
- ko'p elektr energiyasini talab qiladi.

Pinbord inglizcha so'z bo'lib, ("pin" – mahkamlash, "bord" – doska) doskaga mustahkamlash degan ma'noni anglatadi.

Qoidaga ko'ra, **pinbord doskasi** ustiga o'rash uchun qog'oz tortiladi va qo'shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo'lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mustahkamlanadi. Ishni tugatgandan so'ng kartochkalarni o'rash, qog'oziga yopishtirish va ularni navbatdagi tadbirlar uchun qo'llash mumkin. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yig'ilishlarda muhim o'rin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko'rgazmali qilish mumkin.

Pinbord doskasining afzalliklari:

- pinbord doskani siljitish mumkinligi;
- ma'lumotlarni doskaga mustahkamlash imkoniyati;
- kartochkalarni guruhlash imkoniyati;
- turli rangli qog'ozlardan foydalanish mumkinligi.

Pinbord doskasining kamchiligi:

- ko'p qog'oz talab etilishi;
- kartochkadagi yozuvlarning turli-tumanligi.

Videoproektor o'quv jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy vositalardan biri hisoblanadi. Videoproektordan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari talab etiladi. Oldindan tayyorlangan o'quv materiallarini kompyuterga ulangan videoproektor orqali maxsus ekranga taqdimot etish mumkin. Kompyuter xotirasida yoki kompakt disk va oddiy disketdagi materiallarni videoproektor orqali ta'lim oluvchilarga namoyish qilish mumkin. Videoproektor kodoskop kabi ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Asosiy materiallarni kompyuterda ta'lim beruvchi o'zi tayyorlashi mumkin yoki professional darajada tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish mumkin. O'quv materiallarini turli kompyuter dasturlarida, jumladan, **Word, Excel, Power Point, Corel Draw** dasturlarida tayyorlanishi mumkin.

Videoproektordan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini tekshirish lozim. Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lim oluvchilar bilan doim **"ko'z aloqasi"**ni saqlab turish va barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Videoproektorning qulayliklari:

- videoproektorni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- o'quv materiallarini kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi;
- o'quv materialidagi kamchiliklarni tezda tuzatish va takomillashtirib borish imkoniyatining mavjudligi;
- animatsiyalar orqali tasvirlarni "jonlantirish" va harakatlantirish imkoniyati;
- o'quv materiallarining katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;

• ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan **"ko'z aloqasi"**ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Videoproektorning kamchiliklari:

• videoproektor boshqa texnik vositalarga nisbatan qimmatroq;

• ta'lim beruvchidan kompyuter va videoproektordan foydalanish ko'nikmasining talab etilishi;

• fonni va ranglarni noto'g'ri tanlash oqibatida ko'zning toliqishi;

• animatsiyadan noto'g'ri foydalanish oqibatida berilayotgan mazmunning ikkinchi darajali bo'lib qolishi va ***"shou" (tomosha)***ga aylanib ketishiga olib kelishi;

• ko'p elektr energiyasining talab etilishi.

Shuningdek, texnik vositalarni dars jarayonida o'z o'rnida va samarali foydalanilsa, ta'lim jarayonida o'quv materiali mazmunini o'zlashtirishga katta yordam beradi. Yuqorida ta'rif berilgan ta'lim va texnik vositalar dars jarayonini ko'rgazmali qilishga, o'quv materialining o'zlashtirilishini yengillashtirishga va ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko'rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalar kabi didaktik tamoyillardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Chunki ta'lim va texnik vositalardan foydalanishning mohiyati, ta'lim oluvchilarda bilimlarni ko'rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.[16]

Xulosa qilib aytish mumkinki, dars jarayonida ta'lim va texnik vositalardan foydalanishning didaktik vazifalari quyidagilardan iborat:

– o'rganiladigan hodisa yoki obyekt haqida to'liq va aniq axborot berish, shu bilan ta'lim sifatini oshirishga imkoniyat yaratish;

– o'quvchi-talabalarning anglashga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada rivojlanishiga yordam berish;

– ta'limning ko'rgazmali bo'lishini ko'tarish, o'quvchi-talabalar uchun qiyin bo'lgan materiallarni tushunishini ta'minlash;

– o'quvchi-talabalar mehnatini unumli qilish, shu asosda o'quv materialini o'rganishni tezlashtirish;

– darsda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini ko'proq uyushtirish va hokazolar.[17]

Interaktiv dasturiy vositalar. Axborot obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to'plamidir. Olingan axborotlar belgili,

---

[16] X.Rashidov, X.Xabib, G.Eldasheva, A.Zakirov. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2007. – 93-98, 109-112-betlar.

[17] A.Zunnunov, U.Mahkamov. Didaktika. O'quv qo'llanma. – T.: "Sharq" NMAKBT, 2006. – 72-23-betlar.

matnli va grafikali ko'rinishda ifodalanadi Belgili ko'rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar va shu kabi belgilar ko'rinishdan iborat bo'ladi. Undan turli hodisalar haqida murakkab bo'lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi. Masalan, ko'chadagi svetoforning yashil chirog'i transport va yo'lovchi odamlarning harakatlanishini bildirsa, qizil chiroq esa, aksincha, harakatlanishni taqiqlaydi. Sariq chiroq esa ko'cha harakatining almashinishi haqida xabar beradi. Matnli ko'rinish axborotni tasvirlashning deyarli murakkab ko'rinishidir. Bunda ham yuqorida keltirilganidek, harflar, raqamlar, matematik belgilardan foydalaniladi. Lekin, axborotni tasvirlashda nafaqat mazkur belgilardan foydalanamiz, balki ularning tutgan o'rni ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "nok" va "kon" so'zlari bir xil harflardan iborat bo'lsa-da, lekin turli xil axborotni bildiradi. Matnli belgilardan amalda juda keng foydalaniladi. Jahonda juda ko'plab kitoblar, oynomalar, kundalik ro'znomalar va hokazolar matnli ko'rinishda chop etilmoqda. Axborotni tasvirlashning juda katta va murakkab ko'rinishi grafikali ko'rinish hisoblanadi. Bunga turli xil shakllarning tabiiy ko'rinishi, fotografiya, chizmalar, sxemalar va rasmlar kiradi. Bir-birimiz bilan o'zaro almashinayotgan axborotlar nutq yoki yozma shaklda bo'lib, belgili axborotlar deb ataladi. Ular yozma matnlar, harflar, tinish belgilar, raqamlar va boshqa belgilardan iborat bo'ladi.

Og'zaki nutq ham belgilardan iborat, lekin bu belgilar yozma emas balki ovozlidir. Tilshunoslar buni fonemlar deb ataydilar. Fonemlardan so'zlar yig'iladi, so'zlardan esa iboralar hosil bo'ladi. Yozma belgilar va ovozlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa mavjud. Dastlab ovoz, so'ngra yozuv paydo bo'lgan. Inson nutqini qog'ozga tushirishning zarurati tufayli, yozuvga ehtiyoj paydo bo'lgan. Alohida harflar yoki harflar birikmasi nutq ovozini, tinish belgilar esa pauzalarni, intonatsiyalarni ifodalaydi.

XX asrning 70-yillarida mikroprotsessor texnologiyasining kashf etilishi va shaxsiy kompyuterlarning hayotimizga keng kirib kelishi, yangi axborot inqilobini vujudga keltirdi. Bu inqilob yangi soha hisoblanmish, ya'ni bilimlarni ishlab chiqish uchun yangi texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq axborot sanoatining rivojlanishini ilgari surmoqda. Axborot texnologiyalari, xususan, telekommunikatsiyaning barcha turlari axborot sanoatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig'ish, ishlov berish

va uzatishning vosita va uslublarining jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Telekommunikatsiya – kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan samarali foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu jamiyatda ko'pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo'ladilar. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga yo'naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu holatlar aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Har bir insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladiki, natijada bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Ushbu jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida eng muhim tushunchalardan biri, axborot zaxiralari hisoblanadi. Axborot zaxiralari-alohida hujjatlar, axborot tizimlari, ya'ni kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, shuningdek, boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar to'plamidir.

Hozirda multimedia ta'lim jarayonida juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'limda multimedia texnologiyasini tadbiq etish uchun dastlab, "Multimedia nima o'zi?" degan savolga javob beraylik. *Multimedia*- tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. *«Multimedia»* so'zi lotincha *«media»* so'zidan olingan bo'lib, *«ma'lumot tashuvchi vosita»* degan ma'noni anglatadi. Multimediali kompyuterlar so'z, musiqa va boshqa ovozli ma'lumotlar, video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-yillarning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta'rif berish mumkin: **multimedia** – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari

audio, video, matn, grafika va animatsiya obyektlarning fazodagi harakati samaradorligi asosida o'quv materiallarini o'quvchi-talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia hozirda juda tez gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- an'anaviy axborot turlari, ya'ni matn, jadval, turli xil bezaklar va original axborot turlari, ya'ni nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) ko'rinishidagi axborot turlarini bir dasturiy mahsulotda mujassamlashtirilganligi;

- video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi. Bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'qitishning bu usulini ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hozirda amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida o'quvchi-talabalarni o'qitish ikki barobar samarali bo'lmoqda. Mazkur vosita yordamida o'qitishda an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan o'rtacha 30 foizgacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar o'quvchi-talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtdan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchi-talabalarga berilayotgan materiallarni video (ko'rish) orqali amalga oshirsak, axborotning xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30 foizgacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchi-talabalarga berilsa, materialarni xotirada saqlab qolish 75 foizga oshishi kuzatilmoqda.

5-shakl



Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga bilim berish quyidagi afzalliklarga ega:

- ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ma'lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishuvi;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishuvi.

Lekin, mazkur vositani ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni qo'llanma shaklida kompyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;

• ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

O'quv materiallarini yaratish bo'yicha hozirda Respublikamizda katta ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi metodist mutaxassislar jalb qilingan bo'lib, o'quv va didaktik materiallari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yaratilmoqda.

Kompyuter yordamida o'quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin. Matnni qo'lyozma shaklida tayyorlab olish kerak. Matn tayyor bo'lgach, uni matnni qayta ishlovchi dastur, misol uchun Word dasturi orqali kompyuterga kiritish mumkin. Grafiklarni kiritish uchun Power Point taqdimot dasturidan foydalaniladi. Ikkala dastur birga matn va grafik kombinatsiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor taqdimotni kompyuter ekranida, videoproektor yordamida katta ekranda namoyish qilish mumkin. Taqdimotni tashkil qilish – slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Taqdimot axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va hokazolarga bog'liq ekanligini ham unutmaslik lozim.

Power Point dasturi **Microsoft** firmasining **Windows** qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda, bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin.

Power Point dasturida taqdimot materiallarini tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat: (15-shakl)

- g'oyaning shakllanishi;
- ma'lumot yig'ish;

- reja tuzish;
- matn tanlash;
- dizayn tanlash;
- animatsiya tanlash.

6-shakl. Taqdimot materiallarini tayyorlash bosqichlari.



Yuqoridagi shakldan ko'rinib turibdiki, taqdimot materiallarini tayyorlashning birinchi bosqichi tayyorlanadigan material bo'yicha g'oyaning shakllanishidir. Ya'ni, material kimlar uchun mo'ljallangan va qanday ko'rinishda bo'lishi to'g'risida yaratuvchida bir necha g'oyalar shakllanadi. Ikkinchi bosqichda material bo'yicha kerakli ma'lumot yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar mavzuga taalluqli va aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Aks holda keraksiz va foydasiz ma'lumotlar yig'ilishiga hamda vaqtning behuda sarflanishiga olib keladi. Uchinchi bosqich reja tuzish bosqichi hisoblanib, unda materiallar saralanib olinadi va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish rejalashtiriladi. To'rtinchi bosqichda saralab olingan materiallar ichidan slaydga beriladigan matn tanlab olinadi. Slaydlardagi matnlar juda ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Matnlar qisqartirilgan ko'rinishda tanlab olinadi. Bir slayddagi matnlar 7-8 qatordan oshmasligi lozim. Ta'lim beruvchi dars jarayonida qisqartirilgan matnlarni og'zaki to'ldirilgan holda tushuntirib beradi. Dizayn tanlash bosqichida matnning shrifti, matnga qo'shimcha rasm, chizma, grafika va ranglar tanlab olinadi. Shundan so'ng, ya'ni oltinchi bosqichda barcha tanlab olingan materiallarga animatsiya qo'yiladi. **Animatsiya**da matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berish

imkoniyatlari mavjud. Animatsiyadan foydalanish materialni yanada jonliroq va qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim oluvchiga berilgan materialning uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishiga va ularning motivatsiyasining oshishiga yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Ta'lim metodlari va usullari tushunchalarini izohlang.
2.Ta'lim metodlarining mohiyati qanday?
3.Interfaol ta'lim metodlarini izohlang.
4.Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari qanday bo'ladi?
5.Evristik metodlarni ta'riflang.
6.Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari haqida ma'lumot bering
7.Interaktiv dasturiy vositalar deganda nimani tushunasiz?

8-MAVZU. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. O'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligi ta'lim shakllarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi turlicha talqin etilgan.

Shakl (lotincha forma) – "tashqi ko'rinish" degan ma'noni anglatadi. Predmetning, jarayonning, hodisaning shakli mazmun bilan aloqa qiladi va mazmunga ta'sir etadi. Ta'lim shakli didaktik kategoriya sifatida o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi tomonini ifodalaydi. U ta'lim maqsadi, mazmuni, metod va vositalariga va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining miqdoriga, moddiy shart-sharoitlarga bog'liq.

Ta'limni tashkil etish shakli – bu ta'lim jarayonini alohida zvenosining konstruksiyasi, mashg'ulotning aniq turi. (dars, ma'ruza, seminar, ekskursiya, fakultativ mashg'ulot.v.b.).

M.A.Molchanovaning ta'kidlashicha, «ta'limni tashkil etish shakli» kategoriyasi, shakl va mazmunning dialektik birligi hisoblanadi.

S.A.Smirnov biz ta'limni tashkil etish shakli deganda, «o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'lini» tushunamiz deb ta'kidlaydi. I.F.Harlomov ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi ta'lim nazariyasida aniq ta'rifga ega emas deb hisoblaydi.

N.A.Sarokin, M.N.Skatkin, I.Ya.Lernerlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalarida ta'limni tashkil etish shakli «ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati tartibi» ma'nosida qo'llanilgan.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada.

O.Roziqov, B.Adizovlar tomonidan yaratilgan Didaktika darsligida «O'qitish va o'qish faoliyati o'zaro ta'sirining belgilangan tartibda ma'lum o'rin hamda vaqtda amalga oshishiga ta'limning tashkiliy shakllari deyiladi» deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, ta'limni tashkil etish shakli necha o'quvchini qayerda va qachon o'qitish kerak degan savolga javob beradi. Aytish mumkinki, demak, ta'limni tashkil etish shakli deganda biz o'quvchilar miqdori, o'quv joyi va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ta'limning tashqi tomonini tushunamiz. O'z navbatida ta'limning tashqi tomoni, uni ichki tomoni va ta'lim maqsadi, mazmuni bilan o'zaro bog'liqdir.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Ta'limni tashkil etish shakllarini mutaxassislar tomonidan turlicha klassifikatsiya qilinishi olimlarning yagona fikrga kelmaganligidan dalolat beradi. Masalan, V.I.Andreyev ta'limni tashkil etish shakli klassifikatsiyasining asosi qilib, ta'lim elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarni qabul qiladi. Shunga ko'ra, u quyidagi ta'limni tashkil etish shakllarini tavsiya etadi: kirish mashg'ulotlari, bilimlarni chuqurlashtirish mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish mashg'ulotlari, bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilish mashg'ulotlari,

Ukrain pedagogi V.A. Onishuk ta'limni tashkil etish shakllarini didaktik maqsadi bo'yicha nazariy, amaliy, mehnat, aralash shakllariga ajratadi.

Akademik A.V. Xutorskiy ta'limni tashkil etish shakllarini: individual mashg'ulotlar, guruhli-jamoaviy mashg'ulotlar, individual-jamoaviy mashg'ulotlarga ajratadi.

Individual mashg'ulotlarga: repetitorlik, tyutorlik, mentorlik, guvernerlik, oilaviy ta'lim, o'z-o'zini o'qitish shakllari kiradi.

Jamoaviy-guruhli mashg'ulotlarga: dars, ma'ruza, seminar, konferensiya, olimpiadalar, ekskursiya, o'yinlar.

Individual-jamoaviy mashg'ulotlarga: ijodiy haftaliklar, ilmiy haftaliklar, loyihalar kiradi.

Darsning turlari va tuzilishi. Dars o'z navbatida ta'limning asosiy shakli bo'lib, tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlar (elementlar) dan iborat: **ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, dars dasturi va rejasi, o'quv-uslubiy qo'llanma va didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar; o'qitishning texnik vositalari.**

Darsning bu besh tarkibiy qism (bo'lak)lari o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni **dars** degan majmuani tashkil qiladi. Birining mavjudligi boshqasining mavjudligini taqozo etib, birining yo'q bo'lishi boshqa barcha qismlarining faoliyatini yo'qqa chiqaradi. Darsning bu qismlarining har bir o'z navbatida bir butunlik (majmua) bo'la turib, o'z navbatida quyidagi bir necha qismlardan tashkil topgandir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi darsni bir butun qilib turuvchi qismlar tasnifini **ta'lim-tarbiya beruvchi**dan boshlashimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining bosqichlarida ta'lim-tarbiya beruvchini, avval ham aytib o'tganimizdek, turlicha atalib, *murabbiy, ustoz, o'qituvchi, pedagog, assistent, katta o'qituvchi, dotsent, professor va ma'ruzachi* deb yuritiladi. Bularning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida darsni tashkil etish va ishchi rejada ko'rsatilgan bilimlarni, ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib yetkazib berishdir.

7-shakl


TA'LIM JARAYONING MOHIYATI VA DARSNING TARKIBIY QISMLARI
Ta'limning tashkiliy jihatlari
Ta'limning nazariy metodologik asoslari
Ta'lim beruvchi
Ma'ruza
Ta'lim oluvchi
Seminar
Dars dasturi va rejasi, darslik
Konsultatsiya
O'quv-uslubiy qo'llanma va didaktik materiallar
Mustaqil ishlash
O'quvchi-talaba – ta'lim obyekti
Pedagogik usul va uslublar
Baholash mezoni
O'qitishning texnik vositalari
Xolis
Darsning shakli
O'quvchi-talabalarga axbort uzatish vositalari
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar
Yozma ish
Nazorat

Dars – aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi-talabalar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir. Buni quyidagi shaklda ifodalash mumkin.

8-shakl

DARS
➢ *O'zining aniq maqsadi, mazmuni, vaqti va ishtirokchilari tarkibi bilan chegaralangan, o'quv muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismidir.*
➢ *Darsning maqsadi va mazmuni o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, tuzilmasi, qat'iy dars jadvaliga muvofiqligi, o'qituvchi rahbarligi yoki nazorati asosida o'tkazilishi, sinf o'quvchilari va guruh talabalarining barchasi bilan yoki har biri bilan alohida yakkama-yakka o'tkazilishi bilan tavsiflanadi.*
➢ *Dars – ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli. U aniq maqsad, tugal mazmuniga ega bo'lishi bilan birga, o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.*
➢ *Dars turlari: darsning mohiyati, asosiy maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarining o'zaro munosabati va muloqoti kabilarga ko'ra turlanadi.*

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv dasturi, reja, darslik) asosida belgilanadi. O'qituvchi uchun dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, o'qituvchi bu jarayonda quyidagilarga amal qilishi shart:

1. Har bir sinf yoki guruhda o'quvchi-talabalarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishiga;

2. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishiga;

3. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf yoki guruh bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib borilishiga;

4. Dars o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalar yordamida olib borilishiga va uzluksiz ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berishiga va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratishiga qattiq rioya qilishi shart.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida talim-tarbiya ishlari faqat sinf-dars yoki ma'ruza-seminar shaklida olib borilmay, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar darsdan va auditoriyadan tashqarida bo'lishi ham mumkin.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchi-talabalarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi shart.

Pedagogika nazariyasi darsi oldiga bir qator didaktik talablarni qo'yadi.

Jumladan:

1. Har bir dars aniq maqsadni amalga oshirishga qaratilishi va puxta rejalashtirilishi yoki loyihasi tuzilishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materiallarni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2. Har bir dars aniq g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

3. Har bir dars ta'lim muassasasining, ijtimoiy muhitining imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanishi, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishi lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

5. Dars uchun ajratilgan vaqt va uning daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish lozim.

6. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'zaro faol munosabatda bo'lishi kerak.

7. Mashg'ulotlar butun sinf yoki guruh bilan va har bir o'quvchi-talaba bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi shart.

8. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab, xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

9. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlardan o'quvchi va talabalarni xabardor etish lozim.

Demak, dars didaktika tamoyiliga muvofiq ta'lim-tarbiyaning birligiga asoslangan holda olib borilishi kerak. Buning ma'nosi shuki, o'qituvchi har bir darsda o'quvchi-talabalarga ham ta'lim beradi, ham tarbiya beradi.

Nostandart darslar. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda **nostandart darslar** va ulardan foydalanish haqida tez-tez fikr yuritilmoqda.

Nostandart darslarning bosh g'oyasi o'quvchi-talabalarning o'quv-biluv jarayoniga, o'quv mehnatiga qiziqish, xohish, istaklarini ko'zlash orqali o'quv jarayonini tashkil etishdir.

Nostandart dars sahnalashtirilgan dars mashg'ulotlari bo'lib, uning tizimlari ham turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Nostandart darslarga qarashlar ham turlicha, ayrimlar uni o'quv jarayonini demokratlashtirish, erkinlashtirish desalar, ayrimlar pedagogik prinsiplarga rioya qilinmagan holat deb qaraydilar.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bunday zamonaviy dars turlari juda xilma-xil. Bunday zamonaviy darslar maqsadlari, vazifalari, o'tish metodikalariga ko'ra quyidagicha nomlash mumkin:

1. «G'arq bo'lish» darslari.
2. Ishchanlik darslari.
3. Matbuot-konferensiya darslari.
4. Musobaqa darslar.
5. KVN tipidagi darslar.
6. Teatrlashtirilgan darslar.
7. Maslahatxona darslari.
8. Kompyuterli darslar.
9. Kichik guruhli darslar.
10. O'zaro bir-birini o'qitish darslari.
11. Ijodkorlik darslari.
12. Auksion darslar.
13. O'quvchi-talabalar olib boradigan darslar.
14. Hisobot darslari.
15. Shubhali darslar.
16. Ijodiy hisobot darslari.
17. Formulali darslar.
18. Ko'rik-tanlov darslari.
19. Binarli darslar.
20. Yakunlashtiruvchi darslar.
21. O'yinga asoslangan darslar.
22. «Sud» darslari.
23. «Haqiqatni izlab» darslari.
24. Ma'ruzali darslar.
25. Konsert darslari.
26. Dialogli darslar.
27. «Rolli o'yinlar» darslari.
28. Konferensiya darslari.
29. Seminar darslar.
30. Integrallashgan darslar.
31. Predmetlararo darslar.

32. Ekskursiya darslari.

33. Innovatsion darslar va hokazolar.

Nostandart darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi-talabalar ehtiyojiga mos tushadi. Chunki bunday darslar qat'iy reglamentli darslardan ko'ra o'quvchi-talabalar ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar nostandart darslardan o'z o'rnida foydalansalar, foydadan xoli bo'lmaydi.

Ta'limning yordamchi shakllari. Ta'limning yordamchi shakllariga: to'garak. konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar kiradi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga: o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi - darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi, obyekt va yo'nalish bilan oldindan tanishib chiqishi, to'liq rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O'quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo'yicha** kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlar bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya – o'quv suhbati)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini

egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi.

O'qituvchining darsga tayyorlanishi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarani tashxislash bilan boshlanadi.

Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi , yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish va rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Darsga tayyorlanish – *bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonini tanlashdir.*

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish ishlari o'quv axborotlarini sinf yoki guruh o'quvchi-talabalari imkoniyatlariga, yuqori samara beradigan bilish mehnati va jamoa hamkorligini tashkil etishda qulay shart-sharoit (shakl)ni baholash va tanlashga ***"moslashishga"*** olib keladi. Dars

berishning oqilona shaklini tanlash uchun o'quv mashg'ulotini qat'iy ravishda rejalashtirish zarur.

Uning asosida darsni tayyorlash algoritmi (qoidalar majmuyi), barcha muhim omillar va holatlarni hisobga olishni kafolatlaydigan izchil tadbirlar bo'lishi zarur.

Aniqlash (*diagnostika yoki tashxislash*) bu ta'lim-tarbiyaviy ishlarni loyihalash munosabati bilan dars o'tishdagi barcha vaziyatlarni ***"ochib"*** berish bilan – o'quvchi-talabalarning imkoniyati, ularning faoliyati va xulq-atvori motivlari, o'qitish darajasi talab qiladigan ehtiyojlar va ishtiyoqlari, qiziqish va qobiliyatlari, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, darsning tuzilishi , shuningdek, o'quv jarayonida butun vaqtni qanday sarflanishini – tayanch bilimlarni takrorlash (faollashtirish)ga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, mustahkamlash va sistemalashtirishga, bilim, malakani tekshirish va xatolarni to'g'rilashga ketgan vaqtni chuqur tahlil etish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqich mashg'ulotlar samaradorligini belgilovchi omillarning ta'sirini yorqin tasavvur etiladigan darsning diagnostik kartasini vujudga keltirish bilan yakunlanadi.

Demak, darsga tayyorlanishni tashxislashda o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha shart-sharoitlarni oydinlashtiradi, uning maqsad va natijalarini belgilaydi. O'qituvchining tashxislashida o'quvchi-talabalarning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Oldindan aytib berish (bashoratlash) bo'lajak darsni o'tishdagi turli variantlarni baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlashga qaratilgan. Oldindan aytib berishning zamonaviy texnologiyasi dars samaradorligi miqdoriy ko'rsatkichlarini quyidagi yo'llar bilan chiqarishga yordam beradi. Darsning asl maqsadi bo'lgan bilim (ko'nikma va malakalar) hajmini shakllantirish 100% deb qabul qilinadi. Unga to'sqinlik qiluvchi omillar, tabiiy ravishda bu ko'rsatkichni pasaytiradi, yo'qotishlar kattaligi (u maxsus metodika orqali aniqlanadi) va u ideal natijada chegirib tashlanadi, shunday qilib, pedagog o'ylagan (sxema) shakl bo'yicha dars samaradorligining erishishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatkichi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtiradigan bo'lsa, u darsga tayyorlanishning yakunlovchi bosqichini rejalashtirishga o'tadi. Qoniqtirmasa, o'zgartirish mumkin bo'lgan omillar vositasida darsni

tashkil etishning yanada mukammal (sxemasi) shaklini izlashga majbur bo'ladi.

O'qituvchining birinchi vazifasi loyihalashni shakllantirish davridanoq paydo bo'ladi va u ma'lum o'quv maqsadini ko'zda tutadi. Ma'lumki, o'quv maqsadlari pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma'lum ma'noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yo'naltiradi (9-shaklga qarang).

9-shakl



"Loyihalash" atamasi pedagogika nazariyasiga texnika sohasidan kirib kelgan bo'lib, **reja tuzish** ma'nosini anglatadi. **Loyihalash (*rejalashtirish*)** – darsga tayyolanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib,

o'quvchi-talabalar bilish faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, natijada yuqori samaradorlikka erishiladi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar xatti-harakatlarining o'quv maqsadiga erishish yo'lida muvofiqlashtirish, minimum farqlarga yo'l qo'ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat. Ta'lim jarayonini boshqarish, eng avvalo, o'quvchi-talabalarning bilimlariga asoslanadi: ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishga tashxislash asosida erishiladi.

O'quvchi-talabalarning jismoniy o'ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo'lmaydi.

Tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim-tarbiya ishida o'qituvchining tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi asosiy vazifalar.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonning ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

Pedagogik loyihalashtirish o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, u tashkilotchilik, bilish, muloqot va boshqa vazifalar bilan bog'liq. Loyihalashtirish vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

Uchinchi bosqichda yig'ilgan axborotlar o'qituvchining istiqboldagi faoliyatini rejalashtirish, takomillashtirish, maqbullashtirish uchun asos bo'ladi (10-shaklga qarang).

10-shakl

Boshqarish jarayonining mohiyati



Pedagogik loiyhalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlaridan, shu jumladan, o'qituvchining intellektual imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Pedagogika nazariyasi pedagogik loyihalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

11-shakl



Umuman, ta'lim jarayoni markazida uning ishtirokchilari, maqsad, vazifalari, mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita o'zaro bog'liq ta'siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalash (rejalash)tiriladi.

O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi har bir o'quv yili oldidan va yillar davomida olib boriladi. Bu tayyorgarlik: a) o'qish yili boshlanishiga qadar ma'lum fan asosida o'zi dars olib boradigan sinflar yoki guruhlar o'quv rejasi dasturini sinchiklab tahlil qilib chiqishdan; b) o'qitadigan fani bo'yicha umuman va alohida mavzularga oid darslik, o'quv materiallari, ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'rganib chiqishdan; v) o'qitadigan fan va umuman ta'lim-tarbiya masalalariga oid metodik adabiyotlar bilan tanishib chiqishdan; d) shu fan bo'yicha va umuman alohida mavzular bo'yicha yangi nashr etilgan tasviriy ko'rgazma materiallari, shuningdek, yangidan joriy qilingan o'quv-tajriba asbob-uskuna va apparatlarini o'rganish va tahlil qilib chiqishdan iborat.

O'qituvchining kundalik darsga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) sinflar yoki guruhlar o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzuning mazmuni o'quvchi-talabalarni qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni talab qilishini aniqlash;

b) mavjud darslik yoki adabiyotlar, shuningdek, ko'rgazmali o'quv materiallari o'quv dasturi talabiga qanchalik javob bera olishini o'rganib, amalda qo'llanib kelinayotgan darslik, mashq va masalalar, testlar, intellektual treninglar to'plamining paragraflari, bo'limlari va qismlariga fan-texnika taraqqiyoti va o'quv dasturi talabiga ko'ra qanday tuzatish, o'zgartirish va to'ldirishlar kiritish lozimligini belgilash;

d) o'tilajak darsga materiallar kiritish lozimligini belgilash;

e) o'tilajak darsga materiallar tanlash, o'quvchi-talabalarning amaliy mashq qilishlari uchun misol va masalalar tayyorlash, mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, qonun-qoidalarning ta'rifini belgilash. O'quvchi-talabalarning mustaqil ta'limi uchun vazifalar tayyorlash,;

f) o'tiladigan mavzuga oid ko'rgazmali va tajriba asbob-uskunalarini aniqlash;

g) mashg'ulot qanday dars tipi strukturasi va o'qitish metodi bilan olib borilishini belgilash. Bunda o'tilgan mavzuning hozirgi mavzuga bog'lanishi va keyingi mavzular uchun zamin tayyorlanishi, shuningdek, sinf yoki guruhdagi ayrim o'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan individual ish shakli nazarda tutilishi;

h) o'tilayotgan darsning atroflicha puxta ishlangan rejasini tuzish.

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi. O'qituvchi o'z faoliyatini hamkasblari tahlil qila olganidek, o'z darsini tahlil qilishi zarur. Busiz o'qituvchilik kasbida rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Xo'sh, o'qituvchi-

ning o'z darsini tahlil qilishning o'zi nimalardan iborat? U qanday ta'lim prinsiplariga asoslanadi?

Bizningcha, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati, ya'ni darsini, tahlil qilganda, uning barcha tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish, ularning uzviy bog'liqligini chuqur tushunish, o'qituvchi qo'ygan masalalar, uni yechish yo'llari va ko'zlangan maqsadlar qanchalik uyg'unlashib ketishini his etishi lozim. Bunda:

- birinchidan, biz hamkasbimiz darsini tashqaridan kuzatishimiz va faoliyatini tahlil qilishimiz;
- ikkinchidan, o'zimiz uchun alohida ahamiyatga molik bo'lgan o'z harakatlarimizni tahlil qilishimiz kerak.

Bunday tahlil (analiz) yo'llarini egallash uchun muayyan bosqichdagi ishlarni bajarmoq zarur.

Birinchi bosqich – pedagogika fanining yangi g'oyalari, pedagogik faoliyatning tuzilishi, uning asosiy tarkibi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasi bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich – tahlil, qayd etish, ro'yxatga olish, xronometrlash yo'llarini o'rganish.

O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil (analiz) qilish shakli tuzilishi quyidagicha:

Pedagogik topshiriqlar:

– Dars (mavzu)ga qanday aniq vazifalar qo'yilgan:

a) rivojlantiruvchi;

b) tarbiyalovchi;

d) ta'lim beruvchi.

– Ular qaysi umumiy vazifaning bir qismi bo'lib hisoblanadi?

– Darsda barcha topshiriqlar bajariladimi?

– Dars davomida vazifalar o'zgaradimi? O'zgargan bo'lsa, nima uchun?

Pedagogik vosita va usullar:

– Mazkur sinf yoki guruhni alohida o'quvchi-talabalarining xususiyatlari e'tiborga olinadi:

a) ularning aqliy va psixik o'sish darajasi;

b) potentsial imkoniyatlari;

d) fanni bilish darajasi;

e) hissiy holatlar va darsga tayyorgarligi;

f) qanday hisobga olinadi? Agar hisobga olinmagan bo'lsa, nima uchun?

Mazkur sinf yoki guruh bilan ishlashga o'qituvchining xohishi qanday edi? Darsga tayyorgarlik darajasi-chi?

– Darsga tayyorgarlikda qanday usul va yo'llardan foydalaniladi? Darsda vaqt taqsimoti qanday bo'ladi? U maqsadga muvofiqmi? Pedagogik masalalarni hal qilish uchun qo'shimcha materialdan foydalanildimi? Qanday maqsadda?

– Mavzuga oid majburiy material qayta ko'rildimi? Bu ijobiy natijaga olib keldimi? Agar olib kelmagan bo'lsa, nima uchun? Darsda kutilmagan vaziyatlar yuz berdimi? Qanday? U qanday hal etildi?

O'qituvchi yuqoridagi savollarga javob topishi orqali o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishga erishadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytiladi?
6. Darsning qanday turlari mavjud?
7. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
8. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

9-MAVZU. STEAM TA'LIM (STEAM education)

STEAM – shaxs rivojining ijodiy aspekti. STEAM konsepsiyasi. Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohaning yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'aygan-larida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda.

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini aks etadi.

Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyin-chalik bu yerda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir-oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni xavotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va

mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak.

O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizning olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori "**Mens et Manus**" (Aql va qo'l). Massachusets Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko'ra, 2011-yildan buyon STEAM kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi.

Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog'liq? Ko'pgina mamlakatlarda STEAM ta'lim ba'zi sabablarga ko'ra ustuvor ahamiyatga ega.

Yaqin kelajakda dunyoda, shuningdek, O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi.

Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa, bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi.

Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'lim.

Xo'sh, bu ta'lim tizimi va fanlarni o'qitishning an'anaviy usuli o'rtasidagi farq nima? STEAM ta'lim o'quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o'z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan robotlarni o'rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladi.

2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan "STEAM forward" xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak.

Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.

Qizlar uchun Steam ta'lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibliligi tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.

Science is fun! Ilm-fan quvnoq bo'lishi kerak, u o'quvchilar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerak.

STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta fan: (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.

STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

Respublikamizda Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, 9-11-sinflarda o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir.

O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega "Teachaway" (Kanada) va

"TIC Recruitment" (Buyuk Britaniya) rekruting kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

9-11-sinf o'quvchilarining qiziqishlari va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta'lim-o'quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi.

STEAM, STEM ta'lim dasturlari. Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan shahodatnoma, attestat bilan bir qatorda, xalqaro nufuzli oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishadi.

Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikadan tashqari, STEM ta'limi to'rtta ustunning o'zaro bog'liqligiga e'tibor beradi: bu axborotni qo'llash va o'sib borayotgan muammolarni hal qilish, kuzatish va izlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

STEM ta'limiga san'atning qo'shilishi, birinchi bo'lib rassom, muallif va Rod-Aylend san'at va dizayn maktabining sobiq Prezidenti Jon Maeda tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan STEAM qisqartmasining o'sishi ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematik tajribalarni yanada qiziqarli va qulay qiladi. Bu faqat bitta sabab nega STEM ta'limiga san'at qo'shildi.

"San'at allaqachon fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning muhim qismidir", deydi Liz Xaynek, bolalar uchun mo'ljallangan bir qancha STEAM loyihalari kitoblarining muallifi. Jeki Spik, Ed.D., STEM ta'lim bo'yicha maslahatchisi va muallifi, "STEM darslari tabiiy ravishda san'atni o'z ichiga oladi (masalan, mahsulot dizayni), til san'ati (aloqa va ijtimoiy tadqiqotlar va tarix (muhandislik muammolari uchun kontekstni belgilash)".

San'at STEM mavzularini yanada qiziqarli qiladi, hatto fan yoki matematikani yoqtirmayman deb o'ylaydigan bolalar uchun ham. "Agar biz bolalarni matematikani san'at, go'zallik va tabiat deb bilishlariga imkon beradigan bo'lsak, bu ularning dunyo haqidagi fikrlarini va maktabdagi mavzularga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi", deydi Xaynek.

"Badiiy san'atni o'z ichiga olgan amaliy loyihalar va tajribalarni bajarish bolaning tushunchalar haqidagi tushunchasini mustahkamlaydi".

Konsepsiyalarni amalda ko'rish bolalarni ularni izlashga undaydi. Bundan tashqari, yaratish jarayoni ma'ruza yoki slaydlardan ko'ra esda qolarli bo'lishi mumkin.

STEAM bolangizning qiziqishlarini haqiqiy dunyo bilan bog'laydi. "Bolalar narsalarga tegishi, ko'rishlari yoki kundalik hayotda qanday

foydalanishni tushunishlari mumkin bo'lgan narsalar bilan eng yaxshi bog'lanishadi", deydi Xaynek. "San'atni qo'shishning eng yaxshi jihati shundaki, bu ularning real hayotdagi qiziqishlarini STEM fanlari bilan bog'lashning yana bir usuli."

"San'at – bolalarga qanday qilib ijodiy muammolarni hal qilish kerakligini va xatolarning ahamiyatini ko'rsatadi." Aqliy arifmetika va tenglamalarni yechish qobiliyatlari muhandislar uchun muhim ko'nikmalardir, ammo muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlar haqiqatan ham farq qiladi. Madeleine Burry ta'kidlashicha, "san'at bolalarga qiziqarli xatolarga yo'l qo'yish va o'zlariga qarshi kurashish uchun joy beradi, ayniqsa, san'atda har doim ham to'g'ri javob bo'lavermaydi".

"San'at STEMning qo'rqitish omilini kamaytiradi va ma'lumotli bolalarni tarbiyalashga yordam beradi."

"Har bir bola olim yoki muhandis bo'lishi shart emas, lekin siz STEM fanlarini qanchalik ko'p qabul qilsangiz, dunyoning eng yaxshi fuqarosi bo'lasiz", deydi Xaynek. "Qanchalik ko'p ma'lumotli odamlar bolaligida, shunchalik ko'p ma'lumotli kattalar bo'lib o'sishadi".

Dastlabki STEM maktablarda yangi g'amxo'rlikka muhtoj bo'lgan muhim narsalar sifatida targ'ib qilingan. Keyin, to'satdan, STEAM bir xil turdagi ko'nikmalarni targ'ib qiluvchi yangisiga qisqartirildi. Qo'shilgan "A" san'at uchun, ijodkorlik va dizayn tamoyillaridan foydalanishga alohida e'tibor berishni anglatadi.

Bu turdagi asl qisqartma esa, STEM dasturning ilm-fanni o'qitishning eng yaxshi usullaridan biri ekanligini ko'rsatdi, ammo hozir siz STEAMning qanday yaxshi ekanligi haqida o'qiyapsiz. Yoki maktablar STEM dan Dizayn va Innovatsiyalarga o'tishlari kerak, yoki STEMM yoki boshqa STEMda o'zgarishlarni olish uchun musiqa qo'shishi kerak. Ushbu yangi qisqartmalar STEM hozir eskirib qolgan kabi ko'rinadi va maktablar eng oxirgi qisqartmasi bilan olishlari kerak.

Siz vahima qildingiz, chunki sizning farzandingiz ilm-fan va texnologiya bilan bog'liq sohalarda raqobatbardosh mahoratga ega bo'lmasligiga amin bo'lganingiz uchun, ushbu qisqartma narsalarning barchasi haqida hamma narsani bilib olish uchun o'qing.

STEM va boshqalar STEAM yoki STEMM

Ilm-fan texnologiyasi va matematika o'zaro bog'liq tushunchalarni o'rgatadigan va tanqidiy fikrlash va analitik ko'nikmalar bilan yechilgan muammolarni aniqlashga qaratilgan ilm-fan va unga aloqador mavzularga zamonaviy yondashuvni ramzlash uchun ishlatiladigan qisqartma bo'ldi.

Keyinchalik, Rhode orolining Dizayn maktabi qisqartirilgan STEAM qo'shimchasini qo'shdi, ayniqsa, qo'shiqni qo'shib qo'ydi.

Bu yaxshi dizayni va ijodiy yondashuv elementlari ham o'qitishga qo'shilganligini namoyish qilish uchun mo'ljallangan. Boshqa maktablar va tarbiyachilar ham o'zlarining burilishlari va qisqartmasi bilan musiqani ikkinchi "M"ni qo'shib qo'yishdi.

Stenforddan Design Thinking loyihasi kabi dasturlar mavjud, ular loyihalarda STEM ko'nikmalarini tez-tez ishlatadigan haqiqiy muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni o'rgatadi.

San'at, musiqa, dizayn elementini qo'shgan holda, o'qituvchilar o'zlarining miya-analitik va ijodiy tomonlarining har ikkalasini ham ertangi kunning eng yaxshi mutafakkirlarini rivojlantirish uchun foydalanayotganligiga ishonishadi.

Darhaqiqat, u pastga tushganda, qisqartma tanlovi STEMni o'qitish uchun qanday o'quv dasturlari yoki o'qitish usullaridan foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Qanday materiallardan qat'i nazar, o'qituvchi yoki maktab o'qitishda boshqa narsalar yoki materiallarni tortib olishi mumkin.

STEM ta'limining ahamiyati shundaki, bolalar STEMning o'z hayotiga qanday ta'sir qilishlarini o'rganishadi, shuningdek, tanqidiy fikrlash va mulohaza qilish qobiliyatlari bilan birgalikda muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topishga imkon beradi. Yangi va mavjud muammolarga ijodiy yondashuvlarni topish - bugungi iqtisodiyotda va kelajakdagi ish joyida zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

STEAM ta'limining rivoji tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari dasturlarining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligining ta'minlangani hamda o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarning aniq belgilanishi bilan bog'liq. STEAM fanlarni joriy qilish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish layoqatlarini shakllantiradigan dasturlar va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilishi belgilangan. Yoshlarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash uchun STEAM fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodi tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlashni istardikki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil

ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Transversal va tajribaga asoslangan ta'lim haqida nimalarni bilasiz?

2.STEM shaxs rivojlanishining ijodiy aspekti deganda nimani tushunasiz?

3.STEAM texnalogiyalarining ahamiyati qanday?

10-MAVZU. IQTIDORLI O'QUVCHILALARNI O'QITISH

Zamonaviy iqtidorlik konsepsiyasi. Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

1) iqtidor bu – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan,tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror-bir faoliyatda (masalan, ta'lim,ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi,

faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq(masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

– qiziquvchanligi;

– doimo turli savollarga javob axtarishligi;

– nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;

– erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, **matematikaga** qiziqishi;

– yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;

– masalalarning yechimini topishda maqsadga **intiluvchanlik va** originallik;

– tafakkurning unumdorliligi;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar – maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu "umumiy qobiliyat" o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat "aktual", atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat esa "potensial" qobiliyat deyiladi. Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin.

Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklari. Iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida

qabul qilganlar. Boshqa xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari, professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimayi holi o'rganib chiqilganda, ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi.

Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir. Ulg'aygan sari bolalarda aqliy salohiyatining o'sib borishini kuzatish mumkin. Hayotining birinchi 10 yilligida bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko'plab yangiliklarni o'zlashtirish, hishayajonga to'la davr bo'ladi. Bundan tashqari bolalar yoshligi tufayli nerv sistemasi sezgir bo'ladi. Hatto oddiy hisoblagan holatlarimiz ham ularning tez qabul qilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash. "Noosfera" modeli asosida iqtidorli o'quvchilarni o'quv bilish faoliyatini tashkil etish. Bolalarning iqtidori turli yoshlarda namoyon bo'ladi. Agar bolaning konkret rivojlanish vaqti o'tkazib yuborilsa, bu kelajakda uning iqtidori rivojiga to'sqinlik qiladi. Bola iqtidorini sezgan ota-ona va o'qituvchilar, bunday bolani e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki kelajakda u o'zining qandaydir iqtidorini ko'rsatishi mumkin. O'z tengdoshlaridan ilgarilab ketgan o'quvchilar qiyinchilik ko'rmaydi, degan xayol noto'g'ri, bunday bolalarni uyda va maktabda ko'p qiyinchiliklar kutadi. Ko'pincha bolalar ularni aqliy faollashuvi ota-onalarning qo'rquvi va bezovtalanishiga sabab bo'ladi, asosiysi, bolalarga buni bildirmaslik kerak. Boshqa oilalarda

bolalariga berilgan iqtidor ularning yaxshi kelajagini ta'minlaydi. Bolalarni rag'batlantirishadi va ular bilan g'ururlanishadi. Bunday bolalarda o'ziga yuqori baho qo'yish va mensimaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Iqtidorli bolalarni o'qitishda ehtiyot bo'lish zarur. Ular atrofdagilarni qo'llashi va tanqidiga juda sezgir bo'lishadi.

Oila sharoitida ham iqtidorli bolalarni «g'alatiroq» hisoblashlari mumkin. Shunday qilib, iqtidorli bolalar aqliy salohiyatining boshlang'ich davridayoq muammolarga duch kelishadi. Ularni nafaqat uyda, balki maktabda ham tushunmasliklari mumkin. Maktabda ularni boshqa bolalar bilan birga o'qitilishi, achinarlisi, ular bilgan, ularga endi qizig'i yo'q mavzularni o'qitilishi zeriktiradi. 1-sinfdan ular o'qish, yozish va hisobni biladilar, boshqa o'quvchilar alifbe va hisob – kitobni o'rgangunga qadar, iqtidorli bolalar bekorchi bo'lib qoladilar. Albatta, hammasi pedagog mahoratiga bog'lik, lekin qanchalik pedagog alohida yondashuv bilan butun sinfga dars o'tmasin, u kuchli o'quvchilargagina diqqat – e'tiborini qaratishi qiyin.

Aqlli va faol o'quvchi o'qituvchining diqqatini berilgan vazifalarni tez va oson bajarishi bilan qaratib, o'qituvchi va tengdoshlariga og'irligi tushishi mumkin. Bunday o'quvchilardan kamroq dars so'ralishi kuzatiladi, faolligi kerak emasligini ko'rgan o'quvchi boshqa predmetlarga chalg'ishi bilan o'qituvchining mamnuniyatsizligini keltirib chiqaradi. Bora – bora o'qishni sevuvchi faol bola maktabda o'zini ortiqcha sezadi va maktab unga kerakmasdek bo'lib qoladi. Muammoning sababi, iqtidorli bola bilimga chanqoqligi tufayli ko'proq ma'lumot olishni va ko'proq dars o'zlashtirishni xohlaydi, o'rta ta'lim maktabi dasturi esa u xohlagan bilimni berishga qodir emas. Iqtidorli bolalarga alohida yondashilmasa, oxir-oqibat o'rta maktab talabiga javob beradigan bo'lib qoladi. Natijada, uning mustaqil fikrlashi, bilimga chanqoqligi va real imkoniyatlari e'tibordan chetda, talabsiz qoladi.

Odatda, iqtidorli bolalardan, boshqa bolalarga nisbatan ko'proq talab qilinadi. Bunday bolalarda shu davrda tengdoshlari bilan qiyinchiliklar tug'ilishi, boshlang'ich maktabni tugatayotganda, boshqa bolalar ularni o'zlaridan uzoqlashtirib, hatto xafa qiladigan laqablar ham qo'yishadi. Bunday vaziyatda iqtidorli bolalar jamoadan ajralib qolmaslik uchun ulardan ortiqroq bilishi va harakatchanligini ko'rsatmaydi.

O'rta ta'lim maktabida o'qishga xalaqit qiladigan iqtidorli bolalarni asosiy ko'rsatkichlaridan biri, ular uchun berilgan oddiy vazifalarni bajarmasligi va o'qishga qiziqish yo'qligidir. Bunday bolalar o'zlari bemalol o'zlashtiradigan mashg'ulotlarni kimdir boshqarishini

hohlamaydilar, hatto boshqarilsa xafa ham bo'ladilar. Iqtidorli bolalarni o'qitishni birgina yo'li iqtidorli sinflar yoki maktablarni tashkil qilinishidadir. Shundagina iqtidorli bolalar maktabni tezroq tamomlab, tezroq o'zlari hohlagan oliygohlariga kirishlari mumkin. Bu ularga oldilariga qo'ygan maqsadlariga tezroq erishishlariga sabab bo'ladi. Iqtidorli bolalar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarga erishishi, Vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun salmoqli hissa bo'ladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan ishlash metodikasi quyidagilarni inobatga oladi:

- qobiliyat tushunchasining mazmunini hamda uning shaxsda shakllanishi haqida bilimlar zahirasiga ega bo'lish; qobiliyat, talant, iqtidor tushunchalarining mazmunini bilish;
- bolalar iqtidori haqidagi nazariyalarni o'rganish;
- iqtidorli bolalarning psixologik xususiyatlari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish;
- iqtidorlikning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
- iqtidorli bolalar bilan ishlashning yo'l-yo'riq, usul va vositalarini egallash.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda psixologlar iqtidorning tuzilishi belgilaydigan asosiy omillarni bilishlari lozim. Bular quyidagilar:

– umumiy intellektual yoki aqliy qobiliyatlarning yuqori darajasi;

– bilish motivining dominantligi, boshqa motiv turlaridan ustunligi;

– yangi predmetlar, vazifalar, voqea-hodisalarga duch kelganda, muammoning qo'yilishi va yechimini topishda ijodiy faollikning namoyon bo'lishi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan ishlash metodikasi yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Iqtidor va iste'dod belgilari - bu iqtidorli bolaning real faoliyatida namoyon bo'luvchi va uning harakatlarini kuzatish natijasida baholanuvchi xususiyatdir. Iqtidorlilik belgilari faoliyatni amalga oshirish darajasi bilan bog'liqdir. Iqtidorlilik belgilarini muhokama qilishdan avval, "xohlayman" va "qila olaman" tushunchalarini muhokama qilish kerak. Shuning uchun ham iqtidorlilik belgilari iqtidorli 2 muhim jihatini o'zida mujassam etadi: instrumental va motivasion instrumental – bu uning faoliyati usulini xarakterlaydi. Motivasion bola faoliyatining u yoki bu tomoniga, qolaversa, o'z faoliyatiga munosabatini xarakterlaydi.

2. Iqtidor va iste'dod tushunchalarining o'rganilganlik holatida shaxs faolligi qanchalik muhim bo'lsa, iqtidor ko'rinishi ham shunchalik

muhimdir. Shu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash joizki, bularning barini mazmun jihatdan yirik guruhlarga birlashtirib klassifikatsiyalash mumkin. Har bir faoliyat guruhi faoliyatni muvaffaqqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bir qobiliyatlar guruhiga ehtiyoj sezadi. Ushbu yondashuv natijasida AQSh Ta'lim Qo'mitasi 6ta sohani ajratib ko'rsatadi: intellektual, akademik intilishlar, ijodiy tafakkur, muloqot va liderlik, badiiy faoliyat, psixomotor qobiliyatlar. "Maxsus qobiliyatlar" atamasi tadqiqotlardagi testologik yo'nalishda intellektni o'lchash birinchi o'ringa chiqqanida kirib keldi. Badiiy, musiqiy, texnik va boshqa shu kabi maxsus qobiliyatlar IQ ga qo'shimcha sifatida kiritilgan.

3. Iqtidorli va iste'dodli bolalar taraqqiyotini tadqiq qilish metodlari iqtidorlilikni quyidagi mezonlarga binoan turlarga ajratish mumkin: faoliyat turi va uning psixik sohadagi o'rniga ko'ra turlari; shakllanganlik darajasiga ko'ra turlari; namoyon bo'lishiga ko'ra turlari; turli faoliyat turlarida namoyon bo'lishi kengligiga ko'ra turlari hamda yosh davr taraqqiyoti xususiyatlariga ko'ra turlari.

4. Bolalar iqtidori va iste'dodini rivojlantirish omillari iqtidorli bolalarni aniqlash juda murakkab jarayon bo'lib mutaxasislardan yuqori malakani talab qiladi. Psixodiagnostika metodlari har bir shaxs, ayniqsa, o'qituvchi iqtidorli bola haqida tushunchaga egadir. Bu tasavvurlarning shakllanishiga bizning turli bolalar bilan muloqotda bo'lishimiz, ularni kuzatishimiz va o'zaro qiyoslashimiz asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu tasavvurlar subyektivlikdan yiroq emas. Qolaversa, iqtidorlilik haqidagi tasavvurlar jamiyat ehtiyojiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Turli tarixiy davrlarda iqtidorlilikning turli ko'rinishlari bo'lgan: qadimda jangovar qobilyatlar qadrlangan. O'rta asrlarda g'arb falsafasida mantiqiy fikrlovchie'zozlangan bo'lsa, bizning davrimizda muammoni hal qilishda yangilikka, noan'anaviylikka intilish hayotiy chigalliklarni yecha olish qobiliyati tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi kattalarning tarbiya muammolariga e'tiborga emas, balki bolalarga berilayotgan e'tiboriga bog'liqdir. Iqtidorni aniqlashdan maqsad, iqtidorlilikning keltirib chiqaruvchi omillarini o'rganish, iqtidorli bolalarning psixologik, shaxsiy xususiyatlarini o'rganish hamda iqtidorli bolalar bilan ishlashning yo'l-yo'riq va vositalarini egallash. Iqtidorli bolalar va ularning psixologik xususiyatlari, qobiliyat, iqtidor, talant tushunchalari haqida ma'lumotlar zahirasini berish hamda ularni shaxsda shakllanishi borasida nazariy va amaliy bilimlar berish lozim.

Prezident maktablari iqtidorli yoshlarni tanlab olishning, ularning bilim olish va tarbiyalashga qaratilgan yaxlit bir tizimiga aylanishi lozim. Maktablar o'quvchilarda keng fikrlash va o'zlashtirgan bilimlarini samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

Ijod maktablarining rahbarlari, o'z o'rnida, PIIMA rahbariyati va mehmonlarga o'zlari rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasalarni taqdim qiladi.

Ijod maktablarida ta'lim dasturlarini takomillashtirish hamda maxsus o'quv metodologiya va uslublarini yaratish masalalarini ko'rib chiqadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish va o'quvchilarning o'z iste'dodlarini namoyish etishlari uchun kerakli sharoit yaratish masalalariga ham alohida urg'u beriladi.

Maktab direktorlari bilan ta'lim muassasasi faoliyatidagi kamchiliklar, o'qituvchilarni saralab olish va ularni qayta tayyorlash, eng asosiysi esa xorij tajribasidan keng foydalangan holda zamonaviy darsliklar ishlab chiqish masalalarini muhokama etmoqchimiz,-deya qayd etdi PIIMA direktori. O'zbekistonda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi maktablar faoliyatini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni rejalashtirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda PIIMA tizimida 4 ta Prezident, 9 ta ijod va 3 ta ixtisoslashtirilgan maktablarda 3397 nafar o'quvchilarga yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan bilim berilmoqda.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining AKT bo'limi tomonidan tasarrufdagi maktablar uchun yangi https: //maktab.piima.o'z/ platformasi yaratildi. Platforma milliy Tas-ix tizimidagi, internet tezligi past bo'lgan holda ham o'quvchilar uchun masofaviy ta'limni bemalol amalga oshira olish imkoni borligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Perfectum va Ucell mobil operatorlari tomonidan Agentlik tasarrufidagi maktab o'quvchilari uchun maktab.piima.o'z resursidan foydalanishda tarifikatsiya qilinmaydi.

Agentlik va "Six Clouds Pte Ltd Singapore" kompaniyasi o'rtasida imzolangan memorandumga ko'ra, 4 ta va kelgusida ochiladigan yana 10 ta Prezident, shuningdek, 3 ta ixtisoslashtirilgan maktabga kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan ingliz tili, matematika fanlari bo'yicha raqamli o'quv metodikasi va dasturi beg'araz taqdim qilindi. Bu dasturlardan Agentlik maktablarining laboratoriyalarida 5-8-sinf o'quvchilari uchun ingliz tili va matematikadan qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalanilyapti.

Prezident maktablarida ingliz tilida o'tiladigan STEAM fanlari qo'shimcha ravishda "Khan Academy" platformasidan foydalanib, o'qitish joriy qilindi. Bunda, o'qituvchi va o'quvchilar "web-site"dan ro'yxatdan o'tib, kichik onlayn sinf tashkil etdi. Mavzuga doir videomateriallar hamda mashqlar o'qituvchi tomonidan guruhga qo'yib boriladi va o'qituvchi har bir o'quvchining vazifani bajarganini kuzatib tura oladi. O'quvchilarni ro'yxatdan o'tkazish o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi ham mumkin. O'quvchi esa onlayn sinfga kirib, videodarslarni o'zi mustaqil o'rganib chiqadi, tushunmagan qismini o'qituvchisidan so'rash imkoniyatiga ega. Har bir mavzu yuzasidan maxsus testlar tuzilgan bo'lib, darsdan so'ng o'quvchi ularni bajaradi. Berilgan javob natijasi shu zahoti dastur tomonidan ko'rsatiladi va yechish usuli ham taklif etiladi. Bu o'quvchi mashqni to'liq tushunishi uchun juda foydali bo'ladi. Onlayn sinfda ham odatdagi darslardagi kabi bolaning mashqni o'zlashtirish ko'rsatkichi namoyish etiladi. Istagan o'g'il-qiz qo'shimcha ravishda murakkabroq mashqlarni ham bajarishi mumkin.

Umuman, web-site o'quvchilar uchun bir vaqtning o'zida bir guruh bo'lib, o'qituvchi hamrohligida ishlash, mukammal tarzda tuzilgan videodarslar va mashqlarni o'rganish, o'zining o'sishini kuzatib borish hamda xatolar ustida ishlash imkoniyatlariga ega. Aytish kerakki, ushbu amaliyot masofadan turib o'qishning eng samarali usullaridan biridir.

Agentlik Prep.uo'z veb-sahifasi jamoasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Endilikda, o'quvchilar uzaytirilgan ta'til davrida Prep.uz veb-sahifasining yetakchi o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan videodarslarni tomosha qilib, noyob metodika orqali mavzularni qiziq va oson yo'llar bilan o'zlashtirishni davom ettira oladi. Muhimi, buning uchun alohida tartib yoki cheklovlar yo'q. Ya'ni, istalgan joydan, istalgan vaqtda va istalgan qurilma orqali darslarga ulanish imkoniyati mavjud. O'quvchilar har bir darsdan keyin qiziq mashqlar va testlarni yechadi. Natijalarni esa kutish shart emas. Demak, bola bilimini sinovdan o'tkazadi, erishganlari bilan birga, kamchiliklarini ham kuzatib boradi. Asosiysi esa, qo'shimcha tushunchalar orqali mavzuni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Quvonarlisi, Agentlik tasarrufidagi maktab o'quvchilari Prep.uz onlayn darslaridan bepul foydalana oladilar.

Prep.uzning yana bir afzalligi shundaki, to'playotgan ballarini o'quvchi bilan birga uning ota-onasi, yaqinlari va o'qituvchilar ham kuzatib bora oladi. Boshqa o'quvchilar bilan bellashib, o'z bilimini sinash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Bugun har bir oilada uyali aloqa vositalaridan foydalaniladi. Ba'zi xonadonlarda kamida bitta, ayrimlarida esa har bir xona uchun alohida televizorlar bor. Bu esa, bugungi kunda barcha bolalar masofaviy ta'limdan bahramand bo'la olishini anglatadi. Chunki, barcha maktablar o'z o'quvchilari va ularning ota-onalarini Telegram gruppalarga a'zo qilib, uy vazifalari, ijodiy topshiriqlar va test savollarini yuborib, onlayn jarayonlarni amalga oshirmoqda.

Ijod maktablarida barcha fanlar bo'yicha sinflar kesimida videodarslar tayyorlanib, viloyatlardagi xususiy telekanallar orqali namoyish etilishi yo'lga qo'yildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari endilikda matematika, informatika, fizika, robototexnika va boshqa fanlardan mavzularni o'zbek tilida onlayn o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, sinf rahbarlari bilan birga har bir o'quvchi bilan Google Education platformasi orqali individual yondashuv yo'lga qo'yilgan. O'qituvchilar o'quvchilar bilan o'zaro masofaviy ta'lim olib boryapti. Bunday imkoniyat o'quvchilarni qolib ketgan darslarini o'zlashtirish va bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarga televizion darslarni kuzatib borish ham tavsiya etilmoqda.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Zamonaviy iqtidorlik konsepsiyasi qanday bo'ladi?

2.Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklarini izohlang

3.Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xosliklari?

4."Nosfera"modeli asosida iqtidorli o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?

5.Prezident maktablari haqida nimalarni bilasiz?

6.Ijod maktablari haqida nimalarni bilasiz?

11-MAVZU. O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKLARINI TASHXIS ETISH

Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Ta’lim jarayonining ajralmas komponenti tashxis hisoblanib, uning yordamida qo‘yilgan maqsadlarga erishilganlik aniqlanadi. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish imkoniyati mavjud emas. Tashxis — bu didaktik jarayon natijalarini aniq belgilash.

«Tashxis» tushunchasi o‘quvchilar «bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish» tushunchasiga qaraganda keng va chuqur ma’noga ega. Bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish natijaning o‘zigagina tegishli, uning sabablariga izoh bermaydi. Tashxislash natijalarni didaktik jarayon dinamikasidan, tendensiyalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqadi.

Nazorat, tekshirish, baholash tashxisning asosiy komponentlari hisoblanadi. Tashxis orqali statistik ma’lumotlar to‘planib, tahlil qilinib, didaktik jarayon rivojlanish dinamikasi va tendensiyalari aniqlanadi.

Tashxisning asosiy komponenti nazorat hisoblanadi. Nazorat – bu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish jarayonini kuzatish. Nazoratning asosiy qismi tekshirish hisoblanadi. Tekshirish – bu o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni baholash uchun bajariladigan harakatlar va operatsiyalar tizimi.

Mohiyatiga ko‘ra nazorat o‘quvchilarni o‘quv faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish, ya’ni ta’limda teskari aloqani o‘rnatilishini ta’minlaydi. O‘qituvchi o‘quvchini bilimlarni qay miqdorda yoki qay darajada o‘zlashtirganligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladi. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyati xarakterini bilib oladi.

Nazorat davomida o‘quvchi o‘zining o‘quv faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘ladi. Nazorat o‘quvchiga bilimlarni o‘zlashtirish orqali nimaga erishganini tushunishiga hamda o‘z kamchiliklarini anglashiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonining muhim bosqichlaridan biri o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat, hisobga olish va baholashdir. Uning maqsadi: o‘quv materialini egallab olish sifatini, shakllantirilgan ko‘nikma va malakalarining, o‘quv-predmetining maqsad va vazifalariga qanchalik mos kelishi darajasini aniqlashdir. Bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat etish jarayonida o‘quvchilarning o‘quv mehnatiga javobgarlik munosabati tarkib topadi, ta’lim usullarining samaraliligi belgilanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida nazoratining bir qancha turlari: tanlov (kirish, testi, olimpiada, tanlovlar) o‘quv (nazorat ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, testlar). O‘quv yurtlari esa, dastlabki, joriy, tematik, davriy va yakuniy bo‘lishi mumkin.

Nazoratning har bir turi o‘ziga xos funksiya va mazmunga ega:

1. Bilim, ko‘nikma, malakalarini hisob-kitob qilish funksiyasi - talabalar tomonidan bilimlarning hajmini aniqlash emas, shu bilan birga bilish usullarini, empirik va nazariy fikrlash, muammolarni hal qilish usullarini egallab olish darajasini ham aniqlaydi.

2. Nazoratning o‘rgatuvchanlik funksiyasi - talabalar javoblarni tahlil etish orqali ularda o‘quv materialini egallab olish, muammoni hal etishning yangi usullarini ham o‘rgatadi.

3. Tarbiyalovchilik funksiyasi - egallab olingan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmini aniqlash orqali talabalarda faollik va mustaqilligi darajalarini belgilaydi va uni rivojlantirish kelajak rejalarini aniqlash imkonini beradi.

4. Teskari aloqa o‘rnatish funksiyasi -o‘qituvchi nazorat vaqtida o‘z fanini o‘qitishning kelgusida yanada takomillashtirish uchun imkoniyatga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, teskari aloqa bilish faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talaba o‘z-o‘zini nazorat qilish natijasida amalga oshiriladi. Shuning uchun talabaga bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zi nazorat qilish usullari bilan qurollantirish lozim. Nazoratning test, xilma-xil vaziyat, topshiriqlar tizimi bilan qurollantirish talab etiladi.

Bilimlarni tekshirish va baholash – ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. U darslarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini og‘zaki yoki yozma nazorat qilish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Tekshirish va baholash yordamida o‘quvchilarning bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganliklari o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklari, o‘qituvchi faoliyati samaradorligi aniqlanadi.

Darsdagi intizom o‘quvchilarning ta’limga munosabati, o‘quvchilarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, mehnatsevarligi ko‘p jihatdan bilimlarni tekshirish va baholashga bog‘liq.

Bilimlarni tekshirish va baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

Nazorat qiluvchi (har bir bosqichda bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish keyingi bosqichga tayyorgarlikni ifodalaydi).

Ta’limiy (o‘quvchi o‘rtog‘ini javobini tinglaganda ham uning bilish qobiliyati rivojlanadi).

Tarbiyaviy (o'quvchilar mehnat qilishga, mustaqil ishlashga o'rganadilar).

Tuzatuvchilik (o'quv-tarbiyaviy jarayonni tuzatish uchun imkoniyatga ega bo'linadi).

Axborot beruvchi (ota-ona bolasining yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi).

Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash tizimli va doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Bilimlarni tekshirish va baholashni obyektivligiga ta'sir etuvchi omillar.

Bilimlarni tekshirish jarayonida ta'lim natijasida erishiladigan maqsadni bir xil, umumiy tushunilmaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchilar tomonidan keng, har xilda shakllanadi:

1.Fan asoslaridan puxta bilim berish;

2.Mantiqiy tafakkurni shakllantirish;

3.O'quvchilarning bilish faolligini shakllantirish.

Nazorat obyektlarining har xilligi bahoning asoslanishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Ayrim o'qituvchilar uchun baho obyekti bu o'quvchi o'zlashtirgan o'quv materiali, boshqalar uchun esa, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va tashxislash tamoyillari quyidagilardir:

- xolislik (obyektivlik);
- tashxis testlari (topshiriqlari, savollari)ga asoslanish;
- tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi;
- pedagogning barcha o'quvchilarga do'stona munosabatini, bilim, ko'nikma, malakalarini baholashdan aniq maqsadning ko'zlanishi;
- tizimlilik (mazkur tamoyil ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarning o'zlashtirilishi, ularni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini anglatadi);
- oshkoralik (barcha o'quvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazilishini anglatadi; tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshkoralik xarakteriga ega; oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni ham talab etadi).

Bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida uning og'zaki va yozma usullaridan keng foydalanilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim Reyting tizimi

to‘g‘risidagi Nizomda «O‘quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi, nazoratning har xil turlari shakllaridan foydalanish yo‘li bilan umumiy o‘rta DTS talablari bajarilishini ta’minlash, ta’lim samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishdan iborat» deb ko‘rsatilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini barcha bo‘g‘inlarida bilimlar reyting tizimida baholanmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi muvaqqat Nizomda Reyting tizimi vazifalari ko‘rsatilgan.

Reyting tizimi vazifalari: o‘zlashtirishni muntazam baholab borish, bilimni adolatli va aniq baholash, o‘qituvchilar mas’uliyatini oshirish va hokazo.

O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o‘ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O‘qituvchi nazorat va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida aks aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O‘quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko‘rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi ***birinchi bo‘g‘in*** ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o‘quv yili boshida o‘quvchilar tomonidan avvalgi o‘quv yilida o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim (kurs)ni o‘rganishga kirishilganda ham o‘tkazilishi mumkin va o‘rinli bo‘ladi.

Bilimlarni tekshirishning ***ikkinchi bo‘g‘ini*** har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir.** Joriy tekshirish ta’lim

oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan, ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganganlarini takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina, kutilgan samarani beradi.

Tizimning ***to'rtinchi bo'g'ini*** o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarini o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda ***beshinchi bo'g'in*** ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy **tekshirish** va **hisobga olishdir.** O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz.

Baho deb, baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham

miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish - bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish **vazifalarini** bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi O'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlari nazorati natijalari o'qituvchi tomonidan qo'yilgan baholashda o'z ifodasini topadi.

Baholash – bu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash. Baholashning miqdoriy ifodalanishi bahoda aks etadi.

Baho – bu o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini raqam va ballar orqali shartli ifodalash miqdori.

Ta'lim natijasi nafaqat baho orqali, balki boshqa vositalarda ham baholanishi mumkin. Masalan, og'zaki maqtov, minnatdorchilik bildirish, faxriy yorliq yoki medallar bilan taqdirlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bilim sifatini aniqlashdagi yagona yondashuv obyektiv baholash hisoblanadi. Bilimlarni baholash o'quvchiga ta'sir etishning eng nozik jihatlarini ifodalaydi. Bilimga o'ta yuqori darajada baho qo'yish o'quvchini bilim olishga ruhlantirishi mumkin, lekin taltaytirib yuborishi ham mumkin. O'quvchiga past baho qo'yish o'quvchining bilimlarni olishga yo'naltirishi ham, qiziqishining pasayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini reyting tizimida nazorat etish va baholash yo'llari. Talabalar o'quv-bilim faoliyati natijalarini reyting usulda nazorat va baholashning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, u talabani uzluksiz, mustaqil o'qishga o'rgatadi, ularda o'quv ishlari o'rganiladi, muvaffaqqiyatli intilishni shakllantiradi. Reyting tizimida yozma, og'zaki baholash bilan birga test sinovlaridan keng foydalanilmoqda. Uning afzalliklari:

1. Nazorat va baholashning xolis instrumenti, uni to'g'ri tashkil etish, uning natijalari testlashtiruvchining shaxsiga bog'liq bo'lmaydi.

2. U texnologik xususiyatga ega, to'la guruhni keng qamrovli material asosida nisbatan qisqa vaqt davomida yalpi baholash imkonini beradi.

3. Testlashtirish, natijalarini tahlil etish va rasmiylashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun qulay.

4. Natijalarni kompyuterga kiritib avtomatik ravishda tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Sinovdan o'tuvchiga moslashuvchi kompyuter test sistemalaridan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, ulardan keyingi topshiriq sinaluvchini avvalgi topshiriqni qay darajada bajarganligiga qarab beriladi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatiga reyting tizimining kirib kelishi, pedagogik testlardan butun o'quv jarayonida uzluksiz foydalanish imkoni vujudga keldi. Bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha sifatli testlar bankini yaratish zaruriyati bor. Chunki sifatli testlarni faqat talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga, shu

bilan birga ularning bilish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi test madaniyatini egallash, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha testlarni talab darajasida tuza olishi zarur. Testlarning murakkablik darajasi, ishonchliligi, teng kuchliligi, valentligi, didaktik aspektlari tushunchalarini o'qituvchilar anglab olishi lozim.

O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirganlik darajalarini baholashda quyidagi subyektiv kamchiliklarni uchratishimiz mumkin:

- baholashda bag'rikenglik qilish;
- kayfiyatga qarab baho qo'yish;
- baholashda aniq mezonlarning yo'qligi;
- baholashda tizimni yo'qligi;
- boshqalar bahosiga qarab baho qo'yish;
- bolani xulq-atvorini inobatga olib baho qo'yish;
- bahoni ko'tarish yoki pasaytirib qo'yish v.b.

Yuqoridagi baholash jarayonidagi kamchiliklarga yo'l qo'yish baholashdagi obyektivlikning yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatlar o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahs talab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u o'quv adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo'yiladi, agar:

a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa;

b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa;

v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa;

g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo'yiladi, agar:

a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;

b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa;

v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa;

g) og‘zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, o‘qituvchining qo‘shimcha savollari bilan xatolarini to‘g‘rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo‘lmagan xatoga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

«3» baho qo‘yiladi, agar:

a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa;

b) savollarning mantiqiy tuzilishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo‘lsa.

«2» baho qo‘yiladi, agar:

a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o‘zlashtirmagan bo‘lsa;

b) yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa, qo‘yiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O‘quv jarayonida nazorat va baholashning ahamiyati qanday?
2. Ta’lim olganlikni tashxis etish tamoyilari haqida ma’lumot bering.
3. O‘quv faoliyati natijalarini turlari shakl va metodlarini tasniflang.

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

12-MAVZU. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI.TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.

Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Ushbu bobda tarbiya jarayoni mohiyatini ko'rib chiqamiz. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida o'rganuvchi pedagogikaning ilmiy sohasi hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida uning qonuniyatlarini va tamoyillarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini, uning turli ijtimoiy institutlarda tashkil etilishini o'rganadi.

XX asrning 90-yillariga qadar pedagogika bo'yicha mutaxassislar pedagogika fanining predmeti tarbiya deb ta'kidlagan bo'lsalarda, XX asrning 90-yillaridan so'ng pedagogika fanining predmeti ta'lim deb hisoblab kelmoqdalar. Buning asosiy sabablaridan biri butun dunyoda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ifodalash uchun ta'lim atamasi qo'llanilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyani to'rt xil ma'noda qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Tarbiya keng ijtimoiy ma'noda – ijtimoiy madaniy tajribalarni, me'yor va qadriyatlarni avloddan avlodga o'tishini ifodalaydi. Tarbiyaning ushbu ma'nosi sotsiologiya va boshqa xulq-atvor to'g'risidagi (falsafa, psixologiya, pedagogika) fanlardagi shaxsni ijtimoiylashuviga yaqinroq. Ijtimoiylashuv deganda, insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirishini, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta'sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Tarbiya fanda shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi omillaridan biri sifatida qaralib, tarbiyaviy tizim doirasida maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllanish jarayoni sifatida aniqlanadi. Tarbiyaning tor ijtimoiy ma'nosi ijtimoiy institutlardagi tarbiyaviy ta'sirlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiya keng va tor pedagogik ma'noda ham qo'llaniladi. Tarbiyaning keng pedagogik ma'nosi o'quv tarbiya muassasalaridagi shaxsning shakllanishini anglatsa, tor pedagogik ma'noda tarbiyani jarayon sifatida qaralishini ifodalaydi. Tarbiyaning tor pedagogik ma'nosi aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ta'sirida aniq insoniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Bu yerda pedagoglar faoliyati tarbiyaviy ishlar deb yuritiladi. Shunday qilib, tarbiya nazariyasi pedagogik borliqda

tarbiyaning shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon sifatida o'rganadi.

Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik adabiyotlar tahlilidan o'tmishda va hozirgi paytda tarbiyaga bo'lgan turli ilmiy-amaliy yondashuvlar aniqlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi paytda pedagogik konsepsiyalar uchun metodologik asos sifatida quyidagi falsafiy ta'limotlarni ajratishimiz mumkin. Bularga: pozitivim, pragmatizm, ekzistensializm, neopozitivizm, dialektik materializm ta'limotlari kiradi. Pozitivizm (ijobiy -lotincha positivus so'zidan) - falsafiy idealizmning bir turi hisoblanadi. XIX asrda tarqalib, (O.Kant, St. Miller, G.Spenser), tomonidan obyektiv borliqni aks ettirmaydigan subyektiv sezgi va tasavvurlarning yig'indisi deb, tushunilgan tajribaning ma'lumotlariga asoslangan. Pozitivizmning eng yirik namoyondalaridan biri Gerbert Spenser bo'lib, u o'zining pedagogik g'oyalarini quyidagicha ifodalaydi: maktabdagi ta'lim ilmiy bilimlar sistemasiga asoslana olmaydi va asoslanishi ham mumkin emas, maktab asosan o'quvchilarga utilitar (amaliy foydali faoliyatlarida kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar) bilimlarni berishi kerak; maktabning asosiy maqsadi insonni ijtimoiy sharoitga moslashtirish uchun tarbiyalashdir; tarbiyaning butun bir sistemasi o'quvchilar ongiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi haqidagi fikrni singdirishi lozim.

XIX asr oxirlarida Amerikada paydo bo'lgan G.Spenserning progressiv ta'limoti bilan bir xil g'oyaviy yo'nalishda rivojlandi, biroq u tarbiyada «xususiy tashabbuskorlikni» va «erkin tadbirkorlikni» rivojlantirish ruhini kuchaytirdi. Progressivistlarning fikricha, bolalar motivlarini «spontan-begona ta'sirsiz paydo bo'ladigan, bolalarni ichki dunyosi va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qiziqish va motivlar) namoyon bo'lishi pedagogik jarayonning xarakterini belgilashi lozim, tarbiyaning vazifasi esa, bolalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga har tomonlama yordam berishdan iborat. Insonning hayotga individual moslashuvi haqidagi g'oya, G.Spenser ta'limotiga tegishli bo'lib, AQSH va Angliyada pedosentrizmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, pedosentrizm tamoyillarining shakllanishiga asos bo'ldi.

Pedosentrizm vakillarining fikricha, pedagogik jarayon bolalarning o'z qiziqish, istak, motivlaridan kelib chiqishi kerak.

Amerikalik mashhur pedagog Djon Dyui pedosentrizm nazariyasini rivojlantirib, progmatizm nazariyasiga asos soldi. Uning fikricha, «tarbiya bolaning tajribasini tiklash, va qayta tashkil qilish»dir. Bolalarning

to'plagan tajribalarini boyitish ularga muntazam bilim berib borishdan muhimroq vazifa hisoblanadi.

XX asrning 20-30-yillarida paydo bo'lgan neopozivitizm o'zini «mantiqiy pozitivizm» deb ataydi, u falsafaning obyekti tabiat hamda jamiyat qonuniyatlarini o'rganish deb emas, balki fan va fan tilining mantiqiy tuzilishini o'ganish deb hisoblaydilar. Pedagogik nuqtayi nazardan pozitivizm va neopozivitizm «sinfiy gormonizatsiyaga» intiladi. Maktabda birinchi navbatda, o'rganilayotgan obyekt tabiiy fanlarning mantiqiy tuzilishi bo'lishi kerak, ular ijtimoiy fanlarni ijtimoiy rivojlanish qouniyatlarini inkor etadilar.

Eksistensialistlarning fikricha, maorif va o'qish mazmuniga tizimli hamda ilmiy yondashish, yagona talablar qo'yish foydasiz, hatto zararlidir, ular individning erkin o'sishiga to'sqinlik qiladi. Tarbiya va maktab faqat o'zining takrorlanmasligiga ko'ra nodir bo'lgan har bir inson shaxsiga «o'z-o'zini ifoda etishi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratishi kerak, xolos; shaxs uchun «ong oqimi» uning shaxsiy sezgi va kechinmalari muhimdir, undan dunyoni va o'zini baholashi kelib chiqadi. Ekzistensializm nazariyasida shaxsni uning ijtimoiy aloqalari va munosabatlaridagina ajratib, shaxs go'yoki o'zining shaxsiy «men»idan, shaxsiy sezgilaridan va o'zining subyektiv tajribasidan jamiyat bilan o'zaro murakkab munosabatini hamda ijtimoiy vaziyatlar xarakterini baholashni keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratishga intilishi yaqqol sezilib turadi.

Pedagogika shaxs va uning rivojlanishining psixologik nazariyalariga asoslanadi. Masalan, bixeviorizm, Vigotskiy va uni izdoshlarining tarixiy-madaniy maktabi, K. Rodjersning gumanistik psixologiyasini misol qilishimiz mumkin. XX asrda rivojlangan mamlakatlarda tor ko'rinishdagi tarbiya konsepsiyalari, aniqroq aytganda dolzarb, ijtimoiy siyosiy, insonparvar g'oyalar asosdagi dasturlar paydo bo'ldi. Bularga kommunikativ tarbiya, tinchlik ruhidagi tarbiya, yashash uchun tarbiya, madaniy tarbiya dasturlari kiradi.

Ta'lim tarixida va pedagogik nazariyalarda antik davrdan boshlab, u yoki bu alloma, pedagog nomi va ijodi bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning umumiy konsepsiyalari shakllangan. Bularga: Platonning ijtimoiy pedagogik utopiyasi, Ya.A. Komenskiyning umumiy tarbiya to'g'risidagi ta'limoti, J.J.Russoning erkin tarbiya ta'limoti, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, Dj.Dyui, A.S.Makarenkolarning pedagogik tizimlari misol bo'la oladi.

Nemis mutaxassisi F.V.Kron tarbiyaga bo'lgan olti yondashuvni ko'rsatib o'tgan:

Tarbiya - o'ziga xos majburlashdir (Platon).

Tarbiya - hayot davomida bolaga yordam berish (Pestalotsi).

Tarbiya - bolani erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratish (Russo).

Tarbiya - bolani nazorat va boshqarish (Gerbart).

Tarbiya - bolani tajrabali va katta odamlar tomonidan rahbarlik qilish.

Tarbiya - belgilangan me'yorlarni ishlab chiqarish (bixeviorizm).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tarbiya konsepsiyasi turli darajalarda, ya'ni falsafiy, ijtimoiy va psixologik ta'limotdan boshlab, zamonaviy va o'tmishdagi pedagoglarning mualliflik maktablarigacha. Mualliflik maktablari u yoki bu pedagogning yoki pedagoglar guruhining alohida g'oyalari va maqsadli konsepsiyalari qo'llaniladigan muassasalar hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning asosiy muammolaridan biri tarbiyada erkinlik va majburiylik munosabatidir. Boshqacha qilib aytganda, shakllanish jarayonini davlat, ta'limning maxsus tizimlari, maktab, odamni yoshligidan boshlab rivojlanishi, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlarni samaradorlik imkoniyatlari bo'yicha rivojlanishni nazoratga olishi kerak. Har bir inson o'zining rivojlanishida, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida va ehtiyojlarini qondirilishida jamiyatdan ozodmi yoki yo'qmi degan savol ijtimoiy-falsafiy sohada mavjud. Ushbu savolning hal etilishi turli darajalarda amalga oshiriladi. Bularga maxsus konsepsiya, mamlakatning ta'lim sohasidagi milliy dasturi, maktabni tarbiyaviy tizimi, mualliflik tarbiya tizimlari, o'qituvchining bolalar bilan individual muloqot stili kabilar kiradi. Bunda har bir inson uchun individual ta'lim trayektoriyasi yaratish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Shunday qilib, turli mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimlarida va ta'lim tarixida ikki turdagi tarbiya konsepsiyalarini (avtoritar va gumanistik) ajratish mumkin. Demak, avtoritar tarbiya konsepsiyasida jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad va qadriyatlarga urg'u berilsa, gumanistik tarbiyada shaxsning individual, ya'ni qiziqishi, chtiyoji va imkoniyatlariga e'tibor beriladi.

XX asrning pedagogik konsepsiyalari orasida, ijtimoiy yo'nalganlik xarakteridagi bixeviorizm nazariyasini ko'rib chiqaylik.

Bixeviorizm nazariyasi amerikalik pedagog va psixolog D.Dyui tomonidan XX asr boshlarida paydo bo'ldi.

Bixevioristik pedagogika tarbiyaga texnologik yondashuvni stimullashtirdi. Unga muvofiq o'qituvchi o'quvchi modelini, undagi shaxsiy sifatlar yig'indisini aniqlab, ta'sir etish metod va vositalarini loyihalashtiradi. Bu pedagogikadagi texnokratik tendensiyalar talablariga

javob beradi. Ya'ni, jamiyat nazorati ostida shaxs shakllanishini boshqarishni ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqdi. Texnokratik yondashuv mohiyati o'quvchi va kattalarning ruhiyatiga ta'sir etish nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi. Bixeviorizm inson hayoti biologik, mexanik reaksiyalardan iborat xolos, uning ongi, qadriyatlari, axloqiy tamoyillari, qarashlari motivlari shaxsning xulqini aniqlaydi deb hisoblaydi. XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davri, ya'ni yangi maktab, erkin tarbiya uchun harakatlar davri deb e'tirof etilgan. Yangi maktab tarafdorlarining fikricha, ta'lim va tarbiyani bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Tarbiya ularning imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya tarixida tarbiya tizimining ikki turi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Birinchisi - an'anaviy tarbiya, buning mohiyati tarbiyani ijtimoy normalarni o'zlashtirishga yo'nalganligi, insonga ijtimoiy talablarning qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Tarbiya tizimining insoniy yo'naltirilganligi shaxsni inividual rivojlanishini, uning ichki ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi. Bunda bolaning erkin faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Mamlakatning tasdiqlangan, qabul qilingan tarbiya konsepsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-madaniy, psixologik va pedagogik omillar bilan aniqlanadi. Ma'lumki, mamlakatimizda barcha omillar o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zgardi. Tarbiyaning yangi paradigmasiga burilishi o'tgan asrning 80-yillarida novator o'qituvchilar harakatlarida paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyatning shakllanishi: inson huquqi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, iqtisodning ijtimoiy yo'nalganligi, insonparvarlashtirish kabi me'yoriy normalar bilan bog'liq. Ushbu tayanch tamoyillar siyosatchilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar bilan kelishilgan holda yer yuzidagi insonlar hayotining bugunini va istiqbolini belgilaydi. Insoniylik – dunyoqarash, insonni asosiy qadriyat sifatida uning rivojlanish huquqini, baxtini, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishini ifodalaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insoniylik dunyo evolutsiyasining tabiiy natijasidir. Insoniylik ijtimoiy, ilmiy, madaniy, axloqiy fenomen hisoblanib, insonni tabiatga, jamiyatga, insonga nisbatan qarashlari yig'indisi hisoblanadi. Insoniylik g'oyalari qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ammo dunyoni gumanistik tushunish, Uyg'onish davridan boshlab paydo bo'ldi. Uyg'onish davri mutafakkirlari

shaxs qadriyatini, insonni bilish va rivojlanish imkoniyatlarini, dunyoni o'zgartirish imkoniyatlarini chegarasi yo'qligini ko'rsatib o'tganlar.

XX asrda insoniylik g'oyalari butun dunyo intellektual kuchlarini birlashtirib, milliy insoniy harakatlarni, tashkilotlarni, ilmiy anjumanlarni tashkil etilishiga, yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish uchun qator sharoitlar va manbalar mavjud. Bularga:

mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar;

ta'lim va madaniyatning boy tarixi;

gumanistik tarbiya nazariyalari va tizimi hamda chet el tajribasi.

Adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, insonparvar pedagogika, erkinlik va muhabbat ruhidagi tarbiya asoslanmoqda, muhokama qilinmoqda. Ikkinchi bir tomondan an'anaviy sobiq ittifoq tarbiya tizimi inqirozga uchrab keskin tanqid qilinmoqda.

Tarbiyaga bo'lgan yangi yondashuvning mohiyati tarbiyaning yangi paradigmasida va tarbiyaning yangi konsepsiyasida qanday ifodalanmoqda, degan savolga javob beramiz.

Paradigma – nazariya, tadqiqot vazifalarni hal etish uchun namuna sifatida qabul qilingan ilmiy yondashuv.

Konsepsiya – tarbiyaning asosiy komponentlari, maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalar to'g'risidagi tasavvurlar.

Pedagogik adabiyotlarda bugungi kunda va kelajakda tarbiya maqsadlari tizimini asoslashga urinishlar kuzatilmoqda. Ko'plab mutaxassislar tarbiya maqsadini aniqlashda aksiologik yondashuv (tarbiya maqsadi jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga asoslanishi) ga tayanmoqdalar (ushbu holatda qadriyatlar - biror bir inson, butun bir jamiyat uchun etalon sifatida qabul qilingan ijtimoiy ideallar, abstrakt g'oyalar hisoblanadi).

Tarbiya maqsadi jamiyat rivojlanishi ehtiyojlaridan, ishlab chiqarish taraqqiyotidan, ijtimoiy va ilmiy-texnik progress tezligidan, pedagogik nazariya va amaliyotining rivojlanganlik darajasidan, o'quv muassasasining, o'qituvchi va o'quvchilarning hamda jamiyat imkoniyatlaridan aniqlanadi. Tarbiya maqsadi – bu yosh avlodni hayotga tayyorlashdagi oldindan aniqlangan natija hisoblanadi. Tarbiya maqsadi to'g'risidagi bilimlarni bilish o'qituvchidan qanday odamni shakllantirish kerakligi to'g'risidagi tasavvurni hosil qiladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarida tarbiya maqsadi O'zbekiston uchun vatanparvar, ozodlik, demokratiya, insoniylik, adolat ideallarni yuqori qo'yuvchi, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni hurmat qiluvchi, o'z qiziqishlarini davlat, jamiyat, boshqa odamlar qiziqishlari bilan uyg'unlashtiruvchi, o'z milliy tarixini, tilini e'zozlovchi shaxsni shakllantirishdir deb belgilangan.

Tarbiya jarayoni qonuniyatlari. Tarbiya jarayonining alohida tomonlari tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniyat – tushunchasi qonun tushunchasiga yaqin bo'lib, tizimdagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan va tendensiyalarini ta'minlovchi takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlardir. Qonun mazmuniga ko'ra o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Qonun jarayon tomonlarini, hodisalar orasidagi obyektiv, mavjud aloqalarni aniqlash sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayonidagi bunday aloqalar bilimlarga tayangan holda uni tushunishga, tasvirlashga, tashkil etishga yordam beradi. Mohiyatiga ko'ra qonunlar – bu fan o'rganadigan borliqdagi obyekt, reallik to'g'risidagi nazariy bilimlar hisoblanadi. Qonunlar tarbiya jarayonining yo'nalishlarini, tizim xulq-atvorni tashxislashni ifodalaydi. Qonun ochib beradigan aloqalar – bu determinizm tamoyiliga ko'ra (har qanday hodisaning, obyektning o'zgarishi biror bir sababga ko'ra) sabab-oqibat aloqalaridir.

Pedagogikada qonun tushunchasi bilan birgalikda tarbiya tamoyili tushunchasi aloqadorlikda o'rganiladi. Tarbiya tamoyili – bu qonunga asoslangan tarbiyaga bo'lgan asosiy talab, pedagog harakatlarini aniqlovchi bosh g'oya hisoblanadi.

Tarbiya qonuniyatlari orasida tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida va pedagogik jarayon sifatida xarakterlovchi umumiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonunlar ta'lim va tarbiya munosabatlarni ko'rsatadi.

Tarbiyaning jamiyat talablariga mosligi qonuni. Bu qonun an'anaviy pedagogikada ishlab chiqilgan bo'lib, tarbiyaning barcha elementlari uchun tegishli: tarbiya tizimi, mamlakatdagi ta'lim davlat ehtiyojlariga javob beradi, bu tarbiya jarayonida, uning maqsadida, mazmunida, metodlarida ifodalanadi. Boshqa tomondan tarbiya tizimi va pedagogik jarayonlarni tashkillash xarakteri jamiyat imkoniyatlariga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga bog'liq. Ushbu tarbiya, jamiyat, davlat orasidagi aloqalar ta'lim siyosati orqali tuzatiladi va tartibga solinadi.

Tarbiya maqsadi, mazmuni, metodi birligi qonuni tarbiya jarayonining barcha komponentlari aloqadorligini ifodalaydi. Maqsad-mazmunni, metodlarni, ish shaklini aniqlaydi. O'z navbatida, tarbiya jarayonining bu elementlari o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga va imkoniyat-

lariga bog'liq. Tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar tarbiyaviy ishlarni buzilishiga, samaradorsizligiga olib keladi.

Shaxsning tarbiyas,i rivojlanishi va ta'limi birligi qonuni. Yuqorida bir tomondan ta'lim va tarbiya jarayonlarining aloqasi, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi orasidagi qonuniy aloqalar xususida ta'kidlab o'tildi. Bu psixologik- pedagogik fanlarning fundamental holatlaridan biridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro aloqadorlikda olib borilganda, samaradorlilikka, yutuqlarga erishiladi. Shaxs rivojlanishida har ikki omil asosiy hisoblanishi ko'plab mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Boshqa qonunlar tarbiya jarayoni ichidagi aloqadorliklarni ko'rsatadi: tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuni, tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchi faolligi bilan aloqasi qonuni, tarbiya va muloqot aloqasi qonuni, tarbiya jarayonini xususiyatlarini tarbiyalanuvchilarning yosh, individual, jinsiy xususiyatlari bilan aloqasi qonuni, shaxsni shakllanishi jamoa rivojlanishi darajasiga bog'liqligi qonuni v.b qonunlar.

Tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuni. Bu, agar biz tarbiyalanuvchilarda tajribani, bilimlarni, qarashlarni, qadriyatlarni shakllantirishni ta'minlamoqchi bo'lsak, biz ularni faoliyatga jalb qilishimiz kerakligidan dalolat beradi. Faoliyat psixologiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida faoliyatning turli ko'rinishlari shaxsni rivojlanishi va shakllanishining asosiy vositasi va sharti hisoblanadi. Tarbiyalash faoliyatga jalb qilish, turli rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning faolligi qonuni, inson faqat faoliyatda shaxs sifatida mustaqil faol mavjudot sifatida o'zini anglaganda, faoliyat shaxsiy mohiyatga ega bo'lganda shaxs shakllanishini, rivojlanishini tasdiqlaydi. Bu qonun bilan qator xususiy qonuniyatlar va tushunchalar aloqadordir. Masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotini va kasbini aniqlash, shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi. Ushbu qonunga P.A.Galperin, V.V.Davidovlarning o'quv faoliyati nazariyasi asoslangan. Bu qonun A.S.Makarenko va boshqa buyuk pedagoglar tajribalarida tasdiqlangan.

Tarbiya va muloqot birligi qonuni. Bolalar va o'smirlarning shakllanishi, muloqot mazmuniga, pedagog va o'quvchi xulqi stiliga, ma'lumotlarni almashishni tashkil etilishiga, guruhdagi muassasadagi munosabatlarga bog'liq. Tarbiya,faoliyat, muloqot o'rtasida qonuniy sabab-oqibat aloqalari mavjud. Ushbu qonunga muvofiq tarbiya bevosita muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun pedagogikada o'qituvchini tarbiya jarayonida o'quvchilar va boshqalar bilan muloqot texnologiyasini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida munosabat texnikasini

o'rnatish, stil bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish, kasbiy pedagogik xulq bo'yicha pedagogik muloqotni tashkil etish asosiy ishlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaning jamoada mavjudligi qonuni. Jamoa yuqori tashkillashtirilgan guruh sifatida shaxsning shakllanishiga ta'sir etib, tarbiyaning kuchli vositasi hisoblanadi. Jamoa faoliyati, undagi muloqot, guruh a`zolari o'rtasidagi munosabat isbotlangan tajriba hisoblanadi. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash sobiq ittifoq pedagogikasidagi asosiy tamoyillardan biridir. Tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlariga bog'liqligi qonuni. Tarbiya jarayoni uning maqsadi, mazmuni, metod va shakllari nafaqat jamiyat, davlat tomonidan qabul qilingan tarbiya konsepsiyasiga, balki o'quvchilarni yosh, individual xususiyatlariga ham bog'liq. Turli yoshdagi odamlar faoliyatda va muloqotda o'zlarini turlicha namoyon qiladilar. Bu ularni indiviual xususiyatlari bilan bog'liq.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tarbiyaning mazmun mohiyati nimalarda aks etadi?
2. Tarbiyaning o'ziga xos xusisiyatlari haqida ma'lumot bering.
3. Tarbiya tamoyillari nima?

13-MAVZU. JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

Jamoa tushunchasi. Inson to'g'risidagi fanlar tizimida jamoaga berilgan turli ta'riflar mavjud. Falsafiy ma'noda jamoa – bu bir necha kishilardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad, muloqot va o'zaro faoliyat asosida tashkil etilgan guruhni anglatsa, sotsiologiyada mehnat jamoasi imkoniyatlari o'rganiladi. Psixologiyada guruhdagi aloqadorlik, o'zaro ta'sir, pedagogikada bolalar jamoasining tashkil etilishi o'rganiladi.

Pedagogikada bolalar va o'quvchilar jamoasi tushunchasi bola rivojlanishida va hayotida jamoaning o'rni anglanishi natijasida paydo bo'lgan. Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida bolalarni bir-biriga ta'siri haqida fikr bildirib, o'qituvchilarga passiv o'quvchini faol o'quvchi bilan, aqliy rivojlanishini pastrog'i bilan, to'polonchini bosiq bola bilan birlashtirib o'qitish kerakligi haqida maslahatar bergan.

XX asr boshlariga kelib, pedagoglar jamoaviy munosabatlarni, rivojlanishini bola shaxsining rivojlanishida qulay sharoitlarni yaratishning asosiy yo'nalishi sifatida talqin qilganlar. Bolalar jamoasi kuchli tarbiyaviy instrument hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyaning asosiy vazifasi bolalar uchun qiziqarli, turli-tuman faoliyatni tashkil etish hisoblanadi.

Bolalarni jamoada tarbiyalash nazariyasi A.S.Makarenkoning amaliy faoliyatida rivojlandi. Uning ta'kidlashicha, jamoa tarbiyaning shakli, quroli, vositasi hamda har bir shaxsni rivojlantirish manbai sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, jamoada shaxs erkinligi va qadr-qimmati hamda himoyalanganligi va ijtimoiy aloqalari ta'minlanadi.

Shuning uchun insoniylik tarbiyasi bu jamoaviy tarbiya deb hisoblanib, tarbiyalovchi jamoani shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatib, bergan. Tarbiyalovchi jamoa bu o'zining vazifalariga, an'analariga, munosabat stiliga, o'z-o'zini boshqarish organlariga ega bo'lgan tirik ijtimoiy hodisadir. Makarenkoning xizmatlari yana shunda ko'rindiki, u birinchilardan bo'lib, jamoa tarbiyasining asosiy tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, ularga bolani ijobiy tomonlariga tayanish, parallel ta'sir etish, bola shaxsiga hurmat va talab uyg'unligi, bolaga individual ta'sir etish tamoyillari kiradi.

Jamoa nazariyasining rivojlanishiga polyak pedagogi Ya.Korchak munosib hissa qo'shgan. U tarbiyaning maqsadi - bu bolani ichki kuch va imkoniyatlarini, qobiliyatlarini to'liq, erkin, har tomonlama mustaqil rivojlantirish deb hisoblagan. Uning fikricha, bu jarayonining asosiy omili demokratik tarzda tashkillashtirilgan, bolalar hayotini to'liqligini ta'minlovchi, ularni xulq-atvorini tuzatuvchi, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirilgan o'z-o'zini boshqaruvchi bolalar jamoasi hisoblanadi deb ta'kidlagan. Tarbiyachining vazifasi bolaning xatti-harakatlarini kuzata olishi,uning xulq-atvori motivlarini tushunishi, hurmat asosidagi munosabatlarini o'rnata olishni bilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda bolalar jamoasi rus pedagoglari A.V.Mudrik, L.I.Novikova, N.Ye.Shurkovalar o'zbek pedagoglaridan O.Musurmonova, M.Quronovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralmoqda.

Ularning fikricha, tarbiya tizimi bolalar va o'smirlarning turli ko'rinishdagi tabaqalashgan birligini ifodalaydi. Bularga: sinf, to'garak, sport seksiyasi, ijtimoiy tashkilotlar kiradi. Bizga ma'lumki, jamoada tarbiyalash muammosi tadqiqotlar tomonidan mamlakatimizda va ko'plab mamlakatlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi qabul qilingan hamda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinayotgan sharoitda o'rganilmoqda.

Bolalar jamoasining xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad va vazifalarni belgilash, unga erishish;

- yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda o'quvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish;

- teng huquqlilik asosidagi munosabatlarni shakllantirish;

- haqqoniy ijtimoiy fikrni vujudga keltirish;

- jamoadagi ijobiy an'analarni hosil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash.

O'z-o'zini boshqaruv organlarining ishini tashkil etish organizatsiya.

Tarbiyalovchi jamoaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tashkiliy (turli faoliyatlarga jalb qilish, ularni tuzatish, ishchanlik munosabatlarini shakllantirish);

- tarbiyaviy (o'quvchilarda dunyoga va o'zlariga munosabatni, axloqiy fazilat va sifatlarni shakllantirish, qadriyatlarni, odatlarni, xarakterni ishlab chiqish);

- stimullashtiruvchi (mazmunli, ijtimoiy ahamiyatli muloqot uchun sharoit yaratish, o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini shakllantirish, ularning xulq-atvorini tuzatish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi. Jamoaning maqsadi, albatta, ijtimoiy, maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Davlat konstitutsiyasi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo'lmasligi zarur.

Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a'zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat umumiy tashkil eitilishi kerak. Jamoa a'zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi. Jamoa a'zolari orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g'am-qayg'ularini aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlar o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasining shakllanishi to'rt bosqichda kechadi. Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichida talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Bu bosqichda jamoa hali tarbiyalovchi ta'sirga ega bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (guruh) hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faoli (aktivi)ning paydo bo'lishi bu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar. Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlashi va uning o'zi ham bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (rag'bat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi, o'z

mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari juda muhimdir. A.S.Makarenko jamoa faolini «jamoaning vijdoni» deya ta'riflagan edi. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi anchagina sermahsul bo'lib, unda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga nisbatan talab qo'ya boshlaydi. Bu bosqichda jamoa ishiga faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati, a'zolarning xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlar yuzaga kelishining sababi - a'zolarning ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlari sanaladi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'ziga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Har bir bosqich jamoa a'zolarining o'zlariga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan xarakterlanadi, biroq qo'yilgan talablar o'ziga xos yo'nalishi bilan (mas., o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq kabi) ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga, jamoadagi tarbiya jarayoni esa o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli, o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Bu bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Bir guruh pedagoglar o'quvchilar jamoasini uning shakllanish va rivojlanishiga ko'ra quyidagi uch bosqichga ajratadilar, ya'ni:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

d) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ta'lim muassasasi tarkibidagi eng barqaror bo'g'in - muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Ta'lim muassasalarida ikki muhim bo'g'in: o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar jamoasi mavjud bo'ladi.

O'quvchilar jamoasi -o'quvchilardan tashkil topib, ijtimoiy ahvoli, saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlar tengligi asosida o'zaro ijtimoiy ahamiyatli umumiy maqsad va birlikka ega bo'lgan guruh hisoblanadi.

O'quvchilar jamoasi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

1) o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga tayyorliklari, ruhiy tetiklikka egaliklari;

2) jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni ardoqlash va o'z qadr-qimmatini baholash;

3) jamoa a'zolari o'rtasida do'stlik, o'zaro birlik, hamjihatlik va yordam ko'rsatish tuyg'usining qaror topganligi;

4) jamoadagi ishchanlik, umumiy faoliyatni tashkil etishda faollik ko'rsatish;

5) jamoa a'zolarida o'z hissiy tuyg'ularini boshqara olish, muomala, muloqot, nutq, yurish-turish qoidalariga amal qilish ko'nikmasining shakllanganligi.

O'quvchilar jamoasiga qo'yiladigan yagona talablar o'quvchilarning dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalardan iborat bo'lib, puxta o'ylangan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Pedagogik talablar quyidagi holatlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi, muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'quvchilar jamoasiga pedagogik talablarni qo'yish metodikasi ular tomonidan dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtida, jamoat joylarida, oilada xulq-atvor qoidalariga qat'iy rioya etishlarini ta'minlashga yordam beradigan shakl, metod va vositalar yig'indisidir.

O'quvchilar jamoasiga talablarni qo'yish metodikasini:

- bolalarni pedagogik talablar mazmuni bilan tanishtirish;
- pedagogik talablarning ahamiyatini tushuntirish;
- tajriba orttirish;
- o'quvchilar faoliyati, qo'yilayotgan pedagogik talablarning bajarilishini muntazam nazorat qilib turishdan iborat pedagogik faoliyat mazmuni tashkil qiladi.

Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan barqarorlashgan odatlar bo'lib, ular mazmunida jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar mazmuni, xususiyati, jamoaning ijtimoiy fikri ifodalanadi.

Jamoa an'analarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:
- kundalik faoliyat an'analari;
- bayram an'analari.

Jamoaning kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Jamoaning bayram an'analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etiladigan faoliyat kiradi.

O'quvchilar jamoasining rivojining asosiy shart-sharoitlari. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonida quyidagi **shart-sharoitlarni** hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;
- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy

madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqating aniqlashi zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi, Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Jamoa» va «o'quvchilar jamoasi» tushunchalariga izoh bering.
2. O'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini sanab bering.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
4. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalariga doir ma'lumotlarni toping.

14-MAVZU. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya nazariyasida tarbiya metodi - tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati yo'li ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu tarbiya jarayonini tarbiyaning asosiy qonuniga mosligini, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida tushunishni ifodalaydi.

O'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning faoliyatini tashkil etish orqali tarbiyalaydilar. Bundan ko'rinadiki, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkilotchisidir. Shuning uchun tarbiya metodi bolaga pedagogik ta'sir etish vositasi sifatida aniqlanadi. Masalan, I.F.Harlamovning yozishicha, tarbiya metodlari - bu o'quvchilar ongini va motiv ehtiyojlarni rivojlantirish uchun tarbiyaviy ta'sir etish usul va yo'llari yig'indisidir.

P.Pidkasiskiyning ta'kidlashicha, tarbiya metodi - bu dunyoga va o'ziga munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagog va tarbiyachi faoliyatini tashkil etish modelidir. Stolyarenko «tarbiya metodi pedagogik maqsadga erishish uchun tarbiyachi ongiga, hissiyotiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish yo'l va usullaridir» - deb hisoblaydi. Uning fikricha, tarbiya metodi pedagog faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglar tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini tashkil etib, ishontirish, namuna, mashq, talab, jazolash va rag'batlantirish orqali ta'sir etadilar. Mutaxassislar tarbiya metodlarini va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodlarini bir-biridan farqlaydilar. Taniqli pedagog Yu.K.Babanskiy va bir qator olimlar ta'lim va tarbiyani yagona bir butun pedagogik jarayon sifatida ifodalab, tarbiyasiz ta'lim mavjud emas deb hisoblaydilar. Shuning uchun butun pedagogik jarayon uchun yagona metodlar tizimini taklif etadilar.

Tarbiya usullari odatda metodning ajralmas bo'lagi sifatida ifodalanib, aniq vaziyatlarda qo'llaniladi. Masalan, rag'batlantirish metodida maqtov, tashakkurnoma, taqdirlash usullaridan foydalaniladi.

Tarbiya metodlari tasnifi. Metodlarni bilish ularni biror asos, belgi bo'yicha guruhlarga ajratishga olib keladi. Pedagogikada biron bir asos bo'yicha metodlarni qat'iy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan. Mutaxassislar metodlarni ko'p qo'llanishiga qarab ishontirish, mashq, namuna, taqdirlash, jazolash metodlarini o'rganganlar. Albatta, pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni ko'p uchratamiz. Pedagog o'quvchilar bilan birgalikda axloqiy normalarni muhokama qilib, tushuntirib, ularni

faoliyatga jalb etib, ularga namuna bo'lib tarbiyalaydi. Va nihoyat, u o'quvchilarning xatti-harakatlarini muhokama qilib, ularni stimullashtiradi hamda xulq-atvorini tuzatib, rivojlantiradi.

Ilmiy tavsiflash obyektlarni bir-biridan farqlash uchun qat'iy asos va belgiga ko'ra ajratishni talab etadi. Shuning uchun metodlar klassifikatsiyasi ularni bilishni, ikkinchidan, ularni ongli, samarali qo'llashni ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'satadiki, klassifikatsiyalar asosini shaxsning u yoki bu sohasiga (ongiga, xulqiga, hissiyotiga) ta'sir etish yo'naltirilishi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, shaxsning bilimini, qarashlarini, idrokini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar bor. Ular ongni shakllantiruvchi metodlar deyiladi. Bundan tashqari, shaxsning xulq-atvoriga va faoliyatiga yo'naltirilgan metodlar mavjud. Bularni xulqni shakllantiruvchi va faoliyatni tashkil etuvchi metodlar deyiladi. Yana xulqni stimullashtirishga va tuzatishga yo'naltirilga metodlar mavjud bo'lib, ular xulqni stimullashtiruvchi metodlar deyiladi.

Yu.K.Babanskiy tomonidan tavsiya etilgan ta'lim va tarbiya metodlari klassifikatsiyasining asosini faoliyat konsepsiyasi tashkil etadi. Unga ko'ra, har qanday faoliyat komponentlarini anglash, tashkil etish, stimullashtirish va nazorat tashkil etadi.

Faoliyat tarbiyang jarayoni tuzilishida muhim o'rin egallab, butun pedagogik jarayonni umumiy metodlarini to'rt guruhga ajratishning asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, an'anaviy pedagogika fanida tarbiya metodlarini to'rt guruhga ajratilganligini ko'plab mutaxassislar tomonidan guvohi bo'lamiz:

a) ongni shakllantirish metodlari: hikoya, suhbat, ma'ruza, munozara, muhokama;

b) faoliyatni tashkil etish va xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, topshiriq, talab va tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;

d) xulqni stimullashtiruvchi metodlar: musobaqa, o'yin, taqdirlash va jazolash;

e) nazorat, o'z-o'zini nazorat va baholash metodlari: kuzatish, so'rov, faoliyat natijalarini tahlil qilish.

Metodlarni guruhlar bo'yicha ajratish mumkin, lekin shaxs qismlar bo'yicha emas, balki bir butun holda shakllanadi, nimagaki ong, munosabatlar, xulq, atvor har qanday holatda mo'ljalli va tasodifiy harakatlar ta'sirida butunlikda shakllanadi. Psixologiyada ong va faoliyat birligi tamoyili mavjud, ya'ni ong faoliyatda shakllanadi. Birinchi guruh metodlarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda munosabatlarni,

yo'nalganlikni, ishonch va qarashlarni shakllantirish hisoblanadi. Bular asosida xulq-atvor normalari, ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar yotadi. Birinchi navbatda insonni ishonchi uning xatti-harakatlarida ifodalanadi.

Ikkinchi guruh metodlari tarbiyani faoliyatda amalga oshishi tamoyiliga amal qilishni talab etadi. Shaxsda u yoki bu sifatlarni sharoit yaratmasdan shakllantirib bo'lmaydi. Pedagoglarning vazifasi ana shunday sharoitlarni hosil qilish hisoblanadi. Uchinchi guruh metodlari yordamida pedagoglar va tarbiyalanuvchilarni o'zlari o'z xatti-harakatlarini nazorat qilib, tarbiyalanuvchilarni faoliyat motivlariga ta'sir etadilar.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari tarbiya natijalarini baholashga va tahlil etishga yo'naltirilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarni shakllanashiga ta'sir etadi. Agar tarbiya natijalari tarbiyalanuvchilar bilan birga tahlil etilsa, samaradorlilikka erishiladi hamda ularning o'z-o'zini tarbiyalashi stimullashadi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Ushbu metodlar nomlanishiga va mohiyatiga ko'ra ta'limning og'zaki metodlari bilan mos kelib, ularning asosiy vazifasi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, me'yor, odamlarni xulq qoidalari, qarash va qadriyatlarni shakllantirish sohalariga oid bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Bu metodlar birinchi navbatda, shaxsning ongiga, uning aqliy, intellektual, hissiy sohalariga murojaat qiladi. Ishontirishning asosiy manbai, instrumenti bu - so'z, xabar, ma'lumot va ma'lumot muhokamasi. So'z orqali ta'sir etish obro'li o'qituvchining, o'quvchilarning aql va hissiyotiga ta'sir etadigan eng kuchli metod hisoblanib, tarbiyachidan yuqori darajadagi madaniyatni va kasbiy mahoratni talab etadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod, dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi. Mazkur metodlar yoshlar tomonidan hayot mazmunining tushunib olinishini ta'minlaydi.

Ma'ruza, hikoya, tushuntirish — bu og'zaki metodlar, ma'lumotni tahlil qilish va xabar berish bo'lib, tarbiyaviy mazmun va mohiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyotdan shu ma'lumki, mashg'ulot, uchrashuvlarda o'quvchilar bilan ijtimoiy- axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etilishini uchratishimiz mumkin. Ma'ruza muammoni sistemali tarzda bayon qilinishi bilan yuqori sinf o'quvchilariga mosdir.

Hikoya va tushuntirish kichik va o'rta yoshli o'quvchilar uchun qo'llaniladi. Ularning har biri moslikni, emotsionallikni, ishonchlilikni, axborotlilikni talab etadi. Mavzular har xil: ijtimoiy hayot, axloqiy, estetik

muammolar, muomala, o'z-o'zini tarbiyalash, nizolarga oid bo'lishi mumkin. Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa, voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishini ifodalovchi metod sanaladi. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda ko'p ishlatiladigan usul bo'lib, u orqali ta'lim oluvchilarni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, shaxslararo munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlar, ularga amal qilish, shaxs tomonidan o'zligini anglash hamda jamiyatda, jamoada muayyan o'rinni egallashga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi metodik adabiyotlardan mavzularni, material mazmunini va o'quvchilar bilan tarbiyaviy suhbatlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalarni topadi. Tarbiyachi o'quvchilar bilan suhbat uchun mamlakat, dunyo, yoshlar hayotining turli tomonlarini ifodalovchi materiallarini ommaviy axborot vositalaridan ham olishlari mumkin.

Tarbiyaviy suhbatlarga tayyorgarlik vaqtida mazmunni tanlash, materialni yetkazib berish yo'llari, uning tuzilishi, stili, suhbat toni, psixologik muhitni yaratishda mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Suhbat munozara, muhokama sifatida o'quvchilarni o'zlaridan intellektual va emotsional faollikni talab etuvchi metod hisoblanadi. Tarbiyaviy suhbat, munozara qoidasi bo'yicha tarbiyachining qisqa kirish so'zidan va muammoli xarakterdagi savollarni qo'yishdan iborat. Suhbat metodi o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli nutqi, o'quvchi bilan o'zaro munosabati ta'sirchan usullardan hisoblanadi. Suhbat jarayonida o'quvchi shaxsini yaqindan anglash mumkin, u haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi. Ta'lim oluvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan ma'lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlar rag'batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Ta'lim oluvchining ijtimoiy ongini shakllantirish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo'nalish sifatida tanlanadi:

1) yetuk mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

2) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va hokazolar);

4) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Muhokama – tarbiyaning maxsus metodi bo'lib, qarama-qarshi fikrlarning to'qnashuvini ifodalaydi. Muhokamani tashkil etish mavzu nomini shakllantirishni, muhokama uchun savollarni tayyorlashni, boshlovchini tanlashni, muhokama qoidalari bilan ishtirokchilarni tanishtirishni, ko'rgazmali materiallarni tayyorlashni talab etadi.

Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy savollar bo'yicha muhokamalar tashkil etish tarbiyachilardan bilim va tajribani, uslubiy ko'nikmalarni talab etadi. Muhokmada bacha ishtirokchilani ishtirok etishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashni, blits so'rovlarini tashkillash hamda keys stadiylardan faydalanish zarur.

Tarbiyalanuvchilar bilan axloqiy mavzularni muhokama qilishda qat'iy faktlarni, aniq vaziyatlarni muhokama qilish ko'p hollarda samarali hisoblanadi.

Namuna - shaxsga atrofdagilar (xususan, o'qituvchilar, ota-onalar, yoshi katta kishilar)ning yurish-turish, muomala, tartib-intizom qoidalariga rioya qilish, kundalik faoliyatni tashkil etishda o'rnak, ibrat bo'la olishlarini ifodalovchi metod sanaladi.

Yosh avlod uchun quyidagi pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi:

- ota-onalarning yurish-turishi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, kundalik faoliyatni tashkil etishlari, atrofdagilarga nisbatan yondashuvlari;
- o'qituvchilarning hamkasblari, rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari, nutq va muomala odobi, kasbiy faoliyatni olib borishdagi mas'uliyatlari;
- ishlab chiqarish ilg'orlari, umuminsoniy hamda milliy ilm-fan, madaniyat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan shaxslarning hayoti va faoliyatlari;
- badiiy asarlar, kinofilmlar, spektakllar qahramonlarining xatti-harakatlari, ma'naviy qiyofasi;
- afsonaviy va tarixiy milliy qahramonlar, Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning jasoratlari;
- favqulodda vaziyatlarda fuqarolik, insoniylik burchini sidqidildan ado etgan shaxslarning xatti-harakatlari;

- tengdoshlarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida, turli vaziyatlarda o'zlarini tuta olishlari, irodali, matonatli, axloqli ekanliklarini namoyon eta olishlari va boshqalar.

Xulqni shakllantirish va faoliyatni tashkil etish metodlari. Xulqdagi ijobiy tajribaga tarbiyalanuvchilar faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilganda erishiladi. Tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuniyati asosida tashkillashga bo'lgan talablar shakllanadi.

A.N.Leontevning ta'kidlashicha, faoliyat tarbiyalanuvchi uchun ahamiyatli, shaxsiy mohiyat kasb etganda, tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalaydi. Bunda tarbiyalanuvchi faoliyatda faol ishtirok etsa, ularni vazifalari almashib turishi kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish pedagogik vaziyatlarga mos bo'lishi zarur.

An'anaviy pedagogikada tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etish tarbiyaning asosiy metodlari hisoblanadi. Ushbu metodlar guruhiga pedagogik talab, mashq, ijtimoiy fikr, tarbiyalovchi vaziyat kiradi.

Pedagogik talab jamiyat va uning a'zolari tomonidan qabul qilingan aniq xulq-atvor normalarini, qoidalarini, qonunlarini, an'analarni bajarishga qo'yilgan talablar sifatida ifodalanadi. Talab ijtimoiy xulq qoidalari yig'indisi, real vazifalar, biror xatti-harakat bo'yicha aniq ko'rsatmalar, iltimos, maslahat, ko'rsatma sifatida ifodalanadi. Shakliga ko'ra talab bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va tarbiyaviy ta'sirning muhim usullaridan biri bo'lib, u ma'lum harakatlarni rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo'ladi.

Talab o'quvchilarning xulqi qoidalariga, maktab Nizomiga, ta'lim muassasasining kun tartibiga nisbatan qo'yiladi. Talabda hech qanday majburlash, avtoritarizm bo'lmasligi kerak. Barcha amal talablarga bo'ysunadilar, demak, o'quvchilar ham talablarga amal qilishi zarur. Demak, xulq normalariga maktabning ichki tartib-qoidalariga birinchi navbatda o'qituvchilarni o'zlari amal qilishlari kerak. Masalan, maktabda chekish mumkin emas, shuning uchun o'quvchilar orasida ko'chada, burchak-burchaklarda bolalarning chekishini kuzatishimiz mumkin, ammo ayrim o'qituvchilar maktab hududida o'zlari chekadilar.

Jamoatchilik fikri — bu guruh talablarini ifodalaydi. Ular rivojlangan jamoalarda butun jamoaning xatti-harakatlarini baholashda qo'llaniladi. Bu barcha guruh a'zolarining hayotga bo'lgan qarashlarida, qadriyatlarida, me'yorlarida ifodalanadi. Pedagoglar jamoada sog'lom ijtimoiy

fikrni shakllantirishga e'tibor berishlari kerak. Bunga sinf hayotiga oid faktlarni muhokama qilish, unda ular faoliyatini baholashda o'quvchilar ishtirokini stimullashtirish orqali erishiladi. Jamoatchilik fikri — ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar, ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy ong shakli bo'lib, u yordamida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, yurish-turishlari, faoliyatlari, atrofdagilar bilan muomalalari, munosabatlari ijtimoiy axloq me'yorlariga muvofiq baholanadi va tartibga solinadi. Mohiyatiga ko'ra jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy masalalarni, taniqli shaxslar yoki umuman olganda, jamiyat a'zolaridan ixtiyoriy birining xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, faoliyati, atrofdagilar bilan muomalasi hamda munosabatining ma'qullanishi yoki qoralanishini ifodalaydi. Ana shu jihatiga ko'ra jamoatchilik fikri tarbiyalovchi xarakter kasb etadi.

Mashq – xulq-atvor asosi sifatida harakatlarni ko'p marotaba takrorlash orqali xulqning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Keng ma'noda bu tarbiyalanuvchilar faoliyati va hayotini jamiyat normalariga moslashtirish uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lida muayyan amal, harakatni ko'p marta takrorlash.

Mashq – muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashga qaratilgan harakat mohiyatini ifodalovchi metod hisoblanadi. Mashq natijasida muayyan ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati o'sadi, axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

Tarbiya amaliyotida mashqning quyidagi turlari mavjud:

1)faoliyatda mashq qilish;

2)kun tartibi doirasida bajariladigan mashqlar;

3)maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy va jamoa faoliyatini tashkil etish, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Kun tartibi mashqlari ta'lim oluvchilarni belgilangan kun tartibiga amal qilishga odatlantirish, u bilan bog'liq ravishda muayyan harakatlarni bajarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Maxsus mashqlardan tanlangan soha bo'yicha nazariy bilim, amaliy hamda xulqiy ko'nikma, malakalarni hosil qilishda foydalaniladi.

Taqdirlash – bu tarbiyalanuvchi va guruh a'zolarining xulq-atvorini, xatti-harakatlarini, fazilatlarini ijobiy baholash, ma'qullashda ifodalanadi. U o'z kuchiga ishonish, ijobiy o'z-o'zini baholash, qoniqish hissini uyg'otib, tarbiyalanuvchilarni o'z xatti-harakatarining ijobiy o'zgarishiga stimullashtiradi. Tarbiya jarayonida rag'batlantirishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1)o'quvchining zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklash;
2)maqtash;
3)esdalik sovg'asini berish;
4)maqtov yorlig'i bilan taqdirlash;
5)maxsus stipendiyalar tayinlash;
6)qo'llab-quvvatlash;
7)fotosuratni hurmat taxtasiga qo'yish;
8)jamoa nomidan minnatdorchilik bildirish;
9)safda birinchi o'rinda turishini ta'minlash;
10) musobaqalarda bayroqdor bo'lishiga imkoniyat yaratish;
11) nomini maktab devoriy gazetasi yoki radiosi orqali qayd etish.

Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Tarbiya vositasi – kam o'rganilgan pedagogik kategoriya hisoblanadi. Biroq oxirgi yillarda ushbu muammoni o'rganish dolzarbligi oshganligi kuzatilmoqda. Sababi maktab, o'qish, kitob, o'qituvchi nutqi, ota-ona so'zi bolaga ta'sir etishning, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omili, yagona manbai bo'lmay qoldi. Pedagoglar shaxsning ijtimoiylashuvi, muhitni pedagoglash- tirilayotganligi, ta'limiy muhitni yaratilishi to'g'risida ko'plab fikrlar bildirmoqdalar. Bu o'z navbatida, yoshlarning shakllanishida maktab va o'qituvchidan tashqari boshqa omillarning ta'siri yuqori bo'layotganligidan dalolat beradi. Bularga ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari, kompyuter va internet, reklama va ommaviy madaniyat, yoshlar madaniyati, globallashuv, axborotlashuv jarayonlari kiradi.

Boshqacha aytganda, zamonaviy bola, o'smir, o'spirin axborotlar makonida yashayapti va shakllanmoqda. Pedagogik maqsadlarga erishishda tarbiyachilardan barcha manbalarni, omillarni, vositalarni mazmun-mohiyatini bilish talab etiladi. «Vosita» tushunchasi izohli lug'atlarda bir necha ma'nolarni bildiradi. Vosita bu birinchidan - maqsadga erishishdagi harakat usuli, ikkinchidan - biror narsa uchun qo'llaniladigan predmetlar, moddiy qadriyat, uchinchidan - falsafa, iqtisodda «vosita» xomashyo, inson faoliyati obyekti, ishlab chiqarish uchun dastlabki material,

to'rtinchidan, pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan mehnat qurollari, narsa va predmetlar yig'indisi.

Taraqqiyot natijasida bolaga pedagogik ta'sir etish vositalari ko'lami ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. O'z davrida taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiy tarbiya vositalarini (o'qish, mehnat, o'yin, oiladagi va maktabdagi bola hayoti, uni tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqot)dan iborat deb ta'kidlagan edi. XX asr boshlarida amerikalik pedagog Dj. Dyui va rus pedagogi A.S. Makarenko o'zlarining tarbiyaviy yondashuvlarida, pedagogik amaliyotlarida tarbiya vositalariga o'qish bilan birgalikda mehnat, bolalarni ijtimoiy-jamoaviy faoliyati, o'yin, san'atni ham kiritganlar. Makarenkoning ta'kidlashicha, «maktab, kun tartibi, maktab hayotidagi barcha narsalar» tarbiya vositasidir deb fikr bildirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tarbiya vositasi deganda, birinchidan – umumiy ma'noda barcha ijtimoiy, madaniy, tabiiy borliqni, barcha ijtimoiy institutlar va sivilizatsiyani yaratishni, ikkinchidan – tarbiya jarayonida qo'llaniladigan narsa va predmetlarni tushunamiz.

V.S. Selivanovaning fikricha, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari (o'qish, mehnat, o'yin, muloqot) bu tarbiyaning fundamental vositalaridir. Pedagogika va psixologiya inson o'z malakalarini, xulq-atvor modelini, qadriyatlari, hissiyotini odamlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiradi deb ta'kidlaydi. Shuning uchun pedagog, sinf rahbari tarbiya maqsadiga erishish uchun tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini tashkil etishni bilishi kerak.

Har qanday maktabda bolalarni darsdan tashqari faoliyatlarini tashkil etish o'qituvchining asosiy ish sohasi hisoblanadi.

Maktablarimizda sinfdan tashqari faoliyatning quyidagi turlari: bilish, qadriyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy, estetik, dam olish, texnik, sport, sog'lomlashtirish faoliyatlari tashkil etiladi.

Bilish faoliyati o'quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish, bilishlarni to'plash, aqliy qobiliyatni shakllantirish maqsadida ekskursiya, olimpiada, konkurs, ilmiy konferensiya shakllarida tashkil etiladi.

Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatiga ko'ra dunyoga bo'lgan munosabatni shakllantirish jarayonidir. Bunda e'tiqod va qarashlar shakllandi. Sinf rahbari ijtimoiy axloqiy muammolar bo'yicha suhbatlar, sinf majlislari, munozaralar tashkil etib, o'quvchilarda hayotga bo'lgan qarash va munosabatlarni shakllantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy faoliyat o'quvchilarni maktabni boshqarish organlarida, o'z-o'zini boshqarish organlari ishida, maktabdagi turli o'quvchilar va yoshlar tashkilotlarida, mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy aksiyalarda ishtirok etishlarini, ifodalaydi. Bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maktab hududini tozalash, kecha va bayramlar shaklida tashkil etiladi.

Estetik faoliyat bolalarni badiiy hissiyotini, qiziqishlarini, madaniyatini, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu konkurs, konsert, festival, teatrga borish shakllarida amalga oshiriladi.

Dam olish faoliyati mazmunli, rivojlantiruvchi dam olishni ifodalab, dam olish kechalari, musobaqa, o'yin, bayramlar kechalarini tashkil etish shakllari amalga oshiriladi.

Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari

O'quvchilar faliyati turlari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakli bilan uzviy bog'liq. Shakl hodisa va jarayonni ichki mazmunini tashqi tomondan uning tuzilishini tashkil etishni ifodalaydi. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida aniq tashkiliy shakllarda amalga oshiriladi. Ta'limni tashkil etish shakli muammosi tarbiya jarayonini tashkil etish shakliga nisbatan ko'p o'rganilgan soha hisoblanadi. Shakl tashkiliy tomonni aniqlab, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni qanday sharoitlarda kim, qayerda, qanday, qachon tashkil etilishini ifodalaydi. Demak, tarbiyaviy ishlar shakli - bu aniq tarbiyaviy jarayonning vazifasi, mazmuni, metodlari amalga oshiriladigan tadbir, pedagogk ta'sirning tashkiliy tuzilishidir.

Shakl tarbiya jarayonining qismi sifatida uning maqsadiga, mazmuniga, metodlariga bog'liq. Shuning uchun tarbiya shakli aniq tarbiyaviy vaziyatlarga bog'liq bo'lib, ular turli xil, ijodiy takrorlanmas xarakterga ega.

Tarbiya jarayonini tashkil etish shaklini turkumlashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan: N.E.Shurkova tarbiya shaklini asosiy faoliyat turi bo'yicha, bilish faoliyati, mehnat faoliyati, ijtimoiy foydali faoliyat, estetik faoliyat, jismoniy sog'lomlashtirish, qadriyatli faoliyat shakllariga ajratgan.

N.I.Boldirev tarbiyaviy ishlar shaklini tarbiyaviy ta'sirni metodlarga bog'liqligiga asosan tarbiya shaklini: og'zaki - (suhbatlar, ma'ruza, konferensiya, uchrashuv);

amaliy - (ekskursiya, spartakadialar, olimpiada, konkurslar, shanbaliklar);

kuzatish - (devoriy gazeta, muzeyga borish, ko'rgazma, stendlar) shakllariga bo'lgan.

An'anaviy pedagogikada tarbiya shaklini o'quvchilar miqdoriga ko'ra: yakka, guruhli, jamoa, ommaviy.

Vazifasiga ko'ra: madaniy, sport, huquqiy.

O'tkazish xususiyatiga ko'ra: ma'ruza, suhbat, munozara, uchrashuv, madaniy tadbirlar.

O'tkazish joyiga ko'ra: o'quv-tarbiyaviy, mehnat-tarbiyaviy, maktabdan tashqari, sport-tarbiyaviy.

O'tkazish vaqtiga ko'ra: rejali, profilaktik, yakuniy shakllariga ajratilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar maktabdagi tarbiyaviy vazifalar bo'yicha darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar shakllarni quyidagi uch guruhga ajratmoqdalar:

1) maktab hayotini boshqarish va o'z-o'zini boshqarish shakllari - majlis, sinf soati, lineyka, namoyish, o'z-o'zini boshqaruv organlari majlisi;

2) bilish shakllari – ekskursiya, poxodlar, festivallar, mavzuli kechalar, ko'rgazmalar; dam olish shakllari –ertaliklar, kechalar.

Yuqoridagilardan ma'lumki, tarbiya jarayonini tashkil etish shakli klassifikatsiyasida yagona fikr mavjud emasligini kuzatishimiz mumkin. Tarbiyachi tomonidan nomigagina hisob-kitob uchun o'tkazilgan tadbirlar salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Tarbiya shaklini tashkillashtirish omillariga quyidagilar kiradi: tarbiya maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyachilar yoshi, tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, hudud xususiyatlari va an'analar, maktabning texnik va moddiy imkoniyatlari, o'qituvchining pedagogik mahorati.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning og'zaki-mantiqiy shakllarida tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asosiy vositasi o'quvchilar hissiyotini uyg'otuvchi, unga emotsional tus beruvchi so'z bilan ishontirish, ya'ni so'z hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor ma'lumot almashishga, muammoni muhokama qilishga, o'quvchilarni xabardor qilishga e'tibor beriladi.

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyachi tomonidan quyidagilarga e'tibor berilishi maqsadga muvofiq:
- tadbirning nomlanishini, vazifalarini, shaklini aniqlash;
- mazmun bo'yicha materiallarni to'plash;
- ish ketma-ketligini rejalashtirish;
- ishtirokchilarni tayyorlash;
- tadbirni o'tkazish;
- tahlil va o'z-o'zini tahlil qilish.

Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari shunga muvofiq bo'lishi zarur.

1. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

2. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal etiladi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, ***o'rta*** ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

3. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki, boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy shartidir.

4. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.

Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga indivudual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligining rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

5. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari, sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan

sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

6. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

7. **Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.** Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qila oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

8. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

9. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tarbiya metodi, usuli va vositasi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.
3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
5. Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlarini qo'shimcha manbalardan o'qib to'ldiring.

15-MAVZU. O'QUVCHILAR ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY TARBIYA

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. O'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismlari. Dunyoqarash shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'zining ijtimoiy muhitdagi o'rniga, o'z-o'ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e'tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimidir.

Dunyoqarash – inson faoliyati yo'nalishini aniqlovchi va uning ongida dunyoning umumiy ko'rinishini ifodalovchi falsafiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik qarashlar tizimidir. Zamonaviy psixologiya dunyoqarashni shaxs rivojlanishining bir qismi deb hisoblaydi. Dunyoqarashning asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Shaxs dunyoqarashi izchil, tizimli, uzluksiz, maqsadga muvofiq tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish orqali uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash, o'z-o'zini tarbiyalab borishi uchun zarur shart-sharoit asosida shakllantiriladi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega jarayon sanaladi. Dunyoqarashni shakllantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish, mazmunni tanlash, o'qitish metodlarini, bilim va faoliyat sohasidagi fundamental g'oyalarni ajratib olish bilan, predmetlararo aloqa bilan ta'minlanadi. Har qanday ta'lim tizimi dunyoqarashni shakllantiradi. Sobiq ittifoq davrida o'quvchilarda tabiat, jamiyat, inson, bilish to'g'risidagi dialektik materializm nazariyasini shakllantirishga e'tibor berilar edi. Hozirda ilmiy materialistik qarashlarni shakllantirishga e'tibor berilmoqda.

Dunyoqarashning mifologik, diniy, ilmiy turlari mavjud.

Mifologik dunyoqarash - ibtidoiy jamoa tuzumida borliqni obrazli qabul qilish asosida shakllangan tasavvurlar majmuasini ifodalovchi dunyoqarash.

Diniy dunyoqarash - borliqning ilohiy kuchga, ilohiyotga ishonish asosida qabul qilinishini ifodalovchi tasavvurlar, urf-odatlar, marosimlar majmui.

Ilmiy dunyoqarash - ilmiy metodlar yordamida ko'p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

Ilmiy dunyoqarash uzluksiz, izchil ravishda insoniyat tomonidan orttirilgan, mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish, hayotiy tajriba orttirish asosida shakllanadi. Ilmiy dunyoqarash ta'lim jarayonida shakllanadi. Ilmiy qarash muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Ilmiy qarash ilmiy dunyoqarashdan farqlanib, uning shakllanishi uchun asos vazifasini o'taydi.

Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs:

- tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi;
- o'ziga va atrofdagilarga nisbatan oqilona munosabatda bo'ladi;
- hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqelik, hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi;
- ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, ularning missionerlik faoliyatlari ta'siriga, mistik g'oyalarga berilmaydi;
- shaxsiy hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi;
- o'zini va jamiyat hayotida sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

Aqliy tarbiyaning maqsadi, vazifasi va vositalari. Aqliy tarbiya shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, bilish qobiliyati, tafakkur, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni bo'lib, u yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Shaxs tomonidan bilimlarning o'zlashtirilganligini, ma'lumotga ega bo'lganlikni, shuningdek, uning aqliy qobiliyati darajasini ifodalovchi sifatlarga aqliy sifatlar deyiladi. Shaxsda bilimdonlik, zukkolik, topqirlik, tezkor fikrlash, tasavvurning boyligi, ijodkorlik, geniallik, boy dunyoqarashga egalik kabi aqliy sifatlar namoyon bo'ladi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Aqliy tarbiya vazifalari:

1. O'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

2. O'quvchilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatni qaror toptirish.

3. O'quvchilarda mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

4. O'quvchilarda o'z bilimlarini doimiy boyitib borishga intilish tuyg'ularini shakllantirish.

5. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Iqtisodiy tarbiya – jamiyatning shaxsga, mustaqil faoliyatida samarali ko'rsatkichlarni ta'minlovchi aniq iqtisodiy, tushunchalar iqtisodga bog'langan siyosat, qonunlar, qonuniyat asoslari va ularning amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarining yig'indisini o'zlashtirishga imkon beruvchi izchil, maqsadga muvofiq ta'siri.

Iqtisodiy ta'lim – ijodkor shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko'nikma, malaka yig'indisi, uzluksiz, izchil, maqsadga ko'ra shaxsnning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dasturlar, metodikalar bilan yetkazish jarayoni.

Iqtisodiy savodxonlik – mustaqil faoliyat ko'rsatishga zarur bo'lgan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tarkib toptirish, har bir shaxs jamiyatda bo'lgan iqtisodiy siyosatni anglash, shunga ko'ra turmush darajasini oshirishga, shaxsiy etiyojini qondirishga yordam beruvchi samarali faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlovchi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka, yo'naltiruvchi qoida, usul, uslubiyatlar majmui.

Iqtisodiy tayyorgarlik— shaxs shakllanishida talab-ehtiyoj va imkoniyatiga ko'ra tanlangan sohalar, kasblar, mutaxassisliklar bo'yicha maxsus iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisini tarkib toptirish.

O'zlashtirilgan aniq iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar, mustaqil faoliyatda samara berishga kafolatlar, ya'ni aniq iqtisodiy ma'lumotlar umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish institutlari va boshqalar.

Iqtisodiy tafakkur – iqtisodiy bilimlar to'plash jarayoni bo'lib, o'quvchi – talabalar tomonidan ularga qulay, mos bo'lgan darajada ijtimoiy ishlab chiqarishning tushunchalar tarzidagi muayyan tizimidagi qonuniyatlarning aks etishi, iqtisodiy ongdagi konstruksiya qismini tutib turuvchi mantiqiy aloqadir. Bu tizim va mantiqiy aloqadagi axborotlardan olinadigan bilimlar hajmi yaxlit, o'zaro bog'langan fikrlar hosil qilib, bu fikrlar kengayadigan ana shu konstruksiya materiallaridir.

Iqtisodiy tarbiyalanganlik – shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlardan bo'lib, o'quvchi-talabalarning faoliyatiga iqtisodiy savodxonligini amaldagi ijrosi jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etilishi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi shaxs xatti-harakatidagi samarali, ijtimoiy-foydali, ijobiy faoliyat natijalari hayot talabi ekanligini anglash bilan belgilanadi.

Iqtisodiy fikrga egalik – iqtisodiy hodisalarni o'quvchi-talabalar tomonidan qulay, mos bo'lgan darajada bo'lishi, tahlil qilishi, iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalarni o'zlashtirishi, bilimlarni to'plash va iqtisodiy munosabatda to'g'ri mo'ljal olishi.

Iqtisodiy ong – subyekt tomonidan iqtisodiy munosabatlarni obyektiv tushunish natijasi hamda sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisalarga o'z fikrini bildirish va uni himoya qilib, amalga oshirish.

Iqtisodiy madaniyat – o'quvchi-talabalarning faoliyatlarida jamiyat, davlat va alohida ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat asosida uning vazifalarini hal etishdagi ishtirokining sifatiy ta'rifi va shaxsning xo'jalik yuritishdagi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, iqtisodiy tafakkur va ongning rivojlanish darajasi.

Iqtisodiy fikrlash va savodxonlikni oshirish ma'lum mezonda, ya'ni mustaqil O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy faoliyatga tayyorlash, shuningdek shaxs shakllanishidagi jahon talab etayotgan iqtisodiy madaniyatlilik darajasini tarkib toptirish deb qarash lozim.

Xususiy mulk vositasida tadbirkorlik, fermerlik, dehqonchilik qilib, o'z mehnati va yollanma mehnatdan foydalanish hisobiga daromad olish mumkin. Shaxsiy mulkni xususiy mulk bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Shaxsiy mulk xonadonning yoki shaxsning eng zarur turmush vositalaridir.

Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga olish hisoblanadi. Lizing kompaniyasi-mana shu yuqorida sanab o'tilganlarni ijaraga berish kompaniyasi hisoblanadi.

Qo'shma korxonalar – xorijiy sarmoyalar va asbob-uskunalar, mutaxassislar va ishchilar ko'magida qurilgan korxonalar. Bozor

iqtisodiyoti sharoitida bozorni turli mollarga to'ldirish, aholi ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xorijga chiqarib valyutaga sotishga yaraydigan, jahon andozalari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadlarida tuziladi.

Erkin narx – bozor bahosi. Davlat yoki biror tashkilot tomonidan cheklab qo'yilmagan, bozor qonuniyatlari asosida paydo bo'ladigan baho.

Yuridik shaxs – mustaqil ish yuritish huquqiga ega bo'lgan, shaxs korxona, tashkilot muassasa. **Yuridik shaxs** bankda o'z hisob-kitob varaqasiga ega.

Elektron pul – hisob-kitob ishlarini elektron hisoblash vositasida bajarishni osonlashtirish uchun qo'llaniladigan maxsus kartochkalar.

Emissiya – (lat.) pul va qimmatbaho qog'ozlarni ishlab chiqarish yo'li bilan davlat budjetidagi kamomad qoplanadi. Emissiya miqdori yoki foizi davlat organlari tomonidan belgilanadi.

Foyda – korxonaning sof daromadi, korxona tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotning ulgurji bahosi (oborot solig'isiz) bilan uning tannarxi o'rtasidagi farq.

Foydaning bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirish va kollektivni, ya'ni jamoani rag'batlantirish uchun korxona ixtiyorida qoldiriladi, qolgan qismi davlat budjetiga tushadi.

Diler – ishbilarmon savdogar o'z hisobiga birja va savdo vositachiligi bilan shug'ullanadi.

Embargo – (isp.) man etish, taqiqlash, biror chet mamlakatga mol yoki **biror turdagi mahsulotni chiqarish va uni keltirishning taqiqlab qo'yilishi.**

Delcping – tovarlarni tashqi bozorda, ichki bozorga nisbatan arzon bahoga sotish.

Barter – pulsiz, valyutasiz bevosita tovar ayirboshlash.

Dividcnt – aktsionerlik jamiyati foydasining aksiya egasining daromadiga aylangan qismi.

Menejer – yollanma professional boshqaruvchi.

Birja – standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining mulki hisoblanadi.

Mahsulot sifati – mahsulotning iste'mol xususiyatlari, xalq xo'jaligi yoki aholining ma'lum ehtiyojlarini qondirishidagi uning foydaliligi yig'indisi. Mahsulot sifatini oshirish-ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun kurash yo'llaridan biridir.

Debitor – korxona, tashkilot yoxud mahkamasidan qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Mehnat unumdorligi – ishchi tomonidan ma'lum vaqt birligida ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadigan mehnat sarfining samaradorligidir. Mehnat unumdorligini oshirish – ijtimoiy mahsulotni ko'paytirish va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omilidir.

Ushbu yuqorida ta'kidlab o'tilgan atama (tushuncha)lar va shunga o'xshash kundalik ehtiyojga aylanib borayotgan iqtisodiy atamalarning mazmun hamda mohiyatini har bir darsda u yoki bu darajada ochib berish, ya'ni o'quvchi-talabalarda ana shu tushunchalarni shakllantirib borish imkoniyatlari katta. Jumladan, kasb-hunar kollejlarida va oliy o'quv yurtlarida yo'nalishlarga qarab, ishlab chiqarish bilan bog'liq mahsulotning sifati, tannarx, foyda, mehnat unumdorligi kabi tushunchalarni shakllantirish bevosita zarur hisoblanadi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimning barcha bo'g'inlarida o'quvchi – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy bilim va tushunchalarni shakllantirish, ularni iqtisodiy tarbiyalash va iqtisodiy faolliklarini oshirish hisobiga ularda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish davr talabidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan anglanadiki, *iqtisodiy tarbiya asosan uch bosqichda olib boriladi: o'quvchi-talabalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalar, ko'nikma va malakalar, oila va maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida shakllanlantiriladi; maxsus iqtisodchi mutaxassisligini olish uchun oliy ta'lim muassasalarida (institut, universitet, akademiyalarda) kasb sohasida olingan bilim, egallangan ko'nikma va malakalarni bo'lajak iqtisodchi kadrlarning barkamol shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi.*

Umuman, iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi o'quv mashg'ulotlarini olib borishda o'quvchi-talabalarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirish, shuningdek, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, iqtisodiy hisob-kitobga, oila budjeti va boylikka mas'uliyat bilan qarash kabi iqtisodiy sifatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda **iqtisodiy tarbiyaning quyidagi muhim vazifalarini** ajratib ko'rsatish mumkin:

- jamiyatning har bir a'zosi bo'lgan shaxs o'z muqaddas burchi va sharafli bo'lgan mehnatga ongli va ijodiy munosabatini tarbiyalash;

-bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini tezda o'zlashtirib, o'z kundalik ish faoliyatlariga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- iqtisodiy tarbiya shaxsning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishga, ishlab chiqarish va korxonalar faoliyatida ishtirok etishga ko'maklashadi;

- jamiyat a'zolari bo'lgan har bir shaxsdan o'z kichik bizneslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni shakllantirish lozim;

- eng muhimi iqtisodiy tarbiyaning vazifasi o'quvchi-talabalarda mustaqil O'zbekiston Respublikasining mas'uliyatli a'zosi hamda ishlab chiqarish jabhasining xo'jayin tuyg'usini mustahkamlashdan iboratdir.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish va tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari quyidagilardir:

1. Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq, izchil, tizimli amalga oshirish;

2. Iqtisodiy ta'lim va tarbiya o'rtasida, shuningdek, fanlararo o'zaro aloqadorlikka erishish;

3. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyani tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish (muammoli vaziyatlarni yaratish, ekskursiyalar, interfaol metodlar va rolli o'yinlardan samarali foydalanish);

4. O'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy iqtisodiy bilimlarni amaliyotga joriy etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

5. O'quvchi-talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish (to'garaklar, o'quvchi-talabalar ishlab chiqarish brigadalari yoki jamoalarini shakllantirish asosida);

6. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik hamkorligi asosida o'quvchi-talabalarda iqtisodiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalash;

7. O'quvchi-talabalarda tejamkorlik sifati, shuningdek, olti-sotdi munosabatlarini samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarining tarbiyalanishiga jiddiy e'tibor qaratish;

8. O'quvchi-talabalarda mehnat faoliyatining mahsuli bo'lgan pul (moddiy boylik)ga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish hamda oila budjetini oqilona yuritish malakasini shakllantirish va hokazolar.

O'quvchilarning ekologik tarbiyasi. O'quvchilarga ekologik tarbiya va ta'lim berishda o'qituvchining zarur ekologik bilimga ega bo'lishlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda ekologik tarbiya, madaniyatni bevosita tarkib toptirish o'qituvchining zimmasiga tushgan-

ligi bois ham ularni o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishiga innovatsion yondashuv masalasi dolzarbdir.

XX asrning oxirlaridan boshlab pedagog-olimlar tomonidan ekologiyaga oid muammolarning ta'limiy-tarbiyaviy yo'nalishlarini hal etishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, so'nggi yillarda o'qituvchilarning ekologik ta'lim berishga oid muammolarni hal etishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, jumladan, J.G'.Yo'ldashevning o'qituvchilarni o'quvchilar salomatligini muhofaza qilishga tayyorlash masalasi, T.M.Umatqulovning ekologik ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, Sh.Saidqulov tomonidan O'zbekitonda o'quvchilarga ekologik ta'lim va tarbiya berishni tizimlashtirish, Sh.Q.Mardanovning yangi ta'limiy qadriyatlar asosida ekologik ta'lim berish muammolari mavzularidagi tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu tadqiqotlarda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan hamda O'quvchilarning ekologik ta'lim olishlari masalasi ko'rib chiqilmagan. XX asrning oxirlaridan boshlab jahon olimlari ekologik muammolarning ta'lim va tarbiyaviy yo'nalishlarini hal etish asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

Jumladan, ekologik ta'limning nazariy asoslari rus olimi, akademik I.D.Zverev, Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi, ekologiyadan DTSni yaratish, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish, Markaziy Osiyoda ekologik taraqqiyot professor E.O.Turdiqulov, ekologik ta'limning pedagogik asoslari A.N.Zaxlebniy, biologiyani o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish I.T.Surovegina, biogeotsenologiya asoslari bo'yicha o'simliklar ekologiyasi I.N.Ponomarevlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy, falsafiy jihatlari Y.Sh.Shodimetov, B.Ziyomuxammedov, S.Mamashokirovlar tomonidan ham o'rganilgan va tadqiqot natijalari asosida ko'plab ilmiy ahamiyat kasb etuvchi tavsiyalar berilgan.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari ham tadqiqot mavzusi sifatida ko'rib chiqilib Sh.T.Otabaev, A.S.To'xtaev, Y.U.Maxmudov, U.Beknazarovlarning ilmiy izlanishlarida ushbu masalaning muhim va dolzarb jihatlari o'z ifodasini topgan. L.T.Shonosirovna, G.O.Komilovlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishga oid tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa, M.A.Yuldashev, G.A.Sultanova, N.Ashurovlar tomonidan

uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiya berishning turli jihatlari tadqiq etilgan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismlari qanday?
2. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'quvchilarda ekologik tarbiya, madaniyatni tarkib toptirish o'qituvchining zimmasiga nimalarni yuklaydi?

16-MAVZU. FUQAROLIK TARBIYASI

Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlaridan foydalanish. Huquq va majburiyatlarni anglaydigan fuqaroni tarbiyalash har qanday jamiyat ijtimoiy institutlarining vazifasidir. Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik tarbiyasi - bu davlat a'zosi uchun zarur sifatlarni, ya'ni siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda vatanparvarlik, millatlararo munosabatlardagi madaniyatni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar tizimidir. Demak fuqarolik tarbiyasi – bu davlat a'zosi uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayoni hisoblanadi.

Fuqarolik tarbiyasi – o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari uchun kurashuvchi fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi orqali shaxsning siyosiy va huquqiy madaniyati, unda vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi o'quvchilarga fuqaroning burch va majburiyatlari, huquqlari to'g'risidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadini ifodalaydi. Pedagoglar tomonidan siyosat, fuqarolik, vatanparvarlik, huquq tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishliklari yoshlar orasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishlarida yordam beradi.

Siyosat – qonun va huquq yordamida davlatni boshqarish san'ati bilan bog'liq bo'lgan, hukumat va insonlar guruhi orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi faoliyat sohasidir.Ta'lim muassasalarining bitiruvchi-

larida fuqarolik ongi shakllangan, siyosiy va huquqiy madaniyatli bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish, burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashish, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Shaxsning fuqarolik madaniyati uch qismdan, ya'ni bilim (siyosat va qonun sohasidagi qarashlar, nazariyalar, tushunchalar), munosabat (mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ongli munosabat), xulq (siyosiy hayotda ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, mamlakat qonunlariga bo'ysunish)dan iborat. Bugungi glaballashuv jarayonida mamlakat qonunlariga amal qilish, qonunga bo'ysunuvchi fuqaro bo'lish, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ongli munosabatda bo'lish, siyosat va huquq sohasidagi bilimlarga ega bo'lish jamiyatning har bir a'zosiga qo'yilgan talabdir.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Yosh avlodni jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq, burchlari to'g'risida ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar berish, ularda fuqarolik faoliyati ko'nikma, malakalarini hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat, muhabbatni qaror toptirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga muhabbat hissini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish, iftixor tuyg'ularini rivojlantirish.

5. Vatan, xalq, millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi, mustaqilligini e'zozlaydigan, uni himoya qilishga tayyor fuqarolarni tarbiyalash.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar asosan yoshlarda siyosiy faollikni shakllantirish, ularni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtiroklarini ta'minlashga e'tibor berishlari zarur. Yuqoridagi vazifalarni hal etish uchun ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasining quyidagi shakllarida tarix, jamiyatshunoslik kabi fanlar o'qitilishida hamda sinfdan

va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishi orqali erilishiladi.

Fuqarolik tarbiyasida vatanparvarlikning o'rni beqiyosdir. Vatanparvarlik – bu insonning tug'ilib o'sgan joyiga, ona vataniga muhabbati, unga sodiqlik, o'z vatani qiziqishlarini himoya qilishiga intilishi, uni o'tmishi va hozirgi kunidan mag'rurlanishidir. Vatanparvarlik – shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan Vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi, uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat. Vatanparvarlik – imon, e'tiqod, vijdon amri bilan, Vatan va millat oldidagi mas'uliyat va burchni anglashdir. Vatanparvarlik oldin Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Demak, vatanparvarlik - o'z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan, barcha kishilarga xos fazilatdir. Vatanparvarlik har bir o'quvchining qalbida, ongida, faoliyatida Vatanning o'tmishi hozirgi kundagi holati va manfaatlari, istiqboli haqidagi fikrlar uyg'unlashib bir tizimga kelishi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ichki ma'naviyatga aylanishidir.

Vatanparvarlik bo'yicha tarbiyaviy ishlar mazmuniga o'quvchilarni o'z mamlakatlari tarixini o'rganishlari hamda o'z xalqi madaniy merosini avaylab- asrashi hamda o'z ona tilisini saqlash faoliyati kiradi. Shuning uchun maktabning vazifasi o'quvchilarga vatanparvarlikning mohiyatini, vatanpavarlik his-tuyg'usini, mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. Vatanparvar -o'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevadigan, Vatan manfaatlari uchun kurashadigan, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatadigan shaxs.

Vatanparvar shaxs o'zida quyidagi sifatlarni namoyon etadi:

- Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat;
- o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga sodiqlik;
- Vatan va millat tarixidan g'ururlanish;
- yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish;Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish;
- yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish;
- Vatan va millat obro'yi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish;
- yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sanaladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni Vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga fuqaro mudofaasi, harbiy bilim asoslari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni berish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;
- o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriladigan tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;
- o'quvchilarda g'oyaviy onglilik, terrorizm, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;
- o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlashga oid harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, qurolli xurujlardan himoyalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Fuqarolik tarbiyasining ajralmas qismi huquqiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Prezidentimiz huquqiy madaniyat xususida «Huquq madaniyatning darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, u qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir» deb ta'kidlaganlar. Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Huquqiy madaniyat – bu mamlakatning huquqiy tizimi, asosiy huquqiy me'yorlari, huquqiy normalarga amal qilishga intilish to'g'risidagi bilimlar. Huquqiy madaniyat shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma, malakalarni hosil qilish, unda ijobiy

mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish, huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilarga huquqiy bilimlarni berish orqali ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Huquqiy ta'lim-o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy madaniyat (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat)ni, huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me'yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash, ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish kabilar)ni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi millatlararo totuvlik, baynalmilallikni shakllantirish hisoblanadi. Baynalmilallik -o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining maqsadi, vazifalari va metodlari. Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. "**Vatan**" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidi "**Ona yurt**" degan ma'noni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo'lgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o'z oilasiga, tug'ilib o'sgan

yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga bo'lgan munosabatni aks etadi. Vatanparvarlik bu umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lib, u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarhadlarini tashqi dushmandan himoya qilish, uning mustaqilligi, obodligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok qilmoqdir.

Mustaqil O'zbekiston yoshlarining vatanparvarligi uning Vatanni his qilishida, Vatanga bo'lgan tuyg'usida ifodalanadi. *Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lish, xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodirligini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilish kerak. O'zbekiston deganda o'zbek xalqining, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas.*

Darhaqiqat, Vatan tuyg'usini o'zida mujassam etgan shaxsgina Mustaqil jamiyat va xalq manfaati, uning baxt saodati uchun kurashadi. O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil davlatimizning umumbashariyatga o'zining faolligi bilan tanishtiradi va xalqimiz o'rtasida inoqlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog'i kerak. Ayniqsa, yoshlarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni insonparvar demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatiga munosib qilib tarbiyalash ta'lim muassasalarida faoliyatni davr talablari, mustaqillik ruhi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari asosida tashkil qilishni talab qiladi. Shuning uchun chuqur mas'uliyatni his qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan Vatan tuyg'usi bilan hamnafas bo'lib yashaydigan yoshlarni tarbiyalash o'qituvchi – tarbiyachilarning asosiy vazifasidir.

Vatanparvarlik — umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sodiqlikning negizi sifatida hayotimizning farovon va erkin qilish yo'lida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun jon fido etishga tayyor bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazishni talab qiladi.

Qadimgi yunon adiblaridan biri "Vatan sha'niga" asarida: *"Mening bu gaplarim g'oyat eski gapdir, lekin haqiqat shunday, o'z otasini hurmat qilmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qilmaydi, o'z Vatanini sevmagan kishi o'zgalar Vatanini qadrlay olmaydi"* –deb yozgan edi. Bu gaplar hozir naqadar zamonaviydir.

Vatan *– bu odamlar tug'ilib o'sgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini topgan, shu odam mansub bo'lgan xalq quvonchini totgan, shu odam mansub bo'lgan xalq tarixi bilan bog'langan, hamda tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitdir.*

Vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, axloqiy his-tuyg'u sifatida insonning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ldi. Ijtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'lariga, ona yerga, ona tiliga, urf-odatlarga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib boradi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylanadi. Buyuk mutafakkirlar: *"Biz tug'ilgan yurtimizdan uzoq ketsak, bizni tortib keladurg'on quvvat o'z Vatanimizning, ona tuproqning mehr-muhabbatidir"* deb bejiz aytmaganlar.

Biz *"Ona Vatan"*, *"Vatan tuprog'i"*, *"Vatan adabiyoti"*, *"Vatan tuyg'usi"*, *"Vatan tarixi"* deb baralla gapiramiz, chunki bularning hammasi inson uchun muqaddasdir. Xalqimizda Vatan haqida ko'plab naqllar bor. *"Bulbul chamanni sevsa, odam Vatanni"*, *"Onaga bo'lgan muhabbat Vatanga bo'lgan muhabbatning kurtagi"*, *"Har kimning o'z elati o'ziga shirin"* va hokazolar. Bu naqllar Vatan va uning zaminida yotuvchi vatanparvarlik tuyg'usiga xosdir. Vatanparvarlik tufayli Vatanimiz jahonga tanilmoqda.

Vatanparvarlik tuyg'usi, tarbiyasi ota-onaga o'z mahalla, qishlog'iga, tuman, shahar, viloyat, respublikasiga bo'lgan cheksiz muhabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo'lgan mislsiz va tengsiz hurmat va sadoqatdan boshlanadi.

Vatan tuyg'usi ko'z o'ngida qurayotgan narsadan qoyil qolishda, uni hayratlantiradigan va qalbida aks sado beradigan narsalardan boshlanadi.

O'qituvchi-murabbiylarning vazifasi yoshlar oladigan ko'plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo'lganlarini: eng yaxshi kishilari, jonajon o'lka tabiati va hayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, Vatanning gullab-yashnashi yo'lidagi mehnatni, o'rtoqlik, o'zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Jonajon ona tabiat yoshlarni Vatanga muhabbatini tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go'zalligi bilan zavqlanish, tabiat dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o'zgaruvchanlik rolini tushunishigacha – jonajon o'lkaga muhabbatni shakllantirishning manbaidir.

Bolalikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Chunki uning obrazlarida Vatan o'z ifodasini topgan bo'ladi. Odam Vatanga bo'lgan muhabbatini

o'zi tug'ilgan va o'sgan oilasi, bolalar bog'chasi, maktabi, bolalar bilan o'ynaydigan o'yinlarni va joylari bilan bog'laydi.

Vatanga muhabbat – eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bu his maktab yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazliligini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab borish lozim. Shuning uchun bu yoshidagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan anik faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Kichkina guruhda Vatanga muhabbat hissi o'z uyiga, bog'chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan iborat bo'ladi. Bolalar ota-onalari va pedagoglar ularga qanday g'amxo'rlik qilayotganini ko'radilar va his etadilar. Natijada bolalarda ularga bo'lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g'amxo'rligi va himoyasiga ishonch hosil qiladilar.

Vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisi sharifda *«Vatanni sevmoq iymondan»*dir, deb bejiz aytilmagan. O'qituvchi-tarbiyachilarda yoshlarni Vatanga muhabbat, faxrlanish, xalq yutuqlaridan faxrlanish, uning dushmanlariga nafrat tuyg'ularini tarbiyalashlari maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va uni shakllantirishda:

1. Vatanni sevmoq uning burchi, vijdoniy burchi ekanligini anglab yetishga erishmoq lozim.

2. Ona-Vatanga muhabbat, uni sevish, e'zozlashga o'rgatish, tug'ilib o'sgan oilasi, mahallasi, shahri va o'lkasi bilan tanishtirish orqali unga muhabbatni shakllantirish.

3. Mustaqil O'zbekiston tushunchasining mohiyatini o'quvchi-talabalar ongiga singdirish.

4. Yoshlarni xalqimiz an'analariga, udumlariga, tili va madaniyatiga, ruhiyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatish.

5. Buyuk daholarimiz qoldirgan ma'naviy meroslarni asrab-avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish.

6. Yoshlarda sog'lom kuch, sog'lom tafakkur, iymon-e'tiqodni uyg'otish.

7. Vatan oldindagi mas'uliyat, milliy manfaati uchun kurashning mohiyatini anglash.

8. O'quvchi-talabalarda unib o'sgan yurtga, voyaga yetkazgan ota-onasiga, ta'lim-tarbiya bergan ustoziga ta'zim qilish malakasini shakllantirishi lozim.

Baynalmilallik tarbiyasi o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq- huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon

erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi.

Baynalmilallik tarbiyasining maqsadi o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirish, o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga tayyorlashdan iborat.

Baynalmilallik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish;
- o'quvchilarga o'zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, vijdon erkinligiga oid ma'lumotlarni berish;
- o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalar Vatan va vatanparvarlik egizak ekanligi haqida bilimga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-siyosiy g'oyalar *(Vatanga sadoqat, mustaqillik uchun kurash)* go'zalligini tushunish va his etish har bir o'quvchi – talaba shaxsiy his-tuyg'ulari go'zalligini anglash va avaylash orqali vujudga keladi. Shaxsiy tuyg'ular musaffoligisiz fuqarolik tuyg'ularining sofligiga erishib bo'lmaydi.

Xullas, biz ijtimoiy tarbiyaning turli yo'nalishlari orqali yoshlarga oila, aqliy, axloqiy estetik, mehnat, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillik, vatanparvarlik tarbiyasi berish; iroda, his-tuyg'u, tasavvur, idrok, tafakkur, xotira, diqqatni takomillashtirishdan, shuningdek, xulq-atvor, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchini anglash va go'zallikni his etishni shakllantirish bilan bog'liq pedagogik masalalarni atroflicha ko'rib chiqdik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaning hamma yo'nalishlari – oila, aqliy,

axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillk, vatanparvarlik, barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yosh avlodni huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi. Tarbiya individuallikni, subyektiv olamni taraqqiy qildirishga, ijtimoiy, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, fuqarolik, mustaqillik, vatanparvarlik va boshqa tarbiya tizimini jamiyat ideallariga muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan.

O'quvchi-talabalarni barkamol inson qilib tarbiyalashning hozirgi zamon umumiy tarbiya tizimi asosida quyidagi tarkibiy qismlar yotadi: tarbiyaning maqsadi, vazifalari va sababni anglash;muayyan bilimlarni egallash; shaxsda maxsus qobiliyat, axloqiy sifatlarni va malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni amaliyotga tatbiq eta olish.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga tayanuvchi **pedagogika nazariyasida** tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash birinchi holda quyidagi tamoyillarga asoslanadi: shaxsning erkin rivojlanishi; insonparvarlik-shaxsning mutlaq qadriyatliligini tan olish; demokratiya - o'quvchilar va talabalar bilan muallimlar va pedagoglarning o'zaro munosabatida tengligi; fuqaroviylik - ijtimoiy sohada o'z o'rni va qadr-qimmatini anglash; retrospektivlik tarbiyalashni xalq pedagogikasi an'analari, Sharqning ulug' mutafakkirlari g'oyalari asosida olib borish; milliy, umumbashariy va boshqa me'yorlar hamda qadriyatlar ustuvorligi.

O'quvchi-talabalarni tarbiyalash tizimining tashkiliy-mazmuniy asoslarini o'zgartirish va takomillashtirishga imkon beruvchi ustuvor talablarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: *psixologik-pedagogik; nazariy-pedagogik; huquqiy –pedagogik.*

Birinchidan, o'quvchi-talabalarni tarbiyalashning metodologik talablariga quyidagilar kiradi: shaxs, uni shakllantirish , rivojlantirish va tarbiyalashga doir talablari hamda qoidalari; tarbiyaning zamonaviy mafkurasi; tarbiyani jamiyatimizga xos g'oyaviy tamoyillar, ko'rsatmalar, yuksak axloq, ijobiy manfaat va ehtiyojlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi vatanparvar fuqaroni shakllantirishga yo'naltirish; tarbiyalanuvchilarni fuqaroviy, axloqiy, kasbiy, hayotiy jihatlardan o'zini-o'zi anglashga yo'naltirish zarurati; mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga muvofiq hayotiy pozitsiyani tarbiyalash ehtiyojini hisobga olish.

Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarni tarbiyalashning psixologik-pedagogik talablari quyidagilarni hisobga olishni nazarda tutadi: shaxs

rivojlanishi qonuniyatlari; tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari; o'quvchi-talabalarning individual o'ziga xosliklari; tarbiyalanuvchining shaxsiga e'tiborni kuchaytirish, uni mustaqil shaxs sifatida hurmatlash; tarbiya va ta'limning sabab, mavzu, asoslarini tarbiya his-tuyg'u va fe'l-atvorini shakllantirishni aniq maqsadni ko'zlab boshqarish, yaxlit jarayon ekanligi; shaxs moyilligi, qobiliyati va qiziqishlarini uning imkoniyatlari hamda xohish-istagi, shuningdek, ijtimoiy talablarni hisobga olib rivojlantirish; tarbiyalanuvchining "ichki olami" (his-tuyg'u, sezgi, motivlar, qiziqishlar va ehtiyojlar; intellekt)ga ta'sir ko'rsatishning intensivligi; bilimlarni chuqur anglagan e'tiqodga aylantirish, ongni shakllantirish.

Uchinchidan, tarbiyaning nazariy-pedagogik talablari quyidagilarni nazarda tutadi: ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, nazariya va amaliyotni muntazam boyitib borish; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; tarbiya jarayonining murakkabligi, ko'p qirraliligi, o'sib boruvchiligi, harakatchanligi, o'zgaruvchanligi, uning davomliligi, uzluksizligi hamda dialektikligi, bosqichliligi va izchilligi; tarbiya jarayonining butligi - tarbiya va shaxsni shakllantirish g'oyasiga bo'ysundirilgan maqsad, vazifa, mazmun, shakl, uslublar, vositalarning birligi; mezonlar va ta'lim oluvchilarni tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirishning pirovard natijalari; ta'lim oluvchilarni erkin tarbiyalash; muayyan tushunchalar, tasavvurlar, bilimlar tizimini shakllantirish; yuksak madaniyatlilik, axloqiy, xulqiy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa fazilatlarni shakllantirish; tarbiya jarayonining mazmuni muayyan(aniq)ligi-u qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq faqat bilim berish emas, ayni paytda e'tiqod, ko'nikma, shaxsning sifat va fazilatlari, fe'l-atvoridagi barqarorlikni shakllantirish tizimi ekanligi; insondagi, jamiyatdagi ijobiylikka tayanish; tarbiyaning boy milliy o'ziga xosligi; tarbiyada xalqning milliy an'analari, uning madaniyati, estetik va badiiy qadriyatlarni yetkazish; tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashni uzviy birlashtirish orqali ta'lim oluvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashini faollashtirish; o'quv muhitini tarbiyaga va oliyjanob insoniy his-tuyg'ular, munosabatlar hamda fe'l-atvorni shakllantirishga barqaror ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida nafislashtirish; tarbiyaga o'quv muassasasining atrof-muhit bilan o'zaro hamkorligining turli muqobillarni qamrovchi muhitiy yondashuv.

To'rtinchidan, ta'lim oluvchilar tarbiyasiga huquqiy-pedagogik talablar quyidagilarni hisobga olishni taqozo qiladi: tarbiya jarayonini demokratlashtirish; o'qituvchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning tarbiyaviy ahamiyati; tarbiyaviy ta'sir sifatni ta'minlovchi shart-

sharoitlar; tarbiyalovchilar faoliyatini aniq maqsadni ko'zlab uyushtirish; munosabatlar; shaxsni, birinchi galda, tarbiyalanuvchining emotsional, intellektual va irodaviy sohalarini qo'yilgan maqsad hamda ta'lim oluvchining ijtimoiy roliga muvofiq rivojlantirish; aniq tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi, ularning foydaliligi va amalga oshirilishining mumkinligi; axloqiy-etikaviy yo'nalishdagi tadbirlar; o'qituvchi-murabbiylarning va tarbiyalanuvchilarning ma'rifiy faoliyatini kuchaytirish; shaxsni rivojlantirish, uni tarbiyalash, fe'l-atvori va faoliyatida yuz beradigan salbiy holatlarni bartaraf etish.

Beshinchidan, tarbiyaning ijtimoiy yo'naltirilganligiga talabalar quyidagilarni hisobga olishni nazarda tutadi: shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat darajasida rivojlanayotgan inson sifatida tan olish; tarbiyaning maxsus ijtimoiy yo'naltirilganligi; hayot voqeligi bilan aloqalar, mamlakat ijtimoiy sohasi va iqtisodiyotiga, kasbning (mo'ljaldagi, tanlanayotgan yoki tanlangan) ijtimoiy ahamiyati; shaxsni, uning tarbiyasini ijtimoiylashtirish;ijtimoiy tajriba o'tkazish; muayyan ijtimoiy muhitda, jamiyatda hayotning, voqelikning yangi tomonlarini fe'l-atvorning yangi, yanada takomillashgan shakllari bilan egallash; ijtimoiy faollik tajribasi, ijtimoiy sifatlarni shakllantirishni rag'batlantiradigan ko'p qirrali, ijtimoiy ahamiyatli fe'l-atvorni rag'batlantirish; ijtimoiy yo'naltirilgan mashg'ulotlar, ishlar, topshiriqlar, amallar, tadbirlar vositasida ijtimoiy tarbilyalash; ijtimoiy tarbiyada tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar hamkorligi; ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonda shaxslararo munosabatlar, o'zaro ta`sir, tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro aloqalarni uyushtirish; ta'lim oluvchilarning turmush tarzi, hayoti va faoliyatini uyushtirishni tarbiya jarayonining asosi sifatida bilish; ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni rivojlantiruvchi ijtimoiy uslublar, yo'llar, vositalar majmuasidan foydalanish; tarbiyalanuvchilarni o'zga kishilar hayot faoliyatida qatnashishga – barkamol shaxs bo'lishga ehtiyojini shakllantirish.

Oltinchidan, tarbiya natijalariga talablar quyidagilardir: Davlat ta'lim standartlarida, o'quv dasturlari topshiriqlarida tarbiya mezonlarini hisobga olish; tarbiyalanuvchining asosiy axloqiy va ijtimoiy sifatlariga, barkamol shaxs sifatidagi takomillashuviga ustuvorlik; tarbiya jarayonini nazorat qilish va yakunlarini chiqarishda olingan hamda mo'ljallangan natijalar mutanosibligini belgilash; tarbiyalanuvchiga ko'rsatilgan ta'sirning ijtimoiy amaliyot (tarbiya va hayot) bilan muvofiqligini baholash.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Fuqarolik tarbiyasi qanday amalga oshiriladi?
2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonida davlat ramzlaridan foydalanishning ahamiyati qanday?
3. Baynalminallik haqida ma'lumot bering.
4. Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda fuqarolik tarbiyasining o'rni qanday?

17-MAVZU. MAFKURAVIY TARBIYA

Mafkuraviy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Huquq va majburiyatlarni anglaydigan fuqaroni tarbiyalash har qanday jamiyat ijtimoiy institutlarining vazifasidir. Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik tarbiyasi - bu davlat a'zosi uchun zarur sifatlarni, ya`ni siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda vatanparvarlik, millatlararo munosabatlardagi madaniyatni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar tizimidir. Demak, fuqarolik tarbiyasi – bu davlat a'zosi uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayoni hisoblanadi.

Fuqarolik tarbiyasi – o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari uchun kurashuvchi fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi orqali shaxsning siyosiy va huquqiy madaniyati, unda vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi o'quvchilarga fuqaroning burch va majburiyatlari, huquqlari to'g'risidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadini ifodalaydi. Pedagoglar tomonidan siyosat, fuqarolik, vatanparvarlik, huquq tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishliklari yoshlar orasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishlarida yordam beradi.

Siyosat – qonun va huquq yordamida davlatni boshqarish san'ati bilan bog'liq bo'lgan, hukumat va insonlar guruhi orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi faoliyat sohasidir. Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarida fuqarolik ongi shakllangan, siyosiy va huquqiy madaniyatli bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish, burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashish, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Shaxsning fuqarolik madaniyati uch qismdan, ya'ni bilim (siyosat va qonun sohasidagi qarashlar, nazariyalar, tushunchalar), munosabat (mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ongli munosabat), xulq (siyosiy hayotda ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, mamlakat qonunlariga bo'ysunish)dan iborat. Bugungi glaballashuv jarayonida mamlakat qonunlariga amal qilish, qonunga bo'ysunuvchi fuqaro bo'lish, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ongli munosabatda bo'lish, siyosat va huquq sohasidagi bilimlarga ega bo'lish jamiyatning har bir a'zosiga qo'yilgan talabdir.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

7. Yosh avlodni jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatish.

8. O'quvchilarga fuqarolik huquq, burchlari to'g'risida ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar berish, ularda fuqarolik faoliyati ko'nikma, malakalarini hosil qilish.

9. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat, muhabbatni qaror toptirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

10. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga muhabbat hissini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish, iftixor tuyg'ularini rivojlantirish.

11. Vatan, xalq, millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

12. Vatan, yurt ozodligi, mustaqilligini e'zozlaydigan, uni himoya qilishga tayyor fuqarolarni tarbiyalash.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar, asosan, yoshlarda siyosiy faollikni shakllantirish, ularni mamlakatni ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtiroklarini ta'minlashga e'tibor berishlari zarur. Yuqoridagi vazifalarni hal etish uchun ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasining quyidagi shakllarida tarix, jamiyatshunoslik kabi fanlar o'qitilishida hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishi orqali erilishiladi.

Fuqarolik tarbiyasida vatanparvarlikning o'rni beqiyosdir. Vatanparvarlik – bu insonni tug'ilib o'sgan joyiga ona Vataniga muhabbati, unga sodiqlik, o'z vatani qiziqishlarini himoya qilishiga intilishi, uni o'tmishi va hozirgi kunidan mag'rurlanishidir. Vatanparvarlik - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan Vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi, uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Vatanparvarlik - iymon, e'tiqod, vijdon amri bilan, Vatan va millat oldidagi mas'uliyat va burchni anglashdir. Vatanparvarlik avval Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Demak, vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan, barcha kishilarga xos fazilatdir. Vatanparvarlik har bir o'quvchini qalbida, ongida, faoliyatida Vatanning o'tmishi hozirgi kundagi holati va manfaatlari, istiqboli haqidagi fikrlar uyg'unlashib bir tizimga kelishi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ichki ma'naviyatga aylanishidir.

Vatanparvarlik bo'yicha tarbiyaviy ishlar mazmuniga o'quvchilarni o'z mamlakatlari tarixini o'rganishlari hamda o'z xalqi madaniy merosini avaylab- asrashi hamda o'z ona tilini saqlash faoliyati kiradi. Shuning uchun maktabning vazifasi o'quvchilarga vatanparvarlikning mohiyatini, vatanpavarlik his-tuyg'usini mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. Vatanparvar -o'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevadigan, Vatan manfaatlari uchun kurashadigan, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatadigan shaxs.

Vatanparvar shaxs o'zida quyidagi sifatlarni namoyon etadi:

Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat;

- o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga sodiqlik;
- Vatan va millat tarixidan g'ururlanish;
- yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish;Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish;
- yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish;
- Vatan va millat obro'yi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish;
- yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani

tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sanaladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni atan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga fuqaro mudofaasi, harbiy bilim asoslari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni berish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;

- o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriladigan tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;

- o'quvchilarda g'oyaviy onglilik, terrorizm, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;

- o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlashga oid harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

- o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, qurolli xurujlardan himoyalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi huquqiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Prezidentimiz huquqiy madaniyat xususida «Huquq madaniyatning darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, u qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir» deb ta'kilaganlar. Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Huquqiy madaniyat - bu mamlakatning huquqiy tizimi, asosiy huquqiy me'yorlari, huquqiy normalarga amal qilishga intilish to'g'risidagi bilimlar. Huquqiy madaniyat shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma, malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish, huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilarga huquqiy bilimlarni

berish orqali ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Huquqiy ta'lim – o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy madaniyat (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat)ni, huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me'yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash, ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish kabilar)ni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi millatlararo totuvlik, baynalmilallikni shakllantirish hisoblanadi. Baynalmilallik- o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

Baynalmilallik tarbiyasi o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi.

Baynalmilallik tarbiyasining maqsadi o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi

sifatlarni shakllantirish, o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga tayyorlashdan iborat.

Baynalmilallik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish;
- o'quvchilarga o'zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, vijdon erkinligiga oid ma'lumotlarni berish;
- o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash.

Mafkuraviy tarbiya shakl metod va vositalari. Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi - jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta'minlashdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog'lom topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir.

Mafkuraviy tarbiya eng avvalo yuksak e'tiqod iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash. Sog'lom g'oyalar tarbiyasi yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini anglatadi.

Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li- kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha ffkrlash va yangicha tafakkur aynan

mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit. Yoshlarda sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma'lum muhit ham zarur. O'zbekistonda bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni xolis va chuqur o'rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish milliy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Ijtimoiy va siyosiy institutlar davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalarning tashkil etilishi o'ziga, xos ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo'lib voyaga yetishda muhim o'rin tutmoqda.

Siyosiy ong va huquqiy madaniyatning o'sishida siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular o'z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Fuqarolar uchun qaysi siyosiy partiyaning qarashlariga qo'shilish yoki qo'shilmaslik ixtiyoriy bo'lib, bunday erkinlik yoshlarni fikrlashga o'zicha mustaqil yo'l tanlashga xizmat qiladi. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqlol g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir. Bu aslida tom ma'nodagi siyosiy madaniyatning belgisidir.

Muloqot madaniyati –insonga xos ma'naviy ehtiyoj bo'lib, undagi umumiy madaniy saviyaning muhim ko'rsatkichidir. Inson o'zining his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, o'y-fikrlarini bevosita muloqot jarayonida namoyon qiladi. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri ham muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, iymon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televideniye, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir

gapni aytish lozim bo'lsa, bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko'zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot samarali bo'ladi.Milliy mafkura qanchalik hayotga, odamlar turmushiga, dard va tashvishlariga, orzu-umidlariga yaqin bo'lsa, safsatabozlikdan, nasihatgo'ylikdan xoli bo'lsa, alohida shaxs kamolotini ham, butun jamiyat taraqqiyotini ham rag'batlantira olsa, shunchalik O'zbekistonning kelajagi buyuk, o'zi ozod va obod bo'ladi. Biz jahonning ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatoriga qo'shilmoqchimiz. Lekin g'arb mamlakatlariga har bir masalada taqlid qilolmaymiz, ulardagi ayrim urflar esa bizning milliy ongimizga (mentalitetimizga) ancha yot. Masalan, g'arbga xos odamlarning bir-biridan, hatto bolalarning o'z ota-onasidan begonalashishi, inson faoliyatining har qanday ko'rinishi zamirida maqsadga muvofiqlik, amaliy o'zaro foydalilik (yoshlar, bolalar bundan mustasno) bizga unchalik ma'qul emas. Biz xalqimizga xos bo'lgan eng oliy xislatni, ona tilimizda «odamgarchilik» deb ataladigan xislatni saqlab qolishimiz shart.

Mafkuraviy tarbiya texnologiyasi. Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatidan ijtimoiy o'zgarishlarga faol munosabatda bo'ladi, ularni yo ma'qullab qo'llab-quvvatlaydi, yoki inkor etadi. Binobarin, mafkura o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy o'zgarishlarga befarq bo'la olmaydi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, sinflar, qatlamlar mafkura asosida siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga o'z munosabatlarini belgilaydilar. Biroq mafkuraning safarbar etuvchilik xususiyati ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida doim ham ko'zga aniq tashlanavermaydi, balki, tub ijtimoiy o'zgarishlar davrida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, mamlakat mustaqilligi va yaxlitligiga tahdid soladigan mafkuraviy xavf-xatarlar kuchaygan paytlarda kishilarni Vatan istiqloli, ravnaqi yo'lida jipslashtirish va safarbar etishda milliy mafkura muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy kurashlar davrida aholining juda oz qismini va tor doiradagi manfaatlarni ko'zlovchi, buzg'unchilikni maqsad qilib olgan mafkuralar ham dunyoga kelishi mumkin. Bunday mafkuraga ega bo'lgan guruhlar bilan aholining asosiy qismini tashkil etuvchi guruh va sinflar o'rtasida mafkuraviy masalalarda turli ixtiloflar kelib chiqadi.

Mafkuraning safarbar etuvchilik funksiyasi, ayniqsa, mafkuraviy kurashlar jarayonida to'laroq namoyon bo'ladi. Zero, mafkuraviy ziddiyatlar keskinlashgan davrda maqsadga erishishning qo'pol vositalari, xususan bosqinchilik, terror, qo'poruvchilik, inqilobiy usullar ishga solinishi mumkin. Bu – mafkuraviy kurashning o'ta qo'pol va

g'ayriinsoniy usullari bo'lib ularga, qarshi turishda sobitqadamlik, bardosh, sabot va faollik talab qilinadi.

Bu jarayonda bunyodkorlik g'oyalari bilan qurollangan keng xalq ommasining idealları, manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi mafkuragina insonparvarlik, taraqqiyparvarlik tamoyillari asosida mamlakat, xalq taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi, kishilarni ezgu ishlarga da'vat etadi.

Kishilarni ma'naviy-ruhiy jahatdan qo'llab-quvvatlash. Mafkura milliy taraqqiyotning eng og'ir murakkab davrida, ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish jarayonida keng xalq ommasini ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi. Ana shu sababdan ham chinakam milliy mafkura bo'lgan istiqlol g'oyasi istiqbolga umid bilan qarashga da'vat etadi. Unda xalq fantaziyasi, orzu-umidlarining qay darajada aks etishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, to'q, farovon va baxtli hayot qurish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, millatlararo totuvlik, tinchlik, do'stlik yer yuzasidan barcha xalqlarning azaliy orzusidir. Demak, milliy istiqlol mafkurasining hayotiyligi, ta'sirchanligi xalq orzu-umidlarini nechog'lik to'la va yorqin aks ettirishi, ularni ro'yobga chiqarishning yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri belgilashga bog'liqdir.

Zero, jamiyat a'zolari milliy istiqlol mafkurasida o'z hayotiy manfaatlari, orzu-umidlari ifodasini ko'rsagina odamlarni ruhan bardam, uyg'oq va faol qila oladigan kuchga aylanadi.

G'oyaviy tarbiyalash. Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, yovuzlik, behayolik, shafqatsizlikni targ'ib etish orqali yoshlarni axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan badiiy filmlarda jamiyat barqarorligiga raxna solishdan iborat mafkuraviy maqsad yashiringandir. «Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi».

Binobarin g'oyalar oshkora yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki ramziy shakllarda targ'ib etilishi mumkin. Inson faoliyati aniq bir g'oyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu niyat ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda hushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli g'oyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

G'oyaviy immunitetni shakllantirish. G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyalarini tarbiyalash demakdir.Manfaatlar bor yerda muqarrar ravishda g'arazli, nopok g'oyaviy niyatlarni amalga oshirish uchun intilishlar ham bo'ladi. Yoshlarda rol o'ynaydi. G'oyaviy immunitetni shakllantirish g'oyaviy-tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezoni hisoblanadi.

Harakat dasturi ekanligi. Mafkura jamiyatda ijtimoiy- siyosiy harakatning o'ziga xos dasturulamali bo'lib xizmat qiladi. Chunki u bugungi kun muammolarini hal etish uchun odamlarni jipslashtirish va safarbar etish zaruriyatidan vujudga kelsa-da, ayni vaqtda uzoq istiqbolni ko'zlaydi. Tarixiy davr o'zgarishi bilan milliy mafkurani yanada takomillashtirish yangi mazmun bilan boyitish zaruriyati vujudga keladi.Milliy mafkura jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad-g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir.

Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi. Har qanday vaqtda, odam atrofdagi odamlarga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida texnika va texnikalarni topishga intilib, shu bilan birga ulardan istagan narsasiga erishgan. Ma'lum darajada maxfiylik pardasi bugungi kunda ommabop bo'lgan neyrolingvistik dasturlash orqali ochiladi. Bu odamni qandaydir manipulyatsiya qilish uchun qilingan degan fikrga asoslanadi. NLD misollarini hamma joyda topish mumkin.

Inson fikrlaydi. Uning shakllanishida ko'pincha ota-onalar, o'qituvchilar va umuman jamiyat ishtirok etadi. Agar inson qanday qilib dasturlashtirilganligini tushunsangiz, unga ta'sir o'tkazishingiz mumkin. Fikrlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olinadi. Siz odamni mutlaqo tanimasligingiz mumkin, lekin uning fikrlash tarziga

ta'sir qilishingiz mumkin, bu tabiiy ravishda uning jarayoniga to'g'ri keladi.

Psixologik yordam sayti ko'plab o'quvchilar ta'sir sirlarini bilishni istashlarini tushunishadi. Biroq, neyrolingvistik dasturlash doimiy ravishda o'qitilishi kerak, chunki ushbu nazariyaning izdoshlari ham barcha sirlarni ochib bermaganlar.

Har kuni inson dasturlash uchun obyektdir. Faqatgina odamga qanday g'oyani boshiga ekmoqchi ekanligingizni ayting. Vaqt o'tishi bilan, birinchi darajada, u buni eslab qoladi va ko'milgan fikrga muvofiq harakat qiladi. Bu yerda prinsip amal qiladi: nima qilsangiz, ko'rsangiz, gapirsangiz, eshitsangiz va hokazo, kelajagingizni shakllantiradi. Va bu yerda kelajak so'zlar orqali shakllanadi, uning ma'nosini siz boshqa odamning boshiga o'rnatmoqchisiz.

Aksariyat odamlar falsafiy fikrni emas, balki aniq bir vaziyatni, sodir bo'layotgan narsalarning rasmini yoki tasvirini osonroq idrok etadilar. Boshqacha qilib aytganda, rasmni namoyish qilish yoki bunday vaziyatni yaratish inson uchun esda qolishi va uning ong ostida qolishi yaxshiroqdir.

Bundan tashqari, odamlar uzoq nutqlarni yoki matnlarni yoqtirmaydilar. Qisqa iboralar, shiorlar yoki iboralar ko'proq esga olinadi. Shuning uchun, agar siz odamlarga so'zlar bilan ta'sir qilishni istasangiz, aniq va aniq iboralardan foydalangan holda kamroq gapiring.

Neyrolingvistik dasturlash nima?

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) - bu yaqinda paydo bo'lgan konsepsiya bo'lib, u asosan inson tafakkur faoliyatiga zaruriy harakatlarni bajarishni boshlaydigan tarzda ta'sir ko'rsatadigan texnika va uslublar majmuini bildiradi. Odatda odamlar boshqa odamlarni boshqarish va boshqarish istagi bilan NLDga murojaat qilishadi. Aslida psixologlar ushbu metodlarning samaradorligiga shubha qilishadi. Albatta, insonga uning irodasiga qarshi ta'sir qilish mumkin. Biroq, u erkin odam bo'lib qolishda davom etmoqda. Agar u hushyor tursa va berilishni istamasa, unda hech qanday NLD texnikasi ishlamaydi.

Dastlab neyrolingvistik dasturlash insonning o'zini o'zgartirishga qaratilgan edi. Agar u maxsus texnikani qo'llasa va o'ziga ta'sir qila boshlasa, inson muvaffaqiyatga erishishi va o'z hayotini o'zi xohlagan tarzda qilishi mumkin.

NLD ko'plab texnikalardan foydalanadi, ular orasida mashhur:

1. So'zning ishlatilishi. Odamlar so'zning ma'nosini hali to'liq anglamadilar, bu aslida juda kuchli ta'sirga ega.

2. Og'zaki bo'lmagan darajada so'zlash.

Har bir o'quvchi tushunishi kerakki, uning miyasi - bu ma'lum bir naqshlar, stereotiplar, e'tiqodlar, qo'rquvlar, komplekslar, his-tuyg'ular, tajribalar va h.k.lar yotqizilgan kompyuter turi bo'lib, bularning barchasi insonning xatti-harakatiga, qaror va qaror qabul qilish strategiyasiga, turmush tarziga ta'sir qiladi. va hokazo.. Agar biror kishi o'z hayotidan yoki o'zidan norozi bo'lsa, demak, u birinchi navbatda, muammolar uning boshida ekanligini tushunishi kerak. Siz allaqachon odamni baxtsiz qilgan dasturlarning qolgan qismini aktyorlik faoliyatining oldini olish uchun o'zingizni sozlash uchun maxsus texnikadan foydalanishingiz mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Mafkuraviy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Mafkuraviy tarbiya texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi nima?

18-MAVZU. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Mamlakatning ta'lim tizimi, ya'ni maktab, oliy ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy jihatdan intellektual rivojlangan, jismonan sog'lom, balki ma'naviy pok, axloqan tarbiyalangan bitiruvchilarni yetishtirib chiqarishi davr talabidir. Mamlakatimizda axloqiy tarbiya mazmuni professor Malla Ochilov tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Uning yaxshilik qilish, sabr-qanoatli bo'lish, rostgo'ylik, adolatlilik, mehr-oqibat, saxiylik, poklik, kabi insoniy-axloqiy fazilatlar to'g'risidagi qarashlari yoshlar tarbiyasida ahamiyatlidir. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda o'tmish axloqiy merosini, ayniqsa, ulug' mutafakkirlarning fikrlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning hayot yo'li, axloq haqidagi fikrlari har bir o'quvchini axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Sharq allomalarining axloqiy qarashlari o'quvchilar qalbida insoniylikning shakllanishiga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib bora yotganini, lekin shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli soha mutaxassislari hayotning turli sohalarida axloqiy normalarning pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini

kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarning buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Axloqning vujudga kelishi va mohiyati, odamlarni axloqiy ongi va xulqi to'g'risidagi muammolarni etika fani o'rganadi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi.

Axloq tarixiy, o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, axloqiy qoidalar odamlar hayotining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanadi va jamiyatning turli qatlamlarida turlicha bo'ladi.

Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi.

Axloqiy odat – axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, u o'quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti- harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo'ladi.

Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishi.

Axloqiy xulq motivlari va nazorat joyiga ko'ra, axloqiy rivojlanish darajasi amerika olimi Ya.Kolbergning ta'kidlashicha, uchta guruhga bo'linadi.

1. Axloqqacha (bola axloq talablarini jazodan, ya'ni tashqi nazoratdan qo'rqib bajaradi).

2. Konventional (axloq talablariga yaxshi yashash uchun amal qiladi).

3. Avtonom (hayot qoidasiga aylanib bo'lgan, o'z ixtiyori bo'yicha amal qiladi).

Axloqiy tarbiya bu tarbiyalanuvchilarda axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy xulqni shakllantirish bilan bog'liq pedagogik faoliyatdir. Axloqiy tarbiyaning ijtimoiy aspekti bu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari va tamoyillaridir.

Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning

ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyaning vazifalari:

1. O'quvchilarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq me'yorlari bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.

3. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, olijanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.k.)larni tarbiyalash.

5. O'quvchilarda axloqiy xulq-atvor ko'nikma, malaka va odatlarini tarkib toptirish.

Hozirda zamonaviy dunyo insoniylik tamoyillariga asoslangan, axloq normalariga va insoniylik axloqiga tayangan qadriyatlarga muhtojlik sezmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Insoniylik insonni axloqiy fazilati hisoblanib, insonning insonga hurmatini, insonni oliy qadriyat sifatida qarashni, uni tushunishni, unga yordam berishni ifodalaydi.

Insonga, uning qarashlari, qadriyatlariga ishonish, ushbu ideallarga xizmat qilish.

O'z mas'uliyatini bajarishda erkinlik, maqsadga erishishni bilish, o'z o'ziga talabchan bo'lish va jamiyat talablarini bajarish hamda intizomli bo'lish.

O'z xatti-harakati uchun javob berish, o'z xatolarini tan olish va tuzatish.

Yer yuzidagi barcha jonzotlarga, tabiatga nisbatan hurmatda bo'lish.

Halollik, adolatlilik, tamoyillilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan hamda sabrli bo'la olish.

Yuqoridagilar O'zbekiston xalqini axloq kodeksi emas, balki oiladagi, maktabdagi, jamiyatdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun asos bo'la oladigan axloqiy normalardir.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu umumta'lim maktablarimizda adabiyot, tarix, jamiyatshunoslik darslaridir. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari axloqiy mavzularda tashkil etilgan tadbirlar, uchrashuvlar ham o'quvchilarda axloqiy sifat va

fazilatlarni shakllantirilishida muhim o'rin tutadi. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o'ziga hamda atrofdagilarga ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishini ifodalovchi sifatlar ma'naviy-axloqiy sifatlar deb yuritiladi.

Shaxsning axloqiy sifatlariga: xushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik. rahmdillik, saxovatlilik, oqko'ngillilik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, baynalmilallik, sabrlilik, bilimlilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo'ylik, o'zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko'rsatish kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, intizomlilik v.b.

Maktabda, oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrlilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko'ngli qoralik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e'tiqodsizlik, adolatsizlik, yolg'onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko'rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlar shakllanishining oldini olinishiga erishiladi.

Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy-axloqiy me'yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi

Axloq – axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi

Qur'oni karim va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al- Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy,

Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir».

Amir Temur – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

2-shakl

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining tarkib topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:



Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

O'quvchi-talabalarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda axloqiy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1.Tarbiyalanuvchini tiyib turish (o'quvchi-talabalarni boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish-bu vositaga xizmat qiladi). O'quvchi-talaba uchun xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. O'quvchi-talabalarni o'ziga xos xususiyatlarini belgilab olish, ya'ni ularni shunday shart-sharoitga qo'yish kerakki, bu shart-sharoitda u

"quloq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini" faqat o'qituvchi-pedagog yoki tarbiyachining ko'rsatmalarigagina emas, balki shu bilan birga o'z ongi va tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida "osoyishtalik va ravshanlik" bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni "tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi" uchun asos bo'lmaslik.

5.Ma'qullash va jazo berib turish yo'li bilan o'quvchi-talabalarning ko'nglini "to'lqinlantirib" turish.

6. O'quvchi-talabalarni noto'g'ri xatti-harakatlaridan "xabardor" qilib turish, ya'ni ularning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tomonlariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik his-tuyg'ularini barqaror bo'lishiga o'zaro muomala-munosabatda o'rnak, moyillik, diyonat, odillik, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish kabi axloqiy sifatlar faqat axloqiy tarbiya jarayonidagina yoshlar ongiga singdirilishi mumkin. Ana shu nuqtayi nazardan ham ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirish va shakllantirishda ma'rifiy-pedagogik ta'sir kuchiga egadir

Oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni. Axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Oilada uyushtiriladigan axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona va oilaning boshqa a'zolari, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iborat.

Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim muassasalari tomonidan oilalarga, eng avvalo, metodik yordam ko'rsatiladi. Bu yordam maslahat, suhbat yoki amaliy ishlar shakllari (masalan, psixologik treninglarni tashkil etish ko'rinishi)da bo'lishi mumkin.

Oila an'analari (yoki oilaviy an'analar) - oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o'tish orqali oila a'zolarining ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa sanaladi.

Oilaning moddiy, ma'naviy, milliy, psixologik, pedagogik imkoniyatlari oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalaydi. Oiladagi moddiy qadriyatlarga hurmatsizlik, ota-onalarning axloqsizligi, oiladagi avtoritarizm, liberalizm, psixologik muhitning yomonligi oilaviy tarbiyaga ta'sir etuvchi salbiy omillar hisoblanadi.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin.

«Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?» nomli so'rovnoma mazmuni quyidagicha:

1. Farzandingiz ushbu o'quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?

2. Farzandingizni so'nggi o'quv yilidagi o'zlashtirish darajasi sizni qoniqtiradimi?

3. Farzandingizning fanlarga bo'lgan munosabati qanday?

4. Uning fanlarga bo'lgan qiziqishini baholay olasizmi?

5. Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoa hamda keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?

6. Farzandingiz mansub bo'lgan mikro hamda makro muhitning ma'naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bidan do'stlashgan, ularning ma'naviy qiyofasi sizning talablaringizga javob bera oladimi?

7. Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta'sir ko'rsatganliklarining guvohi bo'lganmisiz?

8. Uning oilada tutgan o'rni qanday?

9. O'quv yurti yoki oila o'rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo'nalishi va mazmunini belgilab beradi.

O'quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash. Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa, mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda sinf rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

– yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishidir;

– shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishi;

– yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

– o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

– har bir o'quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shaftaqlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

– Vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstituttsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

– mustaqil Respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmog'i kerak;

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

– sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish;

– barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish;

– o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;

– insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

– Marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o'git va nasihatlarni o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

– tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyatini, tabiyatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo'yicha bilimlar berish;

– ota-ona va Vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

– o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

– yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lishini tushuntirish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

– o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

– darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

– odob-axloqqa xos sifatlarni o'quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

– o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– axloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo'lishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. Bolalarni tarbiyalashda (o'quvchi) o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

– tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

– o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish;

– o'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1.Ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?

2.Ongli intizomlilik tushunchasining mazmun mohiyati nimalardan iborat?

3.Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ota-onaning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi?

19-MAVZU. O'QUVCHILARNING MEHNAT, JISMONIY VA ESTETIK TARBIYASI

Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat - bu har bir insonni vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi

fazilatlari rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligi anglashlariga yordam berishdir. Mamlakatimizda mehnat tarbiyasining mazmuni va bolalarni mehnatga tayyorlash muammolari Rahima Mavlonova, Mamat Haydarovlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Rahima Mavlonovaning fikricha, bolalarni mehnatga tayyorlash - bu mehnatga nisbatan ularning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarini egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Oilada, maktabda, jamiyatda mehnat tarbiyasi – bu mehnat ko'nikmalarini va axloqiy sifatlarni shakllantirish, tanlagan mutaxassislik bo'yicha ishlashni bilish, mehnatni va o'zgalar mehnati natijasini hurmat qilish, mehnat qilishga ehtiyojni tushunadigan, his eta oladigan insonni shakllantirish tizimidir. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish shaxsda mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1) o'quv mehnati;
2) ijtimoiy-foydali mehnat;
3) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
4) ishlab chiqarish mehnati.

O'quv mehnati – o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlar, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirish orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyati.

Ijtimoiy-foydali mehnat – o'quvchilar guruhi (jamoasi) tomonidan tashkil etilib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda bevosita shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning muayyan ijtimoiy ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyatining alohida turi sanaladi. O'quvchilar ijtimoiy-foydali mehnatini tashkil etishda sinf xonasi yoki oshxonada navbatchilikni tashkil qilish, hasharlar, mehnat bayrami, ko'kalamzorlashtirish, maktab binosini ta'mirlash, fermer hamda jamoa xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib olishda dehqonlarga ko'maklashish kabi shakllardan samarali foydalanish mumkin.

O'z-o'ziga xizmat – o'quvchilar tomonidan oilada, ta'lim muassasasida, omma uchun xizmat ko'rsatiladigan muassasalarda o'z ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, zimmalaridagi vazifalarni ado etish maqsadida tashkil etiladigan mehnat faoliyatidir.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning eng oddiy ko'rinishlari umumiy ovqatlanish muassasalarida xodimlar xizmatidan foydalanmaslik, oilada yotoqxonani tartibga keltirish, kiyim-kechaklarni ozoda, o'quv qurollarini esa tartibli saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish yo'lida muayyan harakatlarni bajarish kabilar sanaladi.

O'quvchilarning ishlab chiqarish mehnati ta'lim muassasalarida o'quvchilarni muayyan yo'nalishlar bo'yicha kasb yoki hunar asoslaridan xabardor qilish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'lida olib borilayotgan pedagogik faoliyat ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy qismi kasbga yo'naltirish hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish – bu o'quvchiga mehnat bozoriga va imkoniyat va ehtiyojlariga mos keluvchi kasbni tanlashlariga yordam berish jarayoni hisoblanadi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat hamda o'quvchilar ishlab chiqarish mehnatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga ko'ra o'quvchilar muayyan kasb yoki hunar borasidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi.

Kasbga yo'naltirish tizimi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy ta'lim – o'quvchilarni mehnat, kasblar dunyosi, kasb tanlash muammolari bilan tanishtirish;
- kasbiy tashxis – o'quvchilarni kasb tanlashga tavsiyalar berish uchun o'rganish. Tashxis tibbiy, psixologik, pedagogik bo'lishi mumkin;
- kasbiy maslahat – kasb tanlash bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish;
- kasbiy tanlov – biror bir kasbga nomzodlarni tanlash;
- kasbiy moslashuv – ishlab chiqarish sharoitlariga va kasb talablariga yoshlarni moslashish jarayoni.

O'quvchilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish suhbat, ekskursiya, uchrashuvlar, anjumanlar, konkurslar shaklida tashkil etiladi. O'quvchilarni kasblarga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishda to'garaklarni, klublar faoliyatini, bolalar markazlarining o'rni beqiyosdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: kasb va uning shaxsga nisbatan talablari to'g'risidagi bilimlari, o'zining individual xususiyatlarini bilishi, tanlagan mutaxas-

sislik bo'yicha o'quv va amaliy ishlar, umumiy mehnat ko'nikmalari ko'lami. Shaxsning kamolotida mehnat tarbiyasining ahamiyati, mehnatsevarlikni tarbiyalashning tarixiy asarlarini yoritishda R.Mavlonova, K.Xoshimov, M.Ochil, A.Zunnunov, O.To'raeva, K.Xoliqberdievlarning ilmiy-pedagogik qarashlari biz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari shaxsni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini o'rganishimizda M.Inogamova, O.Musurmanova, K.Xoshimov, M.Xaydarovlarning ilmiy tadqiqot natijalari muhim o'rin egallaydi. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi va turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi.

Turli ixtisosliklar (kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Yoshlarni hunarmandchilikka jalb etish, hunar orqali tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlab borish, usta-shogird an'analarini yo'lga qo'yish, usta-shogird maktablarini tashkil etishda Buxoro viloyati hamda Farg'ona vodiysi o'z yo'nalishlariga ega. Har bir hunarning o'ziga xos nozik jihatlari, murakkabliklari mavjud.

Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz.Yosh avlodimiz o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etilishi" ta'kidlab o'tilgan.

Jismoniy tarbiya – bu sog'lom turmush tarzini va gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishga, salomatlik va jismoniy kuchlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, sog'lomlashtirish va bilish faoliyatlarini tashkil etish jarayoni. Jismoniy madaniyat – jamiyat qadriyati bo'lib, insonning garmonik rivojlanishi, tana va ruh to'g'risidagi bilimlar hamda salomatlikni saqlash bo'yicha faoliyat tizimi, ma'naviy va jismoniy rivojlanish kuchlari to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisidir. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino birinchilardan bo'lib, jismoniy tarbiyani bir butun tizimining (jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish, kun

tartibi) yaratgan edi. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya shaxsning me'yoriy, jismoniy taraqqiyotini ta'minlaydi, salomatligini mustahkamlaydi, yoshlarni mehnatga, turmushga tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yosh avlodni jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlovchi uch bosqichli tizim ishlab chiqildi. Ya'ni:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqasi tashkil etiladi.

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod» sport musobaqasi tashkil etiladi.

3. Oliy o'quv yurtlarining talabalari o'rtasida «Universiada» sport musobaqasi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy, jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayon sanaladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarning o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish, uning ishchanlik qobiliyatini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini tarbiyalash, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma, malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda, xarakterni qaror toptirish kabi) jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash maqsadi ko'zlanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismonan rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- o'quvchilarda tabiiy harakatchanlikni rivojlantirish va mustahkamlash;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- o'quvchilarda irodaviy sifatlar (kuch, chaqqonlik, dadillik, chidamlilik, qat'iyatlik va b.)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarda axloqiy sifatlar (intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish kabilar)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy, muntazam shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish;

- o'quvchining jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishga odatlantirish, o'z sog'ligiga ongli munosabatni tarbiyalash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya uning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik bilan bog'liqligiga ko'ra o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Jismoniy tarbiya vositalari. O'quvchilarning jismoniy madaniyat (kamolot)ga erishganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida belgilash mumkin:

1)jismoniy harakat ko'nikmalariga egalik;

2)jismoniy mehnat qilish qobiliyatining rivojlanganligi;

3)jismoniy kamolotning aks etishi;

4)o'quvchilar tomonidan jismonan rivojlangan idealning tanlanganligi va undan namuna olish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligi.

Chaqqonlik, epchillik, chopqirlik, egiluvchanlik, kuchlilik, chidamlilik, sabrlilik, irodalilik, kuchli xarakterga egalik kabi sifatlar shaxsning jismonan kamolotga yetganligini ifodalaydi.

Jismoniy tarbiya vositalariga gimnastika, o'yin, turizm, sport, tabiat shu bilan birga tabiiy kuchlar (quyosh, havo, suv), bundan tashqari gigiyenik omillar (kun tartibi va dam olish, ovqatlanish) tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya metodlariga jismoniy mashqlar, trenirovka, tushuntirish, namuna hamda musobaqa kiradi. Jismoniy tarbiya metodlari yordamida o'quvchilarda jismonan to'g'ri rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ehtiyoj va shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu jismoniy tarbiya darslari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli, xalq va sport o'yinlaridan keng foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Bolalar va o'smirlar orasida chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, narkotik moddalarni qabul qilish kabi salbiy odatlarning shakllanishini oldini olishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta.

Demak, *jismoniy tarbiyaning maqsadi o'quvchi-talaba yoshlarni har tomonlama jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli qilib tarkib toptirishdir.*

Bular jismoniy tarbiyaning quyidagi umumiy vazifalarini belgilab beradi:

1. Har tomonlama garmonik rivojlangan, ya'ni ham jismonan, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga, ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik ko'nikmalarini tarkib toptirishga, sihat-salomatligini mustahkamlashga, uzoq umr ko'rishga yordam berish;

2. O'quvchi-talabalarni jismoniy tarbiya va sport shaxsning sog'ligini mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy barkamollashuvga asos yaratishi bilan bog'liq bilimlar bilan qurollantirish;

3. O'quvchi-talabalar ongida harakat faoliyat (tur)lari bilan bog'liq bo'lgan ijobiy his-tuyg'u va kechinmalar to'g'risida tasavvur hosil qilish, hamda shu asosda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga qiziqish, istak va ehtiyojni, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

4. O'quvchi-talabalarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi texnologiyalarini ishlab chiqish;

5. O'quvchi-talabalarga jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va jismoniy mashqlarni bajarish bilan bog'liq bilimlarni bayon qilishda yoshlarning sportga bo'lgan moyilligini hosil qilish, eng muhimi axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash va harakat faoliyatining to'laqonli xarakterini ta'minlovchi jismonan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

6. O'quvchi-talabalarni jismoniy tarbiyaga, ya'ni o'z sog'ligiga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni shaxsiy gigiyena va ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanishga, jismoniy mashqlarni bajarishga, madaniy va jismoniy yayov yurishlar va sayr qilishlarga odatlantirish lozim.

Jismoniy tarbiya qonuniyatlariga muvofiq ongli ravishda bajariladigan jismoniy mashqlar-harakat faoliyatlari jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. Bunda gimnastika, harakatli o'yinlar va sport mashg'ulotlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Atrof-muhit (ijtimoiy, geografik iqlim sharoitlari); **tabiatning tabiiy kuchlari (** quyosh, havo, suv, er) va **bir qator gigienik omillar** (shaxsiy gigiena, ovqatlanish, rejim) va hokazolar **yordamchi vositalar** jismoniy tarbiyaning **zaruriy vositalari** bo'lib hisoblanadi.

Yordamchi, ya'ni zaruriy vositalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- yordamchi jismoniy mashqlar organizmga bevosita ta'sirni aniqlovchi omil sifatida yuzaga chiqadi, bunga mashqlar bajariladigan iqlimiy va geografik sharoitlarni o'zgartirish yordamida erishiladi;

- jismoniy mashq mashg'ulotlari bilan birgalikda ular organizmiga umumiy ijobiy ta'sirni kuchaytiradi (qat'iy rejim, ovqatlanish, mashg'ulot o'tkaziladigan joyning ozodaligi va hokazolar);

- sog'liqni mustahkamlash uchun nisbatan mustaqil ahamiyatga ega (chiniqish maqsadida foydalaniladigan tabiatning tabiiy kuchlari: quyosh va havo vannasi, suvga cho'milish va hokazolar).

Shunday qilib, pedagogik jihatdan mos keladigan sharoitda jismoniy tarbiya vositalari yordamida o'quvchi-talabalarda matonatlilik, jasurlik, jur'atlilik, sabr-toqatlilik, haqqoniylik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, o'z imkoniyatlariga ishonch kabi ma'naviy-axloqiy hislatlar tarkibi kiradi.

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik qadriyatlar, ideallar, ommaviy madaniyat kabi masalalar keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar tomonidan muhokama qilinayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Jamiyat a'zolarining estetik madaniyati masalalari barcha davrlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Demak, bugungi kunda ham yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Estetik tarbiya - shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o'rgatadi. Estetik tarbiya - o'quvchilarda estetik bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishni hamda estetik his-tuyg'u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalalarini o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya mohiyati asosan quyidagilardan iborat:

- tabiat va voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish va zavqlanish;
- san'at asarlarini to'g'ri tushuna bilish va baholash;
- o'zining qobiliyat va iste'dodlarini namoyon etishga intilish;
- hamma narsada, ya'ni tabiatda, munosabatda, mehnatda, go'zallik uchun kurashish;
- xunuklik va tartibsizlikka murosasiz bo'lish.

Shunday qilib, estetik tarbiya —bu san'at va hayotdagi go'zalliklarni tushunish va his eta olish qobiliyatlarini shakllantirish, san'at sohasidagi qobiliyatlarni rivojlantirish, estetik bilim va his-tuyg'uni shakllantirish jarayonidir. Estetik tarbiyaning maqsadi shaxsda estetik madaniyatni shakllantirish hisoblanadi. Estetik tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklari, ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- o'quvchilarning badiiy-estetik madaniyatini boyitish;

- o'quvchilarda musiqiy, badiiy ziyraklikni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish;

- o'quvchilarda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini anglash, his qilish qobiliyatini tarbiyalash;

- o'quvchilarda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi, estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;

- o'quvchilarda go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, estetik qobiliyat va madaniyatni shakllantirish.

Estetik madaniyat elementlari quyidagi komponentlardan iborat:

- estetik qarash – estetik ongning g'oyaviy negizi, tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi estetik fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimi;

- estetik idrok – ijtimoiy voqelik, buyum, hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltiriladi;

- estetik ong – shaxsga nazariy tushunchalar berish asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baholay olish imkonini yaratadigan his-tuyg'ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli;

- estetik ong – estetik his-tuyg'u, estetik idrok, estetik bilim, estetik mulohaza, estetik baho, estetik did, estetik ideal kabilardan tarkib topadi.

Estetik faoliyat ko'nikmalari deb, estetik ehtiyojlarni qondirish yo'lida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga imkon beradigan ko'nikmalarga aytiladi.

Estetik madaniyat – go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko'rsatkich.

O'quvchilarning estetik madaniyatliligini quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlash mumkin:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etish;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat va tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini tabiat, mehnat, madaniy-maishiy turmush shart-sharoitlari, insoniy munosabatlar va madaniyat (shu jumladan, san'at) tashkil etadi. Estetik tarbiya umumta'lim maktab-

larida ta'lim jarayonida, ya'ni adabiyot, rasm, musiqa darslarida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali ham estetik tarbiya ishlari olib borildi. Bularga konkurslar, konsertlar, festivallar tashkil etish, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, tabiatga, tarixiy va badiiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari mehnat, o'yin, tabiat, san'at, muloqot kabilar hisoblanadi. Estetik tarbiya, asosan, tushuntirish, suhbat, ma'ruza, namuna, mashq, rag'batlantirish metodlari orqali amalga oshiriladi.

Estetik tarbiya vositalari. Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari **estetik tarbiya vositalari** deb ataladi.

Estetik tarbiya vositalariga tabiat, mehnat va san'at kiradi.

Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnikalashib borgani sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiati ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir shaxs o'z mehnatidan ko'proq moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili – bu tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai.U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida san'at muhim o'rin egallaydi. San'at voqelikka estetik munosabatning eng *muhim shaklidir.* Jamiyat estetik madaniyatining darajasi ko'p jihatdan san'at rivojining darajasi, uning ijtimoiy hayotda qanchalik ko'p ahamiyat kasb etishiga bog'liq,

San'at estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga mo'ljallanganligi, dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuyg'usini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'lida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirishi bilan izohlanadi.

Estetik tarbiya vositalari tizimida estetik bilimlar asoslari hisoblangan estetik nazariya ham katta ahamiyat kasb etadi. Estetik nazariya estetik tuyg'u, estetik did, estetik orzu kabi estetik ong qismlariga ta'sir o'tkazadi. Estetik tuyg'u – estetik did, estetik orzu, estetik nazariyaning ta'siri ostida quvvat oladi. Shaxs estetik qarashlari uning e'tiqodiga aylanib boradi, bilim doirasini kengaytiradi. San'atdan bahramand bo'lish, undan lazzatlanish uchun muayyan darajada badiiy bilimlarga ham ega bo'lish lozim. San'atga intilib yashash, badiiy ijod mahsullarini idrok etish, zavq olish qobiliyati ko'p jihatdan insonning badiiy saviyasiga bog'liq. Estetik tarbiyada badiiy-nazariy bilimlar va badiiy ta'lim (estetik nazariya) bilan bir qatorda san'atshunoslikning ahamiyati ham katta. San'atshunoslik bilimlari san'at aniq turlarining xususiyatlari va maxsus qonuniyatlari mohiyatini ochib berishga, badiiy ijodning ayrim sohalari tarixi bilan tanishishga, sat'atning eng muhim yo'nalishlari va oqimlari to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Estetik tarbiyaning muhim vositalaridan yana biri adabiy-badiiy tanqid bo'lib, u g'oyat murakkab ijtimoiy maqomga ega. Adabiy-badiiy tanqid bir vaqtning o'zida fanga ham, san'atga ham xizmat qiladi. Adabiy-badiiy tanqidning oraliq — «chegaraviy» holati uni shaxs estetik kamolotining beqiyos vositasiga aylantiradi. U badiiy idrok madaniyatini shakllantirishda, san'at asarlarini ishonchli tarzda baholash qobiliyatini rivojlantirishga, ularning his-tuyg'uli va nazariy tomonlarini qo'shib in'ikos etishga xizmat qiladi. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tashkilotlar kabi bo'g'inlarda yaxlit holda amal qilgandagina, kutilgan natijalarga olib keladi. Estetik tarbiyada oila, maktab va o'quv yurtlarning o'zaro hamkorligi ham yaxshi natijalar keltiradi. Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan. Voqelikka estetik munosabatda bo'lishning mohiyati, mazmuni va asosiy yo'nalishlarni insonning go'zallik haqidagi zohiriy va botiniy tushunchalari voqelikni estetik idrok etishi jarayonlari tabiati va mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Voqelikni estetik jihatdan inikos etish tabiatni anglashning ilmiy qoidasi mavjud: inson borliqni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda anglaydi. Hayvonlar ham xuddi odamlarga o'xshash xatti-harakatda bo'ladilar; o'zlari mansub bo'lgan jonivor turining ehtiyojlari darajasida tabiiy mayl (instinkt) bilan tabiatga ta'sir ko'rsatadilar. Hayvonlar o'zlarining yashash jarayonlarida narsalar va ularning xossalari bilan emas, balki faqat o'zlarining anglamagan tabiiy ehtiyojlari

amri bilan ish ko'radilar. Inson ongli mavjudot sifatida o'zini qurshab turgan voqelikka faol munosabatda bo'ladi, narsalarning xossalarini ham inobatga oladi. Inson hayvonlardan farqli o'laroq, har bir narsaga o'ziga xos mezon nuqtayi nazaridan yondashadi. Agar inson mezon tuyg'usidan mahrum bo'lganda, voqea-hodisalar, narsalardagi go'zallikni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lmaganda, uning faoliyati bunyodkorlik bilan birga vayronagarchilikka qaratilgan bo'lardi. Nafosat qonunlariga rioya qilish, ya'ni yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi. Insonning har qanday faoliyatida estetik manba mavjud: inson o'z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma'naviyatga shodlik - sevinch, orzu-umid, erk-shodlik tuyg'ulariga suyanib yashaydi, moddiy samaralar bilan birga o'zi va boshqalar faoliyatining nafosat mezonlari bilan o'lchanadigan ijtimoiy baholanishiga harakat qiladi. Binobarin, inson o'zining bu mohiyatli xususiyatini yo'qotib qo'ysa, uning faoliyati o'zining insoniy tabiatidan ham mahrum bo'lib qoladi. Nafosat qonunlariga rioya qilgan holda voqelikni amaliy va ma'naviy o'zlashtirish jarayonida inson faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo'lgan san'at muhim ahamiyat kasb etadi. Nafosat qonunlariga rioya qilib yaratilgan san'at eng toza poklangan ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda san'at (badiiy faoliyat)ni voqelikni inson tomonidan estetik jihatdan idrok etilishining eng oliy ko'rinishidir, deymiz.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Mehnat faoliyatining asosiy turlariga nimalar kiradi?
3. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
4. Jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
5. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
7. Estetik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlariga tavsif bering.

20-MAVZU. O'QUVCHILARDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.

Axborot iste'moli madaniyati, mazmuni va mohiyati. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi vaqt va masofani qisqartirib, jahon sivilizatsiyasi bilimlariga keng yo'l ochib bermoqda. Bir vaqtlar fan, madaniyat, ta'lim va biznes sohasi uchun ma'lum hududdagi, kutubxonalardagi resurslardan foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular foydalanishi mumkin bo'lgan resurslar hajmiga Internet tarmog'idagi barcha resurslarni ham kiritish mumkin bo'ladi. Jamiyatda paydo bo'layotgan axborot resurslari hajmining jadal ortib borishi axborot bo'ronini vujudga keltirmoqda. Bu resurslardagi ma'lumotlarning barchasi ham ishonchli, aniq faktlarga asoslangan, jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan axborotlar degan fikrdan yiroqmiz.

Jamiyatda hosil bo'layotgan axborot bo'ronidan jamiyat a'zolarini, ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Axborot madaniyati nima va nima uchun axborot madaniyatiga ehtiyoj sezamiz? "Axborot madaniyati" tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning "madaniyat" va "axborot" yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

Shaxsiy axborot xavfsizligi. So'nggi vaqtlarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendensiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa, axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Axborot madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lim olish, dam olish va boshqa ko'rinishli faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va

ko'nikmalari bo'lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari (kompyuter va Internet tarmog'i texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat.

Jamiyatda axborotning qimmati ortib, u sanoat jamiyatidan axborotlashgan jamiyatga aylanib bormoqda. Hozirgi hayotning o'ta o'zgaruvchanligi axborotlashgan jamiyatda bir qator yangi atributlarni yuzaga keltiradi: Axborot va bilim jamiyatning asosiy o'zgartiruvchi kuchiga aylanadi; Ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy texnologiyalarning yangilanish sikli 6-8 yilni tashkil etib, avlodlar almashinishi suratidan o'zib ketadi; Uzluksiz ta'lim va yangi ixtisoslik olishga qobiliyat shaxsning ijtimoiy statusini saqlab qolishning ajralmas qismiga aylanadi; Har bir insonning taqdiri yangi axborotni o'z vaqtida topish, olish, bir qiymatli qabul qilish va samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qo'yishi – insonlarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitida professional faoliyatga o'z vaqtida tayyorlash, bu muhitda mustaqil ravishda harakat qilishga, muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta'sirlardan himoyalanishga o'rgatish kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Axborotlashgan jamiyat shakllanishidagi muammolar, avvalambor bu jamiyatda inson o'rni muammosi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning diqqat markazidagi mavzu bo'lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda insonlarni hayotga maxsus tayyorlash zarurati nufuzli xalqaro tashkilotlarning sammitlarida ko'rib chiqilib, maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Bunga misol sifatida YUNESKO ning "Axborot hamma uchun" dasturi va IFLA ning "Axborot savodxonligi" bo'limi faoliyatini keltirish mumkin. Keltirilgan muammolar mazmuniy jihatdan axborot madaniyati ta'rifida o'z aksini topganligini ko'rish qiyin emas.

O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish metodlari. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi asosiy islohotlar o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasi yangi sharoitlarda bitiruvchining kasbiy malakasi uchun ahamiyatga ega jihatlarini shakllantirishda nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalar to'laligiga, balki mustaqil ravishda o'z bilimlarini boyitib borish, turli xil muammolarni qo'yish va ularni hal qilish, muqobil yechimlarni taklif etish, ular orasidan eng samaralisini tanlab olish mezonini ishlab chiqish kabilariga ham yo'naltirishi lozim. Bu maqsadlarga erishish ma'lum darajada axborot madaniyati saviyasiga bog'liqdir.

Shaxsning axborot tayyorgarligi tarkibiy tuzilishi quyidagicha: o'zining axborot ehtiyojini ifodalash; axborot so'rovlarini shakllantirish qobiliyati; axborot resurslari bilimi; kutubxonalar imkoniyatlarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati; axborot qidiruvini amalga oshirish qobiliyati; axborotlarni qayta ishlash bilim va ko'nikmalari; axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalanish ko'nikmalari; zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana bilish.

Axborot madaniyatini madaniyatning alohida jihatlariga nisbatan o'ziga xosligini tushunib olish real voqelikni bilishga, axborotlashgan jamiyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanishida axborotlashgan yondashuvning vujudga kelishi natijasidagina mumkin bo'ldi. Axborotlashgan jamiyatda axborot resurslari qiymati jihatidan energiya, moliyaviy va boshqa strategik resurslardan kam bo'lmagan holda, axborot hozirgi jamiyatda xodimning malakasini oshirish, optimal yechimlarni qabul qilish, yangi professional sohani egallash, raqobatdoshlar oldida strategik ustunlikka erishishi uchun samarali foydalaniladigan iqtisodiy kategoriya tovar sifatida baholanadi.

Yangi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'limda axborot madaniyati ahamiyatining ortishiga muhim omil bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Foydalanuvchi pedagog va foydalanuvchi o'quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha faoliyatlarning dolzarbligi, o'qitishning yangi modelini yaratishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslariga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim samaradorligining zaruriy sharti ta'lim hamjamiyatining yuqori axborot madaniyati hisoblanadi. Ta'lim hamjamiyatini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilari, axborot resurslari iste'molchilari. Axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilarga asosan kutubxona xodimlari va professor-o'qituvchilarni kiritsak, axborot iste'molchilariga esa talabalar va o'z bilimini boyitib borishga intiluvchi pedagoglarni kiritish mumkin. Bu muhitda axborot resurslari yaratish va tashkil qilish to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, yoki to'g'ri yo'lga qo'yilgan axborot resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini bilmaslik axborot madaniyati komponentalarining bajarilmasligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalar ko'p ishlatilayotganligi o'quvchi-yoshlarni axborot xurujidan himoyalash bo'yicha choralar ko'rish muhimligini yanada oshiradi. Ushbu muammo-

ning dolzarbligi yana shundaki, hozirda odamlar ongi (shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat) ma'lum darajada ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborot resurslarining ta'siridadir.

Yangilikka, turli axborotlarga hamisha qiziqish bilan qaraydigan yoshlar ongiga internet qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani haqida aytilayotgan har bir fikr zamirida ulkan ma'no mujassam. Yoshlarning internetga bo'lgan qiziqishlarini yaxshi bilgan ayrim buzg'unchilar bundan juda ustalik bilan foydalanib, "axborot xuruji"ni avj oldirmoqdalar. "Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib bergan. Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo'lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan ayrim siyosiy kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Odamlarning, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda".

Hozirgi globallashgan dunyoda yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilayotgan unsurlar ham paydo bo'layotganiga befarq qaray olmaymiz. Yagona axborot makonida avj olayotgan turli mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari yosh avlod ong-u shuuriga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Endi asosiy maqsadlardan biri – yosh avlodni o'sha xuruj-u tahdidlardan himoya qilishga qaratilmog'i zarur. Zero, globallashuv – insonning ong-u shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat boshidagi yana bir sinov. Bugungi kunda dunyodagi ayrim qudratli davlatlar o'z milliy manfaatlarini amalga oshirishda globallashuv jarayonidan ustamonlik bilan foydalanib qolishga urinmoqda. Bu manfaatlarning shakli, ko'rinishi, sohasi, yo'nalishi, turlicha. Ana shunday ekan o'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda.

O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson

faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihati mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir.

Bugungi kunda jahonda real muhitda ham, virtual muhitda ham katta miqdordagi axborotlar oqimi paydo bo'lmoqda va shu bilan uni qidirish, to'plash, qayta ishlash, analiz va sintez qilishning murakkablik darajasi ham ortmoqda. Shuning uchun bugungi kunda bunday axborot oqimida har xil axborot resurslaridan foydalanib, moslashish ko'nikmalarini egallash hayotiy zaruratdir. Bugungi talaba ma'lum axborot madaniyatini egallashi shart va buningsiz uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish borasida ishlar olib borilayotgan bir paytda "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" ta'lim yo'nalishi standartini yaratishda bu yo'nalish bitiruvchisiga kutubxonachi-pedagog kvalifikatsiyasi beradigan qilib o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Azaliy tushunchalar ma'no qatlami benihoya kengayib borayotgan zamonda yashayapmiz. "Madaniyat" atamasi ham ana shunday kengayuv, chuqurlashuv, rang-baranglashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shaxsiy madaniyat, muomala madaniyati, kiyinish madaniyati singari birmuncha tor bo'lgan mavzular bilan cheklanish davri ortda qoldi.

Endilikda iqtisodiyot, ishlab chiqarish, bozor munosabatlari, dehqonchilik, tibbiyot, rahbarlik, siyosat va xalqaro munosabatlarning o'z madaniyati bor, ya'ni "madaniyat" tushunchasidan xoli soha, tarmoq, jabha yo'q. Hatto, har qanday jamiyat o'zagini, demak, taraqqiyot yo'sinlari umurtqasini madaniyat tashkil etishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatga aylanib ulgurdi.

Axborot madaniyati mazkur to'rt bosqichli jarayon ichida eson-omon yashash hamda faoliyat yuritishga zamin yaratadi, doimiy yordamchiga aylanadi. Murakkabdan – murakkab, serqatlam axborot almashinuv jarayoni sohalar, jamiyatlar, mamlakatlar, mintaqalar va dunyo miqyosida keng ko'lamlarda kechayotganini tasavvur qilib ko'rsak, so'z yuritilayotgan mavzuning ham ilmiy, ham amaliy ahamiyati naqadar ulkanligi ayonlashadi. Biroq mazkur haqiqatni to'la anglashga tasavvurimiz hamda aql-idrokimiz imkoniyatlari qodirmikan?

Qodir bo'lmagani uchun ham inson bu qadar mislsiz, zalvorli yukni axborot vositalari zimmasiga yukladi. Gazeta, jurnal, kitob, radio, televideniye, telefon, faks, kompyuter, internet, mobil telefon sharofati

bilan Yer yuzi mo'jaz "qishloq"qa aylandi-qo'ydi. Ikki dunyoni bir qadamga aylantirgan ham axborot, globallashuv jarayonlari maxraji, ustqurmasi ham axborot. Zamonaviy taraqqiyot, farovonlig-u farog'atning noni, suvi, havosi ham shu! Sanab o'tilgan axborot vositalarining ko'zga ko'rinmas changalidan tashqarida yashayotgan odam yo'q hisobi. Ularning barchasi oddiy turmush tarzining ajralmas zaruratiga, ta'bir joiz bo'lsa, tanamizning "a'zosi"ga aylanib bo'ldi.

Yangilikka o'chlik boyagina olingan axborotning o'sha zahoti eskirishiga olib kelmoqda. Hozirgina yuz mashaqqat bilan topgan yangiligimizni to'la anglab idrok etib ulgurmasimizdan chiqitga chiqaryapmiz. Bir qarashda, buning yomon tomoni yo'q, ammo har bir yangilik ortidagi voqelik yuzasidan chuqur mulohaza yuritish, tosh-taroziga solish hamda hayotiy xulosalar chiqarishga bo'lgan moyillik unutilib bormoqda. "Bu ahvolda internet to'lqinlarida soat sayin "bolalayotgan" nashrlar shu tariqa yengil shov-shuvga o'ch, shundan narini ko'zlamaydigan, tahlil-u mulohazalardan yiroq avlod vakillarini shakllantiruvchi "maktab"larga aylanib qolmasmikan?!" degan xavotir ham yo'q emas.

Ruhiyat bilan bog'liq yana bir omil avj olayotir. Axborot oqimi shiddati ortgani sayin odamlarda individuallashuvga moyillik kuchaymoqda. Deylik, oiladagi ota-ona va uch farzandning har biri o'zi istagan teleko'rsatuvni tomosha qiladi, o'zi yoqtirgan radioeshittirishni tinglaydi, ularning har birida alohida kompyuter, internet, mobil telefon bor. Ota o'qiyotgan gazetaning o'g'ilga umuman qizig'i yo'q, qizi qo'ldan qo'ymaydigan suratli jurnalni ona varaqlab ham ko'rmaydi. Shubhasiz, bu holni axborot oqimi hamda vositalari ta'sirida odamlarning yakkalanishi, deb ta'riflash mumkin. Ko'plashib, oila davrasida emas, xonaga qamalib olib, yakka holda kompyuter ekraniga termulgancha hordiq chiqarish, bo'sh vaqtni o'tkazish odati ommalashmoqda.

Bunday yangiliklar milliy oila tutumlari, odob-axloq me'yorlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Aytib o'tilgan axborot vositalarining har biri mo'jiza, inson aql-idrokining mahsuli, ularning har biri bilimni oshirish, dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi, ularning ta'rifiga til ojiz. Biroq ularning barchasiga milliy-axloqiy qadriyatlarimiz, tafakkur va qalb tarbiyasi, qisqacha aytganda, komil inson tarbiyasi mezonlaridan kelib chiqqan holda yondashilsa, ko'p savollar yo'limizda ko'ndalang bo'ladi. Teletomosha hamda radio tinglash madaniyati, internet, ayniqsa, mobil telefondan foydalanish madaniyati – barchasini umumlashtirib aytganda, axborot madaniyati asri odamlarni chin ma'noda shoshirib qo'ymoqda.

Mo'jizakor axborot vositalaridan zararli maqsadlarda foydalanish, farzandlarimizning noto'g'ri yo'llarga chalg'ishi, oldi-qochdilarga umrni sovurish, ayniqsa, mobil telefon bois kelib chiqayotgan ko'plab norozilik-lar, ko'ngilsizliklar bu borada qilinadigan ishlar nihoyatda ko'pligidan darak beradi.

Taraqqiy topgan davlatlarda axborot madaniyati (infoetika, mediaetika, mediata'lim va hokazo) alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqdi. Ilmiy markazlar, olim-u mutaxassislar ushbu muammolar tevaragida ixtisoslashgan holda, yuz berayotgan holatni o'rganishmoqda, tahliliy asarlar yaratishmoqda. Sog'lom aql-idrok va mantiqdan kelib chiqilsa, hozirdanoq to'rtinchi to'lqin axborot odobi, madaniyati tamadduni deb nomlanishi birdan bir to'g'ri hamda oqilona chora ekanligini ko'rsatadi. Ha, endilikda odamlar-ning, oilalarning, milliy qadriyatlarning – insoniyatning rivoji, farog'ati va istiqboli mazkur xaloskor madaniyatga bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Axborot iste'moli madaniyati, mazmuni va mohiyati haqida ma'lumot bering?
2. Shaxsiy axborot xavfsizligi nima?
3. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning metodlari va texnologiyalari haqida ma'lumot bering.

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

21-MAVZU. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Boshqaruv – bu tizimni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida uning sifatini ta'minlash, tartibga solish uchun ta'sir etishdir. Ilmiy boshqaruv nazariyasining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga butun dunyoga mashhur ilmiy menejment amaliyotchi va nazariyachilari F. Teylor, G.Ford, G. Emerson, A. Fayol, E. Meyolar katta hissa qo'shganlar. Masalan, o'z davrida Anri Fayol boshqarish – bu holatni ko'rish, kelajakni o'rganish harakat dasturini tuzishdir deb ta'kidlagan edi. Boshqaruv nazariyasi vakillarining qarashlari tahlili natijasida boshqaruvga quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin. Boshqaruv deganda – boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim o'rtasidagi rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirni tushunamiz.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ijtimoiy va iqtisodiy hayotda insonni shaxsiy va kasbiy sifatlarini, umumiy va maxsus ilmiy bilimlarining roli oshdi. Bu holat ta'lim sohasida inson faoliyati turli yo'nalishlarda rivojlanishini talab etdi. Ta'lim paradigmasi o'zgarib, yangi ta'lim mazmuni, ta'lim va tarbiyaning texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Axborot makonining kengayishi boshqaruvning yangi vositalarini, metodlarini, shakllarini rivojlanishini taqozo etdi. Ijtimoiy tizimlarni, jumladan, ta'lim tizimini boshqarishda inson omilining va ijtimoiy fanlarning roli oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bozor munosabatlarining qo'llanilishi – maktabni boshqarish nazariyasi rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Mutaxassislar «boshqaruv» va «menejment» tushunchalari orasida farq yo'q deb hisoblasalarda, menejment tushunchasidan foydalanishni afzal ko'radilar. Menejment - bu faoliyat turi, boshqaruv apparati, boshqaruv san'ati, o'quv predmeti ma'nolarida qo'llanilmoqda.

Menejment o'quv predmeti sifatida 1881-yilda Amerika kollejlarida Djozef Varton tomonidan o'qitila boshlangan. Bugungi kunda olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini ifodalashini ta'kidlamoqdalar. Dunyoda tan olingan amerikacha, fransuzcha va yaponcha menejment maktablari mavjud.

Amerikacha boshqaruvda – tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, tashkilotchilik, ishchanlik;

Yaponcha boshqaruvda – har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, ichki go'zallik;

Fransuzcha boshqaruvda—boshqaruv tizimini shakllantirish uchun insoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy, madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menejmentning asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

maqsadga yo'naltirilganlik va uzluksizligi;

- ilmiylikning san'at elementlari bilan uyg'unligi;
- markazdan boshqaruvning o'z-o'zini boshqarish bilan uyg'unligi;
- xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- huquq va mas'uliyat birligini ta'minlash;
- doimiylik va ketma-ketlik;
- harakatlarni nazorat qilish va boshqarish;
- shaxslararo munosabatlarni qonuniyat sifatida hisobga olish.

Pedagogik menejment – bu birinchidan, pedagogik tizim sifatini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillari, metodlari, shakllari va texnologik usullari yig'indisini, ikkinchidan, pedagogik jamoa va o'quvchilar faoliyatini ilmiy boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik menejment xususiyatlari ta'lim menejeri mehnatining natijasida, mehnat qurolida, mahsulotida, mehnat predmetida ifodalanadi.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati predmeti u boshqarayotgan odamlar faoliyatidir.

Mehnat xomashyosi – bu o'quv-tarbiyaviy jarayon to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat quroli – so'z, nutq.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati natijasi menejment obyekti, ya'ni o'quvchilarni ta`lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik darajasidir. Pedagogik menejment – pedagogik tizimning samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi.

Pedagogk tizimni boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatidir. Pedagogik tizimni boshqarishda davlat-jamoatchilik boshqaruviga erishish ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalarga ta'lim dasturlarini, ularning turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirish ahamiyatlidir.

Pedagogik tizimni boshqarishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi. Boshqaruv tamoyillari - bu boshqaruvda amal qilinadigan asosiy talab va qoidalardir. Tamoyillar boshqaruv qonuniyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruvni demaratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqarishning tizimliligi va yagonaliligi;
- boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi;
- boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi;
- boshqaruvning ilmiy asoslanganligi;
- boshqarishda ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligi.

Quyida ushbu tamoyillar mohiyatini ko'rib chiqamiz. Boshqaruvni demaratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish tamoyili. Pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish kadrlarni tanlov, shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish, axborotlarning barcha uchun ochiq, tushunarli bo'lishiga erishish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishlariga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq, manfaatlarini himoya qilish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z iste'dodlari, kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish esa pedagogik tizimni boshqarishning insonparvarlik tamoyiliga asoslanganligini bildiradi.

Boshqarishning tizimliligi va yagonaliligi tamoyili. Rahbar ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida ko'ra oladi, uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi uning yagonaligi hamda bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligi; ikkinchi belgisi tizim ichki tuzilishining mavjudligi; uchinchi belgisi tizimning integratsiyalanishi sanaladi (yagona tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lishi bilan birga o'zaro harakat orqali qaytadan integratsiyalanishi bilan yangi sifat hosil bo'ladi); to'rtinchi belgisi esa ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir (ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ta'lim jarayonini qayta quradi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashqi

muhitni o'ziga bo'ysundiradi). Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi tamoyili. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab-istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat, vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, birga boshqarishni markazlashtirilmaslik ham pedagogik tizim faoliyatini susaytiradi. Shu bois boshqarishni markazlashtirish va markazlashtirmaslik o'rtasida o'zaro uyg'unlikka erishish zarur. Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy hamda jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratib, kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi tamoyili.

Tamoyilning afzalligi ta'lim muassasasini boshqarishda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslik bilan belgilanadi. Boshqarish faoliyatida o'quvchilarning tajribalari, bilimlariga tayangan holda turli qarashlarni taqqoslash, oqilona xulosalar chiqarish muhim sanaladi. Vazifalarni jamoa yordamida hal qilish har bir a'zoning javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi. Shu bilan birga boshqaruvda yakkahokimlikning namoyon bo'lishi ham ma'lum afzalliklarga ega. Ya'ni yakka hokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi. Shu sababli qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul sanalsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish zarurdir. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri bu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

Boshqaruvning ilmiy asoslanganligi tamoyili. Ushbu tamoyil boshqaruv tizimini boshqaruv fanining so'nggi yutuqlari asosida tashkil etishni ifodalaydi. Rahbar pedagogik tizim va jamiyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini, qonuniyatlarini tushunishi va hisobga olishi zarur. Boshqaruvni ilmiy asoslanganligi tamoyiliga amal qilish pedagogik tizimni boshqarish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liqligiga va ishonchliligiga bog'liq.

Boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi tamoyili.

Ta'lim tizimini boshqarish samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq bo'lib, to'liq yig'ilsa-da, biroq ular haddan ziyod ko'p bo'lsa ham qaror qabul qilishda

yanglishishga olib keladi. Ko'p holatlarda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirishlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Biroq ularning qiziqishlari, xulq-atvorlari, shaxs sifatida shakllanayotganliklarga e'tibor berilmaydi. Xuddi shu sababli, tarbiya jarayonida o'quvchilar xulqida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.

Pedagogik tizimni boshqarish aniq metodlar yordamida amalga oshiriladi. Boshqaruv metodlari - bu ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidir. Ular quyidagicha tavsiflanadi:

Boshqaruv obyektiga ko'ra (Respublika miqyosida, hudud miqyosida);

Boshqaruv subyektiga ko'ra (administrativ, xo'jalik);

Maqsadiga ko'ra (strategik, taktik, operativ);

Ta'sir mexanizmiga ko'ra (ijtmoiy-siyosiy, tashkiliy-pedagogik);

Boshqaruv stiliga ko'ra(avtoritar, demokratik, liberal);

Boshqaruv vaqtiga ko'ra (istiqbolli, uzoq manzilli, joriy).

Boshqaruv shakllari turli tuzilish va yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Bularga: instruktiv-uslubiy va nazariy seminarlar, o'quvchilar jamoasi majlisi, pedagogik kengashlar, maktab konferensiyalari, pedagogik o'qishlar v.b.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risdagi qonunining 10-moddasiga muvofiq Respublika ta'lim tizimi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari; ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kabi subyektlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimining maqsadi – insonning ta'lim olish huquqini ta'minlash. Ushbu tizim faoliyatining samaradorligi mezoni bu fuqarolarni ta'lim olganlik va tarbiyalaganlik darajasi hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunga muvofiq, Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari quyidagi vakolatlarga egadilar:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish; ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish; ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga egalik qilish.

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

- davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta’lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;
- o‘quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’min etish;
- o‘quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablarining rioya qilinishi, ta’lim muassasasidan tashqarida ma’naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo‘yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo‘shatish;
- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;
- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullarini qo‘llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- ta’lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag‘lar, sarf-xarajat hisobini yuritish;
- ta’lim muassasasi me’yoriy hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishini ta’minlash;
- ta’lim muassasasi Pedagogik kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida hisob berib turish.

Ta’lim muassasasi direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan quyidagi vazifalar bajariladi:

- o‘quv haftasi va o‘quv mashg‘ulotlarining davomiyligini ta’minlash;
- dars jadvalini tuzib chiqish, jadvalga binoan darslarning o‘z vaqtida samarali o‘tkazilishini ta’minlash;

- har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish;

- yosh mutaxassislarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- sinf va guruh jurnallarini to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;

- o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ta'lim muassasasida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari, mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta'minlash;

- ta'lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish;

- ta'lim muassasasi o'quvchilarining sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;

- ta'lim muassasasidagi «Yoshlar yetakchisi»ning ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Ta'lim muassasasini boshqarish. Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra: Ta'lim muassasasining Nizomi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Nizomida muassasaning joylashgan o'rni, turi, ta'lim tili, guruh rahbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar, ota-onalarning huquq va burchlari, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi, xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi kabi ma'lumotlar yoritiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlar zaxirasini egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi;

ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash, masalalarni yecha olishga o'rgatish).

Shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchi, o'quvchilar, ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham alohida ajratilib ko'rsatiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavi quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

Ta'lim muassasasi haqidagi qisqacha ma'lumotlar.

Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.

Ta'lim muassasasini boshqarish:

a) ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;

b) pedagogik jamoa kengashi;

d) direktorning huquq va burchlari;

e) direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining huquq va burchlari;

f) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining huquq va burchlari.

O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:

a) ta'lim mazmunining davlat ta'lim standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;

b) o'quv jarayonini tashkil etish;

d) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;

e) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi;

f) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish;

g) kunlik ish tartibi (seminar, mashg'ulotlarning **davom etishi, tanaffuslar**, uy vazifalarini berish tartibi va h.o.).

O'qituvchining huquq va burchlari.

O'quvchining huquq va burchlari.

O'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ma'muriy hamda yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari.

Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim:

maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, unda o'qishga intilish hissini uyg'otish, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'lim oilalarda, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim:

- boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

- umumiy ta'lim (V-IX sinflar) kabi bosqichlarda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'lim 6-7 va 10-11 yoshli bolalarda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarga fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim berish, ularda o'quv-ilmiy, umummadaniy bilimlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatini, atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi ishlab chiqarishning birinchi bo'g'inidagi tashkilotchi va ish boshqaruvchilarni, oliy toifali mutaxassislarning yordamchilarini, yuqori ko'nikma, malakalarni talab qiluvchi ma'lum bir turdagi ishni mustaqil bajara oladigan, o'z ishining ustalari bo'lgan - texnik, agronom, boshlang'ich sinf va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, feldsher, stomatolog, konsertmeyster kabi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiy xarakterga egaligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishga majbur ekanliklarini anglatadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ixtiyoriy xarakterga egaligi esa umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining o'z xohishlariga binoan o'qish yo'nalishini - akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishni ixtiyoriy tanlash huquqiga egaliklarini bildiradi.

Akademik litseylar o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlariga ko'ra ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradigan, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Oliy ta'lim tizimida turli yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi hal qilinadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash oliy o'quv yurtlari (universitet, akademiya, institut va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalari)da amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqich (bakalavriat va magistratura)da tashkil etiladi.

Maktab har qanday ijtimoiy tashkilot sifatida ochiq turdagi murakkab tizim hisoblanadi. Alohida ta'lim muassasa sifatida maktab ta'lim tizimiga tegishli. Maktabning tashqi muhit bilan aloqasi ikki tomonlama

bo'lib, ya'ni maktab ijtimoiy muhitning ta'sirini sezgan holda jamiyatning rivojlanishiga o'zi ham ta'sir qiladi.

Ijtimoiy tashkilot sifatida ta'lim muassasasini boshqarishning o'zaro aloqador ikki tomonini ifodalovchi tashqi va ichki turlari mavjud.

Maktabni tashqi boshqaruv ta'lim tizimining boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi quyidagi vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi:

1.Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.

2.Maqsad qo'yish va rejalashtirish.

3.Tashkil etish.

4.Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.

5.Tartibga solish.

Pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

- kundalik tahlil;
- tizimli tahlil;
- yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablarini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritiladi. Bu turdagi tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirishlari, intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarlarining darsga va sinfdan tashqari darslarga qatnashishlari, maktabning tozalik holati, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib boorishlari, ularning pedagogik madaniyatlarini oshirish, ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshirilib, asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy hamda oraliq nazorat yakunlari, fan o'qituvchilarining, sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirishning quyidagi shakllari mavjud:

- muddatli (perspektiv) rejalashtirish;
- yillik rejalashtirish;

- yakuniy rejalashtirish.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so'nggi yillarda ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

Muddatli rejada quyidagi masalalar aks etadi:

Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar.

Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari.

Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.

Ta'lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo'yilgan talablar.

Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.

Ta'lim muassasasini tashkiliy-texnik va o'quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko'rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko'lamini rivojlantirish.

O'qituvchi va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi ta'tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

Yakuniy rejalashtirish bir yillik rejaning aniqlangan ko'rinishi bo'lib, u o'quv choraklari uchun tuziladi. Rejalashtirishning bunday aniqlangan ko'rinishi o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar qo'mitasi faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bunday rejalashtirish o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi.

Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllariga Pedagogik kengash, metodik kengash, Vasiylik kengashi, direktor huzuridagi majlis, metodik seminarlar v.b. kiradi. Pedagogik kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi sanaladi.Pedagogik kengash maqsadi o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahoratlari, ijodkorlik darajalarini oshirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtirishdan iborat.

Pedagogik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) faoliyatiga oid muhim hujjatlarni muhokamadan

o'tkazadi, tasdiqlaydi va ularda belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi;

- ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

- ta'lim muassasasida o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l- yo'riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

- ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

- o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

- o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga oid barcha masalalarni o'z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash;

- ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga (kursdan-kursga ko'chirish), bituvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish;

- ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;

- chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;

- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasi.
2. Kengash bayonnomasi yoziladigan muhrlangan daftar.
3. Kengash materiallari.
4. Hisobot.

Talim muassasasining ichki boshqaruvi. Pedagogik kengash faoliyatiga ta'lim muassasasining direktori (oliy o'quv yurtlari direktor) rahbarlik qiladi.

Metodik kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borilishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organ sanaladi.

Metodik kengash faoliyati «Umumiy o'rta ta'lim maktabi metodik kengashi to'g'risida»gi Nizomda o'z aksini topadi.

Metodik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi;

ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

ta'lim jarayonida qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqib, ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi, tegishli tadbirlarni belgilaydi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

pedagogik xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

ta'lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasi.
2. Kengash yig'ilishi bayonnomasi.
3. Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar.
4. Ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar.

Pedagogning uzluksiz kasbiy ta'limi ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Malaka oshirish xodimning murakkab mehnat vazifalarini bajarishga tayyorgarligiga yo'naltirilgan, qo'shimcha kasbiy ta'lim sifatida tushuniladi. U yangi umumnazariy va maxsus texnologik bilimlarni o'zlashtirishni, fan va texnologiya orasidagi bog'liqliklarni chuqur tushunishi, ko'nikma va malakalarni ortishini ifodalaydi. Malaka oshirish bir vaqtning o'zida kasbiy mehnatni shakllantirishga yo'naltirilgan ilg'or tajribalarni o'zlashtirish shaklidir.

Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish. Ta'lim jarayonining sifati har jihatdan o'qituvchilarning g'oyaviy-**nazariy**

jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog'liqdir. Ana shu maqsadda ta'lim muassasasida Metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. **Metodik Kengash** ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatmi ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi. ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berisbni amalga oshiradi;

o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariv bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida qo'llashi uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga asosan Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

pedagogik xodimlarning attestasiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

ta'lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlar, bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalarining 1-bosqichi, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika Kengashi yig'ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi: ish rejasi, Kengash yig'ilishi bayonnomasi, Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar, ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar, yillik hisobot.

Metodika birlashmalari va ularning faoliyatini tashkil etish. Ta'lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha Metodika birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. Metodika birlashmalarining maqsadi o'qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan hozirgi zamon talablarining bajarilishini ta'minlash borasida o'zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodika birlashmalari o'zida Metodika Kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga Metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradi:

fanlar bo'yicha taqvim-mavzu rejalarini tasdiqlashga tavsiya etish;

oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash;

ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va ommalashtirish;

tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va mutaxassislarga amaliy yordam berish;

ta'lim metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish,

ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish;

yosh mutaxassislarga metodik yordam berish; ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish;

fan xonalarining me'yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida metodika birlashmalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitta, V-XI sinflarda esa o'quv rejasidagi alohida fanlar bo'yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch nafardan kam bo'lsa, u holda fan o'qituvchilari shu turkumdagi fan o'qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodika birlashmasiga birlashadilar,

Metodika birlashmasiga ta'lim muassasasi Pedagogika Kengashi qaroriga. Asosan, ijodkor va tajribali o'qituvchilardan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmalarining faoliyati quyidagi hujjatlar asosida tartibga solinadi: ish rejasi, Birlashma a'zolari haqidagi ma'lumotlar, Birlashma faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar, Birlashma yig'ilishi bayonnomalari, hisobotlar.

Ta'lim sifati monitoringi. Monitoringning maqsadi va vazifasi. Monitoringni jamiyat va ta'lim tizimini ishonchli, yetarlicha to'liq va foydalanish darajalari bo'yicha farqlangan ma'lumot bilan ta'minlash uchun ta'lim sifatining eng muhim xususiyatlari, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va izohlash to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda to'plash tizimi deb tushunish kerak. Ta'lim jarayonlari va natijalarining me'yoriy talablarga, doimiy o'zgarishlarga va bashorat qilinayotgan tendensiyalarga muvofiqligi to'g'risida. Boshqacha qilib aytganda, monitoring – bu obyektning holati tarixini o'z vaqtida yaratish, ta'lim subyektlari va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni miqdoriy baholash, aniqlash va aniqlashga imkon beradigan ta'lim jarayoni va uning natijalarini standartlashtirilgan kuzatuv, ularning rivojlanish yo'nalishlarini bashorat qilish. Monitoring tizimini yaratishning asosiy maqsadi - ta'lim sifatini oshirish .

Monitoring tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: o'quv jarayoni obyektlari va subyektlari, ta'lim sifat ko'rsatkichlari to'plarni, vositalar, ma'lumot to'plash uchun ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va talqin qilish usullari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari. Ta'limdagi monitoringning

yetakchi funksiyalari quyidagilardir: axborot, diagnostika, qiyosiy va prognostik. Monitoringni amaliy qo'llashning asosiy sohasi turli xil usullar, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy aralashuv bilan amalga oshiriladigan ta'lim sifatini boshqarishni axborot bilan ta'minlashdir.

Monitoring tizimida to'plangan ma'lumotlardan o'qitish metodikasidagi kamchiliklar, o'quv dasturlari mutanosibliklarining buzilishi, maktab darsliklari mualliflarining noto'g'ri hisob-kitoblari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash uchun foydalanish mumkin. Bu olib borilayotgan ta'limdagi yangiliklar natijalarini baholashga yordam beradi (shtat, viloyat, tuman yoki alohida maktab ichida). Monitoring ma'lumotlari maktab rahbarlari va o'qituvchilarini o'z faoliyatini yaxshilashga va o'quv jarayoni natijalari uchun mas'uliyatni oshirishga hissa qo'shadi.

Monitoringning afzalliklari va kamchiliklari. Monitoring ko'rsatkichlari to'plami har doim mamlakat hukumati va boshqa ta'lim organlari tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning umumiy tendentsiyalariga mos keladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va tavsiflovchi statistik ma'lumotlarni to'plash nafaqat ta'lim uchun muhim, balki siyosiy ma'noga ham ega.

Ta'lim tizimining holatini tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan ta'lim islohotlariga bo'lgan ehtiyojni namoyish qilish, avvalgi rahbariyatning ta'lim sohasidagi sustligi dalili yoki davlatda olib borilayotgan islohotlarning afzalliklarini ko'rsatish uchun foydalanish mumkin. Monitoring tizimlarining ayrim tanqidchilari tahlilchilar o'zlari yetkazishlari kerak bo'lgan ma'lumotni ataylab maqsad qilib olishmoqda, bu ta'lim sohasidagi siyosat maqsadlariga bog'liq va ta'lim natijalari ustidan ta'lim organlari tomonidan markazlashgan nazoratni kuchaytirishga yordam beradi, deb ta'kidlaydilar.

Monitoring ma'lumotlarini maktab, tuman yoki mintaqa darajasida o'rnatilgan ba'zi bir standart ballar yoki test natijalari standartlari bilan taqqoslaganda, manipulyatsiya qilish qiyin bo'ladi. Bunday taqqoslash har bir maktabning tuman bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan darajasini oshiradigan qo'shimcha omillarni hisobga olgan holda monitoring ma'lumotlari statistik jihatdan tuzatilgan taqdirda oqilona natijalar beradi.

Monitoring ko'plab kundalik diagnostika vazifalarini hal qilishga imkon beradi. Maktab monitoringida to'plangan ma'lumotlar fanlarning ayrim bo'limlarini o'zlashtirishdagi tizimli qiyinchiliklarni aniqlashga, o'qituvchilar ishining innovatsion usullari samaradorligini baholashga, ayrim o'quvchilarning muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tashxislashga,

ularni predmetli, ijtimoiy-iqtisodiy yoki boshqa omillar. Umuman olganda, maktabni monitoring qilish tizimi o'quv tizimining kuchli va zaif tomonlari haqida mulohazalarni taqdim etadi.

Samarali monitoring o'tkazish uchun shartlar. Monitoring bo'yicha mutaxassislar uning samaradorligi uchun bir qator shartlarni belgilaydilar, jumladan:

- yig'ish mexanizmining yaxshi muvofiqlashtirilgan ishini ta'minlash uchun tizimli yondashuvdan foydalanish; axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va talqin qilish;
- monitoringda miqdoriy va sifat jihatidan o'lchash usullarining kombinatsiyasi;
- turli xil omillarni hisobga olgan holda, shu jumladan, ta'lim natijalariga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan monitoring ko'rsatkichlarining vakili to'plami;
- turli xil ta'sirlarni va ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda monitoring ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilish;
- monitoringda ishtirok etadigan talabalar populyatsiyasining vakolatliligi;
- monitoringga malakali mutaxassislar va maktab o'qituvchilarini jalb qilish;
- monitoring ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun yuqori sifatli vositalar va zamonaviy dasturlardan foydalanish;
- ta'lim organlari tomonidan uslubiy va moliyaviy yordam

NAZORAR UCHUN SAVOLLAR

1. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha bering.
2. Ta'lim muassasasini boshqarish nimalardan iborat?
3. Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat haqida gapiring.
4. Talim muassasasining ichki boshqaruvi haqida tushuncha bering.
5. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish nimalardan iborat?
6. Ta'lim sifati monitoringi haqida tushuncha beringg.

22-MAVZU. XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (FOR. THE IA, PISA, PIRLS, TIMES, ISILS)

Xalqaro baholash dasturlarining me'yoriy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro bahołash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati

va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring

TALIS – o'qitish va o'rganish xalqaro tadqiqoti kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

PIRLS – Progress in International Reading and Literacy Study 7-4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TALIS turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan.

TALISning vazifalari quyidagilar:

- pedagogning ijtimoiy mavqeini oshirish;
- pedagogika mutaxassisligi uchun iqtidorli yoshlarni tanlash;
- o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish;
- moderator o'qituvchilarni tanlash;
- uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirish;

Teaching and Learning International Survey. Xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqotni quyidagi vositalar yordamida amalga oshiradi:

1.O'quv topshiriqlaridan iborat test to'plami.

2.O'quvchilar uchun o'zi tahsil olayotgan ta'lim muassasasi haqida anketa savollari.

3.Maktab rahbarlari uchun o'zi pedagogik faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasi haqida anketa savollari.

4.Test va anketa savollarini o'tkazayotgan rahbar uchun anketa savollari.

5.Ta'limni boshqarish organlari xodimlari uchun anketa savollari.

6.Test topshiriqlarini tayyorlash va olingan natijalarni matematik statistik tahlil qilish yuzasidan ko'rsatmalar.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o'qish, o'zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o'quv fanlari bo'yicha o'quv va nostandart adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o'qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish;

Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so'rovnomasini tayyorlash va online tizimi vositasida aniqlash;

Pedagog kadrlar tomonidan o'zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o'z-o'zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish zarur

Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish, tabiiy, matematik savodxonligini baholash, o'quvchilar savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalashtirish, PISA va PIRLS tadiqotlarida o'quvchilar savodxonligini baholashning tamoyillari, maqsadlari, shakllari yuzasidan treninglar olib borildi.

Shuningdek, barcha sho'balarda PISA 2021 tadqiqotida o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholash bo'yicha ham ma'lumotlar berilib, PISA va PIRLS xalqaro dasturlari topshiriqlari yuzasidan amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat

O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya’ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi?

Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi.

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.Xalqaro baholash dasturlari.

PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi.

PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot.

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.

ICILS – kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo‘llanilmoqda.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi. PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur

PISA *(inglizcha – Programme for International Student Assessment)* – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan.

PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.

PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 6 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

1.Tadqiqot yo'nalishlari.

2.O'qish savodxonligi.

3.Matematik savodxonlik.

4.Moliyaviy savodxonlik.

5.Kompyuter savodxonligi.

6.Tabiiy-ilmiy savodxonlik.

Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kelgusi vazifalar quyidagilar:

O'qish (ona tili), matematika va tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan samarali foydalanish.

Tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish.

Fizika, kimyo va biologiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni (laboratoriya, masalalar yechish) yanada samarali tashkil etish.

Sinfdan tashqari fan to'garaklarida o'quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzularda mashg'ulotlar olib borish.

O'quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini yaratish va joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarda muntazam ravishda qo'llash.

Aniq, tabiiy va filologiya yo'nalishdagi tayanch maktablari seminarlarida xalqaro baholash dasturlari, ularda foydalanadigan topshiriqlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish.

Umumta'lim maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, internetdan foydalanish imkoniyatini va sifatini yaxshilash. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutahassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tashkilot. 2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn

mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi.

O'qituvchilar so'rovnomasi o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi.

Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori

natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi.

Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring. ***TMSS*** - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda.

TMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4-sinf va 8-sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi.

2015-yil TMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnogiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999-yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligii inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan.

Umuman olganda, mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning "Milliy dasturi" yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda.

Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi.

Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlarida O'zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o'rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta'minlash;

2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning **"Milliy dasturi"**ni yaratish;

3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko'rib chiqish;

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta`lim–tarbiya berishga mas'ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo'yish va bolalarning umumiy ta'limga yo'naltirilishida butunlay mas'ulligini qonun bilan belgilab qo'yish;

5. Maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilab qo'yish;

6. Psixologik testlar yordamida boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish.

ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tashkilot

Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini o'rganish (ICILS) - IEA tomonidan tashkil etilgan tadqiqot. Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlaridagi 8-sinf o'quvchilarining kompyuter va axborot savodxonligi darajasini taqqoslash hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga imkon beradi.

ICILS tadqiqotini Xalqaro ta'lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi (IEA) (www.iea.nl) 2013 yildan beri har besh yilda bir marta o'tkazib keladi. Tadqiqotning maqsadi 8-sinf o'quvchilarida IT-kompetensiyalarining shakllanish darajasini baholashdir. Tadqiqot savollarga javob berishga yordam beradi: maktab ta'limi maktab o'quvchilarining IT-kompetensiyalarini shakllantirishga qanday hissa qo'shadi va bolalarda IT-ko'nikmalarini rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi. Ilmiy-tadqiqot topshiriqlari yetakchi xalqaro ekspertlar va ishtirokchi mamlakatlar ishtirokida ishlab chiqiladi.

ICILS testi to'liq avtomatlashtirilgan. Ishtirokchilar test modullarini kompyuterda bajaradilar. Vazifalar yopiq tizim tamoyili asosida qurilgan. Ishtirokchi boshqa manbalarga kirish imkonisiz maxsus yaratilgan muhitda ma'lumotlarni qidiradi, qayta ishlaydi va uzatadi. Anketa so'rovida fan o'qituvchilari, IT koordinatorlari va maktab direktorlari qatnashadilar. Tadqiqotda ishtirok etadigan mamlakatlar, shuningdek, ta'lim siyosati va tashabbuslari, infratuzilma manbalari va o'qituvchilarning IT-kompetentsiyalarining professional darajasi to'g'risida ma'lumot beradi. Kontekstli milliy so'rovnoma maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlari darajasiga ta'limi bo'yicha IT siyosati va amaliyotining ta'sirini omilli tahlil qilish uchun ishlatiladi. Tadqiqotda alohida o'quvchilar, maktablar, o'qituvchilar, maktab direktorlarining muvaffaqiyatlarini baholash nazarda tutilmagan. To'plangan ma'lumotlar, aniq respondentlarni aniqlamasdan, umuman ta'lim tizimlarini nazorat qilish imkonini beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Xalqaro baholash dasturlari haqida ma'lumot bering.

2.O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi haqida ma'lumot bering.

3.Kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot haqida ma'lumot bering.

V BOB. KORREKSION PEDAGOGIKA

23-MAVZU. KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion pedagogika fani bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan.

"Korreksion pedagogika" so'zi lotin tilida korreksiya – "tuzatish", degan ma'nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomal so'zidan olingan). Hozirgi kunda chet davlatlarda ushbu bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar deb ham yuritiladi.

Korreksion pedagogika fanining mavzui bahsi anomal bolalardir. Korreksion pedagogika nisbatan yosh fan. Atoqli psixolog L.V.Zankov, L.S.Vigotskiylar 1935-yildan hamkorlikda ishlay boshladilar. Ular anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdilar. L.S.Vigotskiy «Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolaga nafaqat «salbiy», balki «ijobiy» tomonlarini o'rganib, aniqlab shularga tayangan holda va potensial imkoniyatlarini inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

O'zbekistonda Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967-yildan boshlab tezlashdi. Chunki shu yili Nizomiy nomidagi TDPI ning Pedagogika va psixologiya fakultetida Oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. 1972-yilda oligofrenopedagogika kafedrasi o'z faoliyatini boshladi. 1983-yilda surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984-yili esa mustaqil kunduzgi va sirtqi Korreksion pedagogika fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika va logopediya, Korreksion pedagogika fanining klinik asoslari va surdopedagogika kafedralari qo'shilib, Maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, o'z faoliyatini Pedagogika va Korreksion pedagogika fakultetida amalga oshirmoqda.

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: surdopedagogika (lotincha, surdus- kar, gung so'zidan olingan), eshitishda nuqsoni bo'lgan

bolalarning ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; tiflopedagogika (yunoncha tiflos - ko'r, so'qir so'zidan olingan), ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha-oligos kam, fren-aql so'zlaridan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; logopediya (yunoncha logos-so'z, padeo-tarbiyalash so'zlaridan olingan) - og'ir nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Korreksion pedagogika fanining vazifasi - anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi - differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish, anomal bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korreksiyalash, tuzatish, ko'zga ko'rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo'llari, usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish usullarini tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdir. Anomaliyalarning xarakteriga qarab, ba'zilari to'liq bartaraf etiladi, ba'zilari korreksiyalanadi, ya'ni qisman tuzatiladi, boshqalari esa kompensatsiya etiladi, ya'ni almashtiriladi. Agar bola nutqida qo'pol kamchilik bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa, (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi). Uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham korreksiyalab ham bo'lmaydi. Masalan, tug'ma ko'rlik va tug'ma karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasi sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasi esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf oltita nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa, imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Anormal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Bola dunyoga kelgan kunlardan boshlaboq ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini,

og'riq, issiq, hid va tamni his etadi. Tevarak atrofdagi borliqni bilish, sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va h.k. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, o'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi. Bola turli taassurotlar olib turishi, buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy protseslar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruhiy prosseslar, idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bola nutqining rivojlana boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan eshitganlari asosida borliqqa va tevarak atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlariga, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi kishilarga bo'lgan munosabati – bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida va xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektalogiya fanida anomal bolalarning turli xil kategoriyalari ustida ish olib boriladi: eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (tug'ilishdan kar-soqov, qulog'i og'ir bolalar, keyinchalik qulog'i og'ir bo'lib qolgan bolalar); ko'rish qobiliyati zaif (ko'r-ko'zi xira bolalar); ko'r-kar-soqov bolalar; oligofren (debil, imbesil, idiot bolalar); og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar; harakat tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar; ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar. Anomal bolalar maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni anomal bolalar deb hisoblashiga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsa-yu bu nuqson har tomonlama

rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, umumiy maktab programmasini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u anomal bolalar qatoriga kirmaydi.

Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas. Anomal bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur. Har qanday anomal rivojlanish markaziy va periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya ta'lim natijasida paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga nisbatan noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsada, biz bunday bolani anomal bolalar kategoriyasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin biror organik yoki funksional patalogik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay balki boshqa sabablardan kelib chiqqan. Tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni anomal bolalardan farqlay oladigan bo'lishi kerak. Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan homilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikasiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilib-bilmas iste'mol qilishi bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin. Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish-ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikni nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi. (Daun kasalligi, rezus faktorning to'g'ri kelmasligi va boshqalar). Ota-onalarning alkogolizm, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakum-ekstraktor yoki ombur solinishi bolaning kindigi o'ralib bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Boalning juda yoshligida kasalliklar bilan og'rishi masalan, miningit, miningoensifalet, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarini boshdan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmoqda. Bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekiston Respublikasida aholini davolash profilaktika yordamida kengaygani ham meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi.

Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolishi hodisalariga tamomila deyarli barham berildi. Irsiy omillar hamda intoksikasiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolishi hollari hali ham uchrab turadi.

Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar. Homilaning ilk rivojlanish davrida, tug'ilishida yoki chaqaloqlik davrida mexanik shikastlanish ko'p hollarda lokal (sezgi, harakat, nutq, eshitish) yoki diffuz (psixik faoliyatdagi buzilishlar) holdagi buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Surunkali somatik kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalarda miya faoliyatining funksional dinamik buzilishlar jarayonida jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlar kelib chiqadi. Ba'zida neyroinfeksiyalar ta'siridan, bosh miya shikastlaridan, oiladagi notinchliklar oqibatida yuzaga keladi. Asab tizimining surunkali quvvatsizlanib borishi natijasida ruhiy faollik susayib, bola tez charchaydigan, biron bir faoliyat bilan band bo'lganda, tinka madori qurib oxiriga yetkaza olmaydi. Dars davomida uxlab qolishlik, diqqatni bir joyga to'play olmaslik holatlari kuzatiladi. Nutqida, eshitishida nuqsoni bo'lgan astenik bolalar darsda o'qituvchi berayotgan ma'lumotlarni to'la eshita olmaydi, eshitgan taqdirda ham chala eshitib, o'tilgan mavzudan to'la-to'kis qoniqish ololmaydi. Shu sababli, o'qituvchining bergan savoliga tavakkal javob beradi. Bolalarni maktabga qabul qilayotganda bunday nuqsonlarga ahamiyat berilmaydi, ota-onalar esa bu nuqsonlarni berkitishadi. O'qituvchidan doimiy tanbeh olish, sinfdoshlarning kalakasi, kamsitilishlar, qulog'i

og'ir bolalarda maktabga nisbatan ishtiyoqi yo'qolishiga olib keladi. Bunday bolalarga tibbiy pedagogik qarov zarur bo'ladi. Qulog'i og'ir ekanligini hisobga olib uni oldi partaga o'tkazish lozim, balandroq ovozda gapirish, sinfdoshlariga esa, qulog'i og'ir bolalar bilan qanday muomala qilish zarurligi to'g'risida tushuntirish pedagoglar zimmasiga yuklatilishi zarur. Astenik holatning buzilishi ko'p holatlarda maktabga nutqi buziq bolalarni qabul qilganda yuzaga keladi. Pedagoglar bunday bolalarni logopedga murojaat etishlari lozim.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sust rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy asab tizimidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan yengil patalogik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan 2 guruhga bo'linadi:

Yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lim-tarbiya olganlardan so'ng, o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfida davom ettirishlari mumkin.

Ruhiy jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular o'rta maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

Konssitutsional.

Somatogen.

Psixogen.

Serebral shakli.

Konssitutsional xilini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarnikiga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi. 7 yashar bola o'zini 5 yashar bolaga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali «yetilmagan» bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, unda o'qishga qiziqish yo'qaladi, ish qobiliyati pasayadi.

Somatogen xilida surunkali infeksiyalar, allergik holat, tug'ma porok va shu kabi kasalliklar, ayniqsa, tez uchrab turganligi tufayli bolada asteniya holati kuzatiladi. Bola o'z kuchiga ishonmaydigan, tez charchaydigan, injiq, qo'rqoq bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi.

Psixogen xilida bola noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi. Natijada u ham ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilib qoladi. Psixogen xilida bolalarning 50% da asab tizimida organik jarohatlanish

kuzatiladi, shuning uchun u nisbatan turg'un bo'ladi. Bu narsa bolaning bilish faoliyati, his-tuyg'ulari, irodaviy holatlarining rivojlanmasligiga olib keladi, organik infantalizm kuzatiladi. Bola yo ko'tarinki ruhda, o'zidan yosh bolalarga o'xshab yoki aksincha kayfiyati past bo'lib, mayus tortib yuradigan, ishni mustaqil hal qila olmaslik tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differensial ta'limga jalb etilishi kerak.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra: tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin, singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi – bituvi).

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishi dagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoen-sefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarning keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi asab tolalarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriya-siga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin

unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'lik buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3-6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1-3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali, qulog'i zaif, eshitishdanuqsoni bor bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan – gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish – o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjahl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart- sharoitlar yaratish talab etiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va kasb-hunar kollejlarida maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi hamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umumta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi - sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning «maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat.

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarning o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda nutqiy materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo'ladi, ya'ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Har bir dars uchun nutqiy materiallar korreksion-kommunativ tizim tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda (o'quvchilarning eshitish, talaffuz qilish imkoniyatilariga mos, talaffuzi yaqqol va eshitilish diapazoni yengil, oddiydan murakkabga, noo'xshashlikdan – o'xshashlikka boruvchi tartibda) tanlanadi va tayyorlanadi.

So'zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya'ni maktabda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyat-

larda mustahkamlanishi va o'quvchilar amalda (erkin, qo'rqmasdan, uyalmasdan) qo'llashlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida anormal bolalarning ijtimoiy holati. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 23-moddasiga ko'ra rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar ta'lim olish huquqiga ega.

Bizning mamlakatimizda anomal bolalarga yordamni tashkil etish, inson haqida g'amxo'rlik ko'rsatilishining yorqin namunalaridan biridir.

O'zbekistonda anomal va nogiron bolalarga yordam uch vazirlik qoshidagi muassasalarda tashkil etilgan. Xalq ta'limi vazirligi qoshida ular uchun uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, maktab-internatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyalashgan ta'limga jalb etilmoqdalar. Differensial ta'limni tashkil etish ishlari maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida, jumladan, nutqiy, yordamchi, ruhiy rivojlanishi sust, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi bolalar bog'chalarida amalga oshirilmoqda. Maktab yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar uchun barcha turdagi maxsus maktab internatlar, jumladan aqli zaif bolalar uchun mehnat ta'limi maktab-internatlari, zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internat, harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, kar bolalar uchun, ko'zi ojiz bolalar, og'ir nutq nuqsonli bolalar uchun, ruhiy rivojlanishi sust bolalar uchun maktab internatlari; aqlan zaif bolalar uchun kuni uzaytirilgan maktablar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Umumta'lim maktablarida bunday bolalar uchun sinflar ham tashkil etilgan. Boshlang'ich maktabda ruhiy rivojlanishi sust bolalar uchun tenglashtiruvchi sinflar, og'ir nutqiy nuqsonli bolalar uchun nutqiy, aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar tashkil etilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida alohida yordamga muhtoj bolalar uchun mehnat maktablari, kasb-hunar kollejlarida alohida guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda. Yengil darajadagi nutqiy nuqsonli bolalar uchun o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida logopedik punktlar ishlab turibdi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida anomal bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maxsus psixonevrologiya sanatoriylari, statsionarlar bor, poliklinikalarda surdologik, logopedik kabinetlarda mutaxassis-defektologlar tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda tegishli ishlarni olib bormoqdalar. Aqliy jihatdan og'ir nuqsonlari bor (imbetsil, idiot) bolalar tug'ilganidan to to'rt yoshgacha sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi muassasalarda davolanadi va tarbiyalanadi.

Mehnat va aholini muhofaza qilish vazirligiga qarashli muruvvat uyida murakkab nuqsonli anomal bolalar tarbiyalanadilar. Bu uylarga maktabgacha yoshdagi bolalar (4 yoshdan 7 yoshgacha), maktab yoshidagi bolalar (7 yoshdan 18 yoshgacha) va kattalar (18 yoshdan umrining oxirigacha) qabul qilinadi,

Uzluksiz ta'lim tizimida hamma yosh guruhlardagi alohida yordamga muhtoj bolalar o'qishga jalb qilinadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanadilar.

Maktab yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar, masalan, zaif ko'ruvchi bolalar ko'zi ojiz bolalar maktabida 9 yillik umumiy ta'lim maktab dasturini 11 yilda o'zlashtiradilar. Har bir sinfda 12 tadan bola ta'lim oladi. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan aqliy qoloq bolalar uchun maxsus maktab-internat qoshida yordamchi sinflar tashkil etilgan. Ushbu turdagi muassasada tibbiy oftalmologik hamda korreksion pedagogik kompensatsiya ishlari olib boriladi. Ko'rlar maktabida umumiy ta'lim maktablarining Brayl sisemasi bo'yicha nashr etilgan darsliklar ishlatiladi. Zaif ko'ruvchi bolalar maktablarida umumiy ta'lim maktablarining yirik harflar bilan nashr etilgan darsliklari asosida ish olib boriladi, maxsus chiziqli daftarlar ishlatiladi.

Ko'r bolalar uchun tashkil etilgan maktab internatda bolalar 11 yil ichida 9 yillik umumiy ta'lim maktab dasturini o'zlashtirib, so'ngra xohlovchilar o'qishini kechki, maxsus maktabda davom ettirishlari mumkin. 11-sinf o'quvchilari davlat imtihonlarini topshirgach 9 yillik ma'lumot to'g'risida guvohnoma oladilar. Ushbu maktablarda xalq xo'jaligi uchun malakali ishchilar tayyorlash, kasbga yo'naltirish ishlari ham olib boriladi. Mehnat ta'lim darslarida 5-7 o'quvchi, umumiy ta'lim darslarida esa taxminan 12 bola qatnashishi kerak. Debil darajasidagi kar bolalar maxsus tashkil etilgan yordamchi sinflarda ta'lim oladilar. Bu sinflarda bolalar soni 7-8 kishidan ortmasligi kerak. Zaif eshituvchi bolalar uchun tashkil etilgan maktab internat ikki bo'limdan iborat bo'lib, amaliy nutqqa ega bo'lgan bolalar, ya'ni gapira oladigan bolalar birinchi bo'limda, juda qiyinchiliklar bilan noaniq gapiradigan bolalar ikkinchi bo'limda ta'lim-tarbiya oladilar. Birinchi bo'limda o'qish muddati 10 yil, ikkinchi bo'limda esa - 11, 12 yil. Har bir sinfda 12 tadan bola o'qishi lozim. Aqlan zaif eshituvchi bolalar 7-8 kishidan iborat bo'lgan maxsus sinfda ta'lim oladilar.

Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar uchun xalq ta'limi qoshida maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallab, nutqiy bog'chalar yoki bolalar bog'chalari qoshida nutqiy guruhlar tashkil etilgan. Bu turdagi maktab-

gacha tarbiya muassasalarining asosiy vazifasi nutq kamchiliklarini iloji boricha barvaqt aniqlab bularni bartaraf etish va shu yo'l bilan og'ir nutq nuqsonlarining odini olish, ikkilamchi asoratni bartaraf etish va bolani me'yorda rivojlangan tengqurlari orasida maktabda o'qishga tayyorlash.

Maktab yoshidagi logoped, ya'ni nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ommaviy umumiy ta'lim maktablarida logopedik punktlar tashkil etilgan. Logopedik punktga tumandagi bir necha maktabdan taxminan 25 ta sinf biriktiriladi. Logoped biriktirilgan sinf o'quvchilarini tekshirib, logopedik yordamga muhtoj bolalarni saralab oladi, shuningdek, ularni poliklinika yo'llanmasi bilan yoki maktab o'qituvchilari, ota-onalar iltimosi asosida tekshirib qabul etadi. Nutq nuqsonlarining turiga qarab guruhli va individual mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlarga bolalar kunora, haftasiga 3 martadan, to nuqson to'liq bartaraf etilmaguncha qatnayveradilar.

Og'ir turdagi nutqiy kamchiliklar tufayli maktab darslarini o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar maxsus nutqiy sinf yoki maktablarda ta'lim oladilar.

Bunday bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktab-internatlar ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda nutqning rivojlanishi keskin orqada qolgan lilik, afazik, dizartrik, rinolalik, aleksik, agrafik, tutilib gapiruvchi logopat bolalar, ikkinchi bo'limda esa 9 yil o'qish muddatida nisbatan nutqiy rivojlanishi me'yorda, biroq tutilib gapiruvchi bolalar ta'lim oladilar.

Ushbu maktab-internatga bolalar shifokor-mutaxassis diagnozi hamda tibbiy pedagogik maslahat komissiyaning yo'llanmasi bilan qabul qilinadi. Maxsus bog'chalarga qatnamagan, nutqi rivojlanmagan bolalar tayyorlov sinflariga qabul etiladilar.

Maxsus maktabda bolalarga umumta'lim 9 yillik maktab dasturi hajmidagi bilimlar beriladi. Har bir sinfda 12 kishi o'qiydi. Pedagogik kengash qarori bilan nutqiy kamchiliklari bartaraf etilgan o'quvchilar oddiy ommaviy maktabning tegishli sinflariga o'tkaziladi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshida aqlan zaif bolalar uchun maxsus yordamchi maktabgacha tarbiya muassasi tashkil etilgan bo'lib, bu yerga bolalar 4 yoshdan qabul etiladi va 7 yoshga to'lganlarida maxsus yordamchi mehnat ta'limi maktablariga yuboriladi. Ushbu bog'chalarni tashkil etishdan maqsad, aqli zaif bolalar bilan ertaroq korreksion tarbiyaviy ishlarni boshlash va aqli zaiflik natijasida paydo bo'ladigan ikkilamchi psixik qo'shilmalarni oldini olish, bolalarni yordamchi maktab dasturini o'zlashtirishga tayyorlashdir. Bunday chora- tadbirlar alohida

yordamga muhtoj bolalarni saralab, ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limga jalb etishga ham yordam beradi.

O'quv kuni uzaytirilgan yordamchi mehnat ta'limi maktablarida aqlan zaif bolalarga 9 yil ichida maxsus dastur va darsliklar asosida umumta'lim beriladi hamda kasb-hunarlar o'rgatilib, ularni mustaqil hayotga hamda maxsus mehnat maktabiga tayyorlash ishlari olib boriladi. Yordamchi maktablarda barcha ishlar korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi maktabning o'quv rejasida mehnat darslariga eng ko'p vaqt ajratilgan bo'lib, mehnatning sodda turlari bo'yicha o'quvchilarga malaka beriladi. (duradgorlik, slesarlik, tikuvchilik, chorvadorchilik, kartonaj ishlari bo'yicha mutaxassis va h.k.).

Mehnat darslarida 8-10 bola, boshqa darslarda esa bir sinfda 12- 16 boladan oshmasligi kerak. Maktabda barcha ishlar maxsus aqli zaif o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tuzilgan dastur va darsliklar asosida olib boriladi. Mehnat ta'limi maktabida murakkab fanlar (fizika, kimyo, geometriya, trigonometriya, algebra va h.k.) o'quv rejaga kiritilmagan.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun ham maxsus maktab- internatlar tashkil etilgan. Bu turdagi maktablarda o'quvchilar 11 yil ichida o'rta maktab dasturini o'zlashtirib, ma'lum kasb egasi bo'lib chiqadilar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Korreksion pedagogika pedagogika fanlarining qanday tarmog'i hisoblanadi?
2. Anormal bolalar va ularning rivojlanishi haqida ma'lumot bering?

24-MAVZU. INKLYUZIV TA'LIM

Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari va tamoyyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari. O'zbekistonda nogironlik tibbiy va xayriya modellarining birlashuvidan kelib chiqqan holda belgilanadi: «nogiron odam – o'zining jismoniy yoki aqliy zaifliklari oqibatida ishlashi cheklanganligi tufayli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj insondir. Inson ishlashining cheklanishi ularning o'ziga o'zi xizmat qilish qobiliyati, atrofda harakatlanish, yo'nalishni aniqlash, muloqot qilish, o'zining xatti-harakatlarini nazorat qilish va ishlash salohiyatini to'liq

yoki qisman yo'qotish bilan tavsiflanadi». Ushbu kamchiliklarga asoslangan rasmiy ta'rif nogironligi bo'lgan kishilar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada mavjud bo'lgan nogironlikning ijtimoiy ta'rifidan farq qiladi. Konvensiyada berilgan ta'rif inson huquqlarini mustahkamlash, ta'minlash va kafolatlashga qaratilgan bo'lib, atrof-muhitni baholashni o'z ichiga oladi va yetarli darajada qo'llab-quvvatlanayotgan, o'z-o'ziga ishongan shaxsni ifodalaydi. Nogironlikning rasmiy aniqlanishi konvensiyadagi ta'rif bilan uyg'un bo'lmagan tibbiy baholashga asoslanadi. Mavjud yondashuv bilan bog'liq protsessual tashvishlar mavjud: mavjud kasalliklar ro'yxati (va tegishli KXT (kasallikning xalqaro tasnifi) kodlari) cheklanishni emas, balki faqat kasallikni tasvirlaydi, lekin ko'pincha og'irlik darajasini aniqlashga urinadi. Shu bilan birga, jarayonning nisbatan soddaligiga qaramasdan, 1) kasalliklar ro'yxati to'liq emas; 2) dalillar kasallikning og'irligi va cheklanish darajasi o'rtasida hech qanday o'xshashlik yo'qligini ko'rsatmoqda; 3) o'rnatilgan metodologiya va maxsus vositalarning mavjud emasligi baholashda ixtiyoriy vakolatlarga imkon beradi; 4) madaniy va ekologik omillarni e'tiborga olmaydi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek, umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan o'zoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan, falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Integrasiyalashgan ta'lim – bu diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integrasiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integrasiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funksional integrasiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integrasiya. Integrasiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integrasiya qilish kabilar. Integratsiyalashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: Umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi. Umumta'lim maktab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi. Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi. Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan 35 gacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Inklyuziyaning komponenetlari, mezonlari va ko'rsatkichlari. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan o'zinig mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Inklyuziv ta'lim – bu davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Ushbu ta'lim shuning uchun ham ahamiyatlidir. Tavsiyalarda barcha bolalarning

ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi.

Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham umumiy ta'lim jarayoniga qo'shish mumkin. Inklyuziv ta'limda, ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi.

Ushbu yondashuvlar bolalar har xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni har xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular har bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muhitini yaratib berishga qaratilgan. Mazkur tavsiyalarning maqsadi – maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan qandaydir foyda olishi va optimal o'quv rejasining mavjudligidir. Maktab muhiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida har bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

"Inklyuziv ta'lim" o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

-inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

-inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish;

-inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashnig asoslarini o'rganish;

-inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish va ish tajribalarini tahlil qilish kabilardan iborat.

Inklyuziv ta'lim variantlari. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun shart-sharoit yaratish va jarayonni boshqarish. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi, takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor. *Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi.* Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni

ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyatning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ibora bilan ta'riflash mumkin, ya'ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv;

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: "Tirik qolish va rivojlanish". Bu modda mos keluvchi ta'limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta'lim 29-moddada ko'rsatilgan: "Ta'lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirlgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak". 2- va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning oldini olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi.

Maxsus maktabda quyidagilar maxsus shart-sharoitlar ta'minlanadi:

- maxsus maktab hududini qo'riqlash;
- tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xavfsizligini va salbiy ta'sirlardan yuqori darajada himoya qilish;
- maxsus maktab hududiga begona shaxslarning erkin kirishini cheklash;
- maxsus maktabda tarbiyalanayotganlarning uning hududidan erkin chiqishini cheklash;
- tarbiyalanuvchilarni kecha-kunduz, shu jumladan, uyqu uchun ajratilgan vaqt davomida nazorat qilish;

- tarbiyalanuvchilarni shaxsiy tekshiruvdan o'tkazish, ularning buyumlarini, shuningdek ular olayotgan va yuborayotgan posilka va boshqa pochta jo'natmalarini tekshiruvdan o'tkazish.

Demak; *inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi.* Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omilllardandir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim. Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham , eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak.

O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish yetarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. "Bolalarni qutqaring" (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta'limdagi asosiy to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va maktablarga qo'yadi.

Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallalarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag'

masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag'allik (5), sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (6), kamsitish (7), qaramlilik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday taqsimlash mumkin.

- O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi nazariy, amaliy va huquqiy ahvolni o'rganish;
- inklyuziv ta'lim muasasalarining maqasad va vazifalarini belgilash;
- resurs o'qituvchinig ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muasasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muasasalari mutaxassislarining ota-onalar bilan hamkorligining yo'lga qo'yilganlik darajasini aniqlash;
- inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarni o'rganish;
- inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini tahlil qilish kabilardan iborat.

Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi mas'uliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan, ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Inklyuziv ta'limning maxsus usullari. Imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik metodlari. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv

ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarning muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muasasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansa-da, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. Shuning uchun ham 1990-yilda Djonpiyeyen (Tailand)da juda muhim koferensiya o'tkazildi. Bu konferensiya "Ta'lim hamma uchun" maqsadini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unga 155 ta davlat vakillari va 150dan ortiq nodavlvt tashkilotlari qo'shildilar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida tyutorlik amaliyotini tashkil etish. 1994-yilda YuNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati bilan hamkorlikda Salamanka - Ispaniya umumjahon konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi va vazifasi butun dunyodagi imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabda o'qitish vazifasini amalga

oshirishuchun maktab isloxotlarini o'tkazish zarurligi to'g'risida fikr-muloxazalar yuritishga qaratilgan edi. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishga bo'lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo'ladiki, ta'lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb etish, maxsus muasasalarga borishga yashash joyi juda o'zoqda bo'lganligi yoki moddiy mablag'ning yetish-masligi yoki ota-onalarning o'z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynlalayotgan ota-onlalargan ko'mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to'laqonli moslash-tirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olish-dadir.

Inklyuziv ta'lim masalasi 90-yillarning diqqat markazija bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim Vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojuning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi: Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan o'zoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan o'zoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Inklyuziv ta'lim siyosatining xuquyiy asoslari haqida ma'lumot bering.

2.Inklyuziv talimni variativ ko'rinishalari nimalardan iborat?

3.Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

VI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

25-MAVZU. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA. IBTIDOIY JAMOADA TARBIYA. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari. Pedagogika va ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar bir necha ming yillik tarixga ega. Ushbu yo'lda nazariy pedagogik qarash va g'oyalarning rivojlanishi natijasida pedagogika fani paydo bo'ldi. Ta'lim-tarbiya institutlarining rivojlanishi qarama- qarshiliklarga boy, ko'p qirrali jarayondir. Pedagogik bilimlar va ta'lim tarixini o'rganish – bu bo'lg'usi mutaxassisning pedagogik va umumiy madaniyatini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanib, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanish jarayoni to'g'risidagi bilimlarni beradi. Pedagogika tarixi o'quv predmeti sifatida pedagogik ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogika tarixi ta'lim nazariyasi va amaliyotini, turli tarixiy davrlardagi o'qitish va tarbiyalash jarayonlarini rivojlanishini zamonaviylik kontekstida tarixiy rivojlanishini o'rganadi.

Pedagogika tarixi fanining asosiy vazifasi turli tarixiy davrlarda jamiyatning rivojlanishida ta'limning roli qanday bo'lganligini ko'rsatib berib, ushbu davrda yashab o'tgan faylasuf va pedagoglar nima uchun u yoki bu nazariyalarni yaratganliklarini asoslab berishdir.

Pedagogika tarixi pedagogika fanining qismi sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'qitish va tarbiyalash muammolarining hosil bo'lishi va uning hal etilishi tarixini belgilash; b) pedagogik nazariyalarni ishonchlilik mezoni bo'lib, yangi pedagogik tizimlarni yaratishga yo'naltiradi; d) pedagogik qarash, g'oya va nazariyalarni boyitilishini va ta'limni rivojlanish yo'lini ko'rsatib beradi; e) ta'limiy an'analarning hosil bo'lishi va o'zgarish jarayonlarini ochib beradi; f) turli tarixiy davrlardagi pedagogik tizimlarni, nazariyalarni, g'oyalarni, konsepsiyalarni o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi.

"Pedagogika tarixi" fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi. Pedagogika tarixi faqat pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilangina emas, balki jamiyat tarixi, falsafa, psixologiya va boshqa barcha fanlarni o'qitish metodikalari tarixi bilan ham bog'liqdir. Buni anglash, e'tiborga olish pedagogik hodisalarni u

yoki bu jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liq holda qarashga imkon beradi va pedagogik-tarixiy hodisalarni soxtalashtirishni bartaraf etadi.

O'zligini anglamagan, o'tmishini, umumbashariy va milliy qadriyatlarni, milliy g'urur, milliy ma'naviyatni bilmagan o'quvchi-talaba yoshlarimiz jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy hodisalarning mohiyatini to'liq anglay olmaydi, kelajakni ham ko'z oldiga keltira olmaydi. Bu obyektiv qonuniyat, ayniqsa, yosh avlod tarbiyachilari – bo'lajak pedagoglarga hammadan ko'proq taalluqlidir. Bo'lajak pedagoglar ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari qatorida pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasini, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bir qatorda pedagogik fikrlar tarixini ham bilishlari talab etiladi.

Ma'lumki, pedagogik-tarixiy hodisalarni o'rganish masalasida **fanda turli xil yondashuvlar** vujudga kelgan. Ayrim olimlar tarbiyani biologik hodisalar qatoriga kiritadi va tarbiya tarixini inson zotining evolutsion rivojlanishi nuqtayi nazaridan talqin etadi. Ba'zilar pedagogika tarixi ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini falsafiy-axloqiy jihatdan bayon etadi. Ba'zi olimlar ta'lim-tarbiya nazariyasini inson madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tahlil etsalar, ko'pchilik olimlar pedagogik nazariyalar va amaliyotni ilohiy ta'limotlar asosida tahlil qilganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada yashagan olimlar tarbiyaga jamiyatni, shaxsni o'zgartirish quroli sifatida qaraganlar.

Moddiy olamni (dunyoni) anglash, ilmiy bilishda tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi va **ijtimoiy hodisalar atroflicha, yaxlit hamda rivojlanish jarayonida o'rganiladi.** Bunday yondashuv pedagogik hodisalarning mohiyati va aloqalarini u yoki bu tarixiy davr xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganishga, ta'lim-tarbiya tizimi va ta'lim-tarbiya an'analari bilan, o'tmishda (o'sha davrda) yashagan allomalar va pedagoglarning pedagogik qarashlarini falsafiy ta'limiy-axloqiy g'oyalari bilan bog'liq holda o'rganishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadryatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Bizga ma'lumki, turli tiarixiy davrlarda taraqqiyotning taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qilib kelgan. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat, ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining barcha asarlarida madaniyat, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berganligini, uning quyidagi fikrlarida buni yaqqol ko‘rish mumkin: Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz, yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi Prezidentimiz.

Yurtboshimiz o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma’naviy sohada quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab o‘tganlar:

1. Insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlik. Ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni qayta tiklash.
2. Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atning rolini teran anglash hamda ularni boyitib borishga harakat qilish.
3. Milliy va madaniy boyliklarni bilish hamda rivojlantirish.
4. Hur-fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish.
5. Ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish.
6. Hamma uchun ma’qul tibbiy xizmat.

7. Umumiy ta'lim, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga barobar huquq berish.

8. Ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

9. Milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida milliy mafkurani shakllantirish hamda uning asosiy tamoyillarini o'quvchilar ongiga singdirish.

Ana shu ma'naviy-axloqiy negizlarning har birini yoshlarimiz ongida shakllantirish, ular ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilishning muhim omillaridan biridir. Ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi.

Sh.M.Mirziyoyev asarlarining mohiyati shaxs tarbiyasi, kamoloti vositasida butun bir xalq, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash maqsadini ifodalaydi. Shu bois har bir asarning o'zgacha mazmun va ma'no talqini barkamol avlodni tarbiyalash uchun ulkan poydevor hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borayotgan ishlarning pirovard maqsadi ham Prezidentimiz so'zi bilan aytganda: "Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iboratdir". Demak, bugungi yosh avlod rivojlanib borayotgan hozirgi zamon ilmlari bilan birgalikda o'tmishda o'tgan buyuk ajdodlar hayoti va faoliyatini ham mukammal bilish kerak.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyalar hisoblanadi.

Ta'lim tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Davrlashtirish aniq mamlakat, hudud yoki butun insoniyat uchun xarakterli bo'lgan ta'lim tizimining asosiy mazmun-mohiyatini aniqlaydi. Zamonaviy pedagogika tarixi fanida ta'lim tizimini davrlashtirish muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu muammoning murakkabligi shundaki, butun tarixiy jarayonlarni asosli bo'linishini yagona mezonlarini, asoslarini belgilanmaganidadir. Har qanday davrlashtirish shartli xususiyatga ega. U yoki bu davlatning ta'lim tizimini davrlashtirish masalalari jamiyatning rivojlanishi bilin uzviy bog'liq. Pedagogika tarixida davrlashtirish muammosi metodologik xarakter kasb etadi.

Jahonda pedagogika tarixini davrlashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda: butunjahon tarixiy pedagogik jarayon konsepsiyasi, modeli, istoriografiyasini shakllantirish masalalari o'rganilmoqda. Pedagogika tarixini davrlashtirishning har bir bosqichidagi o'ziga xos xususiyatlari xorijiy olimlar K.A.Dridger, I.G.Pestalotstsi, M.A.Jo'shon, K.Yilmaz, Dj.S.Trimengem, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Vilfridde Graafva Masataka Takeshitalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mazkur ilmiy izlanishlarda pedagogika tarixini davrlashtirish, har bir tarixiy davrda shakllangan ta'lim tizimi hamda alloma va mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tadqiq etilgan.

XX asrning 50-yillarida ta'lim tarixini davrlashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan davrlashtirishning mezonlari, tamoyillariga oid turlicha qarashlar ilgari surilganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq ta'lim tizimini davrlashtirishda mutaxassislar tomonidan yagona yondashuvga kelinmagan. Sobiq sho'ro tuzimi davrida pedagogika tarixi ijtimoiy tuzumlar bo'yicha davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida taniqli olimlar O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, X.Xomidovlar pedagogika tarixini davrlashtirishga quyidagicha yondashganlar:

1. Qadimgi davrdan VII asrgacha bo'lgan tarixiy davrda ta'lim-tarbiya va pedagogik g'oyalar taraqqiyoti davri.

2. VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik fikrlar rivojlanishi davri.

3. Sharq uyg'onish bosqichida fan va madaniyat hamda ta'lim-tarbiyaning taraqqiyoti davri.

4. Madaniyat va ta'lim-tarbiyaning Temuriylar hukmronligi davridagi taraqqiyoti.

5. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi davri.

6. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi, istiqlol va istiqbol yo'llari davri.

Pedagog olima M.Salayeva o'z tadqiqotlarida eng qadimgi yozma yodgorliklarda ifodalangan pedagogik g'oyalardan bugungi kungacha yaratilgan pedagogik nazariyalarning mazmunini aniqlashtirish, turli davrlarda foydalanilgan ta'lim-tarbiya vositalari, usullari va metodlarini yaxlit pedagogik jarayon bilan integratsiyasini ta'minlash, eng qadimgi zamonlardan boshlab hozirgi davrgacha yuzbergan pedagogik fikrlar rivojlanishiga oid har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy

tasniflab, pedagogika tarixini davrlashtirishda quyidagi yondashuvni taklif qilgan:

Shunday qilib, o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish jarayonini o'rganishning asosiy davrlarini quyidagilarda ko'rsatib berish mumkin ekanligini aniqladik:

1. O'rta Osiyoda xalqning shakllanishi, qadimiy madaniyat xalq og'zaki ijodi mif va afsonalarda xalq pedagogikasi g'oyalarining yuzaga kelishi.

2. O'rta Osiyoda maktab va yozuvning paydo bo'lishi, «Avesto»dagi ta'lim-tarbiyaviy qarashlar.

3. Qadimiy turk xalqlarining runa yozuvi, Urxun-Enasoy va boshqa yozma bitiklardagi ta'lim-tarbiyaviy qarashlar.

4. VIII asrda Arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi, maktab va pedagogikada yuz bergan asosiy islohotlar.

5. Sharq uyg'onish davrining yuzaga kelishi. IX-X asrdagi Somoniylar davlatidagi maktab va pedagogik fikrlar (al-Xorazmiy, al-Beruniy, IbnSino, al-Farobiy,v.b.), tasavvufdagi tarbiyaviy konsepsiyalar komil insonni shakllantirish g'oyalari.

6. XI-XIII asrdagi Qoraxoniylar davlatidagi maktab madrasa va turkiyzabon mutafakkirlarining (M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Axmad Yassaviy), ta'lim-tarbiyaviy ta'limotlari.

7. XIV-XVI asr Temur va Temuriylar davridagi pedagogik fikrlarning o'ziga xos rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari.

8. XVIII-XIX asrlardagi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi davridagi maktab-madrasalar va pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

9. XIX asrdagi Rus mustamlakachiligi davridagi maorif. Turkistondagi rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishidagi rus kolonizatorlarining xalq ta'limi sohasidagi olib borgan siyosati.

10. XIX asr oxiri XX asr boshidagi O'zbekistondagi ma'rifatparvarlik g'oyalari, jadid maktablarining yuzaga kelishi.

11. Oktyabr inqilobidan keyingi davrda O'zbekistonda maktab va pedagogikaning yangi tizimining tashkil qilinishi. Madaniy revolyutsiya yutuqlari va kamchilikalari (1917-1924).

12. Dastlabki pedagogik o'quv yurtlarining tashkil topishi. Pedagog kadrlar tayyorlash tajribalari (1931-1940).

13. O'zbekistonda Ulug' Vatan urushi va urushdan keyingi davrda xalq maorifi organlari va maktab pedagoglar jamoasi ishlarining qayta qurilishi. Umumiy majburiy ta'limning amalga oshirilishi (1941-1958).

14.O‘zbekistonda maktabning turmush bilan bog‘lanishini mustahkamlash haqidagi qonun asosida ta’lim-tarbiyaning rivojlanishi va pedagogik fikrlar(1959-1980).

15.Sobiq sovet tuzumi, qayta qurish davridagi maktab va pedagogik fikrlar. Sobiq sho‘rolar davlatining yemirilishi. (1981-1991)

16.O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ta’lim tizimidagi islohotlar, Kadrlar tayorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun (1991-2017) ning maktab va pedagogik fikrlarni rivojlantirishdagi o‘rni.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017-2021) farmoni va O‘zbekistonda maorif, maktab shuningdek, pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti. *Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va* pedagogik fikr taraqqiyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yurtimiz hududida Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular saklar, massagetlar, so‘g‘dlar, xorazmiylar, baqtirlar, parkanaliklar kabi qabila va urug‘lardan iborat bo‘lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.

Ushbu davrdan boshlab, bu hududlarda o‘ziga xos madaniy an’analar tarkib topa borgan, masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So‘g‘diyona, Marg‘iyona. Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o‘lkalarda xalq xo‘jaligining turli sohalarida rivojlanish ro‘y bergan. Biroq islomgacha bo‘lgan tarixiy davrda ta’lim-tarbiya, fan va madaniyat tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon-makedon qo‘shinlari, so‘ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilari olib borgan talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o‘sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo‘q qilingan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta’lim-tarbiyaga oid an’analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish, bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir. Respublikamizda istiqlolga erishganimizga qadar biz ta’lim-tarbiya ishlarimizga sobiq sho‘ro mafkurasini asos qilib oldik va o‘rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G‘arb pedagogikasining eng ilg‘or an’analarini o‘rganishga e’tiborni qaratishdan iboratdir. Chunki ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan.

Buyuk nemis olimi Xerler: «Sharq ovruponing muallimidir» -deb ta'kidlagan. Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat, ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», So'g'd, Baqtriya, Urxun-Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida yuzaga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi. Haqiqatan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifamizdir.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularing dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi epos va miflarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsona va rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Taniqli o'zbek pedagogika tarixi sohasining yetuk mutaxassisi Komiljon Hoshimov eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyida uch guruh manbalarga tayangan holda o'rganishni tavsiya etadi:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'ya olish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga asos bo'lgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo'lga qo'yish negizida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jihati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi.

Ibtidoiy jamiyatda tarbiya umumiy xarakter kasb etsa-da, bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu davrda o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, ov qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qayerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi.

Urug'chilik jamoasi davrida bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar

bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi.

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga yer o'lchash, suv toshqinlarining va turli kasalliklarning oldini olishga oid bilimlarni o'rgatishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu boradagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga og'zaki bilim berish bilan birga ularda yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi.

Eng qadimgi yozma manbaalarda ta'lim tarbiya masalalarining yoritilishi. Ma'lumki, kishilik jamiyati vujudga kelish jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming-ming yillar mobaynida davom etib inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq – odob qoidalari tarkib topishiga asos bo'ldi. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish: ongimizm, ajdodlar ruhiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonlar. Rivoyatlarda qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, eng qadimgi yozma manbalarda jumladan, eramizdan oldingi, taxminan 484(480)–431(425)-yillari yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

Bu ma'lumotlar qadimda yurtimizda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarni bajara olish va muayyan hunar sirlarini o'zlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz. Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros qoldirgan. Xalq folklorida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos

bo'lgan hamda tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining barcha jihatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, alla dastlabki hayot darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir.

Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar – «Avesto», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma'lumdir. Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliyhimmatlilik va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan.

M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xush-xulqlik mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoning ko'pgina joylarida qoyalarga o'yib yozilgan qadimiy suratlar saqlanib kelmoqda. Ibtidoiy jamiyatning surat solishga mohir bo'lgan kishilari bu suratlarda odamlarni va hayvonlarni, ov manzaralari va boshqa shu kabi manzaralarni tasvirlaganlar. Bunday surat-kashlik rivojlana borib, bir qancha mamlakatlarda piktografik xatning paydo bo'lishiga imkon berdi, keyinroq ierogliflar bilan yoziladigan xat va harflar piktografik xatlardan vujudga keldi.

Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining mada-niyati, ma'rifati, milliy qadriyati ibtidoiy jamoada davridagi ma'rifiy tafakkurning dastlabki kurtaklari folklorda o'z aksini topgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar insonning kamoloti to'g'risidagi g'oyalarini juda ko'p rivoyat-lardan foydalanib baxshilik yo'li orqali avloddan-avlodlarga yetkazgan-lar, mazkur rivoyatlarda, kishilarni tarbiyalash, axloqiy barkamollik shaxsning ma'naviy yuksakligi masalalari asosiy o'rin olgan.

Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibi-dan ta'lim-tarbiyaga oid meros ham alohida o'rin olgan. Zero, hozirgi

turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining asarlari buning dalilidir.

Eng qadimgi yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo'lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, urug'chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xislatlarga ega bo'lishini taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

Tarbiyaviy manba sifatida «Avesto» katta ahamiyatga ega. Zardusht qadimgi qabilalardagi diniy e'tiqodlarni isloh qilgan. Zardusht ta'limotining yangiligi shundaki, AxuraMazda (Qodiriloh) dunyoda adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi: Anxramani esa (yovo'z ruh) barcha yomonliklar sababchisi. «Avesto» ning mazmuni haqida uning bizgacha yetib kelgan parchalari matnlariga asoslanib quyidagilar ifodalanganini ko'ramiz: eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qayerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: baxt makoni shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men har ikkala qo'li bilan mehnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi, deb ko'rsatiladi.

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «Urxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq

bitigi» («Ta'birnoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun- Enasoy bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar» ham deb ataydilar. O'ziga xos xat (yozuv) da bitilgan bu bitiklar eramizning VII-VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Urxun-Enasoy yodgorliklari dastlab Enasoy havzasida, so'ngra Mo'g'ulistonning Urxun daryosi bo'yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893-yili birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V.Tomsondan so'ng olimlar - N.M.Yadrinsev, V.V.Radlov mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

Urxun-Enasoy yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Stebleva tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.Sharafuddinov, N.Mallayev, Aziz Qayumov va N.Rahmonov Urxun-Enasoy bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar. Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turkiy qabilalarning Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik G'arbda Vizantiya, Janubdan Eron va Hindiston, Sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk xoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan. Xoqonlik 604-yili sharqiy va g'arbiy xoqonlikka ajralgan. Eramizning 745-yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan.

Garchi Urxun-Enasoy yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Xususan, xoqonlar va alplarning jangovor faoliyati, turmush tarzi, vatanparvarlik, birdamlik, ittifoq bo'lib yashashga intilishi, mardlik, jasorat, samimiylik, insonparvarlik, ezgulik kabi insoniy xislatlari jamiyat har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim fazilatlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Turk xoqonligi asosan 3 kishi: Bilgxoqon (Mog'ilyon), Kultegin, Tunyuquqlar qo'lida markazlashgan edi. Bilgxoqon (Mog'ilyon) xoqon, Kultegin – sarkarda, Tunyuquq esa – vaziri dono bo'ladi. Bitiktoshlarda turk xoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida alp kishilar, sarkardalar ko'rsatgan jasoratlar, ularning bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. O'z vatanining mustaqilligi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligini ta'minlash xoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari - Bilga xoqon, lashkarboshi Kultegin,

ma'naviy otalari Tunyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan, Kultegin bitigida uning ta'rifi berilgan. Kultegin xalqparvar, tadbirkor, xalqning kelgusi taqdirini ham o'ylaydigan jonkuyar sarkarda sifatida ta'riflanadi. U o'z jonidan Vatan taqdiri, xalq manfaatini yuqori qo'ygan shaxs. Kultegin Eltarish xoqonning kichik o'gli. U 731-yil 27-fevralda qirq yetti yoshida vafot etadi. Bitiktosh 732-yili o'rnatilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi.

Kultegin bitigida Bilga xoqonning og'a-inilari va qarindosh-urug'lariga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko'p falokatlar yuz berganini bayon etganligi ifodalanadi. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo'shni bo'lgan tabg'achlarning bosqinchiligi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so'z yuritiladi.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan biri sanalgan «Irq bitigi» («Ta'birnoma») ham Urxun-Enasoy yodgorliklari sirasida ta'lim-tarbiya tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar turkiy xalqlarning turmushi, axloqiy munosabatlari mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyati, asosan, qushlar va hayvonlar obrazlari orqali ochiladi.

«Irq bitigi»da eng qadimgi ajdodlarimizning mifologik hamda totemistik qarashlari xalq og'zaki ijodi namunalari tarzida o'z aksini topgan. An'anaga ko'ra, har bir epizodda yaxshilik g'oyalari targ'ib etiladi.

Inson doimo yaxshi hayot kechirishga intilar ekan, bu yo'lda u juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin inson qiyinchiliklarni ilohiy qudrat - Tangri yordamida yengib o'tib, go'zal hayotga yetishadi. Ana shu holat hara ta'birnomada o'z aksini topgan.

Ammo yaxshilik bor joyda yomonlik ham mavjud bo'ladi. Ayrim qushlarga nisbatan berilayotgan ta'birlarda yomon hodisa-voqealar negizida yomonlikning mavjudligiga alohida urg'u beriladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror topgan ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlilik xislatlariga ega bo'lgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar o'rtasidagi munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta

kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasida ayovsiz kurash borgan. Mazkur kurash jarayonida insonda eng yaxshi xislatlar shakllana borgan. Bilimlilik, xushxulqlik, muayyan kasb yoki hunarga ega bo'lish inson kamolotini belgilovchi asosiy ko'rsatgkichlar hisoblangan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vaifalari nimalardan iborat?
2. Eng qadimgi yozma manbaalar va ularda yoritilgan ta'lim-tarbiya masalalari haqida ma'lumot bering.
3. Pedagogika tarixini davrlashtirishda qanday muammolarga duch kelish mumkinligini izohlang.

26-MAVZU. VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim tarbiyaga ta'siri. Dunyo dinlari orasida islom dini yer yuzida tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Islom so'zi arabcha «bo'ysunish», «taslim bo'lish», «o'zini xudoning irodasiga topshirish» degan ma'noni anglatib, yagona Allohga bo'ysunish tushunchasini beradi.

VII asr birinchi yarmida islom g'oyasiga asoslangan Arab halifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz Movarounnahr, Xuroson hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Shuningdek, islom dinining Movarounnahrda yoyilishiga sabab, arablar, dastlab mahalliy xalqlarni islom dinini qabul qilganlarni barcha soliqlardan ozod qildilar, so'ngra islom dinini qabul qilmagan aholiga nisbatan qat'iy choralar ko'rdilar. Shu bois arab istilochilari xalqni o'zlariga bo'ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar.

Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo'ysunish, yagona va qudratli Allohga sig'inish, Allohning yerdagi rasuli (elchisi) bo'lgan Muhammad alayhissalom ko'rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin yaratildi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Xalifalar davrida islom ta'limoti mustahkamlandi. Payg'ambarimizga nozil bo'lgan «Quroni Karim» g'oyalari sahobalar tomonidan kitob holida jamlandi.

G'arb va Sharq tadqiqotchilari «Qur'on» ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan biri deb hisoblaydilar.

Xat-savodi bo'lgan Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Kaab «Qur'on» oyatlarini yod olib borganlar va xat bilan bitganlar.

Uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning topshirig'iga ko'ra, «Qur'on» suralari va oyatlari birinchi bo'lib sahoba Zayd ibn Sobit tomonidan kiyik terisidan tayyorlangan sahifalarga bitilgan. So'ngra ushbu manbadan 6 nusxa ko'chirtirilib, markaziy shaharlarga bitta nusxadan yuborilgan hamda Qur'onning faqat ana shu nusxalaridan foydalanishga farmon berilgan. Shunday qilib, «Qur'on» musulmonlarning diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida asosiy qo'llanma bo'lib qoladi. «Qur'oni Karim»ning deyarli barcha oyat va suralari mazmunidagi g'oyalar insonni ma'naviy axloqiy poklikka yetaklab, johillikdan qutqarib, ezgulikka yo'naltirib, ayniqsa, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Arab istilochilarining Movarounnahrdagi g'alabasidan so'ng barcha mustamlaka mamlakatlar qatori u yerda ham Islom dinning asoslari xususida ma'lumot beruvchi muqaddas kitob – "Qur'on" yaratilgan til - arab tilini o'rganish joriy etildi. Diniy ulamolarning maxsus ko'rsatmalariga muvofiq muqaddas kitobni boshqa tillarga tarjima qilish taqiqlandi. Shu bois musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Mavjud fanlarning asoslari arab tilida o'rganila boshlandi. Arab xalifaligi tasarrufiga olingan barcha mamlakatlarda masjidlar qoshida maxsus maktablar tashkil etildi. Biroq o'g'il bolalargina mazkur maktablarda savod o'rganish huquqiga ega bo'ldilar. Maktablar, shuningdek, keyinchalik bunyod etilgan va maqomi jihatidan hozirgi oliy o'quv yurtlariga teng bo'lgan madrasalarda ta'lim va tarbiya ishlari shariat qoidalariga muvofiq yo'lga qo'yilgan bo'lib,

ushbu o'quv maskanlarida islom ta'limoti xususida ma'lumotlar beruvchi ilohiyot fanlari bilan bir qatorda dunyoviy fanlarning asoslari ham o'qitilgan. Machitlar qoshida faoliyat yuritgan maktablarda imomlar, madrasalarda esa mudarrislar yoshlarga ta'lim va tarbiya berish ishi bilan shug'ullanganlar.

Bolalarga dastlabki saboq harflari o'qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harfning nomini bilib olishi (alif, be, te, se, va h.), so'ngra shu harflarni qo'shib o'qishni mashq qilar edi. Ana shu mashq oxiriga yetgandan so'ng, bolalar qo'llariga "Qur'on" berilgan va domla rahbarligida "Qur'on"ning har bir surasi takrorlanib o'rganilar edi. Lekin "Qur'on"ni o'qish bolalar uchun juda og'ir edi. Chunki maktablarda faqat og'zaki mashq usuliga -"Savod" chiqarilishiga o'tgach, savod chiqarish yanada qiyinlashdi. Yozuv alohida "fan" sifatida ajratilib, kotiblik kasbiga o'qiyotganlargagina yozuv o'rgatilar edi. Shunga qaramay, maktablarga deyarlik hamma bolalar tortiladi va "Qur'on"ni o'rganish majbur qilinib, arab bo'lmagan bolalar uchun uni yodlash har qancha og'ir bo'lsa ham, Movarounnahr maktablarida "Qur'on"ning bu usuli qabul qilinadi va to'g'ri deb topildi. Bu usul keyinchalik bolalarning madrasada o'qitish uchun ham kerak edi.

Asta-sekin ota-onalar bolalarni 6-7, hatto 5 yoshidan maktabga bera boshlaydilar. "Qur'on"ni yod bilgan kishi qori deb atalardi. Qorilar katta hurmatga sazovor edilar. Asta-sekin o'qimishli kishilar, ya'ni domla alohida ajralib, ular o'z xonadonlarida ham maktab ochadi. Talabalar maktabdor domlalar maktabida husnixat, og'zaki hisobni ham o'rganar, asta-sekin fors-tojik tilida va turkiy tildagi kitoblarni, qo'lyozmalarni ham o'qitilar, o'rgatilar edi. Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug'ullanar edilar. Movarounnahrda arab bo'lmagan bolalarga "Xaftiyak" VIII asrda tuzilgan bo'lib, "Qur'on" suralaridan yettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o'rganilgan. X-XII asrda "Chorkitob" o'qitila boshlandi. XII asrdan boshlab Ahmad Yassaviy, uning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi.Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar. X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. "Madrasa" so'zi "dars o'qitiladigan joy", "Ma'ruza tinglaydigan joy" ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ilohiyot, mantiq, notiqlik mahorati, kalom o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi.

Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi. Islomning shar'iy ma'nosi – bu Alloh yagona deb e'tiqod qilib, unga bo'ysunmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e'tiqodga imon keltirmoqlik demakdir. Allohga itoat qilgan va Alloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan kishi musulmon deyiladi.

Ilohiyotda islom dini imon, islom va ehsondan iborat deb e'tirof etilgan. Imon talablari Allohning borligi va yagonaligi, farishtalar, muqaddas kitoblar va payg'ambarlarning mavjudligi, oxirat kunining kelishi, taqdiri azalning haqligi va inson jismining o'lgandan keyin tirilishiga ishonchdan iboratdir. Islom dini ta`limotiga ko'ra, har bir musulmon ushbu beshta asosiy ruknni bajarishi shart: Birinchisi, "La ilaaha illalloh va Muhammadur-rasululloh" deb Allohning borligi, yagonaligi va uning qudratiga, shuningdek, Muhammad Allayhissalomning Tangrining yerdagi elchisi, rasuli ekanligiga shahodatlik berish; ikkinchisi, namoz o'qish; uchinchisi, zakot berish; to'rtinchisi, ramazon oyida ro'za tutish; beshinchisi; imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda haj safarini o'tash.Islom dinining asoschisi va targ'ibotchisi Muhammad ibn Abdulloh 570-yilda Makkada quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug'iladi. Otasi Abdulloh Shom safariga ketayotib Madina shahrida vafot etganda, yoshi 30 ga etmagan edi. Yosh Muhammad besh yoshida onasi Ominadan ham ajraladi. Shundan so'ng uni bobosi Abdul Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Bu chog'da Abdul Mutallibning yoshi yuzdan oshgan edi. Ko'p o'tmay u ham vafot etadi. Bobosining vafotidan so'ng uning vasiyatiga ko'ra, hali voyaga yetib ulgurmagan Muhammadni amakisi Abu Tolib tarbiyalaydi. Ushbu yillarda u savdogarlik kasbining sir-asrorlarini o'rgana boshlaydi. Voyaga yetgach Makka shahrining badavlat ayollaridan biri bo'lgan Xadichaning xizmatiga ishga kiradi.

Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati. Islom g'oyalari, musulmonchilikning talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari «Qur'on» va uning tafsirlari, «Hadisi sharif», shariat qoidalari bitilgan qo'llanmalar hamda ilohiyotga oid adabiyotlar mazmunida batafsil ifodalangan.

«Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. «Qur'on» 114 suradan iborat, ularning 90 tasi Muhammad alayhis-salom Makka shahrida, 24 tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bo'lganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. «Qur'on» g'oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka

undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'on» g'oyalarining ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so'z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmati insonning ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablari bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Aslini olganda, islomda ilohiy va dunyoviy hodisalar alohida-alohida olib qaralmaydi. Islom ta'limotida insonning ruhiy va jismoniy kamolotiga ham birdek e'tibor beriladi.

Islomiy g'oyalar odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi.

Buni biz «Qur'on»ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo'ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson kamoloti, avvalo, uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. «Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar».

Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlanttrishga katta e'tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi.

«Qur'on»da ilm ishonchli dalillar bilan asoslash, taqlid qilishga yo'l qo'ymaslik masalalari ham talqin etilgan. Unda har bir fikrni ko'r-

ko'rona, aql ishlatmasdan ilgari surish qoralanadi. Mavjud bilimlar mohiyatini tahlil etish asosida ular orasidan eng to'g'ri va maqbul deb topilgan g'oyalarni tanlab olish maqsadga muvofiq ekanligi uqtiriladi: «Mening bandalarimga - so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga (ya'ni najotga eltuvchi rost so'zga) ergashadigan zotlarga xushxabar bering! Ana o'shalar Alloh hidoyat qilgan zotlardir. Va ana o'shalargina aql egalaridir» («Zumar» surasi, 18-oyat). Har bir fikrni diqqat bilan tinglab, uning mohiyatini chuqur anglab, tushunib, so'ngra unga rioya etganlar haqiqiy aql egalaridur. Albatta, ilm aqliy mushohada yordamida o'zlashtiriladi. «Qur'on» g'oyalari inson o'zida aqliy mushohada yuritish ko'nikmalarini o'zlashtirishga undaydi. «Qur'on»da sabr-qanoatga ham yuksak axloqiy fazilat sifatida katta e'tibor beriladi.

Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, *«Ilm»* so'zi asosidagi *«alima»* (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bu o'zak faqat *«Alloh»*, *«Rabb»* (Parvardigor ma'nosida), *«bo'lmoq»* va *«gapirmoq»* kabi eng ko'p ishlatilgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan.

Rasulullohga nozil bo'lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni Karim matni 96-surasi («Alaq»)ning birinchi oyatlari bo'lib, shunday boshlanadi: *«Iqra' bi-ismi robbikal-lazi halaq!» («Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi!»)*. Oradan bir oyat o'tib yana «o'qi!»so'zi qaytariladi: *«Iqra' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya'lam» («O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi»).*[18]

Ilmga qiziqtirish borasida Alloh Qur'onda shunday deydi: *«Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'la oladilarmi, albatta, bu haqda faqat aqlli kishilargina eslaydilar: («Zumar» surasi, 9-oyat)*. Boshqa bir oyatda ilmli kishilar Allohning huzurida boshqalardan ko'ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan: *«Alloh taolo sizlardan imon keltirganlarni va ilmli bo'lganlarning darajasini ko'taradi»(«Mujodala» surasi, 11-oyat)*.

Alloh o'zining yagonaligiga ham ilmli kishilarni guvoh qilgan: *«Alloh albatta uning o'zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo'qligiga shohidlik beradi. Shuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik berdilar»* (*«Oli Imron» surasi, 18-oyat*).

---

[18] Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992, 5–532-betlar (Keyingi misollar ham shu manbadan olindi).

Shu oyatda Alloh ilmli kishilarning shohidligini o'z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Bu esa, ilmli kishilarning hurmati Alloh huzurida naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, Qur'on ilmsizlarni tanqid qiladi: *«Shunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo'yadi»*. (*«Rum» surasi, 59-oyat*). Qur'on ilmning chegarasi yo'q ekanligini ham bayon qilib o'tgan: *«Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor»* (*«Yusuf» surasi, 76-oyat*).

Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o'z ilmlari bilan mag'rurlanib, o'z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham birov tanqid qilib qolishiga o'zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur'on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo'lishga chaqiradi: *«Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt»* (*«Toho» surasi, 114 -oyat*).

Islom kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asoslarini kishilarga ko'rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo'ladi:

1. Ilm biror narsani hujjatli, aniq dalil bilan bog'lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur'on ham musulmonlarga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo'lsa kiradi. Bu ularning orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to'g'ri bo'lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgin» (*«Baqara» surasi,111-oyat*).

Bir narsaga dalil va hujjat bo'lmasa, ishonib bo'lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e'tiqodida bo'lganlarni Alloh so'roq qiladi: *«Kim Alloh bilan qo'shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo'lsa, uning hisob-kitobi Allohning huzurida bo'ladi. Albatta kofirlar najot topmaydilar»* (*«Mo'minun» surasi, 117-oyat*).

Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Gumonni rost deyish to'g'ri emas. Bir masala to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar hujjati kuchli bo'lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli bo'lmasa, masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur'on ta'limotlariga ham to'g'ri keladi.

Qur'on haqiqiy – ilmiy narsalarga suyanishga, gumon va xayollardan uzoqda bo'lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo'lishini aytib o'tadi: *«Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar»* (*«Rum» surasi, 29-oyat*).

Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko'rsatib, shunday deydi: *«O'zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko'z, quloq va qalb barcha narsadan so'raladi»* (*«Isro» surasi, 36-oyat*). Oyatning

ma'nosi shuki, o'zing aniq bilmasang, senga aytiladigan turli-tuman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog'i eshitgan, ko'zi ko'rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so'roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o'tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo'lishi zarurligini, gumon va turli fikrlar bo'lmasligini anglatadi.

Ilm ko'r-ko'rona taqliddan qaytarishda Qur'on bilan muvofiqdir. Qur'onda bir fikrni ota-bobomiz qilgan deb, o'zlari aql ishlatmay yurganlar tanqid qilingan: *«Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va payg'ambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan va to'g'ri yo'lda yurmagan bo'lsalar, unda nima bo'ladi»* (*«Moida» surasi, 104-oyat*).

Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: *«Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar deyilsa, ular, yo'q biz ota-bobolarimizdan ko'rganimizni qilamiz, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan bo'lsalar va to'g'ri yo'lda yurmagan bo'lsalar, unda nima bo'ladi. Kofirlar xuddi bir qo'y podasiga o'xshaydilarki, ular cho'ponning qichqirig'ini eshitadilar-u, ma'nosiga tushunmaydilar. Ular kar va ko'rdirlar, aqllarini ishlatmaydilar»* (*«Baqara» surasi, 170-171-oyatlar*).

Qur'onning shu oyatlaridan ko'rinib turibdiki, aql ishlatmay, o'zi ishonch hosil qilmay – ko'r-ko'rona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, ko'r-ko'rona taqlid qilgani bilan mo'min bo'la olmaydi. Qur'on xalqlarni boshliqlar va yo'lboshchilarga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan ehtiyotlanishga chaqiradi. Qur'onda talqin qilinishicha, yo'lboshchilar ham va unga ergashganlar ham noto'g'ri yo'lda bo'lsalar – qiyomat kunida teng azob chekadilar.

Buning ma'nosi shuki, bu dunyoda yo'lboshchilik qilganlar, qiyomat kunida o'ziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor bo'lib oralaridagi aloqa uzilar ekan.

Qur'on ota-bobolarga, boshliqlarga va yo'lboshchilarga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi bo'lsa o'sha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi: *«Ular (musulmonlar) gapni eshitganlaridan so'ng, eng yaxshisiga ergashadilar. Shunday kishilarni Alloh to'g'ri yo'lga boshlaganlar va ular aql egalaridirlar» («Zumar» surasi, 18-oyat*).

Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha gaplarni eshitib, tushunib, so'ngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va *o'tkir aql egalari*, deb ataydi.

Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytiladi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qur'on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur'onda aqlga taalluqli so'zlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining so'zi esa 10 martadan ko'proq ishlatilgan. Shuning o'zi ham Qur'on aqlga katta e'tibor berganini dalilidir. Qur'on aqlning ulkan ne'mat ekanligini bayon qiladi: *«Albatta bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor» («Ra'd» surasi, 4-oyat). «Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib qo'ydik. Aqlni ishlatmaydilarmi»* (*«Baqara» surasi, 76-oyat*) va hokazo.

Boshqa oyatlarda esa, aqlni ishlatmaganlarni ayblaydi: *«Allohning huzurida eng yomon jonzotlar kar-soqov, aqlni ishlatmaydiganlaridir»* (*«Anfol» surasi, 22-oyat*). *«Sen ularning ko'plari eshitadilar va aql ishlatadilar, deb hisoblaysanmi. Ular xuddi hayvonlarga o'xshaydilar, balki hayvonlardan ham battardurlar»* (*«Furqon» surasi, 34-oyat*).

Boshqa bir oyatda aqlni ishlatmaslik oxirat azobiga sabab bo'lganligini eslatadi: «Ular (do'zaxilar) agar eshitganimizda va aql ishlatganimizda do'zaxilardan bo'lmas edik, deyishadi» (*«Mulk» surasi, 10-oyat*).

Mana shu narsalarning barchasi Islomdan *aql va aqliy* tarbiyaning naqadar ulkan baholanishini ko'rsatadi.

Ilmning asoslaridan biri shuki, tabiiy haqiqatlar o'zgarmasdir. Ishonchli dalil bilan sobit bo'lgan haqiqat barcha vaqtlarda haqiqatligicha qolaveradi. Bu narsa Qur'onda shunday ta'kidlab o'tilgan: *«Avvalgilarning qilganlariga qaramaydilarmi, Allohning qilgan ishlariga hech qachon o'zgarish topa olmaysan. Allohning qilgan ishlarini hech qachon boshqachasiga aylantirganini ham topa olmaysan»* (*«Fotir» surasi, 43-oyat*).

Boshqa bir oyatda *«Allohning yaratganini o'zgartirib bo'lmaydi»* deyilgan (*«Rum» surasi, 30-oyat*).

Bu oyatlarda tabiiy qonunlar va Alohning qilgan ishlari o'zgarmasdan o'z holiga sobit qolajagi ochiq-oydin aytilgan.

Biror narsani atroflicha o'rganish Qur'on buyurgan ilmiy asoslardan biridir. Qur'on oyatlarida bir narsani atroflicha o'rganish uchun ko'z, quloq, xususan, aqlni ishlatib oldinga suriladi. «Ankabut» surasida shunday deyilgan: *«Yer yuzida yurib, maxluqotlar qanday yaratilganligini o'z ko'zingiz bilan ko'ringlar»* (*20-oyat*).

Shunga o'xshash oyatlar Qur'onning boshqa suralarida ham ko'plab uchraydi. Ularning umumiy ma'nosidan ma'lum bo'ladiki, inson onadan

tug'ilganidan so'ng ko'rish, eshitish va aqlni ishlatish orqali ilm hosil qiladi.

Qur'on oyatlarida tabiiy ilmlarni o'rganishga chaqiriqlar bor. «Rum» surasida shunday deyilgan: *«Osmonlarning va yerning yaratilishi Allohning alomatlaridandur, shuningdek, sizlarning tillaringiz, ranglaringizning turlicha bo'lishida ham, albatta, olimlar uchun alomatlar bor»* (*22-oyat*). «Fotir» surasida esa: *«Ko'rmaysanmi, Alloh osmondan suvni tushiribdi va u suv bilan ranglari turlicha bo'lgan mevalarni o'stiribdi. Shuningdek, tog'larning ham rangi turlichadir – oq, qora, qizil. Odamlar, jonzotlar va uy hayvonlarining ham ranglari turlicha. Albatta, olim bandalar Allohdan qo'rqadi»* (*27-28-oyatlar*).

Bu oyatlarda zikr qilingan «Olimlar»dan murod, Alloh yer yuzida yaratgan maxluqotlarning sir-asrorlarini biluvchi shaxsdir. Bu oyatlarning mavzui ham tabiiy ilmlardir. Chunki tabiiy ilmlar borliqdagi narsalarni va ularning xususiyatini o'rganadi. Avvalgi oyatda aytib o'tilgan «osmondan suv tushirish sirini» faqat tabiiy ilm orqali bilinadi. Bu so'zning tarkibini va xususiyatlarini kimyo ilmi orqali bilinadi. Shu suv sababli o'sib chiqqan o'simliklar va mevalarning sirini esa tabiyotshunoslik ilmi tushuntiradi. Tog'lar va ulardagi oq, qizil, qora turlarni jug'rofiya o'rganadi. Inson jinslarini va hayvonot olamini esa, antropologiya, zoologiya, biologiya o'rganadi. Oyatning oxiridagi *«Albatta olim bandalargina Allohdan qo'rqadi»* degan jumlaga nazar solsak, unda Allohni haqiqiy tan olib, unda haqiqatan qo'rqadigan kishilar, tabiiy ilmlarni yaxshi biluvchi kishilar ekanligini tushunamiz. Chunki bunday olimlar, agar imonli bo'lsalar, ularning ilmi Allohdan qo'rqishga chorlaydi.

Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Qur'on oyatlarida insonni o'ziga nazar solish va qanday vujudga kelganini tafakkur qilishga da'vat bor: *«Inson nimadan yaratilganligiga nazar solsin, u bir otilib chiquvchi suvdan yaratilgandir, bu suv sulbdan (orqa umurtqa suyak) va taroibdan (ko'krak suyagi) chiqadi»* (*«Tortiq» surasi, 5-7-oyat*).

Vujudga kelishning asliga nazar solish orqali inson biologiya ilmiga yetishadi, bu ilm esa, unga inson bir hujayradan rivojlanib borib, o'zining to'liq inson bo'lib yaratilganicha bosib o'tadigan bosqichlarining sir-asrorlarini bildiradi.

Qur'onda insonni o'z nafsi haqida fikr yuritishga chaqiruvchi oyatlar bor: *«Va o'z nafsingizda ham alomatlar bor, bularni ko'rmaysizmi»* (*«Zariyot» surasi, 21-oyat*). O'z nafsiga nazar solish orqali psixologiya

ilmiga yetib boriladi. Bu psixologiya ilmi esa, insondagi his-tuyg'ular, sezgi-hayajonlar va boshqa ko'pgina holatlarni o'rganadi.

Qur'on musulmon kishining ko'z oldida turgan mavjudotlarni o'rganishga chaqiribgina qolmay, avvalgi o'tgan xalqlarning tarixi, ularning obodonchilik yo'lida olib borgan ishlari, havoyi-nafsga berilib, oqibatda halokatga uchraganlarini ham o'rganishga undagan. «Rum» surasida shunday deyilgan: *«Yer yuzida yurib o'zlaridan avval o'tganlarning oqibati nima bo'lganiga nazar solmaydilarmi. O'tganlar bulardan ko'ra quvvatliroq edilar, yer yuzida asar qoldirgan edilar, bulardan ko'ra yer yuzini ko'proq obod qilgan edilar va ularga payg'ambarlari ochiq-oydin xabarlar bilan keldilar. Alloh ularga zulm qilmoqchi emas edi, lekin ular o'zlariga-o'zlari zulm qildilar».* (*9-oyat*).

Qarang, bir xalqqa shunday ta'limotlar kelibdi. Unda o'tgan ummatlarning taraqqiyot, obodonchiligi, yuztuban ketishi va xarob bo'lishi sabablarini o'rganishga chaqiriq bor ekan. Bu chaqiriq tarix va sotsiologiya ilmini o'rganishga chaqiriq emasmi?[19]

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Hadisi Shariflarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita deb qaraladi. Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong'ilikda yo'l ko'rsatuvchi mash'al tariqasida talqin qilinadi. Ilm – bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillik, u bilan shug'ullanmaslik nopoklikka va jaholatga olib kelishi ham ta'kidlanadi.

Islom dinining asosini imon, e'tiqod tashkil etadi. Shuning uchun hadislarda *«Dinning ofati uchtadir: 1) beamal olim; 2) zolim hokim; 3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo»*[20] deyiladi; Shuning uchun ilmni qadrlovchi kishiga o'rgatish lozimligi, uni xo'rlovchi, mensimaydigan kishiga o'rgatish gunoh, deb qaraladi.

Ilm bilan shug'ullanishning o'zi yetarli emas. Boshqalarni undan xabardor qilish muhimdir. Hadislarning birida ilm o'rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: *«Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab yetkazsa, qiyomat kunida men uni shafoatimga loyiq kishilar safiga kirgizaman»* (*112-hadis*).

Tolibi ilmning xolis, kamtarin bo'lishi o'ta muhimdir. Bilganini ko'z-ko'z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e'tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan

---

[19] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. –T.: Kamalak, 1991. – 128-136-betlar.

[20] Hadis. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). I, II, III, IV jild. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991-1996. (keyingi misollar ham shu manbalardan olindi).

shug'ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimini o'ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham xolisona, beminnat bo'lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: *«Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto'g'ri maslahat bersa, demak, birodariga xiyonat qilgan bo'ladi»* (110-hadis).

Ilm o'zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir. Ilm olimning pesh qilish vositasi bo'lmasligi zarur. *«Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda, yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud odamlarning dillarini o'ziga moyil qilish uchun ilm olsa do'zaxga boradi»* (108-hadis).

Ilmli kishilarni e'zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytiladi: «Ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham» (93-hadis).

Ilm olish, hunar o'rganish oliyjanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli nopok ishlardan asraydi: *«Hattoki bir soat ilm o'rganish, kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir»* (536-hadis).

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o'rganib boshqalar yo'lini yorug' qilishlari, ularga rahnamo bo'lishlari joiz. *«Ilm ikki xildir, biri qalbda bo'ladi – uni ilmi nofe' (foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo'ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taoloning hujjatidir»* (95-hadis). Ilm foydali bo'lishi uchun u odamlarga o'rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo'lishi, kishilarga yaxshilikni o'rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo'lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur.

«Odamlarga yaxshilikni o'rgatib, o'zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug'lik berib, o'zini kuydiradigan shamchiroqqa o'xshaydi» (106-hadis) yoki *«Ilmni o'rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to'plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o'xshaydi»* (106-hadis).

Ilm-u hikmat o'tkinchi emas, u abadiy. Shuning uchun mo'min kishiga vafotidan keyin yetib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmidir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o'xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo'lishi darkor. Muhammad payg'ambar o'z hadislarida va'z aytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytilayotgan fikrni tushunarli bo'lishini ta'kidlagan: *«Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, nafratlantirmangiz (o'zingizdan bezdirmangiz)!»* (121-hadis).

Ilmni o'rganish shaxsiy manfaat uchun bo'lmasligi darkor. *«Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan*

manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadilar. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadilar. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir» (26-hadis).

Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdor tuproqqa o'xshatiladiki, undan ungan o'simliklar, giyohlar insonlarni oziqlantiradi. Suv yerlarga hayot bag'ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezgulik, yaxshilik keltiradi: *«Ilm ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydir. Ba'zi yer sof unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradir-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradilar va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni shimmasdan o'zida to'playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir, hayvonlarni va ekinlarni sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir»*, - deyiladi hadislarda.

Ilm, hikmat o'rganmoq mo'minning eng yuksak fazilatidir. Chunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zeb-u ziynat, mo'min uchun ilm hayotining yo'ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. «*Ilm egallang*!- deb xitob qilgan payg'ambarimiz. – Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir». Shuning uchun ilm olish yo'lida har qanday riyozat bo'lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o'rganish mashaqqatdir. Ammo inson o'z irodasi, aql-zakovati bilan unga intilmog'i lozim. *«Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar»*, deydi (126-hadis) Muhammad payg'ambar.

Ilm – bu ma'rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilm-ma'rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Ilm susaysa nopoklik, fohisha zo'rayadi. Bu borada hadislarda: *«Ilmning susaymog'i – jaholatning kuchaymog'i, zinoning avj olmog'i, xotinlarning ko'paymog'i – erkaklarning ozaymog'i»*,- deyiladi (36-hadis).

Ilm, hikmat jamiyatdagi ma'naviyat manbai. Shuning uchun ilm o'rganib uni tarqatish avj olsa, fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o'rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o'rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. Shu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo'minlarning ma'naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga

olib keladi. Hadislarning o'zidek ilm, hikmat ham umumbashariyat mulki bo'lmog'i lozim.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar xolisona ifodalangan. Ularda ta'limning hozirgi ko'p muammolari o'ziga xos tarzda bayon etilgan. *«Har bir musulmonga ilmga intilish farzdir»*. Bu fikr ta'limning umumiy majburiyligiga ishora emasmi? Bu fikrlar Ya.A. Kamenskiyning «Buyuk didaktika»si yozilmasdan bir necha asr avval aytilgan.

Umuman, hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtayi-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari, ular insoniyat ma'naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o'zi ham hikmat, ham ilmdir.

Qur'oni Karim va Hadislarda insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqea-hodisalarning tub mazmun-mohiyatini anglab yetishga targ'ib qilinadi.

Qur'oni Karimda axloq va odob masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ta'kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o'rni bilan chambarchas bog'liq odob-axloq, ota-ona va qarindosh-urug'larga hurmat yetim-yesir, kambag'al-miskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to'g'rilik, o'z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o'z bolalarini boqish, ta'lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do'stlik va birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir.

Qur'oni Karimda sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatli, keng fe'lli bo'lish yuksak ma'rifat va yuksak axloqiy fazilat belgisi, deb ta'kidlanadi: *«Albatta sabrlilar o'z savoblarini hisob-kitobsiz to'liq oladilar»* (*«Zumar» surasi, 10-oyati*). «Sabr-qanoatga ehson bilan bir qatorda eng yuksak fazilat sifatida katta e'tibor beriladi: *«Muhammad, mashaqqatli va ozorlarga sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal qiluvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas»* (*«Hud» surasi, 115-oyati*).

Shuningdek, insondagi axloqiy fazilatlardan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: *«Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq- ehson qil»* (*«Qasas» surasi, 77-oyati*).

Qur'oni Karimning «Al-Isro» surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo'yishi, o'z farzandini jismoniy va ma'naviy tomondan yetuk kishi qilib tarbiyalashi, ya'ni ilm-u ma'rifatga o'rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o'g'il

bola bo'lsa uylantirish, qiz bola bo'lsa turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, mazkur oyatlarda farzandlar zimmasidagi uchta vazifa o'z ifodasini topgan. *Birinchisi, farzandlar ota-onalariga yaxshi muomala, shirinsuxan bo'lishlari, ularga mehribon bo'lmoqlari lozim. Ikkinchidan, ota-ona kafolatini yaxshilash, nafaqa berish, ularni so'rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishdan iboratdir. Uchinchidan, ota-ona o'z farzandlari mol-mulkidan foydalanishga haqlidir va hokazo.* Qur'oni Karimda marhamat qilinadi: *«Rabbing o'zidan boshqa narsalarga ibodat qilmaslikka va ota-onasiga xayr-ehson va yaxshi muomala qilishga buyurdi. Ota-onangizdan biri yoki ikkovlari ulug'lik, keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uf»demang, gapiring. Va ota-onangizga rahmat qanoatini yozing hamda «Ey parvardigoro, ota-onam meni yoshligimdan qanday qilib tarbiyalab o'stirgan bo'lsalar, shundayin rahmat qil»* (*«Al –Is» surasi, 23-24-oyatlar*).

Qur'oni Karimning ma'lum oyatlarida insondagi eng zarur insoniy fazilatlardan sanalgan shirinsuxanlik, to'g'ri so'zlik va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari talqin etiladi: *«Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz»* (*«Baqara» surasi 53-oyati*); *«Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalaringizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqqo'l bo'lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar»* (*«Ol-i Imron» surasi, 159-oyati*).

Qur'oni Karimni «Nur» surasining 27-28-oyatlarida yaxshi fazilatli kishilar bilan ham, yomon xislatli kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lish va salomlashishning o'ziga xos odob-axloq qoidalari berilgan. Shuningdek, «Niso» surasining 86-oyatida esa salomga alik olishga oid qoidalar bo'yicha muhim ko'rsatmalar mavjud: «Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborasni qaytaringlar».

Qur'oni Karimda insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan oliyjanoblik ulug'lanib, baxillik esa lan'atlanadi. Baxillik yo'lini tashlab saxiylikka tomon yuzo'girganlar najot topguvchilar sifatida talqin etiladi: *«Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot topguvchi zotlardir»* (*«Xashr» surasi 9-oyati*).

Qur'oni Karimda insonni axloqiy kamolotga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, takabburlik, yolg'onchilik, munofiqlik, xiyonatkorlik, xasislik, zulmkorlik, buzuqchilik, o'g'rilik, poraxo'rlik,

ichkilikbozlik, zinokorlik, qimorbozlik, giyohvandlik, nohaq qon to'kishlar, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, baxillik, g'iybatchilik, hasadgo'ylik, g'azabnoklik, ochko'zlik va hokazolar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan.

Ma'lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur'on Karimni «Isro» surasining 37-oyatida: *«Yer yuzida Kibr-Havo bilan yurmagin! Chunki sen (oyoqlaring bilan) hargiz yerni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo'yi hastda tog'larga yetolmaysan».*- deyiladi.

Bu to'g'rida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: *«Kimki o'zini katta olsa, yurishida o'ziga bino qo'ysa, oxiratda Allohning g'azabiga uchraydi»* (821-hadis), deb ogohlantiradi.

Ma'lumki, VIII–IX asrlar Hadis ilmi uchun *«oltin davr»* hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar «ham vatandoshlarimiz bo'lib, ilm-u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an-Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.*

Olimlar «al-kutub as-sitta» (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan «As-Sahih».
2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan «As-Sahih».
3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan «Sunnai».
4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniy tomonidan yozilgan «Sunnai».
5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan «Aj-jami al-Kabir».
6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan «Sunnai» kabi to'plamlardir.
7. Imom al-Buxoriyning shoh-asari «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») 4 jildan iborat bo'lib, unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng «sahih» hadislar kiritilgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta'limoti mujassamlashgan Qur'oni Karimdagi *«Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik...*

ularga halol-pok narsalardan rizq-u ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo'ydik»; «Ey mo'minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan yenglar», «Bandalarimga aytingki, ular eng go'zal so'zlardan so'zlashsinlar», «Odamlarni aldab fitnaga solish o'ldirishdan yomonroqdir». «Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi», «Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi...» kabi muhim g'oyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagi «Ilm egallang! Ilm-sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir»; «Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir»; «Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz», «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir»; «Yolg'on so'zlama», «o'zinga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'r», «Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar», «Axmoqdan uzoqlashing», «Nonni e'zozlanglar»; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, payg'ambarimizning aytgan so'zlari, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridan iborat manba – Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi, shuningdek, asarlarining mazmun-mohiyati va g'oyasi ham Qur'oni Karim va Hadisi Sharif ta'limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko'ra, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta'sir etgan va islom ta'limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bularda ilgari surilgan g'oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, biz islom ta'limotida, ta'lim-tarbiya masalalarining tutgan o'rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining xarakterli tomoni shundaki, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta'limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko'rinishi sifatida o'z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o'rin egalladi.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Movoraunnahrda VII – IX asrlarda islom dinining keng tarqalishi barcha sohalar, fan, madaniyat, falsafa, ijtimoiy hayot rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davr tarixi, madaniyati, ilm-u fani, ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos tarzda bo'lib, turli xil silsilalari, urushlar, nizolar oqibatida ham o'z tarqqiyot yo'lida to'xtamadi. Islom madaniyati shakllanishining ichki va tashqi manbalari, tamoyillari, ahkomlari, munosabatlari asta-sekinlik bilan rivojlana bordi, shuningdek ta'lim-tarbiya sohasiga oid o'zaro munosabatlar, ustoz-shogird munosabatlari paydo bo'la boshladi. Hadis – bu payg'ambarimizning hayotiy faoliyatlari davomida biron-bir fikrni bildirganliklari, biror-bir ishni amalda qilib ko'rsatganliklari hamda amaliy xatti-harakatlari to'g'risida aytilgan rivoyatlardir. Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar Rabez ibn Sabeh, Said bin Abi Aruba, Malik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb ko'rsatilgan. Hadis ilmini o'rganishning oltin davri deb VIII–IX asrlar tan olingan. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita to'plam (as-sahih as-sita) ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, ular hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar.

Muhaddislarning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. Hadis ilmida 6 yirik muhaddisni qilgan ishlari alohida e'tiborga molikdur.

1. Imom Buxoriy 810-yil 13-may kuni Buxoroda tug'ilgan (810-870). Voyaga yetguncha 70 ming hadisni yoddan bilgan. Imom Buxoriy 600 ming hadis to'plab shundan 100 ming sahih 200 ming nosahih hadislarni yodlagan.

Imom Ismoil al-Buxoriy iste'dodli, o'tkir zehnli hamda ziyrak olim bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Bag'dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko'pincha qorong'u kechalari sham yorug'i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib

qolsa, shamni yoqib, darhol o'sha fikrni qog'ozga tushirar, shu tahlitda ba'zan shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan» (U. Uvatov).

Imom Buxoriyning o'tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Buxoriyning axloqiy tarbiyaga oid ta'limoti komil, axloqan pok insonni tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egadir. Chunki uning asarlarida asosiy o'rin tutgan Qur'oni karim oyatlari va Hadisi sharifda qayta-qayta ta'kidlangan insonning o'z amallari borasidagi mas'uliyati, uning doimo nazorat ostida ekani va mukofot hamda jazoning muqarrarligini his etish yuksak insoniy va axloqiy talablarining amal qilishi uchun imkon yaratadi. Masalan, «ichingizdagi narsani xoh oshkor, xoh maxfiy tuting, Alloh baribir ularni hisob-kitob qilib qo'ygay» yoki «Sizlarning quloqlaringiz, ko'zlaringiz va terilaringizning o'zlaringizga qarshi guvoh bo'lmog'idan yashirina olmas erdingizlar» - degan Qur'on oyatlarini olsak, bu so'zlar yaxshlik bilan yomonlik, halol bilan harom o'rtasida ikkilanib turgan insonni biroz bo'lsa ham o'ylantirib qo'yadi va yomo niyatidan qaytaradi.

Imom Buxoriy ta'limotining inson axloqi va tarbiyasidagi ahamiyati shundan iboratki, u insonni hech qachon umidsizlik tushkunlik holatiga qo'ymaydi, yaxshilik va tavba-tazarru uchun doimo imkon beradi, hatto yomonlikni ham yaxshilik va ezgulik bilan mahv etishga yo'l ochadi.

2. Imom Muslim (820-865) Naysabrning Qushayr qishlog'ida tug'ilgan. Iroq, Xijoz, Shom, Misr, Buxoro va boshqa joylarda bo'lib, mashhur ulamolardan tahsil olgan va hadis ilmiga ulkan hissasini qo'shgan.

3. Imom Abu Dovud (816-889) Sijistonda hozirgi Eron va Afg'oniston hududida tavallud topgan. Yoshligidan hadis ilmiga qiziqib Iroq, Xuroson, Shom, Misr, Arab jazirasiga safar qilganlar va eshitgan hadislarni rivoyat etadi. Mashhur shayx roviy hofiz bo'lib yetishdi. U jami 50 ming hadis rivoyat qilib shundan 4800 ta sahih hadisni "Sunnat" kitobiga kiritgan.

4. Abu Iso Muhammad at-Termiziy 824-yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Sherobod tumani) qishlog'ida tug'ilgan. Imom at-Termiziy Imom al- Buxoriyga shogird bo'lgan. Uning eng katta asari «Sunan» bo'lib, bugungi kunda shoir Mirzo Kenjabek tomonidan «Sunani Termiziy» nomi bilan o'zbek tiliga o'girgan va nashr qilindi (2 - jilddan iborat). Umrining so'nggi yillarida at- Termiziy ko'zlari ojiz bo'lib qoladi va 892-yili ona shahri Termizda vafot etadi.

Imom at-Termiziyning «Sunan» kitobida keltirilgan hadislarda uning ta'lim- tarbiya, axloq-odobga oid fikrlari ko'p uchraydi. Chunonchi, doim

insonda yaxshilik fazilatlarini takomillashtirishni quyidagi hadislarda bayon etadi: «Alloh nazdida eng yaxshi do'st deb doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishilarga aytiladi». «Alloh nazdida eng yaxshi qo'shni o'z qo'shnilariga yaxshilik qilguvchisidir», «Odamlarga shukur aytmaydigan kishi Allohga ham shukur qilmaydi».

Imom at-Termiziy to'plagan hadislari orasida bolalarni axloq-odobga, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalashga da'vat kuchli: «Chinakam sabr-toqatli deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytiladi», «Haqiqiy mo'min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytiladi». Umuman, Imom at-Termiziyning ma'naviy qadriyatlar merosini, uning axloq-odob va ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarini, dunyoqarashini o'rganishda va ulardan hozirgi yoshlar ta'lim-tarbiyasida foydalanishda u to'plagan hadislaru alloma yaratgan «Sunan» kitobining ahamiyati g'oyat katta.

5. Imom Nasoiy (830-918) Xurosonning Niso shahrida tavallud topgan. Shom o'lkalariga safar qilib zamonaning mashhur muhaddislaridan saboq oladi. Imom avval «As sunan Al Kubro» degan kitob yozadi. Keyinchalik undagi ishonarli hadislarini qoldirib «As sunan As Sug'ro» deb nomlagan.

6. Imom Ibn Mojja (824-888) Iroqning Qazvin shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni olgach hadis ilmi bilan shug'ullanish uchun Iroq, Shom, Misr, Ray kabi o'lkalarga safar qiladi. Jami 32 ta kitob yozadi. Ushbu kitob 1500 bobni o'z ichiga olgan Imomning «Sunan» kitobini Ishonarli Sahih va Fiqixda tengi yo'q manba sifatida e'tirof etadi.

Hadislarda yomon ishlar, illatlar, yomon xatti-harakatlar gunoh sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti- harakatlar, faoliyat savob tarzida olqishlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim – tarbiyaga ta'siri qanday?
2. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
3. Hadis ilmi qanday paydo bo'lgan?
4. Islom dinining muqaddas kitobi va uning ahamiyati haqida ma'lumot bering.

27-MAVZU. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIMIY-AXLOQIY FIKRLAR RIVOJI.

IX-XI asrlar sharq uyg'onish davri. IX-XI asrlar sharq uyg'onish davrining dastlabki bosqichi bo'lib, bu davrda arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etdi. Ana shu madaniy ko'tarilish butun Arab halifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu Uyg'onish jarayoni IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifalikning Bag'dod, Damashq, Halab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xalifalik yemirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Xalifa Horun ar-Rashid va uning o'g'li al-Ma'munning hukumronlik davrida Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlik uyi») (hozir Akademiya ma'nosida) tashkil topadi. Mazkur Akademiya ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida kutubxonasi tashkil etiladi. Akademiya 819-833-yillari yanada rivojlangan. Akademiyada ikki rasadxona bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi bu ilm markazi, o'z navbatida, Sharq va g'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Marvazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan. Al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach, u olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Bayt ul-hikma» – Donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining antik davrlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning yetuk siymolari yetishib chiqa boshlaydi. Bular barchasining bir-biriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va taraqqiy etadi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkaz va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining madaniy yuksalishiga olib kelgan asosiy sabab - feodal munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilgani bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida Arab xalifaligiga bo'ysungan mamlakatlar xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va natijada turli madaniyatlar hind, Movarounnahr, Eron, Arab, Misr, grek-yunon-rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta ahamiyat kasb etdi. Haqiqatan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movarounnahrda, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoroning to'qimachilik mahsulotlari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lami ortib bordi.

Pireney yarimorolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifalarini ochdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Ovrupo uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida, matematika, falsafa, astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, xulq-odob, turmush-tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir etdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiy-

lar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi halifalikning yemirilishi hamda madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta, madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilardi. Rasmiy hujjatlar arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilardi. X asr o'rtalariga kelib, fors tilida ham ish yuritila boshlandi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan. Kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy munozaralar o'tkazganlar.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan.

Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Saljuqiylar davrida Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda, uning vaziri Nizomul mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimyatning ichki va tashqi siyosatini Nizomul mulk boshqarar edi. U hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi (1091-1092-yillar). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi. Nizomul mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qiladi. 1067-yili Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti - «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri - uning davrida taqvimning isloh qilinganidir.

X asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun II o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Majlisi ulamo» - «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masihiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining o'rni beqiyosdir. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi - Uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. *Sharq ilk Uyg'onish davri IX asrdan boshlanib XII asrgacha davom etdi.* Bu davrinig buyuk olimi, **Abu Abdulloh ibn Muso al-Xorazmiy (783–850)** osiyolik bir guruh mashhur olimlar singari Bag'dod xalifalari – Abbosiylar sulolasidan bo'lmish **al-Ma'mun (813–833), al-Mu'tasim (833-842) va al-Vosiq (842–847)** saroylarida yashab, ijod etdi. **Xorun ar-Rashid (786–809)** va uning o'g'li **al-Ma'mun (813–833)** davrida. Bag'dod Sharqning yirik va madaniy markaziga aylandi, ayniqsa, falsafa, riyoziyot, tibbiyot va boshqa fanlar rivojlandi.

Bag'dodda ochilgan **«Baytul Hikma» («Donishmandlar uyi»)**ga Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Xorazm, Shosh, Forob, Marv, Qobul va boshqa qo'shni o'lkalardan kelgan olim-u fozillar, shoir-u tarjimonlar va xattotlar to'plangan edi. «Baytul Hikma»ning ko'p yillik faoliyati mobaynida mashhur yunon olimlarining bir qancha asarlari arab tiliga tarjima qilindi, shuningdek, riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya va boshqa fanlarga doir bebaho asarlar bitildi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, al-Xorazmiy «Donishmandlik uyi»da falakiyot, riyoziyot va boshqa soha olimlari orasida o'zining ulug' salohiyati, qobiliyati bilan ajralib turgan. Al-Xorazmiy bu davrda o'zining ilmiy faoliyati, tabiiy-ilmiy qarashlari bilan ilg'or ma'rifiy-pedagogik tafakkur va tabiiy-ilmiy fanlar rivojiga keng yo'l ochdi. Riyoziyotda mavhumlikni (abstraksiyani) kengaytirdi. *Induksiya yo'li* bilan umumiy yechish usullarini hal qilib, *deduksiya* hamda umumiy usullari yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. Uning kashfiyotlari va asarlari dunyoviy, ya'ni aniq fanlarni mustaqil rivojlantirishga keng imkon yaratdi.

Shuning uchun ham al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy kashfiyotlari bilan o'zidan keyingi butun ma'naviy taraqqiyotga, tabiiy-ilmiy tafakkurga,

haqiqatni aniqlash uslublariga juda katta ta'sir o'tkazdi. Al-Xorazmiy obyektiv munosabatlarning, tabiiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini o'rganish zarurligini, atrof-muhitni tadqiq etishda insonning ongi va ilm-fanning ahamiyatini yuqori baholadi. Shularni e'tiborga olsak, o'z vaqtida al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy fanlarning, ayniqsa, riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiyaning rivojlanishiga, bu fanlarning mustaqil taraqqiyotiga to'g'ri yo'nalish berishda o'zining tutgan yo'li bilan ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu boisdan ham hozirgi zamon olimlari IX asrning birinchi yarmini «Al-Xorazmiy davri» deb atayotganlari bejiz emas.

O'sha davrda savdo munosabatlarini yuritish, meros taqsimlash muammolari, sun'iy sug'orish ishlari, dambalar, saroy va mudofaa inshootlarini barpo qilish ishlari, falakiyot ilmiy masalalari, kalendar tuzish, uzoqdagi narsalarning masofasi va o'lchamini aniqlash kabi bir qator muammolar tabiiy fanlarni, xususan, algebrani rivojlantirishni taqozo qilardi. Bu amaliy talablar tenglamalarga bo'lish, ularni yechish qoidalarini topishni hamda riyoziyotning boshqa masalalarini hal etishni taqozo qilar ediki, bu mushkul vazifalar al-Xorazmiy zimmasiga tushdi. Al-Xorazmiyning *«Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va -l-muqobala» («Aljabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»)* nomli asari algebra faniga asos soldi, uning mazmuni, asosiy tushunchalari va qoidalarini belgilab berdi.

Al-Xorazmiyning *«Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr val-muqobala»* asarida *«Al-jabr»* so'zi asrlar davomida o'zgara borib, *«algebra»* atamasiga aylanganki, bu riyoziyotning alohida bir bo'limidan iborat fan hisoblanadi. Olim *«al-jabr va al-muqobala»* so'zlari orqali ikkita amalni tushungan va ularni tenglamalar yechishga tatbiq etgan. *«Al-jabr»* amali orqali tenglama hadlarini bir tomondan ikkinchi tomonga ko'chirish bajariladi. *«Al-muqobala»* esa tenglamadagi o'xshash hadlarni yig'ish amalidir. Demak, *«Al-jabr»*ning lug'aviy ma'nosi to'ldirish, «Al-muqobala» qarshi qo'yishni bildiradi. Al-Xorazmiyning bu asarida o'sha davrdagi boshqa asarlar kabi hech qanday formulalar va simvollar bo'lmay, balki tenglamalar va uning yechilishi so'zlar bilan ifodalangan. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi va ikkinchi darajali tenglamalar, ularning yechimlari xususiy hollarda bundan ming yillar oldin qadimgi Misr va Vavilon xalqlarida, keyinroq yunon matematiklarida uchraydi. Ammo ularning yechimlari faqat xususiy holda bo'lib, ular kvadrat tenglamalarni yechish uchun umumiy qoidalar bermaganlar. Bunday qoidalar va ularning isbotlarini al-Xorazmiy birinchi bo'lib o'zining *«Al-*

kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr val-muqobala» asarida to'la va uzviy bayon etdi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad al-Xorazmiyning matematik asarlaridagi meros taqsim qilishga doir masalalar qaysi zamonda, qaysi davrda bo'lmasin, na faqat musulmon huquqi uchun, balki hozirgi kundagi huquqshunoslik fani taraqqiyoti uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.[21]

A.N.Forobiyning asarlarida pedagogik fikrlar. Sharqning buyuk qomusiy olimi «**Muallimi soniy (Ikkinchi muallim) Abu Nasr Forobiy** (873–950) ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan *«Fozil odamlar shahri», «Ilmlarning kelib chiqishi»* asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim bilan tarbiya birligi haqida qimmatli fikrlar bildiradi.

Forobiy *«Baxt-saodatga erishuv to'g'risida»* nomli risolasida ta'lim-tarbiya birligi haqida fikr yuritar ekan, unda ta'lim berish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishi lozimligini ko'rsatadi. Forobiy insonning ma'naviy olamida, uning ikki tomoniga: aqli va axloqini tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratadi. Ta'lim va tarbiya Forobiy fikricha, insonni aqlan va axloqan komil shaxs qilib shakllantirishga qaratilmog'i kerak. Xuddi shuning uchun ham, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi olam va insonlar haqida mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Sharq pedagogikasida Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan allomadir: *«Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida, nazariy bilim berish, tarbiya berish degani esa insoniy fazilatlarni, ma'lum hunarni yoki kasbni egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor normalarini o'rgatishdir».*[22]

Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri anglab oladi, umr kechirish jarayonida to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan halol, adolatli munosabatda bo'ladi. Jamiyatda o'rnatilgan oqilona tartib va qoidalarga rioya etadi.

Forobiy ta'lim va tarbiya ishini boshlashdan oldin tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini bilish va ta'lim-tarbiya berish jarayonida murabbiyning barkamolligini nazarda tutish zarurligini ko'rsatadi. Chunonchi, uning fikricha, murabbiy xohish-ixtiyor, iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik nima ekanligini yaxshi bilgan odam bo'lishi zarur.

---

[21] S.Hasanov Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. –T.: O'qituvchi, 1996. – 79-63-betlar.

[22] Abu Nasr Forobiy. Risolalar. –T.: Fan, 1975. – 71-72-betlar.

Chunki, inson ruhiga xos bo'lgan xohish-irodani, uning qobiliyatini aniqlamasdan turib, tarbiya ishiga kirishish kutilgan natijani bermaydi, deydi alloma.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi fikrlari ham g'oyat qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan: ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, deb ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, ta'lim nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirsa, tarbiya esa insoniy fazilat, amaliy kasb-hunar, xulq-odob malakalarini rivojlantirib boradi, ta'lim so'z o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirib boriladi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi. Shuningdek, Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb ko'rsatadi.

Abu Nasr Forobiy *«Baxt-saodatga erishuv to'g'risida»* risolasida ta'lim-tarbiyani ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi va shaxsdagi g'ayrat-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi usul - majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.[23]

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada *rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini* ko'rsatgan. Bu har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadida qo'llanilgandir.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omildir. Bu masalaga, ayniqsa, Sharqda juda katta e'tibor berilgan. Musulmon olamida mavjud an'anaga ko'ra, ustoz shogirdni qabul qilgan birinchi kundan boshlab, uning ma'naviy javobgarligini o'z bo'yniga olgan. Tarbiyalanuvchining ota-onasi o'z bolasini ustozga: *«Eti sizniki, suyagi bizniki»* deb topshirgan. Ustoz shogirdga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki u shogirdiga keng ma'nodagi tarbiyani ham beradi.

Ustoz shogirdning ham axloqiy, ham kasbiy qiyofasini shakllantiradi. *«Ustoz otangdan ulug'»*, degan maqolning hikmati shunda. Qadimda shogirdlar ustozni benihoya hurmat qilganlar.

Shu munosabat bilan Forobiy o'qituvchining ijtimoiy hayotda o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, o'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishni, yolg'onni va yolg'on aytganni yomon ko'rishi, o'zi fahm-farosatli bo'lishi va or-nomusini qadrlashi,

[23] O'sha joyda, 23–24-betlar.

shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlangan maqsadga erishishda qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i lozim.

Forobiy «*Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida*» risolasida muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham, o'ta bo'shanglikka ham yo'l qo'ymasligi kerak, chunki o'ta hokimlik shogirdda «*muallimga nisbatan nafrat uyg'otsa, o'ta bo'shanglik esa shogirdning muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan mensimaslik xislatini paydo qiladi*», deb ta'kidlaydi.

Bu fikrlari bilan u ustozlik ta'lim va tarbiyada nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir karra uqtiradi. Shunday qilib, mutafakkir ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasi adolatli jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat, el-yurt uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb bilgan. Forobiy pedagogik ta'limotining asosida axloqiy go'zal, mustaqil fikrlovchi, barkamol insonni shakllantirish masalasi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy orzu qilgan ta'lim va tarbiya birligi hozirgi davrimizda ham yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Forobiy «*Aql ma'nolari to'g'risida*», «*Baxt-saodatga erishuv to'g'risida*» asarlarida yoshlarning bilimiga bo'lgan intilishlarini har tomonlama keng yoritishga harakat qiladi: «Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holatini biladi, ongini o'sha predmet shaklidagi bilimga yo'naltiradi. Bu o'zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir». Forobiyning bilish to'g'risidagi nazariy asoslarini, xususan, mantiq fanida bilish jarayoni va bilish shakllarining mohiyati birinchi marta ochib berildi. Bu jarayonlar mantiqda unga rioya qilish tafakkurini takomillashtirish va murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini olish qonunlari sifatida aks etadi.

Forobiy fikrlash faoliyatini faollashtirishning didaktik tamoyillari va metodlarini asoslab berdi. Unga o'qitishning amaliy yo'nalganligi; nazariy bilimlar uzluksizligi va bilish metodlari; mantiqiylik va uzviylik hukm metodlari va usullari; induksiya va deduksiya metodlari kiradi.

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya samaradorligini yuqori baholagan pedagogik, didaktik tamoyillar, ta'lim-tarbiya shakllari va usullari quyidagilar:

–ta'limning ilmiyligi va amaliy ahamiyatga egaligi;

–tizimliligi, mantiqiyligi va ketma-ketligi;

–hayot bilan bog'liqligi;

–tushunarli bo'lishi;

–kuzatish va tajribalar;

–dialektik, isbotli, tortishuvli, **ritorik va she'riy mulohaza** yuritish usullari;

–induksiya va deduksiya usuli;

–mashqlarni bajarish, takrorlash va h.k. Shunday qilib, Forobiyning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi teran fikrlari, ibratli mulohazalari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy pedagogik qarashlari. Qomusiy olim **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy** (973–1048) ong, idrok jarayoni va uning kechishini puxta o'rganishga harakat qilgan. Idrok etish faoliyatini faollashtiruvchi o'qitish shakl va usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o'quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsni kamolga yetkazishdagi o'rni va roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi:

– berilayotgan ma'lumotning tushunarliligi (bilimlarni berishda o'quvchi-talabalar uchun tanish bo'lgan, ya'ni yaqindagi obyektlar asosida unga tanish bo'lmagan, (uzoqdagi) obyektlarning mohiyatini yoritib berish, ma'lum bilimlar negizida noma'lum tushunchalarning asoslanishi ijobiy natijalarni kafolatlashiga e'tiborni qaratadi;

– o'quvchi-talabalarni ilmiy asoslar bilan qurollantirish (ushbu jaryonda o'quvchi-talabani ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish, unda tajriba o'tkazish va amaliy kuzatishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni doimiy ravishda takrorlab borish bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam berishini qayd etib o'tadi).

Beruniy ta'limning muhim masalasi ta'lim jarayonida amaliyotda sinalgan, ishonchli dalilllar bilan o'quvchi-talabalarni qurollanishidir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday ta'lim jarayoni o'quvchi-talabalarning ongli faoliyatini, uning mantiqiy mushohada yuritishini faollashtirishga yo'naltirilgandir. Chunki anglamagan hodisalar anglagan hodisalar orqali tushuniladi. Tajriba asosida yangilik o'zlashtiriladi.

Og'zaki va yozma ma'lumotlarni o'rganish tajribasi, dalillarga tanqidiy yondashishi, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish, bilimni ongda qayta ishlash borliqni anglashning ilmiy uslubidir, deydi Beruniy.

Beruniyning ta'kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini

ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi.

O'quvchi-talabalarning yaxshi o'qishi uchun muallim rostgo'y, savodxon, shogirdlariga tamoyilli, yumshoq muomalali bo'lishi kerak. Muallim o'quvchi-talabani doimo to'g'ri yo'lga boshlashi, uning sezgir va talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi. Zotan, o'quvchi-talabaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim-tarbiya mezonidir.

Beruniy o'qitish jarayoni muallimning o'qib-o'rgatishi, takrorlashi bilan bevosita bog'liq ekanini alohida uqtiradi. Shuningdek, u kitob o'qishning usul va metodlariga alohida e'tibor beradi. Kitoblarni shunchaki emas, balki fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish, hamma o'qilgan joylarini umumlashtirib, qayta o'qish haqida didaktik mulohazalar bildiradi.

Beruniy o'qitishga faqat *induktiv* yo'l bilangina emas, balki *deduktiv yo'l* bilan ish tutish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o'z joyida qo'llamoq zarurligini yaxshi bilgani ko'rinib turibdi. Bunday o'qish tafakkurni o'stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi.

Ma'lumki, o'quvchi-talabani to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish, asosan, alifboni o'rgatish davrida amalga oshiriladi. O'qish bilan savod o'rganish jarayonida o'quvchi-talabaning bilim va malakalari takomillashtiriladi. O'qish darslari grammatika, orfografiya, matemati-ka, tabiatshunoslik va boshqa fanlardan beriladigan bilimlarni mustahkam egallashda muhim rol o'ynaydi.

Abu Rayhon Beruniy dastlab o'quvchi-talabaning ongli o'qishi, matnning hajmi kichik, mazmuni sodda, keyinchalik esa hajmni katta mazmuni murakkabroq bo'lganlarini o'qishga kirishishi, o'qish jarayonida taqqoslash, qiyoslashga e'tibor berish talabalarning ongli bo'lishiga asos solishini eslatib o'tgan.

Olim o'qilganlarning hammasini qaytarib o'qish deganda, asosan, xato qilmay, so'zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlatmay, bo'g'inlarni tushirib qoldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi. O'qishning tez, to'g'ri va ifodali bo'lishi, o'qish davomida bolaning o'z-o'zini tuzatib borishi xatosiz o'qishga yordam beradi. Bunday o'qishda asar mazmunini tushunib, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib va ifoda etilgan voqealarning ichki va tashqi mohiyatini anglab o'qishni ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda o'quvchi-talabaning savodli o'qishida to'rtta asosiy tarkibiy qism, ayniqsa, ahamiyatlidir. Bular ongli, ifodali, to'g'ri va tez

o'qishdir. Ular o'zaro ichki bog'lanish motivlariga ega. O'rta asrning buyuk donishmandi Beruniy o'qish haqida ana shu o'zaro bog'liqlik o'quvchi-talabalarning o'qish faoliyatini mukammallashtirishga, rivojlantirishga imkon yaratishini nazarda tutgan edi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo'yadi, shu bilan birga, bilim berish xilma-xil yo'l bilan, eng muhimi, o'quvchi-talabani toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan o'quvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilishni chuqurlata borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi. U haqiqiy maqsadga erishish uchun yo'lini to'sib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish lozimligi, o'zlashtirilgan bilimlar hayotda tajriba qilib olinmasa, bundan hech naf bo'lmasligi haqida gapiradi. X–XI asrlarda Beruniyning didaktikasidagi ta'lim berish usullari va metodlari ayrim jihatlarining soddaligi va qarama-qarshiliklariga qaramasdan, katta kashfiyotligi va ilmiyligi bilan qimmatlidir.

Beruniy inson va jamiyatning paydo bo'lishi masalasiga to'xtalib: «Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir», deydi. Beruniy kishilik jamiyati paydo bo'lishi haqida fikr yuritar ekan, insonlar o'rtasida tafovutlar bo'lsa-da, kishilarning ichki tuzilishi barchada umumiydir, degan xulosaga keladi. Ana shu nuqtayi nazardan xalqlarning turli ajdodlaridan paydo bo'lgan degan ehtimolni butunlay rad etdi. U inson bilan maymun o'rtasida o'xshashlik borligini juda ko'p ilmiy dalillar asosida tushuntirib beradi: «Ular a'zolarining o'xshashligi bilan, tashqi ko'rinishlari ham o'xshab ketadi».

Beruniy fikricha, inson hayvondan aql bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo'lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi.

Ayniqsa, mutafakkirning insonning jismoniy tuzilishi va butun faoliyatini aniqlashda jo'g'rofiy omilning roli haqidagi fikrlari katta ahamiyatga ega: «... (odamlar) tuzilishlarining rang, sur'at, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir».

Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida. Sharqning ulkan qomusiy olimi, jahon ilmi va pedagogik fikrlarining eng mashhur namoyondalaridan **Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino** (980–1037) ta'lim-tarbiya masalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi pedagogik - psixologik qarashlari

o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi.

Ibn Sino *«Risolat at-tayr» («Qush»), «Xayy ibn Yaqzon», («Uyg'oq o'g'li tirik»)*, «Donishnoma» kabi asarlarida o'zining pedagogik va psixologik qarashlarini ifodalaydi. Masalan, u «Hayy ibn Yaqzon» asarida yoshlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi: «... bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar».[24] Shuningdek, alloma shaxs fe'l-atvorini tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmining, ya'ni ilmiy mantiqni bilishga da'vat qiladi. Chunki ilmiy-mantiq shaxs didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. U bu haqda shunday deydi: «Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoniy fe'l-atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan».

Shuning uchun ibn Sino ta'lim-tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakllari va metodlariga juda diqqat va e'tibor, mas'uliyat bilan qarash kerakligini ta'kidlaydi. Olimning e'tirof etishicha, ko'rsatmalilik ta'limni aniq, yorqin va qiziqarli qiladi, kuzatuvchanlik va fikrlash, mushohada yuritishni o'stiradi. Uningcha, inson narsa va hodisaning tashqi jihatlarini, ko'rinishlarini o'rganib, uni yanada chuqurroq bilishga intiladi. Narsalarning aslini yoki ularning suratini ko'rish orqali bolalarda ular haqida ma'lum bir tasavvur hosil bo'ladi. Ibn Sino ko'rsatmalilikni ko'rish, eshitish singari sezgi organlari orqali bog'laydi. Olim o'qitishning oddiydan murakkablikka tomon yo'naltirishdan kelib chiqqan holda mashqlar qildirish, o'qitishni esa faqat chuqurlashtirish asosida, ya'ni sinf tarzida o'tkazish zarur, deb hisoblaydi.

Yuqorida ibn Sino muntazamlilik va uzviylik tamoyiliga amal qilish zarurligini ta'kidlagani haqida to'xtalgan edik. O'quvchilar kuzatish va tarjribalarini muntazam va uzviy jarayonga aylantirish orqali esa ularda mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati rivojlanadi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, o'quv va jismoniy mashqlarni bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda suhbatlar, tushuntirishlar bilan birga qo'shib olib borish kerak. Yakka tarzda o'qitgandan ko'ra, guruhlarda (sinfda) o'qitish ko'proq samara beradi, chunki guruhlarda o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zidan musobaqa paydo bo'ladi, deydi: *«Bolalarni guruh qilib o'qitish tashkil qilinsa, juda yaxshi samara beradi. Chunki bu jarayonda ular bir-birlaridan ibrat oladilar..*

Guruh qilib o'qitish jamiyatga katta foyda keltiradi. Chunki bunda o'quvchilar bir-birlari bilan do'stlashadilar, ular o'rtasida o'zaro

[24] Ibn Sino. Falsafiy qissalar. –T.: O'qituvchi, 1963. – 486-bet.

hurmat paydo bo'ladi, o'zaro fikrlashib bahslashadilar, huquq va burchlari xususida muhokama yuritadilar, musobaqalashadilar».[25]

Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining birinchi kitobidan o'rin olgan «Ro'zg'or yuritish haqida risola»sida bola tarbiyasiga oid juda ko'p pedagogik va fiziologik tavsiyalar bayon etilgan. Tarbiyadan maqsad, – deydi olim, bolaning aqliy va jismoniy quvvatlarini o'stirishdir. Chunki bola yaxshi yoki yomon, yovuz yoki oliyjanob bo'lib dunyoga kelmaydi. U bu xususiyatlarga tarbiya, atrofdagilar ta'siri tufayli erishadi. Ibn Sinoning fikricha, bola qalbi, misoli «Pokiza oyna». Unga istalgan shaklni chizish mumkin. Bolada oliyjanob ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirish uchun mashq uslubidan foydalanish, ya'ni uni hayotda qo'llashga o'rgatish kerak.

Ibn Sino ta'lim-tarbiyaning alohida guruhlar bilan suhbat uslubini tavsiya qiladi. Eng muhimi bolaning shaxsini hurmat qilishdan boshlash kerak: *«bolaga zug'um qilib, unga hurmatsizlarcha munosabatda bo'lmaslik, aksincha, tengdosh o'rtoqlarday gaplashish lozim».*[26] Olim suhbat, tushuntirish, misol keltirish singari uslublarning imkoniyatlari haqida so'z yuritadi. Salbiy xislatlarni tuzatish, shaxsni qayta tarbiyalash muammosi haqida ham mulohaza bildiradi. Buning uchun, avvalo, bolani har tomonlama o'rganish va shu asosda undagi salbiy qiliqlarni bartaraf etish, ijodbiy fazilatlarni shakllantirishga kirishish mumkin. Olim, ayniqsa, jismoniy mashqlarga katta e'tibor beradi. Tug'ilgan kunidan boshlab bolaning jismoniy rivojlanishi xususida qayg'urish kerak, deydi. Buyuk tabib bola jismidagi har bir a'zoning salomatligini ta'minlash uchun lozim bo'lgan maxsus mashq usullari ishlab chiqqan. Bu mashqlarni tananing holatiga muvofiq bajarish, kamquvvat, zaif a'zolarni og'ir jismoniy mashqlar bilan toliqtirmaslikni ta'kidlaydi.[27] U ishlab chiqqan mashqlar kichik va katta, juda kuchli va zaif, tez va sekin, keskin va tez harakatni taqozo etadigan harakatlarga bo'linadi.

Ibn Sino ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan, yosh avlodni o'qitadigan tarbiyachi quyidagi talablarga muvofiq faoliyat olib borishi lozimligini uqtiradi:

– o'quvchi-talabalar bilan munosabatni tashkil etishda mo'tadil (o'rtacha) bo'lish;

–o'quvchi-talabalarning bilim va mahoratlaridan hayotda foydalana olishlariga e'tibor berish;

---

[25] Антология педагогической мысли Узбекистана. – М.: Просвещение, 1986. – с.86.

[26] O'sha joyda, 86-bet.

[27] Ибн Сино. Канон врачебной науки. Книга I. – Т.: Медицина, 1981. – с.17.

–o'quvchi-talabalar bilan ishlashda turli usullarni qo'llay olish;

–o'quvchi-talabalarda bilim olishga nisbatan qiziqishni kuchaytirish;

–o'qituvchining gaplari va fikri o'quvchi-talabalarga tushunarli bo'lishi uchun har bir so'zini imo-ishoralar bilan bajarishi (binobarin, bu uslub bolalarda his-hayajonni uyg'otadi);

– tarbiyalanuvchilar ongiga quyidagi yuksak axloqiy tamoyilni singdirishi «faqat o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham yashash kerak».

Alloma asarlarida quyidagi pedagogik va didaktik tamoyillar, o'quv-tarbiya shakl va usullari xususida so'z yuritiladi.

– tajriba;

– sabablarning o'zaro bog'liqligi tamoyili, analiz, sintez, umumlash-tirish;

– bolani darhol kitob o'qish bilan bog'lab qo'ymaslik;

– jamoa bo'lib o'qish;

– mashqlar (ularning me'yorlanganligi, imkoniyat borligi, jamoat-chilik, o'quvchi-talabalarning qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish);

–o'qitishning asta-sekin, ketma-ketligi, osonidan murakkabga o'tib borishi;

– o'quvchi-talabalarning individualliklarini hisobga olib, tushunarli bo'lishi; – nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, umumiydan xususiyga o'tish, tizimlilik va mantiqiylik ifoda etish va mulohazalarining bir tekisligi va ketma-ketligi kabi usullar;

– kuzatish, tajriba, amaliyot.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida ta'lim tarbiya masalalari. XI asrda yashab ijod etgan buyuk mutafakkir **Mahmud Qoshg'ariyning** *«Devonu lug'atit turk»* asarida ilm olishning qadri, bilim eng bebaho boylik bo'lib, uning negizida insonning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, odob-axloqi, go'zal insoniy fazilatlari shakllanadi, bilim va kasb-hunar insonning butun xatti-harakatlarini belgilaydi, deb ta'lim beradi:

Shu boisdan ham Mahmud Qoshg'ariy ilm-marifatni qadrlash, donishmand olimlarga hurmat ko'rsatish, ulardan bilimni o'rganish zarurligini, bilimli bo'lish kibr-havo manmanlikdan asraydi, deb uqtiradi:

Ilm-ma'rifat o'rgangin, bo'lma mag'rur,
Maqtanchoqning sharmandasi chiqdi, ko'r.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk»da yaxshi fazilat-larni kasb etish zarurligi, kek saqlamaslik, qasd olishga intilmaslik,

yaxshilik qilishga, shirin so'zlashga, xushxulq bo'lishga odatlanish kerakligi pand-nasihat qilib o'tilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida Xitoydan Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilib ketgan bepoyon hududlarda yashagan turkiy qavmlarning urf-odatlari, an'analari, odob-axloqlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar mavjud. Masalan, *«Tirishqoqning labi yog'liq», «Erinchoqning boshi qonlik»,* maqolida tirishqoq va harakatchan odam mehnat qilib yaxshi taomlar topadi, moyli ovqatlar yeydi, erinchoq, dangasa esa, yalqovligi tufayli ishdan qochadi va pirovardida boshiga urib, faryod chekadi, degan ma'no yotadi. *«Odamning olasi ichida, yilqiniki tashida, sirtida»* maqoli esa dilidagi xiyonatni yashirib, yuzaki yoqimli muomala qiluvchi kishilarga nisbatan aytilgan. *«Odobning boshi til»* maqolida esa xushxulqlikning talablaridan biri–odobning boshi til ekanligi, shirinso'z kishi martabaga ega bo'ladi va kamolotga erishadi, degan ma'no yotadi. *«Ho'kizning ortingi oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq»* maqolida mustaqillikning bo'ysunishdan, mutelikdan afzalligi ifodalangan. Xalq orasida *«Ilon o'zining egriligini bilmay tuyaning bo'ynini egri deydi»* maqoli qo'llanilgan. Inson o'zini ayab, yaxshi yeb-ichsa, tez qarimasligi «*Maishatlik odam tez qarimas»* maqolida ifodalangan. *«Alp chirikda, bilga tirikda –botir jangda - dono majlisda sanaladi»* maqolida esa insonning qanday fe'l-atvorli kishi ekanligi uning jasorati va oqilligiga bog'liq ekanligi ifodalangan.

Ishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik *«Shoshgan kishi uyiga yeta olmaydi»* insonning kasb-hunar va xulq-odobiga ega bo'lishi *«Erdamsizdan qurt chertilur – hunari va odobi bo'lmagan kishidan baxt va davlat ketadi»* kabi maqollarda talqin etiladi.

«Kichikda qatig'lansa ulg'adu sevinur» maqolida ilm-hunarni yoshlikdan egallash zarurligi ham ifodalangan. Chunki inson yoshlikdan tirishib mehnat qilsa katta bo'lganda uning rohatini ko'radi, albatta.

Shuningdek, maqollarda yomonlik qilgan kishining o'ziga yomonlik qaytishi mumkinligi ham *«Ko'kka suzsa, yuzga tushun-osmonga tupurgan kishining tupugi o'zining yuziga tushadi»* qabilida ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asaridagi she'riy parchalar, maqollar ezgulikni targ'ib qilgan, insonning kamolga yetishiga katta ta'sir etgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari pandnoma asar sifatida. XI asrning buyuk mutafakkiri **Yusuf Xos Hojib** (taxminan 1019- yilda tug'ilgan, vafot etgan sanasi (?)) *«Qutadg'u bilig» («Sodatga*

eltuvchi bilim») dostonini Bolosog'unda yoza boshlab, uni Qashqarda yozib tugatdi. Qoraxoniy hukmdorlaridan bo'lgan Tavg'ach Bug'roxonga doston muallifini taqdirlab, unga *«Xos Hojib»(mukarram, eshik og'asi)* unvonini berdi. Shunda keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan shuhrat qozondi.[28]

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida ilm-ma'rifat, odob-axloq, davlatni boshqarish yo'l-yo'riqlari, turkiy xalqlarning milliy-ma'naviy qadriyatlari haqidagi keng qamrovli pedagogik qarashlar mazmun-mohiyati asosini barkamol inson va uning ta'lim-tarbiyasi muammosi tashkil etadi.

«Qutadg'u bilig»da Allohning yer yuzidagi xalifasi – Hazrati insonning ijtimoiy mohiyati, xislati, fazilatlari, qadr-qimmati, odob-axloqi, madaniyati, ma'rifati, barcha mavjudotlar ichra buyuk va bebaholigi falsafiy tahlil etilgan. «Odamzod nasli, - deyiladi kitobda, - aslida yer yuzidagi barcha jonlilar orasida eng ulug'idir, ammo bu ulug'lik bilim bilangina to'liq, mukammallik kasb etadi».[29]

Mutafakkir insonning buyuk va bebaholigi, uning aql-idrok va tafakkur sohibi ekanligida, aynan shu qudrat barcha voqea-hodisalar zamiridagi tub mohiyatni anglash bebaho marvaridi. Hazrati Odamda tabiat va jamiyatning sir-asrorlarini kashf etish qobiliyati tajassum.

«Qutadg'u bilig»da inson qadri bilimdonligida ekanligi haqida bir hikmat mavjud: «Odamzod naslining ulug'ligi-bilimdonligi. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir. Buyumni buyuk bil, o'quvni ulug', shu ikkov ulug'lar kishini tulug'».[30]

Mutafakkirning talqinicha, jahonda bilimdan kuchliroq hech narsa yo'q. Shunday ekan, bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir. Hattoki, bilimsiz kishi to'rga chiqib o'tirsa, unday to'rni to'r deb bo'lmaydi. Uni poygakdan ham past deb bilish kerak. Ammo poygakka bilimdon kishi o'tirsa ham, u joyni to'rdan ham a'lo, deb bilish kerak, deydi:

Yusuf Xos Hojib uqitirishicha, bilim va zakovat – qaroqchi o'g'rilab ololmaydigan tangsiz javohirdir:

Bilim – boylik axir, zavoldan yiroq,
Uni ola bilmas qaroqchi biroq.[31]

---

[28] N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976. – 112-bet.
[29] Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Yulduzcha, 1990. – 45-bet.
[30] O'sha joyda, 11-bet.
[31] O'sha joyda, 16- bet.

Shuningdek, allomaning «Bilim ipor bilan juda o'xshash. Ularning har ikkisini ham yashirmoq behuda. Iporni yashirsang, hidi bildirib qo'yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas-tuganmas boylikka o'xshash»,- degan fikrlari ibratlidir.[32]

Ahmad Yugnakiyning «Hibbat-ul haqoyiq»asarida didaktik qarashlar. XII asr oxiri va XIII asrning birinchi choragida yashab ijod etgan yirik va zabardast mutafakkirlardan yana biri Ahmad Yugnakiy bo'lib, uning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asarida ma'naviyat va ma'rifat, shaxs ta'lim va tarbiyasi – bosh g'oyaviy masaladir. Asarning «Ilm manfaati, jaholatning zarari haqida» deb atalgan birinchi bo'limida «Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra ilmli bo'l, baxt yo'lini izla. Bilimli kishi (qimmat) baholik dinordir, ilmsiz, johil kishi qimmatsiz mevadir. Bilimli kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo'ladi, bilimli xotin – er kishidir, erkak – xotin kishidir»,[33] deyilgan.

Ahmad Yugnakiy aytganidek, «bir ilmli kishi, mingta ilmsizga tengdir, tenglovchi (tangri) ilm nasib etgan kishiga o'lchab beradi, mana boqib, sinab ko'rgin, ilmdan ziyoda nima bor. Ilm orqali olam yuqorilab yuksaladi, nodonlik kishilarni quyiga qarab tubanlashtiradi, erinma, ilmli bo'l. Tangrining chin rasuli: ilm kimda bo'lsa, ilm lazzatini, (mohiyatini donolar biladi), ilm qadrini kishiga ilmning o'zi beradi, nodon, johil ilmning qadriga yetmaydi. Ilmsiz haq so'z ma'nosizdir, unday kishiga pand-nasihat foydasizdir. Turli-tuman yuvuqsizlar yuvinsa, pok bo'ladi, ammo johil tozalanmas, iflosdir».[34]

Ahmad Yugnakiy inson xushxulqliligini ko'rsatuvchi muhim belgilardan biri til odobi, deb hisoblaydi:

Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,
Qolu chiqsa bekta tishing siyur.[35]

Mutafakkir insonda ikki narsa bo'lsa, unga muravvat yo'li yopiladi, deydi: birinchisi, behuda so'zlarni ko'p gapirsa, ikkinchisi uning so'zlari yolg'on bo'lsa.

Ahmad Yugnakiy halollik, haqgo'ylik, poklik, saxiylik, muruvvat, diyonat, sabr-toqat, kamtarlik kabi boshqa xislat va fazilatlarni inson ma'naviy-axloqiy yetukligi belgilari sifatida ta'riflaydi. Ayniqsa, u saxovatni eng ezgu insoniy fazitlardan, deb biladi va saxiylar hamma

---

[32] O'sha joyda, 18-bet.

[33] Qadimiy hikmatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1987. – 416-bet.

[34] O'rta Osiyoda fikr taraqqiyoti. –T., 1996. – 91-bet.

[35] O'sha joyda, 63-bet.

tomondan ulug'lanishi, dunyoda inson faqat yaxshilik va ezgulik bilan nom qoldirishi kerakligini ta'kidlaydi.

Mutafakkirning fikricha, xasislik, bag'ritoshlik, ziqnalik, hasadgo'ylik, fitna va ig'vo singarilar salbiy qusurdir. Xasis, ochko'z kishilar, buyumlar qulidirlar, buyumlari ular ustidan hukm yuritadi.

Mutafakkir gerdayish va takabburlikni qattiq qoralab amaldorlani martabaga erishgach, kamtar, samimiy bo'lishga, mavqeini suiiste'mol qilmaslikka chaqiradi:

Alinglansa tutnib g'azab inad o'ti,
Halimlik suvni soch ul o'tni o'chir.
Qudazgil ayo do'st, ulug'lar yaqin,
Osiqsiz jadal ham mijojtin soqin.
Ulag'larni bushrib senga bu mijoz,
Kichiklarni gustah qilur bil yaqin.
Ulug'lug'qa tegsang yengilma o'zing,
Qoli keysang atlas unutma bo'zung.
Ulug' bo'ldug'ungcha tuzurak bo'lib,
Ulug'qa, kichika siliq tut so'zing.[36]

Ahmad Yugnakiyning ma'naviy-axloqiy ta'limotida insonparvarlik, do'stlik va birodarlik, do'stlarga sadoqatlilik, vafodorlik kabi g'oyalar ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati. Kaykovus 412-hijriy yili (milodiy 1021-1022) tug'ilgan. Uning avlodlari gilon qabilasidan bo'lib, Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar. Kaykovus o'z hayot faoliyati davomida tajribalarga asoslanib o'zining buyuk «Qobusnoma» asarini yaratdi. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi.

«Qobusnoma» murakkab yo'lni bo'sib o'tdi. Sho'ro mafkurasi davrida asarning insonni aqliy, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hokim sinf axloqini targ'ib qilish deb baholandi. Kaykovusning Vatan haqidagi, kasb-hunarni ulug'lovchi, bilimlarni egallash haqidagi fikrlari, diniy qarashlari siyosiy nuqtayi nazardan qoralanadi. Asarning qiymati faqat uning adabiy-badiiy, til xususiyati va tarixiy jihatlarida deb ta'kidlandi. Ammo «Qobusnoma» asariga davr va shart-sharoitlar, siyosiy qarashlar ta'sirida qay darajada soya tashlanmasin, bu asar mashhur hind asari «Kalila va Dimna», Nizomul-mulkning «Siyosatnoma», Nosir Hisravning «Saodatnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud

[36] O'sha joyda, 64-bet.

Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Sa'diyning «Guliston», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Davoniyning «Axloqi Jaloliy» kabi axloqiy-ta'limiy asarlari bilan bir qatorda Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Unda Sharq pandnomalaridagi an'anaga binoan va XI asrda paydo bo'lgan yoshlar jamoasi juvonmardlik tarbiyasi ifodalandi. Muallif juvonmardlik haqida eng oxirgi bobda so'z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri juvonmardlikdir. Juvonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmak; uchinchisi, xayrili ishni ilgari tutish.

Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog'liq, deydi Kaykovus. Juvonmardlikning ustunlarini (ruknlari) quyidagilarda deb ko'rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pokdil va pokzabon bo'lmoq; asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonlig'idan yaxshilarni yiroq tutish, rostgo'ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat yetkazmaslik. Juvonmard sipohiylar esa sabr-bardosh bilan ish tutishlari, kamtarlik va mehmondo'stlik, saxiylik, to'g'rilik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi.

Mazkur bobda yana juvonmardlik yo'lini tanlagan yoshlarga uch narsadan o'zini: ko'zni yomon nazardan, qo'lni yomon ishdan. Tilni yomon so'zdan saqlashni tavsiya etadi. Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bog'ichini, deydi. So'ng hamma vaqt rostgo'y bo'lish, xiyonat qilmalik ham juvonmardlikning ko'rinishlaridan, deb biladi. Kaykovus juvonmardlikning kamolot nuqtasini ko'rsatuvchi mezon deb o'z mol-mulkini o'zganikidan ajrata bilish, xalq mulkiga ta'ma qilmaslik, birovning mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, xalqqa yomonlik qilmaslik, qanoatli bo'lish kabilarda deb biladi.

Kaykovus shunday deydi: «... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim». Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1.Kaykovus bilim olish haqida.

2.Hunar va turli kasb egalari haqida.

3.Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.

4.Jismoniy yetuklik haqida.

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipoxiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm; ilm bilan bo'gliq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat. Birinchisiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yer o'lchash va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo'lib, har qanday usta bo'lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa, hech ish qila olmasligi ta'kidlanadi.

Ilm olish yo'liga kirgan toliblarga ham yo'llanmalar beradi:

Hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo'lishi kerakligi, ilmni chuqur o'rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo'lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko'ra oladigan bo'lish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o'rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta'kidlaydi. Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujura (yulduzlar) ilmi, handasa (geometriya) ilmi borasida o'z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o'rgatishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan yuqori qo'yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan bo'y bo'lmoqqa sa'y ko'rgo'zgilki, mol bila bo'y bo'lg'andan, aql bila bo'y bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila faol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas» - deb ta'riflar ekan, inson adabi ham aqlning belgisi(«al-adab-suratil aql»), deya xulosa chiqaradi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliynasab va aslzoda bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bilan emas. Otni

senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga mag'rur bo'lmag'il... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il». Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etiladi. Fan amaliyot bilan uzviy aloqada qaraladi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridandir.

«Qobusnoma»da yoshlar tarbiyasida - juvonmardlik talablaridan eng muhimi -axloq tarbiyasi deb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi.

Kaykovus yuksak axloqlilikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.Kaykovus, avvalo, inson do'stsiz bo'lgandan ko'ra, birodarsiz bo'lgani durustdir, deydi. Kishining do'sti qancha ko'p bo'lsa, aybi shuncha sir tutiladi va fazilati ko'payadi. Kaykovus qiyinchiliklarda hamdard, tayanch bo'ladigan, sadoqatli, ta'magir, hasadgo'y bo'lmagan, aqlli, ilmli, muruvvatli kishilarni do'st tutish mumkin, deb ta'kidlaydi. Do'st bilan dushmanni ajrata bilish, dushman oldida o'zini ojiz ko'rsatmaslik, kuchli dushman va xiyonatchi, chaqimchi, sir ochuvchi do'stdan saqlanishni maslahat beradi. Kaykovus do'stlikni insonning kamolotini ko'rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan.

«Qobusnoma»da jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan. Zero, Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi. Buni biz asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», «Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko'ramiz.

Kaykovus, avvalo, har bir tartibli, aqlli kishi o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi va undan to'g'ri foydalanishini tavsiya etadi: «Hushmand (aqlli) kishilar o'zlarining har bir ishlariga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to'rt soatini o'z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o'lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir-biriga aralashmag'ay».

Kaykovus inson o'z tanining toza, pokiza bo'lishiga ham e'tibor berishi kerak, deydi. Uning «Hammomga borish zikrida», «Uxlamoq va osuda bo'lmoq zikrida», «Tamkin sharofatining va taom tartibining bayoni» kabi boblarida uxlamoq, yemoq-ichmoq, hammomga bormoq

qoidalari asosida yoshlarga jismoniy-axloqiy tarbiya asoslari singdirilgan. Demak, «Qobusnoma» XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlarini izohlang.
2. Abu Rayhon Beruniyning pedagogika faniga qo'shgan hissasi nimalarda o'z aksini topgan?
3. Ibn Sinoning ta'lim tarbiya borasidagi fikrlari haqida aytib bering.
4. Yusuf Xos Hojibning ta'lim – tarbiyaga doir asari haqida ma'lumot bering.
5. Kayqovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?

28-MAVZU. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASR MOVAROUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojlanishiga ta'siri. Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movaraunnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va O'rta Osiyoda Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Amir Temur Ko'ragon ibn Muhammad Tarag'ay Bahodir 1336-yilning 9-aprelida hozirgi Shahrisabzga qarashli Xojailg'or qishlog'ida tavallud topgan. Temurbek bilim olishni yetti yoshidan boshlagan. 9 yoshidan Qur'oni hofiz bo'lgan, 12 yoshidan katta hayot yo'li - Vatanimizni mo'g'ullar zulmidan ozod etish haqida o'ylay boshlagan. Ta'lim-tarbiya va ilm-fanga hissa qo'shgan Amir Temur farzandlari, nabiralari, avlodlari: Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegim va boshqalardir.

Bir so'z bilan aytganda, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo'lgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy yuksalish davri bo'ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur

o'tmishda Turon deb atalmish davlatning iqtisodiy va madaniy qudratini yuksaklikka ko'tarib, uni Ovrupa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi. Amir Temurning Ko'ragon - xon kuyovi, Qutbiddin – zamona peshvosi, Abulmansur – zafarmand, g'alaba qozonuvchi, Sohibqiron – yulduz, baxtli burjlarida tug'ilgan kabi unvonlari bo'lgan. Buyuk saltanat sohibi Amir Temur «Kuch - adolatdadir» degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan. Uning tamg'asi naqshi «Rosti-durusti» («To'g'ri bo'lsang qutulasan») yoki «Haqgo'y bo'lsang, najot topasan» degan ma'noni bildiradi.

So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. So'fiylik ta'limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So'fiylik butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

So'fiylik musulmon sharqi xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qildi. So'fiylik ko'p qirrali oqim bo'lib, "sof", "yagona" so'fiylik hech qachon bo'lmagan. U turli ko'rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo'lgan. Ammo har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondashib, uni o'ziga xos yo'l, qarash asosida talqin etgan. So'fiylik ta'limoti g'oyalariga e'tiqod va amal qiluvchi kishilar so'fiylar deb nomlanadi.

So'fiylik ta'limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. So'fiylar ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni baloqazolardan asraydi, ularni avaylab-asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g'oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi – bu ularning ideali, orzusi bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, ular komil, yetuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashganlar.

Komillikning mezoni ikki narsa: birinchisi, axloq, ya'ni, mo'min-musulmon, solih inson bo'lish, ikkinchisi, o'z-o'zini tanishdan iboratdir.

Har qanday g'oyaviy ta'limot mohiyatida aks etgani kabi, Islom ta'limotida ham ziddiyat va ixtiloflar paydo bo'lib, natijada VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli yo'nalish, mahzab va oqimlar yuzaga kela boshladi.

Ulardan sunniylik yo'nalishi VIII-XII asrlarda Arab halifaligi tasarrufidagi hududlarda vujudga kelgan eng yirik yo'nalishlardan biri

sifatida shakllangan bo'lib, bugungi kunda jahondagi barcha musulmonlarning to'qson foizi sunniy mahzabining vakillari sanaladilar.

Sunniylar o'zlarini ahli as-sunna – sunna tarafdorlari deb atab, Qur'on bilan birga sunnaga ham e'tiqod qiladilar. Ular payg'ambar Muhammad Alayhissalom va halifa Ali bilan bir qatorda, shialik tarafdorlari rad etadigan dastlabki xalifalar – Abu Bakr, Umar va Usmonning Islom ta'limoti g'oyalarini mustahkamlashdagi xizmatlarini ham birdek e'tirof etiladilar. Sunniy yo'nalishida quyidagi to'rtta mazhab – Hanafiya, Malikiya, Shofii'ya, Hanbaliya bo'lib, mohiyatiga ko'ra shariatga xos diniy-huquqiy tizimlar sanaladi va har biri ham huquqiy muammolarni hal etishda hadis talablariga tayanadi. Ushbu mazhablarning namoyandalari Abu Xanafa (699-767 yillar), Malik ibn Anas (713-795 yillar), Ash Shafiy (767-819 yillar) va Ibn Xanbal (780-855 yillar)lar bo'lib, ular Islom ta'limotining diniy-huquqiy nazariyotchilari hisoblanadilar. Sunniylik yo'nalishining mazhablari hokimiyat va uning mavjudligi borasida ham shialik yo'nalishida ustuvor sanalgan qarashlardan farqli g'oyalarga tayanadi. Sunniylar xalifalik hokimiyati mavjudligining tarafdorlari bo'lsalar, shialar imomat tarafdorlaridir.

Islom ta'limotida yana bir yo'nalish - shialik (arabcha so'z bo'lib, "guruh", "taraf" ma'nosini anglatadi) mavjud. Bu oqim mohiyati jihatidan sunniylikdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Hozirgi davrda, jahon musulmonlarining o'n foizi shia mazhabiga mansubdir. Shialik xalifa Ali hokimiyatining tarafdorlaridan iborat diniy-siyosiy guruh sifatida VII asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Iroq va Eronda bu yo'nalish g'oyalari keng tarqalgan. Shialik diniy-g'oyaviy masalalarni hal etish hamda diniy urf-odat, marosim va an'analarga amal qilish, ularni o'tkazish borasida ilgari surilgan qarashlarga ko'ra sun'iylikdan farq qiladi. Uning tarafdorlari xalifalik hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan. Shialik hokimiyat uchun kurash jarayonida maydonga kelgan bo'lsa-da, asosiy ixtiloflar diniy ta'limotni talqin etish borasidagi tafovutlardan iboratdir. Shialar ham sunniylar kabi Qur'onni e'tirof etadilar, ammo xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan, deb hisoblaydilar. Ular Qur'onning mazmunini majoziy talqin etish asosida o'z ta'limotlarini asoslaydilar. Hadislardan faqat Ali va uning tarafdorlari nomi bilan bog'liq bo'lganlarini tan oladilar va ana shunday hadislarni jamlab mustaqil to'plamlar tuzganlar. Mazkur to'plam Axbor deb nomlanadi. Sunniylik aqidalaridan farqli ravishda, shialar tavhid, adl, nabuvvat, imomat va qiyomat kabi besh aqidaga e'tiqod qiladilar.

So'fiylik ta'limoti butun Sharq ma'naviy hayotida komil inson va uni shakllantirish borasidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynadi.

So'fiylik ta'limoti va uning mohiyati xususida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, mazkur manbalar so'z yuritilayotgan ta'limotni o'rganishda boy manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asari so'fiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir.

Mazkur oqim VII-VIII asrda arab mamlakatlarida paydo bo'lib, so'ngra boshqa musulmon mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda ham keng yoyildi. Lekin olimlar bu oqimning ba'zi ko'rinishlari islomgacha ham mavjud bo'lganligini ta'kidlaydilar.

So'fiylik nazariyasiga ko'ra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujassamlanishi. Xudo barcha ko'rinadigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq-dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertami-kechmi u bilan qo'shiladi.

Amaliy qism axloqiy me'yor va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimidan iborat bo'lib, bu me'yor va qoidalar xudbinlik va shaxsiy manfaatlardan o'zini tiyishni talab etadi.

So'fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo'lib xizmat qildi. So'fiylik asosan uch oqimga mansub:

Birinchi oqim Mansur Halloj, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar mansub bo'lgan oqim. Ularning ta'lim berishicha, xudo har jihatdan komildir, eng oliy go'zallik, shodlik, baxt uning vaslidadir, foniy bo'lishidadir. Inson o'zini haqiqatga, xudoga nisbatan hech deb bilishi kerak. Inson yashayotgan hayot haqiqiy baxt-saodat bera olmasligi, asl, haqiqiy osudalik, baxt, saodat faqat xudoda, uning vaslida ekanligi, u bilan vahdat tashkil etish, ya'ni, uning vasliga yetish kerakligi xususidagi qarashni ilgari suradilar. Lekin ular taqvoni riyodan ajratib, oliy haqiqatga intilishni jannat va do'zax haqidagi intilishlardan farq etib borishlari bilan ajralib turadilar. Insonning ichki kechinmalari holatiga ahamiyat berib, chin ixlos va sidqni birinchi o'ringa qo'yadilar. So'fiylar qalbni har qanday xudbinlik, riyo, ta'magirlik, hasham va mol-dunyoga o'chlikdan tozalab borish bilan oliy haqiqat ko'zgusiga aylantirishni, ya'ni, poklikni asosiy maqsad qilib qo'yadilar.

So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'lida quyidagi to'rt bosqichni o'tishi kerak deb hisoblaydilar:

Birinchi bosqich – Shariat. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat-qonun bo'lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich –Tariqat. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma'naviy muhabbatni takomillashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – Ma'rifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o'zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg'un ekanligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibr-u havo, manmanlik hamda shon-shuhrat be'mani bo'lib ko'rinadi. Shunda u orif, ya'ni, bilimli va xudoni tanigan inson bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - Haqiqat. Mazkur bosqichda so'fiy xudoning dargohiga yetishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, vahdat (tavahhud) tashkil etadi va shu asosida inson foniy, ya'ni "anal-haq" bo'la oladi.

Ahmad Yassaviy. Ahmad Yassaviy 1041-yilda Saryom (Sayram) qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida tug'iladi. Yetti yoshida otasidan, so'ng onasidan yetim qoladi. U Arslonbob nomli inson qo'lida hamda aksariyat tolibi ilmlar kabi Buxoroda tarbiya va tahsil oladi. U yerda mashhur Yusuf Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganib, so'ng Turkistonga qaytadi va o'z tariqatiga asos soladi. U so'fiylik g'oyalari, shuningdek, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalari va o'z asoslagan g'oyalarni she'riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi.

Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to'g'ridan to'g'ri "Qur'on" g'oyalari va payg'ambar Muhammad Alayhissalom hadislari negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg'ambar Muhammad Alayhis-salom ta'limotida ulug'langan ma'naviy-axloqiy xislatlar - muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo'ylik targ'ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Allohga tobe bo'lishga undaydi. Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o'rin tutadi.

Ularning barchasida so'fiylik tariqatining amallari – haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafs-u dunyodan chekinishga da'vat etuvchi g'oyalar o'z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina insonda axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Zero, tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir.

Nafs – ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma yeyish orqali inson Haq bilan "ko'risha" oladi, nafsga mute bo'lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi.

Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.

Amir Temur Ko'ragon[37] **ibn Amir Tarag'ay** (1336–1406) *«Temur tuzuklari»* asarining ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik mazmuni xususida fikr yuritishdan oldin uning ana shu ta'limoti shakllanishining zaminlari, diniy-axloqiy manba va ildizlari haqida aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi bo'lish bilan birga zamonasining komil-u fozil, benazir dahosi, Yaratganning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va iste'dod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi.

Buyuk bobokalonimiz yoshlik kezlaridan boshlab Sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san'atga, islom dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta'limotiga imon-e'tiqod bilan qaragan. U xandasa, falakiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug'rofiya, tibbiyot, adabiyot va san'at ilmlarini teran o'zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili, – turkcha, forscha va arabchani chuqur va mukammal bilgan. Temurning shijoatli ruhida ilm va ilm ahliga hurmatu e'zozi favqulodda kuchli bo'lgan. «Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi,

---

[37] **Izoh:** O'tmishda jahon ilm ahli, mashhur muarrixlar o'z asarlarida Amir Temur ismiga Ko'ragon, Sohibqiron Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlar qo'shib, uni e'zozlab, ulug'lab hikoyat, rivoyat va xotirotlar bitganlar. Bu so'zlarga sharh berilganda «**Ko'ragon**» atamasiga to'xtalish lozim. Ko'p manbalarda «Ko'ragon» so'zi – xon kuyovi degan ma'noni anglatadi. Bundan shu narsa izohlanadiki, o'sha davrda Chingizxon nasl-nasabi bilan yaqinlik qilish hokimiyatga egalik qilgan amirlar uchun afzal hisoblanadi. Shu kabi «Amir Temur ham 1370-yilda Balxda amir Husaynni yengib, Qozonxonning tul qolgan qizi» Saroy Mulkxonimga uylanganligi, sohibqironga «Ko'ragon» – xon kuyovi laqabini olish imkonini bergan, degan ma'lumot beriladi. Mojor olimi Xerman Vamberining «Movarounnahr tarixi»da esa aksincha «Temurning urug'i barlos bo'lgan, ammo oila tarmog'i ko'ragon, ya'ni ko'rkam, toza urug'dandir», deya izoh beriladi. Bu bilan ikkinchi tomondan Mirxond, Sharafiddin, Xommer kabi tarixchilarning «Amir Temur mo'g'ul naslidan edi», degan qarashlariga ham chek qo'yadi. Hozirgi tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Vamberining bu ma'lumotlari ancha haqiqatga egadir.

hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib yetishdi».[38] Sohibqiron[39] **«Adolat kuchda emas, kuch-adolatdadir»**, degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan, jabr-sitam yo'lini berkitgan. O'z davrida hech bir davlatda bo'lmagan va tarixda kamdan kam uchraydigan lavozim – **«Adolat amiri»** lavozimini ta'sis etgan.

Amir Temur umr bo'yi amal qilgan **o'n ikki tamoyillardan birinchisi** – har yerda va har vaqtda islom dinini quvvatlaganligi, **ikkinchisi** davlat ishlarini mamlakatning ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan quvvatlab, maslahatlashib, kengashib olib borganligidir. **Uchinchi tamoyil** – Amir Temurning saltanat ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizganligi, ko'p narsalarni bilib tursa-da, o'zini bilmaslikka olganligi, do'st-u dushman bilan murosa-madora qilganligidan iborat. **To'rtinchisi** – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga, to'ra va tuzukka tayanib va asoslanib boshqarishni tashkil etsa, **beshinchisi** amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lib, ularga izzat-hurmat ko'rsatib, martabalarini ulug'lab, ish tutganligidadir.

Oltinchisi – adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zidan rozi qilganligidir. **Yettinchisi** – sayyidlar, ulamoy-u mashoyix, oqil-u donolar, muhaddislar, xabarchilar (tarixchilar)ni tanlangan, darvish, faqir va miskinlarni e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-hurmatlarini jazm bilan ish tutganligidir. **Sakkizinchisi** – azm-u jazm bilan ish tutgan, ya'ni biror ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo'lsa, unga butun vujudi bilan kirishib, oxiriga yetkazgan. Nimaiki degan bo'lsa, unga amal qilganlarni qo'llab-quvvatlaganligidir. **To'qqizinchisi** – raiyat ahvolidan ogoh bo'lganligi, ulug'larni og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rganligidir. **O'ninchisi** – turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifa hurmat ko'rsatilganligi va qolganlarini ham o'z holiga yarasha siylaganligidir.

---

[38] Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 1996. – 360-bet.

[39] **Izoh:** Amir Temurning «Sohibqiron» unvoniga kelsak, bu unvon bo'lg'usi jahongirga u tug'ilmasdan turiboq din ahllari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. «Sohibqiron» atamasining lug'aviy ma'nosi – «yulduz burjlarining baxtli kelishi (qiron)da tug'ilgan farzand» demakdir. «Temurnoma» muallifining ta'kidlashicha «qiron»- ya'ni yulduz burjlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo'ladi. Insoniyat tarixidi: «avval» Iskandar Zulqarnayn xazratlari afandimiz, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sallalohu alayhi vasallam sayiidimiz, uchinchi Amir Temur Ko'ragon xonimiz a shu soatu soniyada dunyoga kelganlar. Ularning tavalludlarining uzoqligi roppa-rosa sakkiz yuz yilni tashkil qiladi. Amir Temur hazratlari hurmat ma'nosida berilgan «Qutbiddin» unvoni – zamona peshvosi, yo'l ko'rsatuvchi avliyo, «Abuliansur» unvoni esa – zafarmand, g'alaba qozonuvchi degan lug'aviy ma'nolarni beradi.

O'n birinchisi do'stlarni davlat-u ne'mat martabasiga erishganida unutmasdan mol-u mulk va naqd pul bilan haqlarini ado etganligidir; **o'n ikkinchisi** – do'st-dushmanligiga qaramay har joyda sipohiylarni hurmat qilganligidir.

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Sohibqiron Amir Temur o'gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

a) din va shariat;
b) davlat va uni idora etish;
d) kengash o'tkazish;
e) podsho va vazirlar.

Axloq va odob haqidagilarga quyidagilar kiradi:

– adolat va adolatsizlik;
– so'z va ishning birligi;
– do'st va dushmanlik;
– botirlik va qo'rqoqlik;
– so'z va shirinsuxanlik.[40]

Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarlari olamshumul tarixiy voqealarni haqqoniy aks ettirgan tarixiy yodgorlikdir, undagi odob-axloq, vatanparvarlik va adolatparvarlik g'oyalarini yoshlar qalbiga yetkazib berish bizning burchimizdir.

Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Muhammad Tarag'ay – Mirzo Ulug'bek (1394-1449) Amir Temur sulolasiga mansub ulug' zot, ulkan davlat arbobi va buyuk dahodir. Amaliy faoliyatida davlat arboblikni olimlik, olimlikni esa davlat arboblik bilan qo'shib olib borish Mirzo Ulug'bekka xos bo'lgan nodir fazilatdir. Ulug'bek – podshohlar ichra donishmand, donishmandlar ichra podshohdir. U – insoniyat tarixida ahyon-ahyondagina uchraydigan noyob fenomen.

Zo'r qobiliyat, o'tkir xotira va asta-sekin bilimlarni to'plash shunga olib keldiki, Ulug'bekda fanga qiziqish va intilish rivojlana bordi. Ulug'bek bilimlarini tinmay chuqurlashtirishi va o'z ustida muntazam ravishda ishlashi natijasida o'zining ko'pgina zamondoshlaridan o'zib

[40] K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. –T.: O'qituvchi. 1966. – 165-bet.

ketdi. Shunday qilib, oldin o'tgan ajdodlar – Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning madaniy merosi Ulug'bek bilimlarining asosiy manbai bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek insoniyatning bir necha ming yillik tafakkur boyliklarini, madaniy-ma'naviy, ilmiy-falsafiy bilimlarini, tarixiy, diniy, axloqiy merosini, umumbashariyat xazinasiga ulkan ulush qo'shgan buyuk allomalar g'oyalari, qarashlari va ta'limotlarini katta qiziqish, zavq-shavq bilan o'rgangan. U yoshlik kezlaridan boshlab mashhur yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey, Bitlimus va Kolius ta'limotlarini sinchiklab o'rganib, siyosiy, ilmiy-amaliy faoliyatida, kuzatish va tadqiqotlarida ulardan unumli foydalangan.

Ulug'bek diqqat-e'tiboridan Muhammad ibn Muso al - Xorazmiy, Ahmad Muhammad al - Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulla al - Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari buyuk allomalarning tabiiy-ilmiy, falsafiy asarlari, ta'limotlari chetda qolmadi. Ulug'bek Abul Vafoning osmon yoritqichlari harakati nazariyasi va astronomik jadvallari, Abu Mahmudxon Xo'jandiy ixtiro qilgan sekstant, Umar Hayyom rahbarligida isloh qilingan quyosh yilligi, Nasruddin Tusiy tajribalaridan foydalanib, olamshumul kashfiyotlar qilgan.

Ulug'bek qayerda bo'lmasin, G'iyosiddin al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari zamondosh olimlar va boshqa ko'plab shoirlar, san'atkorlar, tarixchi va faylasuflar, munajjimlar, matematiklar, diniy ulamolar, shayxlar davrasida bo'ldi, ular bilan suhbatlar, ilmiy bahslar o'tkazdi, ahli donishlardan ko'p narsa o'rgandi, shu tariqa aql-idrok va tafakkuri rivojlanib, fikran-ma'nan boyib, dunyoqarashi kengayib va chuqurlashib bordi.

Ulug'bek nafaqat o'zi mansub millatning, ayni paytda butun insoniyatning ham faxridir. Ulug'bekday farzandi bo'lgan xalq har qancha faxrlansa arziydi. O'z tomirlarimizda Ulug'bek qoni oqayotganligidan, ruhimizda ul muborak zotning ruhi barhayotligidan baxtiyormiz. *«Mirzo Ulug'bek o'z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O'sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o'ylab yashadi, o'z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma'rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Har qanday millat ham Ulug'bekday farzandni tarbiya etgani uchun g'ururlanishi tabiiy holdir. Chunki bunday insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi va jahonning e'tiborini qozonadi».*[41]

---

[41] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –T.: O'zbekiston, 1996. – 190-bet.

Shunday qilib, Mirzo Ulug'bekning milliy va umumbashariy ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik ta'limotlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) tarix maydonida paydo bo'lgan davr juda murakkab va ziddiyatli edi. Katta-kichik temuriyzodalarning taxt uchun o'zaro qonli to'qnashuvlari, siyosiy boshboshdoqliklar markazlashgan davlat milliy birligi va qudratiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Boburning 100 dan ortiq g'azali va 200 ga yaqin ruboyisi, lirik devonlari, **«Boburnoma»**si, aruzga doir risolasi, **«Xatti Boburiy»**, **«Xarb ishi»**, **«Musiqiy ilmi»** va boshqa asarlari ma'lum. Uning bu asarlari tarix, falsafa, geografiya, musiqa, adabiyot, san'at kabi va boshqa fanlarga doir bo'lib, juda katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Ma'rifatparvar Bobur o'zining lirik asarlarida ilmli bo'lish, ilm ma'rifatni qadrlash, hayotda ilmga qat'iy amal qilish muhimligini bot-bot uqitiradi va *«Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak, o'rgangali ilm tolibi ilm kerak»*, deydi.

Bobur asarlarida Vatan ishqi, vatanparvarlik g'oyalari, qonuniy holda yetakchi o'rin tutadi. Uning asarlari lirik she'rlar va ruboiylari inson uchun Vatandan aziz va muqaddas, Vatandek oliy, ilohiy ne'mat yo'qligi, odam uchun neki muqaddas bo'lsa, barchasi Vatan mo'tabarligi aytib o'tiladi. Zotan, Vatan – so'ngsiz mo'jiza. Hech kim Vatandan o'z ixtiyori bilan voz kechgan emas. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik ta'limoti Vatanga imon-e'tiqod bilan bog'liq.

Bisotida «Boburnoma»dek dunyo tan bergan asari va Zahiriddin Muhammad Boburdek tafakkur yulduzi, ulug' farzandi bo'lgan har qanday millat va xalq toabad g'ururlanib, faxrlanib yashashga ma'naviy haqdir. Chunki, Boburdek buyuk insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qilgan va jahon ilm ahlining e'tiborini o'ziga tortgan.

«Boburnoma»da XVI asrning 30-yillariga qadar ro'y bergan tarixiy voqealar, Bobur ko'rgan, bilgan mamlakatlar manzarasi, iqlimi, ishlab chiqargan mahsuloti, san'at asarlari, odamlarining fe'l-atvori, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzlari, odob-axloqlari, flora-yu faunasi chuqur aks ettirilgan. «Boburnoma» Boburning 12 yasharligida podsho bo'lganidan (1494)to vafotiga (1530) qadar yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va

madaniy hayot, murakkab tarixiy voqea va hodisalar haqida keng va mukammal ma'lumot beradi.

«Boburnoma» XV asarning ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi yarmidagi Turkiston tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Bobur ma'rifatparvar sifatida har qanday sharoitda ham ilm ahli bilan muloqotda bo'lishga vaqt topar edi. U o'z davri ilmi kishilarini hurmat etar, ular yozgan asarlarni chuqur tahlil etib, yutuq va kamchiliklarini o'rganar edi. O'z davri ilg'or kishilarining ilm-fanga qo'shgan hissalarini odilona tahlil bilan yozdi. Bir to'rtlikda masnaviy she'rning sunnati bo'lsa ham men g'azalning farzi ayn deb bilaman, dilga deb bilaman degan mushohadaga boy fikrlarni ilmiy jihatdan isbotlab ko'rsatdi. Bu esa Boburning stilistika bilimini ham madaniyatga teng ma'noda tushunganligidan dalolat beradi.

Demak, Bobur yosh avlodning oson savod chiqarishi haqida qayg'urib, imloning oson belgilarini yaratish bilan birga yozma va og'zaki nutqning ravon va tushunarli bo'lishini talab qilib, nutq madaniyatini tashviqot va targ'ibot etdi. Eng murakkab hisoblangan aruz nazariyasini dalillar bilan sharhlab adabiyotshunoslik faniga, ma'lum ma'noda yangiliklar kiritdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining yetuk psixologi sifatida o'ziga yaqin kishilarninggina emas, balki atroflaridagi boshqa kishilarning ham xatti-harakatlarini va axloqini kuzatadi, ular xulqini o'rganadi, tahlil qiladi, ma'lum hukmga soladi, yaxshi fazilatlarni o'zida, oila a'zolarida, yaqin kishilarida tarbiyalashga, yomon xulqlarni bartaraf etishga harakat qiladi. U «Boburnoma» asarida 80 dan ortiq shaxsning nomini tilga olib, 50 dan ortiq zamondoshi xulq-odobi, insoniyligi, nasl-nasabi, mansabi, kasbi, ijodi va ilmi-fanga qo'shgan hissasi haqida to'xtaladi, ularga adolatli baholar beradi, o'z munosabatini bildiradi.

Boburning kishilar xulqiga bildirgan munosabati uning tarbiya nazariyasi va mazmunini chuqur egallagan shaxs ekanligini ko'rsatadi. Uning bu munosabati esa katta bilim tajriba talab etuvchi mashaqqatli izlanishlar hosilasidir. U kishilar xulqiga to'xtalar ekan, ko'p hollarda xulqning tahlil jarayoni va uning to'la bayonini yozmaydi. O'z mushohadasi va hayotiy tajribasiga qiyoslab, xulosa ham chiqarmaydi, balki misollar asosida shaxslarning odob-axloqiga doir sifatlarni bayon etish bilan kifoyalanadi. Xulosa chiqarishni har kishining o'ziga havola etadi.

Ma'lumki, Sharq xalqlari tarbiya nazariyasida shaxs xulqini jamoat orasida yoshi ulug', mansabdor, ilmli va hurmatli kishilar oldida o'zini

qanday tuta bilishiga qarab baholash alohida o'rin tutadi. Binobarin, jamoat ichida yoshi ulug' kishilar oldida yoshlarning qanday so'zlayotganligi, qanday holda o'tirganligi, o'zini tutishi sinchiklab kuzatiladi. Shunga qarab kishi odobli yoki odobsiz, deb aytiladi. [42]

«Boburnoma»da keltirgan Sharq tarbiya mazmuniga xos quyidagi hikoyat tarbiya vositasi sifatida qimmatlidir. Hikoyatda Xoja Ahror suhbatida Sulton Ahmad Mirzoning qanday o'tirganligi aytiladi. Xoja Ahror Sulton Ahmad Mirzo o'tirishda beodoblik qilganini sezadi, lekin buni yuziga solmaydi. Mirzo turib ketgandan keyin Xoja Ahror uning o'tirgan joyida suyak bor ekan, shuning uchun yaxshi o'tirmadi, deb uning beodoblik qilganini xizmatkorlariga eslatadi. Bobur bu bilan Xoja Ahrorning o'ta ziyrak va talabchan inson ekanligini ko'rsatadi, Sulton Ahmad Mirzoning beodobliliga isbot talab etmaydigan dalil keltiradi, eng muhimi yoshlarni (kitobxonni) katta yoshli, nufuzli odamlar huzurida odob bilan o'tirishga da'vat etadi:

«... derlarkim, hargiz Xoja majlisda tizl bir-birtiziga yovutqagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bor xilofi odat oyog'ini yovutqab o'lturubdur. Mirza qo'pqondan so'ng hazrati Xoja buyurubdurlarkim, Mirzo o'tirg'on yerni boyqaylar, bir so'ngak bor ekandur». [43]

Boburning oilaviy tarbiya haqidagi fikrlari ham qimmatlidir. U oilada ongli holda qattiqqo'llik bilan bolalarini tartibli, intizomli, ongli bo'lishlarini talab etdi va tarbiyaladi.

Bobur tarbiyada sinchkov va sezgir edi, kattalarning yaxshi jihatlarini o'rgatish, o'rnak oldirishiga istak hissi unda kuchli bo'lgan. U «Boburnoma»da o'z otasi Umar Shayx Mirzo haqida shunday yozadi: *«Axloq va atvori: xonafiy masxablik, pokiza e'tiqodlik kishi edi. Besh vaqt nomozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib erdi, suhbatlariga bisyor musharraf bo'lib edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar.»* [44]

Demak, Boburning namunaviy - axloqiy tarbiyasi farzandlari uchun ilhombaxsh omil bo'lib, ular jasoratli, ziyrak, xalqsevar, vatanparvar, tadbirkor, insonparvar, oriyatli, vafodor, ilmli, adolatli hukmdorlar bo'lib yetishdilar, tarixda yaxshi nom qoldirgan shaxslar sifatida qadr-qimmat topdilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining ruboiylari va lirik asarlari bilan ham, «Boburnoma» asari bilan ham, donishmand shoh va shoir sifatida aql-zakovati va buyuk

---

[42] Bobur. Boburnoma. –T.: Fan, 1960. – 82-bet.

[43] Bobur. Boburnoma. – T.: Fan, 1960. – 74-75-betlar.

[44] O'sha joyda, 64-bet.

tafakkuri bilan ham milliy va umumbashariy ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy asarlarida tarbiya, insonparvarlik masalalari va Navoiyning maktab rivojiga qo'shgan hissasi. Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** (1441–1501) ilm-fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergandi. U o'zining *«Xamsa»*, *«Mahbub ul-qulub»* kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, *«Munojot»*, *«Vaqfiya»*, *«Majolisun nafois»*, *«Muhokamat ul-lug'atayn»* asarlarida, hamda Abdurahmon Jomiyning *«Arba'iyn»* nomli asari tarjimasi *«Chi-hil hadis» («Qirq hadis»)* kabi asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'gitlarni, aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Alisher Navoiy **«Hayratul abror»** dostonining o'n birinchi maqolatida ilmni quyosh, oy va kunduzga o'xshatib, u insonning baxt-saodatga eltadi, deydi. Ya'ni, bu maqolat: «Ilm osmonining yulduzlardek baland martabalig'i haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi «ayni Quyosh, «lom»i oy, «mim»i kunduz harflarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasidan zohir qilib, bu kechada olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqlik xorligi» haqidagi fikrni bayon etadi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlaridan deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Shunga ko'ra, o'z asarlarida kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining, insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqining, o'z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib

dehqonchilik qilmaganga yoki urug‘ sochib hosildan bahra olmaganga o‘xshaydi:

Ilm o‘qib qilmag‘on amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi mahsul.[45]

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u *olim-u fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy* ettirishga e’tibor beradi. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, o‘z vaqfidan mablag‘ ajratgan. Madrasada ta’lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o‘rganish, yetuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi.

Alisher Navoiy bilimlarni tinmay uzluksiz o‘rganish zarur, deydi. Bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko‘rish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini ham belgilab beradi: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida maktab, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Navoiyning o‘qituvchi mudarris to‘g‘risidagi fikrlari. Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda *ustoz-murabbiylarning* o‘zlari *ham bilimli va tarbiyali* bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o‘qituvchi ma’lumotli, o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur, deydi. Masalan, «Mahbub ul-qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘ta qattiqqo‘l, johil va ta’magirliklarini. «Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga rag‘batlangan. Ularni kaltaklashga o‘rgangan o‘zi rahmsiz, miyasi po‘lat va ko‘ngli toshdir. G‘azabli qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko‘pchiligida ko‘ngil qattiqligi va ta’ma kasalligi oshkor va o‘zlari aql kamligiga giriftor. Ammo yosh bolalar tabiatidagi qaysarlikni qiynalib rom qiluvchi va kichkinalarning olazarak harakatini do‘q bilan tartibga soluvchidir. Agarchi qiliqlarining qo‘polligi namoyondir, ammo o‘zlari yosh bolalar kelishmaganliklarini silliqlashtirishga yirik egovdir»[46], - deb qoralash bilan birga, o‘qituvchi mehnati-

[45] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 12-tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 69-bet.
[46] O‘sha joyda, 69-bet.

ning og'irligi, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi. «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkam bunga nima yetsin».

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir.

Alisher Navoiy o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo'lishlarini talab etadi: *«mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa, va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi o'zun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, mainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».*

Alisher Navoiy o'zi barpo etgan «Ixlosiya» madrasasida o'z zamonasining yetuk mudarrislarini yig'di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tiborni qaratadi.

Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash usullari va vositalari ham ifodalangan. Alloma asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Tarbiya va ta'lim ota-ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni, lekin bunda ham me'yoridan oshmaslik lozimligini uqtiradi. O'qituvchining talabchan bo'lishga undagani, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtirgani ma'lumdir. Tarbiya haqida gapirar ekan, *«Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va Qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyatingni nobud qilma»*,[47] deydi.

[47] Alisher Navoiy . Mahbub ul-qulub. 12-tom. – T., 1968. – 17-bet.

Alisher Navoiy tarbiyada insonning o'z-o'zini tarbiyalashiga, xato va kamchiliklarini anglab, tuzatishga e'tibor beradi: yanglish va xato kishilikning shartidir. Xato va yanglishni anglab, ogohlangan baxtli kishidir. Kimki, e'tirof tomon qaytar ekan, xatosi yo'qoladi. Kimki, dalil keltirib aljiray bersa, xatosini bir karra oshiradi. Mubolag'asi qancha ko'proq esa, yanglishishi shuncha ko'rimliroq bo'lur va o'zini katta ko'rsatib, tortishuvi qancha esa, ortiqroq o'zi xalq o'rtasida shuncha rasvoroq ko'rinur,[48] deydi.

Ya'ni, kishi xato qilganda yanglishganini bo'yniga olsa – bu yaxshi. Agar o'z xatosiga dalil ko'rsata bersa, uning xatosi yana ikki barobar ortadi, deydi alloma.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning pedagogik qarashlari o'zidan oldin o'tgan salaflarining bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi.

Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida komil inson aqliy, axloqiy, ilm-ma'rifatga intilgan ijodkor, Qobiliyatli, bilimdon, oqil va dono kishi, sofdil, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatga ega bo'lgan, adolatli, muruvvatli, kamtar, sog'lom va jismonan baquvvat, mard va jasur barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir.

Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Abdurahmon Jomiy (1414–1492) *«Haft avrang»(«Yetti taxt»)*, ta'lim-tarbiyaga oid *«Bahoriston»* asarlari bilan jahon madaniyati va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan allomalardandir.

Abdurahmon Jomiy o'zining mashhur *«Silsilatus zahab» («Oltin tizmalar»)* dostonida esa «Sevimli, aziz farzandga nasihat» bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Alloma ilmning ahamiyati haqida gapirar ekan, bu bilimni egallashda kitobning har bir yoshning bilim olishidagi o'rniga, uning xislatlariga alohida to'xtab o'tadi.

Har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la, - deb, kitobni «teri yopingan olim»ga o'xshatadi.

---

[48] O'sha joyda, 232-bet.

U bilimni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi va johillikni qattiq qoralab, dono bilan nodonni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

Abdurahmon Jomiy donolikni olqishlar ekan, avvalo, mamlakatni boshqaruvchi hukmdorlar ilmli bo'lishi, agar rahbar nodon, johil bo'lsa, el boshiga juda ko'p nadomat, zulm yog'ilishi mumkinligini ifodalaydi.

«Bahoriston» asarida esa ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs foydasi tegadigan ilmni egallashi zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ilmli va nodon kishilarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, nodon shaxslarning savodsizligini yengil kulgi ostiga oladi:

«Bir bo'zchi bir olimga pulini omonat qo'ygan edi. Bir necha kundan keyin o'ziga kerak bo'lib qoldi va olimning uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o'tirib mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o'tirishar edi.

Ey ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo'lib qoldi, dedi, bo'zchi olimga. Birpas o'tir, darsim tamom bo'lsin.

Bo'zchi kutib o'tirdi, ammo dars cho'zilib ketdi, domlaning dars paytida boshini chayqab qo'yish odati bor edi. Shoshib turgan kosib buni ko'rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o'yladi-da, ustodga:

— Sen kirib omonatni olib chiq, sening o'rningga men bosh irg'ab turay, ishim zarur, – dedi.

Abdurahmon Jomiy bilim-hunarsiz kishini o'tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ota obro'si, shon-shuhratidan mag'rurlanmay, o'z yo'lini tanlashga, ilm-u hunar o'rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o'rganishi har bir kishi uchun, u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, deb ta'kidlaydi. *«Iskandar xiradnomasi»* dostonida yunon podshohi Faylaqusning o'z farzandi Iskandarni mashhur muallim Arastu oldiga olib kelib, unga ilm va hunar, davlatni boshqarishni o'rgatishni so'ragani hikoya qilingan. Zero, Faylaqus o'z farzandining bilim va hunar, donolik sirlarini o'rganib olishi uning baxt-saodatga erishish yo'li ekanligini tushungani uchun ham o'z zamonasining nom chiqargan donishmandi oldiga olib keladi. O'z navbatida, Arastuga shogird tushgan Iskandar ham ilmu hunar egallashga zo'r ishtiyoq bilan kirishganligi va uni egallash sharafiga muyassar bo'lganligi bayon qilinadi.

Demak, Abdurahmon Jomiy inson uchun ilm-u hunarning qay darajada zarurligini to'g'ri talqin etgan. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbar ham o'z elining e'zozida bo'lishi, bunday o'lka gullab-yashnashi

mumkinligini uqtiradi. Shuningdek, u mehnatkash insonni ulug'laydi, ayniqsa, dehqonlar mehnati haqida fikr yuritar ekan, ular moddiy ne'matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi. *«Silsilatus-zahab» («Oltin tizmalar»)* dostonida *«Tarbiyaning ahamiyati haqida»* bobida o'z fikrini shunday ifodalaydi.

Shu bois yetuk insonga xos axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, haqiqiy insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlardan yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalashga alohida diqqat bilan qaraydi. Bulardan saxovat va karamni eng ulug' insoniy xislatlardan deb biladi. «Bahoriston» asarida u: «Saxovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab qilinsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo'lgani taqdirda ham, u saxovat emas, deydi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida yaxshilik barkamol inson ega bo'lishi zarur bo'lgan eng muhim axloqiy xislat sifatida tarannum etilishi bejiz emas. Zero, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan boshlab yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va yaxshilik, ezgulikning g'olib kelishiga bo'lgan oliy istak barcha pandnomalarning asosini tashkil etgan.

Xullas, Abdurahmon Jomiyning yetti dostondan iborat *«Haft avrang» («Yetti taxt»), «Tuhfat ul-ahror» («Erkinlar tuhfasi»), «Sabhat ul-abror» («Yaxshilar tasbihi») kabi falsafiy-axloqiy asarlari; «Xiradnomai Iskandar» dostoni, «Silsilatus zahab» («Oltin tizmalar»)* asarlarida uning barkamol inson tarbiyasiga oid g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asrining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.Jaloliddin Davoniy (1427–1502) o'z davrining ilm-fan va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim. Uning yetuk olim bo'lib yetishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhitining, shuningdek, Vizantiya, Ozarbayjon, Qirmon, Hurmo'z, Tabaristan, Xuroson va Jurmon olimlari bilan uzviy aloqada bo'lganining katta ta'siri bo'lgan. Ayniqsa, Davoniyning madrasidagi uzoq vaqt mudarrislik faoliyati uning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ayniqsa, Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan *«Axloqi Jaloliy»* asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan va shuhrat

qozongan. Chunki bu asar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning asarlari qatorida turadigan barkamol inson kamoloti uchun eng zarur va axloqiy fazilatlar bayon etilgan.

«Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – «Odamning ichki holati» oilaviy hayotiga, uchinchi qism «Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati», deb atalib unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon hayot kechirishida podsholarning o'rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rni bayon etiladi.

Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, jamiyatda, ma'lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shakllanib tarbiya topgan inson o'zi yashagan jamiyatda adolat hukmron bo'lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuningdek, Davoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta'kidlagan. Ko'rinib turibdiki, adolatli shoh timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy «Axloqi Jaloliy»da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish masalalari bayon etiladi.

Davoniy o'z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini o'tkir psixolog, ya'ni ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha, bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim.

Bola o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham u tezda qabul qilaverishi mumkinligini alohida uqtirib o'tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, suratlarni osonlikcha tushirish mumkin bo'lgan taxtaga o'xshatadi.

Davoniyning fikricha, bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola

ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi. U ota-ona tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta'kidlaydi. Chunki ota bolani jismonan hayotga keltirib, uni jismoniy tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazadi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko'rasatadi.

Pedagogik qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga bilim berishni yoshlikdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Davoniy inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug' bir ne'mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o'z xatti-harakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniy shuning uchun ham bolalarga ta'lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: «Qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi?– deb so'rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir»[49] – deb javob bergan ekan.

Davoniy olimlarning jamiyatda, davlatni boshqarishda tutgan o'rniga katta ahamiyat beradi, uning fikriga ko'ra haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni yechishda ishtirok etishi kerak. Olimlar tabiat sirlarini o'rganish, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanishi, omma o'rtasida adolat qoidalari hamda axloq normalarini tarqatish bilan shug'ullanishi, boshqalardan ilgarigi safda turishi kerak. Ularning maslahatlaridan davlat muassasalarini boshqaruvchilar foydalanishi muhim, deb uqtiradi.

Davoniy ham boshqa mutafakkirlar kabi podshohlarning ma'rifatli bo'lishini istaydi. Ana shunday podsholar o'z atrofiga bilimdon kishilarni to'playdi va ilm ahlining jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynashini tushunadi, deydi.

Davoniy insonning ma'rifatli, yuksak fazilatli bo'lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm sohalaridir, deb biladi. Riyoziyot fanini o'rgangan kishining tabiati qat'iy va sabotli bo'ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi haqida gapirib, tabiblarga zarur bo'lgan

[49] Aliqulov X., Omonboyeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: O'qituvchi, 1981. – 36-bet.

kasalga tashxis qo'yish masalalariga to'xtab o'tadi. Tabib bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'ygandan so'nggina bemorni davolashi kerakligini uqtiradi.

Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni tahlil etar ekan, inson o'zining aqliy qobiliyatini, iste'dodini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishi:

– **birinchisi, zukkolik – zehn o'tkirligi.** Bu kishining har xil masalani tezda hal qila olish, unda o'zi istagan natijani ola bilishida deb ko'rsatadi. Bu malakani hosil qilish uchun kishida tajriba va harakatchanlik bo'lishi talab etiladi;

– **ikkinchisi – fahmlilik.** Bunda kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to'xtalmasdan, butun diqqatni muhim va zarur masalalarga tez qarata bilishi qobiliyati, ya'ni murakkab va chigal masalalar ichidan eng muhimini tanlay bilish malakasini hosil qilish talab qilinadi;

– **uchinchisi – zehn ravshanligi** deb ko'rsatiladi. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan hal qilish iste'dodi;

– **to'rtinchisi – bilimni tez egallash qobiliyati.** Kishi ma'lum masalaga butun diqqat-e'tiborini qarata olishi va uning hech qanday qarma-qarshiliksiz o'zlashtira olishi;

– **beshinchisi – qo'yilgan muammoni tezda anglashi;**

– **oltinchisi – yodlash qobiliyati**. Insonning ilgari his etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati;

– **yettinchisi – xotira.** Yod olingan, his qilingan narsalarni kerak bo'lganda eslash qobiliyati tezda ishga solishi lozim, deb, ko'rsatadi.[50]

Demak, Davoniy kishi yoshlikdan o'z qobiliyatini o'stirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo'lsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarni egallashga harakat qilmog'i lozim, deydi.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: **donolik, adolat, shijoat, iffat**. Bular orqali qadim-qadimlardan insonning xulq-odobi belgilangan. Inson fazilatlarini dastlab Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Ubayd Zokoniy va boshqalar ham shunday tasnif etganlar.

Sharq mutafakkirlari adolat tushunchasiga alohida fazilat sifatida qaraganlaridek, Davoniy qarashlarida ham adolat tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi.

---

[50] Aliqulov X., Omonboyeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: O'qituvchi, 1981. 41-42-betlar.

Olim adolat fazilatini 42 ga bo'ladi. Bulardan eng muhimlari **safo, do'stlik sadoqat, mehr-shafqat, o'zaro hurmat...** kabilardir, deydi. Davoniy sadoqatni sodiq kishilar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydigan xislat sifatida qarab, odam o'ziga nimani istasa, do'stiga ham shuni ravo ko'rishi va shu tarzda harakat qilishi lozim, deb hisoblaydi. Demak, Davoniy adolatli kishilar o'rtasidagi haqiqiy do'stlikni insonparvarlik, o'zaro hurmat bilan bog'liq holda tasavvur etadi.

Davoniy inson o'rtasidagi do'stlik tuyg'usini ham ulug'lab, bolalarni do'stlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat beradi. Bola dunyoqarashining tarkib topishida do'stlikning ta'siri katta. Do'stsiz inson muayyan jamiyatda yashay olmaydi. Do'st o'zaro muomalada ayniqsa, inson boshiga kulfat tushganda bilinadi, ammo haqiqiy do'st bilan soxta do'stni ajrata bilish kerak, deb uqtiradi olim. Dushman esa kishining o'ziga, kamchiligiga e'tibor bermaydi, balki hammaning oldida uni fosh qilishga intiladi, deydi.

Davoniy kishilar o'rtasidagi adovatni ham qoralaydi. O'zaro nizolarda hurmat yo'qoladi, shubha va gumonlar ko'payib, janjallar chiqadi, deb ta'kidlaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. XIV asrda ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya rivojiga ta'siri qanday bo'lgan?
2. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga qanday ta'siri etganligi haqida gapirib bering.
3. Amir Temurning madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot bering.
4. Ulug'bek davrida Maktab islohoti qanday bo'lgan?
5. Navoiy va Boburning ta'lim – tarbiyaga doir pedagogik fikrlarini izohlang.

29-MAVZU. XVII ASRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat. Movarounnahrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi XVI asr boshlarida inqirozga uchradi. Uning

o'rniga Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Shayboniyxon (1451—1510) Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro kurashlar avj olib ketib, oqibatda bu hududda uch xonlik, Buxoro va Xiva, XVIII asr oxiriga kelib esa, Qo'qon xonligi tashkil topdi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatilishiga erishildi. Jumladan, Hindistonda shoh Akbar, Sharqiy Ovrupoda Ivan Grozniy bilan xalqaro munosabatlar o'rnatildi. Abdullaxon atrofiga yozuvchi, shoir va olimlarni yig'ib, ularga homiylik qildi. Shoirlar orasida Mushfiqiy o'z madhiyalari, lirik she'r va hajvlari bilan shuhrat topdi. Buyuk muarrix Hofiz Tanish Buxoroda «Abdullanoma» nomli katta tarixiy kitob yozdi.Bu davrda tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy «Dastur al-iloj», Muhammad Yusuf «Tahqiq al-humayyot», «Zubdat ul-kahholin» asarlarini; shoir va adiblardan Muhammad Solih, Majlisiy, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiy, G'oyibiy Samarqandiy barakali ijod qildilar.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalarga oid ilmiy-nazariy bilimlar o'rgatilgan. Buxoro amirligida XVII-XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qtuvchilik qilgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayollar uylarida tashkil etilgan, qizlarni otinoyi, otinbibi, bibiotin, bibihalifa deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan.

O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, «Haftiyak» kitobini o'qish o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlarini, «Chor kitob» ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob- axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq ahamiyat berilgan.

Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan. Buxoro amirligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. Madrasada arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqh kursi majburiy kurs hisoblangan. Madrasani bitirganlar-

dan mudarris, mutavali, qozi, imomlar, fan arboblari, shoirlar yetishib chiqqan. Ulardan Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy Namangoniy, Faziy Namangoniy, Shavqiy Namangoniy, Sayido Nasafiy, Abulg'ozi Sofiy Olloyor, Dilshod-Barno, Uvaysiy, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abulg'oziy Bahodirxon ana shunday ilm sohiblaridandir.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgan emasdi. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turadi. Xiva xoni Abulg'oziyxon tarixshunosligi maktabiga asos solgan. Abulg'oziy Xorazmda ilm-fanni, madaniyatni taraqqiy ettirish maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar, tarixnavislar, adib-u xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'oziyxon fan va madaniyat tarixiga ikki muhim asari « Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» bilan o'chmas nom qoldirgan. Abulg'oziyxonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy xalq uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o'zbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashgan.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida So'fi Olloyor (asli ismi Ollohyor) mashhur bo'lib, uning asarlaridan maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmalari sifatida keng foydalanilgan.

So'fi Olloyor «Siroj ul-ojizin», «Sabot ul-ojizin», «Murod ul-orifin», «Najot ul-tolibin» kabi asarlarni yaratgan. «So'fi Olloyor» nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan «Sabot ul-ojizin» asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitilar edi. Unda islom dinining asosiy aqidalari bayon etilgan. Ular insoniy fazilatlar, badiiy hikmatlar tarzida ifodalanadi. Kitobda ilgari surilgan masalalar oyat-u hadislarga muvofiq yozilgan. Asar fors va arab tilini bilmagan oddiy xalq uchun mo'ljallab yozilgan edi. Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob as-solihin», «Maslak ul-muttaqin», «Sabot ul-ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis» o'qitilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida ayollar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayollar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etilgan va u otinlar maktabi deb nomlangan.

Markaziy Osiyoda otinlar maktabining asoschilaridan, ayollar ta'limida katta xizmat qilgan, o'ziga xos maktab yaratib shuhrat qozongan otinlardan biri Jahon otin Uvaysiy (1779-1845) hisoblanadi. Jahon otin Uvaysiy Marg'ilon shahar Childuxtaron mahallasida, Farg'ona tumani, Arsun qishlog'ida 1780-yilda tug'ilgan. Uning otasi Qaynar devona yoki Devonai Qalandar deb yuritilgan. (Uning ismini Siddiqbobo deb ataganlar). Onasining ismi Chinnibibi edi. Ularning Uvaysiydan tashqari Oxunjon hofiz degan o'g'li ham bor edi. Uvaysiy oilasi o'z davrining

ilg'or va marifatli oilalaridan edi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o'qitgan. U 1796-97-yillarda onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab xalfalik va keyinchalik mustaqil ravishda otinlik qilgan. Jahonotin o'z maktabida ta'lim- tarbiya sohasida o'ziga xos ilg'or usullarni qo'llashga harakat qilganligini ko'ramiz.

Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Shuni ta'kidlash kerakki, XIX asr sharoitida maktablarning aniq bir ta'lim tizimi haqida gapirish biroz qiyin. Bu davrda asosan maktablarning, ya'ni ta'lim muassasalarining quyidagicha boshlang'ich maktablar tuzilishi ga ega ekanini kuzatamiz:

Maktablar: o'g'il bolalar maktablari - o'g'il bolalarga diniy ta'lim-tarbiya beradigan boshlang'ich maktablar;

Otinoyi maktablari - qiz bolalarga islom qoidalarini o'rgatadigan va boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar. Madrasalar o'g'il bolalarga diniy ta'lim beruvchi oliy ta'lim muassasalari yuqorida sanab o'tilgan ta'lim o'choqlari (otinoyi maktablaridan tashqari) vaqf daromadlaridan kelgan mablag' hisobiga ta'minlanardi.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edilar. O'quvchilar ham sinflarga bo'lib emas, balki bolalar o'qitiladigan kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga bo'lib o'qitilgan. Domla yoki Otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va yangi topshiriq berishdan boshlar edi. Hech bir domla yoki otinoyida o'ziga xos ishlar, umumiy o'quv darsligi yo bo'lmasa o'quv uslubi bo'lmas edi.

Uvaysiy o'z maktabida qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, Jahon otin ularning zehnini o'stirishga katta ahamiyat beradi. Otin o'z shogirdlariga savod o'rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo'stoniga yetaklaydi.

Tajribali murabbiya o'zining muammo san'ati orqali shogirdlari zehnini o'stirishga harakat qilgan. Xuddi ana shu she'riy topishmoqlar orqali qancha- qancha yosh qalblarga ziyo oqib kirgan. Oltmish yildan ko'proq umr ko'rgan

Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Xorazm adabiy muhitining tarixini ko'zdan kechirsak, badiiy ijod sohasida Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan ishlar XVII asrdan keyin yanada rivojlan- di, keng quloch yoydi, an'anaga aylandi. Shu an'anani yuksak pog'onaga ko'targan Munis Xorazmiy katta

iste'dod egasi: buyuk shoir, adolatgo'y tarixchi olim, mohir tarjimon va nozikta'b xattot sifatida el orasida shuhrat topdi, e'tibor qozondi.

Shermuhammad Munis Xorazmiy Xorazm adabiy muhitida ustozlik maqomida turadigan mutafakkirlardan biridir. Ijodkor sifatida mo'tabar mavqega sazovor bo'lgan Munis haqida tazkiralarda tarixiy va badiiy asarlarda ma'lumotlar yetib kelgan. Ahmad Tabibiyning «Majmuat ush-shuaro», Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» tazkiralarida Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida Munis ehtirom bilan eslanadi.

Munis haqidagi dastlabki ilmiy maqola Rahmat Majidiy tomonidan yozilgan. Shoir asarlari, faoliyati A.Bobojonov, V.Zohidov, V.Abdullayev, J.Sharipov, A.Murodov, N.Jumayevlarning tadqiqotlarida tahlil va talqin etilgan.

Xiva shahriga tutash Qiyot qishlog'idagi Avazbiy oilasida 1778-yili bo'lajak xorazm faxri, ulug' shoir Munis Shermuhammad Avazbiy o'g'li tavallud topdi. Uning padari buzrukvori Avazbiy mirob fan va madaniyat qadriga yetadigan, ijod ahlini hurmat qiladigan, ma'rifatparvar inson bo'lgan. Shul bois u o'g'li Shermuhammadning ilm va ijod bilan bog'liq barcha orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ldi.

Shermuhammad boshlang'ich ta'limni qishlog'idagi maktablardan birida oldi. Keyin o'qishni Xiva madrasalarida davom ettirdi. Ilm sirlarini o'sha davrdagi mashhur ustoz Saideshonxo'jadan o'rgangan. Shermuhammad o'qish jarayonida, olim va shoir Hasanmurod Qori Laffasiyning xabar berishicha, arab va fors tillarini puxta o'rgangan hamda xattotlik san'atini egallagan.

Munisdan bizga katta meros qolgan. Shoirning 10000 baytga yaqin she'riy merosi mavjud. Devonida g'azal, muxammas, ruboiy, tuyuq, qit'a, qasida, chiston, kabi o'ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan. Munis hayoti davomida ikki devon tuzgan. Birinchisi 1804-805-yillarda jamlangan. U ilmda "Ilk devon" nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi 1813-1814-yillarda jamlangan bo'lib, «Munis ul-ushshoq» deb nomlangan. «Munis ul-ushshoq» devoni debocha bilan boshlanadi. Unga shoirning 8446 bayt asari kiritilgan. Ushbu devonning 10 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma nushalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida shakllanadi.

Tarixchi olim sifatida Munis «Firdavsul-iqbol» (Baxt bog'i) asarini Xiva xonlari tarixiga bag'ishladi. Unda 1812-yilgacha bo'lgan davr

yoritilgan, keyingi voqealar esa Munisning jiyani Ogahiy qalamiga mansubdir.

Munis she'riyatida chuqur ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor qaratiladi. Asarlarida jamiyatdagi mehr-oqibat, insof, adolat, do'stlik, go'zallikni, anglash kabi insoniy fazilatlarni sog'inish tuyg'ularini ifodalaydi. Ularni avaylashga va zamondoshlar yuragidagi mudroqni uyg'otishga intiladi. Hayotning mazmun- mohiyatini chuqur idrok qiladi:

Ma'rifatparvarlik Munis sheriyatining yetakchi g'oyalaridandir. «Savodi ta'lim» risolasi uning bu boradagi xizmatining salmoqli qismini tashkil etadi. Garchi bu asar asos e'tibori bilan xattotlik ilmiga oid bo'lsada, unda Munisning ustozi Ibn Xonjib haqida, yozuvning madaniyat taraqiyotidagi o'rni, xususan, husnixat ta'limi va umuman, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qimmatli fikrlari mavjud. Shoir asarning yozilishi sabablari, tarixi haqida asarning o'zida ma'lumot beradi. Yozuv san'atiga bag'ishlangan «Savodi ta'lim» she'riy asari 1804-yil dekabr oyida yozib tugatilgan.

Asarning hajmi 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda 3 qismga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi – muqaddima qism. U 18 ta kichik bobdan tarkib topgan. Ularda hamd, nat va risola nazmining sabablari, qalam tarifi, xat tarifi, yozuv asboblarining qulayligi, yaxshiligi, ularni tayyorlash mahorati kabi masalalar yoritilgan. Ikkinchi – asosiy qism. U 22 ta kichik bobdan iborat. Ularda arab harflarini yozish yo'llari, usullari va mahoratiga e'tibor qaratiladi. Uchinchi – xotima qism. Unda risola tarixi bitilgan. Uning toliblar ko'ngliga ilm rag'batini uyg'otishga xizmat etishi muallif tomonidan orzu qilinadi.

Shoir va tarixchi olim Munis Xorazmiyning she'riy asarlarida ham, tarixiy kitoblarida ham ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. U barchani mardlik va jasoratga, ilm-fan rivojiga hissa qo'shishga da'vat etadi. Munis endigina ijodi gullab-yashnagan bir paytda, ya'ni 1829-yilda vabo kasaliga chalinib vafot etadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asarida – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. Shunday asarlardan biri **Muhammad Sodiq Qoshg'ariy** (1740–1843)ning *«Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi»)* kitobidir. Mazkur asar kundalik turmushimizda har kuni, har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq-odob qoidalarining majmuidir. Bu asar XIX asr boshlarida xalqimizning odob-axloq me'yorlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Olim 1740-yilda Qashg'arda tavallud topgan. U tarixchi, adabiyotshunos, mutafakkir olim, mutasavvuf shoir va tarjimon sifatida tanilgan.

Qoshg'ariy boshlang'ich ta'limni otasi Mulla Shoh A'lam Ohundan olgach, Qashg'ardagi mashhur madrasada Xomidiydan ta'lim olishni davom ettiradi. U yerda arab, fors tillarini, matematika, adabiyot, tarix, jo'g'rofiya, va diniy bilimlarni mukammal egallab, zamonasining ko'zga ko'ringan olimi darajasiga erishadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy hayoti davomida katta ilmiy meros qoldirgan. Manbalarda uning *«Tazkira-i Azizon» (Tazkirai Xo'jagon), «Zubdat al-masoyil», «Tazkira-i ashob al-kahf», «Tarixi Iskandar va Tojinoma-i shohi», «Odob as-solihin», «Qiyofat al-bashar», «Risola – i kasbdor», «Durr al-mo'zohir»* kabi asarlari arab tilidan, *«Tarixi Rashidiy»* asarini esa fors tilidan turkiyga (uyg'urchaga) tarjima qilgan.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1849-yilda vafot etgan. U Yusuf Xos Hojib maqbarasi yonidagi qabristonga (Qashg'arda) dafn etilgan.

Olimning odob-axloqqa oid muhim pedagogik asari *«Odob as-solihin» («Solihlarning odoblari»)* kitobidir. Asar turkiy tilda yozilgan bo'lib, muqaddima, yetti bob va xotimadan iborat. Har bir bob esa to'rt fasldan tashkil topgan. U *«Zubdat al-masoyil»* nomli asar bilan bir jildda besh marta nashr etilgan: ikki marta Toshkentda (1889, 1901) va uch marta Istanbulda (1891, 1892, 1896). Hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondida asarning ikkita qo'lyozma (1313, 1320 y ko'chirilgan) va oltita toshbosma nusxalari saqlanmoqda.

«Odob as-solihin» asarining mundarijasi uning e'tiborga loyiq axloqiy-tarbiyaviy asar ekanligini ko'rsatadi. Asar muqaddima va 7 bobdan, har bir bobi 4 fasldan iborat bo'lib, alloma mazkur asarni yozishdan maqsadini quyidagicha bayon qilgan: *«Tolibi soliqlar odobi zohiriy va odobi botiniyning bilib, unga amal qilmoqlari lozim keldi, toki bular ham talabu suluklaridin foyda topib, urug'lar martabalariga yetkaylar....»*.

Demak, muqaddimada asarning maqsadi ifoda etiladi, ya'ni insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi ta'kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan muaddab (odobli) va mukazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqadi, deydi.[51]

Shunday ekan, har bir inson zohiriy hamda botiniyni bilib, unga amal qilishi zarurligi va bu odob qoidalarini mo'tabar kitoblardan jam ekanligini aytadi. So'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonning barkamol bo'lib yetishishida kundalik turmushida zarur botiniy va zohiriy odob

[51] K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 234-bet.

qoidalari: *salomlashish va ruxsat so'rash, muloqot odobi, uxlash va yo'l yurish, suhbat ahlining o'zini tutishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.*

Turkiston mintaqasida naqshbandiya tariqati keng tarqalgani bois, asarda tasavvuf ahliga tegishli ko'rsatmalar ham yoritib o'tilganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ayni paytda, bu ko'rsatmalar xalqimiz kundalik turmush tarziga singib ketganini kuzatish mumkin. Bu kitob Turkiston xalqi orasida katta shuhrat qozongan va ilm ahli orasida qadrlanib, keng istifoda etilgan. Bu davrda barcha madrasalarda majburiy fan sifatida *«Qur'on»*, *«Tafsir»*, *«Odob as-solihin»*, *«Sabot ul-ojizin»*, *«Hadis»*o'qitilardi.

Asarda keltirib o'tilgan odob-axloq me'yorlarining batafsilligi va *«as'hobi shari'at va arbobi tariqat kutubi mo'tabarlaridin jam' qilingan»*ligi uning ishonchli va qimmatli manba ekanligini namoyon etadi.

Masalan, milliy-diniy qadriyatlarimizning ajralmas qismi *«aql (yeyish), sharob (ichish) va ziyofat (mehmon kutish)» odobida o'ttizta, «salomlashish» odobida o'n ikkita qoidani tartib bilan sharhlab, keltirib, o'tgan*. Ulardan makruh, mustahab va farz hisoblangan amallar Hadislarga asoslangan holda yoritilgan.

Jumladan, asarning birinchi bobining uchinchi faslida berilgan *muloqot (uchrashuv) odobiga* oid tavsiyalari (ko'rsatma) ham diqqatga sazovor. *Bunda uchrashganda qo'l berib ko'rishish, ammo ko'rishganda qo'l uchi bilan emas, balki astoydil ikki qo'lni berib* ochiq yuz bilan ko'rishish odobi bayon etilgan.

Bu o'rinda qo'l berib ko'rishishlik haqida Payg'ambar (s.a.v.)dan quyidagi hadis vorid bo'lgan: **«Qo'l berib ko'rishish bilan salomlashish mukammal bo'ladi».**

Kitobning uchinchi bobida *suhbatlashish odobi* bayon etiladi-ki, bu odob qoidalariga inson har bir daqiqada rioya etishi zarur: *–Bulardan, ahli suhbatga noloyiq xatti-harakatlardan qochish maqsadida ahli jamoaning xotirjamligini buzganlarni chetlashish, buni imo-ishora bilan tushuntirish, suhbatda pinakka ketmaslik (uxlamaslik), o'zgalardan o'zini yuqori tutish, suhbatdoshining so'zini bo'lmaslik, sukut saqlashni ham me'yoriga yetkazish, deb ortiqcha takallufga zo'r bermaslik, hamsuhbati bilan bahs qilmaslik, ammo tortishish mumkinligi, g'azab ketganda uni to'xtata olish, ortiqcha qiziqchilik hazil-mutoyiba, xushomadgo'ylik qilmaslik, bunda me'yordan oshirmaslik, kamsituvchi laqablar qo'ymaslik, ahli*

suhbat orasida bir-biri bilan pinhona va boshqalar tushunmaydigan tilda pichirlamaslik, pinhona so'zlashganda boshqa hamrohining quloq solmasligi, bu qoidalar har bir kishining kundalik turmushida zarur talablari hisoblanadi Masalan, bu bobda o'ttiz uchta qoida keltirilgan bo'lib, ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

– majlisda odob va hurmat birla o'lturg'ay va ikki kishini o'rtasiga berizo borib o'ltirmagay;

– ahli suhbat kirgan va chiqqan vaqtda o'rnidan turg'ay;

–o'zini beadabona so'zdan va fe'lidin yomon harakatdin va nohamvor (noo'rin sukunatdin saqlag'ay);

– ahli suhbatdin hech xizmatni ko'z tutmagay va hech kimga himmat buyurmagay;

– agar birodari fisqga mubtalo bo'lsa xilvatda nasihat qilgay;

– suhbatda pinakka bormagay;

– majlisda o'zini o'zgalardin mumtoz qilmag'ay;

– bir kishi so'zlab turgan vaqtda so'zlamagay, to so'zinim tamom qilmag'uncha;

– ko'p ham so'zlamag'ay;

– hamsuhbatlarig'a ko'b mazah va mutoyiba qilmag'ay. Va haddi e'tidol (o'rtacha hol)da ish tutg'ay.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning *«Odob as-solihin»* asari yoshlarning barkamol ma'naviy yuksak, yetuk axloqli bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham yoshlarning bu asarni to'lig'icha o'rganib, undagi hikmatlarni, o'ziga me'zon qilib olsa va amal qilsa ma'naviy yetuk inson bo'lib tarbiyalanishiga poydevor bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Buxoro amirligida maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni haqida gapirib bering.

2.Qizlar maktabi va ta'lim jarayoniga o'z hissasini qo'shgan shoiralar haqida nimaarni bilasiz?

3. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asarida – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manbalar nimalar deb o'yaysiz?

30-MAVZU. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktablar tizimi. Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi. Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o'rnida 3 ta xonlik - Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtasida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra Qozog'iston orqali 1864-yilda Turkmaniston, Chimkent, Avliyo otani, 1865-yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867-yilda Yettisuv viloyati, 1868-yilda Samarqand, 1876-yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'liga o'tdi. 1876-yil 19-fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risida buyruqqa imzo chekdi.

1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Russiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. 1875-yil Turkistonda xalq maorifi haqida qonun e'lon qilindi, unga binoan general - gubernatorlik tasarrufida o'lka o'quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi.

Tadqiqotchi olim Y.Abdullayevning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilishicha, Markaziy Osiyoda, jumladan, Turkiston o'lkasida mahalliy maktablarning xususiyati, ta'lim-tarbiyaning mazmuni uni tashkil etish usullari o'sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo'lgan. 1876-1917-yillar oralig'ida Turkiston o'lkasida turlicha ta'lim muassasalari bor edi. Bular:

Mahalliy xalq mablag'i hisobiga tashkil etilgan musulmon diniy maktablari:

- maktab (xona)eski maktab;
- qorixona (Qur'onni o'quvchilar maktabi);
- madrasa.
- «Yangi usul» maktablari (usuli jadid).

Boshqaruvchi tizim xalq ta'limi maktablari:

- Umum rus tipidagi maktablar:
- umumiy ma'lumot maktablari (boshlang'ich, kuchaytirilgan tipdagi va o'rta);
- kasb maktablari;

Tub aholi uchun maktablar

- rus-tuzem maktablari va bilim yurtlari;
- rus tilini o'rgatish kurslari.
- Ovrupoliklar uchun mahalliy til kurslari.

XVIII asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar faoliyat olib borgan. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bunday maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 taga qishloq joylarida esa 10-15 taga yetar edi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda o'g'il bolalarni «Domla» deb ataluvchi o'qituvchi (odatda machitlar imomlari) dars berganlar. Qizlarni esa savodxon ayollar (Toshkentda otinbibi, Buxoroda bibihalifa yoki bibiotin, Xivada - edtibibi) dars berishgan. Savod chiqarishda harflarni hijjalash (arabchada hijo - bo'g'in) usulidan foydalanilgan. Savod chiqarish uch bosqichda: I bosqichda arab alfavitidagi harflarni yod olishdan boshlangan. Undan keyin kalimai shaodat yod olingan. Bunday o'quvchilarni odatda taxtahonlar deb atalgan.boqichda so'zlar ichida qo'yiladigan diakritik belgilar (zer-zabar arabcha harakat) o'rgatilgan. Bu boqichda Haftiyak (Qur'onning yettidan biri) o'rgatilgan.

«Chor kitob» 4 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim - haq-xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisida iymon-e'tiqodni anglash, uchinchi bo'limda rivoyatlar bahs etilgan. Shuningdek, xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilar edi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo'lar edi. Ular o'qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustahonalarida qo'llar edilar, ba'zilari qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilari madrasaga kirib o'qishni davom ettirardilar.

Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrga oid diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o'tilardi. Uning o'quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan: birinchi bo'limda

musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob - arab tili va qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan.

Ikkinchi bo'limda qonunchilik, ilohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom o'qitilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan.

Uchinchi bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug'ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo'lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba'zi domlalarning xotinlari – otinoyilar qizlarni ham o'qitish bilan shug'ullanar edilar.

4-jadval

SHAHAR	MAKTABLAR SONI	O'QUVCHILAR
TOSHKENT	120	2000
BUXORO	360	6000
QO'QON	300	5500
ANDIJON	90	1700
SAMARQAND	80	1000
MARG'ILON	70	800
NAMANGAN	60	900
JIZZAX	10	150

Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab va fors-tojik tillarida olib borilardi. Eski maktablarda ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus-tuzem maktablari hamda yangi maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi, - litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi, qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida muhim rol o'ynadi.

Tadqiqotchi olim O.Muhammadjonovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning birinchi yarmida Turkiston o'lkasining yirik markaziy shaharlarida quyidagi ta'lim muassasalari bor edi:

1906-yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o'qituvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905-1906-yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmli kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy -

Feruz(1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884-yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullandilar.

Feruz Farmoniga muvofiq, 1904-yilning 10-noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo'shayev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo'shayev 1906-1907-o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruzunga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo'shayevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shayeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909-yilga kelib, Feruzqo'li ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan ma'rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach, Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga - riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik kabi fanlarini o'qitish kiritildi. Mashg'ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari - Navoiy, Fo'zuliy, Bedil, Sa'diy Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o'rganildi. Shuningdek, u, vohada san'at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroyda «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» - yunoncha so'z bo'lib «Litos» - tosh va «grafos» yozaman degan ma'noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruzsaroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning «Nisobus - sibiyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul ushshoq» devoni, Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xolis» to'plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlari nashr etilgan.

Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Rus muhojirlari Turkiston general - gubernatorining farmoniga binoan, o'lkada rus maktablari, rus-

tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar. Tarixchi olim I.Y.Tursunov ning «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi» nomli asarida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

O'lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus-tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar. Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxondik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar - 99,5 % savodsiz;

Qirg'izlar - 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar - 99,3 % savodsiz;

O'zbeklar - 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar - 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o'lkasi xalqlari 1917-yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo'lganlar. (I.Y.Tursunov «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi»). Rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblanganlar. Hatto, ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat'iy ta'qib qilar edilar.Ayni vaqtda chor hukumati rus bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o'z oldiga ruslashtirish maqsadini qo'yar edi. Bu kabi maktablarni ochishdan maqsad musulmon bolalarga rus tilini o'rgatish edi. Shu maqsadda birinchi rus-tuzem maktablari ilk bor Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida 1884-yilning dekabirida ochildi. Aslida «Tuzemes» degani ruscha -o'zbekcha lug'atda «mahalliy xalq», «tub aholi» degan ma'noni anglatadi.

V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Maktabni boshqaruvchi va rus tili o'qituvchisi

V.P.Nalivkin «musulmon yozuvi» o'qituvchisi mulla Solixo'ja Kichkina Xo'janov edi.

Rus-tuzem maktablarida odatda, asosan, mahalliy xalqning o'g'il bolalari tahsil olishgan. Lekin ruslar uchun maxsus maktablari bo'lmagan joylarda ayrim rus o'g'il va qiz bolalari ham birga qo'shib o'qitilgan. Turkistonning 1880-yilda Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Markaziy Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Turkiston o'lkasidagi viloyatlarda (Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona) rus-tuzem maktablarining o'sib borishi quydagicha bo'lgan:

Turkiston o'lkasining rus-tuzem maktablarida o'qitish jarayoni o'n oy, ta'til esa ikki oy davom etgan. Mashg'ulotlar birinchi sentabrdan boshlanib may oyining oxirida tamomlangan. Iyun va iyul oylari - ta'til oyi hisoblangan.

Rus-tuzem maktablariga o'quvchilar qat'iy aniq bir vaqtda, ma'lum tartib qabul qilinib, madrasalardagi kabi sinflarga bo'lib o'qitilgan. O'quv yilining maktabga qabul qilingan o'quvchilarning soni 20-30 ta bo'lishiga qaramay, ular bir sinf deb hisoblanib, bitta kitobni o'qishgan va bir xil xatni yozishni mashq qilishgan. O'quv yilining oxirida bolalar ikkinchi sinfga o'tishgan. Shundan so'ng ular uchinchi sinfga, keyin esa to'rtinchi sinfga o'qish tamom bo'lgandan so'ng maktab rahbarlari, mahalla mulozimlari oldida imtihon topshirib guvohnoma olishgan. Maktabga qabul qilinish yoshi 15 yoshdan oshmasligi kerak edi.

Bunday maktablarda rus pedagoglardan K.D.Ushinskiyning «Rodnoe slova» («Ona tili»), «Detskiy mir» («Bolalar dunyosi»), L.N. Tolstoyning «Peprvaya russkaya kniga dlya chteniya» («O'qish uchun birinchi rus tili kitobi»), V.P. Vaxterovnitng «Mir v rasskazax dlya detey» («Dunyoni bilish uchun bolalarga hikoyalar») kabi darsliklari mashhur bo'lgan. Bundan tashqari L.Grigorevaning «Russkoe slova» («Rus so'zi»), M. Vol'peraning «Pervaya kniga dlya chteniya» («O'qish uchun birinchi kitob») kabi darsliklardan foydalanilgan.

5-jadval

	RUS-TUZEM MAKTABLARI SONI	O'QUVCHILAR SONI	
		O'G'IL BOLALAR	QIZLAR
1870	1	29	-
1874	2	69	-
1884	3	110	-
1886	4	116	-
1889	17	374	-
1891	22	418	8
1894	23	527	3
1896	28	698	3
1898	32	1171	-
1900	35	1471	-
1901	45	1579	-
1904	57	1830	104

Rus-tuzem maktablarida o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilar edi. Mahalliy xalq bolalariga Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Ali Asqar Kalilinning «Muallimi soniy» va boshqa darsliklardan foydalanilgan.

Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinar edi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870-yillardan ochila boshladi: 1876-yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879-yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham yerli aholining bolalari qabul

qilinar edi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1\3 o'rin ajratilgan edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik tug'ilar edi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaguncha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilar edi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilar edi.

Toshkentdagi gimnaziyada dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilinar edi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903-yilda Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va uslubi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilar edi. (bu maktablarda ba'zan rus bolalar ham uchrab qolar edi).

Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan va o'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. V.P.Nalivkin seminariyada 1890-yilgacha dars berdi. Dars chog'ida Nalivkin bo'lajak o'qituvchilarga faqat o'zbek tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga ham havas uyg'otgan edi. Seminariyada o'qib chiqqanlar orasida rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishni sevib qolganlar anchagina edi.

1879-yilda Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang'ich sinflari uchun o'quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab seminariya rus-tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga ham kirishdi. Mahalliy tilni o'rganish majburiy

qilib qo'yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo'ldi. Seminariyada V.P.Nalivkin o'zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o'qituvchi bo'ldi. 1887-yilda Nalivkin tuzgan lug'at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixida o'zbek tiliga doir birinchi qo'llanma edi.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. XIXasrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Jadidizm (arabcha «jadid» so'zidan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni «usuli qadim» diniy ruhda bo'lgan kishilarni esa qadimchilar, deb atay boshladilar.

XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimchilar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813-yilda vafot etadi.

XIX asrning 50-60-yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni kiritadi:

- Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar.
- Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinsin.
- Madrasalarda Qur'oni karim, Hadisi sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.
- Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.
- Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar

bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq qadimchilar va amirning kuchli ta'zyiqi natijasida ta'qibga uchraganlar. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar. XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi.

Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi, ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirlarini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905-yil to'ntarish sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyoridagi katta yermulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokazolar edi.

Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907-yil Eron burjua to'ntarishi, 1908-yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidlar 1906-yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi

turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidaziziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablari tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbekning yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 10-martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topdi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilishi, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini G'aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi.

1918-yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtarasi tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtarasi jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyotchi islom» va hokazo kitoblari darslik sifatida o'qitilgandi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich - ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman, bir yil davomida yozma o'qishni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yilida: xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni Karim, islom

ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida esa Kalom-u sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi - rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf - ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston», turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil - shifoxiya, arab tili, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil - arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil - arab tili, rus qozixona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi - maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi - maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetasi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Hurriyat», «Oina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis imtihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand kitobxon islomiya», «Samarqand kitobxona va matbaaxona», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi chiqishlarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati o'qitish tizimlari, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlarni o'qish mumkin edi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya hamda uning muammolari to'g'risida boy publisistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat - ozodlik - erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar»,

«Yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li», «Bizga isloh kerak», «Ilaq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqinda» va boshqalar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. «Kitobatul atfol» («Bolalar maktubi») asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rganishdan ta'lim beradi hamda namunalar ham keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik to'plam Respublikamiz- ga davlat maqomi berilgan, mustaqillik qaror topayotgan damlarda bu kitob nazariy-ma'rifiygina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keladi. Kitobning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Behbudiyning g'oyalari milliy pedagogika tarixga qo'shilgan ulkan hissadir. Uning pedagogik fikrlari faqat u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Turkistonda jadidlar harakatining rahbarlaridan biri – **Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li** Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy- siyosiy sohada tub burilish yasagan shaxsdir. U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakatining Toshkentdagi «Sho'roi Islomiya», Qo'qondagi «Turkiston muxtoriyati» tashkilotlariga rahbarlik qilgan. Munavvar qori 1901-1904-yillarda qirimlik do'sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906-yilda esa yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko'p vaqt o'tmay maktab uchun ikki xonalik qo'shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovrug'i ortadi, bolalar soni ko'payib ketadi. Natijada qori akaga hammahalla bo'lgan Buvaxon to'ra Poshshaxon o'g'lining tashqi hovlisida maktabning ikki sinfli sho'basi ochiladi. Bu yerda 1- 2-sinflarni bitirgan bolalar o'qishni Munavvar qori hovlisida davom ettirganlar.

1913-14-o'quv yilida maktabda yuqori sinflar (5 va 6-sinflar) ochila boshlaydi. To'rtinchi sinfdan rus tili ham o'quv fani sifatida o'rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab

bo'lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvar qori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas'uliyat borligini ta'kidlaydi. Munavvar qori maktab o'qituvchilarining qiyofasini tavsiflab, aksar o'qituvchilar — badxulq, zolim, bolalarni kaltaklashadi, ya'ni *«Muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolani boshi harakatdan qolsa, ushbu tayoq shu bolani boshida o'lur. Ammo o'qug'on-o'qumag'on ila hech kimni ishi yo'q. Boshni qimirlatib o'tursa, kifoya qilur. Hattoki o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarni tayoqini ostida vafot qilmoq ham voqe' o'ldi. Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarni tarbiyasida o'skan bolalardan nima umid qilmoq kerak»*... Munavvar qori o'qitishning bunday yaramas usuli qanday oqibatlarga olib kelishi haqida kuyunib yozadi: *«... boshqa viloyatlarda xat bilmayturg'on kishi yuzdin o'n bo'lsa, Turkiston viloyatida yuzdinto'qsondir».*[52] Bunga bois maktabda o'qitiladigan dars va kitoblarning usul (metodika) jihatidan maqsadga muvofiq emasligi, muallimlarni pedagogik talablarga javob berolmasligi kabilardir deydi.

Munavvar qori maktab tartib-qoidalariga qat'iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh juda demokratik va insonparvarlik ruhida bo'lishi lozim, deydi. Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o'rganishni targ'ib qiladi. Masalan, u 1916-yili Toshkentda yig'ilishda nutq so'zlab shunday deydi: *«O'zbek ziyoli bolalarining Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz, bolalar o'qib, ilm tahsil olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar».*

Munavvar qori 1909-yili Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga, o'quvchilarga yordam ko'rsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin Shermuhammedov Ufadagi «Oliya» madrasasida o'qigan.

Munavvar qori 1906-yil sentabrida «Xurshid» jurnalini nashr ettirib, o'zi muharrirlik qiladi. Bu jurnal o'zbek xalqining ko'zini ochishga, fikriy uyg'onishga, o'z haq-huquqini tanishiga xizmat qilgani uchun oq poshsho malaylari tomonidan tezda yopib qo'yildi. Keyinroq u «Najot», «Surat», «Haqiqat», «Turon» gazetalarida bosh muharrir bo'lib ishladi. U

[52] Мунаввар кори. («Тараққиёт» газетаси, 1906 йил, 14 июнь, №1.)

matbuotni, elni g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi buyuk kuch, madaniyat va ma'rifatga chorlovchi qudratli vosita, haqiqat ko'zgusi, deb qaradi. U Turkistonning mustamlakaga aylanishi, millatning inqirozga uchrashi sabablarini ochib beradi: «Bu zamondan yuz yildan ziyodroq muqaddam zamondan boshlab ohista-ohista millat devorlarining har tarafiga rahna paydo bo'ldi. Bunga sabab ulamo va ulamolarimizning o'z nafslari rioyasida harakat qilmoqlari bo'ldi. Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatga qilgan xizmatlari tanho xotin olmoq va kuchuk urushtirmoq va beg'ayrat va behaqqoniyat dindor kishilarni badarg'a qilmoq va tutib o'ldirmoq bo'ldi. Millat nima va shariat nima bilmadilar. Shuning uchun millat devorining rahnalari tobora ziyoda bo'ldi».

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qorining yangi usul maktabida, 1908-yil sentabrida o'quvchilarning imtihoni bo'lib, imtihonga o'z bolalarining yutuqlaridan quvonish uchun ota-onalar tashrif buyurishadi. Yig'inda 200 dan ortiq odam yig'ilganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Tartibni nazorat qilib turish uchun kelgan mirshab va Shayxontohur mahalla oqsoqoli qatnashgan. Yangi usul maktablariga, umuman olganda, salbiy munosabatda bo'lgan, ularning faoliyatini kuzatib, nazorat qilib turgan,

Turkiston chor hukumatining ma'murlaridan biri - N.Sayfi majburan tan olib «*Ular bolalarga foydali ma'lumotlar va bilimlar bermoqda va ularning ongini o'stirmoqda. Yangi usul maktablari o'quvchilari o'zlarining fahmli, ongli ko'rinishi bilan jur'atsiz, qo'rqoq, tortinchoq eski maktab bolalaridan, ayniqsa, Toshkentda ajralib turadi*» (O'zR MDA. 47-f. 1-op. 1148-ish. 149-bet).

O'sha davr jadid maktablarida dunyoviy fanlarni o'qitishga katta e'tibor berilgan. To'rt yillik yangi usuli jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odobnoma, arab, fors tillari o'qitilgan. Munavvar qori o'zi ochgan maktablar uchun 1910-yilda o'quv dasturi tuzgan. Bu dastur ixcham va namunaviy bo'lganligi uchun ko'pchilik jadid maktablari o'qituvchilari undan o'z ish faoliyatlarida foydalanganlar. Dasturda har bir sinf uchun o'qitiladigan fanlarning haftalik soatlari alohida bo'lib ko'rsatib berilgan. Dasturdan jadid maktadlarining yana bir afzallik tomoni maktabda o'qitish, fanlarni o'zlashtirishning tezlashtirilganligi ko'rinadi. 4 yillik boshlang'ich jadid maktablaridan 5-6 yil eski maktabda o'qitilgan asosiy diniy fanlar o'rganilgan va qo'shimcha ikki baravar ko'p miqdordagi dunyoviy darslar o'qitilgan.

Munavvar qori jadid maktablari o'quvchilari uchun diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha ko'plab darsliklar yozgan.Dasturda ko'rsatilgan darsliklardan tashqari «Sabzazor» (She'riy to'prlam), «Yer yuzi» (Jug'rofiya), va «Tarixi islomiya» nomli darsliklarni ham tayyorlagan va ular maktablarda o'qitilgan.

Umuman, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlol uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) *«Tarjimayi holi»*da yozadi: «1900-yilda uylanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. Shu yilda otam o'lib, o'gay onam bilan bir ukam meni qaramog'imda menga boqim bo'lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to'g'ri kelganligidan quvvai muhofazam o'rta darajada bo'lg'on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg'a to'g'ri keldi. Shu choqlarda o'zim mehnat ichida yashag'onlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi she'rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o'qishga tutindim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnallar bilan tanishib, o'qib, ma'lumotimni orttira bordim. *«Tarjimon»* gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim. Shul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik – yangilik (*«jadid-qadim»*) janjali boshlandi. Gazet o'quvchilari mullalarni *«jadidchi»* nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidchilar to'dasida ishlay boshladim. *«Jadid maktabi»* ochib, o'qituvchilik ham qildim... Mulla va boylarga qarashli eski turmush bilan qat'iy sur'atda kurasha boshladuk. O'z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi. 1905-yilgacha shu holda sinfiy kurashda davom qildik ».

Abdulla Avloniyning *«Muallimi avval» («Birinchi muallim»)* alifbo darsligi Mulla Abdulvahob Ibodiyning *«Tashilul alifbo»* haqida, M.Faxriddinovning *«Rahbari avval»* darslik-alifbolari kabi usuli maddiyada yaratilgan. Usuli maddiya hijo usulining ancha soddalashtirilgan turi bo'lib, harfiy-bo'g'in uslubi (metodi) deb ham yuritiladi. Abdulla Avloniy mazkur alifboni yaratishda usuli savtiyada yaratilgan ilk darsliklar (Saidrasul Saidaziziyning *«Ustozi avval»,* 1903-yil; Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lining *«Adibi avval»* (1907)ini chuqur o'rgandi, o'zining amaliy tarbiyachilik faoliyatidan foydalandi. Muallif alifboni yaratishda bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor berdi, o'qitishning eng oson yo'llarini qo'llashga harakat qildi. Bu haqda Avloniy yozadi: *«Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki,*

bizning «Muallimi avval» («Birinchi muallim»)imizdan ham olib, tajriba qilib, o'qutub ko'rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta'mi-mazasi bordur, bu ta'm esa tajriba sohiblarini kashfu ma'lum o'lur... zng oson usul ila tartib edilmish». Darslikning birinchi qismida harfning yozilish shakllari tushuntiriladi, ikkinchi qismida didaktik xarakterdagi kichik-kichik matnlar beriladi.

Muallifning *«Muallimi soniy»* (2-sinf uchun) kitobi terma kitobga o'xshash bo'lib, *«Alifbodan so'ng o'qutmoq uchun»* yozilgan, bolalar ruhiga, bilim saviyasiga mos keladigan sodda, didaktik axloqiy-ma'rifiy hikoyalar, she'rlar bilan ziynatlangan darslikdir. Ko'pgina she'rlar yod olishga, ifodali va rollarga bo'lib o'qishga mo'ljallangan. Bu kitob 40 darsga mo'ljallangan bo'lib, unda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, badiiy asarni yod olish, ifodali va ta'sirchan o'qishga e'tibor beriladi.

Kitobni varaqlar ekanmiz, muallifning *«Saxiylik»* va *«Baxillik»*, *«Arslon ila ayiq»*, *«Nafsi buzuq hayitda o'lar»*, *«Aqlli qarg'a»*, *«Aqlli bola»*, *«Qalampir ila cho'l yalpizi»*, *«Ovoz»*, *«Xrus (xo'roz)ila bo'ri»*, *«Aqlli bog'bon»*, *«Soqi ila onasi»*, *«Bolari ila Pashsha»* kabi hikoya va masallarida nafs balosi va ochko'zlik, yolg'onchilik, baxillik, hasadgo'ylik, janjalkashlik, takabburlik, manmanlik, yalqovlik, tekinxo'rlik, nodonlik va jaholat, soxta do'stlik, nomardlik qattiq qoralanadi, rostgo'ylik, saxiylik, chin do'stlik, xushfe'llik, xushmuomalalik, yaxshilik qilish, aql va donishmandlik, mehnatsevarlik, mardlik kabi fazilatlar esa sharaflanadi. Bunday ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy mazmundagi asarlar bilan tanishtirish shubhasiz, bolalarni erksevarlik, haqiqatgo'ylik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, Abdulla Avloniyning yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida mo'ljallangan *«Turkiy Guliston yoxud axloq»* asarining ahamiyati katta bo'ldi. Darslikda yoshlarni *«yaxshiliqg'a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm»* axloq va xulq haqida keng fikr yuritiladi. A.Avloniy ta'lim bilan tarbiyani uzviy ravishda olib qaraydi: *«Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg'on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur»*, deb to'g'ri tushunadi va to'g'ri talqin qiladi: *«Tarbiya, «pedago'giya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtindan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'sdurmakdur».*

Abdulla Avloniy yoshlarning fikriy tarbiyasiga to'xtalar ekan, bu – muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas

bir vazifadur, *«fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur»*,- deydi.

Abdulla Avloniy bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ularni adolatparvar, rostgo'y, insonparvar, vijdonli qilib tarbiyalash zarurligiga alohida to'xtalib, *«insonning mohiyati vijdonidan bilinur»* deydi. Uning fikricha, adolatni, odamni doim vijdon harakatga keltirib turadi. Lekin kishi qanchalik adolatli bo'lmasin, yolg'iz o'zi hech bir natijaga erisholmaydi: «Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'o'z o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas. Balki o'zi bilan barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmas va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur». Nihoyat, A.Avloniy adolatni va insonparvar bo'lishni muhim bir ijtimoiy zaruriyat sifatida talqin qiladi: «Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog'i adolatga bog'liqdir. Adolatdan ayrilgan podshohlarning davlatlari yo'q bo'lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidur».

Ilg'or ma'rifiy-tarbiyaviy va ta'limiy-axloqiy g'oyalar bilan sug'orilgan *«Turkiy Guliston yoxud axloq»* asari yangi usul o'zbek milliy maktablarida asosiy darsliklar qatoridan o'rin olgan bo'lsa, 1909–1917-yillar oralig'ida *«Adabiyot yoxud milliy she'rlar»* nomli 6 qismdan (I, II, III, IV jo'zlardan) iborat she'riy to'plamning hamda *«Maktab guliston»* darsligining nashr etilishi esa bu kitoblarning ijtimoiy-nafis qimmati benihoyat katta ekanligidan va muallifning ezgu maqsad yo'lidagi fidoiyligidan darak beradi, albatta. Bu darsliklarda ifodali o'qishning qator shakllari – ifodali o'qish (individual o'qish), xor bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish kabilar beriladiki, bunda bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, badiiy so'zlashuvga o'rgatish nazarda tutiladi. Ifodali o'qishning ta'sirchan shakllaridan biri xor bo'lib o'qishga Abdulla Avloniy katta ahamiyat berdi

Jadidchilikni gazetalar nashr etishdan boshlagan Abdulla Avloniyning eng yaqin maslakdoshi **Mirmuhsin Shermuhamedov** (1895–1929) ning faoliyati ham alohida diqqat-e'tiborga loyiqdir. U *«Tarixiy ikki voqea»* maqolasida usuli qadim tarafdorlari – eski maktabdorlarni qattiq tanqid qilib, maktab va madrasalarda o'quv-o'qitish usullarini isloh qilish shiori bilan chiqdi: *«Aziz millat bolalarining ranglarin sap-sariq qilgan... ochlikdan tishlarin kirini so'rdirgan Buxoro va Xivadagi dahshatli, qorong'i, zax zindonlar eshigi buzuldi... Maktab va madrasa islohi desa, tishlarini qichirlatib, ko'zlarin olayturadurg'on maorif dushmani – sudrama chopon, jonli tegirmonlar... qozi qalon, qushbegi, oftobachi, tag'in nima balolar ismi ila shuhratlangan Buxoroning miqroblari... endi*

quvulurlar... Talabalarning yarim umrin tuzon qilib ko'kka uchurgan muqovasi qalin «Sharhi mullo»lar shoyad endi otilib tashlanurlar. Aning o'rniga shoyad yangi qoida ila yozilgan darsliklar o'qulur, ham o'qulur».

Murmuhsinning bunday hur fikrlari o'sha davrdagi jamoatchilik fikrini ostin-ustin qilib yubordi. Oqibatda «Turon» gazetasi yopilib,, A.Avloniydan gazeta chiqarmaslik haqida tilxat olindi. Mirmuhsinni mirshablar ushlab, yuziga qora surkab, eshakka teskari mindirgan holda bozor rastalarini aylantirib, sazoyi qildilar. Toshkent hokimi Mirmuhsinga berilgan o'lim jazosini 18 oylik qamoq jazosi bilan almashtirdi. Oradan ko'p o'tmay, do'stlari va hamfikrlari ko'magida hibsdan qochishga muvaffaq bo'lgan Mirmuhsin Ufadagi jadid birodarlari bag'ridan panoh topdi.

Jadidchilik harakatining ilg'or namoyandasi **Abdulla Qodiriy(1894–1940)** ham o'z ilk ijodiy asarlari – *«Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Uloqda» hikoyalarida. «To'y», «Millatimga», «Ahvolimiz»* kabi qator she'rlarida ma'rifatsizlik orqasida Turkiston yerli aholisining qoloqligidan, g'aflatda yotganligidan kuyib-pishib noliydi, o'z xalqi ahvoliga g'oyat achinib, og'ir iztiroblardan qutulishning yagona yo'li – ilm-ma'rifatni egallash g'oyasini ilgari suradi.

Abdulla Qodiriy 1915-yilda chop etilgan *«Ahvolimiz»* she'rida o'z xalqini, millatini ilm-ma'rifatga da'vat etadi, maktablarni keng ko'lamda rivojlantirish, shu bilan yoshlar tarbiyasiga e'tibor berish g'oyalarini ilgari suradi:

Ko'r bizning ahvolimi, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz.
O'g'lingizga na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak.
Na xudoni buyrug'i bo'lgan ulum o'rgatamiz.

Abdulla Qodiriy she'rning birinchi satrlaridayoq mustahkam iroda va e'tiqod – insonning eng oliy-maslagi bo'lishi kerakligini yoshlarga alohida uqtiradi. U insonga xos bo'lmagan befoyda, be'mani odatlarni qattiq qoralaydi:

Korimiz shundan iborat bo'ldi ushbu chog'ida,
O'ntadan bedana boqib, yoz-u qish sayratamiz...
Keling, yoshlar ziyolilar, bukun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar qodir esak uyg'otamiz.

A. Qodiriyning *«To'y»* she'rida ham agar boylarni boyligi oshib-toshib ketayotgan bo'lsa, hadeb xo'jako'rsinga katta-katta to'ylar qilavermasdan, balki maktab-maorif ishlariga yordam ko'rsatsinlar, degan g'oya ifoda etiladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) madrasada o'qib yurgan chog'larida Qo'qon shahrida ilg'or fikrli talabalar 1908-yilda *«Shamsinur»* nomli ma'rifatparvarlik jadidlar guruhini tashkil qiladilar. Bu guruh a'zolari ayrim maktabdor va mudarrislarning mutaassibligi va jaholatparastligiga qarshi, Turkiston maktab va madrasalarida o'qish-o'qituv ishlarini isloh qilish va aniq bilimlardan dars berilishi uchun kurashga chaqirilgan qo'lyozma varaqalar tarqatar edilar. Bu esa O'zbek yoshlari ongida jiddiy burilish bo'lganligidan, asriy o'qitish uslublarining yemirila boshlaganligidan, jaholatga qarshi ilg'or kuchlarni kuchayib borayotganligidan dalolat berar edi. Hamza o'z xotiralarida bu to'g'rida shunday deb yozgan edi: *«Ko'p uzoq emas, 1908-yillarda, madrasada o'qib yurgan vaqtimizda gazeta, jurnallarni birovlar nomiga yozdirib olib, qo'ltig'imizga yashirib, madrasaning qozon qo'yadigan qorong'u hujralarida eshikni ichidan beklab, o'shanda ham qo'rqib-qo'rqib o'qib edik».*

Hamza 1911-yilda Qo'qonda hamfikr do'sti Miraziz yordamida Hojibek guzarida yangi usul maktabini ochib, unda o'zi dars beradi. Maktabda o'qish-o'qitish ishlariga ba'zi bir o'zgarishlar kiritib, quruq yod olish uslubini yo'qotishga harakat qiladi. O'quvchilarni urish va so'kishni taqiqladi, sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga ko'p e'tibor berdi, ona tili darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratdi.

Hamza bolalarni o'quv qo'llanmalari, ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash maqsadida *«Jamiyati xayriya»* tashkil qiladi. Hamza ochgan maktabning dovrug'i Qo'qon shahridan tashqariga ham tarqala boshladi. Mahalliy ma'murlar bundan hayiqib, 1913-yilda maktab va jamiyatni berkitadilar.

Hamza 1914-yil sentabrida Shayxulislom guzarida *«Dorulaytom» (Yetimlar uyi)ni* ochadi. U bu haqda shunday deb yozgan edi: «Biz yo'qsillarning bolalarini va yetimlarni o'qitishni xohlaymiz, ularning miyalarini foydali ish bilan mashg'ul qilmoqchimiz, shuning uchun ham o'zimizning *«Dorulaytom»*imizni ochdik. Bu maktabda o'qitish tekin bo'lishi bilan birga bolalarga daftarlar, yozuv ashyolari va kitoblar ham tekin beriladi». U o'z maktabi uchun *«Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi», «O'qish kitobi»* kabi darsliklarni yaratdi.

Hamzaning 1914-yilda yozilgan *«Yengil adabiyot»* darsligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan edi. Bu darslik 45 darsga taqsimlangan bo'lib, undan axloqiy-didaktik hikoya va she'riy asarlar o'rin olgan. U *«Yengil adabiyot»* darsligi so'z boshisida o'z maqsadini

bunday deb bayon etadi: «Demak, hozirgi o'qilib turgan adabiyotlarimiz o'quvchilarga og'ir bo'lmasa hamki, yosh talabalarimizga ba'zi lug'atlarning mavhumini og'irlik qilib turganligi shoyad boshqa bir muallimlarga tajriba bo'lgandir.

Demak, u adabiyotlarga oldindan hozirlamoq uchun ochiq ma'noli qilib hamda birinchi sinfga tayyorladik, toki haftada bir darsdagina ta'min o'lunub, shoyad ikkinchi sinfga ko'chgandagi o'qilajak adabiyotlarga yordamchi bo'la olur edi».

Hamzaning «O'qish kitobi» 1914-yilda yozilgan bo'lib, u 2-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Bu darslik 9 darsga taqsimlangan bo'lib, muallifning 15 ta ma'rifiy-tarbiyashunoslikka doir asarlari berilgan.

1915-yilda Hamza 2-sinf o'quvchilari uchun hikoyalardan iborat *«Qiroat kitobi»*ni yozib tugatdi. Bu darslikda har bir dars so'zlarning kelib chiqishini izohlashdan boshlanadi, so'ngra bu tushunchaning falsafiy mazmuni beriladi. Undan keyin aytilganlar odob-axloqqa oid hikoyalar bilan mustahkamlanib, dars ta'lim-tarbiyaviy xotima-yakun yasovchi ikki qatorli she'r bilan tugaydi.

Xullas, Hamza yaratgan darsliklarda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinganligini, bolalarda o'qishga qiziqish uyg'otishi va kitobga muhabbat tug'dirishini alohida qayd etmoq lozim. Darsliklar xalq ijodidan keltirilgan parchalar bilan to'ldirilgan bo'lib, yorqin va shirali xalq tilida yozilgan.

Hamza ta'limning tushunarli va ko'rgazmaliligi singari aniq ta'lim-tarbiya qoidalarni qattiq turib himoya qildi. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin. Maktabdagi geometriya darslaridan birida ko'rgazmali qurol yo'q edi. Natijada, dars unchalik ishonchli chiqmagan. Hamza zarur ko'rgazmali qurollarning eskizlarini yasab, Shohimardondagi duradgor ustaga uni tayyorlab berishni topshirdi. So'ngra asboblardan darslarda foydalana boshladi. Shunday qilishni boshqa o'qituvchi muallimlarga ham maslahat berdi.

Hamzaning bolalarga ta'lim berish va ularni axloqiy tarbiyalash nazariyasi masalalaridagi ko'pgina qoidalari hozirgi vaqtda ham maktablarimizda keng foydalanilmoqda. U tarbiyani inson shaxsini shakllantirish, hal qiluvchi kuch deb bilib, bolani mehnatsevarlik, halollik, sofdillik, samimiylik, orastalik, saxiylik fazilatini tarbiyalashga alohida e'tibor beradi.

Muhammadsharif So'fizoda (1869–1937) 1913-yilda Chustda yangi usuldagi maktab ochib, maktab eshigining tepasiga shunday deb yozdirib qo'ygan ekan: *«Men ul bo'yoqchimanki, maktab xumida rang*

berib, qora chappalarni o'n ikki oyda oq qilaman». Uning maktabida ona tili, jo'g'rofiya, handasa kabi dunyoviy fanlar o'qitilgan. Diniy darslar deyarli o'qitilmagan.

Bu maktabdan tashqari Kamarsadada ham u yetim bolalar uchun *«Dorulaytom» (Yetimlar uyi)* va kattalar uchun kechki kurslar ochadi. Lekin So'fizoda ochgan bu yangi usul maktablari tezda bekitilib, uning o'zi *«Muallimi kofir»* deb e'lon qilinadi. Bu ham yetmagandek, jaholatparastlar *«Turkiston viloyatining gazeti»*ni 1914-yil 1-yanvar sonida quyidagi mazmundagi xabarni bosib chiqaradilar. *«Chust shahrida bir mulla shoir usuli jadid ochgan ekan. Chust aholilari aning axloqi buzuq deb maktabni tarqatib, o'zini Chustdin haydab yuborgan ekanlar».*

Oradan ko'p o'tmay, *«Turkiston viloyatining gazeti»da shoirning muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar bizlar, berib pora, pristavlarni topgan chustilar bizlar, – deb boshlanadigan she'riy javobi bosilib chiqadi, she'r mahalliy hukumat vakillarini larzaga soldi. Shoirni qamadilar, oyog'idan sudrab sazoyi qildilar. Oqibatda shoir o'z vatanidan bosh olib chiqib, ma'lum muddat Hindiston va Afg'onistonda yashashga majbur bo'ldi. Lekin u o'zi tanlagan yo'ldan, haqiqatni xalqqa yetkazishdan iborat bo'lgan maslak-e'tiqodidan hech qachon qaytmadi.*

Taraqqiyparvar murabbiy va ma'rifatparvar shoir **Is'hoqxon Ibrat (1862–1937)** usuli hijoga asoslangan eski maktablarni isloh qilish shiori bilan emas, aksincha, ularni tag-tugi bilan tugatish va bunday maktablar o'rnida yangi, davr talablariga javob bera oladigan, zamonaviy ilmlar o'rgatadigan usuli savtiya uslubiga asoslangan maktablar tashkil qilish shiori bilan chiqdi: *«...Eski maktablar bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi, yo'q bahonasida besh-o'n sanalar osmonga qaratib, «Alif bezavar, alif be-bazer», deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o'quv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqg'a taqviyatgina bo'ladur... Bolalarni eski maktablar ila jamoalarga taqsim qilib, kelib-ketish, kaltak va qamchi masalalarin isloh qilmoq. albatta lozimdur. Lekin o'qulajak kitoblari – mazkur eski kitoblari o'qutajak domulalari – eski domlalari, maktablarida – eski hasharot uyalari bo'lduqinda bu masalalarni ming martabalar isloh qilinsada bekor, behudadur... Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilan yangi usul domlalarning himoyasida bo'lgan maktablar va'z etmak lozimdur. Eski maktabdorlarimizni dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdur. Bu janob mullalarga va yangi domlalarimizga oxiri so'zim».*

Ishoqxon Ibratning eski maktabdorlarga, mudarrislarga nisbatan aytilgan achchiq gaplari, ularni ta'lim-tarbiya ishlariga yaqinlashtirmaslik haqidagi talablari katta jasorat edi.

Bu sohada, ayniqsa, Toshkent shahar Sebzor dahasidagi eski maktabdor mulla Husanxo'ja eshon bilan Is'hoqxon Ibrat o'rtasidagi munozara ancha diqqatga sazovordir. Mulla Husanxo'ja eshon *«Turkiston viloyatining gazeti»*ni 1907-yil 23-sonida bosilgan *«Toshkand Musulmon maktablari haqinda»* maqolasida eski maktablarni tashviq qilib, yangi usuli savtiya maktablarini tanqid qiladi va eski maktablarni yangi usul maktablaridan ustun qo'yadi. Shu bilan birga, u eski maktablarni nomiga yengil-yelpi isloh qilish, ya'ni o'quvchilarni kaltak bilan jazolash usulini bekor qilish, o'quvchilarni jamoa-jamoa qilib o'qitish va davomatni tartibga solish kabi shiorlar bilan chiqadi. Shuning uchun ham Is'hoqxon Ibrat mazkur maktabdorga, uning maktabiga, o'qituv usuliga qarshi yozgan maqolasida kinoyali so'zlar bilan qattiq tanqid qiladi:

«Mulla Husanxo'ja eshon o'z maktabini yengil-yelpi isloh qilib, jadid maktabi deb ataydi va o'quvchi bolalarni tashviq qiladi. *«Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li ushbu 1907-yilning sentabridan boshlab, biz sartiya maktablarimizni maktab bolalariga o'qitadurg'on usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibig'a olib, jamoa-jamoa qilib o'qitadur. Choraki, mazkur tariqa tartibida maktab bolalarini tez fursatda savodlari chiqib, ko'p foydalar hosil bo'lur ekan. Yana shulki, bu tartibning hech nimarsag'a moneligi bo'lmas ekan. Sabab shulki, beshinchi jamoa birlan tamom bo'lur ekan. Birinchi jamoa «Haftiyaki sharif», ikkinchi jamoa «Kalomi sharif», uchinchi jamoa «Chohor kitob» birlan «Fuzuliy» yoinki «Navoiy», to'rtinchi jamoa «Bedilxon», beshinchi jamoa «E'tiqodli islomiya» birlan «Ilmi faroyiz» o'qib, tamom qilib, muddati ikki yil yoinki uch yil miyonasida madrasalarda o'qumoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib, o'qimoqg'a qodir bo'lur ekanlar».*

Yuqoridagi so'zlardan ko'rinib turibdiki, mulla Husanxo'ja eshon o'z maktabini isloh qilib, hech qanday ijobiy yangilik kiritgani yo'q (jamoa-jamoa qilib o'qitishdan boshqa). Ushbu maktabning mohiyatini, eski maktablardan hech qanday farqi yo'qligini tushungan Is'hoqxon Ibrat *«Jadid maktabdor»* Husanxo'janing maktabini xalq bolalarini aldash uchun, ko'proq ularni jalb qilib, katta daromad olish uchun ochilgan maktab deb baholaydi.

Is'hoqxon Ibrat birinchi marta 1886-yilda va ikkinchi marta 1907-yilda eski maktablardan butunlay farq qilgan, qishloq bolalari uchun bepul yangi usul savtiya maktabini ochadi. Maktab uning o'z uyida –

yorug‘, derazali xonaga joylashgan bo‘lib, u yangi o‘quv qurollari – parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangandi, o‘qish-o‘qitish ishlarini bo‘lsa u o‘zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Bu maktabda o‘z farzandlari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonlarni hamda 25 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi. Is’hoqxon o‘z maktabida haftalik dars jadvalini joriy qildi, darslik va qo‘llanmalar sifatida esa o‘zining *«Lug‘ati sitta-al-sina»*, *«San’ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy»* asarlaridan, S.M.Grameniskiyning *«Kniga dlya chteniya»*, Saidrasul Saidaziziyning *«Ustodi avval»*, Ali Asqar ibn Bayramali Kalenining «Ta’limus soniy», M.M.Oraqulovning *«Samouchitel russkogo yazika dlya russko-musulmanskix shkol»* kabi darslik va qo‘llanmalaridan foydalandi.

Is’hoqxon Ibrat yangicha ta’lim-tarbiya usulining nihoyatda katta afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi uslublarga asoslanadi. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: «Men o‘zum ham o‘zumga qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduklarini jonim achib, Qozon tarafdan... bir muallim jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar «Alif nima? degan savolga «kaltak» deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgan bo‘ldilar. To‘rt-besh, yetti va sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub, hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomixi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lub, har bir kitoblarni mutolaa etadurgan bo‘ladilar. Shul sababdin biz o‘z ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘qitishga tamom ixlos qildik».

Shu tariqa Is’hoqxon Ibrat zamoniga xos har qanday ilg‘or yangiliklarni bajonidil qabul qiladi va xalq farzandlarini ilm-ma’rifatli qilish yo‘lida yangi usul maktablari ochib, milliy kutubxona, xiyobon, hammom, bosmaxona tashkil qilib, ro‘znoma va kitoblar nashr qiladi.

Abduqodir Shakuriy (1875–1943) Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘ildi. Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o‘qishga kirdi. Shakuriy o‘zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o‘qitish usullari bilan tanishligini qayd qiladi. Shundan keyin yosh muallimda o‘z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo‘ladi.Shakuriy do‘stlari yordamida Qo‘qon shahriga boradi va u yerda o‘n kun davomida yangi maktabdagi

o‘qish-o‘qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o‘zi ochgan maktabda qo‘llay boshlaydi.

Shakuriy dastlab maktabda o‘quv jihozlarini o‘zgartiradi. U ustalarga parta va doskalar buyuradi. Shu asosda birinchi marta o‘z qishlog‘i Rajabaminda 1901-yilning ko‘zida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. U davrlarda darslik va qo‘llanmalar bo‘lmaganligi sababli Shakuriy harflarni doskaga yozib qo‘yar, o‘quvchilar esa shuni o‘z daftarlariga ko‘chirib yozar edilar. Shuningdek, u qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanar edi.Shakuriy o‘z xotiralarida tatar pedagogi Abdulxodiy Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soniy» kabi darsliklaridan o‘z vaqtida foydalanganligini ko‘p martaba eslaydi.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo‘lib, uning o‘quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o‘tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to‘sqinlik qilmas, ammo dunyoviy fanning o‘qitilishidan tashvishlanar edilar. Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo‘lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo‘yar ekan.

Shakuriy maktabida tojik va o‘zbek bolalari birga o‘qitilar edi. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o‘zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o‘qitilar edi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o‘qitilar edi. Shakuriyning tarjimayi holida aytilishicha, bu maktabning to‘liq dasturi bo‘lgan.U vaqtlarda maktablarda Qur’oni karim o‘qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o‘qitilar edi, chunki hech bir ota-ona Qur’on yoki biror diniy kitob o‘qitilmagan maktabga bolalarini bermas edi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o‘qish kitoblaridan biri hisoblanar edi.

Tatar pedagogi Maqsudiy o‘z maktabi uchun darsliklar tuzganda, arab tili qoidalari va alfavitini o‘qitishga alohida e’tibor bergan. Shakuriy ham o‘z maktabida bunga rioya qilgandi. O‘qitishdagi bu usul eski maktablardagi o‘qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha yengillashtirar edi.

Shakuriy o‘z o‘quvchilar uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar oldida o‘quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirar edi, ota-onalar esa o‘z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma’lumotga ega bo‘lganini ko‘rib hayratlanardilar. Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala

boshladi, O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909-yilda Shakuriy ochgan maktabini ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o'qish-o'qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy bir-birlari bilan do'stlashib, ko'p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shuni qayd etish kerakki, Shakuriy faqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'lari hisobiga nashr qildirgan. Chunki, tojik va o'zbek bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o'qitish katta qiyinchiliklar tug'dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun, u o'quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi. Shunday bir sharoitda Shakuriy bolalarning o'z ona tilida o'qish kitoblari, darsliklar yaratish zaruriyatini yaxshi tushunadi. U bolaning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni ko'zda tutib, ana shunday darsliklar tuzishga kirishadi. Birinchi navbatda, alifbeni Shakuriyning o'zi tuzdi. «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbariyati»), deb atalgan bu kitob yaxshi qog'ozda nasta'liq xati bilan yozilgan edi. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshimning aytishiga qaraganda, bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik-kichik material berilgan ekan.

Shakuriy ko'p yillik pedagog faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda «tovush-harf» metodi (har bir tovushni alohida harf bilan yozish)ning qulay va oson ekanligini aniqladi va 1913-yilda uning rahbarligida o'z shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullayev tovush-harf usuli asosida yangi alifbe tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Bu kitob arab harfida tojik tilida yozilgan bo'lib, u ko'p yillar davomida savod chiqarishda eng yaxshi o'quv qo'llanmasi sifatida qo'llanib kelindi. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar beriladi.

«Alifbe ta'limi» Ismatulla Rahmatullayevning 10-12 yillik ijodiy ishlari va uning ustozi Abduqodir Shakuriyning ko'p yillik amaliy faoliyatining natijasida yaratildi. Ular ko'p yillar davomida boshlang'ich ta'limning turlicha metodlarini qo'llash, o'z tajribalari, shuningdek yangi usuldagi o'qish-o'qitish usullari va ko'pdan-ko'p alifbe kitoblarini

o'rganish, umumlashtirish asosida bu kitobni tuzdilar. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob «Jome' ul hikoyat» («Hikoyalar to'plami»)dir. U qayta tuzatilib, to'ldirilib, 1911-yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir. Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog'ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 ta she'riy parcha berilgan. Kitobning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan ibortaki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o'z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlaydi. Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ'ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko'zda tutmas va ayni chog'da hech kim unga moddiy yordam bermas edi.

Abduqodir Shakuriy 1917-yil to'ntarishiga qadar o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. 1917-yilda Samarqand shahrining bir guruh ilg'or kishilari Abduqodir Shakuriyning pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921-yilda Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi. Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo'lib, mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1925-yilda Abduqodir Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari hisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. XIX asrning ikkinchi yarimida Turkistonda maktablar tizimi qanday tashkil qilingan?
2. Rus tuzem maktablarining ochilishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
3. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati haqida ma'umot bering.

4. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmatlari nimalardan iborat bolgan?

5. Jadidchilik harakatllari va jadid allomalarimiz haqida ma'lumot bering.

31-MAVZU. 1924-1991 YILLARDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Turkiston o'lkasida 1917-1924-yillardagi ta'lim siyosati. XVIII asrning boshlarida 1917-yildan boshlab barcha mustamlaka o'lkalar qatorida Turkistonda mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy- mafkuraviy hayotida, shuningdek, maktab va maorifi tizimida keskin o'zgarish yuz bera boshladi. Jumladan:

1. 17 yoshgacha bo'lgan hamma o'g'il va qiz bolalarga tekin hamda majburiy umumiy va poltexnika (nazariya va amaliyotda ishlab chiqarishning muhim tarmoqlarining hammasi bilan tanishtiradigan) ta'limi berishni amalga oshirish.

2. Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini: yaslilar, bog'chalar va shunga o'xshashlarni vujudga keltirish. O'quvchilarni o'z ona tillarida o'qitadigan, o'g'il va qiz bolalarni birga tarbiyalaydigan, albatta dunyoviy bo'lgan, ya'ni har qanday diniy ta'sirdan xalos bo'lgan, o'qitishni ijtimoiy foydali mehnat bilan mahkam bog'laydigan, yangi jamiyatning har jihatdan yetuk a'zolarini tayyorlaydigan birlashgan mehnat maktabi tamoyillarini to'la ravishda amalga oshirish.

3. Barcha o'quvchilarni davlat hisobiga oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal o'quv qurollari bilan ta'minlash.

4. Yangi g'oyalar bilan qurollangan yangi maorif xodim kadrlarni.

5. Mehnatkash aholini maorif ishiga faol qatnashuviga jalb qilish.

6. Ishchi va dehqonlarning o'z-o'zidan o'rganish va o'z-o'zidan o'qib bilim olishlariga davlat tomonidan har taraflama yordam berish (maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarmoqlarini: kutubxonalar, kattalar uchun maktablar, xalq uylari va universitetlar, kurslar, ma'ruzalar, kinematografiyalar, studiyalar va shunga o'xshashlarni vujudga keltirish).

7. 17 yoshdan yuqori kishilar uchun umumiy politexnik bilimlar bilan birga professional bilimlar berishni keng miqyosda rivojlantirish kabi masalalar maktab va maorif ishlarini taraqqiy ettirishning asosiy omili deb ko'rsatildi.

Milliy pedagog kadrlar tayyorlash – milliy darsliklar nashr qilish, o'z yozuvi bo'lmagan xalqlar uchun esa, ularning tillarida alifbe tuzish yuzasidan katta ishlar boshlanib ketdi. O'zbekiston hududida pedagog kadrlar masalasi juda qiyin ahvolda edi, faqat 704 o'qituvchi va bittagina pedagogika o'quv yurti - Toshkent shahrida o'qituvchilar seminariyasi bor edi. Talab qilingan juda ko'p o'qituvchi kadrlarni tayyorlash uchun dastlab Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda qisqa muddatli kurslar ochildi. 1918-1919-yillardan boshlab pedagogika bilim yurtlari ochildi.

1920-1921-yilda esa yuqori tipdagi o'quv yurtlari: O'zbek erlar dorulmuallimini. O'zbek xotin-qizlari va boshqa mahalliy millatlar uchun dorulmualliminlar ochidi. 1920-yida Toshkentda K.A.Temiryazev nomida oliy pedagogika o'quv yurti, Xalq maorifi instituti ochildi. Dastlab, universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakultetlari mavjud edi. 1919-yil fevraldan universitet tarkibida yangi fakultet - ishchi fakulteti ham o'z faoliyatini boshladi. Bu universitet 1920-yil 7-sentabrdan boshlab Turkiston davlat universiteti deb atala boshlandi. Bu paytga kelib unda ta'lim oluvchilarning 60%ini mahalliy yoshlar tashkil etdi.

Universitet nafaqat O'zbekiston, shu bilan birga O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari uchun ham xodimlar tayyorlar edi. Shuning uchun ham Turkiston MIQning 1923-yil 19-iyuldagi qaroriga muvofiq, Turkiston davlat universiteti nomi O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)ga o'zgartirildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi, siyosiy iqtisoddan, Munavvar Qori ona tilidan dars berishadi.

1917 - 1924-yillar davomida har yili 129 ta maktab yangidan ochilib, ularga 10700 dan o'quvchi jalb qilindi.

O'zbekiston hudidida umumiy ta'lim maktablarining soni 1914-1915-o'quv yilida 160 bo'lsa, 1924-yilda 907 ga yetdi, ya'ni 5,7 marta ko'paydi, ularda o'quvchilar soni ham shu tariqa o'sdi. 17,299 dan 75,543 gacha yetdi yoki 4,4 marta ko'paydi. O'sha vaqtlarda o'rta maktablar ham 2 marta, o'quvchilar soni esa 2,5 marta ko'paydi.

Bu davrda milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng ko'lamdagi tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qancha takliflar ishlab chiqildi. Sobiq

sho'rolar hokimiyatni o'z qo'llariga olganlaridan keyin 1917-yil 11-dekabrda «Ta'lim va tarbiyani cherkov qaramog'idan maorif xalq komissarliklari ixtiyoriga berish to'g'risida» qaror qabul qildi. Oldin diniy idoralar qaramog'ida bo'lgan barcha o'quv yurtlari dunyoviy maktablarga aylantirildi va Xalq maorifi qaramog'iga o'tkazildi. Maktablar mutlaqo dunyoviy bo'ldi. Maorif xalq komissarligining 1918-yil 31-maydagi qarori bilan maktablarda o'g'il bolalar bilan qiz bolalar birgalikda o'qitila boshladi.

Din, xususan, «Qur'oni karim»ni o'rganish umuman taqiqlandi. Adabiyot darslarida esa ko'proq rus millatiga mansub yozuvchilarning asarlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Lekin shunga qaramay, milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan, jadidlardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi bir qator ziyolilar madaniyat va maorif sohalarida samarali ijod bilan shug'ullandilar.

Har qanday ijtimoiy tuzum maktab-maorif, ilm-fan va shu kabi muhim soha vazifalarini hal etmasdan istiqbol sari ko'z tikolmasligi ayondir. Shu bois sho'rolar hokimiyati mutasaddilari ham bu masalalarga ahamiyat berar ekanlar, avvalo, ularni o'z sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib, hal etishga intildilar. Ayniqsa, yangi tuzum xalq ta'limi tizimini o'z maqsad va g'oyalari ruhida shakllantirishga alohida urg'u berdilar.

Ushbu davrda maktablarning moddiy-texnik bazasi talab darajasida emas edi. Ularda o'quv qurollari, dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar hamda yetuk bilimli o'qituvchi mutaxassislar yetishmasdi. Buxoro Respublikasida 1921-yilda jami 175 ta yangi maktab bo'lib, ularda 11ming o'quvchi tahsil olar edi. Xorazm Respublikasidagi 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 ta bola tahsil oldi.

Hatto poytaxt Toshkentning Eski shahar qismida maktab yoshidagi 40 ming boladan faqat 10 ming nafari, ya'ni 25%i o'qirdi, xolos.

1920-yil 17-sentabrda Turkiston o'lkasi hukumati o'lkadagi 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni o'qitish savodxon qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Yuqoridagi qarorga binoan, o'lkaning barcha hududlarida minglab savodsizlikni tugatish kurslari faoliyat ko'rsata boshladi.

1917-yil 9-14-may kunlari Toshkentda o'qituvchilarning I o'lka qurultoyi bo'lib o'tdi va bu qurultoyda «Turkiston o'qituvchilar ittifoqi» ta'sis etildi. Ta'lim tizimidagi ba'zi kamchilik va nuqsonlar natijasida 1922-yilga kelib, Turkistonda bolalarning 25 foizigina maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro Respublikasida 1921-yilda jami 175 ta yangi maktab bo'lib, ularda 11ming o'quvchi tahsil olar edi.

1924-1945-yillarda ta'lim va pedagogika fani. O'zbekiston hududida 1924-yildan boshlab ijtimoiy-madaniy soha qurilishining eng muhim vazifalaridan hisoblangan ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi. Bundan ko'zlangan maqsad o'lkada xalq ta'limi bo'g'inlarini tavnaq toptirish, yoppasiga xalq savodxonligiga erishish emas, balki eng avvalo, mahalliy aholi ongiga, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqur singdirilgan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi.

Bu davrga kelib, bolalar hamda o'smirlarga umumiy ta'lim berishni tezlashtirish, shuningdek, kattalar o'rtasida savodsizlikni butunlay tugatish harakati boshlab yuborildi. O'sha davr statistik ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekiston Respublikasi tashkil topgan dastlabki davrda jami 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi tahsil olar edi. Ularning 160 tasi sho'ro tipidagi maktablar bo'lib, dastlab ularda 17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib ularning bunday maktablar soni 5504 taga va ularda o'qiyotgan bolalar soni esa 1 mln. 315 ming nafarga yetadi.

Qishloqlarda 1923/1924-o'quv yilidan boshlab 1-bosqich maktablari orasida o'qish muddati uch yil bo'lgan dehqon yoshlari maktabi (DYoM) paydo bo'la boshladi. Bunday maktablarning asosiy maqsadi qishloq yoshlari orasida savodxonlik darajasini oshirish va ulardan yaxshi jamoatchilar tayyorlash edi. Dehqon yoshlari maktabining o'quv rejalariga yetti yillik maktablardagi umumiy ma'lumot fanlaridan tashqari agronomiya bilimlari ham kiritilgan. Ular qishloqdagi asosiy umumiy ma'lumot maktablari qatorida 1934-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

30-yillarga kelib, umumiy yetti yillik ta'lim joriy etilib, hayotga tatbiq etildi. Bundan tashqari, respublikada o'qituvchi mutaxassislar tayyorlovchi ko'plab o'rta maxsus pedagogika bilim yurtlari va pedagogika institutlari tashkil qilindi. Yuqorida keltirib o'tilgan islohotlar xalq ta'limi tizimi faoliyatini nisbatan yaxshilanishiga turtki bo'ldi.

1930-yil 14-avgustda «Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida» qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan 8,9 va 10 yoshdagi o'g'il va qiz bolalarni boshlang'ich maktabning kamida to'rt yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qitish joriy qilindi.

Umumiy majburiy boshlang'ich ta'limning joriy etilish sur'ati pedagogika texnikumlarini bitirgan o'qituvchilarning yetishtirish sur'atidan ancha yuqori bo'lganligi tufayli 1931-yil va undan keyingi yillarda boshlang'ich maktab o'qituvchilari tayyorlash uchun bir necha minglab qisqa muddatli kurslar ochildi. Xususan, O'zbekistonda qisqa muddatli kurslar 1932-yildan 1940-yilgacha 20,7 ming o'qituvchi tayyorlab berdi.

Agar statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, 1928/1929-o'quv yilida respublikadagi o'qituvchilar soni 5,5 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1932/1933-o'quv yilida 19 ming kishiga, 1941-yilda esa 42 ming kishiga yetdi. Garchi bu raqamlar xalq ta'limi tizimida erishilgan muayyan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatsa-da, lekin bu sohada xuddi shu davrlarda ko'plab jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, maktablar soni ko'payib borayotgan bo'lsa ham, ularning moddiy-texnik bazasi mutlaqo zamon talabiga javob bermas edi. Ko'pgina maktablarda o'qituvchilarning bilim va saviyasi yetarli bo'lmaganligi sababli o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi past edi. Shuningdek, maktab yoshiga yetgan bolalarning bir qismi jalb qilinmay qolib ketdi. Bolalar va o'smirlar orasida o'qishni tashlab ketish holatlari ortib bordi.

Sho'ro hukumati ta'lim tizimi, shu jumladan, yangi avlod tarbiyasini butunlay o'z manfaatlariga bo'ysundirish uchun arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yil 7-avgustda qabul qilingan qaroriga asosan, arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o'tildi. 1940-yilning may oyida O'zbekistonda «O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitidan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. O'zbek yozuvini o'zgartirish borasidagi bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi rivoji va istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi.

Agar 1920-yillarda respublikada ta'lim jarayoni nisbatan milliy ziyoli olimlar yetuk pedagog mutaxassislar tomonidan tayyorlangan o'quv darsliklar, o'quv qurollari asosida tashkil etilgan bo'lsa, 1930-yillardan boshlab ahvol keskin o'zgardi, ya'ni bu soha boshqaruvi to'liq holda Markaz mutasaddilari qo'liga o'tdi. Endilikda milliy respublikalardagi, shu jumladan, O'zbekistondagi ta'lim jarayoni bevosita Markazdan tayyorlab yuboriladigan o'quv dasturlar, darsliklar qo'llanmalar asosida olib borila boshladi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari sho'ro hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari ruhida tarbiyalangan unga sadoqat bilan xizmat qiladigan, yuqori malakali, o'qimishli, ziyoli mutaxassislarga ehtiyoj sezdi.

Bu davrda yuqori malakali pedagogik mutaxassislarga talab muttasil ortib borganligidan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch, Farg'ona va Namangan singari shaharlarda pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari tashkil etildi. Buning natijasida 1932-yilga kelib, respublikadagi jami oliy o'quv yurtlari soni 31 taga yetdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalar soni esa 12,2 ming nafarni tashkil etdi.

1943-yili O'zbekistonda 154 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, 1945-yilda ular soni 242 taga, tarbiyalanuvchilar soni esa 31.500ga yetdi.

Hukumatning maxsus ko'rsatmasiga asosan 1943-yildan boshlab ba'zi maktablarda o'quv ishlab chiqarish ustahonalari ochila boshladi.

O'zbekistonning sho'ro hokimiyati organlari, hukumat ko'rsatmasiga binoan, 1943-yilning 1-yanvaridan 8-10-sinf o'quvchilari hamda katta yoshdagi o'zbek o'quvchilarini o'qish haqi to'lashdan ozod qildi.Moskva, Leningrad, Kiyev, Harkov, Varonej, Odessa va boshqa shaharlardan 1941-1943-yillarda ko'chirib keltirilgan 35 ta oliy o'quv yurti va 7 ta akademiya qabul qilib olindi, ularning ba'zilari o'zaro yoki O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bilan birlashtirildi. O'z professor-o'qituvchilari bilan ko'chirib keltirilgan oliy ta'limning yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir etdi. Moskvalik va leningradlik olimlar talabalarga yangi kurslar bo'yicha ma'ruzalar o'qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlashga ko'maklashadigan, yangi mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston hukumati oliy o'quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar bilan ta'minlash masalalarida ko'maklashdi. Ayniqsa, ko'chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar 1943-1944-yillarda o'z shaharlariga qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida vaqtincha yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan, yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institutlari, Toshkent teatr san'ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda respublika hukumatining oliy o'quv yurtlariga bergan ko'magi yuqori darajada bo'ldi. Jumladan, yirik oliy o'quv yurlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar oliy o'quv yurtlariga ishga yuborildi.

Urush davrida respublikaning boshqa sohalari qatori xalq maorifi ham jiddiy qiyinchiliklarga uchradi. Maktab binolarining anchagina qismi gospitallarga, evakuatsiya qilingan harbiy qismlarga, bolalar uylariga va harbiy-o'quv punktlariga berildi. Buning oqibatida maktablar birlashtirildi, shaharlardagi maktablarda uch smenali o'qish joriy etildi. Darslar 40 daqiqaga qisqartirildi. Ashula va rasm darslari umuman o'tilmay qo'yildi. Urushgacha respublika maktablarida ishlayotgan jami o'qituvchilarning 74,6 %ni erkaklar tashkil etardi. Urush boshlanishi bilan ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga ketdi. Respublika bo'yicha birgina 1940-1941-o'quv yilining o'zida 36267 o'qituvchidan 30616 kishi qoldi. Buning ustiga darsliklar, uskunalar, daftarlar yetishmasdi. Qisqa muddatli

kurslar tashkil etilib, boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilar tayyorlandi. 1944-yilda o'qituvchilar armiya safidan maktabga qaytarildi. Shunga qaramay, o'qituvchilar yetishmasligi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolayotgandi. 1945-yilning avgust oyida sobiq SSSR Xalq Komissarligi Soveti «O'qituvchilar tayyorlash ishlarini yaxshilash to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan, yetishmayotgan o'qituvchilarni hatto to'liq o'rta ma'lumot olmagan kishilardan ham qisqa muddatli kurslarda tayyorlash orqali o'rnini qoplash shu vaqtdan boshlab to'xtatildi.

Urush yillarida maktablarning o'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi. Unga ko'ra, harbiy-fizika darslari soati ko'paydi, harbiy o'qish 1-sinfdan boshlab o'tila boshlandi, harbiy ta'lim nafaqat o'g'il bolalarga, balki qiz bolalarga ham o'rgatila boshlandi. Urush davrida maktablar tarmog'i birmuncha qisqargan, o'quvchilar soni ham shunga yarasha qisqargan edi. Masalan, 1940/1941-o'quv yilida 5504 ta umumta'lim maktablarida 1368,9 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa,

1945/1946-o'quv yilida 4976 ta umumta'lim maktablarida 989,2 ming bola ta'lim oldi. Ko'pchilik o'quvchilar turli sinflardan o'qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalarga ishga ketib qolishdi. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramay, bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o'rta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati – guvohnomasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan namunali xulqqa ega o'quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu chora-tadbirlar dars mashg'ulotlari saviyasini ko'tarliishga, o'quvchilar intizomini yaxshilanishga olib keldi. Kundalik o'qish foydali mehnat bilan qo'shib olib borildi. Jumladan, o'qishdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar gospitallarga otaliq yordami berdilar, frontdagilarning oilalariga ko'maklashdilar, temir-tersak to'plab topshirdilar, qishloq xo'jalik ishlarida qatnashdilar.

O'zbekistonning bu davrdagi ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari faoliyati ham alohida o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi shuki, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti ko'p jihatdan maxsus bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlarga bog'liq edi. Shu boisdan ham o'lkada hunar-texnika ta'limi maktablari, texnikumlar, maxsus bilim yurtlarini tashkil qilish va faoliyatini olib borishga e'tibor berildi.O'zbekistonda pedagogika faniga barkamol shaxs

ma'naviy atini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. 1929-yil 17-yanvarda Samarqandda pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim nazariyasi va metodikasi, xususiy metodika sohasida ilmiy pedagogik tadqiqotlar olib boradigan muassasa Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston davlat ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi.

1930-yili O'zbekiston Madaniy qurilish intitutiga, 1934-yildan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga aylantirildi. 1939-1941-yillarda O'zbekiston Maktablar ilmiy tadqiqot instituti, 1941-1946-yillarda Respublika Maorif xalq komissarligining metodik boshqarmasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Institutning Qoraqalpog'iston filiali 1967-yilda tashkil etilgan. Institutning tarkibida aspirantura 1960-yildan mavjud bo'lib, u orqali mamlakatimiz uchun ilmiy pedagog kadrlar tayyorlangan.

1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani. Urushdan keyingi yillarda maktab qurilishi, bolalarni maktabga jalb qilish ishlari anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, 1943-yili ochila boshlangan ishchi va dehqon yoshlar maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birmuncha kengaytirildi. Boshlang'ich maktablarda to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi. O'qituvchilarning bilimiga, ularning pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablar ortib borgan sari ularning moddiy ahvolini yaxshilashga ham katta e'tibor berila boshlandi. 1951-1955-yillarga mo'ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning ta'lim vazirliklari o'quv rejalari va dasturlarini qayta tuzib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.

1956-yil sentabridan boshlab maktabning yangi turi — internat maktab vujudga keltirildi. Chunki urush natijasida ota-onasini yo'qotgan bolalar, o'z bolalarini mustaqil tarbiyalashi qiyin bo'lgan beva ayollar ko'payib ketgan edi. Bunday maktablarga bolalar faqat ota-onalarning yoki ota-ona o'rnida bolani tarbiya qilayotgan kishilarning istagi bilangina qabul qilingan. Ota-onalari bo'lmagan bolalar, shuningdek, ayrim hollarda, mehnatkashlar deputatlari shahar va tuman Sho'rolari Ijroiya qo'mitalarining qarori bilan ko'p bolali, ta'minoti yaxshi bo'lmagan oilalarning bolalari internat-maktablarda to'liq ravishda davlat ta'minotiga o'tkazildi.

1958-yil dekabrida «Xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» qonun qabul qildi. Qonunda o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish, yoshlarni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib

shakllantirish, ularga umumiy politexnik bilim berish vazifalari qo'yildi. 1959-yilda 10 yillik o'rta maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi. Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklar yaratildi. Maktablarda ustaxonalar qurildi, maktab tajriba uchastkalari vujudga keldi. Fizika va matematika fanlarini o'rganish uchun ajratilgan soatlar ko'paytirildi. O'quvchilarga mashinasozlik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tish yo'lga qo'yildi. 1962-yildayoq to'liqsiz umumiy majburiy sakkiz yillik ta'limga o'tish amalga oshdi. Barcha yetti yillik maktablar sakkiz yillik maktablarga aylantirildi. Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi:

1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX-X sinflarda);
2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda;
3) hunar-texnika bilim yurtlari;
4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

1959-1975-yillari respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

Sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan yoshlarga ta'lim berish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini beruvchi kechki va sirtqi maktablar tashkil etildi. 1958-1965-yillarda 1000 ga yaqin shunday maktablar ochildi, ularda o'qiyotgan yoshlar 1965-yilda 134,5 ming kishini tashkil etdi.

O'zbekiston hukumatining «Respublika umumta'lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1966) va «Respublika umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1969) qarorlari qabul qilindi. Bu qarorlarga asosan, respublikada yoshlar uchun umumiy o'rta ta'limga o'tish, yangi maktab binolari, o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar barpo etishga yo'naltirilgan kapital qurilish ishlari bajarildi. Maktab-internatlar, o'quvchilarning badiiy iste'dodlarini rivojlantiruvchi maktablar ko'paydi. Jumladan, Glier nomidagi o'rta maktab-internat, milliy musiqa va milliy amaliy san'at maktab-internatlari, sport maktab-internati va boshqa o'nlab musiqa maktablari ochildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 1970-yilda ishlab chiqilgan nizomga muvofiq mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda alohida boshlang'ich (1-3- sinflar), 8 yillik (1-8-sinflar) va o'rta (1-10-sinflar) maktablariga aylantirildi. Ishlab chiqarish ta'limi berish maqsadida maktablararo o'quv

ishlab chiqarish kombinatlari tuzildi. Shahar va tumanlarda kasb-hunar bilim yurtlari tashkil etildi. Ko'pchilik maktablarda yoshlarni o'quv mashg'ulotlaridan keyin maktabda olib qolish, ularga ta'lim-tarbiya berish ishlari yo'lga qo'yildi, ya'ni kuni uzaytirilgan maktablar tashkil topdi. Alohida fanlarni chuqur o'rgatuvchi maktablar, shuningdek, aqliy va jismoniy jihatdan zaif bolalar maktablari vujudga keldi.

70-yillarning o'rtalarida umumiy o'rta ta'limga o'tish yakunlandi. 1965-1985-o'quv yillari orasida o'tgan 20 yil davomida barcha turdagi umumta'lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko'paydi, o'quvchilar soni esa 3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga ko'paydi. 1965-1985-yillarda respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni 5,7 million kishidan oshdi.

O'rta maktabni tamomlaganlarning maxsus kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi, texnikumlar qoshida o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarda o'qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi.

Urushdan keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim ancha o'sdi. 50- yillarda 3 ta oliy o'quv yurti - Andijon meditsina instituti, Toshkentda elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, 60-yillarda yana 8 ta yangi oliy o'quv yurti - Andijon paxtachilik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. 70-yillarda yana 5 ta oliy o'quv yurti - Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Pediatriya instituti ochildi.Shuningdek, yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik oliy o'quv yurtlarining filiallari ochildi. Yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

1960-yilda 30 ta oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 42 tani tashkil etdi. 1961-1985-yillardan respublika oliy o'quv yurtlari 828 mingga yaqin muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, madaniyat va san'at xodimlari yetishtirib berdi. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. 1960-yilda 75 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1965-yilda ularning soni 249 taga yetdi. 1961-1985-yillarda 1 mln. 135 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi. Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natijani bermadi. Buning sabablari esa quyidagicha edi:

- o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi talabalarning o'sish darajasidan ancha past darajada bo'ldi, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmadi;

- Respublika partiya va sho'ro organlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun har bir viloyatdan talabalar qabul qilish rejasi belgilangan bo'lib, bu rejani qanday qilib bo'lsa ham bajarish majburiy edi. Bu o'z navbatida, bilim saviyasi nihoyatda past bo'lgan yoshlarning ham oliy o'quv yurtlaridan o'rin olishiga olib keldi;

- oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o'quv rejalari va dasturlari 60-70-yillarda uch marta o'zgardi, har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun vaqt tobora kamayib bordi;

-xalq xo'jaligining mutaxassislarga bo'lgan talabi yaxshi o'rganilmadi, natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarda keragidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlandi, boshqa sohalarda, ayniqsa, texnika taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlarida kadrlar yetishmovchiligiga yo'l qo'yildi;

- o'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik kabi salbiy holatlarning tarqalishi ham kadrlar tayyorlash sifatini pasaytirdi, son ketidan quvish ustunlik qildi. Bunday vaziyatda yosh mutaxassislarning ma'lum qismi olgan bilimlarini turmush bilan bog'lay olmadilar, g'oyaviy-professional va axloqiy jihatdan yetuklik va qat'iylik ko'rsata olmay, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish yo'liga kirib qoldilar. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng tarqalgan salbiy holatlarning ildizi mutaxassislar tayyorlashdagi nuqsonlarga borib taqaladi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Yevropa madaniyati ta'sirida rivojlandi, ammo bu -o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlanish edi.

O'zbek pedagogika fani rivojida T.N.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, O.Muhammadjonov, M.Ochilov, O.Roziqov, K.Zaripov, D.Shodiyev, A.Zunnunov, O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, S.Temirova, S.Mamajonova, K.Hoshimov, J.Yo'ldoshev, Y.Abdullayev, N.Shodiyev, M.Quronov, L.Mo'minova, B.Qodirov singari olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Bulardan pedagogika fanlari doktori, akademik Siddiq Rajabovni alohida ta'kidlab o'tish joiz. U ilmiy-

pedagogik faoliyati davomida bir necha yo'nalishlarda: pedagogika fanining metodologik muammolari; axloq-odob va tarbiya; oliy ta'lim didaktikasi; pedagogika tarixini o'rganish; barkamol shaxsni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy an'analari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. S.Rajabov «Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari», «Xalq maorifi va pedagogika fani buyuk allomalari», «Inson omili va yangicha fikrlash» kabi risola, 300 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar muallifidir. 1941-yilda «XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherklari» risolasi bo'yicha O'zbekistonda birinchi bo'lib pedagogikadan nomzodlik, 1961-yili esa «O'zbekistonda maktablarning tashkil topishi va taraqqiy etishi (1917-1941-yillar)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu davrda olim pedagogika fanini chin qalbdan sevgan mutaxassislarni, ko'pgina iqtidorli yoshlarni o'z atrofiga chorladi. Yosh olimlarga hamisha yordam berib keldi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning hayotiy e'tiqodi va turmushining mazmuniga aylanib ketdi. Shu bois 10 dan ortiq fan doktorlari, 200 ga yaqin fan nomzodlari bevosita Siddiq Rajabovning ilmiy maslahatchiligi va rahbarligi asosida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. 1964-yilda S.Rajabovning ilmiy pedagogik faoliyati yuksak baholandi, unga «Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni berildi.

Malla Ochilov – O'zbekiston Respublikasi va hamdo'stlik mamlakatlari pedagogik jamoatchiligi orasida taniqli pedagog-olim, pedagogika fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. U pedagogika fanida o'qituvchi muammosi yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni professional axloqiy tarbiyalash bo'yicha fundamental ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni bajargan nazariyachi va amaliyotchi pedagogdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Turkiston o'lkasida 1917-1924-yillardagi ta'lim siyosatini mazmun - mohiyatini yoriting.

2. 1924-1945-yillardagi ta'lim va pedagogika fani taraqqiyotiga izoh bering.

3. 1945-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika faniga rivojiga qisqacha tavsif bering.

32-MAVZU. MUSTAQIL O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Jahon tarixiy tajribasining guvohlik berishicha, hech bir xalq va millat ta'lim-tarbiyaga e'tiborsiz taraqqiyotga erisha olmagan. Bugungi kunda ma'naviyatga, ta'lim-tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etolmaydi. Xalqi ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lmagan mamlakat tabiiy-iqtisodiy boyliklariga behisob, harbiy jihatdan qudratli bo'lgan taqdirda ham buyuk davlat bo'la olmaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi o'zgarishlari jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi. Yosh mustaqil davlatimizning kelajak taraqqiyoti albatta, uning intellektual salohiyatli va ma'naviy yetuk yoshlariga bog'liq. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida: «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi», - deb ta'kidlaydi. Mamlakatimizda mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlaboq ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Bular qatoriga 1992-yil 2-iyunda qabul qilingan ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni kiritishitmiz mumkin. «Qonun» o'tish davri uchun mo'ljallangan bo'lib vaqt o'tishi va jamiyatning jadal rivojlanishi natijasida o'zining kamchiliklarini ko'rsatdi.

1997-yil 29-avgustda jahon standartlarini va respublikamizning o'ziga xos xususiyalarini inobatga olgan holda yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi (5 bo'lim, 34 modda)qonun va unga hamohang «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»qabul qilindi. Uning natijasida O'zbekistonda ta'lim sohasida jahon andozasidagi kadrlarni yetishtirib berishga qaratilgan ta'lim tizimi ishlab chiqilib hayotga joriy qilindi. Mamlakatimiz hayoti uchun muhim bo'lgan mazkur dasturlarni qabul qilinishi hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida erishgan yutuqlarmiz uchun asos bo'ldi. Shu munosabat bilan pedagogikaga doir tadqiqotlarga qator sohalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiq edi. Pedagog olim J.G'.Yo'ldoshev bu borada quyidagi vazifalarni ilgari suradi:

- yosh avlodni mustaqillik, istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash;
- shaxsning ilmiy salohiyatini rivojlantirish;

- o‘z oldidagi burch va mas’uliyatni his etadigan barkamol shaxsni shakllantirish;

- axloqan pok, jismonan baquvvat, vatanparvar, tashabbuskor shaxsni shakllantirish;

- har bir shaxsda o‘z bilimini hayotga tatbiq eta olish qobuliyatini tarbiyalash;

- yosh avlodni yangilanayotgan jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan fuqaro sifatida tarbiyalash va hokazolar.

Bu muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham berilgan edi. Bular: ta’lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratik xarakterda ega ekanligi; ta’lim tizimining uzluksizligi va izchilligi; uning ilmiyligi hamda dunyoviyligi; ta’limda umuminsoniy hamda milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; davlat ta’lim standartlari doirasida hammaga ta’lim olish uchun imkoniyat yaratilganligi ta’limning majburiyligi; ta’lim, ma’naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimdon va iste`dodlarni rag‘batlantirish; ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish; ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta’siridan holi bo‘lishi; tarbiyalanuvchilar va ta’lim oluvchilarni hurmatlash; pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash; amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shakllaridagi ta’lim muassasalarining teng huquqliligi, ularning mustaqilliligidan iborat edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi siftida. O‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyati O‘zbekiston davlatining, “o‘zbek modeli” deb nom olgan rivojlanish yo‘lidan boxabar bo‘ldi, *tan oldi. Ana shu tarixiy jarayonda ta’lim* sohasidagi islohotlar, ularning natijalari katta o‘rin tutdi. Buni birinchi davlatimizning rahbari 2012-yil 17-fevral kuni Toshkentda mezbonlik qilgan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ham alohida ta’kidlab, shunday degan edi: Mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo‘yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta’lim tizimi joriy etildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning tamoyili xususiyati avvalo shundaki, umumta’lim maktabidagi 9 yillik o‘qishdan so‘ng

o'quvchilar 3 yil davomida ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Bu o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishning muhim huquqiy asosidir. Umumiy o'rta ta'limning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlaridagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi 3134-sonli Farmoniga muvofiq qabul qilingan «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»da davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini ko'rib chiqish vazifasi qo'yildi. «2004-2009-yillarda maktab ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim fanlar bo'yicha mavjud DTSlar yangidan tahrir etilib, o'quv dasturlari modernizatsiya qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshlang'ich ta'limda o'quvchi ta'limiy faoliyatning asosiy ko'nikma va malakalarini egallashi, erkin o'qishi, husnixati, tez sanash, matematik masalalarni yechishi, amaliy fikrlashi, o'z o'quv faoliyatini, nutq madaniyatini va xulqini nazorat qila bilishi, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmish tarzi asoslarini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Ushbu yangi Qonun 7 bo'lim 45 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini; davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar);

o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o‘rta professional ta’lim;

o‘rta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan fuqarolar ham o‘rta professional va o‘rta maxsus professional ta’lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta’lim oluvchilarning o‘zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta’limni olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich professional ta’lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun

qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltiril-

gan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'lim to'g'risidagi yangi Qonun 11 bob va 75 moddadan iborat.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari. Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir. Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi. Jamiyatni ma'naviy yangilashda, avvalo, ta'lim tizimini isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib, ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi.

Mustaqillik yillarida pedagogika fanining eng dolzarb muammolari ustida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Chunonchi, O.Musurmonova «Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari»,

S.Nishonova «Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi», U.Mahkamov «Yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish», M.Inomova «Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari», R.Shodiyev» O'quv biluv faoliyatida tushunish muammolarini amalga oshirishning didaktik asoslari», A.Choriyev «Pedagogikaning fanlararo aloqasi va badiiy adabiyot bilan o'zaro bog'liqlik qonuniyati», T.Nuriddinov «Talabalarning umumnazariy tayyorgarligida fanlararo aloqalar», M.Hoshimova Talabalarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda ruhiyatga oid biocnergetik bilimlardan foydalanish», M.Qurornov «O'zbek maktabida milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti», D.Ro'ziyeva «Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash» kabi doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim – tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida» 2017-yil 20-apreldagi qaroriga binoan oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida:

Oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berildi: har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari magistrant, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o‘tashlarini, professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

- oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'na- lishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

- ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;

- yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

- pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o'tkazish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'lim muassasalari va qayta tayyorlash hamda malaka oshirish markazlari o'quv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish;

- oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish;

- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, oliy ta'lim ilm-fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash; oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021-yil 1-avgustga qadar bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash hamda boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarining o'zaro uzviyligini ta'minlash choralarini ko'rish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va xalqaro standartlar va talablar asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish jarayonlarini monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot boshqaruv tizimini ishga tushirsin va unga kiritiladigan ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlari uchun elektron to'lov tizimlarini joriy qilsh, maktabgacha ta'lim sohasida axborot boshqaruv tizimini boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash vazifalari belgilandi.

Milliy o'quv dasturini (keyingi o'rinlarda – Dastur) joriy qilish bo'yicha tajriba-sinovni lozim darajada o'tkazish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markaziga umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, tayanch va variativ o'quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqish, Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasiga asosan muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarning yagona maketlarini yaratish, yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ekspertiza qilish, ularni ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha xulosa berish, o'quv reja, dasturlar, yaratilgan darslik va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni tajriba-sinovdan o'tkazish ishlariga rahbarlik qilish, Xalq ta'limi vazirligi uch oy muddatda Respublika ta'lim markazi faoliyatiga yuqori

malakali va ilmiy salohiyatli kadrlarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish choralarini ko'rishga doir vazifalar yuklatilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrga qadar professional ta'limning ta'lim dasturlari va o'qitish materiallari to'plamlarini mehnat bozorining talablari, tarmoq malaka ramkalari va professional standartlar asosida ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqsin va tizimli ravishda takomillashtirib borish, kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha joylashuvi hamda tayyorlanadigan ishchi kasblardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish uchun ish beruvchilarga biriktirsh, professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni yangi ta'lim resurslari bilan ta'minlab borish imkoniyatini beradigan alohida elektron platformani ishlab chiqsin va ta'lim dasturlari, o'qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo'llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini yaratsh, professional ta'lim muassasalari guruh rahbarlarini tayyorlash uchun o'quvchilar bilan ishlash, ular psixologiyasini o'rganish va metodik ta'minlashga qaratilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, rivojlangan davlatlarning IT-texnologiyalari, robototexnika, qurilish, turizm, transport, energetika va boshqa sohalar bo'yicha yetakchi professional ta'lim muassasalari filiallarini tashkil qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rish,professional ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida professional ta'lim tashkilotlarini tashkil etish choralarini ko'rish vazifalarini amalga oshirishi belgilandi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarga qisqacha izoh bering.

2. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.

33-MAVZU. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI. YA.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIKA NAZARIYASI.

Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, qadimiy sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, uning o'rniga yangi quldorlik tuzumining paydo bo'lishi moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solinishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, qadimiy Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maorifiga ulkan hissa qo'shganlar. Masalan: Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini gradusslarga, sutkani soatlar, minutlar va diqiqalarga bo'lish o'ylab topilgan.

Bizga ma'lumki, quldorlik tuzumi davrida Qadimiy sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlangan. Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan (polislardan) iborat mamlakat bo'lgan.

Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina) Yunonistondagi davlatlarning eng mo'tabarlari edi. Bu davlatlarning har qaysisida tarbiyaning o'ziga xos tizimi yaratildi va shunga monand Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataldi. Ammo bu ikkala davlat ham quldorlik davlati bo'lganligi uchun ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalariga xizmat qilgan.

Spartada o'g'il bolalar 7 yoshgacha uyda yashar, keyin agella deb ataluvchi davlat maktablariga joylashtirilar va 18 yoshga yetguncha ana shu muassasalarda tarbiyalanib o'qitilar edi. Hukumatga taniqli kishi (pelenom) butun tarbiyaviy ishlarga rahbar bo'lib tayinlanar edi. O'smirlarni jismoniy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilar edi. Tarbiya butun jamoaning ishi hisoblanadi, lashkarboshilar, davlat arboblari bolalar bilan axloqiy va siyosiy mavzularda suhbatlar o'tkazib turdilar.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

«O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz

itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni o'ldirar edilar.

Davlat rahbarlari yoshlar bilan maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar, bunday suhbatlarda ular bolalarga vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolarning ko'rsatgan mardligi va jasurligi haqida hikoya qilar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18-20 yoshga yetganda «Efeblar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Qizlar uyda tarbiyalandilar, tarbiyada ularning ham jismoniy sog'lom bo'lishlariga, harbiy tayyorgarlikka ega bo'lib yetishuvlariga e'tibor berildi.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi talim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V-IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi.

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini, Afinada eng ko'rkam va barkamol inson (ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlar uy doirasidan chiqmas edi. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (yunoncha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» – ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq tahtasi yordami bilan hisoblangan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, ashula, diplomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin palestra («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda so'zish kabilar. Palestrada o'qish tekin bo'lgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bo'lganlari esa palestrani tugatgach, gimnasiyga (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar esa davlat boshqaruvida qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o'zlarining siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilar edilar.

Qadimgi yunon va rim faylasuflari tarbiya to'g'risida. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Suqrot (Sokrat) (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o'g'li edi) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta, uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot keng maydonlarda so'zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar

o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yoki u bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi»(Evristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrot – falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. Bahs orqali, ya'ni muayyan narsalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb uqtiradi faylasuf. Aristotelning yozishicha, Suqrot mavjud haqiqatan umumiy tushunchalarga o'tishdagi induktiv ta'limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlashdagi ta'limotni yaratgan. Suqrotning etika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: ezgulik bilimdir, donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta'biricha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin emas. Ulug' faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Aflotun (Platon) eramizdan ilgari (424-347-yillari) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur - idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, obyektiv idealizm nazariyasining asosichisi «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi. Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga bo'ldi. Uning fikricha, g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olamining soyasidir. Afina aristokratiyasining namoyondasi bo'lgan Aflotun, zodagonlarning abadiy hukmronligi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos deb ta'kidlaydi u. Aflotun davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarning – faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim. Aflotun o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi. Aflotunning fikricha, bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari lozim. Aflotun o'yinlarni

maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi. Aflotun xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi. Umuman, Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Aflotun g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarni «jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari» ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek, qullarning bolalarini o'qitmagan ma'qul. Biroq Aflotun maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o'rnak namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o'zining axloqiy g'oyalarini ilgari surar ekan, ustozi Suqrotga ergashib, obyektiv idealizm yo'lini tutadi.

Arastu (Aristotel) (eramizdan avvalgi 384-322-yillar)da yashagan. Aflotun olamni g'oyalar va hodisalar dunyosiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ega. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya-jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko'ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo'lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta'minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo'lmasdan, balki davlatning ishi bo'lishi lozim.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o'zaro bog'liq bo'lishi lozimligini uqtirib, u hatto oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun «bir xilda» tarbiya berishi lozim, deb aytganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo'lib, yoshni davrlarga bo'lishga urinib ko'radi. U insonning yoshlik yillarini uchga bo'lib o'rganadi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi.

Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o'g'il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo'liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularning jismi mustahkamlanib olguncha yengil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich ta'lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqani o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutlaq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi. Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql – bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir,- deydi.

Fazilatlar hosil bo'lishi uchun ezgu xulq-odatlarini va ko'nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o'ylab o'tkaziladigan mashqlar bo'lishi ham zarur, bunga odatlanish, buning uchun doimiy harakat qilish lozim,

odatdan, ko'nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Arastu Aflotundan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo'lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazadi. Uning «Nikoh axloqi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, «Tabiat inson qo'liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi», - deydi.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo'lgan aqliy fazilatlarga – bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlarga bo'ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman, antik faylasuflar Suqrot, Aflotun, Arastular o'zlarining nazariyalarida har bir narsada me'yor bo'lmog'i lozimligini uqtirib o'tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Demokrit (eramizdan avvalgi 460-370-yillar) qarashlari qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. U atomizm nazariyasini yaratgan materialist faylasufdir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e'tibor beradi. U o'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni yemirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidladi.U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlana borgan sari, mehnat yengil bo'lib boradi, deydi. U yomon o'rnakdan ehtiyot bo'lish kerak, deb ta'kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit axloqni odamning o'z tabiatidan kelib chiqib, asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidladi, bilish jarayonida sezgi va

tafakkur rolini ko'rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong'i»; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim «yorug'«, haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo'li bilan bilib olish mumkin.

Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan holi edi. Shuning uchun ham u o'z g'oyalari bilan o'zidan keyingi faylasuf olimlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

XII asrlarda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog- olimlarining pedagogik g'oyalari. XI-XIII asr pedagogika adabiyoti yodgorliklari «Viladimir Monomaxning bolalarga o'gitlari» XI-XII asrlarda tarjima qilingan va mavjud maqolalar to'plamlarida iborat bir qancha va ko'p yozma kitoblar vujudga keladi. Bunday maqolalar orasida pedagogika mazmunidagi maqolalar va fikrlar bor edi. Bunday to'plamlar «Pechla» Izamragd» (Yangi zumrad) «Sbornik Svyatoslava (Ya'ni Svyatoslava to'plami), «Zlatostruy» Zlatoust» deb atalar edi (grek cherkov yozuvchisi va va'zxoni Ioanni Zlatoust taxallusidan olingan) Unda Demokrit Aristotelning bildirgan fikrlari va maqolalari e'lon qilingan edi. Svyatoslav «to'plami»ga masalan, Aristotelning matematikaga oid asrlari va kiyevlik kishining o'qish metodikasi to'g'risidagi mavjud pedagogika asarlari kiritilgan edi. O'sha davrdagi tarbiya masalasiga bag'ishlangan maqolalarda bolalarni insof-tavfiqli qilib tarbiyalash to'g'risida, ota-onalarni o'zlaridan kattalarni hurmat qilish to'g'risida ota-onalarga bolalarni jismoniy o'sishini axloqiy va aqliy rivojlanishini qanday qilib ta'minlash, ularni qattiq ushlash, agar bolalar gapga quloq solmaydigan bo'lsa, ularni kaltaklashga ruxsat berilar edi. Viladimir Monomaxning bolalarga o'gitlari XII asr oxirlaridagi pedagogikaga oid adabiyotlarning ajoyib yodgorliklaridir. Davlatni oqillik bilan idora qilgan Viladimir Monomax o'z bolalariga qanday yashash yo'lini ko'rsatib maslahatlar beradi. U bolalarni vatanga muhabbat qo'yishga vatani dushmanlardan himoya qilishga serharakat, mehnatsevar botir kishilar bo'lishga da'vat qiladi .

U bolalarni qahramonlik jasurlik va shu bilan birga insonparvarlik kishilarga jonkuyarlik ruhida tarbiyalash zarurligni alohida ko'rsatib o'tadi. Viladimir Monomax, yetim-yesirlar va beva-bechoralarning homiysi bo'lmog'i kerak, kuchlilarning kishini halok qilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Katta kishilarni hurmat qilmoq tengqurlar bilan xushmomala bo'lmoq kerak. Xudoni tarki dunyo qilish, ro'za tutish yo'li

bilan emas, balki garchi andakkina bo'lsa-da, savobli ishlar bilan ro'za qilmoq kerak deb yozgan edi. Viladimir Monomax, bolalarga murojaat qilib ularga o'qishni maslahat beradi. O'zning otasini misol qilib uni chet tillarni bilganini aytadi.

Mo'g'ul - tatar istilolari davrida uchta mustaqil xalq -velikoruslar ukranlar belaruslarga bo'linib ketgan yagona qadimgi xalqlarning zo'r berishi tufayli Kiyev davlatida maorif va o'qitish ishlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Kelib chiqish birligini tarixiy va madaniy birligni anglash bu xalqlarda XIV – XVII asrlarda maorif maktab va pedagogikaga oid fikrning rivojlanishini ma'lum darajada belgilab beradi.

Odatda to'rtta fakultetdan tuzilgan bo'lib, bular tayyorlov fakulteti, ridik, medisina va teologiya (din aqidalari) fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yuqorida aytilgan triviumga, kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakultetida o'qish muddati 6-7 yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6 yilgacha cho'zilar edi. Universitetlarda o'qitish metodlari ma'ruza, cherkov tomonidan tasdiqlangan darslik va asarlarni yodlash va disput (munozara)lardan iborat edi. Universitetlarda o'qish faqat lotin tilida olib borilar edi.

G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Yan Amos Komenskiy (1592–1670) o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. *«Buyuk didaktika»* asarida yozishicha, o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak. **Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi.** Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi ham bolani tarbiyalash bilan undagi xususiyatlarni hisobga oladi. Bog'bon o'sish qonuniyatini hisobga olar ekan, o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysunadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik tamoyilida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarashi, (*xudo tomonidan bunyod etilmagan*) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyishi o'z davrida ilg'or qarashdir. Lekin tabiat qonunini kishining o'sishiga olib kelishi noto'g'ridir. Kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi. Lekin buni Komenskiy tushunmaydi.

Komenskiy tarbiyachi boladagi iste'dodni o'stirishi kerak. Agar bola pedagogik ta'sirsiz yashasa, bu iste'dod tasodifan o'sadi. Kishi dunyoga kelganda kishiga xos iste'dodga ega bo'ladi. Xuddi olmadagi urug'ga o'xshab ba'zida ko'proq, ba'zida kamroq bo'ladi.

Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish kerak emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma umumta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. Bu davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi, shunga qaramay, u bu masalani ilgari suradi.

Komenskiy ta'limotining yana bir qimmatli tomoni o'quvchilar bilim olish tushunchasiga ega. Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham, baribir kishi o'z aksini ko'rishi mumkin, albatta, toza oyna kishi aksini toza ko'rsatadi. *O'qituvchining vazifasi oynadagi changni artib tashlash, ya'ni bilimni bola ongiga yetkazish, uni aqliy tomondan o'stirishdir, degan edi.*

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshgacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt bosqichli maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

Komenskiy tabiiylik tamoyiliga amal qilib, bola yoshini davrlarga bo'ladi:

1. **Tug'ilganidan 6 yoshgacha – ona maktabi.** Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etilishi kerak. Ona bolada axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik haqqoniylik, quloq solish, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. **6-12 yoshgacha – xalq maktabi yoki ona tili maktabi.** Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya, geografiya, tabiat fanlarini o'rganishi lozim.

3. **12-18 yoshgacha – gimnaziya.** Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, xudogo'ylik o'qitilishi kerak.

4. **18-24 yoshgacha universitet, akademiya.** Bu o'quv yurtlari talabaning irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi kerak.

Shunday qilib, maktab Komenskiy qarashicha, o'quvchilarni o'ylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, so'zlashga, o'z fikrini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatishi kerak. Mehnat kishini ulug'laydi, deydi Komenskiy. Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan o'rgatish kerakligini ilgari suradi.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rin egallaydi. Uning didaktikasida tabiiylik metodi asosiy rol o'ynab, bu metodning mohiyati, bolaning yoshini, bilim hajmini, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darsni tabiat borlig'iga moslab o'tishdan iboratdir.

Masalan: Qush o'ziga uya yasaydi, uya issiq va yumshoq bo'lishi kerak. Maktab ham xuddi shunday bo'lishi kerak.

«Buyuk didaktika» da didaktik tamoyillar berilib, dars jarayonida o'qituvchi qo'llash kerakligi ko'rsatiladi. Komenskiy **ko'rsatmalilik** tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab berdi. U bu tamoyilni faqat ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsa va hodisalarni asosli va yaxshi o'zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida keng ma'noda to'g'ri tushunadi.

Ko'rsatmalilikni o'qitishning *«Oltin qoidasi»* deb atadi. Ko'rsatmalilik tamoyilida: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, d) narsalar modelini ko'rsatish, e) o'qituvchining so'zi. Komenskiy *«Mir chuvstvennыx veщey v kartinkax», («Dunyodagi narsalarning rasmlarda aks etishi»)* asarida o'qitilayotgan, o'rganilayotgan narsalarni ushlash, ko'rish, yeyish, hidlash kerakligini aytib, bu o'rganilayotgan materialni chuqur bilishiga va esda uzoqvaqt saqlanishiga olib keladi, deydi.

Komenskiy **onglilik tamoyilini** o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik kerak». O'quvchilar *«O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtamoq kerak»* deb hisoblaydi.

Komenskiy **ta'limning tizimli** bo'lishini talab qiladi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretdan abstraktga, ya'ni mavhumga osondan qiyinga, umumiydan xususiyga

o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini ayrim-ayrim o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

Izchillik tamoyilida kun, oy, yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda a) aniq vaqtni belgilash, b) o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi d) material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertagi bilan bog'lanishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy **materialni mustahkam, asosli o'zlashtirib olishlariga** katta ahamiyat berib, *«mustahkam asos»* vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim, deydi. Har bir mavzu qisqa, aniq qoidalar asosida berilishi kerak. O'tilgan materialni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarni materialni mustahkam o'zlashtirishiga olib keladi. Takrorlangan dars materiali esda yaxshi saqlanib qoladi. Ovoz chiqarib takrorlashning foydasi ko'pligini ko'rsatadi. Mashqlar o'rnida bir qancha qoidalarni belgilab, takrorlash yo'llarini aniqlab beradi. O'qitishda taqrib bilan tahlilni bir-biriga qo'shib olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Komenskiy o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stirishga bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishga va ilm ishiga bo'lgan g'ayratini oshirishga intiladi.

Sinf-dars tizimi. Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf-dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etdi. Komenskiy sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatdi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar berdi. Har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lishini aytdi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini aytdi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytdi.

Maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini kiritdi. O'quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O'quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o'qish ko'zda (sentabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozdi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. Darslikda o'quv materiali

yetarlicha bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi kerak. Darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi kerak. Darslikdagi material muntazam tartib bilan joylashtirilishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart. Komenskiyning **«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi»** va **«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»** darsliklari mashhurdir.

«Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o'zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik turli sohalarda bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan tanishtiradi.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta suratlar bilan berilgan qisqa maqolada tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi. Bu kitob ko'p tillarga tarjima qilindi, boshlang'ich ta'lim uchun 150 yildan ko'proq yaxshi darslik bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya. Intizom. Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob hosil qilish kerakligini aytdi. Mardlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda yetkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlarni o'z ichiga olgan fazilatdir. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'min-qobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni ham muhim vazifa deb hisoblaydi.

U quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb biladi: a)ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlarining namunasi; b) bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish; d) bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, *«Intizomsiz maktab suvsiz tegirmondir»* degan chex maqolini keltiradi. *O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Kaltak, xipchin – qullik qurolidir, deydi.* Bolalarga insoniy muomalada bo'lishini aytdi. Intizom:

a) o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi,

b) o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizomlilik vujudga keladi),

d) bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari ichida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi.

O'qituvchining roli va unga qo'yiladigan talablar. Komenskiy o'z davridagi iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «**yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb**» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. *Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. O'quvchi sof vijdonli ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. «O'zi» namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga qaratishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, degan edi. Dindorlikni o'qituvchining yaxshi xislati deb biladi.*

Shunday qilib, Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmiga asos solib, maktabning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Iogann Genrix Pestalossi (1746–1827) pedagoglik faoliyatini 1774-yilda *«Neygof»*da, *«Kambag'allar muassasasi»* ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 nafarini shu muassasada o'qitishdan boshladi. Uning fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning xarajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Uning o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalossi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalossi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini qanday qilib yolchitish, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib yaxshilash masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U **«Lingard va Gertruda»** (1781–1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

Burgdorfda o'rta internat maktab ochildi; bu maktab huzurida o'qituvchilar tayyorlaydigan alohida bo'lim ham tashkil etildi, bu maktabga Pestalossi boshliq qilib tayinlandi. XIX asrning boshlaridayoq

Pestalossining *«Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi». «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim»* degan kitoblari bosilib chiqdi, bu kitoblarda boshlang'ich ta'limining yangi usullari bayon qilindi.

Pestalossi hammani tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi lozim, deb da'vo qilib, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlanganidagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi, tubdan ijtimoiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga tarbiya yo'li bilangina erishish mumkin.

Pestalossining fikricha, mehnat shaxsni tarbiyalash va o'stirishning eng muhim vositasidir, mehnat shaxsning jismoniy kuchlarinigina emas, shu bilan birga, aqlini ham o'stiradi, shuningdek, unda axloq ham tarkib toptiradi. Mehnat bilan shug'ullangan shaxsda mehnatning jamiyat hayotida juda katta ahamiyati bor degan ishonch tug'iladi, bunday ishonch esa shaxslarni ahil va mustahkam ijtimoiy ittifoq qilib, bir-biriga bog'lovchi eng muhim kuchdir.

Pestalossining fikricha, bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo'li bilan g'oyalar darajasiga ko'tariladi, g'oyalar esa, garchi ravshan bo'lmasa ham, shaxsning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o'zining namoyon bo'lishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pestalossining fikricha, tarbiyaning maqsadi shaxsning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning tarbiyalanuvchiga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalossi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvuriga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini shaxsning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi. Bolani tarbiyalashni deydi u, uning tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: *«Bola tug'ilgan soat – unga ta'lim berishning birinchi soatidir».* Shu sababli chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayol ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirilishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va sekin-asta murakkabroq darajaga ko'tarila beradi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlar kurtaklarini tabiiy tartibga muvofiq, inson kamolotining abadiy va o'zgarmas qonunlariga muvofiq holda muntazamlik bilan mashq qildirib, o'stirish kerak.

Pestalossi ta'lim nazariyasiga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim.

Pestalossining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu hamma jihatlarini Pestalossi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Pestalossi shaxsning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o'stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o'ynashga, bir joyda o'tirib qolmaslikka, hamisha harakatda bo'lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

Pestalossi inson shaxsini kamolotga yetkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni shaxsning o'sishiga oqilona ta'sir ko'rsatishning birinchi turi, deb hisobladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish Pestalossining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo'ldi. Pestalossining **«Lingard va Gertruda»** romanida yozilishicha, (maktabda bolalar kun bo'yi yigirish va to'qish dastgohlarida ishlash bilan vaqt o'tkazadilar; maktab huzurida yer uchastkasi bo'lib, bu uchastkada har bir bola o'ziga ajratib qo'yilgan paykaldagi ekinlarni parvarish qiladi, chorva mollarini parvarish qiladi. Bolalar zig'irpoya tolasini va junni ishlashni o'rganadilar, qishloqning eng yaxshi xo'jaliklari bilan, shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalari bilan ham tanishadilar. O'qituvchi ish vaqtida, shuningdek, ishdan bo'sh vaqtlarida bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi, ularga savod, hisob va turmush uchun zarur bo'lgan boshqa bilimlarni o'rgatadi. Pestalossi shaxsning kamolotga yetishi uchun mehnat tarbiyasining ahamiyati katta ekanini uqtirib o'tdi. U ish vaqtida *«bolalarning ko'nglini xushvaqt qilish va aqlini o'stirishga»* intildi.

Pestalossi axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uyg'un bo'lib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil mashq qildirish yo'li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalossining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqi uchun oilada zamin solinadi. Bolaning onaga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Pestalossi axloqiy tarbiya diniy tarbiya bilan chambarchas bog'langandir, deydi. Pestalossi rasmiy dinni tanqid qiladi va tabiiy din to'g'risida gapirib, odamlarning yuksak ma'naviy xislatlarini o'stirishni tabiiy din deb tushunadi. *Pestalossi «... xudoni odamlar bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatayotgan joydan qidirganligini» ochiq aytadi. Agar odam xudoni sevsa, u hamma odamlarni ham sevadigan bo'lib qoladi, chunki hamma odam bir otaning bolasi kabi aka-uka va opa-singildir, deydi.*

Pestalossining aqliy ta'lim to'g'risidagi ta'limoti boy va mazmunli ta'limotdir. U o'zining, shaxsning hamma jihatlarining bir-biriga uyg'unlashib kamolga yetishi to'g'risidagi asosiy g'oyasiga tayanib, aqliy ta'limni axloqiy tarbiya bilan bog'lab olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Har qanday ta'lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko'tarilishi lozim, deydi. Uning fikricha, kuzatishlar natijasida bolada ko'rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo'ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so'zlash ehtiyojini tug'diradi.

Odamning sezgi a'zolari yordamida tashqi dunyo to'g'risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo'lmaydi. Ta'limning vazifasi shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni muayyan tasavvurlarga, muayyan tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko'rinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Ta'lim, birinchidan, o'quvchida o'zining sezgi a'zolari vositasi bilan hosil qilgan tajribalar asosida bilimlar zaxirasini to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatlarini o'stiradi.

Pestalossi ta'limning har bosqichi uchun maxsus ravishda tanlab olingach, har bir bolaning o'ziga xos aqliy kuchlarini hamda qobiliyatlarini tinimsiz va muntazam ravishda o'stirib boradigan tizim vositasi bilan bolalarga aqliy ta'lim berishga intildi.

Shunday qilib, Pestalossi boshlang'ich maktabning o'quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. O'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Pestalossi ko'rsatmalilik tamoyilini ta'limning eng muhim zamini deb hisoblaydi. Bu tamoyilni keng ravishda qo'llamasdan turib, tevarak-atrof to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishga, tafakkurni va nutqni o'stirishga erishib bo'lmaydi.

Pestalossi o'zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib turib, boshlang'ich ta'limning xususiy metodikasi asosini yaratib berdi.

Pestalossi ona tili o'qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o'stirish va uning so'z boyligini orttirishdan iborat bo'lishi lozim, deb hisobladi. U savod o'rgatishda tovush metodini birinchi o'ringa qo'ydi, bunday qilish harflarni qo'shib o'qitish metodi hukmronlik qilib turgan o'sha vaqt uchun g'oyat muhim edi.

Shunday qilib, Pestalossi jahon pedagogikasining ko'zga ko'ringan nazariyachisi va amaliyotchisi sifatida kambag'allarning bolalarini tarbiyalash ishiga o'zining butun kuchini va bilimini sarfladi. U odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi va elementar ta'lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya. XIX asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam berdi.

Robert Ouen (1771–1858) jahon pedagogika jarayonida birinchi bo'lib maktabgacha tarbiya muassasalarini (yasli, bolalar bog'chasi) va ishchilarning bolalari uchun keng umumiy ta'lim dasturida bilim beradigan boshlang'ich maktabni barpo etdi. U fabrikada ishlab turgan 10 yoshdan oshgan bolalar va o'smirlar uchun kechki maktab ochib, o'qitishni sanoatdagi unumli mehnat bilan bog'lab olib bordi, katta yoshdagi ishchilar uchun kechki klub ochib, bu klubda madaniy-oqartuv ishlari olib bordi.

Robert Ouen – ingliz faylasufi va o'qituvchisi, bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktab, bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi va o'yin maydonchasini o'z ichiga olgan joylar qurdi. Bu yerda bolalar kuylashni va raqsga tushishni o'rgandilar, ko'p vaqtlarini toza havoda o'tkazdilar. Jismoniy tarbiya, gimnastika, o'yinlarga alohida e'tibor qaratildi. Bolalarni kollektivizm ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berildi. Bolalarga jamoaviy aloqa qoidalari batafsil tushuntirildi, ular o'rtoqlarini xafa qilmasliklari kerakligini, balki ularni hurmat

qilishlari va kerak bo'lganda ularga yordam ko'rsatishlari kerakligini ta'kidladilar. Ushbu maktabda yozishni va o'qishni muntazam ravishda olib borilmagan, bolalarga tabiat to'g'risida, atrofdagi narsalar va hodisalar haqida suhbatlar jarayonida o'qish va yozishni o'rgatishgan. Estetik tarbiya, musiqiy va badiiy izlanishlarga katta e'tibor qaratildi.

Ouen hayotining birinchi yillaridanoq bolalarning ijtimoiy ta'limi g'oyasini asoslab, amalga oshirdi va dunyoda birinchi bo'lib proletariat bolalari uchun maktabgacha ta'lim muassasasini yaratdi. Uning ta'lim muassasalarida aqliy va jismoniy tarbiya berilgan, bolalar kollektivizm ruhida tarbiyalangan, ularga qiziqishlarni hisobga olgan holda mehnat qobiliyatlari o'rgatilgan va ular bilan ishlashda o'yin va o'yin-kulgilarni eng muhim ta'lim omili sifatida ishlatishgan.

1813-yilda Ouen o'zining **«Jamiyatga yangicha qarash yoki Insonda xarakter tarkib toptirish to'g'risidagi tajriba»** degan asarini nashr ettirdi. Bu asarda Ouen shaxsning xarakteri uning irodasidan mustaqil bo'lgan atrofdagi muhit sharoiti bilan tarkib topadi, deb ta'kidladi. Odamlarning illatlari va kamchiliklari, xatti-harakatlari ular yashab turgan vaziyatga bog'liqdir. Odam, – deydi Ouen, – o'z xarakterini hech qachon o'zi yaratgan emas va uni yaratish mumkin ham emas. Uning fikricha, agar biz muhit sharoitini va tarbiyani o'zgartirsak, har qanday xarakterni tarkib toptirishimiz mumkin. Shunday qilib, Ouenning fikricha, xalqni tarbiyalash va unga ma'rifat berish yo'li bilan jamiyatni yangicha tashkil etishga muvaffaq bo'linadi.

Robert Ouen bolalarga bir yoshidan boshlab ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini birinchi bo'lib asoslab berdi va amalga oshirdi hamda jahonda birinchi bo'lib kambag'allarning bolalari uchun maktabgacha tarbiya muassasasini barpo etdi. Uning ta'lim-tarbiya muassasalarida aqliy va jismoniy tarbiya berilar, bolalar jamoa ruhida tarbiyalanar edi. Ko'pgina ilg'or arboblar, jumladan, rus revolyutsion-demokratlari A.I.Gersen va N.A.Dobrolyubovlar bu muassasalarga ijobiy baho berdilar.

Katta yoshdagi ishchilar uchun Ouen tomonidan ochilgan madaniy oqartuv muassasalari ham zo'r ahamiyatga ega bo'ldi.

Ouen falsafasidagi asosiy nuqta shundaki, insonning fe'l-atvori u boshqarolmaydigan sharoitlar asosida shakllangan. Shu sababli, inson maqtashga yoki ayblashga munosib shaxs bo'lmagan. Ushbu e'tiqodlar uni xulq-atvorga olib keldi: insonning xarakterini to'g'ri shakllantirishning eng katta siri, uni dastlabki yoshlaridanoq uni to'g'ri ta'sirlar ostiga olish edi. Odamning mas'uliyatsizligi va dastlabki ta'sirlarning ta'siri

Ouenning butun ta'lim va ijtimoiy takomillashtirish tizimining o'ziga xos xususiyati edi.

Ouen insoniyat taraqqiyotiga ishongan va hayot sharoitlarini yaxshilash orqali tug'ma insoniy mehr-oqibat osonroq namoyon bo'lishiga umid qilgan.

Uning falsafasining namunasi 1816-yilda Nyu-Lanarksga qilgan murojaatidan olingan:

«Jamiyat shunday shakllanishi mumkinki, u jinoyatsiz, qashshoqliksiz, sog'lig'i ancha yaxshilanadigan va aql-idrok va baxt bilan yuz baravar ko'paygan holda mavjud bo'lishi mumkin. Jamiyatning bunday holatini universal bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun hozirgi paytda hech qanday to'siq aralashmaydi, jaholatdan tashqari ».

Ta'lim Ouenning utopik rejasi uchun muhim ahamiyatga ega edi, chunki u odamlar o'sadigan muhit ularning xarakterini belgilaydi deb hisoblar edi.

Agar odamlar jinoyatchilik va qashshoqlik atrofida o'sgan bo'lsa, xuddi shu ijtimoiy muammolar saqlanib qolishi mumkin edi. Ammo, agar ta'lim yoshligidanoq berilsa, mukammal jamiyatga erishish mumkin edi.

Ouen sotsializmning kashshoflaridan biri edi. U birinchilardan bo'lib turli nashrlarda "sotsialistik" atamasini qo'llagan. Shuningdek, u birinchi sotsialistik yoki kooperativ guruhlarga asos solgan. Biroq, uning yondashuvi utopik jamoalarni barpo etish uchun ko'proq kapitalistik sinf xayriya ishlariga tayanishga qaratilgan edi. Ularning sotsializmi keyingi sotsialistik harakatlarga nisbatan boshqacha muhrga ega bo'lib, ular ishchilar sinfining yaxshi sharoitlar uchun noroziligiga ishonchlarini ta'kidladilar.

Iogann Gerbart (1776–1841) o'zining *«Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika» (1806), «Psixologiya darsligi» (1816), «Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831), «Pedagogikaga doir leksiyalar ocherki»* (1835) kabi kitoblarida pedagogikaga doir g'oyalarini keng bayon qilib berdi.

Gerbart o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart shu maqsadni abadiy va o'zgarmas deb hisoblab, odamlarni mavjud munosabatlarga moslasha oladigan, o'rnatilgan huquq va tartibotini hurmatlaydigan, unga itoat qiladigan kishilar qilib tarbiyalashni ko'zda tutdi.

Pedagog o'zi tarbiyalayotgan shaxsning oldiga shunday maqsad qo'yishi lozimki, u ham o'sib katta bo'lganidan keyin o'z oldiga shunday maqsadlarni qo'ya bilsin. Mana shu bo'lajak maqsadlar: *1) ro'yobga*

chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlar va 2) zarur maqsadlar deb ikkiga bo'linishi mumkin.

Har bir shaxs vaqti kelib muayyan ixtisos sohasida o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan maqsadlar ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlardir.

Zarur maqsadlar deb shunday maqsadlarga aytiladiki, bu maqsadlar odamga o'z faoliyatining har qanday sohasida kerak bo'ladi.

Tarbiya ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlarni o'zi oldiga qo'ygach, u shaxsda xilma-xil, har tomonlama idrok qilish qobiliyatini o'stirishi, qiziqish doirasini kengaytirishi va to'laroq qilishi lozim, mana shuning o'zi ichki erkinlik g'oyasiga, takomillik g'oyasiga muvofiq bo'lib tushadi. Zarur maqsadlarga kelganda tarbiya bo'lajak arbobning axloqini xayrixohlik g'oyasi, huquq va adolat g'oyasi asosida tarkib toptirishga yoki Gerbartning so'zi bilan aytganda, bu arbobda barqaror axloqiy xarakter vujudga keltirishga majburdir. Gerbart tarbiyaning mohiyati shaxsning ko'nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, shaxsga fazilatli xulq g'oyalarini va sabablarini singdirishni va shu asosda unda axloqiy xarakter vujudga keltirishni istaydi.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi. Boshqarish o'z oldiga shaxsning kelajagini emas, balki hozirgi vaqtning o'zida, ya'ni tarbiya jarayonining o'zida tartib saqlab turishni vazifa qilib qo'yadi.

Gerbart tarbiya ishida aqliy ta'limga katta ahamiyat berdi. U ta'limni tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb hisoblab, pedagogikaga *tarbiyalovchi ta'lim* terminini kiritdi. U ta'limsiz tarbiyani, tarbiyasiz ta'limni tan olmaydi.

Gerbartning fikricha, ta'lim qiziqishlarning xilma-xilligiga asoslanishi lozim. Bu qiziqishlarning ba'zilari tevarak-atrofdagi voqelikni bilishga, ba'zilari ijtimoiy hayotni bilishga intiladi.

Gerbartning fikricha, ta'lim jarayoni, albatta, o'rganilayotgan materialga chuqur kirish (chuqurlashish) va ta'lim oluvchining o'ziga chuqur berilishi (anglashi) orqali o'tadi. O'z navbatida bu – chuqurlashish va anglash, ko'ngil osoyishta bo'lgan holatda yoki ko'ngil harakatda bo'lgan holatda amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limning to'rt bosqichi mana shundan kelib chiqadi, bu bosqichlarga Gerbart:

1) ravshanlik,

2) assotsiatsiya,

3) tizim,

4) metod deb nom berdi.

Birinchi bosqich ravshanlik bo'lib, u osoyishtalik holatidagi chuqurlashishdir. O'rganilayotgan material shu material bilan bog'liq bo'lgan narsalarning hammasidan ajratib olinadi va chuqur ravishda ko'zdan kechiriladi.

Ikkinchi bosqich assotsiatsiya bosqichi bo'lib, bu harakat holatidagi chuqurlashishdir. Bunda yangi material ta'lim oluvchida mavjud bo'lgan narslarda, kitoblar o'qiganda hosil qilingan, turmushdan va shu kabilardan olingan tasavvurlar bilan bog'lanadi.

Uchinchi bosqich tizim bosqichi bo'lib, bu osoyishta holatdagi anglashdir. Bunda o'quvchi-talabalar o'qituvchi rahbarligida esa tasavvurlar bilan bog'langan yangi bilimlar asosida xulosalar, ta'riflar, qonunlar qidiradilar.

To'rtinchi bosqich metod bosqichi bo'lib, bu harakat holatidagi anglashdir, olingan bilimlar bunda yangi faktlar, hodisalar va voqealarga tatbiq qilinadi. Uning fikricha, bu bosqichlar ta'limning borishidagi izchillikni belgilab beradi.

Gerbart ta'limni tasviriy ta'lim, analitik ta'lim, sintetik ta'lim deb uch turga bo'ldi:

Tasviriy ta'lim cheklangan tarzda qo'llaniladi, lekin o'z chegarasi doirasida uning ahamiyati juda katta. U shaxsning tajribasini aniqlab olishni va bu tajribani to'ldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi materialni jonli, obrazli hikoya qilib berish yo'li bilan o'quvchi-talabalarning bilimlarini kengaytiradi. Bunda ko'rsatmali vositalar katta rol o'ynaydi.

Analitik ta'lim «ayni bir vaqtda atrofni o'rab turgan» narsalarni ayrim narsalarga, bu narsalarni esa tarkibiy qismlarga, bu tarkibiy qismlarni ham belgilarga bo'lish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Yoshlar maktabga, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim muassasalariga kelganlarida ularning boshlarida juda ko'p tasavvurlar bo'ladi, lekin ularning ongida bu tasavvurlar qalashib qolgan bo'ladi. Vazifa shuki, o'qituvchi rahbarligida o'quvchi-talabalarning bu fikrlari bo'laklarga ajratilishi, tuzatilishi va takomillashtirilishi lozim.

Sintetik ta'lim, asosan, yuqori sinflarda qo'llaniladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilar ekan, uni tasvirlab berish bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy xulosalar chiqaradi, o'quvchi-talabalarga bo'lak-bo'lak holda ma'lum bo'lgan, ularning ongida bir-biridan alohida-alohida turgan turli tasavvurlarni bir butun holga keltirib, taqrib qiladi.

Gerbart axloqiy tarbiyaning o'ziga xos vositalari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

1. Tarbiyalanuvchini tiyib turish (shaxsni boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish – bu vositaga xizmat qiladi). Tarbiyalanuvchilar uchun xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. Tarbiyalanuvchini belgilab olish, ya'ni uni shunday sharoitga qo'yish kerakki, bu sharoitda u «quloq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini» faqat tarbiyachining ko'rsatmalaridangina emas, balki shu bilan birga o'z tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida «osoyishtalik va ravshanlik» bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni «tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi» uchun asos bermaslik.

5. Ma'qullash va sazo berib turish yo'li bilan bolaning ko'nglini «to'lqinlantirib» turish.

6. Tarbiyalanuvchini «xabardor» qilib turish, ya'ni uning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Axloqiy tarbiyada jazo choralarini ham qo'llash kerak, lekin intizom o'rnatish uchun qo'llaniladigan jazo choralari tarbiyalash maqsadida beriladigan jazo choralaridan farq qilishi lozim, tarbiyaviy jazo choralari qasos g'oyasi bilan bog'lanmasdan, balki tarbiyalanuvchiga xayrixohlik bilan qilinayotgan ogohlantirish choralari bo'lishi lozim.

Gerbart g'oyalari Germaniyada, Rossiyada, Amerikada, G'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida keng tarqaldi. Yevropa va AQSh da klassik o'rta maktablar ko'p jihatdan Gerbart pedagogikasiga asoslanib qurildi. Gerbartning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar tashabbusini bo'g'ishga va ularni kattalarning obro'yiga hech so'zsiz bo'ysundirishga qaratilgan tizim edi.

Gerbart pedagogikani ilmiy fan darajasiga ko'tarish uchun ko'p ish qildi. U pedagogikaning o'ziga xos tushunchalar tizimi borligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, Gerbartning didaktika masalalarini ishlab chiqishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ko'p tomonlama qiziqish to'g'risida, ta'limning tizimli bo'lishi, qiziqish va diqqatni o'stirish to'g'risida aytgan fikrlari hech shubhasiz qimmatlidir.

Adolf Disterveg (1790–1866) pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda, matematika, nemis tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalari nashr qildi; bu darsliklar va o'quv qo'llanmalari Germaniyada va

boshqa ko'pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi. U *«Nemis muallimlarining muallimi»* degan faxrli unvonga sazovor bo'ldi.

Disterveg ham xuddi Pestalossi singari tarbiyaning eng muhim tamoyili - uning tabiatga uyg'un bo'lishidir, deb hisobladi. U tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishini quyidagi mazmunda talqin qildi, ya'ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. O'qituvchilar o'quvchi-talabalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarini sinchiklab o'rganishlari kerak, deb psixologiyani **«tarbiya to'g'risidagi fanning asosi»** deb bildi. Uning katta xizmati shundaki, pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning yoshlarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Disterveg tabiatga uyg'un bo'lish tamoyiliga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniy uyg'un xarakterda bo'lishi ham kerak, deb talab qildi. U ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Lekin u formal ta'lim moddiy ta'lim bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatib, Pestalossiga nisbatan olg'a tomon katta qadam qo'ydi. Disterveg, ta'lim oluvchining sof formal ta'lim bo'lmaydi, lekin ta'lim oluvchining o'zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qimmatga egadir, deb uqtirdi.

Ta'lim yosh avlodning har tomonlama kamolotga yetishiga va uning axloqiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O'qitilayotgan har bir narsa ta'lim jihatdan qimmatga ega bo'lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatga ham egadir.

Disterveg takomillashib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterveg, avvalo, tabiatga uyg'un qilib, bola idrokining xususiyatlariga muvofiq qilib, o'qitishni talab qildi. U misollardan qoidalarga: buyumlar va bu buyumlar to'g'risidagi aniq tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif qildi. Disterveg o'quvchi-talabalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, shaxsning o'z sezgi a'zolari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tadi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim *«yaqindan o'zoqqa», «oddiy narsalardan murakkab narsalarga», «osonroq narsalardan qiyinroq narsalarga», «ma'lum narsadan noma'lum narsaga»* o'tish kerak, degan qoidalar bilan bog'langan ta'limdir.

Disterveg o'rganilayotgan materialni ongli o'zlashtirishga katta ahamiyat beradi. O'quvchi-talabalarning o'rganilgan material mohiyatini ravshan va aniq bayon qilib bera oladigan bo'lishi shu materialning o'zlashtirilganligini ko'rsatuvchi belgilarning biridir. U o'qitilayotgan materialning mustahkam o'zlashtirilishiga ko'p e'tibor beradi va o'tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez takrorlab turishni maslahat beradi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim o'quvchi-talabalarning aqliy kuchlarinigina o'stirib qolmay, balki uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi.

Distervegning fikricha, o'qitish chog'ida o'quvchi-talabalarning tashabbuskorligini o'stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynaganidagina mumkin bo'ladigan ishdir. U ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o'qituvchiga bog'liq deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi hamda o'z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog'ida hamma ta'lim oluvchilar tetik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bilan dars berib, o'quvchi-talabalarning aqliy kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini tarkib toptirishi kerak. O'quvchi-talabalar o'zlarining olg'a borayotganliklarini hamisha sezib turishlari lozim. Yaxshi o'qituvchi, – deydi Disterveg, – o'zining tarbiya tamoyillarini qat'iyat bilan og'ishmay o'tkazib boradi, bu tamoyillardan hech qaytmaydi. O'qituvchi muttasil o'z ustida ishlashi lozim. Shundagina u o'quvchi-talabalarni bilimlarni egallashda matonatli bo'lishga o'rgatadi va ularni o'z yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga oladigan qilib tarbiyalaydi. Disterveg o'qituvchining mustahkam xarakteri va o'tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqqo'l va talabchan bo'lish bilan birga, adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina u o'z o'quvchi-talabalari orasida obro' qozonishi mumkin. O'qituvchi haqiqiy inson, mustahkam e'tiqodli bo'lishi lozim, deydi.

Distervegning fikricha, «yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi». U o'qituvchilarga o'z bilimlarini qanday qilib oshirishlari to'g'risida bir qancha qimmatli maslahatlar beradi, o'qituvchilarga o'zlari o'qitayotgan fanga taalluqli asarlarni birinchi navbatda o'qishni tavsiya qiladi, shuningdek, o'qituvchi tarix va adabiyotni bilishi, pedagogika, psixologiya va metodikaga doir chiqayotgan yangi asarlarni kuzatib borishi

kerak, deb ta'kidlaydi. Disterveg o'qituvchilarni amaliy pedagoglik mahorati va malakalari bilan qurollantirishga katta ahamiyat berdi.

Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824–1870) pedagoglik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. U **«Kameral fanlarni o'qitish haqida»** degan asarida oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rtaga qo'yib, ularni qanday hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

I va II o'quv yillari uchun **«Ona tili»** darsligi nashr etildi va unga **«Muallimlar uchun qo'llanma»** degan metodik asari ilova qilindi. 1870-yilda esa III o'quv yili uchun ham **«Ona tili»** darsligi bosilib chiqdi. Bundan tashqari, Ushinskiyning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari hisoblangan **«Inson – tarbiya predmeti sifatida» («Pedagogik antropologiyadan tajriba»)** nomli asari ayrim jildlarga bo'linib nashr qilina boshladi. 1867-yilda bu asarning I jildi, 1869-yilda II jildi bosilib chiqdi.

K.D.Ushinskiyning xizmati shundaki, u o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi. Uning ilmiy-amaliy pedagogik faoliyatining asosiy g'oyasi va yo'nalishi ham yuqoridagi asarlari bilan bevosita bog'liqdir. U rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi.

K.D.Ushinskiy didaktika sohasidagi qarashlarini "Ona tilini o'qitish yuzasidan qo'llanma, "Maktab-maorif ishlarini o'rganish uchun Shveysariya bo'ylab sayohat" maqolalarida bayon etdi.

Ushinskiyning fikricha ta'lim tamoyillari quyidagilar:

1) ta'lim bolalarning kuchi yetadigan bo'lishi;

2) izchillik;

3) ko'rsatmalilik;

4) puxta va mustahkamlilik.

K.D.Ushinskiy ko'rsatmalilik prinspini kishining yoshi va psixologiyasidagi xususiyatlar nuqtai nazaridan asosladi. U ko'rsatmali vositalariga suratlar, kolleksiyalar, modellar va hokozolarni kiritgan.

Ushinskiy o'quv materialni anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishga katta e'tibor berdi. O'quv materiallarini takrorlashga doir metodikani ishlab chiqdi.

K.D.Ushinskiy ta'lim jarayonida ikkita bosqich borligini ko'rsatdi: birinchidan, bolalar o'qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani

kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa xaqida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Buning o'zi uchga bo'linadi:

1. Bolalar o'qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani bevosita o'zlashtiradilar.

2. O'qituvchining rahbarligida o'rganilayotgan buyum yoki hodisa to'g'risida olgan tasavvurlarini bir-biridan ajratadi, farq qiladi, solishtirib ko'radilar ular to'g'risida tushuncha hosil qiladilar.

3. O'qituvchi o'zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarni to'ldiradi, asosiy jihatlarini ikkinchi darajali jihatlardan ayirib, tushunchalarni bir tizimga soladi.

K.D.Ushinskiy "Rus tilining dastlabki o'qitish" nomli maqolasida zarur metodik ko'rsatmalar berdi. Uning fikricha o'qitishning uch vazifasi bor:

1. Bolalarning nutqini o'stirish.

2. Bolalarni o'z tilidan foydalanishga o'rgatish.

3. Tilning mashqini o'zlashtirish. Bu vazifalar bir vaqtda bajariladi.

K.D.Ushinskiy o'qitish prinsipiga asoslangan holda boshlang'ich ta`limga doir darsliklar ham tuzdi:

1. Ona tili darsligi – bu alifbedan boshlanadi, bunda bolalarning fikrini o'stirish va tasavvurlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

2. Bolalar dunyosi darsligi – bu 3-4 sinfga mo'ljallangan bo'lib, bunda bolalarga geografiya va tabiatdan boshlangich ma'lumot berishi ko'zda tutilgan. Uning fikricha, o'qituvchi xalq orasida chiqqan bo'lishi kerak: u pedagogika va psixologiyani bilishi, pedagogik odob va mahoratlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlab, ongini turli yangiliklar bilan boyitib borishi lozim.

K.D.Ushinskiy 1861-yilda "O'qituvchilar seminariyasining proyekti" maqolasida boshlangich maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash tizimini taklif etdi. Xulosa qilganimizda, Ushinskiy Rossiyada maorif sohasida ko'p xizmat qildi. U «Rus do'mboqchalarining do'sti»,"Rus muallimlarining muallimidir".

Xullas, K.D.Ushinskiy pedagogik ta'limotining mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini ishlab chiqishda ham ko'p ishlar qildi. U ta'limni va uning ko'rsatmaliligini, ongli va uzviy ta'lim-tarbiya masalalarini ishlab chiqdi, o'qitish shakl va metodlarining rang-barangligiga erishishni talab etdi. Shuningdek, o'qituvchining mehnatini va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta'sirini yuqori baholadi.

Lev Nikolaevich Tolstoy (1828–1910) o'zining pedagogik faoliyatini pedagogika sohasida nodir asarlar yaratish bilan birga 1859-yilda

Yasnaya Polyanada o'z hisobiga dehqonlarning bolalari uchun maktab ochdi va taklif etilgan o'qituvchilar bilan birgalikda unda mashg'ulotlar olib bordi. Shuningdek, u To'la guberniyasida maorif ishlarini qayta tashkil etishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu davrda uning tashabbusi bilan 20 dan ortiq maktab ochildi.

O'zining maorif sohasidagi tajribalarini keng yoyish maqsadida L.N.Tolstoy 1862-yildan boshlab **«Yasnaya Polyana»** nomli pedagogik jurnalini chiqara boshladi va uning sahifalarida **«Xalq maorifi to'g'risida», «Savodga o'rgatish metodlari haqida», «Maktablar-ning erkin tarkib topishi va rivojlanishi», «O'quvchilarning eng yaxshi insholari»** kabi bir qator maqolalarini e'lon qildi.

Tolstoy o'zining pedagogik asarlarida o'qitish nazariyasi masalalari yuzasidan bir qancha original didaktik g'oyalarni ilgari surdi.

60-yillarning boshida Tolstoy pedagoglik ishiga astoydil kirishib, bu sohada uzluksizizlanish olib boradi va *«har bir maktab o'ziga xos bir ta'lim-tarbiya laboratoriyasi bo'lishi kerak»* degan talabni qo'yadi, uning Yasnaya Polyanadagi maktabi ham o'ziga xos tajriba laboratoriyasi edi. O'qituvchining o'quvchilar bilan erkin suhbati asosida tashkil etilgan bu maktabda 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan 30-40 nafar dehqon bolalari o'qir edi. Bolalardan tashqari, har yili qishloqdagi 3-4 nafar katta yoshdagi kishilar ham ta'lim olar edilar. Tolstoy o'zi tashkil etgan maktab uchun unda beriladigan o'qitish mazmunini ham, o'quv rejasini ham mustaqil tarzda ishlab chiqdi. Chunonchi, uning maktabida, o'qish, yozish, husnixat, grammatika, din darsi, rus tarixidan hikoyalar, arifmetika, tabiat va geografiyadan elementar bilimlar berilar, rasm va ashula o'rgatilar edi. Rus tili darslarida Tolstoy o'quvchilarga badiiy hikoyalar shaklida tabiat, geografiya va tarixdan ma'lumotlar berardi. U bunday hikoyalarning namunasi sifatida *«Yasnaya Polyana maktabi»* sarlavhali maqolasida 1812-yilgi Vatan urushiga oid hikoyani keltirar edi.

Tolstoy 1869-yilda **«Urush va tinchlik»** romanini yozib, tugatgach, bolalar bilan o'tkazadigan mashg'ulotini yana qayta tikladi.

70-yillarda Tolstoy xalq maorifi sohasiga har tomonlama katta qiziqish bilan yondashdi. 1872-yilda uning **«Azbuka» («Alifbe»)** kitobi bosilib chiqdi. 1875-yilda esa qayta ishlangan **«Novaya Azbuka» («Yangi Alifbe»)** hamda to'rtta **«Kniga dlya chteniya» («O'qish kitobi»)** nashr qilindi.

Tolstoy savod o'rgatish uchun grammatikani yaxshilash ustida ko'p ishladi, o'z qishlog'idagi maktablarda tovush metodining ta'sirini

aniqlash, bu metodning afzallik tomonlarini bilib olish maqsadida maxsus tajriba ishlarini ham o'tkazib, ijobiy xulosaga keldi.

L.N.Tolstoy *«Alifbo»* va *«O'qish kitobi»* xrestomatiyalari bilan bir qatorda, o'z zamonasi uchun ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan arifmetika darsligini ham tuzdi. Ilg'or metodist-olim sifatida tayyorlab nashr etgan darslik va qo'llanmalar Tolstoyning o'z faoliyatida boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan barakali shug'ullanganidan dalolat beradi.

L.N.Tolstoy pedagogik faoliyatining so'nggi davri (1880-yildan to umrining oxirigacha) o'ziga xos bosqichdan iboratdir. Bu davr tolstoychilik diniy e'tiqodining shakllanishi bilan xarakterlanadi: odamlarga umumiy mehr-muhabbat, barcha gunohlarni kechirish, o'zaro kelishuvchilik, zulmga qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik va hokazo. Tolstoy o'zining diniy-axloqiy ta'limotini dehqonlarning bolalari bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarida, shuningdek, katta yoshdagi aholi orasida keng targ'ib qildi.

Anton Semyonovich Makarenko (1888–1939)*«Pedagogik poema»*, *«Minoralardagi bayroqlar»*, *«O'ttizinchi yillar marshi»*, *«Ota-onalar kitobi»*, *«Bolalar tarbiyasi to'g'risida leksiyalar»*, *«Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi xulosalar»* kabi asarlarida va bolalar tarbiyasiga oid bir qator metodik tavsiyalarida oiladagi tarbiya ishlari, intizom, ota-onalar obro'si, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, o'yin, madaniy malakani oshirish kabi dolzarb mavzularda yozilgan bo'lib, unda yoshlarni chidamli, irodali, quvnoq, axloqli, hech qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, haqiqiy vatanparvarlar qilib tarbiyalash g'oyalari ilgari surilgan.

Badiiy pedagogik asar sifatida jahon adabiyotida **«Pedagogik poema»**ga teng keladigan asar yo'q. Bu kitob kishiga cheksiz ishonch va muhabbat, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, muallif unda kishilarni qayta tarbiyalash, jamiyatimizning faol a'zolari qilib tarbiyalashda yangi pedagogik tajribani, ish usullari va metodlarini batafsil tasvirlab bergan.

«Pedagogik poema» – bolalar jamoasi hayotini realistik asosda har tomonlama keng tasvirlab bergan asardir. Kitobning mavzui boqimsiz bolalar koloniyasidagi hayot, tarbiyachilarning faoliyati, ayrim qahramonlarning tarjimai holi, tarbiyasi buzilgan bolalardan yangi ruh, yangi axloqqa ega bo'lgan barkamol kishilar tarbiyalab yetishtirish uchun kurashdan iboratdir. Kitobning qahramoni murakkab voqealarni boshidan kechirgan bolalar jamoasidir.

Boqimsizlik taqdiri azal emas, u turmushni chalkash, xato yo'l bilan olib borishdan kelib chiqadi, bu yo'lga tushib qoluvchilar aqliy tomondan zaif emas, axloq jihatidan qiyin tarbiyalanuvchilar ham emas. Ularning

tarbiyasi ustida jiddiy qayg'urilsa, ulardan **ajoyib talantlar** yetishib chiqadi, deb ta'kidlaydi yozuvchi.

A.S.Makarenko bolalarni yakka tartibda o'rganishga, bolalar jamoasini tuzishga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, o'qituvchi bolalar jamoasini uyushtira olsa, u jamoa pedagogning ishonchli yordamchisiga aylanadi, shu jamoa yordami bilan pedagoglarni chuqur o'rgana oladi.

A.S.Makarenko fikricha, «kollektiv – sotsial tirik organizm... u o'zining organiga ega, unda vakillar bor, mas'uliyat bor... Bir-birlariga nisbatan bog'lanish bor, agar bular bo'lmasa, bolalari jamoasi ham bo'lmas, unda yolg'iz bosh-boshdoqlikkina bo'lar edi». U o'zining tarbiya tizimini Gorkiy nomli bolalar koloniyasida to'la-to'kis amalga oshira oldi. Masalan, u har qanday og'ir va *«ko'ngilsiz»* ishni ham bolalar va otryadlar o'rtasida navbat bilan taqsim etar edi. Ko'ngilli va ko'ngilsiz, og'ir va yengil bo'lishidan qat'i nazar, zarur, foydali bo'lgan har qanday ishni zavq bilan bajarishga bolalarni odatlantirar, ularning mehnat malakalarini oshirib borar edi. Makarenko o'zining ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida bolalar jamoasini yaratish sohasida tinmay ishladi va uni nazariy va amaliy jihatdan asosladi.

Xullas, A.S.Makarenkoning maktab-maorif tizimini takomillashtirish, mustahkamlash sohasida olib borgan ishlari, yaratgan nazariyalari, yozib qoldirgan pedagogik asarlari yildan yilga o'z dolzarbligini tobora oshirmoqda, mamlakatimizda pedagogika fanidagi vazifalarni hal qilishda uning tajribalari, boy pedagogik merosi hali hamon dasturulamal bo'lib turibdi.

Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy (1918–1970) maktabda o'ziga topshirilgan bolalarni tarbiyalash, ularni xalqparvar, insonparvar, mehnatsevar, Vatanni himoya etishga doimo tayyor, qalbi olov va barkamol avlod qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bu vazifalarni amalga oshirish uchun umrining oxirigacha ijodiy ishladi.

V.A.Suxomlinskiy 39 yoshida (1957-yil) pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Shu davrdan boshlab uning tarbiyani turli masalalari yuzasidan ko'plab maqola, risola, monografiyalari e'lon qilina boshlandi. Uning ilmiy pedagogik asar va maqolalari ota-onalarni ham, o'qituvchilarni ham qiziqtira boshladi.

O'qituvchi – olim Suxomlinskiy tarbiyani yaxshilash, samarali natijaga erishish va davrimizning munosib fuqarolarini yetishtirish uchun har bir bolaning qalbini bilishni hayotning qonuni qilib oldi va umr bo'yi

unga amal qildi. Pavlish maktabi oddiy edi, uni Suxomlinskiy ilg'or maktabga aylantirdi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropada Yan Amos Komenskiy, Iogann Genrix Pestalossi, Robert Ouen, Iogann Gerbart, Adolf Distereg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiy, Lev Nikolaevich Tolstoy, Anton Semenovich Makarenko, Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiylarning ta'lim-tarbiyaning roliga bergan baholari katta ahamiyatga egadir.

G.Pestolotsiyningning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. U 1774-yili «Neygof»da «Kambag'allar muassasasi»ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to'pladi. Pestalotsining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning harajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotsining o'zi bolalarga o'qish, yozish va hisob o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni unumli mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotsi Neygofda o'tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo'ldi. Tajribani davom ettirish uchun mablag' bo'lmaganligi sababli oradan ko'p vaqt o'tmay yetimxona yopildi. Lekin bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotsi 1798-yil Shveysariya inqilobi natijasida yetim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolaga mo'ljallangan Yangi yetimxona ochdi.

«Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o'zim hamroh edim! Mening qo'llarim ularning qo'lida, ko'zlarim ularning ko'zlarida edi. Ular yig'lasa, men ham yig'lar, kulsa kular edim! Ular nima yesa, men ham shuni yer, nima ichsa, shuni ichardim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edi!», deb yozgandi keyinchalik bu haqda Pistalotsi.

Afsuski, urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi. Keyingi o'n sakkiz yil davomida Pestalotsi o'sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo'jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnat- kashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib o'zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e'tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. U «Lingard va Gertruda» (1781-1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda

xo'jalikni oqilona, usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a surdi.

XIX asrning boshlaridayoq Pestalotsining «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma», «Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma», «Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim» degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang'ich ta'limning yangi usullari bayon qilingan edi.

Elementar ta'lim nazariyasi. Pestalotsining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotsi bir-biriga bog'lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg'un bo'lib kamol topishini ta'minlash mumkin, dedi.

Pestalotsi ta'limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va bular to'g'risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam shu elementlarni o'zlashtira borib, o'z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so'zni mana shunday elementlar deb hisobladi. Pestalotsi o'z zamonidagi boshlang'ich maktabda o'qitishning mazmunini tubdan o'zgartiradi, o'qitiladigan darslar qatoriga o'qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang'ich qismlarini, o'lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotsi boshlang'ich maktabning o'quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o'qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. o'qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

A.Disterveging rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg 1790-yil Vestfaliyadagi Zigen sanoat shaharchasida huquqshunos oilasida tug'ildi. Disterverg o'zi o'qigan maktabidagi dogmatik ta'limiga umrbod nafrat bilan qaraydi. 1808-yil Disterverg Gerborn universitetiga o'qishga kiradi, u yerda matematika, falsafa va tarixni chuqur o'rganadi, so'ngra Tbigen universitetiga o'qishni o'tkazadi va 1811-yili shu universitetni tamomlaydi. Ozgina fursatda o'z ustida tinmay ishlab falsafa fanlari doktori unvonini oladi. Disterverg talabalik chog'idayoq Russo, Pestalotsining pedagogika sohasidagi g'oyalari bilan tanishadi. 1813-1818-yillari Frankfurt Mayn shahridagi namunali maktabda o'qituvchilik qiladi. Disterverg shvetsariyalik

olim Pestalotsining ilg'or pedagogik qarashlariga astoydil muxlis bo'lib qoladi.

U xalqiga ma'rifat – ziyo nurini tarqatuvchi fidoyi murabbiy, ustoz bo'lishga qaror qiladi. Dastlab, Myors-Reynda, so'ngra esa Berlinda o'qituvchilarni tayyorlash maktabiga boshchilik qiladi. Disterverg pedagogika, matematika va nemis tilidan tayyorlov guruhlariga dars beradi. Boshlang'ich tajriba maktablarida ham o'qituvchilik qiladi. 1835-yili «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» degan kitobini nashr qildiradi. Matematika, nemis tili, geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar nashr qiladi.

Disterverg 1827-yildan to umrining oxirigacha «Tarbiya va ta'lim uchun Reyn varaqlari» degan jurnal chiqarib turdi. Shu jurnalda pedagogikaning turli muammolariga bag'ishlab 400dan ortiq maqolasi nashr qilindi. Boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash ishini tubdan yaxshilash uchun kurashdi. Disterverg umuminsoniy tarbiya g'oyasini himoya qilib chiqadi, shu g'oyaga tayanib pedagogika masalarini yuqori pog'onaga ko'taradi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolarning tarbiyalab yetishtirishdir. Odamlar insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog'langan holda rivojlanishi lozim.

«Inson – mening nomim, nemis – mening laqabimdir» deydi. Disterverg Pestalotsi singari, tabiyaning eng muhim tamoyili tabiatga uyg'un bo'lishidir, deb hisoblaydi.

Disterverg rivojlanib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va qoidasini bayon qilib berdi. Mustahkam o'zlashtirishga o'sha vaqtdayoq ko'p e'tibor beradi. «O'quvchilar bilan birga adolatli bo'lishi shundagina o'quvchilar orasida obro' qozonishi mumkin deydi». Distervergning rivojlantirib boruvchi ta'lim didaktikasi va uning darsliklari boshlang'ich ta'lim maktablarini taraqqiy ettirishda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari XIX asr o'rtalarida Rossiyada ham keng tarqaldi.

Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592-yilda Chex diniy jamoasida tegirmonchi oilasida tug'ildi, jamoadagi maktabda o'qidi.

Komenskiy ota-onasidan erta judo bo'ladi, jamoa a'zolarining yordami bilan universitetga kirib, o'qishni tamomlagandan keyin, Fulkenns shahridagi qardoshlik maktabida o'qituvchi bo'lib xizmat qildi. So'ngra mahalliy jamoada rahbarlik vazifasida ishlaydi, ilmiy ishlar bilan shug'ullanib, chex tilining xususiyatlarini, xalq og'zaki ijodini o'rganadi,

qardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish ustida ish olib boradi. 1628-yilda chex xalqi bilan birga Polianing Leshno shahriga ko'chib keladi, bu shaharda ham qardoshlik maktabini ochib, o'qituvchi bo'lib ishlaydi, o'ziga olamshumul shuhrat keltirgan «Buyuk didaktika» va «Onalar maktabi» asarlarini nashr qildiradi. Bu davrda u tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar ensiklopediyasi - «Pansofiya»ni yaratish ustida ish olib boradi. Komenskiy 1641-yilda ingliz olimlarining taklifiga binoan Londonga boradi, katta tantana bilan kutib olinadi. Shvetsiya va Vengriyada bo'lganda ham maktablarni isloh qilish bilan shug'ullanadi, «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» darsligini, «Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahatlar» asarlarini yozadi. Komenskiy 1670-yilda vafot etadi.

Komenskiy o'rta asrdagi tarbiyadan farqli o'laroq, tug'ilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini xudoning tuhfasi hisobladi va ayni paytda, bu qobiliyat faqat tarbiya jarayonida rivojlanishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o'rni benihoya ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina har qanday bolani yuksak axloqli, ma'lumotli qilib yetishtirish mumkin degan fikrni bildirdi, bolani yoshlik chog'idan jismonan sog'lom, ma'naviyatli qilib tarbiyalashni talab qildi.

Komenskiyning fikricha, tarbiya tabiatga uyg'un bo'lishi, tarbiyada bolaning shaxsiy xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Komenskiy o'z pedagogik qarashlarida insonni tabiatni bir qismi deb hisobladi va tabiatdagi barcha mavjudotni yagona bir qonunga bo'ysunadi, degan g'oyani olg'a suradi. Uning fikricha, ta'limni bolalarni narsa va mavjudotlar bilan tanishtirishdan, ularni idrok qildirishdan boshlash, undan keyin ularga xos xususiyatlarni o'rganishga o'tish zarur. Komenskiyning uqtirishicha, rassom ham shu zaylda ish ko'radi. U avval tasvirlaydigan buyumning umumiy, xomaki rasmini chizadi, keyin uning ayrim qismlarini tasvirlaydi.

Bu uqtirishda Komenskiyning o'z pedagogik qarashlarining to'g'riligini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan o'ziga xos usul o'z ifodasini topgan. Bu usul o'z davrida Komenskiyga o'zining shaxsiy tajribasini asoslashga yordam bergan.

Komenskiyning fikricha, bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta'limgina uyg'un bo'ladi.

Komenskiy barcha bolalarni bilimlarni idrok qilishga qodir deb hisoblab, «barchani hamma narsaga o'rgatish» zarurligini, ta'limning

umumiy bo'lishini talab qiladi. Bu ta'lim barchaga, jumladan, o'g'il bolalar va qizlarga ham taalluqli bo'lishi lozim.

Komenskiy maktab bolalariga har tomonlama bilim berishi, ularning aql- idroki, axloqi, his-tuyg'ulari va irodasini rivojlantirishi lozimligini ta'kidlaydi.

Komenskiy inson rivojlanishini to'rt bosqichga: go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik davrlarga bo'ladi. Komenskiy tug'ilganidan boshlab 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun alohida onalar maktabini ochishni, ularga onalar rahbarligida ta'lim va tarbiya berishni tavsiya etadi. Uning tavsiyasi bo'yicha, 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qish ona tilida olib boriladigan maktabda ta'lim oladilar. Komenskiy olim bo'lishni xohlagan 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun har bir davlatda akademiyalar tashkil etishni taklif qiladi.

Uning fikricha, yosh avlodning har tomonlama tarbiyali bo'lishini ta'minlaydigan ta'lim bosqichlarida izchillik va o'zaro birlik bo'lishi, qat'iy va yagona tizim qaror topishi darkor.

Komenskiy barcha bosqichlar uchun (akademiyadan tashqari) ta'limning mazmunini ishlab chiqadi. U har bir fanning o'qitilishini «eng oddiy elementlardan» boshlab, bolalar bilimi rivojini hisobga olgan holda takomillashtirib borishini tavsiya etadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qadimgi Sharq, qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maorif rivojini izohlang.
2. Qadimgi yunon va rim faylasuflarining tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan misollar keltiring.
3. XIIasrlarda Rossiyada pedagogik asarlarning nashr etilishini tushuntiring.
4. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi mazmunini izohlang.
5. I.G.Pestolotsining didaktik qarashlarini tushuntiring.
6. A.Distervegning didaktik g'oyalari mazmun-mohiyatini ochib bering.

34- MAVZU. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASRDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI. K.D.USHINSKIYNING PEDAGOGIK MEROSI

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSH va Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning yo'nalishlari. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida fan va texnika o'sib bordi va XX asr boshlariga kelib moliya kapitalining hukmronligi o'rnatildi. Yirik taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya, Gemaniyada) maktab ta'limini kengaytirishga va yaxshilashga majbur bo'ldi, chunki u ishlab chiqarishda ishlaydigan, murakkab mashinalarni ishlata oladigan savodli ishchilarga muhtoj edi. Shu bilan bir vaqtda ishchilarning soni ko'paya bordi, uning hukmron sinflarga qarshi olib borayotgan tashkiliy kurashi mustahkamlana bordi. Ishchilar sinfi maktab va maorifni xalq manfaatlarini ko'zlab qayta qurishni zo'r berib talab qildi. O'sha davrdagi ijtimoiy-demokratlar davrning ilg'or kishilarining ta'limotiga amal qilib, mehnatkashlarni ma'rifatli qilish va ularnig bolalariga haqiqiy bilim berish uchun faol kurash olib bordilar.

Fransuz sotsiologi P.Lafarg Parij komunasini ishchilarning birinchi hukumati deb va uning maorif sohasidagi tajribasini qizg'in tabrikladi. U proletariatning dushmani bo'lgan ideoliglarga qarshi, dinga qarshi maktab ta'limini to'a ravishda dunyoviylashtirish uchun, xalq bahramand bo'ladigan maktab uchun butun hayoti davomida kurashdi.

Germaniya ijtimoiy-demokratlaridan biri bo'lgan A.Bebel ham ishchilarning ilm olishini qattiq himoya qilgan. Bebel nazariyaga juda katta ahamiyat berib, ishchilarga chinakam ilmiy asosda keng va chuqur ilm berishni talab qildi va insoniyatning ma'lum qismi bo'lgan xotin-qizlarning ham manfaatini himoya qildi. Atoqli ijtimoiy-demokratiyasining mashhur arbobi Klara Setkin XIX asirning 80-yillaridan boshlab ishchilarni bilimli bo'lishi uchun xotin-qizlarni kapitalizm kishilaridan qutqarish uchun yangi maktab uchun otashin kurashdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida burjua pedagogik nazariyalari juda xilma-xil bo'lsa ham, lekin bu nazariyalarning hammasining ham vazifasi bir tomondan, ommaga ta'lim berish ishlarini burjuaziyaning manfaatlariga muofiqlashtirishni asoslab berishdan, ikkinchi tomondan esa hukmron sinf bolalariga jamiyatda va davlatda rahbarlik mavqeini egallashlariga yordamlashishdan iborat bo'ldi.

Yirik burjuaziyani qanoatlantiradigan maktablar vujudga keltirish maqsadida yangi maktablar deb ataluvchi pedagogik oqim paydo bo'ldi

va keng yoyildi. Jenevada «Yangi maktablarning» xalqaro birlashmasi tuzildi va Angliya, Fransiya, Belgiya, Shveysariya, AQSh hamda boshqa mamlakatlarda ochilgan shu tipdagi maktabga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablarni tariflab berdi. Internat tipidagi o'quv yurti bo'lgan bu yangi maktablar xususiy kishilar burjua pedagogika tashkilotlari tomonidan ochilmoqda edi Yangi maktablarnig xarajati va ularga to'lanadigan haq odatda juda katta bo'lganligi uchun, bu haqni to'lash uchun faqt badavlat kishilargina qodir bo'lar edi. Bu maktablarda ta'lim va tarbiyaning yangi»erkin va aktiv «qo'llanilar edi. Yangi maktablarning mashhur nazaryachisi bo'lgan Shveysarilik pedagog A.Fererning aytishicha «yangi maktablar» amaliy pedagogikaning labarotoriyasidir. Bu maktablarda bolalarning yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilinadi. Ferer yangi maktablarda o'quvchilarnig yosh xususiyatlarini sinchiklab hisobga olib borish, har bir o'quvchiga individual ta'lim va tarbiya berish uning ijobiy sifatlarini topish va bu sifatlarini o'stirish zarur deb hisoblaydi. Ammo bu maktablarda mavjud tartib oldida bo'ysunishga, shovinizmga o'rgatdilar nodon xalq uchun din kerak, diplomsiz yashash mumkin emas deb ta'lim beradilar.

XIX asrning 90-yillarida AQSHda pragmatizm falsafasi degan yangi falsafa dunyoga keldi va keng rivojlandi Pragmatizmning nazariyachilari bizning falsafamiz idealizmdan ham materializmdan ham yuqori turadi obyektiv haqiqat yo'q va odam unga yaqinlasha olmaydi deb, davo qildilar. Pragmatizm yunonchada «ish, amal, tajriba» so'zidan olingan bo'lib, amaliyot falsafasi demakdir. Pragmatizm materializmni ham idealizmning ham metafizikasini masxara qilib kuldi, tajribani va faqat tajribani ko'klarga ko'tarib maqtadi, birdan bir kiriteriya deb tajribani oladi, umuman, pozitizm oqimini asos qilib oladi. Pragmatistlar haqiqatning kriteriyasi maydoni deb foydani tan oladilar shu bilan birga foydaning ahamiyati ichki qanoatlantirish yoki o'z-o'zini qanoatlantirish bilan belgilanadi deb ta'kidlaydilar.

Djon Dyui (1859-1952) amerikalik filosof hozirgi zamon progmatizm oqimlaridan biri bo'lgan instrumentalizmning ko'zga ko'ringan namoyandasidir. Dyuining pedagogika masalalaridagi qarashlari uning butun umri davomida bir necha marotaba o'zgargan bo'lsa-da, lekin uning asosi o'zgarmasdan qolaverdi. Dyuining XIX asr oxiridagi maktabni tanqid qilib aytgan gaplarini ko'p kishilar umuman burjua maktabiga nisbatan opazitsiya deb pedagogika sohasiga jumladan mehnat

asosiga qurilgan tarbiya va maktabni turmush bilan bog‘lash sohasidagi yangi fikr deb yurdilar.

Dyuining fikrlaridan ba’zilari 30-yillar boshigacha bo‘lgan sobiq sho‘ro maktabining tajribasida qo‘llanildi. Dyui bolaning o‘sishida irsiyatga katta ahamiyat beradi. Uning so‘zi bilan aytganda, individumdagi aqliy va jismoniy xususiyatlarning majmui irqning o‘ziga xosdir va nasldan naslga o‘taveradi degan qoidani irsiyat nazariyasi hamma e’tirof qilgan qoidaga aylantirdi.

Djon Dyuining ta’kidlashicha tarbiya irsiyatga suyanishi hamda bolaning manfaatlaridan va amaliy tajribasidan kelib chiqishi lozim. Tarbiya shu tajribaning kengayib chuqurlashib borishidir. Tarbiya markazidagi figura bolaning o‘zidir u bamisoli quyoshdirki, pedagogik jarayon uning atrofida aylanadi. Hamma gap bolaning o‘zidadir. Uning kuchi ro‘yobga chiqishi qiziqishlari qondirilishi qobiliyati esa mashq qildirilishi kerak. Dyuining pedagogik jarayonda bolaga ko‘proq e’tibor berilishi va o‘qishni faqat bolaning manfaatlarini ko‘zda tutgan holda yo‘lga qo‘yishga dav’at etishi oqibati natijasida sistematik ta’limdan voz kechishga, bolalarni tarbiyalashda ularni jiddiy va muntazam bilimlar bilan qurollantirishga qarshi chiqishga olib keldi.

Dyui sistematik bilimlarga yetarlicha ahamiyat bermay biror ish qilish vositasi bilan o‘qitishning o‘zini bolalarning turmushi bilan bog‘lashi mumkin deb hisobladi. Mehnat bilan shug‘ullanish deydi Dyui maktab hayotining ochiqdan-ochiq markazi bo‘lib qolmoqda. Modomiki turmushda mehnat xilma-xil ekan, deydi Dyui o‘quvchilar ham mehnatning xilma- xil formalari bilan tanishishlari lozim. Ularning ishlari xilma-xil bo‘lishi polizda, bog‘da, oshxonada zamonaviy mashinalar bilan uskunalangan turli sanoat ustahonalarida bajarilishi lozim. Mashg‘ulotlarni biror topshiriq bilan masalan, kichikroq uy qurish ishi bilan bog‘lab olib borishi kerak, bunday sharoitda bolalar dastlab mashtabga qarab plan chizish bilan shug‘ullanadilar arifmetika darslarida shu uyni qurish uchun kerakli materialning qiymatini hisoblab chiqadilar til darsida uyga taalluqli so‘zlarning imlosini o‘rganadilar rasm solish va loydan turli buyumlar yasash darsida har xil buyumlar yasaydilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida pedagogika sohasida bir qancha nazariyalar, paydo bo‘ldi, bu nazariyalar g‘arb mamlakatlaridagi pedagoglarga o‘z ta’sirini XX asrning dastlabki o‘n yillarida ham o‘tkazib keldi. Djon Dyuining fundamental g‘oyalariga bugungi kunda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda tayanilmoqda.

M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi hamda maktablari rivojiga qo'shgan o'rni. Atoqli olim M.V.Lomonosovning dehqonlarga ilm olishga ruxsat berish to'g'risidagi orzusi universitetda amalga oshmay qoldi. Gimnaziyalarda rus tili, lotin tili va bitta chet el tili, til adabiyoti, matematika va tarix o'qitilar edi.

Universitet gimnaziyasida o'rta ma'lumot olish o'z ona tilini o'rganishdan boshlanar edi. M.V. Lomonosov rus xalqining buyuk farzandi, u o'z xalqining har tomonlama boy va ma'rifatli bo'lishi uchun bor imkoniyatlaridan foydalandi. Peterburgda 1731-yilda dvoryanlar tabaqasi uchungina bo'lgan birinchi yopiq maxsus maktab quruqlikdagi harbiy qismlar korpusi ochildi, bu maktablarda dvoryanlar bolalari maxsus harbiy ta'limdan tashqari keng miqyosda ta'lim olish bilan birga dunyoviy tarbiya ham olar edilar. Kadet korpusida 4 ta sinf bor edi. Bularing har birida o'qish 2 yildan 4 yilgacha davom etar edi. Shunday qilib, umumiy o'qish muddati 10 - 12 yilga borib yetar edi. Sinflarning hisobi teskarisiga yurar edi, birinchi sinf 4-sinf deb, oxirgi o'qishni tamom qiladigan sinf esa birinchi deb yuritilar edi. Dastlabki ikki sinfda (4-3-sinflarda) umumiy ma'lumot fanlari: adabiyot, matematika, tarix va geografiya o'qitilar edi, yuqori sinflarda esa maxsus fanlar o'qitilar edi. Bundan tashqari, bu sinflarda otda yurishga, qilichbozlik, raqs va musiqaga juda katta e'tibor berilar edi. Dvoryan bolalarida nazokat «oliy martabali kishilar», «zodagonlar» orasida o'zini tuta bilish odatlari tarbiyalanar edi.

Petr I ochgan davlat maktablaridagi kabi bu korpusda o'quvchilarning kelajakdagi kasbi majburiy ravishda belgilanmas, balki kasb uning moyilligi va xohishiga qarab belgilanar edi: ular o'z xohishlari bilan yo fuqarolik ishlariga yoki harbiy ishlarga tayyorgarlik ko'rishlari mumkin edi. Dvoryanlar o'z bolalari uchun maxsus o'quv yurti ochganlarida o'sha zamon pedagogikasi yutuqlaridan foydalandilar. O'quvchilarning jismoniy hamda estetik tarbiyasiga katta ahamiyat berildi, ta'limning insonparvarona metodlari qo'llanildi. Korpus qoshida yaxshi tuzilgan kutubxona, teatr bor edi, o'quvchilar orasida she'r yozish ishlari keng taraqqiy etgan, ular jurnal chiqarishar, turli kechalar ko'ngil ochishlar, sayllar va hokazolar o'tkazishar edi. 1752-yilida Dengiz akademiyasiga Dengiz kadet korpusi nomi berilib, u dvoryanlar tabaqasiga mansub yopiq maktabga aylantirildi. Peterburgda davom etib turgan Artilleriya va injenerlik maktablari Artilleriya va injenerlik korpuslariga aylantirildi. Peterburgda va Moskvada chet el pansionlari - tarbiya va ma'lumot beradigan xususiy bilim yurtlari ochildi. Dvoryan bolalarini Fransuz tiliga

va dunyoviy odatlarni o'rgatish uchun pomeshchik usadbalarga chet eldan, ayniqsa, Fransiyadan murabbiylar va guvernermolar chaqirib keltirildi.

L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi faoliyati 1849-yildan boshlandi. L.N.Tolstoy bu vaqtda Yasnaya Polyanadagi dehqon bolalarini o'qitar edi. U pedagoglik sohasidagi faoliyatini ancha faollik bilan 1859-yildan boshlab olib bordi. L.N.Tolstoy Qrim urushidan keyin Yasna Polyanaga qaytgach, u yerda maktab ochdi va yaqin atrofdagi qishloqlarda maktab ochilishiga ham yordam berdi. L.N.Tolstoy 1859-yilda ochgan Yasnaya Polyana maktabi 1861-yildan boshlab butunlay boshqa asosda qayta tuzildi. L.N.Tolstoy o'qituvchilar yordami asosida o'quvchi bolalarda erkin va samarali ijod erkinligini uyg'onishi to'g'risidagi fikri uning ishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. L.N.Tolstoy xalq maktablarida faqat rus, slavyan tillarida savod, hisob va din darsi o'tilshi kerak deb hisoblaydi. Nihoyat pedagogik faoliyatning so'ngi davrda ta'limning mazmunini yoki hech bo'lmasa, bu mazmundagi asosiy narsani belgilaydigan yo'riq yana o'zgardi. L.N.Tolstoy ta'limida eng asosiy narsa uning dini (tozalangan xiristianlik) ruhidagi diniy-axloqiy tarbiya deydi. L.N.Tolstoy o'qituvchi arifmetika, grammatika imloni yuzaki mexanik suratda o'rgatish bilan chegaralanadigan maktabni befoyda quruq bir narsa deb atadi.

L.N.Tolstoyning bu davrdagi qarashlarida tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, degan etiqodi to'g'ri edi. Ta'lim ham tarbiya ham ajralmas bir narsadir. Bilim bermasdan turib, tarbiya berib bo'lmaydi har qanday bilim esa tarbiyaviy ta'sir etadi.

L.N.Tolstoy o'zining ilgarigi qarashlariga qarama-qarshi o'laroq bu mutlaqo to'g'ri qoidani tarbiyalovchi ta'lim tamoyili (qoidasi)ni ilgari surgan edi, ammo bu qoidani reaksion mazmun bilan to'ldirdi. L.N.Tolstoy ta'lim metodikasi to'g'risida juda ko'p fikrlar aytdi o'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarning ma'lum bir metodga qarshi qanday qarashlarini e'tiborga olish kerak dedi L.N.Tolstoy o'quvchilarga xush kelgan ta'lim uslubigina to'g'ri usuldir deb yozdi. U qandaydir bir metodni ushlab olish yaramaydi, chunki barcha xususiyatlarni o'z ichiga qamrab olgan metod yo'q ekanligini aytdi.

L.N.Tolstoy bolalar ijodkorligini o'stirishga katta ahamiyat berib ularga mustaqil ish berishni, masalan, turli mavzuda insholar yozishni tavsiya etdi. L.N.Tolstoy ta'limning mazmuni va o'qitiladigan fanlarning hajmini belgilashda o'quvchilarning qiziqishi asosiy mezon bo'lishi kerak deb hisoblaydi. U maktabda o'n ikkita fan o'qitilishi kerak deb

ta'kidlangan. U ta'lim metodlari haqida fikr bildirib, o'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarning ma'lum bir metodga nisbatan munosabatlarini e'tiborga olish zarur deydi L.N. Tolstoy «o'quvchilarga xush kelgan ma'lum usulgina to'g'ri usuldir» deb yozadi. Uning fikricha, turli o'qitish metodlari orasida o'qituvchining jonli so'zi, ya'ni hikoya va suhbat metodi asosiy o'rinni egallaydi. L.N.Tolstoyning fikricha «agar - dars ortiq darajada qiyin bo'lsa-yu, o'quvchi berilgan vazifani bajarish uchun bo'lgan ishonchini yo'qotadi, boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'lib, uni bajarishga urinmaydi; agar dars ortiq darajada yengil bo'lsa ham, shunday hol ro'y beradi. O'quvchining butun diqqatini berilayotgan darsga jalb etish lozim. Buning uchun o'quvchiga shunday ish beringki, u har bir darsni bajarishda bir qadam ilgariga siljitish, deb his qilsin «O'quvchilar bilimni ongli ravishda o'zlashtiruvlari lozim; o'quvchilarga qoida va ta'riflar ular yetarli darajada o'zlashtirib olgan daliliy materialning xulosasi qilib berilishi lozim».

L.N.Tolstoyning o'qish kitoblari uchun yozgan hikoyalari mazmuni boy va turli-tumandir. Ular bolalar adabiyoti uchun qimmatli merosdir. Bu hikoyalarning ko'plari boshlang'ich maktablar darsliklariga kiritilgan va ayrimlari hozir ham kitobchalar holida chop etilmoqda. L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi jo'shqin, har taraflama faoliyatida rus pedagogikasi sohasidagi fikrini burungi maktablarni boyitgan ko'pgina ijobiy tomonlari ham bor edi. L.N.Tolstoy pedagogikasidagi ijobiy xususiyatlar quyidagilardan iborat; bolalarga chuqur mehr-muhabbat qo'yish, bolaning shaxsini hurmatlash, bolalarning ijodkorligini uyg'otish va taraqqiy ettirish, har bir o'quvchining xususiyatini psixologik jihatdan mohirlik bilan analiz qilish.

L.N.Tolstoyning pedagogika sohasidagi doimiy izlanishi, pedagoglik faoliyatiga fidokorona berilishi, pedagogik ijodkorlikka intilishi, bugungi kun o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati haqida didaktik qarashlari va pedagogik merosi. Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy 1824-yilning 19-fevralida Tula shahrida tavallud topdi.

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida juda katta ahamiyatga egadir. U ta'limni bolalarning psixologiya jihatidan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olish va psixologiyaning xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish kerakligini

asosiy vazifa deb bildi. Jumladan, u o'qitish vaqtida bolaning diqqatidan foydalanish to'g'risida qimmatli ko'rsatmalar berdi. Ushinskiy ikki turli diqqat: faollik, ya'ni ixtiyoriy va sust, ya'ni g'ayri-ixtiyoriy diqqatning mavjudligini ko'rsatib, bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib, sust diqqatga oziq berish kerak, shu bilan bir vaqtda, eng muhim bo'lgan faollik diqqatni har tomonlama taraqqiy ettirish lozim, chunki insonga kelajakda bu diqqatdan foydalanishga to'g'ri keladi, deb hisobladi.

Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak deb ko'rsatadi.

Ushinskiyning aytishicha, ta'lim mana shu tamoyillarga asoslanishi kerak. U ham bo'lsa, bolalarning kuchi yetadigan va izchil bo'lishi kerak.

Bola charchab qolmasligi uchun birinchi o'quv yilining boshida ularni o'quv materiallari bilan haddan ortiq band qilib qo'ymaslik kerak.

Ushinskiy bola yoshidagi psixologik xususiyatlarni e'tiborga olib, darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berdi. «Bolalar shakllar, ranglar, tovushlar, umuman sezgilar bilan fikrlaydi...»; bundan bolalar uchun ko'rsatmali o'qishning zarurligi kelib chiqadi, «bu o'qish mavhum tasavvurlar va so'zlarga asoslanmay, balki bola bevosita o'zlashtiradigan aniq fikrlarga asoslanadi»,–deb yozdi Ushinskiy va psixologiya nuqtayi nazaridan ko'rsatmali ta'limni asoslab berdi.

Ushinskiy ko'rsatmali ta'limni gnoseologik tomondan asoslab, u bizning bilimlarimizning birdan-bir manbai «tashqi sezgilar orqali beriladigan tajriba» bo'lishi mumkin, deb ko'rsatdi. U: «Biz tashqi dunyodan bevosita o'zlashtirib olgan obrazlar, demak, bizning fikriy qobiliyatimiz ustida va ular vositasi bilan ishlaydigan birdan bir materiallar demakdir»,- deydi.

Ushinskiyning so'zicha, «shunday ta'lim yo'li, ya'ni aniqlikdan mavhumlikka, tasavvurdan fikrga o'tish yo'li shunday tabiiy va psixologiyaning shunday aniq qonunlariga asoslanadiki, uning lozimligini ta'limning umuman inson tabiati, ayniqsa bola tabiati talablariga muvofiq bo'lishini rad etgan kishilargina e'tirof etmasliklari mumkin».

Ushinskiy ko'rsatmali ta'lim tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga va uni amalda tatbiq etishga ko'p qimmatli fikrlar kiritdi: U ko'rsatmali ta'lim to'g'risidagi: o'z tushunchasini materialistik asosda ko'rsatib berdi. Ko'rsatmalilikni tushunishda Ushinskiyda Komenskiyga xos bo'lgan bunday ko'rsatmali ta'limga ortiqcha baho berish va hatto bir daraja ko'kka ko'tarish hollari va Pestalotsiga xos bo'lgan bolalarni tevarak-atrofni o'rab olgan muhit bilan tanishtirishda rasmiylik va

bachkanalik hollari yo'q edi. Ushinskiy o'qitish jarayonida ko'rsatmali ta'limga munosib o'rin berdi; u ko'rsatmali ta'lim o'quvchilarning to'la qimmatga ega bo'lgan ma'lumot olishlarini, ularning mantiqiy fikrlashlarini o'stirishni ta'min etadigan shartlarning biridir, deb bildi.

Ushinskiy Pestalotsi taqdim etgan formal mashqlarni rad qilib, bolalarni buyumlar bilan har tomonlama tanishtirishga harakat qildi, ular bu buyumlar o'rtasidagi haqiqiy aloqalarni aniq bilib olishlarini istadi. U, ajoyib yoki hatto buyuk aql - bu «buyumlarni ularning haqiqiy holatida, ular o'rtasidagi barcha munosabatlarni har tomonlama ko'ra olish qobiliyatidir», - deb yozdi.

Ushinskiy ilgari Komenskiy, Pestalotsi, Disterveglar yaratgan ko'rsatmali ta'lim uslublarini yangi usullar bilan ancha kengaytirdi va boyitdi. Masalan, u bolalarga rasmlarga qarab so'zlab berish to'g'risidagi ko'rgazmani batafsil ishlab chiqish; suhbat vaqtida foydalanilgan rasmlarni, suhbatlardan olingan ma'lumotlarni mustahkamlash va takrorlash maqsadida sinfning devorlariga osib qo'yish kerak, deb ko'rsatdi.

Ushinskiy bolalarning o'quv mavzularini anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishi qoidalariga katta e'tibor berdi. U bu qoidalarni tushunish va tatbiq qilishda o'zidan ilgari o'tgan pedagoglarga nisbatan ko'pgina yangiliklar kiritdi. Masalan, o'quv mavzusini takrorlash to'g'risida batafsil usul ishlab chiqdi (esdan chiqarib qo'yishning oldini olish, takrorlaganda o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi materialni yaxshi tushunishda takrorlashning roli va hokazolar). Ushinskiy ayrim ko'rsatmali tasavvurdan bolalarda umumiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish uslublarni, bolalarda nutqni o'stirish bilan bir vaqtda ularning tafakkurini taraqqiy ettirish yo'llarini batafsil ishlab chiqdi, bularni ishlashda noaniqlikka yo'l qo'ymadi.

Ushinskiy ta'lim yo'nalishida ikki yo'nalish borligini qayd etdi. Birinchi yo'nalish bolalar o'qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa to'g'risida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Bu yo'nalishning o'zi uch bosqichga bo'linadi: birinchi bosqichda, bolalar o'qituvchining rahbarligi ostida buyum yoki hodisani bevosita idrok qiladilar. Ikkinchi bosqichda o'qituvchining rahbarligi bilan o'rganilayotgan buyum yoki hodisa to'g'risida olingan tasavvurlarni bir-bidan ajratadilar va farq qiladilar, solishtirib ko'radilar va taqqoslaydilar hamda ular to'g'risida tushuncha hosil qiladilar. Uchinchi bosqichda o'qituvchi o'zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarni to'ldiradi, asosiy bosqichni ikkinchi darajali bosqichdan ayirib,

tushunchalarni bir tizimga soladi. Ikkinchi yo'nalishda olingan bilimlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Ushinskiy maktabning ikki xodimi: murabbiy bilan o'qituvchi o'rtasida tarbiya va ta'lim jarayonini bo'lib qo'yishga qarshi norozilik bildirdi. U ta'limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisobladi. Shuning uchun har bir ayrim fandan dars beradigan o'qituvchilar o'rniga o'sha sinfdagi butun fanlardan dars beradigan sinf o'qituvchilari bo'lishini talab qildi.

K.D. Ushinskiy o'zining pedagogik tizimida dars hamda ta'lim usuliga katta ahamiyat berdi.

Darsda mashg'ulotlar turlicha bo'lishi mumkin: yangi bilim berish; o'quvchilarning mashqlar qilishi, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilarning bilimini hisobga olish, o'quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma'lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo'lishi va yetarli darajada tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lishi lozim. Ushinskiy bolalar (ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar) diqqatining nisbatan tez charchashini e'tiborga olib, mashg'ulotlarni almashtirib va usullarni xilma-xil shakllantirib turishni tavsiya qildi.

Ushinskiy, bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o'stirish ishiga zo'r ahamiyat berib, o'qituvchi maktabda mashg'ulotlar boshlagandayoq maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to'g'ri usullarini o'rgatish kerak, buning uchun uning fikrini dastlabki vaqtlarda, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustahkam o'zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi. Ushinskiy boshlang'ich ta'lim jarayonida (boshlangich maktabda) tarix, geografiya, tabiat fanlaridan, kerakli ma'lumotni ona tili darslarida izohli o'qitish yo'li bilan olib borishni tavsiya etadi, shuningdek, izohli o'qish jarayonida anglashilmaydigan so'zlar ham tushuntiriladi, tarbiyaviy natijalar chiqariladi va hokazolar. Ammo o'qituvchi bu tushuntirishlar, izohlarga berilib ketib, bolalarning diqqatini o'qilayotgan maqola yoki she'rdan boshqa tomonga burib yubormasligi lozim, chunki o'qishdagi asosiy matn hamisha diqqat markazida bo'ladi.

K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyani o'rganib, o'zining «Boshlang'ich ta'lim usullari» asarini yozdi.

Unda boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga uning qoidalari, tartibi, usuli va vositalarini ham ishlab chiqib didaktika faniga katta hissa qo'shdi.

Ushinskiy oila mamlakatning ko'pchilik aholisi uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning eng tabiiy muhiti deb hisoblaydi. Oilada bolalar dastlabki taassurotlar hosil qiladilar, eng

oddiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, o'z iste'dodlarini rivojlantiradilar. Bola shaxsining rivojlanishi va tarbiyasida ota-onalar, tarbiyachilar, ularning hayoti va yurish-turish namunalari juda katta o'rinni egallaydi. «Har bir shaxs va oila boshlig'ining eng birinchi vazifalaridan biri, - deb yozgan edi Ushinskiy, -o'z bolalaridan jamiyat uchun foydali shaxslar tayyorlashdan iboratdir. Olamda tug'ilayotgan kishining muqaddas burchlaridan biri - to'g'ri va yaxshi tarbiya ko'rish huquqdir».

Jamiyat oldidagi ana shu mas'uliyatli vazifa va shaxs burchini bajarish uchun ota-onalar o'zlarining xususiy baxt-saodatlarini jamiyat foydasi bilan qo'shib olib borish kerakligini batamom anglagan bo'lishlari kerak. Ular pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, buning uchun pedagogik adabiyotlarni o'rganishi lozim, tarbiya ishiga, tarbiyachi va o'qituvchilar tanlashga, o'z bolalari uchun bo'lajak hayot yo'llarini aniqlashga ongli yondashishlari darkor. K.D.Ushinskiy «Pedagogik adabiyotning foydasi» nomli asarida ota-onaning tarbiyachilik san'ati, mahorati, maqsad va vazifalarini ham asoslab berdi.

Yaxshi tarbiya olgan odam, degan tushuncha juda keng bo'lib, uni har kim har xil tushunadi. Har qanday ota-ona o'z bolasiga har jihatdan yaxshilik istaydi, lekin uning mazmunini turlicha tushunadi.

Ota-onalar o'z bolalari uchun munosib tarbiya yo'lini belgilash uchun farzandlarini chuqur o'rganishi, ularning xohish-istaklarini bilishlari kerak.

Bola go'daklik paytida tevarak-atrofdaga narsa-hodisalar haqida juda yorqin va aslo unutilmaydigan taassurotlar oladi.

Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida uzviy va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishini hisobga olib, Ushinskiy oila tarbiyasiga yuqori baho bergan edi.

K.D.Ushinskiy asl rus pedagogikasi, jumladan, maktabgacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogika g'oyalarining rivojlanishiga juda muhim hissa qo'shdi. Ushinskiy chet eldagi tarbiya hamda tajribani chuqur tahlil qildi, shu sohadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko'rsatdi va bu bilan boshqa xalqlar pedagogikasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

U tarbiyaning xalqchillik g'oyasini asoslab berdi. Bu esa asl rus pedagogikasini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalashda hamda ularga ta'lim berishda ona tilining o'rni haqidagi, xalq maktabi to'g'risidagi ta'limoti, uning bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi ko'p millatli Rossiyaning o'sha

zamondaga pedagoglar avlodigagina emas, balki keyingi avlodiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

K.D.Ushinskiyning xizmati shundaki, u o'z vataniga, o'z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi. K.D.Ushinskiy ilmiy-amaliy pedagogik faoliyatining asosiy g'oyasi va yo'nalishi ham yuqoridagi mehnatlari bilan bevosita bog'liqdir. K.D.Ushinskiy rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiyani xalqchil bo'lishi kerakligini lozim, deb hisobladi. K.D.Ushinskiy mehnatga inson baxt- saodatining asosi sifatida qaradi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e'tibor berdi. Ushinskiy ta'limotning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham ko'p ishlar qildi. U ta'limni va uning ko'rsatmaliligini, ongli va uzviy ta'lim-tarbiya masalalarini ishlab chiqdi, o'qitish shakl va usullarining rang- barangligiga erishishni talab etdi.

K.D.Ushinskiyning tarixiy xizmati shundan iboratki, u didaktika — o'qitish nazariyasining psixologik asoslarini o'sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi. U qanday qilib ta'lim jarayonida mashqlar yo'li bilan bolalarning faol diqqatini rivojlantirish, qanday qilib ongli xotirani tarbiyalash, takrorlash yo'li bilan o'quv dasturlarini o'quvchilar ongida mustahkamlash (bu ta'lim jarayonining uzviy qismidir) haqida qimmatli ko'rsatmalar berdi. Takrorlash, «unutilgan narsalarni qayta tiklash (agar biror narsa unutilgan bo'lsa, yomon-da)» uchungina kerak emas, «balki unutib qo'yish mumkinligining oldini olish uchun ham» zarurdir; o'qitish ishida olg'a qo'yilgan har bir qadamda o'tilgan bilimlarga tayanish kerak, deb hisoblaydi Ushinskiy.

Ushinskiy tarbiyalovchi ta'limning eng muhim didaktik tamoyillarini: ko'rsatmalilik, uzviylik va izchillik, o'quvchilarning o'quv dasturini asosli ravishda va puxta o'zlashtirib olishi, o'qitish usullarining xilma-xilligini psixologik nuqtayi nazardan asoslab berdi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSH da pedagogika sohasida fikrlarni izohlang.
2. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablari rivojida qo'shgan hissasini asoslang.
3. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlarining mazmun mohiyatini ko'rsatib bering.
4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari mazmunini izohlang.

35-MAVZU. HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

Jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarni o'rganish orqali biz mustaqil O'zbekistonda milliy ta'lim tizimlarini yangidan tashkil qilishda boy manbaalarga ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks ettirib turishi kerak.

Bugungi ta'lim tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi muassasalarida chet el ta'lim tizimi tajribasini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar AQSHning Tinchlik korpusi mutaxassislari, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar.

Bugungi kunda butun dunyo ta'lim muhitini rivojlantirish jarayonini me'yoriy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va koordinatsiya qilish YUNESKO tashkiloti tomonidan bajarilmoqda. Bu tashkilot barcha mamlakatlar uchun global va huquqiy xarakterdagi xalqaro-huquqiy aktlarni ishlab chiqmoqda. YUNESKOning xalqaro-huquqiy aktlari zamonaviy ta'limni globallashtirib, tarbiya muammolarini insoniy sivilizatsiyaning dastlabki darajasidan tinchlik, demokratiya, insoniylik, diniy bag'rikenglik, inson huquqlarini hurmatlash, boshqa xalqlarning tarixiy-madaniy an'ana va qadriyatlarini hurmat qilish, atrof-muhitni asrash.

YUNESKOning me'yoriy-ijodiy faoliyati quyidagilarga yo'naltirilgan:

- fan, madaniyat, ta'lim sohasida xalqlar o'rtasidagi hamkorlik uchun sharoitlarni yaratish;
- qonunchilik va inson huquqlarini hurmat qilishni ta'minlash;
- ta'lim sohasida xalqaro integratsiya uchun huquqiy asoslarini tayyorlash jarayoniga ko'plab mamlakatlarni jalb qilish;
- dunyo ta'lim holatini tadqiq qilish, rivojlanish va integratsiyaning eng samarali yo'llarini tashxislash;
- qabul qilingan konvensiya va tavsiyanomalarni targ'ib qilish;
- ta'lim holati to'g'risidagi yillik hisobotlarni to'plash va tizimlashtirish.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish, informatizatsiyalashtirish, gumanizatsiyalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quv jarayonini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha AQSHda juda ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH tizimidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikada o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Rivojlangan davlatlardan biri Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi. 1872-yili «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtiriladi.

1908-yil Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi. 1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munisipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSH 180). O'quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi tatil iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi

universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar:

1- kichik kollej;

2- texnik kollej

3- maxsus kollejlarga bo'linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Yaponiyada ta'lim-tarbiyaga yondashuvda «Oila faktori» bilan bir vaqtda pedagogik texnologiyalarga munosabat pragmatizmga asoslangan o'ziga xos bir tartibdadir.

Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi ham o'ziga xosdir. Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi:

1) «xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim»;

2) «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»;

3) «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan.

Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) «Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir» degan edi. Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 3040-yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning hayratini uyg'otadi. «Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?». Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: «Salohiyat insonlarda yashirin».

Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida «axloqiy tarbiya» tizimining roli beqiyos.

Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: 1) «Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», 2) «O'z ustingda tinimsiz ishla, shunda birovdan kam bo'lmaysan». Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: «Bor imkoniyatlaringni ishga sol!» Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt hamda g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'rnak bo'la oladi.

«Axloqiy tarbiya» natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

Yaponiya ta'lim-tarbiya tizimi bo'yicha quyidagi fikr-mulohazalarni keltirish mumkin:

- milliy an'analaridan (kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; juda nozik istihola, vazmin ruhiy barqarorlik, shirin so'z bilan o'z maqsadiga qat'iy intilish, chiroyli niqoblangan o'tkir mulohazalar bilan ish yuritish va h.k.) kelib chiqilgan holda ulardagi ta'lim-tarbiya masalalarida oila omili hali ham ustuvor ekanligini kuzatish mumkin bo'ladi;

- ulardagi ta'lim-tarbiya bo'yicha talablari qattiqligining ayrim tarixiy jihatlari (samuraylarning «Busido» kodeksidan kelib chiqadigan achchiq bo'lsa-da to'g'ri gapirish, qiyinchiliklarga sabr qilish, doimiy izlanishda bo'lish va h.k.) hali ham davom etayotganligi kuzatiladi;

- yapon ta'lim-tarbiya tizimida an'anaviy asoslarning zamonamizning ilg'or texnologiyalari bilan uyg'unlashib ketganligini qayd etish mumkin bo'ladiki, bu, ayniqsa, informatsion-kommunikatsiya texnik vositalarining nafaqat keng qo'llanilishi, balki ularning yangidan yangi turlari yaratilishida yaqqol ko'zga tashlanadi;

- ta'lim-tarbiya sohasining yirik konsernlar ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning tarqoq natijaga yo'naltirilgan «tor ijod maydonchasida» korporativ tus olayotganligini (masalan «Toyota» avtokonsernining o'z ta'lim tizimi tayyorgarligidagi bosh shiori «AQSHning bir mashinasida beshta kamchilik bo'lsa, Toyotaning beshta mashinasida bitta kamchilik bo'lishi kerak», - degan talab diqqatni o'ziga tortadigan holdir) qayd etish mumkin bo'ladi; - juda yuqori moddiy-texnika bazasiga ega yapon ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi va o'qituvchi munosabatining «ustoz-shogird» usulidan «teng hamkorlik» usuliga o'tib borayotganligi kuzatiladi va bu o'quvchi ta'lim tizimining bevosita ijod bilan mashg'ul faol obyektiga aylanishiga olib keladi.

Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan 1945-yildan ozod bo'lgan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin. 1881-yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshladilar. Bu o'z navbatida, chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi. Garchi 1882-yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi.

Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. 1910-yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga

aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'gartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo'yildi. Bu davrda 1911-yil 23-avgustda qabul qilingan «1-Choson ta'lim buyrug'i» amal qildi. Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib borildi. Ya'ni, mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oliy ta'lim berilmas edi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yil 4-fevralda «2-Choson ta'lim buyrug'i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari uzaytirildi. Ya'ni, oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924-yili Kyongson davlat universiteti ochildi. Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi. Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar, yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943-yil 3-avgustda «4-Choson ta'lim buyrug'i» imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim sohasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Jumladan, o'rta va yuqori maktablarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fan dasturdan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi.

Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944-yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945-yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiyki, boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo, «Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi» tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963-yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981-yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan taqiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi.

1992-yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun hukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi. Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli

muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1-martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1-mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2-martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi «zinapoya» vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1-martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin.

O'rta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), umumiy yuqori maktablar (har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari.

Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Janubiy Koreyada ta'lim haqidagi Qonun 1948-yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o'rta, yana 3 yil – oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim. Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir.

Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga

kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982-yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars yuklamalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 daqiqa davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 daqiqa.

Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 daqiqaga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi.

O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni – klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi.

Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi.

Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o'z

ichiga dinni ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi. Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir.

Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi. Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattaligini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi: Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan, ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat budjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Janubiy Koreya ilg'or pedagogik tizimi asoslari ham Yaponiya pedagogik tizimidagi kabi o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya tizimidagi asosiy ustuvor jihat bu bizning xalqimizga xos bo'lgan bolajonlik va uning tarbiyasiga nisbatan o'ta jiddiy yondashish, ya'ni «bola aziz, tarbiyasi esa undan aziz» tamoyili bo'yicha yondashuvidir;
- Janubiy Koreya umumkoreys yaxlit madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, u koreys ma'naviy-ma'rifat mentalitetida, albatta, milliy tamaddun to'laqonliligini taqozo etadi;
- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya tizimida xitoy, yapon, manjur, mug'ul jihatlarining tarixiy qo'shilib ketishi natijasida o'ziga xos bir multimadaniyat tizimi yuzaga kelganki, u barcha davrlarda bir xil yashovchanlik immunitetini hosil qilgan;
- Janubiy Koreya ta'lim-tarbiya an'analarida davlat ta'sirining hal qiluvchi kuchga ega ekanligi har qanday yangi texnologiya bo'yicha ishlarning davlat kuzatish doirasida ko'plab quvvatlanishida o'z aksini topadi;
- Janubiy Koreya ta'lim tizimida avlodlar almashinuvi natijasida yangi texnologiyalarning yanada turlicha ko'rinish olishi jarayoni uning ilg'or dinamik xarakteridan dalolat beradi;
- Janubiy Koreya ilmiy tadqiqot sohasida (ayniqsa, SAMSUNG va DAEWOO kompaniyalari faoliyatida) rivojlangan davlatlar AQSH va

Yaponiyada bo'lganidek «Silikon», «Kremen» vodiylari kabi markazlarning vujudga kelganligi hozirda bu yerdagi ta'lim-tarbiya tizimiga juda katta samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Xitoyda ta'lim tizimi miloddan avvalgi X–XI asrlarda Daosizm, Konfusiychilik va Buddaviylik dinlari ta'siri ostida yuzaga kela boshlagan. Unga oid ayrim ma'lumotlar tarqoq holda bo'lsa-da, Qadimgi Xitoy qonunchiligiga oid to'plamlarda uchraydi. Xitoy ta'lim tizimi qadimgi va boy tajriba an'nalarga ega tizimdir. Bu yerda ta'lim tizimining shakllanishi bevosita davlat ma'muriy-boshqaruv tizimining qurilishi bilan bog'liqdir. Qadimda Xitoy imperatorining asosiy uchta maslahatchilari (uchta gunn) "buyuk murabbiy", "buyuk ustoz" va "buyuk homiy" deb atalgandir. Ular davlatda ta'lim-tarbiya me'yorlarini nazorat qilib borganlar. Bunda "yoshlarning kattalarga buysunishi" g'oyasi (syao) asosiy o'rin egallagan. Keyinchalik, ya'ni o'rta asrlarda bu sohaga oid ma'lumotlar "Chjao xonadonidagi yetim" (Xasr) "Aslzoda o'spirinning xatosi" (XIII asr) kabi mashhur asarlarda uchrab turadi. Xitoyning XIX asr oxiridan XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr ma'naviy va ma'rifiy hayotiga oid ma'lumotlar esa Van Menning mashhur «Metamorfozalar» asarida uchraydi. Xitoyda Mao Sze Dunning «Madaniy inqilobi» natijasida yuzaga kelgan ta'lim tizimining «qora davri» (1966-1976-yillar)da bu yerda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda og'ir oqibatli holatlarga olib keldi. 1980-1990-yillar davomida Xitoyda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida ta'lim-tarbiya sohasida yangi zamonaviy tizim shakllantirildi. Hozirgi Xitoy ta'lim-tarbiya tizimi bir qancha o'ziga xos jihatlarga ega ilg'or milliy tizimlardan hisoblanadi. Xitoyda bolalar boshlang'ich maktabga 6-7yoshdan borib, bu yerda 5-6 yil dastlabki ta'lim oladilar, mamlakat bolalarining (boshlang'ich maktab yoshidagi) 95% boshlang'ich maktablarga boradilar. Boshlang'ich sinflarda bolalarga xitoy tili, geografiya, tarix, matematika, musiqa, tabiatshunoslik tasviriy san'at jismoniy tarbiya va siyosiy ta'lim o'rgatiladi. Boshlang'ich maktabni tamomlagach, bolalar o'rta maktabga borishlari mumkin. Quyi o'rta maktabda ta'lim 3 yil, yuqori o'rta maktabda esa 2 yoki 3 yil davom etadi. O'rta maktabda boshlang'ich sinflardagi ko'pchilik fanlar, ya'ni biologiya, kimyo, fizika, huquqshunoslik ingliz va boshqa xorijiy tillar o'qitiladi.

Professional va texnik o'rta maktablarda esa qishloq xo'jaligi asoslari, industrial texnologiya va boshqa ixtisoslikka oid fanlar o'qitiladi. Xitoylik bolalarning 2/3 qismi o'rta maktabda ta'lim ola boshlaydi, ammo ularning hammasi ham o'qishni yakuniga yetkazmaydi. Oliy o'quv

yurtlariga kirish uchun yoshlar maxsus imtihonlardan o'tishlari kerak. Imtihonlardan o'tgan yoshlar talabalar qatoriga qabul qilinadi. Universitetlarda o'qitiladigan asosiy fanlar: iqtisod, xorijiy tillar, matematika, tibbiy va gumanitar fanlar imtihonlardan o'tgan yoshlarning bir qismi texnik kollejlarda qabul qilinadi. Har bir kollej o'z ixtisosligiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, tibbiyot, tog'-kon yoki o'qituvchilik yo'nalishlarda mutaxassis tayyorlaydi. Ko'pchilik maktablar tegishli soha vazirligi (masalan, tibbiyot yo'nalishidagi texnik kollejlar tibbiyot vazirligi)tomonidan boshqariladi.

Xitoyda jami 1000 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari mavjud. (universitet va kollejlar). Ulardan 1, 700 000 (1 million 700 ming) talaba tahsil olmoqda. Oliy ta'lim olishni istagan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Ammo fakultetlar va imkoniyatlar yetishmasligi bois yoshlarning oz qismigina oliy ta'lim jarayoniga jalb etilmoqda. Kirish imtihonlaridan o'ta olmagan yoshlar «ishchi universitetlar» deb atalmish qisqa muddatli kurslarda ta'lim olishlari mumkin. O'rta maktabni tashlab ketgan yoshlar erkin vaqt o'rgatiladigan maxsus maktablarda yoki televizion kurslar orqali ta'lim olishni davom ettirishlari mumkin. Xitoyda hozirda 2020-yilgacha mo'ljallangan ta'lim tizimi islohotlari amalga oshirilmoqda. Uning bosh maqsadi ta'lim-tarbiya sohasida butunlay yangi o'zgacha bir zamonaviy ilg'or asosli samarali tizimni yaratishdan iboratdir. Hozirgi Xitoy ta'lim-tarbiya tizimining zamini hisoblangan psixo-didaktik asoslar esa quydagi jihatlarda namoyon bo'ladi. Xitoy ta'lim-tarbiya tizimiga xos bo'lgan xususiyatlar quydagi jihatlarda kuzatiladi:

- millat mentalitetida ta'lim-tarbiya va shu sohada mehnat qilayotganlarga nisbatan chuqur hurmat-ehtirom munosabatining uzoq asrlar davomida keng ko'lamda saqlanib kelayotganligi;
- an'ana sifatida davom etib kelayotgan va qat'iy nazorat mahoratli buyuk ustozlar hurmati oldidagi ta'zim yoshlarning ta'lim-tarbiya talablariga chin dildan ixlos bilan bo'ysunish va uni to'la-to'kis bajarishga harakat qilishida kuzatiladi;
- yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng ko'lamdada qabul qilinishi va ularni tezkor tarzda bevosita amaliyotga joriy etish jarayonining kuchli tarzda borayotganligi;
- keng xalq ommasi orasida ilm olishga intilishning kuchliligi mavjud ta'lim muassasalarining jamiyatda yuzaga kelayotgan ehtiyojlarni qondirishga ojizlik qilib qolayotganligida ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari

ta'limning quyi bosqichi hisoblansa-da, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar kam. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6-sinf bosqichidagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar: bular – asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi.

Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish yil davom etadi (5-10-sinfgacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13-sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13-sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o'tishi sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Komissiya a'zolari korxonalarning yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi.

Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan oshiriladi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma- bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa, o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra, ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi. Mamlakatda ta'limning isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz. Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989-yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'analaridan biri.

O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shandan beri «Tadqiqot va o'qitish birligi» ularning hayotiy tamoyillariga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi-fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta'lim tizimini isloh etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va Ta'lim dasturlari. Butun dunyo ta'lim tizimidagi muammolarni hal etishda yirik xalqaro loyihalar va dasturlar muhim rol o'ynamoqda. Ushbu loyiha va dasturlarda turli ta'lim tizimidagi o'quv muassasalari va pedagoglarining ishtirok etishlari bu sohadagi ishlarni jonlantirilishiga asos bo'lmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. O'quv rejalarining takomillashuvi, ilmiy darajalar berishning bir bosqichli tizimiga o'tish, ta'lim jarayonining axborot ta'minoti va boshqa jihatlar oliy ta'lim muassasalarida Tempus va Erasmus+ dasturlari bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarda ma'lum darajada o'z aksini topmoqda. Tempus – bu G'arbiy Bolqon mintaqasi,

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi hamkor davlatlarda oliy ta'limni isloh etishga qaratilgan va asosan, universitetlararo hamkorlik loyihalari orqali ko'maklashuvchi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturdir.

O'zbekistonda Tempus dasturi 1994-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunga qadar 80 dan ziyod xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur loyihalarni moliyalashtirish uchun Yevropa Komissiyasi tomonidan jami 34 million yevrodan ziyod mablag' ajratilgan. Erasmus+ - bu Yevropa Ittifoqining ta'lim, kasbiy ta'lim, yoshlar va sportni rivojlantirishga qaratilgan hamda 2014-2020-yillar uchun mo'ljallangan yangi dastur. Yangi dastur yuqorida ko'rsatilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqining xalqaro hamkorlik dasturlarining eng muvaffaqiyatli dasturlarini, ya'ni Tempus va Erasmus Mundus dasturlarini o'z ichiga qamrab oldi.

Hozirgi kunga qadar, ular O'zbekiston oliy ta'limini islohotlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqining asosiy vositalaridan hisoblanadi. O'zbekiston OTMlari, o'qituvchilari va talabalar Erasmus+ dasturining quyidagi 3 ta yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etish imkoniyatiga ega: Xalqaro kredit mobilligi (International Credit Mobility) - Yevropaning bir yoki bir nechta universitetlari bilan almashinuv dasturi, Oliy ta'lim salohiyatini oshirish loyihalari (Capacity Building in Higher Education), Qo'shma magistrlik dasturlari (Joint Master Degree programme) hamda Jan Mone (Jean Monnet) dasturi. Oliy ta'lim salohiyatini oshirish (SVNE) yo'nalishining 2015-yildagi 1-tanlovi doirasida O'zbekiston OTMlari ishtirokida 12 ta loyiha faoliyat boshlagan bo'lib, ulardan 10 tasi qo'shma va 2 tasi strukturaviy loyihalardir: MIND, ECCEM, CACTLE, ACADEMICA, MEDIPHYS, ModeHED, ECAP, TechReh, IQAT,

FSAMP, IMEP, NURSLIN. Erasmus+: Xalqaro kredit mobilligi loyihalari Erasmus+ dasturining «Xalqaro kredit mobilligi/ International Credit Mobility» (ICM) yo'nalishi - talabalar va oliy ta'lim muassasalarining akademik va administrativ xodimlari uchun 33ta Dastur-davlatlarlarda ta'lim va professional tajriba olish imkoniyatlarini beradi. Bu nafaqat mobillik ishtirokchilari uchun, balki OTMlari uchun ham birdek foydali hamkorlikdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Janubiy Koreya ta'lim tizimida oliy ta'limning roli qanday?
3. Xitoyning taraqqiy etishida ta'lim tizimining o'rnini izohlang.
4. Germaniya ta'lim tizimida real maktablarning ahamiyati nimada?

36-MAVZU. PEDAGOGIK FIKR TARIXI VA MAKTAB AMALIYOTIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI

Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik mahorat asoslari fani dastlab 1979-yilda Ukrainaning Paltava shahridagi Korolenko nomidagi pedagogika instituti pedagog olimlari tomonidan maxsus kurs sifatida paydo bo'ldi. Dastlab Paltava institutida, so'ngra boshqa pedagogika institutlarida ham o'qitila boshlandi.

Pedagogik mahorat fanining obyekti-o'qituvchining pedagogik faoliyati hisoblanadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti esa – o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi pedagogik mahoratidir. Pedagogik mahorat fanining kategoriyalari – pedagogik qobiliyat, kasbiy bilim, pedagogik texnika kabilar tashkil qiladi. Pedagogik mahorat fanining masqadi – ma'lum bir pedagogk tizimdagi o'qituvchining pedagogk faoliyatida pedagogik mahoratni shakllanish qonuniyatlarini o'rganish hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat obyekti bu o'quvchi, subyekti esa o'qituvchi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat – bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional faolligidir. O'qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o'qitadi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, tarbiyalaydi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona, adolatli siyosatni, milliy istiqlol g'oyasini mazmun, mohiyatini targ'ibot qiladi, o'z malakasini oshirish

uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o'zi ham kamol topadi, o'quvchilarni ham kamol toptiradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim-tarbiya berish maxsus tayyorlangan insonlarning mehnat faoliyatidir. O'zliksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida xizmat qilayotgan o'qituvchilarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Tarbiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar ana shunday xususiyatlarni bilishi lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari professiogrammasida ifodalanadi, professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari.

2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar.

3. Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni.

4. Ixtisosga oid umumiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy sohada: Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy- siyosiy faollik.

Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Pedagogik faoliyatlar kishini o'ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka - egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir.

O'qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) amaliy konstruktiv malakalar:

1. Amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.

2. Har bir o'quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.

3. O'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b)Tashkilotchilik malakalar:

1.O'quvchilar orasidagi qobiliyatli bolalarni aniqlay bilish, tanlay bilish va ularni idora qilish.

2.O'quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy faolliklarini bilish.

3.O'quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarini berilishi yuzasidan nazorat o'rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.

4. O'zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.

5. Ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ishlar tashkil eta bilishi, maktab rejimi shunday tuzilishi kerakki: bola maktabda yaxshi o'qisin, samarali xizmat qilsin, yaxshi dam olsin, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lsin, bunday faoliyatni uyushtirishga doir pedagogik talablar qo'yiladi. Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt va subyekt hamda vositalardan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi shaxsi:

Mafkuraviy sohada – ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunishi, fuqarolik burchini anglashi, ijtimoiy faollikka ega bo'lishi;

Kasbiy pedagogk sohada bolalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, psixologik-pedagogik ziyraklik, kuzatuvchanlik, pedagogk takt, pedagogk tasavvur, tashkilotchilik, talabchanlik, o'z-o'zini tuta olish;

Bilish sohasida keng ilmiy saviya, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarga quyidagilar kiradi;

o'qituvchi bilim egallash sohasida – pedagogikaning metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi, shakllanishi qonuniyatlarini bilishi, tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalarini, shakl va metodlarini, bolalar va o'smirlarning fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini psixik rivojlanish qonuniyatlarini, individual xususiyatlarini bilishi;

ko'nikma va malakalarni hosil qilish sohasida – pedagogik vaziyatni tahlil qilish, pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish, pedagogik hodisalarni paydo bo'lishi va rivojlanish sabablarini shart-sharoitlarni tahlil qila bilish, baholay olish, tarbiyalanganlik, bilims darajalarini baniqlash, jamoaning rivojlanishini belgilay olish, o'quvchilardagi qiyinchilik va xatolarni ko'ra bilish, aniq pedagogik vazifalarni va va ularni hal qila olish, o'quv tarbiyaviy ishlarni shakl, metod va vositalarni tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida – o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz, sintez qila olish ko'nikma, ilmiy materialni qayta ishlab o'quv materialiga aylantira olish ko'nikmasi, darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

bolalar faoliyati turlarini, imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida – o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, bolalarga ta'sir ko'rsatish va ularni faoliyatiga rahbarlik qilishni rejalashtirish ko'nikmasi, o'quvchilar xulqi va faoliyatini boshqarish ko'nikmasi, o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'rniga qo'ya olish ko'nikmasi, to'g'ri talablar qo'ya bilish, til topa olish, to'g'ri muomala qila olish ko'nikmasi;

pedagogk jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida – qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi, tashqi ta'sirlarga moslashish, sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash, qayta o'zgartira olish malakasi, o'quvchilarni o'zaro munosabatlarni rahbarlik qila olish, o'zaro nizolarni yo'qota bilish, o'quvchilar o'rtasida do'stlik va o'rtoqlikni rivojlantira olish ko'rikmasi, o'quvchilar ishi ustidan joriy nazorat qila olish;

yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash, pedagogik vazifalarni belgilash sohasida – olingan natijalarni maqsadga taqqoslab tahlil qila olish ko'nikmasi, ta'lim-tarbiya usullarni qo'llashning sharoitlarini aniqlay bilish ko'nikmasi pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini tahlil qila bilish ko'ni kmasi, o'z tajribasi bilan pedagogik nazariya o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash bilim, *ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.*

O'qituvchining maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuniga – ixtisosga doir bilimlarni bilishi, ilmiy bilimlarni, metodologik va metodlarni bilishi, fanning nazariy va amaliy ahamiyatini hozirgi darajasi, qonuniyatlari tarixi, rivojlanish bosqichlari, yo'nalishlarini bilishi, maktab kursi fan

muqaddimasi ekanligini tushunishi, bilimlarni mustaqil to'ldira olish uchun bibliografik ma'lumotnomalar kotologlardan foydalani olish kiradi.

O'qituvchining ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuniga- fanlarni o'qitishning maqsad va vazifalarini bilishi, DTS, maktab dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini puxta bilishi, kursning qaysi mavzulari qiyinchilik tug'dirishini tez payqash, o'qitish metodikasini nazariy asoslarini bilishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni bilim, ko'nikma va malakalari kiradi.

O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Shuning uchun ham mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi ana shu kun minglik ziyokorlik ishining samarasiga bog'liq. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'tarilgan barcha tadbir-u amallar respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan. Bu eng avvalo, o'qituvchi kasbiga bo'lgan munosabatni tub jihatdan o'zgartirishni, uning ma'naviy-axloqiy va aqliy kamolotini oshirish lozimligini taqozo etadi. Pedagog faoliyati bilan shug'ullanadigan o'qituvchi shaxsiga Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida bir qancha talablar qo'yilgan bo'lib, har bir pedagog-xodim mazkur talablarni so'zsiz bajarishlari lozim.

Har bir pedagog xodim o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, o'z ustida muntazam ravishda tinmay aqliy faoliyat bilan shug'ullanib borishi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi bilan birga boshqa fanlarning ham mazmun-mohiyatini chuqur bilishi talab qilinmoqda. Agar o'qituvchi ana shunday sifatlarni o'zida mujassam qila olsa, u kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan o'qituvchi tamoyiliga qo'yilgan talablarga to'liq javob bera oladi deyish mumkin.

Pedagogik mahorat tushunchasi. Mutaxassislarning pedagogik mahorat tushunchasi mohiyatini ochib berishga oid turlicha qarashlarini

kuzatishimiz mumkin. "Pedagogik ensiklopediya"da "pedagogik mahorat bu-o'z kasbining moxir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, turdosh fanlar sohasini yaxshi tahlil qila oladigan, tarbiyalash va o'qitish usullarni mukammal egallagan mutaxassis" deb ta'rif berilgan.

Taniqli ukrain pedagogi Zyazyunning fikricha, Pedagogik mahorat - bu o'qituvchining yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlari yig'indisidir.

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi nutqining ravon va ta'sirchan o'tilayotgan mavzuga o'quvchi diqqatini torta oladigan, mavzuga mos ko'rgazmalarni ijod qilib va undan unumli foydalana oladigan, har qanday sharoitda ham o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan, har bir dars bolaning qiziqish va faoliyatini oshira oladigan kishini tushunamiz.

Pedagogik mahorat – izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir. Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi. Pedagogik mahorat – bu pedagogik (o'quv-tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'llantirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik mahoratning asosiy negizi – bu kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l-atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini, rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyatli va mahoratli o'qituvchi oldida esa hozirgi kun talabi asosida vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, buyuk vatanni dildan

sevadigan va bu yo'lda o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr - muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'qituvchilar oldiga juda katta va mas'uliyatli vazifalar yukladi. Bu esa o'qituvchilardan o'z ustilarida muntazam tinmay ishlashlari va yosh avlodni o'z Vataniga, xalqiga munosib insonlar qilib tarbiyalashni talab etadi.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharafli, murakkab, o'z o'rnida mas'uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo'lib yetishishida o'qituvchi sababchi bo'ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmli, olim-u fuzalolar o'qituvchining mehnati samarasidir. O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o'zida avvalo iroda, sabr-matonat, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir. Bugungi kun o'qituvchisi: dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi; o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lishi; hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har daqiqasidan unumli foydalanishi; pedagogika, psixologiya hamda o'z fanining metodikasini yaxshi bilishi zarur.

Va nihoyat muallimda o'qituvchiga xos bo'lgan qobiliyatlar mujassam etgan bo'lishi lozim.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi-tarbiyachi bu madaniyatni egallamas ekan hech vaqt o'z kasbining chinakam ustasi bo'la olmaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Pedagogik faoliyatning obyekti va subyektining pedagogik jarayondagi ahamiyati qanday?

2.Pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilladigan talablar nimalardan iborat?

3. Pedagogik mahorat tushunchasi haqida ma'lumot bering?

VI BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

37-MAVZU. PEDAGOGIK MAHORATNING ASOSIY KOMPONENTLARI

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlar. Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, .tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib, o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va

malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy, metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, "Pedagogik mahorat" fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'grisida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat-mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

1.Pedagogik faoliyatning maqsadi;

2.Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti;

3.Pedagogik faoliyatning vositasi;

Taniqli olim Zyazyunning fikricha, o'qituvchi pedagogik mahoratining tarkibiy qismlariga:

a) o'qituvchi faoliyatining insonparvarlik yo'nalishi; (qiziqishlari, kasbga bo'lgan ijobiy munosabati, ideali);

b) kasbiy bilimlar (ixtisosga doir bilimlar mutaxassislik fanini, uni o'qitish metodikasini pedagogika va psixologiyani chuqur bilish);

d)pedagogik qobiliyat (bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari va pedagogik nazokat odob-axloq); pedagogik texnika (nutq texnikasi, mimika, pontamimika, o'z hissiy holatini boshqarishi) kiradi.

Demak, pedagogik mahorat yaxlit sistema sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi; mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo'lishi; pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy musaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash («yuzidan uqib olish»)); pedagogik texnikani egallashi, ya'ni o'z-o'zini boshqara olishi, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi - o'quvchi shaxsini hurmat qilish, ayrim masalalarni-o'zini o'quvchi o'rnida sezib hal etishi, adolatli bo'lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga - barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirishda ifodalanadi. O'z davrida Ibn Sino ham o'qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoyilik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Professional bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashkil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to'g'risidagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o'zlashtirayotgan o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'zi dars berayotgan fanni, uni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo'lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashkil etadi. Professional-pedagogik bilimlarni o'ziga xosligi, ularni kompleks xarakterga ega bo'lishi va har bir o'quvchida shaxsiy «ohang» kasb etishidir.

Professional bilimlar negizida pedagog xatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi pedagogik tamoyillar va qoidalar vujudga keladi. Bu tamoyil va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan holda yaratadi, lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur.

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli o'tishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixik jarayonlarni qanday kechayotganligini bildiradi. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oltita yetakchi pedagogik qobiliyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikativlik (muloqotga moyillik), odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehribonlik; aql bilan sezish, kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik; shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari; hissiy barqarorlik-o'zini boshqara olishi; kelajakni eng maqbul holda bashorat qilish; kasbiy mustaqillik-ijod qilishi qobiliyati.

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi – o'zini-o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi - pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ruzalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni tuzilmaviy xarakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbul vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvidir.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buni sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalar-da, ayrim o'qituvchilar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o'qituvchilar: «Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar mavqiy solish, qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?» - deb hayron bo'ladilar. Gap shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Demak, pedagogik mahorat tushunchasi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha qismlardan tashkil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahoratni «pedagogik sistema» sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta'riflanadi: «Pedagogik mahorat shaxs sifatlari majmui va o'qituvchi tomonidan professional- pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda yuqori saviyada tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogni o'z faoliyati mohirligining eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi».

Bundan ko'rinib turibdiki, pedagogik mahorat – bu pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti va har tomnlama rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirish, o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimioiy zarur mehnatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o'qituvchi

tarbiyachi mahorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham alohida o'rin berilgan. Quyida shulardan misollar keltiramiz: Masalan, mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nosr Forobiy (873-930) ustoz - o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: «Ustoz-shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida «qattiq» yoki «yumshoq» usullardan foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya, jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

U o'qituvchining tarbiya usullarini hukumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o'xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini o'qtiradi.

Mashhur olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'qituvchiga o'quvchini zeriktirmaslikni, o'tiladigan mavzuni qiziqarli va ko'rgazmali holda bo'lishi lozimligini maslahat beradi. Beruniy Hindiston asarida esa olimlarni, ilm aqllarini hurmat qilishga chaqiradi. Bularni kishilar ayniqsa, hukumdorlar hurmat qilsa, ularga o'z o'rnida baho bersa, ilmlar ko'payadi, demak, jamiyat iqbolli bo'ladi, gullab-yashnaydi.

Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037) talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. U o'qituvchining qanday bo'lish kerakligi haqida fikr yuritar ekan, ularga shunday yo'l -yo'riqlar beradi: bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish; ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarni bilishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berilishi; har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi lozim.

XI asrda yashab o'tgan allomalardan biri Yusuf Xos Hojib (XI asr) ham o'z ijodida ilm ahllarini, ya'ni ustozlarni ulug'laydi. «Qutadg'u bilig» asarida ilm ahli ulug'lanadi.

Az - Zamaxshariy (1075-1143) «Nozik iboralar» risolasida ilm-u fan ahllari, o'qituvchilarga nisbatan hurmat e'tiborning pasayib ketganidan kuyinib yozadi: «o'tgan zamonlarda ilmu fazilat sohiblari podshohlardan

o'z og'irliklariga barobar oltin hadya olardilar, asta-sekin zamonlar o'tishi bilan ularning qiymatlari kamayib, itlar-u olmaxonlar ulardan afzal bo'lib qoldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortiq ko'riladigan bo'lib qoldi».

Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (Shayx Sa'diy) (1184-1204) ta'lim-tarbiyada muallimlarning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qatiqqo'l bo'lishning tarafdori bo'ladi.

«Gulistonda» yana ustoz-shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: «Bir odam kurash san'atiga zo'r mahorat qozondi, u 360 hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib ko'rishar edi. Shogirdlaridan biriga 359 hiylani o'rgatdi. Ammo bir hiylani o'rgatmadi: ustozining hurmatini bilmagan shogird, ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ularni kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi hiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshoning nafratiga uchraydi.

Burxoniddin Zarnudjiy «o'qituvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma» Burxoniddin kitobining bir bo'limi «o'qituvchi, o'rtoq, fanlarni tanlash haqida» deb nomlanadi. Unda o'quvchiga quyidagicha maslahat beradi:

«O'qituvchi tanlaganingizda, eng avvalo, bilimliligiga, eng olijanobiga va yana keksasiga to'xtamoq kerak ... Muallim, ustozga nisbatan hurmatda bo'lish ifodasi shuki, shogird muallimdan oldin yurmasligi, uning o'rniga borib o'tirmasligi lozim».

Sohibqiron Amir Temur ham o'z hukmronligi davrida ilm ahllari, muallim, mudarisslarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o'rnini muhim deb biladi. Ko'plab maktab, madrasalar ochadi, ularga muallim va mudarislar tayin etadi, o'zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi, ularga munosabat masalalariga keng o'rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. Nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Masalan: «Mahbub-ul- qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o'ta qattiqqo'l, johil va ta'magirlarini: «Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarni jafo qiluvchidir», - deb yozadi. Shu bilan birga o'qituvchining mehnatining og'irligini xolisona baholaydi:

Navoiy o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo'lishlarini talab etadi.

«Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa».

Husayin Voiz Koshifiy (1440-1505), (Xuroson) «Futuvatnomai Sultoniy yoxud javomardlik tariqati» asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtaladi. «Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar, irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir deb ayt.

U shogirlikning 8 ta odobini ko'rsatadi: Birinchi bo'lib salom berish. Ustozning oldida oz gapirish. Boshni oldinga egib turish. Ko'zni har tomonga yugurtirmaslik. Gap so'ramoqchi bo'lsa, oldin ustozdan ijozat olish. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik. O'tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko'rsatadi. «Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmagan».

Kimki ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l... Agar komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi.

Qadimgi Yunoniston va Rim faylasuflari - Suqrot, Pluton (Aflotun), Demosfen, Aristotel (Arastu), Siseron va Kvintillianlarning murabbiy shaxsi, faoliyatiga yondashuvlari. O'qituvchi tomonidan notiqlik san'atining egallanishi – qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida shaxs tarbiyasini tashkil etishga qo'yilgan muhim talab ekanligi manbalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. YA.A.Komenskiy, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalarining o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati borasidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik faoliyat va uning xususiyatlarini izohlang.
2. Pedagog faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi shaxsiga qanday talablar qo'yiladi?
3. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini izohlang.

4. Pedagogik mahorat nima? Uning mazmun- mohiyatini qisqacha yoriting.

5. Pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi o'qituvchining mahorati masalalarini qisqacha tushuntiring.

6. Sharq mutafakkirlarining pedagogik faoliyati haqida so'zlab bering.

7. Pedagogik fikr tarixi haqida Sharq mutafakkirlarining g'oyalarini izohlang.

38-MAVZU. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat – shaxsning individual psixik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig'indisidir. Qobiliyat insonni hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Taniqli olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb ta'riflagan. Bizga ma'lumki, bilim bu ilmiy mutoalalar natijasidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug'ma qobiliyat zehn deb atalsa-da, iqtidor, iste'dod, donolik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Ijodkorlik bu sifat jihatidan yangi, orginal, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. Ijodkorlik mahsuldor, evristik, kreativ turlarga bo'linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. Evristik ijodkorlik jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o'zlashtirishni anglatadi. Kreativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi. Qobiliyat umumiy (aqliy faollik, tanqidiylik, tahlil qilish, diqqatni jamlash, e'tiborlilik), maxsus (tashkilotchilik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqiy) turlarga bo'linadi. Qobiliyatning yuqori darajasi talant deb yuritiladi. Talant – biror faoliyatni muaffaqiyatli mustaqil va mukammal bajarishni ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasidir.

Pedagogik qobiliyatning sifatlari: o'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olish; mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi;

pedagogik odobga ega bolishi; bolalar jamoasiga singib keta olishi; o'z mehnatiga ijodiy yondashishi; javobgarlikni his qilishi; tarbiyaviy bilimlarni egallaganligidan iborat.

Odamning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kafil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon-shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir-birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual- psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlari yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bunday odam kerakli ko'nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga borilmaydi. Bularni egallash jarayoni cho'zilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va orginal tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha o'zoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo'r mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida namoyon bo'lishidir.

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining struktura natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi, endi shulardan pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi ni ko'rib chiqamiz.

Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional - irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.Tushuntira olish qobiliyati - o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlashini rag'batlantira oladi. Lekin ayrim hollarda shunday fikrlarni uchratamiz: «o'qituvchi opamiz hech narsaga yaramas edilar, yo'l-yo'lakay biror narsani mutlaqo tushuntirib bera olmasdilar.»

O'quvchilar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi katta o'qituvchilarga, o'quv materiali

oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchilarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishni xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari bo'shashish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zaruratini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatiga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham fahmlab oladi. O'quvchilarning ba'zan shunday gaplarini eshitamiz: «qaramayotganga o'xshaydi-yu, hamma narsani ko'rib turadi», «o'qituvchimiz biror o'quvchining xafa bo'lganini yoki dars tayyorlamaganligini ko'zidan biladi».

Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini yuqori darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga olib boradi, o'quvchining

diqqatini ishga soluvchi hamda fikrini faollashtiruvchi so‘z va iboralar qo‘llaniladi. O‘qituvchi uzundan uzoq jumlalar, murakkab so‘z birikmalari, murakkab iboralarni qo‘llashdan qochadi. O‘rinli yumor, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi, uni o‘quvchilar yaxshi qabul qiladilar. O‘qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho‘ziq zeriktiradigan nutq o‘quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo‘yadi. Ayrimlar tez, ayrimlar sekin gapirishga moyil bo‘ladilar. O‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun o‘rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o‘quvchilar asabini buzadi, toliqtirib qo‘yadi.

Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan o‘quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o‘z ishini to‘g‘ri uyushganligini nazarda tutadi. O‘z ishini tashkil etish deganda ishni to‘g‘ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o‘qituvchilarda vaqtni o‘ziga xos his etish ishlanmasini vaqtga qarab to‘g‘ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo‘ladi. Dars davomida, kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali o‘qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o‘zgartira oladi.

Obro‘ orttira olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ orttira olishdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Avtoritar qobiliyatlar o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazolar) shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish mas’uliyatini his etishga o‘zini haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog‘liq. O‘quvchilar qo‘pollik qilmaydigan, qo‘rqitmaydigan, to‘g‘ri talab qo‘ya oladigan o‘qituvchini hurmat qiladilar.

Kommunikativ qobiliyat – to‘g‘ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o‘zaro munosabat o‘rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘rishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishi haqidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib

bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.Diqqatni taqsimlash qobiliyati -o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, kuchi, idora qilina olishi ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Dars jarayonida o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqtira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: o'quvchining harakatchan va qiziquvchanligi, o'quvchining ayrim o'quv faoliyatiga, shuningdek, umuman o'qishga bo'lgan motivlari, o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilari va uning yo'nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

O'quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham K.D.Ushinskiy «zo'rlash va majburlashga asoslangan o'qitish» o'quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o'quvchilar o'quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (o'quvchining nazariy fikri, o'qish faoliyatini o'quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning o'qishga (bilishga) bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o'qituvchi ularni darsda o'quvchilarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir: O'quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni «kashf etish» ga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi. Fanga

bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o'quvchilarga anglatish juda zarurdir. O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u o'quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini o'quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv materiali ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. O'quv materiali biroz qiyinroq, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi kerak. O'quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, uni fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi ta'riflarda pedagogik boshqaruv mahoratining qaysi jihati yaqqol ko'zga tashlanadi? Pedagogik boshqaruv mahorati o'qituvchilar tomonidan o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondashishni talab qiladi. O'quvchilik faoliyatining obyektini tarkibi va o'ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondashishini taqozo qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o'qituvchilar o'tilayotgan mavzuni xalq xo'jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o'yinlardan, o'quvchilar faolligini rag'batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o'quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o'ziga iroda va qat'iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Lekin aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buning ustiga, sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalar-da, ayrim o'qituvchilar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday o'qituvchilar: «Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?» - deb hayron bo'ladilar. Gap shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog faoliyatining boshqaruv mahorati uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin tajribali pedagog uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday o'qituvchilarning ilhombaxsh muammolaridan o'quvchilarda o'qishga intilish o'zlarida yanada yaxshiroq o'qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu holda ta'lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan o'quvchiga axloqiy fazilatlarni o'tkazish vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham, pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarining majmui sifatida qarab, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

Kommunikatsiya haqida tushuncha. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati-o'qituvchining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatidir. O'qituvchining kommunikativ qobiliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi bilan xarakterlanadi.

Kommunikativ qobiliyat yo'nalishlari: o'quvchilarni ishontirish, o'quvchilar onggiga ta'sir etish, o'zgalarga taqlid qilish yo'nalishlariga bo'linadi.

O'quvchilarni ishontirish – o'quvchilar onggiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi.ishontirish ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi va usulidir.

O'quvchilar onggiga ta'sir-o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi.

Taqlid qilish-shaxsning psixik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror bir inson harakatiga, namunasiga amal qilishidir.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullariga - talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri kiradi.

Ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi amal qiladigan qoidalar;

1. Tarbiyaning aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
2. Tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi;
3. Shaxs xususiyatlarini inorbatga olish;
4. Shaxsga nisbatan hurmatda va talabchan bo'lish;
5. Tarbiyaviy ishni izchil, muntazam olib borish.

So'z bilan og'zaki ta'sir ko'rsatishda xushmuomalalik mezonlari:

1. O'quvchilarga og'zaki ta'sir qilishda shirinsuxanlik va insoniylik tuyg'ularini namoyish qilish;
2. So'z bilan ta'sir qilish bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi;
3. O'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi;
4. O'quvchilovarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytirish;
5. Mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, insoniy qadr qimmat tuyg'usini shakllantirish.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyati eng oldingi o'rindagi ta'sir qilish vositasi ham hisoblanadi. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-soqov kishilarda biron-bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi (buni harf barmoqlar harakati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo-ishorali nutq deb ataladi) mumkin.

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va og'zaki nutq, o'z navbatida og'zaki nutq dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi. Og'zaki nutqning eng sodda turi dialog, ya'ni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi.

Gaplashayotganlarning bir-birlariga luqmalarni, suhbatdoshdan keyin iboralarni va ayrim so'zlarni takrorlash, savollar hamda qo'shim-

chalar berish, izoh berish, faqat so'zlashayotganlar tushunadigan shamalar qilish turli xil yordamchi so'zlar va undovlar so'zlashuv nutqi uchun xos xususiyatdir. Bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan ham suhbatlarning hamjihatligi darajasiga, ularning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Aksariyat hamma joyda ham pedagog oilaviy muhitdagi dialogni hech qachon sinfda o'quvchilar bilan munosabatda bo'lgani kabi olib bormaydi. So'zlashuv chog'ida hissiy hayajonlanish darajasi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Hayratlangan, quvongan, qo'rqqan jahli chiqqan kishi xotirjam holatidagi kabi gapirmaydi, o'zgacha ohangdagina gapirib qolmasdan, balki ko'pincha boshqa so'zlarni iboralarni ishlatadi.

So'z mahoratli o'qituvchining egallashi lozim bo'lgan bilim malaka ko'nikmalari ustida ekan, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari haqida to'xtalishimiz va mohiyati haqida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq va muhim ahamiyatga egadir.

Mahoratli o'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi – bu o'qituvchilik kasbiga ilk tayyorgarlik ko'ra boshlagan davrdan, umuman hayotda odamlardagi o'z fikrini ifoda etish usullarini bilish, o'zida mana shu xislatlarni namoyon qila olishdir.

O'qituvchidagi kommunikativ ko'nikmalar bular oldindan o'qituvchining og'zaki va yozma nutq, imo-ishora orqali fikr ifoda etishni bilish va kishilarning ifoda etayotgan fikrini to'g'ri anglay olishdir. Yuzni o'qish san'ati – boshqa kasblar singari o'qituvchilikka ham xos bo'lgan sifatlardan biridir. Yuzni o'qish, ya'ni biror shaxsning o'z fikrini namoyon (ya'ni og'zaki va yozma holatda) qilmaganda uning yuz tuzilishi, yuzidagi a'zolarning ba'zi bir harakatlaridan anglash, tushuna olishdir.

Yuzni o'qish, avvalo, psixologik jihatdan idrok, diqqat va kuzatuvchanlikka bog'liqdir. Insonlarning xursandligini uning yuzidagi ko'rinib turgan tetiklik, xushchaqchaqlikdan anglashimiz yoki xafalikni esa yuzlarning ma'yus tortganligi, ko'zlarning toliqib ko'rinishdan bilishimiz mumkin.

O'zgalar holatini tushuna olish o'qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilish lozimdir. O'qituvchilarning yurish-turishi, o'tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin. O'zini namoyon qila olish - bu bir qiyin yoki narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko'nikma, odob - axloq muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir.

Nutq insonning ongida paydo bo'lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko'chishidir. Nutq ta'sirli yoki ta'sirsiz, to'g'ri yoki noto'g'ri

bo'lishi mumkin. Nutq orqali kishi holatini tushunish - kishilar o'z nutqlarida o'zlarida kechayotgan jarayonni namoyon qiladilar. Shu holatni tushunishdir.

Monoton nutq bolani zeriktiradi, noaniq intonatsiya esa yaxshi o'zaro yaqin suhbatning uyushtirilgandan baland ton bolalarda ishonchsizligini keltirib chiqaradi.

Tovush odamlarda tabiatan beriladi, ammo bu esa juda ham ko'p uchraydi. hamda yaxshi tovush maxsus mashqlarsiz yillar o'tgan sari buziladi, o'zgaradi.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

- pedagog va o'quvchilar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqotning natijaliligini;

- faoliyat motivlarini, tushunchalarni to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'quvchi, bolalar tafakkuriga, his - tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak;ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushuntirish va mustahkamlash, o'zlashtirib olish;

-o'quvchilarning amaliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish.

O'qituvchi nutqining o'ziga xosligi – o'quvchilarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Kuzatuvchan o'qituvchi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga qanday ta'sir etishni hisobga olgan holda ish yuritadi. O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar, quyidagilardan iborat funksiyalar bilan belgilanadi. Asosiy funksiyalardan biri – bu bilimlarni to'liq uzatishni ta'minlab berish. Yangi bilim berishda o'qituvchi o'z nutqi orqali faqatgina yangi bilimlarni berib qolmasdan, balki his-tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak. Boshqa funksiyalaridan biri – bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining samaradorligini ta'minlab berish.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qitishning muvaffaqiyatlariga asosan, o'qitishning muloqotga kirilishida uchraydigan pedagogik nizolarni keltirib chiqarmaslik, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikdir.

Bu xato va kamchiliklar bolalarni to'g'ri, tushuna olmaslikdan nutqni to'g'ri tuza olmaslikdan, muomalada hammani bir nazar bilan ko'ra olmaslikdan kelib chiqadi. Ularni oldini olish yo'llari turli xildir. Buning uchun, eng avvalo, o'quvchilarni fanga qiziqtirish shart. O'qituvchi o'z shogirdlaridan doimo hech bo'lmaganda bir necha pog'ona yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro'si bo'lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o'qituvchi javob beraolmasdan qolish mumkin. Holbuki, bola sezgir bo'ladi va juda tez fursatda o'qituvchining kamchiliklarini bilib oladi. O'qituvchilar oldida yo'qotilgan obro'ni tiklash juda qiyin

hatto ba'zi vaqtlarda mumkin ham emas. Yosh avlod tarbiyalash murakkab va olijanob vazifa bo'lishi bilan birga ayni zamonda u g'oyat darajada murakkab, mas'uliyatli ishdir.

Xulosa qilib, aytganda mustaqil O'zbekistonimizda o'zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo'lishi, o'zidan oldingi pedagoglarning ilg'or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo'llar bilan o'z mahoratining tizimlarini kengaytirishi lozimdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. «Qobiliyat» va «pedagogik qobiliyat» tushunchalarining mohiyatini izohlang. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari haqida ma'lumot bering.
2. «Pedagogik boshqaruv» tushunchasining mohiyati haqida tushuncha bering.
3. Pedagogik boshqarish turlarini izohlab bering.
4. O'qituvchining turli vaziyatlarda o'zini tuta olish holatini izohlang.

39-MAVZU. KOMMUNIKATIV MALAKALAR VA TA'SIR KO'RSATISH

Kommunikatsiya metodlari va o'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ o'qitish usullari. Barchamiz qanday gaplashishni bilamiz. Ammo biz har doim ham nima kerak va qachon kerakligini aytolmaymiz. Birgalikda, malakali, mavzuda va aniq maqsadda gaplashish qobiliyati – bu rivojlangan muloqot qobiliyati deyiladi. Uni o'quvchilaringizda qanday rivojlantirish mumkin? Gapirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir nechta metodik metodlarni ko'rib chiqishga va o'z amaliyotimdan misollar keltirishga taklif qilaman.

Hozirgi kunda bunday usullar asosan, chet tillarini o'qitishda qo'llanilmoqda. Ingliz tili o'qituvchilari aloqa usulini yagona to'g'ri usul sifatida faol ravishda targ'ib qilmoqdalar. Biologiya o'qituvchisi sifatida men bolalarda (katta yoshdagi o'quvchilarda) nutq qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan shug'ullanishim kerak. Hatto o'z ona tillarida ham ular o'z fikrlarini ifoda etishda qiynalishadi. Nima uchun bu sodir bo'layapti?

Bilimlarni sinovdan o'tkazishning test shaklini o'qitishga kiritish kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda salbiy rol o'ynadi.

Bolalar kamroq gapira boshladilar, ularga yozma ravishda javob berish osonroq va bir nechta javoblar bilan yaxshiroq.Bunda gadjetlarning ustunligi muhim rol o'ynaydi, chunki batafsil javoblar va munozaralar o'rniga qisqa xabarlarni yozishingiz mumkin.Shuning uchun men biologiya ta'limida kommunikativ usullarni faol ravishda joriy etishga harakat qilaman.Bunday usul va uslublar talabalarga yordam beradi:

- nutq qobiliyatini rivojlantirish;
- fikrlashni faollashtirish;
- ta'lim motivatsiyasini oshirish;
- omma oldida so'zlash qobiliyatini rivojlantirish;
- aloqa jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini osonlashtirish;

Aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va usublari.

Aloqa usullari guruh ishi uchun juda mos keladi (4 kishidan iborat kichik guruhlarda foydalanish mumkin). Ammo men hatto ulardan individual o'qitishda foydalanishga ham ulguraman, aynan o'sha paytda men "ikkinchi talaba" rolini o'ynayman, shunda men va men unga emas, balki talaba bilan birga o'qiymiz. Shunday qilib, keling, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning qiziqarli usullari va usullarini ko'rib chiqaylik. Qanday qilib rollarni ko'rib chiqish kerak.

Rolli o'yin uchun har bir ishtirokchi o'z roli, mazmuni va maqsadini aniq bilishi kerak. Rolli o'yinning maqsadi - aniqlangan hayotiy vaziyatga munosabatni aniqlash, o'yin orqali tajriba yig'ish. Bosh o'yinlar ma'lumotlarini boshqarish rivojlanish uchun ham mumkin. Ishtirokchilar ishtirokidagi rollarni ko'rib chiqish muammoli vaziyatga qarab majburiy tarkibga ega rollar aniqlanadi. Muammoni har xil nuqtayi nazardan ko'rib chiqish uchun talablarni guruhlarga tuzishga taklif qiling. Har bir guruh tanlangan rol bo'yicha vaziyatni ko'rib chiqishga, masala bo'yicha o'z pozitsiyasini ishlab chiqarishga va ovoz berishga taklif qilishdi.

Rolli o'yinlar talablarini mustaqil bo'lishga, ularning ijodkorligini amalga oshirishga undaydi. Bu talaba "vaziyatda o'z rolini yashashi" uchun haqiqatga taqlid qiladi va ularga "boricha" harakat qilishlariga imkon beradi. Talaba hayotidagi xatti-harakatlarni modellashtirish orqali yetakchilikni rivojlantirish va rol o'ynashda mumkin.

Mavzu "Genetik tajribalar". Men rollarni tayinlayman: genetik, fermer, farmatsevt, bajariladi. Quyi darajadagi so'zlarni yoki ma'lumotni bir pozitsiyadagi rollarni belgilashingiz kerak, va yuqori darajadagi talablarga o'z rollarini belgilashga ruxsat berilishi kerak.

Biz har birining qarashini ko'rib chiqamiz. "Aqliy hujum" qisqa vaqt ichida bo'lgan g'oyalarni taklif qilish yoki ko'p jihatlarni eslab qolish

kerak, juda foydali usul. Talabalarni savol, muammo, g'oya berishga taklif qiling. 5 daqiqada ishlash iloji boricha rejalashtirilgan g'oyalar va yechimlarni taklif qilishlariga ruxsat bering. Shu bilan birga, siz talabalarni jamoalarga ajratish va keyin noyob g'oyalarni baholashingiz mumkin.

O'quv dasturidan misollar: kundalik hayotda va ishlab chiqaruvchida ishlab chiqarilishidan (suv o'tlari, qisqichbaqasimonlar, baliqlar, qushlar) foydalanish uchun iloji boricha yashaydigan g'oyalarni taklif eting. Bu manba matni haqida batafsil qo'shimcha axborot olish uchun manba matnini kiriting, fikr-mulohaza bildiring.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati va kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish yo'llari. O'qituvchining kommunikativ madaniyati mohiyatini tushunishga katta hissa qo'shgan pedagogik tadqiqotlar bo'lib, unda kommunikativ madaniyat o'qituvchining kasbiy faoliyatining asosi sifatida ko'rib chiqildi, uning ijtimoiy va umumiy madaniyat bilan chambarchas bog'liqligi qayd etildi (I.F. Isaev, V.V.Kan-Kalik, A.V.Mudrik, I.Ryadanova, V.A.Slastenin, V.V.Sokolova va boshqalar).

Klimov kasblar turiga – "shaxs-odam" ga tegishli bo'lib, ular uchun shaxsiy fazilatlar o'ziga xos bo'lib, odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlaydi, odamlarni tushunadi, aloqalarni o'rnatadi, birgalikdagi faoliyatni tashkil qiladi.

O'qituvchilik kasbining muhim xususiyati uning kasblarga mansubligidir. *"Nutq uchun mas'uliyatni oshirish"*, unda kommunikativ madaniyat kasbiy mahoratning zaruriy shartidir. O'qituvchining kasbiy faoliyatining asosi sifatida "kommunikativ madaniyat" tushunchasiga og'zaki nutq madaniyati (o'quvchilar bilan muloqot paytida og'zaki ifoda etish va tinglash qobiliyatlari), yozma kommunikativ madaniyat (yozma xabarlarni savodli va maqsadga muvofiq o'qish va bajarish ko'nikmalari), og'zaki bo'lmagan kommunikativ madaniyat (taktik og'zaki bo'lmagan muloqot)...

V.V. Sokolova, kommunikativ madaniyatni pedagogik antropologiya sohasi deb hisoblaydi, ta'kidlaydi *obyekt qiymati* atama "muayyan me'yoriy kommunikativ vaziyatlarga mos keladigan aloqa vositalaridan qulay, samarali va milliy darajada foydalanishga erishish uchun ijtimoiy me'yorlar, kommunikativ faoliyat an'analari to'g'risida bilim" va *subyektiv ma'no* "Kommunikativ faoliyatda amalga oshiriladigan lisoniy shaxsning xususiyatlari, kommunikativ qobiliyatlari to'plami shaklida." Kommunikativ madaniyat ushbu talqinda hissiy (axloqiy) madaniyat, fikrlash madaniyati (intellektual madaniyat) va nutq madaniyati

shaklidagi "umumlashtirilgan kommunikativ ko'nikmalar" to'plami sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Hamjihatlik (ijtimoiylik, hamdardlik, ijtimoiy munosabatlar).

2. Axloqiy tarbiya.

3. Pedagogik muloqot usullari, aloqa qobiliyatlarini egallash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish (S.A. Smirnov va boshqalar).

Kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o'qituvchining o'ziga xos shaxsiy sifati pedagogik muloqot qobiliyatlari (V.A.Kan-Kalikning fikriga ko'ra professional va pedagogik ijtimoiy), bu shakllanish uchun qulay shart-sharoitlar bolalar bilan samarali o'zaro aloqa qilish qobiliyati sifatida muloqot va ekstraversiya hisoblanadi.

Pedagogik ijtimoiylikning yetakchi belgilariga quyidagilar kiradi:

1) bolalar bilan muloqot qilish zarurati;

2) uning ijobiy hissiy ohanglari;

3) muloqotdan ustun bo'lgan qoniqish hissi;

4) o'zaro shaxsiy jalb (o'qituvchi va talabalar);

5) bolalarni tushunish, individual va guruhiy aloqalarni o'rnatish qobiliyati;

6) shaxslararo qarama-qarshiliklarning konstruktiv yechimi;

7) muloqotning gumanizmi;

8) aloqa estetikasi.

O'qituvchining kommunikativ sifatida jozibadorligi A.A. Leontev "o'zining shaxsiyatining yorqinligi", professional bilim, ijodiy o'ziga xoslik, yuqori umumiy va axloqiy-estetik madaniyat, pedagogik mahorat va boshqalar bilan bog'laydi.

O'qituvchilarning kommunikativ madaniyatga oid uchta darajasi:

1) reproduktiv (ikkinchi toifa);

2) ustaxona (birinchi toifa);

3) tadqiqot (yuqori toifali).

Xususan, birinchi mezonga ko'ra, kommunikativ madaniyatning reproduktiv darajasiga ega bo'lgan o'qituvchi odamlar bilan aloqada bo'lishga intiladi, o'z fikrini himoya qiladi, ishni rejalashtiradi, ammo uning moyilligi salohiyati barqaror emas. O'zlashtirish darajasi doimiy ravishda tanishlar doirasini kengaytirishga intilish, muloqotda tashabbus ko'rsatish, qarindoshlar va do'stlarga yordam berish, ijtimoiy tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etish, jozibali ishlarda qat'iyatlilik bilan ajralib turadi.

Kommunikativ madaniyatning tadqiqot darajasiga ega bo'lgan o'qituvchi kommunikativ va tashkiliy faoliyat zarurligini sezadi va unga faol intiladi, qiyin vaziyatlarda tezda harakat qiladi, yangi jamoada o'zini tutadi, tashabbuskor, mustaqil, prinsipialdir.

Ikkinchi mezonga ko'ra, kommunikativ madaniyatning birinchi (reproduktiv) darajasiga ega bo'lgan o'qituvchi pedagogikada ma'lum bo'lgan ishontirish ta'sirining texnikasiga ega, ammo vaziyatni tahlil qilmasdan foydalanadi. Kommunikativ madaniyatni yuqori darajada egallagan o'qituvchi talabalar bilan birgalikda vaziyatlarni muhokama qiladi va tahlil qiladi va o'zi uchun qaror qabul qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. U talabaning fuqarolik pozitsiyasini, uning haqiqiy ijtimoiy xulq-atvori va harakatlarini, dunyoqarashi va o'qishga bo'lgan munosabatini, shuningdek, ta'lim ta'siriga tayyorligini, ochiqligini qanday shakllantirishni biladi. Tadqiqot darajasi o'qituvchisi doimiy ravishda ishontiruvchi ta'sirning yangi usullarini izlaydi, ularni muloqotda ishlatish imkoniyatlarini oldindan biladi, boshqalarning qarashlariga tushuncha munosabatini tarbiyalaydi. U o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy, irodaviy, hissiy harakatlarini maqbul darajada sarflash va minimal vaqt sarflash bilan maksimal natijalarga erishishga imkon beradigan ta'lim va tarbiya usullarining kombinatsiyasini qanday qilib oqilona qo'llashni biladi.

Jamiyatni professional va shaxsiy sifat sifatida yo'naltirilgan shakllantirish jarayonida kasbiy o'zini o'zi bilish amalga oshiriladi (o'zingizning kommunikativ fazilatlaringizni, muloqotdagi ijobiy va zaif tomonlarni aniqlash, muloqotdagi qiyinchiliklarni tahlil qilish, ideal muloqot haqidagi g'oyalaringiz, qanday qilib boshqalar sizning aloqa imkoniyatlaringizni baholaydilar); ijtimoiy hayotning asosiy xususiyatlarini ishlab chiqish bo'yicha ixtisoslashtirilgan treninglar asosida ishlash; kommunikativ faoliyat tajribasi to'planadigan odamlar bilan turli xil ijtimoiy ishlar (ma'ruzalar, suhbatlar va boshqalar); muloqotdagi salbiy qatlamlarni engib o'tish tajribasini shakllantiradigan va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan vaziyatlarni yaratish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O'qituvchilarning kommunikativ malakasi qanday rivojlantiriladi?
2. Komunikativ madaniyat deganda nimani tushunasiz?
3. O'qituvchilarning kommunikativ madaniyati haqida ma'lumot bering?

40-MAVZU. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MUOMALA MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Muloqot – yunoncha suhbatlashuv, shaxslararo suhbat, o'zaro fikr almashuv ma'nolarini anglatib, ikki va undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi.

Pedagogikada muloqot – o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati , o'zaro fikr almashish ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishlariga erishishlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot-o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazishi asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashgan faoliyatini bajarishdir. Pedagogik muloqot xususiyatlari:

Muloqot – o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi.

Muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega.

Muloqot o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi. Muloqot hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keladi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik paydo bo'ladi.

Kasbiy pedagogik muloqot deganda, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi. Uni asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. O'qituvchi bu jarayonni faollashtiradi, uni tashkil etadi, boshqaradi. Pedagogik faoliyatda muloqot – o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot yunoncha "so'zlashuv" shaxslararo suhbat, o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildirib, ikki va undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi.

Pedagogikada muloqot – o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati o'zaro axborot almashishda, ta'lim hisoblanadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot quyidagi xususiyatlarga ega. Muloqot o'qituvchining

kasbiy faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega; muloqot o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining muhim tarkibiy qismi; pedagogikada muloqot - o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazishlari asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida rejalashtirgan funksiyasini bajarishdir; muloqot – hamkorlik faoliyatinig ehtiyojidan vujudga keladi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi; noto'g'ri pedagogik muloqotda o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik paydo bo'ladi. Pedagogik muloqot quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. O'zaro axborot almashishni yo'lga qo'yish.
2. Ta'lim - tarbiya faoliyatini birgalikda tashkil etish.
3. O'quvchilarni erkin fikr yuritishga o'rgatish.
4. Salbiy holatlarni sinf bilan birgalikda bartaraf etish.
5. Do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga erishish.
6. O'zligini anglash, o'quvchilar bilan muloqotda qoniqish his etish.

Muloqot - axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish subyektidan (pedagogdan) boshqarish obyektiga (o'quvchilarga) boradi va aksincha - obyektdan subyektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U faqat shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarnigina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonning borligi o'qituvchiga munosabatni ijodiy hissiyotlar asosida tashkil etishga, bolalar bilan psixologik muloqot o'rnatishga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilarga biron-bir narsani o'rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi

shart. Munosabat odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni o'z ichiga oladi. Bunday axborot ayriboshlanishi munosbatning kommunikativ jihati sifatida ta'riflanishi mumkin. Munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki turli xatti-harakatlar bilan ham ayriboshlashdan iborat.

Munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishdir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayoniga shartli ravishda uchta jihatni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikdagi harakat) va persepektiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin.

Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-saqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his-hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihati o'zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi.

Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hokazo ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rang- baranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz- harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir qancha talablar qo'yiladiki, pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushunarli bo'lishi, nutq jarayonida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralardan

foydalanishda ularning uzviy(bog'liq)ligiga erishish, nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, xatti-harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish, nutq talaffuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini (pedo-psixo- fiziologik) hisobga olish, o'qituvchi nutqining talaffuzida axloqiy normalarning shakllangan bo'lishi, o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymasligi, o'qituvchining nutq qobiliyati rivojlangan bo'lishi, o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish, ongi, xulqida insoniy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z san'atiga qat'iy rioya qilishi, o'qituvchi notiqlik san'atini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi, muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi, muloqot jarayonida o'qituvchi to'liq va to'g'ri fikrlay olishga o'rganishiga bog'liq.

Pedagogik muloqot tuzilishi, metodlar va uslublari. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy tamoyillar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi. Pedagogik muloqotda muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

Pedagogik jarayonda muomala odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatiga qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-ma'naviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqotning tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda subyekt-obyekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Subyekt-obyekt munosabatlari muallim o'zining professional burchini bajarayotganida, o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini e'zozlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ular o'qituvchining pedagogik faoliyatda boshqalar bilan muomalasining xarakterini baholashga xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi - bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi - figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Demak, o'qituvchining muomala odobi - u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondashuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala; o'qituvchi

bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala; o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala; o'qituvchi bilan maktab rahbarlari o'rtasidagi muomala.

Muomala odobida o'qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo'nalishlari, so'zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtayi nazari namoyon bo'ladi. Muomala odobi bevosita baho beruvchilik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy tamoyillar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyati – bu individual uslublarining shakllanish metodikasi hisoblanadi.

A) o'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatini individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganish bunda, o'quchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil qilish.

B) Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etish bunda, kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish, har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy xolatlarni bartaraf etish.

D) O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay uslublarini tanlab olishi bunda, pedagogik faoliyatga monand muloqot madaniyati modelini ishlab chiqish, o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarni muntazam taqqoslab borish, muloqotda milliy ma'naviyatimiz, urf-odat va an'analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish, muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, har bir o'quvchini indvidual xususiyatiga mos muloqot tizimini ishlab chiqish, muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish, muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Inson har qanday faoliyatdan zerikishi mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlari, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elementar funksiyasi suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik konfliktlarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liqdir. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomola yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «yaxshi suhbatdan -yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola - munosabatlar katta o'rin egallaydi.

Pedagogik nizolar va ularning oldini olish yo'llari. Nizo – o'zaro kelishmovchilik asosida sodir bo'ladigan holat va vaziyatlardan iborat tushuncha. Pedagogik nizolar o'zaro ta'lim-tarbiya jarayonlarida vujudga keladigan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi tushunmovchiliklar, kelishmovchilik holatlarida kelib chiqadigan vaziyatlardir.Ta'lim jarayonida pedagogik nizolar va ularning kelib chiqish sabablari quyidaglardan iborat:

1. O'qituvchining ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan muomala madaniyatiga rioya qilmasligi.

2. O'quvchilarning psixologik (temperament) xususiyatlarini dars jarayonida hisobga olmaslik.

3. O'quvchilarning pedagogik (bilimlilik, tarbiyalanganlik darajalari) xususiyatlarini ta'lim jarayonida hisobga olmaslik.

4. O'quvchilarning fiziologik (jismoniy rivojlanish darajasi) xususiyatlarini hisobga olmaslik.

5. O'quvchilarning yoshlik (bola yoshiga nisbatan murakkab ish va topshiriqlarni bermaslik) va individual (qobiliyati, xotirasi, diqqatini rivojlanishi) xususiyatlarini hisobga olmaslik.

6. O'quvchilarning ongi, qalbi va xatti-harakatiga ijobiy tarzda pedagogik ta'sir ko'rsata olmaslik.

7. Pedagogik jarayonlarda rag'batlantiruvchi va jazolovchi usullardan oqilona foydalana olmaslik.

8. O'quvchilar bilan pedagogik jarayonlarda individual ishlamaslik.

9. O'quvchilar haqida berilgan ma'lumotlarni, ya'ni ularning pedagogik - psixologik tavsifnomalari bilan tanishmaslik.

10. O'quvchilarning o'smirlik davridagi o'tish holatlarini pedagoglar tomonidan hisobga ola bilmasliklari.

11. O'qituvchilarning pedagogik jarayonlarda o'z o'quvchilarining oilaviy imkoniyatlarini hisobga olmaslik.

12. O'qituvchi - xodimlarda pedagogika va psixologiya fanlariga oid ilmiy - nazariy va amaliy bilim asoslarining yetishmasligi.

13. Pedagogik xodimlarning hayotiy tajribalarga ega emasligi.

14. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning usul va uslublarini, metodikalarni, texnologiyalarni to'liq tushunib yetmaslik.

15. Ta'lim jarayonida pedagogning odob-axloq va nazokatiga (yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish, kechirimli bo'lish, mehribon bo'lish, pedagogik jihatdan talabchanlik, burch va mas'uliyatni anglab yetish, adolatli bo'lish, vaziyatga qarab qattiqqo'llik qilish va h.k.) axloq me'yorlariga amal qilmaslik.

Pedagogik nizolarni yuzaga keltirmasligi uchun ziddiyatlarni, muammolarni oldini olishda o'qituvchi pedagogik qobiliyatli bo'lishi, o'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashlarizarur. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlar mavjud, bo'lmog'i lozim. Bilish-qobiliyati o'z mutaxassisligini kuchli bilishi, o'z fani sohasida kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi kerakdir. Tushuntira olish qobiliyati -o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib bera olish muammoli ziddiyatli mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirib berish: kuzatuvchanlik qobiliyati-o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyoga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini yaxshi tushunish bilish bilan bog'liq bo'lgan kuzatuvchanlikka ham e'tiborini qaratish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi nizolarni yuzaga keltirmasligi uchun o'quvchini yosh va individual xususiyatlariga ham e'tibor berish lozim. Har bir guruh talabalarining xarakteri, temperamentiga qarab munosabatga kirishsa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktlar yuzaga kelmaydi.

O'zaro munosabatlarni keskinlashtiruvchi pedagogik vaziyat. Pedagogik vaziyat ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beradigan turli xil shart-sharoitlardir. Pedagogik vaziyatda shunday holatlarga duch kelishimiz mumkin. Ta'lim jarayoni olib borilayotgan, ya'ni o'qituvchi ma'ruza o'tayotgan paytda talabalarimiz tushunmagan narsalarni o'z vaqtida o'qituvchining fikrini to'xtatib savolini beradi. Agar pedagog o'z fanini puxta egallagan bo'lsa, savolga javob berib, keyin ma'ruzani davom ettira oladi. Bunday pedagogik vaziyatda ayrim pedagoglarimiz fikrim bo'lindi deb talabalarga tanbeh beradi. Bu vaziyatdan chiqishga qiynalib qoladilar. Ayrim guruhlarda iqtidorli talantli talabalarimiz borki, ularning fikrlari juda keng turli xil mavzudagi savollarni o'rtaga tashlaydilar, bunday vaziyatda o'qituvchi nima qilishi kerak, o'qituvchi biladi, lekin talabaga kengroq umumiyroq tushuntirmay yana savol beraveradi. Demak, bunday vaziyatda o'qituvchi darsni bahs munozara tarzda tashkil qilsa, guruh talabalaridan yangi yangi fikrlarni eshitishi va so'ng umumiy xulosa qilib o'z fikrlarini bildirishi lozimdir. Pedagogik vaziyatlarda ham pedagogik konfliktlarni ko'rishimiz mumkin. Darsni bahs-munozara shaklida qarama-qarshilik, tafovut, mojoralarni oldini olishda talabalar bir-biriga bildirayotgan fikrlarini ba'zan umuman rad qilib tashlaydilar. Pedagogik vaziyatda talabani ham fikrlarini qaysidir tomonlama to'g'riligini ta'kidlash pedagogni pedagogik vaziyatdagi yutug'idir.

To'qnashuv qarama-qarshilik ziddiyatlar guruhlarda jamoalarda vujudga keladi. Shaxsning jamiyatdagi o'rni o'zini qanday tutishi egallangan mavqeyi ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq atvorini tushuntirish uchun pedagogik konfliktologiyada motiv tushunchasiga to'xtalamiz. Motiv aniqroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Jamiyatimiz keng qamrovli bo'lib, u yerda turli xil xarakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin.

Shaxslararo konfliktlar albatta faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Masalan, guruh misolida ko'ramiz. Tasavvur qiling bir guruhda iqtidorli talantli shaxslarimiz bor. Ular har bir mazmunni yaxshi o'zlashtirib, mustaqil fikrlarini bildira oladilar, fikr doiralari keng bo'lganligi sababli u shaxslar o'rtasida to'qnashuv, mojaro kelishmovchilik, konfliktlar yuzaga keladi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini to'g'riligini isbotlay oladilar, bunday holatlarda konfliktni boshqarish o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Har bir sohada shaxslar o'rtasida konfliktlarni ko'rishimiz mumkin. Shaxslar o'z ustida ishlasa, fikrini isbotlay oladimi, ular konfliktlarni yechimini ham topadilar. Bunda muloqot pedagogik

konfliktlarning yechish va boshqarishning usuli sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik muloqot nima?
2. Muloqotga qanday talablar qo'yiladi?
3. Pedagogik muloqot tuzilishini tavsiflang.
4. Pedagogik nizo deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik nizo turlariga qisqacha tavsif bering.
6. O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning qanday usullari mavjud?

41-MAVZU. PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA

Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. "Takt" so'zi "tegib turish" ma'nosini anglatib, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi axloqiy kategoriya hisoblanadi. Gumanizm tamoyillariga asoslangan, taktik xulq-atvor murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda ham insonni hurmat qilishni talab etadi.

Pedagogik takt-o'qituvchi xulq atvori va xatti harakatlarida o'zida yuqori darajadagi insoniylikni, o'quvchi qadri qimmatini hurmat qilishni, adolatlilikni, o'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan munosabatlarda bosiqlik va o'z-o'zini boshqarishda me'yorni his etishdir. Pedagogik takt-pedagogik axloqni amalga oshirishning bir shakli. Bu o'qituvchini o'quvchilarga maqsadli ta'sir etishining o'lchovidir.

Pedagogik taktning asosi o'qituvchining yuqori darajadagi ilmiy va maxsus tayyorgarligi, o'quvchilar va ularni bilimiga bo'lgan muhabbati, pedagogik mahorati, xulq-atvor madaniyati va o'qituvchi obro'si hisoblanadi.

Umumiy va pedagogik takt – bu bir narsa emas. Har qanday odam taktik(odobli), nozik tabli, pedagogik odobli bo'la olmaydi. Pedagogik takt umumiy taktdan o'qituvchini shaxsiy sifatlarini (hurmat, bolalarni sevish, mehribonlik) ifodalab qolmay, ammo o'quvchilarga ta'sir etishning to'g'ri yondoshuvni tanlashni ham ifodalaydi. Pedagogik takt - bu o'qituvchini kasbiy sifati, uning mahoratini bir qismi hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik takti ahamiyati:

O'qituvchi takti (odobi) ahamiyati pedagogik faoliyatning ijodiy xarakteri bilan aniqlanadi.

Pedagogik takt o'qituvchining o'quvchilar o'rtasidagi obro'sini qozonishi uchun zarur bo'lgan sharoit hisoblanadi.

Pedagogik takt o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Takt pedagogik faoliyatning barcha turlarida paydo bo'lib, o'quvchilar xarakteridagi ijobiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi. Axloq – bu ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, odamni xulqini, xatti-harakatlarini, tarbibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo'l-yo'riqlar, mezonlar, me'yorlar, pand-nasihatlar majmuidan iborat.

Odob – odamlar o'rtasidagi paydo bo'lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Axloq- umuminsoniy va milliy xarakterga ega. Umuminsoniy axloq-turli davrlarda barcha xalqlarda kishilarning turmushi, hayot tarzida shakllangan, insonlarni muomala-munosabatlarini tartibga solib turuvchi umumiy axloqiy sifatlar tushuniladi.

Milliy axloq – deganda, umuminsoniy axloqqa xos xususiyatlarni saqlagan holda millat va elat kishilarigagina xos bo'lgan axloqiy xususiyatlari tushuniladi. Kasb axloqi – inson mehnati va faoliyatini tarbtibga solib turuvchi axloqiy normalaridir. O'qituvchi odobi – o'qituvchining o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomala-munosabatlarida ifodalanadigan kasbiy axloqiy xususiyatlaridir.

O'qituvchi odobini shakllanishining qonuniyatlari

O'qituvchi odobining umumiy qonuniyatlari:

- o'qituvchi odobining xarakteri jamiyatda mavjud bo'lganishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanishi
- o'qituvchi odobining maqsadi, mazmuni, usullarini birligi
- pedagogik jarayonda axloqiy ma'rifiy, axloqiy tarbiya, o'qituvchi odobining birligi.

O'qituvchi odobining xususiy qonuniyatlari:

- O'qituvchilik kasbini va bolalarni sevishi;
- O'z fanini, uni metodikasini, psixologiyani bilishi;
- O'qituvchi shaxsining axloqiy pokligi;
- Jamiyat oldidagi burchni, mas'uliyatni anglashi;
- O'ziga o'z kuchiga ishonishi;
- Muomala odobi qoidalariga amal qilishi;
- Barcha o'quvchilarga nisbatan xolis, talabchan, adolatli bo'lishi.

Pedagogik axloqning tarixiy ildizlari o'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi bilan bog'liq. O'qituvchilik kasbi paydo bo'lishi bilan o'qituvchilik odobi ham paydo bo'la boshladi. Bu yozuv ixtiro qilingach,

o'qish, yozishni o'rgatish uchun maktablarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim-tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o'quvchidan kechirim so'rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashishi lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchi shaxsni ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi, agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Har qanday mutaxassis odob-axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy holdir. Chunki tabiatga, jamiyatga, notanish kishilarga, jism va ashyolarga, o'z-o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik aynan o'qituvchi shaxsida mujassamlashadi. Pedagogik odob o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismidir.

Pedagogik odob etnopsixologik his-tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda o'z aksini topadi: emotsional his-tuyg'ular, kechinmalar, stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilish; xulq-atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llash; bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tiyish; nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslik, shaxsiyatga tegadigan iboralar ishlatmaslik, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik; hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyyan me'yorlarga asoslanish, manmanlikni namoyish etmaslik; o'quvchilar va o'qituvchilar

jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanish kerak.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barchasi kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

M.Ochilov o'qituvchi odobini tavsiflar ekan, muallim tabiat va jamiyat go'zalliklarini yuksak did bilan ko'ra oladigan, undan lazzatlana oladigan kishi bo'lishi kerakligini, boshqalarga yaxshilik qilishga intilish, yomonlikka qarshi murosasiz kurashda yaxshilikning, adolatning qaror topishidan qanoat hosil qilishi; tabiat va jamiayt sirlarini tobora chuqurroq bilib olayotgan yosh insonning aql-zakovatidan g'ururlanishi lozimligini asoslaydi. Olim o'qituvchi axloqidagi halollik fazilatini yuqori baholaydi. Halollik muallimning ichki va tashqi dunyosining birligini, so'zi bilan xatti-harakatlari to'g'ri kelishini, o'quvchilarga, hamkasblarga, ota-onalarga, samimiy munosabatini ifodalovchi axloqiy sifatdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etishi, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchi o'z axloqiy fazilatiga e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallifning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy

ko'rinishlaridan biridir. Muallif xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar tushunchalariga mos keladi va ularning pedagogik faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur baynalmilallik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fazilatlar – kishining xulqi, fe'l atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi.

O'qituvchining axloqiy fazilatlari.

Yaxshilik – ijobiy axloqiy fazilat bo'lib, xulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi.

Yaxshilik qilish – kishining axloqiy onggi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarini birligini aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

Burch – har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi.Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi.Kishining o'z burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida bilinadi.

O'qituvchilik burchi-aql bilan hissiyotning birligidan iborat. O'qituvchi kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarni mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun ahamiyatini anglasa, bu vazifani bajarish uchun o'zida qobiliyat borligini sezsa, unda o'qituvchilik burchi shakllana boshlaydi. O'qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat.O'qituvchining muhim burchlaridan biri o'z bilimini muntazam oshira borishidir. Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi. Kishining o'z burchiga sodiqligi jamiyatga, vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida bilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish; O‘zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini avaylab asrash; atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish har bir fuqaroning burchidir. Burchga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko‘rsatadi. Katta yoshdagi kishilarni hurmatlash yoshlarning burchidir.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o‘qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o‘rgatadigan g‘oyalar uning qalbidan joy olib, dunyoqarashning asosi bo‘lishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim o‘z burchiga sodiq, qat’iy tamoyilli bo‘lishi, har qadamda unga amal qilish zarur.

Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, xatti-harakatlarini nazorat qila bilish; kamtarlik, insonparvarlik, o‘z qadr-qimmatini to‘g‘ri baholay olishga imkon beradi.

O‘qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi o‘z burchini o‘ziga yuklatilgan majburiyat emas, balki o‘z hayotining ma’nosi, ishonch va vijdon da’vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etish butun xalq va O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni taqozo etadi. Davlat oldidagi burchni yuksak anglagan, mafkuraviy barkamol muallim insonga izzat-hurmatli, yoshlarga g‘amxo‘r, mehribon, boshqalarga yordam qo‘lini cho‘zishga doimo tayyor turadigan kishidir. O‘qituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun g‘amxo‘rlik qilishni talab etadi. O‘qituvchi odobida vatanparvarlik burchi baynalmilalchilik tuyg‘usi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchilik burchi ta’lim-tarbiya ishlarini bajarishga va muallimning shaxsiga nisbatan jamiyat qo‘yadigan axloqiy talablar va yo‘l-yo‘riqlar majmuidir. O‘qituvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan xushmomala, yaxshi munosabatda bo‘lish, tanlagan kasbi uchun pedagoglar jamoasi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etish shular qatoriga kiradi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash o‘qituvchilik burchining asosini tashkil etadi.

O‘qituvchilik burchining mazmuni ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar insoniyat asrlar davomida to‘plagan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab oladilar. Shuningdek, o‘qitish jarayonida muallimning bajarayotgan ishiga munosabati ham, uning shaxsiy fazilatlari va qo‘yiladigan axloqiy

talablari aks etadi. O'qituvchilik kasbini tanlagan kishi bu axloqiy talablar va yo'l-yo'riqlarni albatta, bajarishi zarur. Pedagogik amaliyotda muallimlar o'z pedagoglik burchlarini bajarishga halol intilsalar ham ish sharoitlari turlicha bo'lgani uchun bir xil natijaga erishavermaydilar.

Ba'zan muallim burchi nima ekanligini va uni bajarish zarurligini tushunadi, lekin uni amalga oshirishga - masalan, har kuni o'z bilimini oshirish ustida ishlashga, boshlangan ishini oxirigacha yetkazishga irodasi chidamaydi yoki o'zini safarbar etolmaydi. Natijada jamiyatning muallimga qo'ygan axloqiy talabiga putur etadi. Maktab jamoasi bunday hollarda o'qituvchiga nisbatan talabchanlikni oshirishi zarur.

O'qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Muallim kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarning mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun muhimligini anglasa, bu vazifalarni bajarish uchun o'zida qobiliyat birligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarni tarbiyalash yo'llarini belgilab olsa, unda professional burch shakllana boshlaydi. Shundagina muallim belgilangan xatti-harakatlarni o'z ixtiyori bilan amalga oshira boshlaydi, demak, unda burch hissi shakllangan deyish mumkin. O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri o'z bilimlarini muntazam oshira borishdir.

O'qituvchining sha'ni, qadr-qimmati – uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq-atvoriga bog'liq. U o'qituvchidan o'z ishining ustasi, kamtar va o'zini tuta bilishini talab etadi. O'qituvchining sha'ni, qadr-qimmati – umuminsoniy va milliy axloqning muhim belgilaridan biridir. Kishining qadr qimmati umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. O'qituvchi o'quvchini sha'nini, qadr qimmatini hurmat qilsa, o'quvchilar orasida o'zining sha'ni, qadr-qimmati oshadi.

O'qituvchilik mas'uliyati-shaxs axloqining tavsiflaydigan belgilardan biridir. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. O'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasini asosiy mezoni hisoblanadi. O'qituvchilik mas'uliyati-o'qituvchi faoliyati va ta'lim tarbiya jarayonining aniq vazifalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilar-dan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining rag'batiga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalar-ga ko'proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O'qituvchining mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o'stirishi lozim. Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'qituvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'qituvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezoni hisoblanadi. *Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuridiydasi - farzandning taqdiri*, kelajagi uning qo'liga ishonib topshirilgan. Muallim o'quvchilarning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Shunisi ham borki, buni ko'pincha nazorat qilib ham bo'lmaydi. Bu muallimning vijdoniga havola qilinadi.

O'qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o'z zimmalariga qanchalik yuksak sharafli mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o'quvchilarga o'zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy axloqiy namuna ko'rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

O'qituvchi vijdoni – vijdon kishining o'z xatti harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usi. U diyonat, insof, halollik, sofdillik ma'nolarini ham bildiradi. O'qituvchi faoliyatida axloqida, xulqida vijdon o'z-o'zini nazorat vositasidir.

O'qituvchining talabchan va adolatli bo'lishi-o'qituvchining talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolani kuchi, qobiliyati, va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. O'qituvchining adolatliligi uning xolisligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasida, o'quvchilar xulqini jamoat ishlariga munosabatilarini baholashda ko'rinadi. O'qituvchining professional axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo'lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonch ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni

rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. O'quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

O'qituvchi, avvalo, o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari o'rinli, samarali bo'ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir! Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to'g'rilik, kuch-qudrat mujassamdir. Adolatlilik umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotida adolat, adolatli bo'lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqozo etadi. Adolatlilik kishida aql, sof mulohaza, olijanoblik va mardlik mavjudligini bildiradi. Adolatli bo'lish, o'z so'zida turish, qat'iylik demakdir. Adolatli kishi sofdil, ko'ngli xotirjam, xavf-xatar, kulfatdan uzoq bo'ladi, odamlarning ishonchini qozonadi. Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo'lish uchun adolatli bo'lish zarur. Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda namoyon bo'ladigan fazilatdir. Adolatli kishi yaxshi xulqli odam hisoblanadi. Bunday odam o'ziga ravo ko'rmagan biror ishni boshqaga ravo ko'rmaydi. Adolatlilik va insoniylik kishini yomon ishlardan saqlash bilan birga boshqalarni ham xatoliklardan asrash, yaxshi yo'lga solish uchun zarurdir. Adolatli kishi boshqa birovga yoki jonivorlarga ozor bermaydi, zulm qilmaydi. Aql idrok bilan ish qiladi. O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezoni bilan baholanadi. Adolatli muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo'lish, har bir o'qituvchining sharafli burchidir. Bunda muallimning ishchanlik va axloqiy fazilatlari o'z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshilik qilish fazilati bilan chambarchas bog'liq. Adolat bo'lmasa, yaxshilik bo'lmaydi. Shuningdek yaxshiliksiz adolat ham bo'lmaydi. Pedagogik odob nuqtayi nazaridan adolatlilik, bu, ta'lim-tarbiya jarayonini normal amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagoglik ishida adolatli bo'lish bu o'quvchining ishonchini qozonish-dir. Buning uchun esa bolaning qalbidagini, dilidagini bilmoq, tushunmoq kerak.

O'qituvchining adolatliligi bolaning bilimini baholashda ko'proq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'quvchining bilimi besh ballik tizim asosida baholanadi. Dastur materialini to'liq o'zlashtirgan o'quvchiga «besh» baho qo'yiladi, mutlaqo bilmagan

bolaga «ikki» baho qo'yiladi. Ma'lumki, bolalarning bilimini o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari bir xil emas. Masalan, zehni o'tkir o'quvchi dars materialini hech qiynalmay, birpasda o'zlashtirib olishi mumkin. Ikkinchi bola esa buning uchun ko'p mehnat qilishi, intilishi kerak bo'ladi. Muallim ana shu holatni e'tiborga olmay ish tutsa, o'quvchiga nisbatan adolatsizlikka yo'l qo'ygan bo'ladi, uning qo'ygan bahosi ayrim bolalarni olg'a intilishga da'vat etmasligi mumkin. Zehni o'tkir bo'lgani uchun mehnat qilmay, kuch sarflamay yuqori baho olish bolaning axloqiga salbiy ta'sir etib, aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ayrim zehni o'tkir bolalar dars jarayonida o'qituvchining fikrlarini to'liq o'zlashtirib oladi va shu bilan cheklanadi. Uyda dars tayyorlamaydi. Natijada uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi. Va aksincha, intiluvchi, harakat qiluvchi bolaga bahoni past qo'yish ham unda o'z qobiliyati va kuchlariga, yaxshi o'qiy olishiga ishonmaslik tuyg'usini vujudga keltiradi.

Bolaning bilimini baholashda muallimning adolatliligini o'quvchilar ham o'zlaricha muhokama qilib, baholab boradilar. O'qituvchi o'qitish jarayonida boladagi o'zgarishlarni, yutuqlarni payqab, rag'batlantirib, uni ruhlantirib borishi kerak. Ayrim muallimlar ilg'or o'quvchining bilim o'zlashtirish darajasiga qarab boshqa o'quvchiga ham baho qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilar bilimini baholashda adolatli bo'lish uchun har bir bolaning bilim o'zlashtirishga sarflangan kuch-g'ayrati, intilishlarini hisobga olishi kerak.

O'quvchining xulqini baholashda ham muallimdan adolatli bo'lish talab etiladi. Agar muallim bolaning xulqini, xatti-harakatlarini baholashda shu xatti-harakatlarga sabab bo'lgan motivlarni e'tiborga olmasa, adolatsizlikka yo'l qo'yadi. O'qituvchining bolaga nisbatan adolatsiz xatti-harakati, munosabati bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bola bilan bo'lgan muomala-munosabatlarda uning taqdiriga nisbatan loqaydlik, unga o'rinsiz baqirish, jahil qilish kabilar salbiy oqibatlarga olib keladi. O'qituvchining adolatsizligi bolaning qalbini jarohatlaydi, maktabning sha'niga putur yetkazadi, kattalarga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun ham o'qituvchining har bir xatti-harakati, amaliy ishlarida adolatlilik namunasi bo'lmog'i kerak.

O'qituvchining ma'naviy qiyofasi (Rostgo'yligi, halolligi, pokligi)-o'qituvchining muhim fazilati, ma'naviy boyligi hisoblanadi. O'qituvchining ma'naviy boyligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishiga xizmat qilishi zarur.

O‘qituvchi odobida halollik fazilati pedagoglik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi odobida adolatlilik muallimning obyektivligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (insoniyligi, prinsipialligi, yaxshiligi)da, o‘quvchilar xulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimini baholashda namoyon bo‘ladi. Demak, adolatlilik bir tomondan o‘quvchilarga o‘tkazilgan tarbiyaviy ta’sirni baholashning mezoni hisoblanadi. Muallimning o‘quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo‘lgan munosabati manmanlikdan, noxolislik, o‘zboshimchalikdan xoli bo‘lishi lozim. Shundagina u adolatli hisoblanadi. Muallimlik ishini o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimini, xulqini baholaydi. Yaxshi ishlarini rag‘batlantiradi, nojo‘ya xatti-harakatlari, sho‘xliklari uchun tanbeh beradi. Albatta, muallimning fikri, mulohazalari, baholarida nisbiylik, subyektivlik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to‘g‘ri munosabatda bo‘la olmasligi mumkin. Lekin o‘qituvchi hammaga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, bolalarning kelajigi, taqdiri to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barcha o‘quvchilarning ishonchi komil bo‘lmog‘i darkor. O‘quvchilarda muallim «yoqtiradigan», «yoqtirmaydigan» bolalar bor degan fikr tug‘ilmasligi kerak.

O‘quvchining savollarini, javobini, ba’zan juda g‘alati bo‘lib tuyuladigan mulohazalarini diqqat bilan tinglash, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, maslahatlar berish, javobini odilona baholash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘qituvchi bolaning mustaqil ijodiy fikrlarini, to‘g‘ri javoblarini ma’qullashi, qo‘llab-quvvatlashi, rag‘batlantirib borishi lozim. Bolaning javobi noto‘g‘ri, fikrlari chalkash, xato bo‘lsa, muallim buni o‘quvchiga yetarli asoslar bilan isbotlab ko‘rsatishi kerak. U o‘z obro‘sini pesh qilib, «men shunday dedimmi, demak, shunday» deb turib olmasligi, balki o‘z fikrini faktlar, ilmiy dalillar bilan isbotlashi talab etiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Takt va pedagogik takt mohiyati nimada?
2. Pedagogik odob va pedagogik nazokatning o‘ziga xosliklariga tavsif bering.
3. O‘qituvchining axloqiy fazilatlari mohiyatini ochib bering.

42-MAVZU. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Pedagogik texnika haqida tushuncha. O'qituvchi-pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Pedagogik texnika – bu pedagogik mahoratning tarkibiy qismidan biri bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi o'z organizmini, o'z ichki tuyg'ularini, hissiyotini, ruhiyatini boshqarishidir.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida o'z organizmini, gavda harakatlarini boshqarishiga yuz muskullari harakatini hamda gavda harakatlarini boshqarish, o'z hissiyotini boshqarishiga o'z kayfiyatini, xursandchiligi yoki xafaligini boshqarishi, o'z ruhiyatini boshqarishiga o'z xotirasini, xayolini, diqqat va aqlini boshqarishi kiradi. Zamonaviy o'qituvchi o'z mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi, zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, pedagogik tizimni loyihalay olishi,ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi, pedagogika-psixologiya fanlari yutuqlari natijalarini amalda qo'llay olishi, mutafakkirlarning merosidan keng foydalanishi, mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanishi, o'qitadigan fani bo'yicha avtomatlashtirilgan dasturlar paketini yaratishi zarur. Zamonaviy o'qituvchining fazilatlari quyidagilar:

O'qituvchi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar olib borilayotgan islohotlar mohiyatini anglab, o'quvchiga to'g'ri ma'lumotlarni berishi: ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi;

O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi;

Pedagogika va psixologiya fanlari asoslari bo'yicha bilim ko'nikma malakaga ega bo'lishi;

Axborot texnologiyalarini qo'llay olishi; ijodkor, tashabbuskor bo'lishi yuqori darajada mahoratli bo'lishi va boshqalar.

Pedagogik san'at vaziyat bilan bog'liq. Bu yerda har gal hamma narsa yangidan sodir bo'lganday tuyuladi. Binobarin, kishi o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rejalashtirishi kerak. Pedagogning mehnati behad izlanishlardan iborat.

Pedagogik san'at – bu qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, faqat farosat bilan amalga oshiriladigan ishdir, degan taassurot tug'iladi. Biz mohir

pedagog - o'qituvchilarning muvaffaqiyat bilan ta'sir usullaridan foydalana olishini, turli amaliy pedagogik vazifalarni mohirona qo'yishi va hal etishini ko'ramiz. Bunda maxsus ko'nikma asosiy rol o'ynaydi, ya'ni: o'quvchilarni bilish faoliyatiga jadal jalb etishi, savollar qo'ya olishi, jamoa va alohida shaxs bilan muloqoti, kuzatmalar olib borishi, jamoani uyushtira olishi, o'z kayfiyatini, ovozini, mimika, xatti-harakatlarini boshqara olishi namoyon bo'ladi. Aynan pedagogik texnika o'qituvchining ichki tuyg'ulari va tashqi qiyofasi uyg'un bo'lishiga yordam beradi. Pedagogning mahorati uning ichki madaniyati va pedagogik tashqi ma'nodorligida aks etadi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika, pantomimika. O'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, 1/2 foiz o'quv materialini idrok qilish va o'zlashtirishda o'qituvchi nutqiga va uning so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. Bolalar o'qituvchining gapini, nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo o'qituvchi so'zlarni noto'g'ri talaffuz etsa, o'quvchilar uning ustidan kulib, masxara qilib yuradilar, lekin past tonda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida qichqirib so'zlashish o'quvchilarni bezdiradi, charchatadi.

O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi, o'qituvchilarning fikrlari o'quvchilar ongiga tez yetib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi. O'quvchilar bunday o'qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, diktorlar Qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov, O'ktam Jobirov, Rahmatilla Mirzayev, Abdimo'min O'tbosarov, O'tkir Siddiqovlarning xalq qalbidan o'rin olganliklari ham bejiz emas. Shuning uchun o'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi, tembri, harakatchanligi, diksiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda, biz tovush hajmini tushunamiz. Uning chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past tonda so'zlashish idrokni bo'shashtiradi va susaytiradi. Tembr-tovushning go'zalligi,

chiroyliligidir. O'qituvchi tovush diapozonini, uning tembri bilan bog'lab ishlasa gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga tortadi va materiallar yaxshi idrok qilinadi. O'qituvchining ovoz diksiyasi so'zlari aniq, to'g'ri, eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

O'quvchi materiallarni aniq, to'g'ri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir daqiqada 120, inglizlar 120 dan 150 gacha, fransuzlar 110 so'zni talaffuz qilar ekanlar. O'rtacha, hammaga tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi 5-6-sinflarda 60 so'zni 10-11-sinflarda 75-80 so'zni talaffuz etsa, talabga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi nutqini lo'nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo'ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur. O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalar ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi- tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'quvchi mashg'ulotlarini samarali va mazmunli o'tmish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika – bu o'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar o'qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «uqib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quvchi mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchi-tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, nutq, munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishonch, ma'qullash, taqiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin.

Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, ko'z, yuz ko'rinishi ishtirok etadi. Ko'z, qosh, yuz o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa, o'qituvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan, o'quvchi-tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. Shuni ham alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchilarga yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Pantomimika – bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. O'qituvchi darsda o'quvchi ma'lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chiza olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalash lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining jestlari ma'noli, ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor. Masalan: keraksiz hollarda qo'llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uyoq-buyoqqa tashlash va h.k. Bunday holatlar o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quvchi predmetiga, o'qituvchiga nisbatan hurmasizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi sinfda yurgan paytida faqat oldin va orqaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish o'quvchilar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo'lmagan fikrlar aytilsa ham bo'ladi. Chunki bu vaqtda o'quvchilar bir oz erkin holatda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z xatti-harakatini idora qilishi tizimida o'z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olish qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Bir adib aytganidek, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalansin» va o'qisin.

Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi.

O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. «Pedagogik texnika» tushunchasi ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: Pedagogning o'z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyati; o'z organizmidan (mimika, pantomimika) foydalana olish; o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqarish (psixik zo'riqishni oldini olish, ijodiy holatni vujudga keltirish); ijtimoiy-persepektiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, ijodiy tasavvur); nutq texnikasi (nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, to'g'ri talaffuz, savodli nutq). O'qituvchining shaxsga va jamoaga ta'sir eta olish qobiliyati va u ta'lim va tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi, ya'ni didaktik, tashkilotchilik, loyihalash, kommunikativ qobiliyatlar; talablarning texnologik usullarini qo'ya olish; pedagogik muloqotni boshqarish, jamoa ijodiy ishlarni tashkil eta olish va hokazo. O'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Bolalar bilan muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Noverbal muloqot axborot va tuyg'ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashishdir. Noverbal muloqotga ba'zan «badan tili» sifatida qaraladi, biroq bunday qarashlar xato bo'lib, biz noverbal signallardan aytilganlarni ta'kidlash, kuchaytirish yoki kengaytirish maqsadida foydalanamiz. Yuz ifodalari, tana holatlari, ishoralar so'zlarga «qo'shimcha» sifatida, shuningdek hech narsa aytilmagan bo'lsa, ma'no uzatish maqsadida ishlatiladi.

Pol Ekman yuz ifodasini belgilaydigan muskullar harakatini tavsiflab chiqdi va uni «Yuzifodalarini kodlashtirish tizimi» deb atadi. Uning tadqiqotiga ko'ra, yuzdagi olti asosiy emotsiya (baxt, achinish, jahl, nafrat, qo'rqinch, hayrat) barcha odamlarda bir xildir va tug'madir.

Pedagogik texnikani egallash uchun, avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika (bolashunoslik), psixologiya (ruhshunoslik) fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. Har bir o'qituvchi, har bir pedagog o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish orqali

qo'lga kiritadi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha leksiyalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab ko'nikma hosil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib qoladi.Har bir pedagogning individual dasturini ishlab chiqishdir. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h.k. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi. Chunki ushbu ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydiganini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual - shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi o'rin tutadi deb aytish mumkin. O'z-o'zini boshqarishning asosiy usullari quyidagilar: xayrixohlik va optimizmni tarbiyalash, o'z harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini, harakatlar, nutq, nafas olish tempini yo'lga qo'yish); faoliyatini taqsimlash (mehnatterapiya, musiqaterapiya, biblioterapiyalar, yumor, taqlid o'yin); o'z-o'zini ishontirish; doimiy ravishda autogen mashqlar (psixofizik mashq); relaksatsiya seanslarini (jismoniy va ruhiy dam olish) o'tkazish.

Pedagogik mahorat nazariyasini o'rganuvchi va tatbiq qiluvchi olimlarning fikrlariga qaraganda, pedagogik texnika malakalari ikki

guruhga bo'linadi: Malakali pedagogning o'z xatti-harakatini idora qilishi bilan bog'liqdir. Bunga pedagogning mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyotini, kayfiyatini boshqarishini, aktyorlik va rejissyorlik mahorati, nutq madaniyati kiradi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhdagi malakalariga ayrim o'quvchilarga va jamoaga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, talablar qo'ya olishi, jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, o'quvchilarni tarbiyalash o'qitishdagi kasbkorlik malakalari kiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Pedagogik texnika va texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlar o'tkazishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?

2. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari haqida nimalarni bilasiz?

3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari haqida to'liq ma'lumot bering.

4.Noverbal muloqot deganda nimani tushunasiz?

43-MAVZU. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI

Nutq haqida tushuncha. Muloqot, muomala, munosabat – nutq asosida amalga oshiriladi. Nutq til yordamida munosabat qilish jarayonidir.

Pedagogik nutq – yo'naltirilgan, ta'sirchan hamda ifodali, izchil, mantiqiy nutqqa bo'linadi. Pedagogik nutqda nutq leksikasi, uslubi, talaffuz etilishi mavjud. Pedagogik jarayonda o'qituvchi nutq orqali o'quvchiga ta'sir qiladi, uni ishontiradi, uni qiziqtiradi, unga tushuntiradi.

Bo'lajak o'qituvchini takomillashtirish. Nutqi takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin: o'z-o'zini nazorat va nutq madaniyatini rivojlantirish; nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish. O'z nutq inpotensiyalarini kuzatish: u jonli, xilma-xil, hissiy bo'yoqlimi yoki bir xil monotonmi? Nutq tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchisiz? Ularda qanday kayfiyat yaratmoqchisiz? Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritm talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o'z taassurotlaringizni qo'shgan holda qayta to'ldiring.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchida qator maxsus qobiliyatlar rivojlanishini talab qiladi: ijtimoiy-perseptiv qobiliyati, ijtimoiy tasavvur qobiliyati, o'zini boshqara olish qobiliyati, muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati, irodaviy ta'sir ko'rsatish, ishontira olish qobiliyati. Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi kishining umumiy ruhiy jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ovoz. Ba'zilarga tovush tug'ma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin. O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada? Avvalo, bu tovushning kuchliligi hamda uning kuchli nutq apparati organlarining aktivligiga bog'liq.

Tovushning uchuvchanligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushni yengil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon - tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr - tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqligi, o'ziga xosligi. O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so'zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo'lib qolsa, qisqa va sekin gapirishi kerak.Dars jadvali *qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq* apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko'p stajli, ya'ni tajribasi ko'p o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Diksiya - so'z, bo'g'in, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar boshqariladi. Ritmika – ayrim bo'g'inlarni aytishdagi to'liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'ziga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

Nutq tezligi o'qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq bo'ladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha

bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 so'z atrofida, ingilizlarda 120-150 so'zgacha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6-sinflarda o'qituvchi minutiga 60 so'z, 9-11 sinflarda 75 so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi. Mavzuning murakkab qismini o'qituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Qoida, qonunlar aytganda, xulosada nutq sekinlashadi.

Nutq texnikasi. O'quv vaqtining ko'p qismi (1/4, 1/2) da o'qituvchining nutqi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushunishi o'qituvchi nutqi mukammalligi bilan bog'liqdir.Ba'zilar tovush va uning tembri tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini aniqlamoqda.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha ishlashning teatr pedagogika tajribasi asosida nutqiy nafas, tovush, diksiya, ritmika kabi komplekslarini ishlash ko'zda tutiladi.

Nafas. Nafas organizmga hayot ta'minlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat qiladi. Nutqiy nafas fonosiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo'lib, nafas qiyinchilik tug'dirmaydi. Darsda o'qituvchi ko'p so'zlagan, ma'ruza o'qigan vaqtlarda o'zgarmagan nafas hamda o'rganmagan nafas qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, charchab qolish holatlari bo'lishi mumkin.

Nafas jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab nafasning 4 ta tipi ajratiladi: yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirok etadi. Bu kuchsiz, yuqori nafas bo'lib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi; ko'krak orqali nafasni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi. Diafragma kam harkatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz; diafragmali nafas - ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga bo'ladi; diafragma va qovurg'a orqali nafas - diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Yosh o'qituvchilar uchun nafas olish texnikasi ustida qisqacha to'xtalishga to'g'ri keladi: Yuqori nafas – yelkalar va ko'krak qafasi muskullarining ko'tarilishi va tushishi orqali amalga oshadi. Bu kuchsiz, yuzaki nafas olishni paydo qiladi, bunda o'pkaning yuqori qismigina faol ishlaydi. Ko'krak qafasi bilan nafas olish - qovurg'a oraliqlari va muskullar orqali amalga oshadi. Bunda ko'krak qafasi hajmining ko'ndalang qismida o'zgarish bo'ladi. Diafragma harakatining kamligi tufayli, nafas olish yuzaki bo'ladi. Diafragma orqali nafas olish - ko'krak qafasi hajmini uzunasiga o'zgarishi natijasida diafragma qisqaradi, buning asosida

qovurg'alaro muskullarning qisqarishi kuzatiladi. Diafragma qovurg'a orqali nafas olish-diafragma hajmini ko'ndalang va uzunasiga qisqarishi qobirg'a oraliq amalga oshadi. Bu eng to'g'ri nafas olish bo'lib, hisoblanganligi uchun nutq nafasining asosini tashkil etadi.

O'qituvchilar orasida tabiatan yoqimli, chiroyli ovozli kishilar ko'p. Lekin ovoz qanchalik yoqimli bo'lmasin, yillar davomida maxsus mashqlarsiz buziladi, eskiradi, qariydi. Har bir kishining ovozi esa o'ziga xos jarangdor, kuchli va qattiq va h.k bo'ladi. Ovoz buzilishning to'rt sababi aniqlangan: Har kungi ovoz zo'riqishi tufayli; Ovoz apparatining zaifligi tufayli; Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik; Ovoz apparatidagi tug'ma zaiflik.

Ovoz apparatining zo'riqishi natijasida ovozning buzilishi o'qituvchilarda 50% tashkil etishi aniqlangan. Bu baland ovoz bilan gapirishning oqibatidir. Insonning ovoz apparati uch qismdan: generator, energetik va rezanator qismlardan iborat bo'ladi. Ovoz generatsiyasi -ovoz tugunchalari va og'iz bo'shlig'idagi to'siqlarda paydo bo'ladi, buning natijasida shovqinli tovushlar yuzaga keladi. Rezanator tizimida - halqum, burun-halqum, og'iz bo'shlig'i, nutq ritmi va dinamik rivojlanishi ta'minlanadi. energetik tizim tashqi nafas olish bilan bog'liq bo'lib, havo to'lqinlari va miqdorini tashkil etadi va tovushning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va nutqni shakllantirish yo'llari. O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Xususan, adabiyot, rasm, tarix o'qituvchilariga aktyorlik qobiliyati bo'lishi zarur. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni xarakterlayotganda aktyorlik, o'quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Ular aytilganlardan tashqari o'qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi-o'quvchilarning aql-idrokkina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish, ularga olimga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini to'liq berishga yordamlashadi. Shunday qilib, o'qituvchi yuqorida qayd etib o'tilgan pedagogik texnika ko'nikmalarini o'zida tarbiyalasa, u yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Yuqorida qayd qilib o'tilgan kasbkorlik malakalari o'qituvchining o'quv va maxsus fanlar bo'yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallashga intilish, o'z kasbiga qiziqish va burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

Pedagogik menejment bo'yicha olimlarning ta'kidlashicha, yuqorida qayd qilib va tasniflab o'tilgan pedagogik texnika malakalarini yakka holda emas, butun tarzda qo'llansa, kutilgan maqsadga erishiladi. Masalan, nutq texnikasini, his-tuyg'u, mimik, pantomimik malakalari bilan qo'shib olganda amalga oshirish bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatiga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual, psixik, fiziologik fazilatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatiga bog'liqdir. Shunday qilib, o'qituvchi-tarbiyachi o'zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirsa, nutq texnikasini egallashning imkoni bo'ladi va u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

Nutq tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda faqat uning gaprish va axborot berish jarayonigina emas, balki pedagog va o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi. O'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni kerakli kommunikativ sifatlarga mos bo'lishi kerak. Nutq bir necha normalarga mos bo'lishi kerak: zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga. Pedagog nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi. Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o'zining mantiqiyligi, ishonchligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi. Nutq funksiyalaridan biri – bilimni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi nutqining kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa bor. Nutq buni ta'minlashi yoki qiynlashtirishi mumkin. O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak. O'qituvchi nutqi ikkinchidan, o'quvchining samarali o'quv faoliyatini nutqi, avvalo, darsda samarali o'quv eshituvchini ta'minlashi kerak. O'quvchi o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. o'quv-biluv jarayonning samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha «jim o'tir», «o'tir», «tugat», «yop» kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatib o'quvchining javobini bo'ladi. «Har doimgidek hech narsa bilmaysan», «sen buni qayerdan ham tushunarding» kabi gaplarni aytadiki, bo'lar o'qituvchi o'quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga, nopedagogik vaziyatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Nutq – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatning mahsuldorligini ta'minlashdan iborat. Nutq o'quvchi – o'qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutqi impotensiyasi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'rquvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakterlariga ham bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutqning yana bir xususiyati uning improvizatsiya xarakterida ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglay turib, so'z va ifodalar birdan tutilayotganligini ko'radi. Shunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi bu haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Leksik madaniyat. Nutq madaniyati va uning asosiy elementlari. Nutq madaniyati tushunchasi ikki xildir:

1. Nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasi bo'lsa.

2. Tilshunoslik fanining bir bo'limi, ya'ni adabiy tilni yanada takomillashtirish, me'yorlash bilan shug'ullanuvchi sohadir. Demak, fikrni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan bayon qilishning bosh qoidalariga nutq madaniyati asoslari deyiladi.

Odamlar jamiyatda yashaydilar va aloqa inson hayotining ajralmas qismidir. Demak, ongsiz ongning rivojlanishi mumkin emas edi. Dastlab, bular sivilizatsiya paydo bo'lishi bilan asta-sekin yaxshilanishni boshlagan shov-shuvga o'xshash aloqalar. Bir xat paydo bo'ldi va nutq nafaqat og'zaki, balki yozma bo'lib qoldi, bu kelajak avlodlar uchun insoniyat yutuqlarini saqlab qolishga imkon berdi. Ushbu yodgorliklarni kuzatish va og'zaki nutq an'analarini rivojlantirish mumkin. Nutq

madaniyati va nutq madaniyati nima? Ularning me'yorlari qanday? Nutq madaniyatini o'zim o'rganishim mumkinmi? Barcha savollarga ushbu maqola javob beradi.

Nutq – bu odamlar o'rtasidagi og'zaki aloqa shakli. Bu bir tomondan fikrlarni shakllantirish va shakllantirishni, ikkinchi tomondan idrok va tushunishni o'z ichiga oladi.

Madaniyat bu ko'p ma'noga ega atama bo'lib, ko'plab fanlarni o'rganish obyekti hisoblanadi. Muloqot va nutqqa yaqin bo'lgan ma'no ham mavjud. Bu og'zaki signallardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan madaniyatning bir qismi bo'lib, bu og'zaki va yozma til, uning etnik kelib chiqishi, funksional va ijtimoiy navlarini anglatadi.

Nutq - bu insonning hayoti, shuning uchun u yozma va og'zaki ravishda to'g'ri va chiroyli gapira olishi kerak.

Shunday qilib, nutq madaniyati va nutq madaniyati bu til normalariga ega bo'lish, turli xil sharoitlarda uning ifodali vositalaridan foydalanish qobiliyatidir.

Notiqlarning millatidan qat'iy nazar, nutq madaniyati asta-sekin rivojlandi. Vaqt o'tishi bilan mavjud til bilimlarini tizimlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Shunday qilib, tilshunoslikda nutq madaniyati deb nomlangan bo'lim paydo bo'ldi. Ushbu bo'limda tilni yaxshilash uchun uni normallashtirish muammolari ko'rib chiqiladi.

Nutq madaniyati va nutq madaniyati tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida bosqichma-bosqich rivojlandi. Ular tilda sodir bo'lgan barcha o'zgarishlarni aks ettiradi. Birinchi marta ular yozma nutq normalarini o'rnatish to'g'risida o'ylashni XVIII asrda boshladilar, shunda jamiyat yozuvning yagona qoidalarining yo'qligi aloqani qiyinlashtiradi. 1748 yilda V.K. Trediakovskiy o'z asarida rus imlosi haqida yozgan edi: "Eski va yangi imlo haqida begona va rus o'rtasidagi suhbat".

Ammo ona tili grammatikasi va stilistikasining asoslarini M.V.Lermontov «Rus grammatikasi» va «Ritorika» (1755, 1743-1748) asarlarida qo'ygan.

XIX asrda N.V. Koshanskiy, A.F. Merzlyakov va A.I. Galich nutq madaniyati tadqiqotlari kutubxonasini o'zlarining ritorik asarlari bilan to'ldirdilar.

Inqilobdan oldingi davr tilshunoslari til qoidalarini to'g'ri belgilashning muhimligini tushunishgan. 1911-yilda V.I. Chernishevskiyning "Rus tilidagi soflik va to'g'riligi. Rus stilistik grammatikasi tajribasi" kitobida rus tilining normalarini tahlil qiladi.

Inqilobdan keyingi davr nutq madaniyatining belgilangan me'yorlari silkinib ketgan vaqt bo'ldi. So'ngra ommaviy tadbirlar nutqlari sodda va jarangli va dialektik iboralar bilan to'ldirilgan odamlar tomonidan amalga oshirildi. Agar 1920-yillarda sovet ziyolilarining qatlami shakllanmagan bo'lsa, adabiy til xavf ostida qolishi mumkin edi. U rus tilining sofligi uchun kurashdi va unga ko'ra, "ommaviylar" proletar madaniyatini o'zlashtirishlari kerak edi va mosłama o'rnatildi. Shu bilan birga, "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari paydo bo'ladi. Ushbu atamalar avval yangi, isloh qilingan tilga nisbatan qo'llaniladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik texnika mohiyati nima?
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini ayting.
3. Yosh o'qituvchilar faoliyatida qanday tipik xatolar namoyon bo'ladi?
4. Pedagogik texnika mashg'ulotlari qay usulda o'tkazilishi mumkin?

44-MAVZU. O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY TASHKIL ETISH

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. Mamlakatimiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'quvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi, mustaqil o'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Har qanday mehnatning muvaffaqiyati va samarasi uni tashkil etishga, bu mehnatni uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga, faoliyatni amalga oshirish yo'llariga bog'liq. Demak, o'qituvchi mehnatini samarasi ham o'qituvchi o'z ishini qanday tashkil etishiga hamda bunga ta'sir etadigan shart-sharoitlarni qandayligiga bog'liq. Har qanday mehnatni bajaruvchi shaxs o'qituvchi ham o'zi ishni tashkil etishga o'ziga ma'qul bo'ladigan, o'zi yaxshi egallagan mahorat bilan

bajara oladigan uslublarni tanlaydi. Biz ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida yashamoqdamiz. Demak, o'z ishimizni tashkil etishimizda ham fan-texnika yutuqlariga asosan kerak bo'ladi. Bu degani o'qituvchi ham, o'z mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi demakdir.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda, pedagogik jarayonni boshqarish uchun pedagogika va psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishini ijodiy tashkil etib yangiliklar yaratish tushuniladi. O'qituvchi mehnati uning vaqti bilan bog'liq bu ishning muvaffaqiyati vaqtdan unumli foydalanish o'zining imkoniyatlarini to'la hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida o'zini namoyish etishga va o'zining kimligini, qanday ekanini, nimalarga qodir ekanini tasdiqlash bilan bog'liq. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish birinchi navbatda, o'zinng ijodiy imkoniyatlariga ishonish demakdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini to'la tasavvur etishi kerak, uning mexanizmini, qonuniyatlarini, bolani bilish imkoniyatlarni yaxshi aniqlashi kerak. Mehnat shaxsining bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali faoliyati bo'lib, u aqliy, jismoniy kuch, zo'r g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnati – ijodiy kasblar turiga kiradi. Chunki u shu mehnati orqali har tomonlama yetuk bo'lgan komil iisonni tarbiyalaydi. Pedagogik mehnat predmeti – o'quvchi shaxsidir. Pedagogik mehnat maqsadi - har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonni tarbiyalashdir.

Pedagogik mehnatning natijasi o'quvchilarning mustaqil ishlay olishi, darslarda o'z fikrini bildira olishi, isbotlay olishi, tahlil qila olishi. Shu xislatlarni o'z o'quvchilarida hosil qilishi uning mahoratini belgilab beradi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda namoyon bo'ladigan 3 ta aniq belgilar: Vaqtdan imkon qadar samarali foydalana bilishi, uni tashkil etishi; Mehnat va dam olish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish, uni boshqarish; Barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda o'quvchi mehnat qilishi uchun uning sog'lig'i va har tomonlama g'amxo'rlik qilish.

Mehnatni ilmiy tashkil etish - bu faoliyatni ichki va tashqi tomondan tartibga keltirish va yo'naltirish demakdir. U o'z navbatida quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

- vaqtdan unumli foydalanish va uni maqsadli tejash;
- mehnat va dam olishni unumli tashkil etish va foydalanish;
- mehnat jarayonida ishtirokchilarning sog'ligi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish;

Shuningdek, mehnatni ilmiy tashkil etish prinsiplarga egaki, ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Faoliyatni tashkil etish prinsipi:

- faoliyat maqsadi va vazifalarini aniqlash, belgilash;
- faoliyatning maqsadga muvofiq shakl va usullarini tanlash;
- rejalashtirish;
- normalash(me'yorlash).

Uyushtirish o'lchovlari prinsipi:

- *hisob-kitob*;
- nazorat;
- istiqbolni ko'zlash;

Umum tashkiliy belgilash prinsipi:

- natija;
- umumlashtirish;
- rag'batlantirish;

Mehnatni ilmiy tashkil etishning mazkur qonuniyat va prinsiplari o'z navbatida pedagogik faoliyatga ham ta'luqlidir.

O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal yuqori unum beradigan kun tartibini topa olishi kerak. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish talablari R.Rasulova tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tavsiyasiga ko'ra, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish, muhim talablarni bu asosiy rejalashtirishi, faoliyatni uyushtirish unda qatnashayotganlar kuchini yagona maqsadga bo'ysundirish, rag'batlantirish, operativ nazoratni hisobga olish. Shuni rejalashtirishdagi asosiy masala uyushtiradigan barcha faoliyat turlarini unda qatnashayotgan jamoa a'zolarni umumiy pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan holda, bunda yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarni inobatga olish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, o'qituvchining kun tartibini uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asbobidir, desak xato bo'lmaydi. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, salomatligi yo'qolib boradi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, ish qobiliyati yo'qoladi, oqibatda sifati pasayadi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini ilmiy tashkil etishi vazifasini hal etishga qo'yilgan qadam bo'ladi. Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etilishi shartlaridan yana biri, ish o'rnini tartibga solish va mehnat sharoitini tashkil etishdir. O'qituvchining ish joyi ish jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumining

yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti tushunchasi kompleks tushuncha. Mehnatni ilmiy tashkil etish tajribasiga mehnat sharoiti deganda odamning mehnat qilayotgan joyi, uning sharoiti, ko'zda tutiladi. Yana unga psixofiziologik, ijtimoiy, psixologik va estetik omillar ham qo'shiladi.

Pedagogik mehnatning samarasi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra bilishda va aniqlay olishdadir. Shundagina shuni ilmiy tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning faoliyat uslubini belgilash. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda texnikadan vosita sifatida samarali foydalanish tushuniladi. Bu tamoyil ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnika va texnik vositalar yig'indisi ko'zda tutiladi.

Reja ta'lim-tarbiya faoliyatini tartibga solish, uning model yaratish, tayanch sxemalarni topish masalalaridan tashkil topadi. Shular aniqlansa, o'qishda rivojlanish, tarbiyalash jarayoni yengillashadi.

Ishni rejalashtirmasdan turib, shaxsni va jamoani ijtimoiy jihatdan samarali rivojlantirib bo'lmaydi, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish tamoyili o'qituvchi ishni muntazam va rejali kuzatib borish shundan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, muhimlarini ajratib olish ko'zda tutiladi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazorat esa obyektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralikni talab qiladi.

Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari va yo'nalishlari. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Maqbullik tamoyili. Ushbu tamoyil fan bo'yicha aniq o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun maksimal darajadagi qulay sharoit yaratishda ifodalanadi. Jarayonni tashkil etish uchun ta'lim ishtirokchilari oldindan mashg'ulot bo'ladidan vaqt va joyi hamda dars uchun kerakli vositalar bo'yicha ogoh etiladilar. O'qituvchi oldindan o'quv xonasini, ko'rgazmali qurollarni tayyorlab qo'yadi.

2. Insonparvarlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil o'quvchiga nisbatan ta'sir etishda salbiy holatlardan holi bo'lish bilan bog'liq. Bu yerda o'quvchilar bilan muloqotda ishonish, uning shaxsini hurmat qilish, uning ijobiy hissiyotiga tayanishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida o'quvchini biror bir masalani hal etishda uni zo'rlamaslik, unga nisbatan kuch ishlatmaslikni talab etadi.

3. Ta'limni tashkil etishda kuch, vosita va vaqtni tejash tamoyili. Ushbu tamoyilga amal qilish mashg'ulotlarga tizimli tayyorgarlik ko'rishni, o'quvchilarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni talab etadi.

4. Ish topshiriqlarini aniqlashtirish va individuallashtirish tamoyili. Ta'lim muassasasida o'qituvchi o'qitishni tashkil etar ekan, birinchi navbatda, har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlab, tabaqalashgan yondashuv asosida hammadan bir xil darajada yoki bir xil usulda emas, balki turli-tuman metodlar bilan talab qilmog'i va tushuntirmog'i lozim.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish fan va texnika taraqqiyotining obyektiv ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Chunki, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar ijtimoiy voqelik bilan hamnafas bo'lib, har bir yangilik, o'zgarishlar bilan yaqindan tanishib borishlari, amaliyotga ularni tadbiq etib boradilar.

Pedagogik mehnat o'z navbatida ikki tomonlama, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari mehnatning bu turi aniq vaqt birligi bilan chegaralanmaydi ham. Demak, o'qituvchi faqatgina dars davomidagina mehnat qilib qolmasdan, balki darsdan tashqari vaqtlarda, dam olish daqiqalarida faoliyatini davom ettiradilar.

Hozirgi zamon maktablarida o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish o'ta muhimdir. Chunki, undan ko'zlanadigan maqsad maktablardagi o'quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishdan iborat. U o'z navbatida quyidagi omillarga egadir:

- o'qituvchining ijodkorligi, taraqqiyot darajasi;
- pedagogik mahoratni takomillashtirish;
- o'z stida ishlash va malakasini oshirish;
- maktabning moddiy – texnik ta'minoti;
- pedagogik mehnatni rag'batlantirilishi;
- mehnatni va dam olishni to'g'ri uyushtirish (rejalashtirish, tartiblash).

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har bir o'qituvchi pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish bo'yicha quyidagilarni bilishlari zarur:

- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishlishi nazariyasi va amliyoti muammosining dolzarbligi;
- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning hozirgi kundagi darajasi;
- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning kelajakdagi istiqboli.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda tomonlar, xususan o'qituvchi va maktab ma'muriyatining majburiyatlari ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchining majburiyatlari:

- har bir dars va tarbiyaviy tadbirga puxta tayyorlanish;
- ish tartibiga qat'iy rioya qilish;
- me'yoriy hujjatlarni o'z vaqtida yuritish;
- maktabdagi har bir tadbirlarga o'z vaqtida qatnashish;
- texnika vositalari, ko'rgazmalardan unumli foydalanish;
- ma'muriyatning topshiriqlarini vaqtida bajarilishi.

Ma'muriyatning majburiyatlari:

- o'quv xonalarini zaruriy vositalar bilan ta'minlash;
- mashg'ulotlarni jadval asosida o'tilishligini ta'minlash;
- topshiriqlarning aniqligi;
- dam olishni uyushtirish;
- o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlariga sharoit yaratish;
- pedagogik faoliyatni rag'batlantirish.

Ma'lumki, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish har bir o'qituvchidan o'z o'z shaxsiy mehnatini ta'minlashga ham ega bo'lishni taqozo etadi. Shaxsiy mehnat o'qituvchining, asosan, maktabdagi faoliyatidan keyingi mehnat turi bo'lib, unga uy yumushlari (dam, olish, madaniy hordiq, bolalar tarbiyasi, tamorqadagi ishlar kabi) kiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, shaxsiy mehnatning to'g'ri tashkil etilmasligi o'z navbatida pedagogik faoliyatda muvafaqqiyatsizlikni yuzaga keltiradi. Bu o'rinda aytib o'tish kerakki, shaxsiy mehnat ham o'z me'yorida bo'lmog'i kerak. Me'yorga ega bo'lmagan yoki unga amal qilmaslik har qanday kishida charchash, toliqishga olib keladi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilar bu masalaga alohida ahamiyat berishlari zarur. Chunki, pedagogik faoliyat aqliy zo'r berishni talab etadi. Aqliy yoki jismoniy jihatdan toliqqan o'qituvchi dars jarayonida o'zini horg'in his qiladi. Natijada darsni shunchaki holatda tashkil qiladi. Buni esa kechirib bo'lmaydigan hol hisoblanadi. Vaxolanki, dars jarayoni har bir o'qituvchidan teran fikrlash, dars mavzusida ilgari surilgan g'oya mazmuni, qo'yilayotgan muammoning yechimini aniqlashda faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ma'lum muddat davomida dam olishi, kelgusi kundagi pedagogik faoliyat uchun kuch ham to'plamog'i zarur.

Kitob bilan ishlash pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, tajribali o'qituvchi har bir darsga tayyorgarlik ko'rar ekan,

faqatgina darslikning o'zi bilangina kifoyalanmasdan, balki mashg'ulot materialining mazmunini boyitish, o'quvchilarga keng tushuncha, ma'lumotlar berish maqsadida ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblarni ham mutoala qiladilar. O'z-o'zidan ravshanki, bunday o'qituvchilarning har bir dars mazmunli, qiziqarli bo'lib, undan o'quvchilarda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Qo'shimcha manbalar ustida ishlash esa birmuncha vaqtni talab etadi. Kitob bilan ishlash texnikasiga ega bo'lish ortiqcha vaqt sarflanishining oldini olishga qo'l keladi. Kitob bilan ishlash texnikasi – tegishli kitobni tanlash, ularning bibliografiyasini tuzishni taqazo etadi.

Pedagogik faoliyat jaryonida o'qituvchi har bir dars mashg'uloti uchun ishlanma, ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallar, biluv topshiriqlari, shuningdek, yozma ishlarni ham tekshirish va baholash, maktabdagi darsdan tashqari turli tadbirlarda ishtirok etish, bo'sh o'zlashtiruvchi, tarbiyaga muhtoj bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash kabilar bilan ham shug'ullanadi. Pedagogik mehnatning ilmiy tashkil etilishi esa yuqoridagi ishlarning tartiblanishiga, belgilangan vaqtda amalga oshirilishiga va nihoyat o'qituvchining vaqt budjetini oqilona taqsimlashga imkoniyat tug'diradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLAR.

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda rejalashtirish qanday vazifani bajaradi?
4. O'qituvchi vaqt budjeti taqsimoti qanday amalga oshiriladi?
5. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy tamoyillarini izohlang.

45-MAVZU. O'Z- O'ZINI TARBIYALASH VA O'Z USTIDA ISHLASH

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Refleksiya (lotincha – reflexsio- orqaga qaytish) ma'nosini anglatadi. "Insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir.inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin

xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatidir" deb ta'rif berilgan falsafiy ensiklopediyada.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan. Va insonning o'z onggida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritish jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan.

Dekart, Suqrot, Platon, Loklar esa refleksiyani insonning o'z-o'zini bilishga nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyat deb qarashgan.

Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi faylasuflar refleksiyani insonni bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaraganlar.

Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan refleksiya turlari:

1. Intellektual refleksiya - muammoni fikrlash asosida ijobiy hal etishni belgilaydi.

2. Shaxsiy refleksiya-o'qituvchining nizoli pedagogik vaziyatlardan chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi

3. Kommunikativ refleksiya- muloqot jarayonida sheriklarinig o'zaro bir-birini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya – jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

Refleksiya – o'qituvchini o'z-o'zini anglashi, o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z tarbiyalanuvchilarining hamda o'z-o'zini takomillashtirishga zarur shart sharoitlar yaratish uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Rus olimlari Vulfov va Xarkinlar refleksiyani insonning o'z-o'zini anglashi, kasbiy refleksiya esa o'z-o'zini kasbiy faoliyati davomida anglashi, o'qituvchi mahoratida pedagogik Refleksiyani pedagogik kasbiy omilkorlikda o'z-o'zini anglashi deb ta'riflaydi. Vulfuv fikricha, kasbiy Refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagog kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan isbotlaydi va ixtiyoriy ravishda pedagogik mahorat zanjirini hosil qiladi. O'qituvchi pedagogik mahoratining xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy sifatlari mavjudmi yoki yo'qmi deb emas, balki ularning rivojlanishi, boyib borishi, kuchayishini inobatga olish zarur. Bilim ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina, u shakllanadi.

Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko'maklashadi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o'z-o'zini bilish jarayoni va o'z-o'zini anglash jarayonlari muhim o'rin tutadi. o'z-o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuq va natijalarini shunchaki qayd qilib boradi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan noaniq pozitsiyada turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda (interiorizasiya – tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi, faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsad aniqlanadi. Refleksiv "men" shakllanadi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib, belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy "men" va "ideal men" nisbatlanadi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zni kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishining ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Demak, o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiyani takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki BKMlarnig o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi.

Har qanday o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga juda kuchli intilishi bo'lsa ham o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarisiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarga erishish, o'qituvchining o'z ustida ishlashga

tayyorgarligi, uning o'z- o'zini tahlil qila olishi, o'z-o'zini taqqoslash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

Pedagogik tashxislash funksiyalari:

Tahliliy funksiyasi – o'quv tarbiya jarayonidagi yutuq va kamchiliklarning kelib chiqish sabab va oqibatlarini, ularni o'zaro bog'lanishlarini aniqlash va chora- tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Diagnostik funksiyasi – o'quvchini ta'lim olganligi, tarbiyalanganligi, rivojlanganligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Baholash funksiyasi – ma'muriyat tomonidan olib borilib alohida o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyatida erishilgan yutuq va kamchiliklarni sifat ko'rsatkichlarini miqdor jihatidan baholaydi.

Korreksion funksiyasi – o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'qituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni ta'minlaydi.

Orientasion funksiyasi – o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilishini ta'minlaydi

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo, o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zni o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Pedagogik vazifasi – faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta'rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo'llayotgan sodda va yasama usullarga e'tibor beradigan bo'lsak, yana ham muhimdir. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy xatti-harakat»ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'grisidagi fikrni tasdiqlay oladi.

Aslida esa irodani kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etishni tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o'qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o'quv, mehnat va boshqa faoliyatni amalga oshirishga xalaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi.

Eng avvalo, o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbati yuksak o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

Ma'lumki, insoniyatni kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o'z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy faktlarda ko'ramiz. Buyuk nemis pedagogi D. Disterverg har bir o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashni o'z oldiga sharafli vazifa qilib belgilashi lozim.

Rus pedagogi A.B.Lunacharskiy; «Pedagog o'zida insoniyat idealini shakllantirishi lozim» - degan edi.

Aynan insoniyatning go'zal fazilatlarini o'zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o'z ustida ishlash tufayli kundan kunga o'sib borishi mumkin.

A.S. Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida shunday degan edi. «Men pedagogik talantga ega edim. Pedagogikaga kutilmaganda kirib keldim va o'rgandim. Men o'z ishimning ustasi darajasida ko'tarildim, o'z ishimning ustasi darajasiga har bir intiluvchi pedagog erishishi mumkin.» Bunda unga yordam berishi, o'zi ustida ishlash asosiy rol o'ynaydi.

Otto Yulyevich Shimit umrining har bir daqiqasidan sermahsul foydalanadi. Yerning va sayyoralarning paydo bo'lishi nazariyasining asosi. U o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanib,inson imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. A.A Lyubishev, shunday degan, inson uchun yomon, bo'sh, ortiqcha vaqt bo'lishi mumkin emas. U o'z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo'rqmas edi.

K.D Ushinskiy o'z-o'zini tarbiyalash orqali quydagilarga erishdi:

1)xotirjamlik 2) so'zda ishonch va to'grilikka. 3) xatti-harakatga mulohaza bilan yondashish 4) qat'iylik 5) o'zi haqida sababsiz biror og;iz gapirmaslik. 6.) lozim narsalardangina foydalanish. 7) har kuni kechasi o'ziga o'zi hisobot berish. 8) biror marotaba maqtanmaslik.

Shuni ko'plab insonlar o'zining bebaho vaqtini bekorga o'tkazib yuboradi.

Inson o'z odatlarning bir xillik kun tartibi hukmronligi ta'siriga kirib, o'zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O'z-o'zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o'zining qobiliyatlarini namoyon etishga erishish mumkin. O'zini tarbiyalashning

psixologik sharoitlardan biri o‘z-o‘zidan norozilik bo‘lib, uni L.N. Tolstoy, «... Men telba, o‘zgalarga qizig‘i yo‘q, chidamsiz va bolalardek uyalchanman».

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalanadi:

O‘z-o‘zini bilish:

a) o‘zini kuzatish.

b) o‘z harakatlarini tahlil etishi.

v) o‘z-o‘zini sinashi.

g) o‘rtoqlarining fikrini tushuna olish

O‘ziga baho berish:

a) o‘zini kuzatish.

b) o‘ziga xarakteristika berish.

v) o‘z-o‘zini taqdirlash.

O‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O‘z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O‘z-o‘zini baholash o‘qituvchining, o‘z imkoniyatlarini baholashda, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan birga o‘z ustida tinmay ishlab, o‘zining g‘oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o‘stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi.

M.I.Kalinin o‘qituvchilarga qarata shunday degan edi: «O‘qituvchi o‘zini butun kuch-quvvatini, imkonini, o‘zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o‘z o‘quvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o‘rtoqlar, agar siz o‘zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o‘zingizda bunda o‘z bilimlaringizni, o‘z kuchingizni, o‘z quvvatingizni yana va yana to‘ldirib bormasangiz, u holda o‘zingizda hech narsa qolmaydiku, axir. O‘qituvchi, bir tomondan, o‘zida borini beradi, ikkinchi tomondan, xuddi gubka kabi o‘ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi».

Ilg‘or o‘qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o‘qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o‘z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o‘z shaxsiy tajribalarini umumiylashtirishga harakat qiladi.

Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi *fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro'si, mavqeyi* ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo'ladi. O'qituvchi o'zida kuzatuvchanlikni, g'amxorlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina, o'qituvchi bo'ladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb haqqoniy aytganlar.

Iroda va xarakterni shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalash. O'qituvchilik faoliyatida o'qituvchi xarakteri muhim ahamiyat kasb *etadi. Bunda iroda, his-tuyg'ularini boshqarish katta ahamiyat* kasb etadi. O'zini-o'zi tarbiyalash ma'lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda: o'zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o'ziga buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o'z qoidasiga ega bo 'lish.

L.N.Tolstoy o'z-o'zini tarbiyalashda quyidagi qoidalarga amal qilar edi: Nima belgilasa hech narsaga qaramay tezkorlik bilan bajarar. Nimani bajarsa, yaxshi bajar. Doimo aqliy, o'z imkoniyati doirasi asosida faoliyat ko'rsatishga harakat qilardi».

V.Shekspir shunday yozgan edi. «Uyqu ona tabiatining g'aroyib, *shirin taomidir tanovul qilish me'yorini bilish lozim».*

U.G.Shuls faraziga ko'ra o'z-o'zini tarbiyalash programmasi (dasturi):

Bir kunlik yoki haftalik ish rejasini tuzish, uni bajarish;

Umidsizlikka tushmaslik, kamchiliklarni bartaraf etish;

O'ziga, muvaffaqiyatga ishonish;

«Men o'zimga ishonaman», «Men buni qilishni xohlayman», «Men qila olaman» kabi o'z-o'zini ishontirish formulasini qo'llash.

O'zini tarbiyalash:

Jiddiy, o'ylab ish ko'rish;

Ma'ruza, seminar darslarida e'tiborsizlikka berilmaslik;

«Men diqqat bilan eshityapman», «Mening diqqat-e'tiborimda» formulasini qo'llash.

O'z-o'ziga buyruq berish. «Pedagog *fikrini kuzatib borish lozim».*

O'ziga-o'zi hisobot berish, kun yoki hafta yakunini qilish.

O'zini tutish: (tashqi ko'rinish mdaniyati).

a) to'g'ri.

b) to'g'ri, erkin o'tirish.

v) yig'ilgan, ishchan holat.

Pedagogik muloqot madaniyati.

Muloqot jarayonida bosiq, samimiylik kayfiyatida bo'lish.

a) suhbatdoshni eshitish madaniyati.

b) savollar bera olish.

v) suhbatdoshni fikrini eshitish va tahlil qila olish.

g) boshqalar bilan ilk munosabatni o'rnatish malakasi.

d) boshqalarni tushunish malakasi.

e) vaziyat jarayonida anglay bilish malakasi.

Ko'z orqali aloqa o'rnatishga harakat qilish.

a) siz auditoriyaga qarab dars olib boryapsizmi?

b) eshituvchilarning holatini, ta'sirchanligini anglash, ko'ra bilish.

O'z muloqoti, hikoyasi bilan qiziqtira olishning xususiyatlari:

a) Auditoriyada erkin ma'ruza o'qish yoki ta'lim mazmunini konspekt yordamisiz bayon eta olish xususiyati.

b) tashqi ko'rinishining samimiy muloqotga hozirligini ifodalay olish holati.

v) O'zining munosabatini voqelikda aks ettirish.

Xulosa, ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida ta'lim-tarbiya, uning mazmunini, maqsad vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuzim ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy taraqqiyot o'z yo'nalishini belgilashda yosh avlodga nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish lozim? Kimlar o'qitishi kerak? Kabi savollar jamiyat oldidagi ko'ndalang qo'yiladigan savollarga javob izlab kelingan. Mazkur savollarga javob topish, ya'ni ta'limni yangilash, uning tizimini, mazmunini qayta ko'rish, yangi holatga yo'naltirish Respublikamizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Albatta, bu yo'nalish keng qamrovli, bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiriluvchi jarayondir.

Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, axloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi.

Yoshlarni talaba bo'lganiga qadar ota-onasi, maktab o'qituvchilari, qarindosh-urug'i, mahalla-ko'y nazorat qilib borsa, talaba bo'lgandan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o'zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarini egallagan holda o'zini-o'zi tarbiyalay boshlashi kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pedagogik mahoratning shakllanishida pedagogik refleksiyaning o'rni qanday?
2. Pedagogik mahoratni shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalash o'rni qanday?
3. Pedagogik tashxislash qanday funksiyalarni bajaridi?

46-MAVZU. PEDAGOGIK TAJRIBANI TO'PLASH TIZIMI

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallarni to'plash. Ta'lim tajribasi – o'qituvchi tomonidan o'quv ishlari jarayonida olingan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning yig'indisi. O'qituvchi pedagogik mahorati shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu pedagogika fanining rivojlanish manbai.

Maktab amaliyotida oliy ta'limni o'qitish jarayonida olingan bilimlar faqat moslashuvchan va chuqurlashadi va o'qituvchining pedagogik harakatlarini optimallashtiradi. Jarayonda o'quv faoliyati, tajriba psixologik va pedagogik fanlarga tayanib, yangilanadi. U pedagogik mahoratni rivojlantirish va boshqa odamlarning tajribasini o'rganishni faollashtiradi, uni o'ziga xosligi bilan taqqoslaydi.

Ilg'or pedagogik tajribaning o'ziga xos xususiyati uning yechimiga e'tibor berishdir. Dolzarb masalalar maktabning o'quv jarayonida paydo bo'ladi.

Uning muhim ko'rsatkichi barqarorlikdir. Bu shuni anglatadiki, ta'lim va ta'lim samaradorligini vaqt sinovidan o'tkazish kerak. Ilg'or pedagogik tajribaning istiqboli shuni ko'rsatadiki, u "ishlaydi" amaliyot boshqa o'qituvchilar, uni tarqatish va amalda qo'llash mumkin.

O'qituvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yaxshi amaliyotlar innovatsion yoki namunali bo'lishi mumkin. Innovatsion pedagogik tajriba o'ziga xoslik, yangilik bilan ajralib turadi. Innovatsion o'qituvchining tajribasi tajriba deb ataladi va tadqiqot deb ataladi. Agar biz o'qitish va o'qitishning shakllari, usullari, vositalarini ulardan ijodiy foydalanish asosida takomillashtirish haqida gapiradigan bo'lsak, unda bunday tajriba ratsionalizatsiya hisoblanadi. Namunaviy pedagogik tajriba – bu pedagogika fanining yutuqlaridan, olimlar, metodistlarning metodik tavsiyalaridan, boshqa o'qituvchilarning tajribasidan mohirona foydalanadigan o'qituvchining ongli faoliyati va shu asosda uning

tarbiyaviy ishi boshqalar uchun namuna. Maktab ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarni izlashni rag'batlantirishi kerak.

Ilg'or pedagogikani o'rganish, sintez qilish va tarqatish. Ilg'or pedagogik tajriba maktab ichidagi nazorat jarayonida pedagogik o'qishlar, konferensiyalar va boshqalarda qayd etiladi. U ommaviy amaliyotning mulkiga aylanishi uchun uni quyidagi ish bosqichlarini nazarda tutgan holda o'rganish va umumlashtirish kerak: a) pedagogik muammoni va o'rganish obyektini aniqlash. Ushbu bosqichda tajriba mavzusini shakllantirish, uning dolzarbligini asoslash, uni o'rganish uchun guruh tuzish, b) tajribani oldindan o'rganish. Ushbu bosqich tajriba obyekti bilan oldindan tanishishni o'z ichiga oladi, mashg'ulotlarda qatnashish, o'qituvchilar bilan suhbatlar va maktab hujjatlarini o'rganish. Shu asosda g'oyalar aniqlanadi. Mukammallik, uni o'rganish usullarini aniqlang, c) nazariy tayyorgarlik. Eng yaxshi amaliyotlarni o'rganadigan odamlar ushbu muammo bo'yicha mavjud nazariy va uslubiy qoidalarni bilishlari kerak, bu esa tajribaning yangilik darajasini aniqlaydi. Pedagogik sharoitlarning samaradorligini ta'minlash d) tajribani o'rganish. Ushbu bosqichda empirik materiallar to'planadi, o'quv jarayonining individual aloqalari o'rganiladi va nazorat imtihonlari (bo'limlar) tashkil etiladi. To'plangan materiallar odatiy va tasodifiy deb tasniflanadi, chunki u tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan. Ushbu ish argumentatsiya va dastlabki nazariy pozitsiyalarni nazariy tayyorlash bosqichida shakllantirilgan empirik materiallar bilan mustahkamlashdan iborat. Tajribani tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonida aynan ushbu qoidalar uning asosiy g'oyalarini aniqlash, o'rganilayotgan muammoni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish va tajriba istiqbollarini baholash uchun asos bo'ladi.

Eng yaxshi tajribalarni tarjima qilish shakllari va usullari: ochiq darslar va boshqa tadbirlar; o'rganilgan natijalarni og'zaki ravishda yetkazish, o'qituvchilarning maktabda, xalq ta'limi vakillarining yig'ilishlarida, kurslarida, seminarlarida chiqishlarida ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; o'rganilgan natijalar to'g'risida yozma hisobotlarni tayyorlash, ilg'or pedagogik tajribalarni metodik xatlar, metodik ishlanmalar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, risolalar, monografiyalar, anjuman va seminarlarning materiallari to'plamlari ko'rinishida umumlashtirish; ilg'or pedagogik tajribani namoyishkorona ommalashtirish - ko'rgazmalar, metodikada maxsus stendlarni tashkil etish va boshqalar. Ilg'or pedagogik tajribaning samaradorligi pedagogika fani va maktab amaliyotining organik o'zaro ta'sirini ta'minlaydi, o'qituvchilarni

o'qitish va tarbiyalashning yangi usullarini izlashda baxtsiz hodisalar va xatolar haqida ogohlantiradi.

Innovatsion o'qituvchilar tajribasida ularning pedagogik faoliyatini ajratib turadigan va o'ziga xosligini ochib beradigan individual xususiyatlar aniq kuzatiladi. Ularning ishlarida juda ko'p va umumiy belgilar. Asosan, ular hamkorlik pedagogikasining quyidagi g'oyalariga ega: tarbiyaviy maqsadga ega bo'lgan jamoada xilma-xil munosabatlarni qo'llash; ishning shakllari va usullarini bolalar o'zaro munosabatda bo'ladigan tarzda o'ylash; talabalarga o'z faoliyati va munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini singdirish; o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonida, majburlashsiz o'qitishdagi birligi; o'quvchiga optimistik qarash, uning talabada obyektiv o'zini o'zi anglash qobiliyatini va atrofdagi voqelikni idrok etish qobiliyati.

Pedagogik tajribaning samaradorligini va uni baholash darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonga ega bo'lish kerak: obyektning xususiyatlari, ma'lum bir atributni ma`lum obyektda aks ettirish darajasini aniqlash uchun o'lchov va mos yozuvlar nuqtasi (biror narsani o'lchash uchun sizda shunday bo'lishi kerak). Ushbu tarkibiy qismlarsiz ishonchli mezon mavjud emas va shuning uchun pedagogik tajribani obyektiv baholash mumkin emas.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra, ikkita guruh mezonini ajratish mumkin: birinchi guruh – bu umumiy pedagogik mezonlarga tegishli mezonlar (masalan, muammoli o'qitish mezonlari), ikkinchisi — eng yaxshi amaliyotga tegishli bo'lgan umumiy pedagogik mezonlarning zarralari sifatida (masalan, muammoli o'qitish mezonlari nisbatan boshqacha). faoliyat turlari.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishda pedagogik ijodkorlik va shaxsiy ilmiy pedagogik izlanishi uchun ham kasbiy, ham insoniy jihatlarni belgilovchi muhim xususiyatdir. Chunki barkamollikka erishmagan komil insonni tarbiyalay olmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'lim-tarbiya jarayonning bosh tadqiq obyekti sifatida o'qituvchi shaxsi muhim o'rin egallamoqda. Asosiy diqqat-e'tibor o'qituvchining individual tavsifi bilan pedagogik faoliyatning samaradorligi o'rtasidagi bog'lanishlarga qaratmoqda.

O'quvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda nafaqat o'quvchilarga bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirish, balki talabalarga o'z mehnatiga qanchalik ishonch uyg'ota bilishi ham tushuniladi. O'quvchiga bo'lgan munosabatning afzalligi bizningcha, quyidagi omil bilan shartlanadi. 1-dan, o'quvchi bola bilimini aniqlaydi, baho qo'yadi.

Xolis baho o'quvchining rivojlanishi uchun zaruriy sharoitdir Baho o'quvchining bilim darajasini aks ettiradi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida bog'lovchilik ahamiyatiga ega.

Pedagogik ma'lumotlarni ajratish ko'nikmasi va ularni to'g'ri tanlay bilish. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biron muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchi faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik mohiyatning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi. Pedagogik ijodkorlik manbai – bu pedagogik tajribadir.

Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yangi, samarali yo'l va vositalarini qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarini ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi,fan yutuqlarini o'qituvchilarga yetkaza olish va nihoyat o'qituvchilarni ijodiy fikrlay olishga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi.

Ilg'or pedagogik tajribalardan foydalangan holda ilmiy izlanish bosqichlari. Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimidan va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanini rivojlantirishda boshlang'ich omil hisoblanadi. Pedagogik tajriba to'plash tizimi:

- Maqsadni belgilash (nimani o'rganaman).
- Tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.

- Yutuqlarni aniqlash.
- Ma'lumot to'plash.
- Maktab o'quvchilarini ilg'or tajribalarni o'rganishning taxminiy tarkibi.

Nutq texnikasi va madaniyati.

A) Darsda bilim berishda o'quvchilar bilan aloqaga kirishishda o'qituvchi nutqining ishlanishini baholash.

B) Nutq texnikasini egallaganlik darajasi.

D) O'qituvchi nutqining ifodaliligi va his-tuyg'uga boyligi.

Professional pedagogik muloqoti.

A) Turli holatlarda turli va kutilmagan vaziyatlarda ham muloqatga kirisha olishi, muomala qila olishi.

B) Dars jarayonida o'z kuchi va tayyorgarligini hisobga ola bilish, o'zining ish uslubini va unga qo'yilgan hisoblarni bajara olish;

D) Pedagogik nazorat va uni qo'llashni bila olish.

Professional pedagogik ta'sir etishi.

A) Shaxsga ta'sir etishda tezlik bilan kerak bo'lgan uslublarni tanlay olishi va o'z vaqtida ishlata bilishi;

B) O'rganish bo'lib qolgan ish tartibidan ketishni bilish;

D) Pedagogik ta'sir ko'rsatishda vaziyatlarni yechishda kerakli bo'lgan mimika, pontemimika harakatlarni tanlay olish va o'z vaqtida ishlata olish.

Konstruktiv qobiliyat.

A) O'quvchilar qobiliyati qiziqishi bilim darajasini hisobga olish, didaktik materiallaridan ustalik bilan foydalanish;

B) O'quvchilarni va sinfni eng yuqori mukammal darajaga erishish uchun kerakli usul va vositalarni tanlay olish;

D) O'quvchilarning va kollektivning bilimdonligi va tarbiyaviy rivojlanganlik darajasini aniqlay olish;

E) O'quvchilarning tashqi qiyofasi orqali ularni darsga bo'lgan munosabatlarini anglay olishi va kerakli bo'lgan vositalarni tanlay olish qobiliyatlari.

O'qitishda ustunlik belgilari quyidagilar:

1. Asosiy parametrlar bo'yicha o'quv jarayoni natijalarining yuqori miqdoriy va asosan sifat ko'rsatkichlari: maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi; bolalar ta'limi (bilimlarning to'liqligi va mustahkamligi, bilimlar tizimi va ularni umumlashtirish o'lchovi, bilimlarni yangi vaziyatga o'tkazish qobiliyati, tegishli ko'nikmalar

mavjudligi); bilim faoliyati, qiziquvchanlik, bilimlarni egallashda mustaqillikka intilish; ta'lim darajasi.

2. Pedagogik tajribaning optimalligi (o'qituvchilar va bolalar uchun vaqt va kuchni tejab sarflamagan holda tarbiyaviy ishda eng yaxshi natijalarga erishish va bundan tashqari, ushbu tajriba boshqa teng darajada muhim o'quv va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda to'siq bo'lmasligi uchun).

3. Tirishqoqlik, tajribaning barqarorligi, uning uzoq muddatli ishlashi. Qisqa vaqt ichida mavjud bo'lgan va vaqt o'tishi bilan takrorlanmagan tarbiyaviy ishdagi o'qituvchining muhim yutuqlari ham eng yaxshi amaliyotga bog'lanish qiyin.

4. Bitta o'qituvchining tajribasini boshqalar tomonidan takrorlash va ijodiy foydalanish imkoniyati, ushbu tajribani ommaviy tajribaga yetkazish.

5. Tajriba istiqboli. Eng yaxshi amaliyotlar har doim kelajakka ega, uni rivojlantirish istiqbollari aniq.

6. Tajribaning ilmiy asosliligi. Eng yaxshi amaliyotlar o'qituvchining ijodiy nazariy izlanishlari yoki urinishlar va xatolar jarayonida topishi mumkin. Ammo har holda, bunday tajriba doimo ilmiy asosga ega bo'ladi. Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishning vazifalaridan biri unga ilmiy izoh berishdir.

Ushbu belgilar mavjud bo'lganda, bu tajribani eng yaxshi amaliyot deb hisoblash kerak, ammo keyin siz har bir belgi qanday paydo bo'lishini o'lchashingiz kerak.

Ushbu bosqichdagi odatiy xatolar:

1. Ba'zi o'qituvchilar pedagogik muammoni pedagogik vazifadan ajratib turmaydi. Shunday qilib, yuqori natijaga erishmoqchi bo'lgan o'qituvchi o'z ishida qo'shimcha darslar olib boradi, ularning davomiyligini oshiradi. Bu ish bir zumda yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin (ya'ni hozirgi pedagogik vazifa hal qilinadi), ammo eng muhimi o'tkazib yuborilgan. Pedagogik muammo: bolalarning ruhiy salomatligidir.

2. O'qituvchilarning yangisi - bu mukammallik kafolati emasligi to'g'risida tushunchaning yo'qligi. Ba'zi shakllar, usullar va usullardan ommaviy foydalanish ham mukammallikning ishonchsiz ko'rsatkichidir. Ba'zida soxta innovatsion va soxta pedagogik metodlar eng yaxshi amaliyot sifatida beriladi. Masalan, o'qituvchini texnik vositalar bilan almashtirishga urinish, agar bunday almashtirish asosli bo'lmasa; har qanday holatda ham tarbiyaviy ishda yuqori natijalarga erishishga intilish; bolalarga ta'sir qilishning diktatorlik uslublari; haqiqiy muvaffaqiyat

ko'rsatkichlarini qayta baholash va boshqalar. Boshqa o'qituvchilar qo'shimcha darslar orqali yuqori darajadagi bilimlarga erishmoqdalar. Shu bilan birga, ustozning qadr-qimmati kabi yaxlitligini ta'kidlab, bu faqat mahoratning asosiy belgisi emasligini va bundan tashqari, ilg'or tajriba emasligini anglash mumkin emas.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ularni qo'llash metodlari. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishni boshlagan holda, rahbar birinchi navbatda, umumlashtiriladigan tarkibiy qismlarni aniqlashi kerak.

Pedagogik faoliyatning yaxlit tizimi (eng uzoq vaqtni, ehtimol bir yildan ko'proq vaqtni talab qiladi);

Har qanday muammo bo'yicha o'qituvchining ishlash tizimi (yil davomida o'rganilishi mumkin);

Bitta samarali texnikadan foydalanish (o'qish vaqtini o'qituvchi belgilaydi);

Yangi yoki o'tmishdan olingan, ammo moslashtirilgan tajribani o'zlashtirish tajribasi zamonaviy sharoitlar texnologiyalar (masalan, dizayn usuli).

Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan ijobiy natija beradigan va "Hech qanday zarar yetkazmaslik" talabini qondiradigan muayyan tizimda ishlatiladigan har qanday tarkibiy qismlar o'rganilishi mumkin: usul, texnologiya, alohida texnika, usul, vosita va boshqalar.

Pedagogik tajribani umumlashtirish. Uning tavsifi, darajasi (amaliy, ilmiy, uslubiy). Ta'rif eng ko'p uchraydigan xatolar bo'lgan tajribani umumlashtirishda eng qiyin va vaqt talab etadigan bosqichlardan biridir. O'qituvchining tavsifi yangi emas, shuning uchun uslubiy adabiyotlarda keng namoyish etilgan juda mashhur tajribaning tavsifi. Bunday tajriba ushbu jamoa uchun rivojlangan, ammo uni boshqa shakllarda umumlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy xususiyatdagi fikrlar va xulosalar taqdimoti, adabiyotlardagi nazariy hisob-kitoblardan foydalanish. Bunday materialni xabar, metodik adabiyotlar izohi deb atash mumkin va o'qituvchilarning ta'lim ufqlarini kengaytirish uchun foydalanish mumkin. Yetakchi g'oyalar tizimi har doim ham oshkor etilmaydi, metodologiyaning eng muhim tarkibiy qismlari tajriba mantig'ini, unda o'qituvchining harakatlarining ketma-ketligini ochib beradi. Ta'rifdagi yuzakilik, ish tahlilini alohida misollar va rasmlar bilan almashtirish. Pedagogik tajribani tavsiflashga kirish quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

Maqsadlilik: ushbu tajribani boshqa o'qituvchilar tomonidan qayta ishlab chiqish qobiliyati. Aniqlik: tajriba muallifining pedagogik faoliyati

namunalari asosida tajriba tarkibiy qismlarini (usul, usul, usul va boshqalar) qisqacha va shu bilan birga qisqacha ochib berish.Ilmiy: ta'riflangan tarkibiy qismlarning pedagogika nazariyasida ularning ta'riflariga muvofiqligi. Yaxlitlik, mantiq: tarkibiy qismlarning ketma-ket tavsifi, ularning eng yaxshi amaliyotlar uchun ahamiyati aniq bog'liqligi.

Tajribani umumlashtirish uchun hujjat janri va tajribani tarqatish shakli bog'liq *umumlashtirish darajasi* bu sodir bo'ladi *amaliy, uslubiy va ilmiy.*

Amaliy – umumlashtirilish darajasi (eng ko'p ishlatiladigan) quyidagilarni o'z ichiga oladi: ish uslublari va ish uslublari yoki individual texnik va usullarini tavsiflash va (yoki) namoyish qilish, ish faoliyatini namoyish qilish, mehnat tizimini namoyish qilish.

Uslubiy – (eng samarali) umumlashtirish darajasi ilmiy va nazariy asoslashdan iborat bo'lib, tajribaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tavsiflaydigan, ish samaradorligini tahlil qiladigan, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlaydigan tajribaning ilg'or pedagogik g'oyalarini ta'kidlaydi.

Ilmiy – umumlashtirishni o'z-o'zini anglash uchun motivatsiyaga hissa qo'shadigan bo'limlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ish tajribasini ilmiy va nazariy asoslash; tajribaning amaliy yangiligi; tajribaning murakkabligi; nazariya va amaliyotni rivojlantirish uchun tajribaning ahamiyati.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda qanday metodlarning ahamiyati katta deb o'ylaysiz?
2. Ilg'or pedagogik tajribaning samaradorligida rahbar faoliyatining o'rni qanday ijobiy xarakterga ega?
3. Pedagogik tajribani umumlashtirishning tavsifi haqida gapiring.
4. Ilg'or pedagogik tajribaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil oktabr, 3-bet.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз!. Т. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

7. Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, – T.: O'zbekiston, 1996, – 320-bet.

8. Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" "Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори" китобида. – Т.: Шарқ, 1997, – Б. 31-61.

9. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисидаги" Қонуни. ЎРҚ № 637. - Т., 23.09.2020. -Б.40.

10. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик махорат. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2006.

11. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012. Routledge.

12. Hashitnov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

13. Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Хасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

14. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

15. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы жэне практикасы. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

16. Махмудов Н.М. Ўкитувчи нутқ маданияти. Дарслик. –

Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

17. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. — T.: TDPU, 2015.

18. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.

19. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.

20. Очилов М., Очилова Н. Ўкитувчи одоби. Сайланма. – Т.: Ўкитувчи, 1997.

21. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.

22. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

23. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – М.: Туманит, изд. центр ВЛАДОС, 2006.

24. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.

25. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.

26. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Т.: ТГПУ, 2014.

27. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU, 2012.

28. Халиков А.А. Педагогик махорат. Дарслик. - Тошкент, Иктисод молия, 2012.

29. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: SANO-STANDART, 2017.

30. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

31. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебник. – Москва: Академия, 2012.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

32. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. –T.: Fan, 1975. – 71-72-betlar.

33. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. Казань: Центр информационных технологий, 2003. - 608 с.

34. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: КГУ, 1996.

35. Деркач А.А. Акмеология. – М.: РАГС, 2004.

36. Антология педагогической мысли Узбекистана. – М.: Просвещение, 1986. – с.86.

37. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: O'qituvchi, 1994. – 105-129-betlar.

38. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 12-tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 69-bet.

39. Aliqulov X., Omonboyeva R. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1981. – 36-bet.

40. Баранов С.П. Принципы обучения. –М., 1975. – с. 89.

41. Bobur. Boburnoma. –T.: «Fan», 1960, 82-bet.

42. Есипов Б.П. Основы дидактики. – М.: Просв., 1967. – 207 с.

43. Hadis. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). I, II, III, IV jild. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991-1996 (keyingi misollar ham shu manbalardan olindi).

44. Hasanov S. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 79-63-betlar.

45. Hartlej I. Stratedies from Programmed Instrukctionanal Technologj. – London, 2006, – 179 p.

46. Heckhausen H. Motivation und Handeln. – Berlin: Springer, 2011. – P-244

47. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 234-bet.

48. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1966. – 165-bet.

49. Ibn Sino. Falsafiy qissalar. –T.: O'qituvchi, 1963. – 486-bet.

50. Ибн Сино. Канон врачебной науки. Книга I. – Т.: Медицина, 1981. – с.17

51. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: Fan va texnologiya, 2013.

52. Kagan,S. Cooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA: Kagan Publishing, 1994.

53. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003.

54. Лордкипанидзе Д.О. Принципы, организящии и методы обучения. – Тибилиси, 1955. 53 с.

55. Лехачёв Б.Т. Педагогикн курс лекции. – М.: Юряйт, 2000. –

91 c.

56. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976. – 112-bet.

57. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.

58. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. –T.: Kamalak, 1991. – 128-136-betlar.

59. Мунаввар кори. («Тараққиёт» газстаси, 1906 йил, 14 июнь, №1.)

60. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. - М.: Дело, 1994.

61. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Т.: Истиклол, 2003.

62. Niyozov G'., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.

63. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: O'zbekiston, 1996. – 550-bet.

64. Огородников И.Т., Шимбирев П.П. Педагогика. – М.: Уч. Пед., 1950. – 108 с.

65. Онищук В.А. Урок в современной школе. – М.: Просвещение, 1987. – 198 с.

66. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.

67. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С.Рапацевич. – Минск: Современное слово, 2005.

68. Qadimiy hikmatlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1987. – 416-bet.

69. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. – 5-532-betlar (Keyingi misollar ham shu manbadan olindi).

70. Rashidov X., Xabib X., Eldasheva E., Zakirov A. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2007. – 93-98, 109-112-b.

71. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996.

72. Савин Н.В. Педагогика Тошкент «Ўқитувчи» 1975.

73. Салаева М.С., Атаева Н, Расулова Ф., Хасанов С. Умумий педагогика. (1-қисм) Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012. – 798 б.

74. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-методологик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. док. ... дисс. - Нукус, 2019. - 289 б.

75. Salayeva M.S., Atayeva N., Xasanov S. Umumiy pedagogika (2-qism). O'quv qo'llanma. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2015. – 874 b.

76. Словарь ин. слов. – М., 1955. – 563 с.

77. Скаткин М.Н. Дидактика средней школы 1. – М.: Просв., 1982. – 117 с.

78. Сорокин М.А. ДИДАКТИКА. – М., 1975. – 87 с.

79. Xasanboev J, To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

80. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –T.: Yulduzcha, 1990. – 45-b.

81. Zunnunov A, Mahkamov U. Didaktika. O'quv qo'llanma. – T.: "Sharq" NMAKBT, 2006. – 72-23-betlar.

82. O'rta Osiyoda fikr taraqqiyoti. –T., 1996. – 91-bet.

83. Чернявская А.П. Педагогическое мастерство: Учеб. пособие. – Ярославль: ЯГПУ, 1997.

84. www.tdpu.uz

85. www.pedagog.uz

86. www.Ziyonet.uz

87. www.edu.uz

88. tdpu-INTERNET. Ped

MUNDARIJA

KIRISH..... **3**

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari..... 5

2-mavzu: Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.... 16

3-mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.... 32

II BOB. TA'LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)

4-mavzu: Yaxlit pedagogik jarayon..... 39

5-mavzu: Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida..... 46

6-mavzu: Ta'lim mazmuni..... 72

7-mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari..... 90

8-mavzu: Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari..... 121

9-mavzu: STEAM ta'lim..... 136

10-mavzu: Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish..... 143

11-mavzu: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish..... 152

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

12-mavzu: Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari..... 161

13-mavzu: Jamoa tarbiya obyekti va subyekti sifatida..... 169

14-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari..... 177

15-mavzu: O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya..... 190

16-mavzu: Fuqarolik tarbiyasi..... 198

17-mavzu: Mafkuraviy tarbiya..... 210

18-mavzu: Ma'naviy-axloqiy tarbiya..... 221

19-mavzu: O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi 231

20-mavzu: O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish..... 243

IV BOB.TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

21-mavzu: Ta'lim muassasasi menejmenti..... 250

22-mavzu: Xalqaro baholash dasturlari (for. THE IA, PISA, PIRLS, TIMES, ISILS)..... 269

V.BOB. KORREKSION PEDAGOGIKA

23-mavzu: Korreksion pedagogika asoslari..... 280
24-mavzu: Inklyuziv ta'lim (imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish) metodlari..... 292

VI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

25-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida ibtidoiy jamoada tarbiya. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar..... 301
26-mavzu: VII asrdan xiv asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar..... 314
27-mavzu: Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji..... 334
28-mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji..... 355
29-mavzu: XVII asrdan XIX asrning birinchi yarimigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji..... 376
30-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar..... 385
31-mavzu: 1924-1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji..... 412
32-mavzu: Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji..... 424
33-mavzu: Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Y.A. Komenskiyning pedagogik nazaryasi..... 439
34-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D. Ushinskiyning pedagogik merosi 474
35-mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji..... 485
36-mavzu: Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari..... 499

VI BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

37-mavzu: Pedagogik mahoratining asosiy komponentlari..... 506
38-mavzu: 38-mavzu: O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat 513
39-mavzu: Kommunikativ malakalar va ta'sir ko'rsatish..... 524
40-mavzu: O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi..... 529

41-mavzu: Pedagogik takt va pedagogik etika..... 538
42-mavzu: Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi..... 549
43-mavzu. Nutq texnikasi va madaniyati..... 555
44-mavzu: O'qituvchining mehnatini ilmiy tashkil etish..... 562
45-mavzu: O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash..... 568
46-mavzu: Pedagogik tajribani to'plash tizimi..... 576
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 584

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
INV. №130 000
2022
AXBOROT-RESURS MARKAZI

M.S. SALAYEVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun

DARSLIK

Muharrir: X. Saidmuratova
Sahifalovchi: O. Umarov

"Nodirabegim" nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.
Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2021.
"Times New Roman" garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog'i 34,3. Adadi 100 nusxa.
100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

OOO "AKTIV PRINT" bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.

ISBN 978-9943-7805-0-7